



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/7

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 7/2023
IYUL

<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 20.07.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Axmadov O. Sh. Buxoro mang'it hukumdorlarining talim - tarbiyadagi ibрати	7
	Амонова Ф. С. Бухоро амирлигида олтин қазиб олиш тарихидан	13
	Ахматов А. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси бухоро бўлими котиблари (архив материаллари асосида, биринчи мақола)	18
	Sodiqov F. F. O'zbekiston ssrda mahalliy boshqaruv idoralarining shakllanishi (1925-1926-yillar)	22
	Teshayev A. T. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish	28
	Ражабов Қ. Ўзбекистондаги беназир сиймо (Атоқли давлат ва жамоат арбоби Назир Ражабов сиёсий фаолиятига чизгилар)	32
	Nosirov Sh. O'. Professor Po'lat Soliyev ijodida Buxoro tarixi masalalari	39
	Sharopov D. R. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Tolibon hukumatining tutgan o'rni	43
	Zinatdinov N. K. Qoraqalpog'istonda 1929-yilgi Taxtak o'pir voqeasi va undan keyin musulmon ulamolarning qatag'onga uchrashi	47
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Akramova S.R. Zamonaviy tilshunoslikda konnotativ komponentlar va ularning pragmatik xususiyatlari	52
	Allamuratova X. O'zbek tilida apotropeik semantikali antroponimlar tasnifi	58
	Atamurodova G. Sh. Boshlang'ich sinflarda unli tovushlar talaffuzini o'rgatish usullari	64
Ашуров З. Интерактивные методы с использованием информационных технологий в обучении языкам	68	
Ашурова С. Э. Роль использование современных информационных технологий в процессе обучения иностранному языку	71	
Jakbarova M. I. O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish usullari	76	
Jumayeva U. A., Hakimbaeva O. K. Maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda qo'shiqlar va multimedia vositalaridan foydalanish	80	
Nosirova M. O. Dunyoning rus va o'zbek maqol manzarasida ijtimoiy qadriyatlarining reprezentatsiyasi	86	
Nurjonova Y. Sh. Xalq og'zaki ijodi namunalarini janr xususiyatlariga ko'ra o'qitish	91	

Qurbonova M. A. Affiksatsiya usulida yasalgan okkazonalizmlar	96
Rahimov O. O. Turli tizim tillar maqollarida dunyoning paremiologik manzarasi	101
Rasulova A. M., Shodiyeva A. A. Rasmiy nutqda presuppozitsiyaning ifodalanishi	107
Raxmanov U. Rasmiy-idoraviy uslubda matnlar yaratish ko'nikmasini rivojlantirish mazmuni	112
Tuxtayev S. T. Xitoy klassik adabiyotining rivojlanish bosqichlari	119
Umarova N. Z. O'zbek tili mashg'ulotlaridan mashq turlaridan samarali foydalanish	124
Uteuliyeva M. I. Ona tili darslarini tasviriy san'at va tarix fanlariga bog'lab o'qitish orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantirish usullari	132
Shamsiyev Sh. I. O'zbek folklorshunosligi, tarixi va uning adabiyotdagi o'rni	136
Sharipova M. S. O'zbek va koreys tillarining paremiologik birliklari	141
Shodieva Sh. I. Tilshunoslikda kognitiv yondashuv	147
Cho'liyeva N. A. Hikoya poetikasida metamorfoza, makoniy xoslik va badiiy zamon	151
Choriyeva Z.B. O'zbek va ingliz topishmoqlarining badiiy va kompozitsion xususiyatlari	156
Xalilov F. V. Talabalar mustaqil ishlarni tashkil etishda zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanish	163
Xasanov Z. B. Futbol muxlislari slengi shakllanishining nazariy asoslari	170
Khusanov E. D., Madjidova R. U. Ingliz va o'zbek tillarida hududiy milliy konseptlarning dialektizmlarda aks etilishi	176
Ziyayeva X. I. O'zga tilli guruhlarda izchil rus nutqida keys shakllaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari	181
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Abdumadjidova D. R. Sportchilarning yuqori natijalarga erishishda psixologik tayyorgarlikning ahamiyati	186
Abdusamatov J. Q. Pedagogning metodik tayyorgarligi va ijodkorligi innovatsion klasterni samarali rejalashtirishning omili sifatida	191
Asrarxanova E. A. Autizm sindromli bolalarning ijtimoiy hayotdagi o'rni	194
Арифджанова М. А. Психологические особенности синдрома выгорания	201
Butayeva U. A. Rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda ijtimoiy intellekt va qadriyatlarining o'rni	208
Быстрова Ю. А., Лапп Е. А. Психологическое сопровождение спортсменов с особыми образовательными потребностями во время участия на соревнованиях по спортивным бальным танцам	218
Elov Z. S. Deviant xulq-atvorli o'smirlar shaxsida ruhiy-jinsiy buzilishlar ijtimoiy psixologik muammo sifatida	223
Ganjiev F. F. Socio-psychological determinants of the state of aggressiveness and autoaggressiveness in adolescents	228
Avlayev O.U. Turli xil kasb egalarining kamolotiga sotsial intellektning ta'sir xususiyatlari	235
Ikramova Sh. B. Harbiy xizmatchilar oilasida ota va bola munosabatlarining xususiyatlari	242
Jabborov X. X. Yoshlar milliy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy-psixologik omillari	246



Madgafurova D. O., Yoqubjonov Z. O'smir yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari	253
Mannabova E'. B. Hayotiy bardoshlilik — psixologik fenomen sifatida	259
Mirzayeva S. R. Oilaviy munosabatlarni ijtimoiy psixologik omillari	263
Насимджанова М.М. Роль школы в развитии процесса инкультурации личности	267
Нурымбетова Э. Ж. Интеллектуальные особенности студентов-психологов	271
Nishanov S.Y. Sudda hukm chiqarish va uning psixologik jihatlari	277
Norbosheva M. Bola shaxsi va xulq-atvori shakllanishida muloqotning ahamiyati	281
Nurmatov N. N. Yosh rahbarlarda qaror qabul qilishning ijtimoiy - psixologik qirralari	286
Omonov Sh. I. Iqtisodiy psixologiya tarixi va uni o'rganishning hozirgi zamon muammolari	290
Пак В. В. Перфекционизм как черта личности влияющая на достижение цели	294
Turaqulov L. T. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvida axloqiy tarbiyaning o'rni.	301
Ulug'ova Sh. M. Zamonaviy tadbirkorlar xulqining moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar ta'siri	305
Xasanova Sh. J. Inson psixik taraqqiyoti determinatsiyasi	310
Yuldashova D. Sh. O'quv motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik, psixologik xususiyatlari	313
Yuldosheva G. O'. Iqtisodiy xulq-atvorning moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonidagi o'rni va o'ziga xos jihatlari.	316
Ядгарова Г.Т Психологические основы образовательного процесса	320
Конратбаева А. Б. Агрессив хулқ-атвор борасида шарқ мутафаккирларининг карашлари	323
Шониязова И. М. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилархулқида аффилиация мотивациясининг тутган ўрни	329
Jalilov H. N. Pedagogical-psychological characteristics of the impact of work-life balance on the turnover of professor-teachers of higher education institutions	338
Shamshetova A. K. Orolbuyi mintaqasi aholisiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini takomillashtirish	342
Xalilova D. A. Yoshlarning otalikga tayyorligini psixologik muammolari	347
Мишиева М. Г. Влияние способностей успешному обучению студентов иностранному языку	352
Jo'rayeva D. Y. Biologiya o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishdagi muammoning yechimi- bulutli texnologiyalardan foydalanish	361
Яхёева У. Ш. Математика дарслари орқали бошланғич синф ўқувчилари креатив тафаккурини шакллантиришнинг психологик детерминантлари	372
Haydarov Sh. Sh. Bo'lajak muhandislarda psixologik salomatlik omillarining shakllanishining pedagogik-psixologik determinantlari	379
IQTISODIYOT	
Shirinova N. B. O'zbekistonda soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari	385



Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

- Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori
Majidov Inom Urushevich, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti.
Olimov Qahramon Tanzilovich, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersman nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali
Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Musurmonova Oyniso, pedagogika fanlari doktori, professor
Safarova Rohat G'aybulloyevna, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor. O'zbekiston jaxon tillari universiteti

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

- Artamonova Yekaterina Iosifovna*, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti
Yemlyanova Irina Yevgenyevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti, Rossiya
Kuzmenko Galina Anatolevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti
Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi
Kulishov Vladimir Vasilevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina
Lazarenko Irina Rudolfovna, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya
Filippova Oksana Gennadevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti, Rossiya
Xristo Kyuchukov, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti.
Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya
Kumskov Mixail Ivanovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti
Maksimenko Sergey Dmitriyevich, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi
Padalka Oleg Semenovich, pedagogika fanlari doktori, professor; M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina
Hazretali Tursun, tarix fanlari doktori, professor; Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori
Mamedova Irada, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i
Timur Xo'jao'g'li, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)
Nurettin Hatunoglu Doç. Dr. Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)
Mullodjanov Sayfullo Kuchakovich, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti
Gushko Sergey Vladimirovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

O'ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

- Inoyatov Sulaymon Inoyatovich*, tarix fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti
Rajabov Qahramon Kenjayevich, tarix fanlari doktori, professor; O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi
Rashidov Oybek Rasulovich, tarix fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI

- Madjidova Ra'no Urishevna*, filologiya fanlari doktori, professor; O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sharipova Laylo Frunzeyevna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti
Yusupova Hilola O'ktamovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doyrtori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

PEDAGOGIKA FANLARI

- Tolipov O'tkir Qarshiyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti
Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Tilavova Matlab Muxammadovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Sohibov Akram Rustamovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti
Umarov Baxshullo Jo'rayevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Hasanova Gulnoz Qosimovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Inoyatov Abdullo Shodiyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti

PSIXOLOGIYA FANLARI

- Umarov Baxriddin Mingbayevich*, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti
Bafayev Muxiddin Muxammadovich, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

IQTISODIYOT FANLARI

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori
Mamanazarov Abdulkakim Bozorovich, iqtisodiyot fanlari fan nomzodi, dotsent. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

FALSAFA FANLARI

- Namozov Bobir Bahriyevich*, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

SIYOSIY FANLAR

- Jumayev Rustam G'aniyevich*, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

BIOLOGIYA FANLARI

- Artikova Hafiza To'yumurovna*, biologiya fanlari doktori, dotsent. Buxoro davlat universiteti

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

- Джураев Рисбой Хайдарович*, доктор педагогических наук, академик АНРУз
Шамсутдинов Рустамбек Темирович, профессор Андиганского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук
Мажидов Ином Урушев, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека
Олимов Кахрамон Танзилевич, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена
Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович, доктор технических наук, профессор
Мусурмонова Ойнисо, доктор педагогических наук, профессор
Сафарова Рохат Гайбуллоевна, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

- Артамонова Екатерина Иосифовна*, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук
Емельянова Ирина Евгеньевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия
Кузьменко Галина Анатольевна, доктор педагогических наук, профессор, Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья
Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии
Кулишов Владимир Васильевич, доктор педагогических наук, профессор, Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина
Лазаренко Ирина Рудольфовна, доктор педагогических наук, профессор, Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия
Филиппова Оксана Геннадьевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, Россия
Христо Кючук, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия
Кумсков Михаил Иванович, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
Максименко Сергей Дмитриевич, академик, доктор психологических наук, профессор. Академик Национальной академии педагогических наук Украины
Падалка Олег Семенович, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина
Хазретали Турсун, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави
Мамедова Ирада, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана
Тимур Хужаугли, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)
Nigetin Natipoglu, Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)
Муллоджанов Сайфулло Кучакович, доктор исторических наук, профессор, Национальный университет Таджикистана
Гушко Сергей Владимирович, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

- История**
Иноятов Сулаймон Иноятович, доктор исторических наук, профессор, Бухарский государственный университет
Раджабов Кахрамон Кенжаевич, доктор исторических наук, профессор, ведущий научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана
Ойбек Расулович Рашидов, доктор исторических наук, Бухарский государственный университет
- Филология**
Маджидова Рано Уришевна, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков
Шарипова Лайло Фрунзеевна, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет
Нигматова Лолахан Хамидовна, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет
Юсупова Хилола Уктамовна, кандидат филологических наук, доцент, Бухарский инженерно-технологический институт
Рузиева Мохичехра Якубовна, доктор философских наук, доцент, Бухарский государственный университет
- Педагогика**
Толипов Уткир Кариевич, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный университет
Джураев Хуснидин Олтинбаевич, доктор педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Тилавова Матлаб Мухаммадовна, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, PhD по педагогическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет
Сохибов Акрам Рустамович, кандидат педагогических наук, доцент, Каршинский государственный университет
Умаров Бахшулло Джураевич, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Хасанова Гулноз Касимовна, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Иноятов Абдулло Шодиевич, доктор философских наук (PhD) в области педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
- Психология**
Умаров Бахриддин Мингбаевич, доктор психологических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет
Бафеев Мухиддин Мухаммадович, PhD по психологическим наукам, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
- Экономика**
Куролов Кобулжон Кулманович, доктор экономических наук, профессор, Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова
Маманазаров Абдухаким Бозорович, кандидат экономических наук, доцент, Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
- Философия**
Намозов Бобир Багриевич, доктор философских наук, Бухарский государственный университет
- Политика**
Джумаев Рустам Ганиевич, доктор философии (PhD) по политическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет
- Биология**
Артикова Хафиза Тоймуродовна, доктор биологических наук, доцент, Бухарский государственный университет

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL**

- Djuraev Risboy Haydarovich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences
Majidov Inom Urushevich, Doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.
Olimov Kahramon Tanzilovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen
Tadjikhodjaev Zokirkhoja Abdusattorovich, Doctor of Technical Sciences, Professor
Musurmonova Oyniso, doctor of pedagogical sciences, professor
Safarova Rohat Gaybulloevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.
Ibragimov Kholboy Ibragimovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbekistan University of World Languages

MEMBERS OF EDITORIAL COUNCIL

- Artamonova Ekaterina Iosifovna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences
Emelyanova Irina Evgeneevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia
Kuzmenko Galina Anatolevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health
Safaraliev Bozor Safaralievich, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy
Kulishov Vladimir Vasilevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine
Lazarenko Irina Rudolfovna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia
Filippova Oksana Gennadevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia
Christo Kyuchukov, Doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Kumskov Mikhail Ivanovich, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Maksimenko Sergey Dmitriyevich, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine
Padalka Oleg Semenovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine
Hazretili Tursun, Doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Timur Khuzhaugli, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Nurettin Hatunoğlu Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, Doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Gushko Sergey Vladimirovich, Doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN**History**

- Inoyatov Sulaimon Inoyatovich**, Doctor of Historical Sciences, Professor. Bukhara State University
Rajabov Kakhramon Kenjayevich, Doctor of Historical Sciences, Professor, Leading Researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rashidov Oybek Rasulovich, Doctor of Historical Sciences. Bukhara State University

Philology

- Majidova Rano Urishevna**, Doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages
Sharipova Laylo Frunzeyevna, Professor, Doctor of Philology. Bukhara State University
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, Doctor of Philology. Bukhara State University
Yusupova Khillola Oktamovna, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute
Ruziyeva Mohichehra Yakubovna, Doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State University

Pedagogy

- Tolipov Utkir Karshiyevich**, Doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
Olimov Shirinboy Sharofovich, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University
Jurayev Khusniddin Oltinbayevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Tilavova Matlab Muhammadovna, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Dilova Nargiza Gaybullayevna, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Sohibov Akram Rustamovich, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University
Umarov Bakhshullo Djurayevich, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Khasanova Gulnoz Kasimovna, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State University
Inoyatov Abdullo Shodievich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

Psychology

- Umarov Bakhridin Mingbayevich**, Doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University
Bafayev Muhiddin Mukhamadovich, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Economy

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, Doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Mamanazarov Abdulkhakim Bozorovich, candidate of economic sciences, associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

Philosophy

- Namozov Bobir Baxriyevich**, Doctor of Philosophy. Bukhara State University

Politics

- Djumayev Rustam Ganiyevich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

Biology

- Artikova Khafiza Tuymurodovna**, Doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University



07.00.00 – TARIX FANLARI

BUXORO MANG‘IT HUKUMDORLARINING TALIM - TARBIYADAGI IBRATI

*Axmadov Olimjon Shodmonovich,
Buxoro davlat Pedagogika institute, p.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroda XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlangan, Buxoro amirligida hukumronlik qilgan Amir Shohmurod, Muhammad Rahimxon, Amir Haydar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon mang'itlarning ta'lim-tarbiyaning rivoji uchun olib brogan ijobiy say haakatlari ochib berilgan hamda manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Amir Shohmurod, Muhammad Rahimxon, Amir Haydar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon, Muhammad Sharif, Mirzo Sadiq Munshiy, Mir Abdulkarim, Mir Husayn Miriy, Muhammad Yoqub Doniyolbiy, Xumuliy, Mirzo Shams Buxoriy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Hashmat, Sadridin Ayniy, Manba, manbashunoslik, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'lim, maktab, madrasa.

УРОК БУХАРСКИХ МАНГИТОВ В ОБРАЗОВАНИИ – ОБРАЗОВАНИЕ

*Ахмадов Олимжон Шодмонович,
Бухарский государственный педагогический институт, PhD*

Аннотация: В этой статье, посвященной проблемам образования и воспитания в Бухаре в конце XIX-первой четверти XX века, раскрыты положительные сдвиги в развитии образования Амир Шохмурод, Мухаммад Рахимxon, Амир Хайдар, Амир Абдулахад, Амир Олимxon, мангитов, правивших в Бухарском эмирате, а также проведен научный анализ источников и литературы.

Ключевые слова: Амир Шахмурад, Мухаммад Рахим Хан, Амир Хайдар, Амир Абдулахад, Амир Олимхан, Мухаммад Шариф, Мирза садик Муниши, мир Абдулкарим, мир Хусейн Мири, Мухаммад Якуб Даниелбий, Хумули, Мирза Шамс Бухари, Ахмад Дониш, Абдурауф Фитрат, Хашият, Садриддин Айни, источник, источниковедение, образование, воспитание, непрерывное образование, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе.

THE LESSON OF BUKHARA MANGIT GOVERNORS IN EDUCATION - EDUCATION

*Akhmadov Olimjon Shodmonovich,
Bukhara State Pedagogical Institute, PhD*

Annotation: This article, devoted to the problems of education and upbringing in Bukhara at the end of the XIX-first quarter of the XX century, reveals positive developments in the development of education of the Amir Shohmurod, Muhammad Rahimxon, Amir Haydar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon Mangits who ruled in the Bukhara Emirate, as well as a scientific analysis of sources and literature.

Key words: Amir Shahmurad, Muhammad Rahim Khan, Amir Haidar, Amir Abdulahad, Amir Olimkhan, Muhammad Sharif, Mirza Sadiq Munshi, Mir Abdulkarim, Mir Hussein Miri, Muhammad Yakub Danielbiy, Humuli, Mirza Shams Bukhari, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Hashmat, Sadridin Aini, source, source studies, education, upbringing, continuous education, research, article, program, system, traditional education, school, madrasah.

KIRISH. XVIII asrning o'rtalarida Buxoro xonligi o'rnida Buxoro amirligi vujudga kelib, amirlik davri (1753-1920 yy) aslida mang'it urig'idan bo'lgan Muhammad Rahimxon o'zini "xon" deb atagan bo'lsada hukumronligidan boshlanib, sulola so'ngi vakili Amir Olimxonga qadar davom etdi. Ma'lumki sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura va sinfiylik nazariyasi asosida ta'lim berilib, xon hamda amirlarni "savodsiz" "qonxo'r" "joxil" "boylik va mansabga mukkasidan ketgan" kabi g'ayriilmiy fikr mulohazalarni ongimizga sindirib kelishdi. Biroq, mahalliy, asl manbalar, qo'lyozma asarlar bilan tanishish asnosida amin bo'lindiki, hukumdorlar ham rahbar va shahs sifatida imkon qadar ijobiy jihatlarni o'zlarida namoyon qilishgan.

Ushbu maqolada Buxoro mang'it amirlaridan Muhammad Rahimhon (1753-1758 yy), Amir Shohmurod (1785-1800 yy), Amir Haydar (1800-1826 yy), Amir Abdulahad (1885-1910 yy), Amir Olimxon (1910-1920 yy) kabilarda shahsiy, ijobiy xislatlarning ta'lim-tarbiyadagi ibratli jihatlarni bir qadar tahlil qilishga harakat qilindi.

ASOSIY QISM

Mang'itlar hukumdorligi davri tarixshunoslaridan Muhammad Sharif, Mirzo Sodiq Munshiy, Mir Abdulkarim, Mir Husayn Miriy, Muhammad Yoqub Doniyolbiy, Xumuliy, Mirzo Shams Buxoriy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Hashmat, Sadridin Ayniy, kabilarning tarix va ta'lim-tarbiyaga qaratilgan asarlarida amirlar haqida bildirilgan ijobiy baholar mavjudligiga amin bo'linadi. Mang'itlar sulolasining birinchi vakili Muhammad Rahimhon islomiy ma'naviyat va ma'rifatdan mukammal xabardor bo'lmasada, qat'iyatli irodali, boshlagan ishini ohiriga yetkazadigan, mahoratli harbiy qo'mondon, imkon qadar adolat bilan ish ko'radigan shahs bo'lgan [6.309-310] Muhammad Rahimhon diniy va dunyoviy ilmlarni egallash bobida qanchalik shahsiy tashabbus ko'rsatmasin, harbiy harakatlar va davlat boshqaruv ishlari bilan ko'p vaqt band bo'lib, o'z maqsadlariga erisha olmagan. U inson tarbiyasida jismoniy chiniqish, iroda kuchini ko'rsatish jihatlarga e'tibor qaratib, bu borada shahsiy namuna ko'rsatgan.

Uning jiyani Shohmurod tarihchi Miriyning yozishicha, 8 yoshida Karmana, keyinchalik Qarshi begi bo'lgan. Muhammad Doniyolbiy otaliqdan harbiy san'at sirlarini o'rgangan. U kunning birinchi yarmida fikh (islom huquqi) ilmi bilan, tushdan so'ng esa, "Qur'on"ning sura va oyatlarini yod olish bilan shug'ullangan, 8 yoshida "Qur'onni" yod olgan edi. [6.321.325. 3.150.162] Amir Shohmurod yoshligidanoq fiqh (islom huquqshunosligi) bilan shug'ullanib, kamolga yetganidan so'ng islom fiqhining Hanafiya mahzabiga oid bo'lgan barcha fatvolar va qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan "Fatvoyi ahli Buhoro" va "Ayn ul - Hikma" nomli to'plamlarni yaratdi. Ushbu majmualar o'sha davr huquq meyorlarini tizimlashtirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu to'plamlar davlatchilik tarixi nuqtai nazaridan hamon o'rganilgan emas va fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etilmagan. Shohmurod tashkil etgan "Majlisi amir" anjumani aholining huquqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynadi [9.20-21].

Amir Shohmurod oddiylik, kamtarinlik inson ziynati ekanligi, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, alloh ato etgan ne'metlarni qadriga yetish, tejamkor, kamxarj bo'lib yashashni shahsiy hayotida ko'rsata olgan. Uning oilasidagi bir kunlik harajat 7 tangadan ortmagan va jizya (jon solig'i) hisobidan kelgan daromaddan yashar edi [6.595].

Amir Shohmurod olumu-fuzalolarga g'amxo'rlik qilgan. U tarihda "Amiri shohsun" – byegunoh amir nomini olgan. Ushbu amir haqida XIX asr ohiri - XX asr boshlarida yashagan buhorolik tarihchilardan Ahmad Donish (1827-1897 yy) Sadridin Ayniy (1878-1954 yy), Abdurauf Fitrat (1886-1938 yy) kabilar ham ijobiy fikr-mulohazalar bildiradilar. Ahmad Donish o'zining "Tarihi salotini mang'itiya" (Mang'it amirlari tarihi) nomli kitobida: "Har ming yilda bitta ulug' hukumdor tahtga kelib, keyingi rivojlanishni boshlab beradi. Ushbu ming yilning besh yuz yili ijobiy

o'zgarishlar, keyingi besh yuz yilida tanazzul yuz beradi. Har yuz yilning o'zaro nisbati ham ellik yildandir. Musulmon (hijriy) taqvimini bilan XIII asrda Amir Temur hukumronlik qildi, XVII asrda Amir Shohmurod islomiy rivojga hissa qo'shdi" - deb yozgandi. Sadriddin Ayniy esa: "Shohmurod o'quvchi va olimlarga g'amxo'rlik qildi, mamlakatda intizom o'rnatdi"-mazmunidagi ijobiy fikrlar bildirgandi [6.414.415].

Amir Shohmurod adolatsiz, poraho'r, zulm va zo'ravonlik bilan davlatni boshqarishda xalq va ulus qahru-g'azabiga uchragan qozikalon hamda qushbegini qatl ettirgan. Uning bu qat'iy tadbiri xalq oldidagi obro'-etiborini oshirgandi. Uning vorisxo'ri, o'g'li Amir Haydar diniy ilimlarni Quroni karim, hadisi – sharif, islom fiqhi, islom kalomi, tasavvuf va hakoazolarni o'rganishga yoshligidanoq qat'iy ahd qilgan. U xotin – qizlarga mehr-oqibat ko'rsatish, qat'iy irodasi, diniy va dunyoviy malumot olishga intiluvchanligi bilan o'z amaldorlariga ibrat namuna bo'lgan. U madrasada 11 yil talim olib, malum muddat mudarrislik (o'qituvchilik) ham qilgan. Amir Haydar islom dini qoidalaridan 1000 tagacha ilmu toliblarga saboq bergan. Uni mullavachchalar orasida 400-500 nafar shogirdlari bo'lgan. Madrasalarda tahsil olayotgan ilmu toliblarni shahsan o'zi imtihondan o'tkazib turgan. Ular atrofficha va chuqur bilim olishlari uchun Istanbul (Usmoniylar saltanati) dan kitoblar yuborishlarini so'rab shahsan murojatlar qilgan. Istanbulga yuborgan elchilariga dunyoviy va diniy ilmlarga oid kitob va qo'llanmalar keltirish vazifasini ham yuklagan. U ilm va olingan ta'lim natijasini sinovdan o'tkazish vositasi distut (munozara) qilish deb bilgan, shu sababli diniy ulamolar bilan munazaraga kirishib, vaqt – vaqti bilan o'zi egallagan bilimlarni imtihondan o'tkazib turgan. XIX asr tarixchilari Amir Haydar diniy va dunyoviy ilmda shayboniy va ashtarxoniy hukumdorlardan ustun bo'lganligini qayd etishadi. [6.103 104. 105] U halqning talabi bilan mamlakatda maktab, maschit, xonaqoh, madrasalar qurishga ko'p mablag' sarflagan. Ushbu amir davrida oddiy halq orasidan ham ancha savodli kishilar yetishib chiqqan. Buhoro Amir Haydar davrida islom ilmlarining markaziga aylangan.

Amir Abdulahad (1885-1910 yy) Buhoro amirlari orasida eng yuqori mavqega ega bo'lgan, general-adyutant maqomiga erishgan shaxs edi. Uning hukumronligi davrida Rossiya imperiyasi hukumati bilan mahoratli diplomatik munosabatlar olib borildi. Amir Abdulahad bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor berdi. Hatto, horijda ham binolar bunyod etishdek vazifalarni uddalab, Yaltada saroy, Sankt-Peterburgda maschit, Makka va Madinada xonaqoh, do'kon, tegirmonlar barpo etdi. Uning davrida saroyda "bedilxonliklar" tashkil etildi, o'zi ham "Ojiz" tahallusi bilan sherlar yozdi[10.45,48].

Amir Abdulahad jamiyatda keng tarqalgan tamagirlik, poraho'rlik, giyohvandlik, bachchavozlik, kaptarvozlik, oshiq o'yini, bedanabozlik, qimorbozlikka qarshi kurashgan. Ushbu illatlar inson ma'naviyatining tubanligi ekanligini chuqur anglab sud-huquq tizimini tartibga soluvchi farmonlar chiqargan. U tamagir, poraho'r amaldorlarni mansabidan chetlatdi. Nasha chekish, ko'knor istemol qilish, bachchabozlik, qul savdosi, qatl qilish, tan jazosi kabilarni bekor qilgan. 1886 yilda zindonlarning bir qismini yopdi, Buhoro shahridagi kanaxona ko'mib tashlandi. Abdulahadon davrida ilk jadid maktablari ochilib, ularda zamonaviy ta'lim –tarbiya, dunyoviy bilimlar berildi. 1897 yilda Mulla Jo'raboy maktabi, 1097 yilda tatar ziyolisi Nizomiddin Sobitov maktabi, shuningdek, 1908 yilda mahalliy jadiclardan Abduvohid Munzim, Sadriddin Ayniy maktablari ochilgan. Ushbu maktablar mutaassib mullalar tazyiqi bilan yopilgan bo'lsada, Amir Abdulahad davrida kechqurun bolalar va yoshlarni to'plab xususiy uy maktablarida o'qitish davom etdi [8.14-15].

Mang'it hukumdorlarining so'nggi vakili Amir Sayid Olimxon faoliyati haqida bir qadar kengroq to'xtalib o'tishni lozim topdik. Amir Sayid Olimxon o'zining xotira kitobida 1896 yilgacha Rossiya imperiyasi poytahti Sankt-Peterburgda paj (kadet)lar maktabida harbiy bilim olganligini qayd etadi. Harbiy bilim yurtida o'qish muddati 7 yil bo'lib, ushbu dargohni bo'lajak amir 3 yilda yani muddatdan oldin bitirgan

va muvaffaqiyatli imtihonlar topshirgan. U otasi Amir Abdulahadxondan davlatni idora qilish ilmini o'rganadi. Karmana va Qarshi beklklarini boshqarib, bu borada yetarlicha tajriba orttirgan. [4.7,8.]

Amir Sayid Olimxon soved davri adabiyotlarida yozilganidek, aysh-ishratga berildi – degan aqidadan voz kechib, tarix haqiqatiga murojaat qilsak. Uning yozishicha: “Buhoroyi sharif arki yaqinida Baloyu havuz deyilgan joyda o'z nomimga bir ibodatga maschit bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida, bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor-ul-ulum – Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechak ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin ettirdim. Bozor va yo'l obodligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida (1911-1914 yy) Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb –ziynat va tartib –intizom o'rnatdim. Mening sayi harakatimdan Buhoro aholisi va butun mamlakat mamnun bo'ldi”. [4.8.5.48]

Obodonchilik va qurilish ishlariga e'tibor berish bilan birga Amir Olimxon 1910-1916 yillarda mamlakatning iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishiga hukumat nomidan bir qator fatvo, farmonlar chiqardi. O'sha paytlarda boy amaldorlar va savdogarlar dabdabali to'ylar qilib, ming-minglab pullarini havoga sarflar edilar. Yirik savdogarlar to'ydan so'ng uch kungacha “savdogar to'yi” qilar, to'y-marakalarda ko'pkari, uloq berish (uloq o'yini) “kiyimlik berish” “qand va qandolot tarqatish” marosimlarini tugatishga alohida e'tibor qaratib, 1911 yilning martida “Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida” farmon, 1916 yil 5 iyunda to'ylardagi isrofgarchiliklar, hususan qand tarqatishni sharoitga zid, deb fatvo chiqardi. Bu farmon va fatvo bilan to'y kunlari qisqartirildi uloq o'yinlari, qand tarqatish, chopon kiydirish kabilar to'xtatilib, marakalarda “meva tarqatish ” 4-5 xil ovqat pishirish ta'qiqlandi. Amir Olimxon sog'liqni saqlash sohasida alohida, ayniqsa xotin qizlar salomatligiga alohida e'tibor qaratib, xotin-qizlar salomatligiga e'tibor qaratdi. 1911-1912 yillarda bevosita amir hukmi bilan Buxoroda ayollar ishfaxonasi va tug'ruqxona ochildi. 1913-1916 yillarda Buxoroning o'nlab beklklarida ambulatoriya va kasalxonalar qurildi.

Amir Olimxon xarbiy soha bilimdoni sifatida Rossiya imperiyasining imperatori Nikalay II (1894-1917 yy) dan general harbiy unvonini oldi. Aksariyat Rossiya shaharlarida rus amaldorlari va zobitlari bir necha bor uni hurmat-izzat bilan kutib oldilar hamda unga munosib hurmat ko'rsatdilar.

Amir Olimxon yoshlar ta'limiga ham alohida e'tibor berdi. U 1911 yil mart oyida “Ta'lim to'g'risida”gi farmonini imzoladi. Farmonga ko'ra madrasa talabalariga turli hoshiyalar o'qitilmasligi, tafsir va hadis rasmiy dars sifatida o'qitilishi, davlat xazinasiga olingan vaqflardan yig'ilgan pullarga shaharni turli yerlarida maktablar qurilishi hamda ularga muallimlar tayinlash, ularga maktablarning vaqflaridan tashqari davlat xazinasidan yillik 120 so'mdan maosh tayinlash va u har oy maktabni taftish qilib amirga hisobot berishi belgilab qo'yildi. [8.16,17] Amir Olimxon xukumronligi davrida Yevropa va Sharq memorchiligi uyg'unligining yorqin namunasi bo'lgan yozg'i saroy Moxi-Xossa nafaqat memoriy inshoot, qurdirdiki u qolaversa, inson aql-zakovati bilan yoritilgan nodir sana't namunasidir. Ushbu binoni barpo etishda yuksak estetik did ma'naviy-aqliy salohiyat talab qilinishi isbotga muxtoj emas.

1920 yil sentabrda Buxoroda amir tartibi bolshevklar tomonidan ag'darilganidan so'ng, Amir Sayid Olimxon Sharqiy Buxoro (hozirgi Surxandaryo viloyati va Tojikiston Respublikasi-O.A)ga chekinib, olti oy davomida sovetlarga qarshi kurash olib bordi. Noteng janglarda yengilgan amir 1921 yilning 4 martida Panj va Vaxsh daryolari qo'shiladigan Chubek irmog'idan Tojikistondan 100 minglab kishilar bilan qo'shni Afg'oniston hududiga o'tdi va o'sha yilning may oyida Qobulga keldi. Shundan so'ng uning 23 yillik muhojirlik davri boshlandi. [2.193-196] Amir Olimxon Kobul yaqinidagi Fatuh qal'asida yashab, 37 ta o'g'il va qiz farzandlar ko'rdi. Amir Olimxon Afg'onistonda aslida “uy qamog'i ”da yashadi. Unga Kobuldan 11

km uzoqlikka chiqish mumkin emasdi. Amirning har bir harakati va faoliyati ham ingliz, ham sovet hukumati ayg'oqchilari nazoratida bo'lgan. Amir Olimxon 16 nafar o'g'li, 21 nafar qizini (1990 yillar boshida amirning 12 nafar o'g'li, 10 nafar qizi hayot edi-O.A) savodli, ma'lumotli bo'lishlari uchun Britaniya Hindistondan Xo'ja Karomatulloh, Xo'ja Rahmatulloh ism – sharifli ingliz tili muallimlarini yollagan. Hozirda Afg'oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Eron, Germaniya, AQShda istiqomat qilayotgan amirning farzandlari va naberalari orasida (amir avlodlari xorijda 3 mingta ekanligi bilan bog'liq tegishli ma'lumotlar bor-O.A) shoir va yozuvchi, jurnalist, tibbiyot xodimi, iqtisodchi va tijoratchi kasblarida faoliyat ko'rsatayotgan ziyolilar mavjud. Amir Olimxon xarakterida salbiy xususiyatlar mavjud emasdi, degan da'vodan yiroqmiz. Biroq undan ibrat olsa arziydigan fazilatlar ham talaygina ekanligi malum. Amir qat'iyatli, bir so'zli, irodasi mustahkam shaxs bo'lgan. Afg'oniston poytaxti Kobulda har yili mamlakat mustaqilligi bayrami (Jushon bayrami-O.A) nishonlangan. Afg'oniston amiri Omonullahon (hukumronligi 1919-1929 yy) bu kabi bayramlarga yevropacha kiyimda ishtirok etish tartibini joriy etgandi. Amir Olimxon buxorocha milliy kiyimda bayram tantanalariga borgan va bir so'zda turgan, u milliy kiyimda yurishni yoqtirgan, kuchli mergan bo'lgan, Fatuh qalasada "ijodiy kechalar" "bedilxonliklar" tashkil etgan. [1. 410,420,445] Amir Sayid Olimxon milliy musiqa san'atining ixlosmandi bo'lib, dutor, tanburda mumtoz kuylarni mahorat bilan ijro etgan, bir umr Vatan muhabbati va sog'inchi bilan yashagan.

XULOSA

Xullas, Buxoro mang'it amirlari shahsini sovet hokimiyati yillarida yozilgan adabiyotlar talqinidagi qora bo'yoqlardan izlash kerak iborat emas. Ular haqidagi haqiqiy ma'lumotlarni mahalliy tarixchilarning qo'lyozma asarlarini atroflicha o'rganish orqali anglab olish mumkin. Istiqbolda ushbu hukumdorning ibrat bo'ladigan qirralari haqida yangi tadqiqotlar yaratiladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev Q.N. Ot Sinszyana do Xorosana. Iz istorii emigratsii XX veka. Dushanbe; Irfon, 2009. – 572.str.
2. Abdullayev Q.N. Buxarskaya poslerevoluyionnaya emigratsiya (k istoriografim problemy //Veb: Oktabrskaya revolyusiya v Sredney Azii i Kazaxstane: Teoriya, problemy, perspektivy izucheniya.-T.; Fan; 1991.-S 187-196.
3. Agabekov.G.S. Sekretniy terror: zapiski razvedchika-M.: Terra-Knijny klub; 1998-336 str.
4. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Forsiydan A. Irisov tarjimasini.-T.; Fan, 1991-32bet.
5. Bobojonova F.Q. Buxoro amirligida ta'lim tizimi.-T.; "Adib", 2014.-128 bet.
6. Anke Fon Kyugyelgin. Legitimatsiya sredneaziatskoy dinastin mangitov v proizvedeniya ix istorikov (XVIII-XIX v.v) Almaty, Dayk-Press, 2004.- 516 str.
7. Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'lim tizimi tarixi.-T.; Akademnashr, 2017.-592 bet.
8. Jamolova D.M. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent-2019.-54 bet.
9. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferat.-Toshkent-2008.-25 bet.
10. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi. (fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar muallifi H.To'rayev) Buxoro - 2004.-128 bet.
11. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research

journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.

12. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

13. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.

14. Ahmadov O. BUXORO BOSMAHONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

БУХОРО АМИРЛИГИДА ОЛТИН ҚАЗИБ ОЛИШ ТАРИХИДАН*Амонова Феруза Саъдуллаевна**Ўзбекистон ФА Тарих институти докторанти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Бухоро амирлигида пахтачилик ва бошқа соҳаларда фаолият юритган тадбиркорлар, акциядорлик жамиятлари, ширкатлардан ташқари нефть, тошкўмир ва бошқа ер ости бойликларини ўзлаштиришга ихтисослашган ширкатлар ҳам вужудга келди. Ўлкада оғир саноат соҳаларини ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилмаган, чунки бу соҳани ривожлантирувчи ва қайта ишлаб чиқарувчи завод корхоналари мавжуд эмас эди. Иккинчидан маҳаллий ва рус сармоядорлари ўз сармояларини тез ва кўп фойда келтирадиган соҳага жалб қилишни хоҳлаган.

XIX асрда Бухоро амирлигида рангли металургия, металга ишлов бериш, нефть қазиб олишда маҳаллий усуллардан фойдаланилган ва қайта ишлаш йўлга қўйилган ҳамда эҳтиёж доирасида қазиб олинган. Дастлаб Бухоро амири Насруллохоннинг топшириғи билан Нурато ва Шаҳрисабз тоғларида темир рудасини қидириш ишларини олиб борган. Бироқ хонликлар ўртасида низоларнинг кучайиши сабабли кончилик саноатини ривожлантиришда эътибор берилмаган. Фақат жанубий бекликлар Қоратоғ ва Бойсундагина хонаки усулда металл қазиб олиш давом этган. Лекин бу металлар маҳаллий аҳоли эҳтиёжларини қондиришга етмаган шунинг учун метални Ҳиротдан кейинчалик Россиядан олиб келишга мажбур бўлган.

Бухоро амирлигида металл ишлаб чиқариш ва ишлов бериш жуда содда усулларда амалга оширилган. Рус элчиси К.Ф.Бутенев Бухоро амирлигида металл ишлаб чиқаришни такомиллаштиришга деярли эътибор берилмаганлигини куйидагича таърифлайди: “Бухорода хунармандчилик мукамалликнинг қуйи босқичида туради, заводчилик иши яхши йўлга қўйилмаган. Агар ҳукуматнинг бу соҳадаги эътибори бундан кейин ҳам ҳозирдагидек давом этса бирор ўзгариш бўлиши қийин. Сармоёга эга тадбиркорларнинг заводлар қуриши ҳақида сўз бўлиши ҳам мумкин эмас, чунки у бундай заводлар келажакда катта фойда келтиришини билмайди” .

Бухоро амирлигида фойдали қазилма конлардан фойдаланиш ва қайта ишлаш оддий усулда амалга оширилган. Олтин, туз, селитра, нефть ва кўмир маҳсулотларини ўз эҳтиёжи даражасида маҳаллий усулда ўзлаштирилган. Амирликда тоғ-кон саноати пайдо бўлишига жиддий тўсиқлардан бири табиий шароит, тоғли ҳудудларга ўтишда лой оқимларнинг ҳалокати ва ҳукумат вакилларининг бу соҳаларни ривожлантиришда эҳтиёжи ва хоҳишнинг йўқлиги ва бошқа сабаблар таъсир қилди.

Бухоро амирлигининг эҳтиёж талаб қиладиган табиий қазилма бойликлари: олтин кони Дарвоз тоғлари атрофларидан, Шарқий Бухоронинг Ях-Сув, Вахш ва бошқа кичик дарёлари бўйларидан қуми билан олинади. Мис ва темир конлари Буюк Пётр ва Ҳисор тоғ тизмаларидан қазиб олинади. Олтингургурт Калиф яқинидаги Жалолтепада, Шеробод атрофида мавжуд эди. Туз конлари Кўлоб беклигидаги Чубек яқинидаги Хўжа Мўмин тузли тоғидан, Анжерой қишлоғидан ва Ҳисор тизмасидан олинади. Тошкўмир - Бойсун, Ҳисор ва Қўрғонтепа бекликларида жойлашган конлардан қазиб олинади. Ишлаб чиқаришда сармоянинг, такомиллашган жиҳозлари, замонавий конструкциядаги ёритиш печларининг йўқлиги боис, бухороликлар ҳозирда олтин, темир, олтингургурт ва тузни жуда кам миқдорда оладилар.

Амирликда мутахассислар томонидан маҳсус геологик тадқиқотлар олиб борилмаган. Баъзи бир геологлар, жумладан, Крафт, Леват, Михайлов, Журавко-Покорский ўз изланишлари орқали маҳсус топишриқ билан Сафетдарёнинг

олтинга бой кумларини топиш мақсадида фақатгина Дарвоза, Ях-Сув дарёси буйларига сафар уюштирганлар .

Олтин қазииш ишлари XIX асрнинг 90 йилларнинг охирида бошланди. 1894 йилда тоғ-кон муҳандиси Журавко-Покорский катта маблағ сарфлаб олтин конларини аниқлашга киришди. Журавко-Покорский билан бир вақтнинг ўзида капитан Борсчевский, тоғ-кон муҳандиси Михайлов (1896), Крафт ва Рикмер (1898), Левашов (1901), Лева (1902) каби бир нечта тадқиқотчилар тадқиқот олиб борди .

Олтин қазиб олиш борасидаги тадқиқотлар кўплаб саноатчилар ва мутахассисларни жалб қилди. Натижада олтин конлари билан биргаликда жиддий саноат аҳамиятига эга бўлган нефть, туз конлари, кумуш ва кўрғошин рудаси ва бошқа фойдали қазилма конларини мавжудлиги ҳақида тадқиқотчилар томонидан тасдиқланган .

Россия ҳукумати амирлик ҳудудларидан олтин қазиб олишни тезлаштириш учун биринчи навбатда конларни кенг миқёсда ўрганишни, геологик кидирувларга катта маблағлар ажратилишини, конларда шурфлар, шахталар, рудниклар қазииш, уларга насослар ўрнатиш ва қайта ишлаш учун зарур асбоб-ускуналарни жамлаш, дарё бўйлаб тўғон қуриш ва олтин олишнинг завод усулини қўллаш мумкинлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Олтин қазиб чиқариш ёки олтин тайёрлаш учун зарур маҳсулот етиштириш икки йўналишда амалга оширилган. Дарвоз беклиги ҳудудидан олтин конидан кристалл кўринишдаги олтин маҳсулоти қазиб олинган. Панж, Вахш, Яхсув, Қизилсув, Ванг, Оқдарёда таркибида олтини мавжуд бўлган кумдан, тоғ жинсларидан олтин олинган. Бу дарёлар ўз оқими бўйлаб аралаш тоғ жинсларини ювиб кетиши оқибатида таркибидан олтин бўлган кумлар пайдо бўлган ва кумдан олтин тозалаб олинган.

Дарё кирғоғидан олтин олишда, асосан, кўй терисидан фойдаланилган. Тўр билан жиҳозланган махсус мосламага кўй териси кўйилиб, чўмичда сув олиниб қайта-қайта ювилган. Ювилган кумнинг таркибидаги олтин зарралари кўй терисидаги юнглор орасида сақланиб қолган. Бир неча соат давомида тўпланиб қолган олтин зарралари махсус тароқда тараб олиниб, идишга солинган. Олтин изловчиларга, уни тозаловчиларга жуда кам ҳақ тўланган. Иш жараёнининг жуда қийин бўлишига қарамай олтин изловчи маҳаллий аҳолининг ўртача кунлик иш ҳаққи 30-40 тийиндан 4-5 рублгача етган. Олтин излаш, ювиш, тозалаш ишлари қаттиқ назорат остида амалга оширилган. Мавжуд тартиб-қоидага кўра олтин излаш, ювиш ҳуқуқини олиш учун талабгор Бухоро хазинасига катта миқдорда солиқ тўлаши шарт эди.

Бухоро фуқаролари билан бирга, рус фуқаролари ҳам шу қоидага бўйсунуши лозим эди. Бунинг учун Россиянинг Бухородаги сиёсий агенти томонидан махсус рухсатнома берилган .

Рус тадқиқотчилари ва тадбиркорлари Бухоро амирлиги ҳукуматига Шарқий Бухоро ҳудудларида олтин излаш ва қазииш ишларига рухсат сўраб мурожаат қилганлар. Рухсат беришдан олдин олтин қазиб олиш бўйича махсус низом ишлаб чиқиш зарур эди. Ушбу низомни тайёрлаш учун масалани жойида яхшилаб ўрганиш керак эди. Туркистон ўлка маъмурияти 1895 йилда масалани ўрганиш учун кон муҳандиси Михайловни Шарқий Бухорога юборди . Унинг маълумотлари асосида лойиҳа тузилди. 40 банддан иборат “Бухоро хонлигида олтин ишлаб чиқариш саноати ҳақида”ги низоми 1896 йил 24 февралда Туркистон генерал-губернатори томонидан тасдиқланган. Низомга кўра, Бухоро амири ўз амалдорларини олтин қазиб олиш жараёнини назорат қилишга, тайёр маҳсулотни ўлчаш пайтида текшириш учун масъулларни тайинлаш ҳуқуқига эга бўлган. Бундан ташқари қазиб олинган ҳар пуд олтинининг беш фоизи Бухоро ҳукумати фойдасига берилиши, саноатчи, ишбилармонлар томонидан

олиб борилаётган кон қидирув ишлари ва олтин қазиб олиш учун Бухоро ерларидан фойдаланганлик учун Бухоро амирлиги ҳисобига солиқ ва бошқа тўловлар тўлаш кўрсатилган .

Маҳаллий қонунларга кўра, Бухорода қазиб олинган барча олтинлар амирнинг мулки ҳисобланган. Шунинг учун закотчи олтин ҳисобидан мисқолига ўртача 4 рубль 90 тийинлик залотник тўлаш шarti билан ижарага берган .

Бухоро ҳукуматидан кўплаб рус ишбилармонлари Бухоронинг минерал-хомашё ресурсларини ўзлаштириш учун концессия имзолаган. Бухоро амири Абдулаҳадхон (1885-1910) 1896-1917 йиллар давомида олтин қазиб ишлари учун 36 та концессия шартномасини имзолаган. Аммо фойдаланиш ҳуқуқини олган рус ишбилармонларининг аксарияти олтин қазиб билан шуғулланмаган .

1901 йилда А.П.Жоравко-Покорский олтин қазиб олишга ихтисослашган “Помир олтин саноатчилари жамияти”ни ташкил этилди. Жамият олтин саноатини замонавий асосда ташкил этиш ишларида анча қийинчилик ва муаммоларга дуч келган, режалаштирилган натижаларни қўлга кирита олмаган. Натижада жамият “Помир олтин саноатчилари” акцидорлик жамиятига айлантирилган. Акциядорлик жамиятининг бошқаруви В.В.Поклевский-Козелль савдо уйига берилиб, кўпроқ саноатчи ва ишбилармонлар доираси бу ишга жалб этилади ва 1917 йилга қадар ушбу ҳудудда олтин саноатини вужудга келтириш учун фаолият олиб борган.

1911 йил охиригача А.П.Жоравко-Покорский Бухоро ҳукумати хазинасига 2,5 пуддан зиёд олтин берди. Конда иккита турар жой курди, шахталарда бир нечта йўналишдаги кўнка ва юзтагача аравадан фойдаланди, аравачаларни отлар бошқарган, икки мил узокликда ариқ, кумларни ёриш учун сув қувири ва олтин қазиб олиш учун зарур бўлган бошқа қурилмалар ётқизилди . Ҳозирда олтингугуртли кумларни ювиш йилига 500 000 пуд кумни ювишга эришилди. Айланма маблағнинг етишмаслиги, олтинли кумларни кенгрок ишлаб чиқариш учун зарур бўлган гидравлик мосламаларни ўрнатишга имкон бермади. Зарур техника билан жиҳозланганда улар кунига 60 минг пуд кумни тозалаш имконига, йилига 92380 рублгача ялпи даромадга эга бўлиши мумкин эди

Кейинчалик А.П.Жоравко-Покорскийни чет эл капиталистларига мурожаат қилишга мажбур қилди. Rickmers инглиз савдо уйи қазиб ишларига тахминан 75 000 рубль сармоя киритди. Афсуски, тез орада Rekmers барча бошқарув ҳуқуқларини савдо уйига ўтказишни, А.П.Жоравко-Покорскийни фирма менежерига ёки вакилига айланишини талаб қилди. А.П.Жоравко-Покорский фирма талабларига рози бўлмагач, Rikmers ишда қатнашишдан бош тортди .

Тоғли ҳудуд аҳолиси орасида ушбу касб оиласини учун ёрдамчи касб, кўшимча даромад эди. Ерсиз аҳоли асосан олтин ювиш билан шуғулланган. уларнинг баъзилари учун асосий касбга айланди ва олтин қазиб олишда тўпланган тажриба авлоддан-авлодга ўтишни бошлади. Улар олтин конлари жойлашган жойни аниқлай оладиган, таркибида олтингугуртли кумни ювиш маҳоратини мукамал эгаллаган жуда моҳир олтин қидирувчилар бор эди.

1904 йилда олтин ювиш ишларига 35-40 нафар, 1910 йилда 75 нафар ишчи ишлаган. 1900 йилдан 1909 йилгача А.П.Жоравко-Покорский yilda 75 пуд олтин олишга эришди . Биргина 1904 йилда 316000 пуд кумдан 5 пуд ёки 18 золотник (76.68 гр) миқдорида олтин олган. А.П.Жоравко-Покорский тажрибали усталарга 30-35, оддий ишчиларга 25-30, ёш ишчиларга 12-15 копекдан иш ҳаққи тўлади .

Нефть конлари Сарой посёлкаси яқинида, Қўрғонтепа беклигида, Шеробод шаҳри яқинида мавжуд бўлган . Нефть умуман қазиб олинмаган, оз миқдорда Ҳисор беклигига яқин қишлоқ аҳолиси томонидан эҳтиёжи учун йиғилган .

Бухоро нефти Фарғона нефти билан таққослаганда таркибида бензин кўп (10 % гача), нефть қолдиғида кўп миқдорда керосин бор қатрон йўқ.

Нобел нефт компанияси Чоржўй, Карки, Термиз, Сарой, Бухоро шаҳарларида ўзини нефть маҳсулотлари омборларига эга эди . Юқоридаги манзилгоҳларда компаниянинг бўлимлари ва транспорт компанияларини очди .

1889-1898 йилларда Ўрта Осиё бозорига барча нефть маҳсулотлари ва қайта ишланмаган нефть умумий экспорти икки бараварга ошди. 1889 йилда 2475 пуд бўлса, 1898 йилда 6414 пудни ташкил қилди. Бухорода қайта ишланмаган нефтнинг улгуржи савдоси 1 рубль 60 тийинни ташкил қилди. 1916 йилда геология кўмитаси Марказий Бухоро ҳудудларида нефть конларини очиш борасида тадқиқотлар бошланди .

Нефтни қайта ишлаш заводларига эга “Кавказорти савдо саноат ширкати 1900 йилдан керасин сотиб олишни йўлга қўйди. Ширкатнинг Асхабод, Марв, Янги Чоржўй, Бухоро Самарқанд, Қўқонда ўз омборларига эга эди . Ширкат Чоржўйда керосин, нефть, мазут савдоси билан шуғулланган.

Чоржўйда тадбиркор Ш.Асадуллаевга тегишли керосин маҳсулотлари омбори бўлиб, керосин, нефть, мазут маҳсулотлари билан савдо қилган .

Қизилтепа станциясида керосин ва пахта савдоси билан шуғулланадиган Берлян ва Муҳитдинов фирмалари фаолият олиб борган (6 иловагв қаранг).

Венедиктов, Подонский ва Е. ва А. Цигельбаумнинг оҳак печлари Кармана станциясидан 20 верст узоқликда жойлашган. Заводда 100 нафар маҳаллий аҳоли ишлаган. Ишлаб чиқарилган оҳак ўзининг юқори сифати билан машхур.

Дарвоза, Қоратегин, Ҳисор бекликларидан қазиб олинган темир эҳтиёж учун керакли микдорда ишлаэски усулда эритилган. Темир - қуруллар, кишлоқ хужалиги жихозлари ясашда ва бошқа мақсадларда ишлатилади. эски печларда эритилади. Темир ишлаб чиқариш йилига 3-4 минг пуддан ошмаган. Биринчи жаҳон урушигача Бухоро амирлиги ҳудудида 6 та темир эритиш печлари бўлган .

Хулоса қилганда, Бухоро амирлигида ҳукуматнинг назорати остида кончилик соҳасини ривожлантиришда шарт-шароитлар яратиш, бу соҳадан хабари бор маҳаллий аҳолини тадқиқотларда жалб қилиш, соҳа мутахасислари иштирокида кўшимча тадқиқотлар олиб бориш, маблағ билан таъминлашни тақазо этди. Металл олиш усулларини такомиллаштириш орқали вазиятдан чиқиб кетиш мумкин. Келажакда электр станцияларнинг имкониятларидан фойдаланишга ҳукумат жиддий эътибор қаратса, кончилик соҳасини кенгайтиришда маблағ ажратса ҳам иқтисодий салоҳияти ҳам завод фабрикаларда ишлаб чиқариш имкониятлари ҳақ кенгайди.

Адабиётлар

Ҳаёт ва ирода [Назир Ражабов ҳақида мажмуа]. Масъул муҳаррир: Иброҳим Ҳаққул. –Тошкент: “Тафаккур”, 2019.

Ражабов Қ. Назир Ражабов. – Тошкент: Vodomzor invest, 2021.

Мусаев Н.У. XIX асрнинг II ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б.28.

Мирзакулов Б.Т. Бухоро амирлиги ҳудудларида кончилик ишлари хусусида // Кончилик хабарномаси-2. №29. 2007. – Б.124.

Михайлов А.Г. Золотопромышленность в Бухарском ханстве // Туркестанские ведомости. №49. 1897 г.

Логофет Д.И. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – С.238.

Золотник – мискол, $\frac{1}{16}$ пуд ёки 4,26 граммга тенг оғирлик ўлчов бирлиги.

Алелеков Ф.А. Минеральные ресурсы Бухары. – С.32.

Тухтаметов Т.Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе: “Ирфон”, 1977. – С.125.

Ўзбекистон миллий архиви, И-41, 1-рўйхат, 304-иш, 87-варақ.



- Логофет Д.Н. Золотопромышленность в Восточной Бухаре // Туркестанские ведомости. №139. 1905 г.
- Логофет Д.И. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. - С.80
- Рок Тен. Золотые прииски в Бухаре // Туркестанский сборник. №543. 1910 г.
- Алелеков Ф.А. Минеральные ресурсы Бухары. – С.34.
- Остроумов Н.В. География Туркестанского края с краткими сведениями о ханствах Бухарском, Хивинском и Закаспийской области: (родиноведение). – Самарканд. 1891. – С.75.
- Логофет Д.Н. Бухарское ханство. Под русским протекторатом. Том 1. – С.269.
- Логофет Д.И. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – С.145.
- Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. – С.10.
- Марказий Осиё бозорида керосин савдоси // “Закаспийский обозрение” (Асхабад). № 122. 11 июня 1899 г.
- Езиоранский Л.К. Фабрично-заводские предприятия Российской империи. – С.599.
- Конопка С.Р. Туркестанский край. – С.255.
- Иллюстрированный путеводитель по Средне-Азиатской железной дороге. От станция Красноводск до станция Ташкент, Андижан, Скобелов, Кушка и Бухара. – С.90.
- Ўзбекистон тарихи (1860-1917). Хрестоматия. Том 4. – С.447.
- Алелеков Ф.А. Минеральные ресурсы Бухары // Бухарский жизнь. 32
- Алелеков Ф.А. Минеральные ресурсы Бухары. – С.31.

**ЎЗБЕКИСТОН ЁЗУВЧИЛАР УЮШМАСИ БУХОРО БЎЛИМИ
КОТИБЛАРИ****(архив материаллари асосида, биринчи мақола)***Ахматов Амонкелди,**тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Бухоро***SECRETARIES OF THE BUKHARA DEPARTMENT OF THE
ASSOCIATION OF UZBEKISTAN WRITERS
(based on archival materials, the first article)***Akhmatov Amonkeldi,**doctor of philosophy in historical sciences (PhD), Bukhara***СЕКРЕТАРЕЙ БУХАРСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ АССОЦИАЦИИ
ПИСАТЕЛЕЙ УЗБЕКИСТАНА****(по архивным материалам, первая статья)***Ахматов Амонкелди,**Доктор философии по историческим наукам (PhD), Бухара*

Резюме: Ушбу туркум мақолада Бухоро адабий ҳаракатчилиги асосини ташкил қилган Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг Бухоро бўлими раҳбарлари ҳақида айрим таҳлилий ва танқидий маълумотлар берилган.

Таянч сўзлар: Адабий муҳит тарихи, адабий ҳаракатчилик, Тошпўлат Ҳамид, Ёзувчилар уюшмаси, шеърят, "Нилуфар" адабий тўғараги.

Аннотация: В данной статье представлены некоторые аналитические и критические сведения о руководителях Бухарского отделения Союза писателей Узбекистана, составивших основу бухарского литературного движения.

Ключевые слова: История литературной среды, литературное движение, Тошпўлат Ҳамид, союз писателей, поэзия, литературный кружок «Нилуфар».

Summary: This series of articles presents some analytical and critical information about the leaders of the Bukhara branch of the Union of Writers of Uzbekistan, who formed the basis of the Bukhara literary movement.

Keywords: History of literary environment, literary movement, Toshpolat Khamid, Writers' union, poetry, «Nilufar» literary circle.

Кириш. Ўзбекистон тарихининг бўлимларидан бўлмиш адабий жараёнларни ўрганиш ҳам муҳим долзарблик касб этади. СССР Ёзувчилар уюшмаси ва унинг таркибида Ўзбекистон шу жумладан, Бухоро бўлимининг ташкил қилиниши адабий муҳитда бир қатор янгиланишларни юзага келтирди. Жадаллашган адабий жараёнларнинг бориши бир қатор ижобий ва салбий ҳолатларни юзага келтирди. Бухорода ташкил қилинган Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси бўлимининг фаолияти учун ҳам шундай хулоса бериш мумкин. Тарихи тўла ўрганилмаган ушбу ташкилотнинг котиблари фаолиятини ўрганишни ушбу мақола орқали бошладик.

Адабиётлар таҳлили ва методлар: Мазкур мақолани таҳлил қилиш жараёнида илмий билишнинг мантиқийлик, тарихийлик, изчиллик ва обективлик усулларидан кенг фойдаланилди. Ушбу давр Бухоро адабий муҳити тарихи бўйича адабиётшуносликда баъзи бир ишлар қилинган бўлсада, Ўзбекистон тарихи бўйича ҳамон бу борада тадқиқотлар олиб борилмаган.

Асосий қисм. XX аср Бухоро адабий муҳитига дастлаб Шарифжон Махдум (Садр Зиё), Садриддин Айний, Абдурауф Фитратлар навбати билан етакчилик қилдилар. Бироқ, 40 йиллардан кейинги жараён кузатилса, Бухоро адабий муҳитида яққол кўзга ташланадиган етакчиликни қўлга олиб, адибларни бирлаштирадиган ташкилотчи учрамайди. Бу ҳол токи 1950-йил ўрталарига

кадар давом этади. XX аср 50-70-йиллари Бухоро адабий муҳитининг забардаст вакили, ташкилотчиси ва жонкуяри Тошпўлат Ҳамидов адабий саҳнага чиқиши билан муҳит ўз етакчисига эга бўлди.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин бироз пасайиш кузатилсада, 1950-йилларга келиб вилоятларда ҳам адабий жараёнлар қайтадан ташкиллаштирилди. XX аср 50-йилларига келиб Республиканинг минтақавий адабий доираларида ижод қайта юксала бошлади. Бухорода урушдан кейин тушкунликка учраган адабий муҳит қайта юксала бошлади. Ўзбекистон ССР Вазирлар кенгашининг 1955 йил 21 январдаги 100 сонли қарорига мувофиқ Ўзбекистон Совет Ёзувчилар уюшмасининг маъмурий бошқарув аппарати таркиби ва штат бирлиги қайта шакллантирилди. Қарорга биноан бир қатор вилоятларда Ёзувчилар уюшмасининг бўлимларини ташкил қилишга киришилди. 1955-йил 1-октябрда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг Бухоро, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятларини бирлаштирган бўлими ташкил этилади[5,82].

1957 йил февралда шоир Ғафур Ғулом Бухорога ташриф буюриб, ёш ижодкорлар билан учрашди. Учрашув Ғавкушон минораси ёнидаги “Ўқитувчилар уйи” да ўтказилди. Кечани шоир Тошпўлат Ҳамид очиб, дастлабки сўзни Ғафур Ғуломга берди. Атоқли шоиримиз ўз лутфида ижодкорнинг масъулияти, ёш ёзувчи ва шоирлар кўп ўқиши, ҳаётни яхши ўрганиши лозимлиги ҳақидаги фикрларини айтиб, ўз шеърларидан ўқиб берди”[2,205]. Шунингдек, Ҳамид Ғулом, Жалол Икромий, Асқад Мухтор, Суннатулла Анорбоев, Сергей Бородин, Жуманиёз Жабборов, Юсуфжон Ҳамдам, Мирмуҳсин ва бошқа адиблар пахта йиғим-терими айни авж олган 1959 йилнинг октябрь ойи ўрталарида Ғафур Ғулом бошчилигида вилоятга келишди.

Халқаро алоқаларни жонлантиришга хизмат қилган Швеция ёзувчилар союзи раиси ўринбосари Ян Елен ва Швед шоири Карл Ваннберглardan иборат ёзувчилар делегацияси Ўзбекистонда бўлди (1962 йил). Улар Тошкент, Самарқанд, Бухоро шаҳарларининг қадимий ёдгорликларини янги маданий ўчоқларини томоша қилдилар[5,175].

1950-70 йилларда Бухоро адабий муҳити вакиллари доимий равишда Механизатсия мактабининг ўқувчилари билан учрашув ташкил қилишади. Адабий кечаларда муаллифлар ўзларининг энг яхши шеърларидан, ҳаваскор ижодкорларнинг, таниқли рус ва ўзбек совет адибларининг асарларидан парчалар ўқилади.

Бухоро давлат Педагогика институтида ҳам алоҳида адабий муҳит шаклланган эди. Китобхонлар конкурси, ёш ижодкорлар конференциялари ташкиллаштириб турилган. Ўзбек адабиёти кафедраси ҳузурида “Ёш ижодкорлар” адабий тўғараги фаолият юритган. 1962 йил ректор Д.Намозов раҳбарлигида Шухратнинг “Шинелли йиллар” романи юзасидан декабр ойида китобхонлар тадбири ташкиллаштирилганда адибнинг ўзи ҳам иштирок қилган[5,188].

Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими 1957-йилда дастлабки шеърлар тўпламини нашр эттирди. “Бухоро куйлайди” (бадий ҳаваскорлик тўғарақлари учун репертуарлар тўплами)[1,190-194] деб номланган тўпланда кўплаб шоирларнинг шеърлари жой олади.

Тошпўлат Ҳамиднинг ташаббуси билан шу йилнинг ўзида бухоролик ёш ижодкорларни жамлаган “Октябрга гулдаста” шеърлар тўплами нашр этилади. Ёзувчилар уюшмаси вилоят бўлимини раҳбари сифатида ижод аҳлини, илмни ҳурмат қилган, кадрлаган адиб матбуотда кўплаб шеърлари билан иштирок қилиб илк тўплами “Қуёш шаънига” номи остида 1960 йилда нашр эттирган эди.

Драматургия, болалар адабиёти, адабиётшунослик ва фольклоршунослик, таржима ва таржимашунослик соҳаларида ҳам ўзига хос жонланиш

сезила бошланди. Бу соҳаларнинг ҳар бири алоҳида тадқиқотга арзигулик. “Асроркулнинг кўчқори” шеърий эртақдаги хулоса золимлар салтанати жазосини олади халқ ўз эркига эришади. “Қора кийик” достонида халқимизнинг эрк ва озодлик, фаравон ҳаёт учун кураши тарихи мавзу қилиб олинган. Амирликнинг кулаши тасвирланиши билан бирга совет мафқураси устуворлиги яққол сезилади. “Кувғин” достони ҳам тарихий биографик мавзуда бўлиб Ибн Сино ҳаёти тасвирга олинади. “Тилла дарвоза” достонида Мурунгов олтин конининг очилиши ва бунёдкорлик ғалабалари ҳикоя қилинади. “Тулоб” достонида Маликчўлнинг ўзлаштирилишида ёшларнинг шижоати куйланади [4,333].

Шеъриятда меҳнат аҳлини улуғлашга бағишланган кўплаб шеърлар ёзди, замон кишиси сифатида даврдан келиб чиқиб мулоҳаза юритади. Совет режими мафқурасини олқишлаб, пахта якка ҳокимлигининг асоратини, меҳнаткашларни эксплуатация қилинаётганини, шўролар мафқураси алқаган пахта якка ҳокимлиги иллат эканлигини эътиборга олмайди. “Норхола”, “Пахтазор гўзали”, “Кўлларингни яширма, Жаннат”, “Пахта ва Кўёш” сингари пахта яккаҳокимлигига даъват этувчи шеърлари шулар жумласидандир. Аслини айтганда, ушбу жиҳат давр шоирлари шеъриятига хос муштарак иллат эди.

Камтарликка ундовчи, лоқайдликдан қочишга чорловчи, тарбия ва оила масалаларига бағишланган “Лочин ва Зағизгон”, “Ўликлар тиригу...” шеърларида одамлар орасидаги муносабатлар қаламга олинади.

“Бухоро ҳақиқати” газетаси ҳузурида ёш ижодкорларнинг “Нилуфар” адабий тўғараги ташкил қилиниб, ойда бир марта йиғилиб турадиган Бухоро воҳасининг турли ҳудудларидан бадиий ижодга ҳавасманд қаламкашларни уюштирди. Тошпўлат Ҳамид ташаббуси билан ташкил қилинган ушбу тўғарак аъзоларининг ижод намуналари матбуотда бериб борилди. Адабий машғулотлар шаҳар кутубхонасида, педагогика институтида ташкил қилинган.

Тошпўлат Ҳамидов бўлим раҳбари сифатида доимий хизмат сафарларида бўлган. Биргина 1967 йилнинг ўзида 25-28 январь кунлари Тошкентда 26 январь куни ёзувчи, композитор, рассом, архитектор, кинофотограф, театр жамоаларининг йиғилишида [5,12]. 1967-йил 17-июнда ижодкорлар конференциясида; 1967-йил 10-сентябрда Абдулла Қаҳҳор 60-йиллигида иштирок қилган. Ушбу сафарлар харажатлари ўз вақтидан кечиктириб бўлсада тўланган.

Уюшма рабари бир йилда 24 иш кунилик таътил олиш имкони бўлган Жумладан, 1967-йил 9-октябрь меҳнат таътилини имзолаган Тошпўлат Ҳамидов 15-октябрдан 15-ноябргача таътилда бўлган. Бироқ шу орада 5-ноябрда таътил давомида октябрь 50-йиллиги тадбирида қатнашган. 1967-йил 27-28 ноябр кунлари М.Горкий юбилейида иштироки кузатилади [5,198].

Доимий сафарлар, айниқса бутун вилоят адабий тадбирларининг масъулияти, сиёсий жараёнлардаги фаоллик адибни толиқтиради. Малевка шаҳрида даволаниш асносида ҳам адиб ўзини ижоддан узолмайди. “Тувак гул”, “Мустаҳзод – Кўзи учадир магарки ёрим келадур”, “Най”, “Ҳаёт” каби шеърлар айни шу вақтда ёзилган эди [5,1].

Ёш авлодни коммунистик руҳда тарбиялашда бадиий адабиётнинг роли ғоят катталигига эътибор қаратган совет ҳукумати болалар адабиётини ривожлантириш тўғрисидаги чиқарган қарори дастлабки қадам эди. Ўзбекистон совет ёзувчилар уюшмасининг 1970 йил 28-май ҳисоботида болалар адабиёти билан шуғулланадиган адиблар рўйхати шакллантирилган. Афсуски ушбу рўйхатда Бухоро вилятидан бирор ижодкор кўрсатилмаган. Бироқ пойтахт Тошкентда ижод қилувчи болалар адиблари рўйхатида бухоролик ижодкорлардан Омон Мухтор ва Сафар Барноларнинг номлари рўйхатга киритилган [5,6].

Хулоса қилиб айтганда, 50-70 йиллар Бухоро адабий муҳитининг ривожланиши биринчидан: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлимининг ташкил қилиниши; иккинчидан: Тошпўлат Ҳамиднинг ташкилотчилик ва



рахбарлик қобилияти туфайли юзага келди. Унинг раҳбарлигида 70 га яқин адиблар ижодий кучларини бирлаштирган адабий муҳит фаолияти фойдали ва самарали бўлди. Ёш ижодкорларнинг тўғарак ва адабий курсларга уюшишлари таниқли шоир ва ёзувчилар билан учрашувлар алоҳида аҳамиятли бўлди. Адабиётда меҳнат аҳлини улуғлашга бағишланган кўплаб асарлар ёзилди, замон кишиси сифатида давр сиёсатидан келиб чиқиб мулоҳаза юритилди. Совет режими мафкурасини олқишлаб, пахта якка ҳокимлигининг асоратини, меҳнаткашлар эксплуатация қилинаётгани, советлар мафкураси алқаган пахта якка ҳокимлиги иллат эканлигини эътиборга олишмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бухоро ВДА, 1198-фонд, 1-рўйхат, 7-иш.
2. Ғулом Шомурод. Меҳр меҳвари: Шеърлар, дostonлар, хотиралар. - Тошкент.: «Шарқ», 2014. – Б.205.
3. Ахматов А. Бухоро адабий муҳити тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.. автореф.... – Бухоро, 2022.
4. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2015. –Б. 293.
5. Ўзбекистон МДА, Р-2356-фонд, 1-рўйхат, 369,405–ишлар.

O'ZBEKISTON SSRDA MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARINING SHAKLLANISHI (1925-1926-yillar)

*Sodiqov Furqat Fattuloyevich,
Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti kata ilmiy xodimi, t.f.f.d.(PhD)*

ФОРМИРОВАНИЕ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКСКОЙ ССР(1925-1926 гг.)

*Содиқов Фурқат Фатуллоевич,
стариций научный сотрудник, д.ф.и.н(PhD)
научно-исследовательского института "Семья и женщина"*

FORMATION OF LOCAL AUTHORITY IN THE UZBEK SSR(1925-1926)

*Sodikhov Furkat Fatulloevich,
d.f.h.s.(PhD), Senior Researcher(PhD) of the scientific-research institute
"Family and Women"*

Annotasiya. Maqolada 1925-yilda O'zbekiston SSRning tashkil topishi natijasida mahalliy boshqaruv idoralarining shakllanishi, tuzilishi, saylov jarayonlari ochib berilgan. Shuningdek, mahalliy boshqaruv idoralarini shakllantirishda mavjud muammolar va qarshiliklar hamda sovet hukumatining ularni bartaraf etish uchun amalga oshirgan chora tadbirlari manbalar asosida tahlil qilingan. Mahalliy sovetlarda o'tkazilgan saylovlar va saylov huquqi batafsil yoritilgan. O'zbekiston SSRda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi o'tkazilishida mahalliy boshqaruv idoralarining tutgan o'rni va aksincha ushbu islohotning mazkur idoralarga ta'siri masalasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sovet, mahalliy boshqaruv, idora, viloyat, tuman, uyezd, volost, qishloq soveti, saylov, yer-suv islohoti, yot unsur, batrak, dehqon, o'rtahol.

Аннотация. В статье рассматривается о формировании, структуре и избирательных процессах местных органов управления в результате образования Узбекской ССР в 1925 году. Также на основе источников были проанализированы существующие проблемы и сопротивления в формировании местных органов управления, а также меры, принимаемые советской властью для их устранения. Подробно освещаются выборы в местные советы и право голоса. Приводится информация о роли местных органов управления в проведении второго этапа земельно-водной реформы в Узбекской ССР и, наоборот, о влиянии этой реформы на эти органы.

Ключевые слова: совет, местное управление, орган, область, район, уезд, волость, сельский совет, выборы, земельно-водная реформа, чуждые элементы, батрак, крестьянин, середняк.

Annotation. The article discusses the formation, structure and electoral processes of local authorities as a result of the formation of the Uzbek SSR in 1925. Also, based on the sources, the existing problems and resistances in the formation of local authorities, as well as the measures taken by the Soviet authorities to eliminate them, were analyzed. Elections to local soviets and the right to vote are covered in detail. Information is provided on the role of local authorities in the implementation of the second stage of the land and water reform in the Uzbek SSR and, conversely, on the impact of this reform on these bodies.

Key words: soviet, local authority, authority, region, district, uyezd, volost, village soviet, elections, land and water reform, alien elements, laborer, peasant, middle peasant.

Kirish. O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari viloyat, uyezd, volost va shahar sovetlari syezdi va ularning ijroiya qo‘mitalaridan, qishloqlarda esa qishloq sovetlaridan iborat edi. Bu jihatdan respublikadagi mahalliy boshqaruv tizimi Turkiston ASSRdagi tizim bilan bir xil edi. Yangi tuzilgan respublika oldiga mahalliy hokimiyatni shakllantirish uchun ko‘plab muammolar mavjud edi. O‘zbekiston SSRning Qashqadaryo, Surxondaryo Xorazm va boshqa viloyatlarida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat, mahalliy sovetlarni tuzish uchun kerak bo‘ladigan huquqiy asos, kadrlar masalasi, quyi sovetlardagi og‘ir iqtisodiy vaziyat va boshqa shu kabi muammolarni keltirish mumkin. Yuqoridagi masalalarni hal etish uchun markaz va respublika rahbariyati tomonidan amaliy harakatlar olib borilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur masalani yoritishda 1925-yilda Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi (OGPU)ning materiallari aks etgan “Совершенно секретно»: Лубянка — Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.)” materiallar to‘plamining 1925-yilda chop etilgan 2-tomidan foydalanildi. Ushbu to‘plamda sovet boshqaruv idoralari faoliyatining tahlili va boshqaruv apparati xodimlarning ijtimoiy kelib chiqishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralarining shakllanishi, faoliyati masalalari “История советского государства и права Узбекистана: 1924-1937 гг.” 2-tom, “O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). O‘zbekiston 1917-1939 yillarda.” 1-tom fundamental tadqiqotlarda yoritilgan.

E. Chernyavskiy, J.A. Zaychenko asarlarida mahalliy boshqaruv idoralarida o‘tkazilgan saylovlar, O‘zbekiston SSRdagi yer-suv islohotida mahalliy boshqaruv idoralarining o‘rni va ushbu siyosatning mahalliy boshqaruv idoralariga ta’siri tahlil qilingan.

O‘zbekiston Milliy arxivining 86-fondi 2445- va 3103-ishlarida volost byudjetini shakllantirish masalalari va 1926-yilda mahalliy boshqaruv idoralarida o‘tkazilgan saylovlarning tashkiliy jihatlari ochib berilgan.

Natija va munozara.

Sovet hukumati oldingi davrlarda bo‘lganidek ularga qarshi qurolli harakat davom etayotgan hududlarni doimiy ravishda to‘liq nazoratga olish uchun harakat qildi va bu masala ularning doimiy kun tartibida bo‘ldi. Ushbu hududlarda mahalliy boshqaruv idoralarini shakllantirish va mustahkamlash uchun turli xil nazorat idoralari va usullaridan foydalandi. 1923-yilda tashkil topgan Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi (ОГПУ) ana shunday idoralardan biri edi.

Davlat Siyosiy Boshqarmasi sovet hokimiyatiga qarshi kurashni tugatishda sovet boshqaruv idoralari faoliyatini ham tahlil qilib bordi. Tashkilotning kuzatishlari va tahlillari natijasida qishloqlarda sovet hokimiyati umuman mavjud emas degan xulosaga kelgan[1,560]. Chunki bu paytda qo‘rboshilar egallab turgan ko‘pgina qishloqlarda fuqarolik va harbiy hokimiyat bevosita ular tomonidan amalga oshirilgan. Shunday hududlarda sovet hokimiyati joriy etgan tartib qoidalar amal qilmagan. Joylarda sovet boshqaruv idoralari vakillari nomigagina saylab qo‘yilgan, xolos.

Shu bilan birga, Davlat Siyosiy Boshqarmasi sovet boshqaruv apparatida xodimlarning ijtimoiy kelib chiqishini doimiy ravishda o‘rganib borgan. Boshqaruv tizimida “begona elementlarning” mavjudligini aniqlash masalasi ustuvor vazifa hisoblangan. Ya’ni sovet boshqaruv apparatida sobiq amaldorlarning xavfli ekanligini inobatga olib va ularning “bosmachilar” bilan aloqalari bo‘lishi mumkinligini oldini olish maqsadida imkon qadar ularni egallab turgan mansab va lavozimidan “yot unsur” sifatida tozalangan. Masalan, 1925-yil dekabrda OGPUning ma’lumotiga qaraganda, Samarqand oblastining Kattaqo‘rg‘on uyezdida “Qo‘shchi” ittifoqi a’zolarining 60 foizi boylardan tarkib topgan. Surxondaryo oblastida “Qo‘shchi” ittifoqining raisi ham sobiq amirning amaldorlaridan biri va u bosmachilar bilan aloqa qiladi, deb ro‘yxatga olingan[1,721-722].

Shu bilan birga, Sovet hukumati 1925-yil 11-martda qurolli harakat davom etayotgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga qishloq sovetlarini boylar,

mullalar va qurolli harakatga yordam berayotgan deb e'tirof etgan guruhlardan tozalash uchun keng vakolatlarga ega bo'lgan maxsus komissiyani yuboradi[2,58]. Komissiya o'z faoliyati davomida yuqoridagi hududlarda quyi sovet idoralarini taftish qilib, u yerdagi bolsheviklar nazdida aytilgan yot unsurlardan tozalash ishlarini olib bordi.

1925-yilning 23-sentabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti IV-plenumida "O'zbekistonda Sovetlar ishini yaxshilashning bugungi holati va istiqboliga bag'ishlangan ishlar" masalasini ko'rib chiqdi. Unda partiya idoralariga batraklardan tortib o'rta qatlamgacha bo'lgan fuqarolarni Sovetlar atrofida birlashtirish va ushbu kuchlarni boylar zo'ravonligiga qarshi qo'yish, quyi sovet apparatini dehqonlar bilan yaqinlashtirish bo'yicha barcha kuchlarni safarbar etishni topshirdi[3].

Mahalliy sovetlarning barqaror ishlamasligining yana bir sababi ushbu idoralarning, ayniqsa quyi idoralar bo'lgan volost ijroiya qo'mitasi va qishloq sovetlarining moddiy ahvoli edi. Tadqiqotning oldingi paragrafida aytilganidek, qishloq sovetlarining byudjeti mavjud emas edi. Ular uyezd byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan bo'lib, bunda ham volost prezidiumi va qishloq soveti raisi maosh olgan xolos. Bevosita xalq bilan aloqada bo'lgan va ularni sovet hukumati tomonga og'dirishda asosiy tayanch bo'lgan ushbu idoralarning moddiy mustaqilligini ta'minlash va ularga ko'proq vakolatlar berish hisobiga ularning sovet hukumatiga bo'lgan sadoqatini oshirish maqsadida 1924-yildan boshlab Turkiston ASSRda tajriba tariqasida volostlarning byudjetlarini tashkil etish boshlangan edi. 1925-yilga kelib faqat 6 ta: Toshkent viloyatining Piskent, Chinoz, G'oyibota va Farg'ona viloyatining Qo'qon-qishloq, Asaka va Chortoq volostlarida o'zining byudjeti mavjud edi. O'zbekiston SSR hukumati bunday volostlarning sonini kengaytirishni Moliya ishlari bo'yicha xalq komissarligiga topshiradi. Lekin, iqtisodiy ahvoldan kelib chiqib faqat har tomonlama yaxshi shakllangan volostlardagina byudjetlarni tashkil etishga ko'rsatma berildi[4]. Keyinchalik bu masala ham oxiriga yetolmay qoladi. Chunki O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish natijasida volostlar tugatiladi va respublikada uch bosqichli ma'muriy boshqaruv tizimi: Viloyat(okrug), rayon(shahar) va qishloq sovetlari shakllantiriladi[5,100].

O'zbekiston SSR MIQ Respublika Konstitutsiyasi qabul qilinguniga qadar, mahalliy boshqaruv idoralarning huquqiy maqomini belgilash maqsadida 1925-yil 16-dekabrda "Qishloq sovetlari to'g'risidagi Nizom"ni va O'zbekiston SSRda saylov tizimi mexanizmlarini aniqlab beradigan "Sovetlarga saylovlar bo'yicha qo'llanma"ni tasdiqladi[2,69]. Mazkur qo'llanmaga asosan O'zbekiston SSR hududida yashovchi quyidagi fuqarolar saylash va saylanish huquqiga ega bo'lgan:

a) davlat, jamiyat, xususiy idora va muassasalar, sanoat, savdo, qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi va xizmatchilar;

b) Qizil armiya, flot, davlat siyosiy boshqarmasi, ishchi-dehqon militsiyasi harbiylari va xodimlari;

v) boshqalarning mehnatidan foydalanmaydigan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan dehqonlar;

g) hunarmand va kosiblar, o'zi ham mehnat qiladigan, tegirmon, moyjuvoz, temirchilik sexlari egalari;

d) birinchi razryad patentiga ega bo'lgan chakana savdogarlar.

Saylash va saylanish huquqidan quyidagi shaxslar mahrum qilingan: 1) boshqalarning mehnati natijasida foyda oladigan shaxslar, 2) mehnat qilmasdan topadigan daromadda yashaydigan shaxslar(sudxo'rlar), 3) eski boshqaruv tizimi amaldorlari, 4) ruhiy nosog'lom shaxslar, 5) barcha din xizmatchilar(mulla, imom, rohib va boshq.)[2,69].

Yuqoridagi huquqlarni tahlil qiladigan bo'lsak, sovet hukumati savdo, sanoat, hunarmandchilik vakillariga saylov huquqlarini bergan bo'lsa, hali ham boy, yirik yer egalari, sudxo'rlar va din vakillari uchun ular cheklangan bo'lgan.

1925-yilda umumiy saylov huquqiga ega bo'lganlarning 1,7 foizi saylov huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, 1926-yilda bu ko'rsatkich 1,92 foizni tashkil etgan(1-rasm)[6,190]. RSFSRda esa bu ko'rsatkich 1925/1926 yillarda 1 foizdan iborat bo'lgan[7,63].

1-rasm.

Viloyat yoki okrug	Saylovchilar soni (ming kishi hisobiga)	Saylov huquqidan mahrum qilinganlar
Toshkent	166	5382
Samarqand	231	4647
Andijon	310	4828
Qo'qon	299	3940
Xo'jand	70	1172
Zarafshon	238	5296
Qashqadaryo	156	2421
Surxondaryo	87	2259
Xorazm	137	2779
Konimex tumani	14	116

1-rasm. O'zbekiston SSRda 1926-yilda saylov huquqidan mahrum qilingan aholi soni.

O'zbekiston SSR MIQ qoshida tuzilgan Markaziy saylov komissiyasi sovetlarga saylovlar to'g'risidagi yo'riqnomaga asosan, mahalliy boshqaruv idoralari tarkibini quyidagicha belgilaydi: okrug ijroiya qo'mitalari 25 - 35 nafargacha, uyezd ijroiya qo'mitalari 15-25 nafargacha, volost ijroiya qo'mitalari 7-15 nafargacha, qishloq soveti prezidiumi 3-5 nafardan tuzildi[8].

1925-yilda o'tkazilgan mahalliy saylovlar ikkita muhim xususiyati bilan ajralib turdi. Birinchidan, qishloq sovetlariga o'tkazilgan saylovlarda asosan dehqon, kambag'al va o'rta qatlam vakillari ishtirok etishdi va saylanganlarning 23,9 foizini batraklar, 35,7 foizini kam yerli dehqonlar va 37 foizni o'rta qatlam vakillari tashkil etdi[9]. Bu oldingi yillardagi saylov kampaniyalaridan yaxshi natija edi. Ikkinchidan, sovet hokimiyati o'rta qatlam kishilari uchun saylov huquqlari berdi va ular qishloqdagi dehqonlarning markaziy figurasi bo'ldi. O'rta qatlam deganda 3 desyatindan 10 desyatina(Rossiya imperiyasi davrida 1,09 gektarga teng bo'lgan yer o'lchov birligi. 1927-yildan ushbu o'lchov birligidan foydalanish sovet davlatida tugatilgan)gacha yerga ega bo'lgan dehqonlar qatlami tushunilgan. Endi bolsheviklarning asosiy diqqat markazida oldingi yillar kabi faqat kambag'allar diktaturasi emas, balki o'rtahol dehqon va ishchilar diktaturasini shakllantirish yotardi. Buning sababi, birinchidan, sovet hukumati davlatda kambag'allar emas, balki o'rtahol insonlar asosiy o'rinni egallashi kerak degan fikrga kelishdi va bu sotsializm mafkurasining asosiy shartlaridan biri edi. Ikkinchidan, bolsheviklar shahardagi ishchi va qishloqdagi dehqon o'rta qatlamga mansub ekanligini targ'ib qilish hamda xalqqa barcha insonlar yaxshi yashayotgandek ko'rsatmoqchi bo'lishdi. Shuningdek, ushbu siyosatni amalga oshirishdan yana bir maqsad, jamiyatda o'z tarafdorlari sonini ko'paytirish edi.

Bevosita saylov jarayoniga nazar solinsa, 1925-yilning aprel va iyul oylarida Jizzax, Samarqand va Mirzacho'l uyezdlarida mahalliy sovetlarga saylovlar bo'lib o'tdi. Mirzacho'l uyezdida 39 ta qishloq soveti va volost sovetlarida saylovlar o'tkazildi. Saylovlarda 30 foiz o'rta qatlam vakillari qatnashishdi. Jizzax uyezdidagi saylovlarda uyezd ijroiya qo'mitasi tarkibiga 83 foiz dehqon va 17 foiz shaharliklar saylandi, ungacha shaharliklar 56 foizni tashkil etishgandi. Samarqand uyezdidagi qishloq sovetlarida 52 foiz batraklar, 18 foiz kam yerli dehqonlar va 30 foiz o'rtahol kishilar saylandi[10].

Farg'ona viloyatida o'tkazilgan saylovlarda 50 foiz mahalliy sovetlar yangilandi[11]. Qishloq sovetlariga jami 9589 nafar deputatlar saylangan bo'lib, bu oldingi saylovlarga qaraganda 3 barobar ko'p bo'lgan[12].

1925-yilgi qishloq va ovul sovetlari saylovlarida saylov huquqiga ega bo'lgan aholining 45,9 foizi ishtirok etgan bo'lsa, 1926-yilda bu ko'rsatkich 46,4 foizni tashkil etgan. RSFSR bilan solishtirilsa, 1925 yilda 47 foiz saylov huquqiga ega bo'lgan

aholi saylovlarda ishtirok etgan[7,65].

Turkiston SSRda 1921-1922 yillarda yer-suv islohotining birinchi bosqichi o'tkazilgan edi. O'zbekiston SSR tashkil topgach, sovet hukumati tomonidan yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi o'tkazildi. O'zbekiston Kompartiyasining 1925-yilning noyabr oyidagi II s'ezdida respublikaning siyosiy rahbariyati "shu kunga qadar qishloqlarda saqlanib qolgan yerga nisbatan xususiy mulkchilik feodal munosabat sarqitlaridan bo'lib, shahar va qishloqlardagi bir guruh zamindorlar va boy-quloq unsurlar qo'lida barcha ekin ekiladigan yerlarning 1/3 qismi jamlanishiga va kambag'al-o'rtahol qishloq aholisining ezilishiga olib kelgani"ni ma'lum qilib, partiya va sovet hokimiyati oldiga O'zbekistonda "yer va suvni milliyashtirishni amalga oshirishga kirishishni asosiy vazifa sifatida ilgari suradi". O'zbekiston SSR MIQning 1925-yil 2-dekabrda favqulodda sessiyasida "Yer va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida" va "Yer-suv islohoti to'g'risida"gi dekretlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar yer-suv islohotini majburiy usulda amalga oshirish uchun me'yoriy asos bo'lib qoldi[13,481-482].

Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich: 1925-1926 yillarda Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo'ldi. Ikkinchi bosqich: 1927-yili Zarafshon viloyati (Buxoro va O'rta Zarafshon okruglari)da yer-suv islohoti o'tkazildi. Uchinchi bosqich: 1928-1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida amalga oshirildi. Qabul qilingan dekretlar asosida belgilanganidan ortiq yerlar, ish hayvonlari va mehnat qurollari tortib olingan. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolar va boshqa mulkdorlarning yerlari va butun mol-mulki musodara qilindi. O'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida bolsheviklar qishloqlarda turli qatlamdagi xalqni bir-biriga qarshi qo'ydi, tezkorlik bilan olib borilgan kompaniya vaqtida nafaqat yirik yer egalari, balki o'rtahol dehqonlarning ham yer-mulkleri tortib olindi. Natijada joylarda ushbu islohotga qarshi norozilik namoyishlari o'tkazildi, ko'plab insonlar qurolli harakat vakillari safiga qo'shilib ketdi. 1928-yil 1-avgustda O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasining qarori bilan Vaqf yerlari ham tugatildi[14,71].

Yer-suv islohotini o'tkazishda mahalliy sovetlar va "Qo'shchi" ittifoqining xizmatidan keng foydalanildi. Mahalliy sovetlar yirik yer egalari, sudxo'rlar, boy va savdogarlar hamda diniy ulamolarni aniqlab berish kabi vazifalarini bajargan. Shuningdek, sovet hokimiyatiga qarshi bo'lgan kishilarni va qurolli harakatga har qanday aloqasi bo'lganlarni aniqlashda ko'maklashgan. 1919-yilda Turkiston ASSRda sovet hokimiyatini mustahkamlash va qishloqlardagi odamlarga sovet hukumatining g'oyalarini singdirishga xizmat qilgan kambag'allar qo'mitalarining o'rniga "Qo'shchi" ittifoqi tuzilgan edi. Yer-suv islohoti paytida mazkur ittifoq qishloqlardagi yirik yer egalari aniqlash, ularning yer-mulkini musodara qilishda qatnashish, musodara qilingan yerlarning yersiz kambag'al dehqonlarga taqsimlash, kambag'al dehqonlar, chorikor(mahsulotning 1/4 qismi uchun mehnat qiluvchi)lar va o'rtahol dehqonlarni birlashtirish, yot unsurlar qatlamining mahalliy sovetlar tarkibiga kirmasligini nazorat qilish, qurolli harakatga qarshi mahalliy xalqqa tashviqot ishlarini olib borish kabi vazifalar bilan shug'ullangan. 1926-yilning oxiriga kelib "Qo'shchi" ittifoqi a'zolarining soni 120,7 ming kishiga yoki shu yil boshiga nisbatan 51,5 foizga ortgan[14,76].

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston SSR tashkil topgach, mahalliy boshqaruv idoralaridagi muammolar saqlanib qoldi. Bular qurolli harakat, sinfiy kurash, iqtisodiy muammolar, kadrlar yetishmasligi va hokazolar. Sovet hukumati va kommunistik partiya ularni bartaraf etishga qarshi turli xil choralar ko'rishga qaramay, ular kerakli samarasini bermagan. Buning sababi esa mintaqada milliy ozodlik harakatining davom etishi, mahalliy xalqning ayrim qatlamlari tomonidan sovet hokimiyati yuritayotgan noto'g'ri siyosat(yer-suv islohoti, saylov tizimidagi sinfiy adolatsizlik, jamiyatdagi sinfiy adolatsizlik, islom diniga bo'lgan

munosabat va boshqalar)ni qo'llab-quvvatlanasligi, joylarda iqtisodiy ahvoning og'irligi va boshqalar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati.

1. «Совершенно секретно»: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т. 3. 1925 г. Ч.2. – Москва, 2002. – С. 560.
2. История советского государства и права Узбекистана: 1924-1937 гг. Т2. Отв. ред.: Х.С.Сулаймонова и А.И.Ишанов. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1963. – С.58.
3. Правда Востока, 1925 г, 29 сентябр.
4. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445 -иш, 10-варақ.
5. Содиқов Ф. Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти (1917-1938 йиллар//Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент: 2022. –Б.100.
6. Содиқов Ф. Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти (1917-1938 йиллар). Тошкент: “Маҳалла ва оила” нашриёти, 2023. –Б.190.
7. Чернявский Е. Сайлаулар-саили. Праздник выборов. – Ташкент: Узгиз, 1927. – С. 63.
8. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 88-90 варақлар.
9. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 3103-иш, 37 варақ.
10. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 81-82 варақлар.
11. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 90 варақ.
12. Правда Востока, 1926 г, 5 феврал.
13. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Б. 481-482.
14. Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 71, 76.

TARIX FANINI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QITISH

*Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li,
Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasida
o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o'qitish jarayonida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiya usullarini qo'llash chog'ida fikrlash, tahlil qilish, xulosalash, fikrlarni bayon qilish, turli ko'nikmalarni shakllantirish, va ularni rivojlantirib borish, yangi texnologiyalarni qo'llashning talabalarning dunyoqarashiga tasiri, tarixiy tafakkur va tarixiy tasavvurni modellashtirish, unda pedagogning o'rni, mavzularni o'zlashtirishni oson va samarali tashkil etishda yordam beruvchi texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarix, innovatsiya, texnologiya, talim jarayoni, pedagogik texnologiya, Tarixni o'qitish metodikasi, o'qitish vositalari, pedagoglarning ko'nikmalari, interfaol uslublar.

ПРЕПОДАВАНИЕ ИСТОРИИ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li,
Buxarский государственный университет, преподаватель кафедры
«Археология и история Бухары»*

Аннотация: В данной статье при использовании методов современных инновационных педагогических технологий в процессе обучения истории, мышления, анализа, умозаключения, выражения мнений, формирования различных умений и развития их, применения новых технологий на мировоззрение учащихся воздействуют, моделируя исторического мышления и исторического воображения, рассказывает о роли педагога, о технологиях, помогающих в легкой и эффективной организации освоения темы.

Ключевые слова: история, инновация, технология, образовательный процесс, педагогическая технология, методика преподавания истории, средства обучения, мастерство педагогов, интерактивные методы.

TEACHING HISTORY THROUGH INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

*Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li,
Bukhara state university, teacher of the department of «Archeology and History of Bukhara»*

Abstract: In this article, while using modern innovative pedagogical technology methods in the process of teaching history, thinking, analyzing, concluding, expressing opinions, forming various skills, and developing them, the application of new technologies to the worldview of students influence, modeling of historical thinking and historical imagination, it talks about the role of the pedagogue, the technologies that help in easy and effective organization of mastering the topics.

Key words: history, innovation, technology, educational process, pedagogical technology, methodology of teaching history, teaching tools, skills of pedagogues, interactive methods

KIRISH. Bugungi shiddat bilan rivojlanib va o'zgarib borayotgan dunyoda biz bazi bir eski bilimlarni yangilashga yoki ularga bo'lgan qarashlarimizni o'zgartirishga muhtojlik sezmoqdamiz. Xususan, Tarix fanini o'qitishda zamonaviy dunyoda yangi

turfa hil tendensiyalar shakillangan bo'lib, bizdan bu bilimlarni Pedagog sifatida tahlil qilish va yangi Innovatsiyalar olib kirish talab qilinadi. «Innovatsiya» so'zining kelib chiqishi lotinchadan «Novatio» «yangilash», «o'zgartirish» degan ma'noni anglatadi va «in» «yo'nalishda» deb tarjima qilingan. So'zma-so'z «innovatio» - «o'zgarish yo'nalishida». Bundan tashqari, bu shunchaki har qanday yangilik emas, balki uni qo'llashdan keyin faoliyat samaradorligi va sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Sobiq sovet davrida tarixdan mafkura sifatida foydalanilgan bo'lib, u shunchaki o'tmishning juda jo'n lavhasiga aylanib qolgan. Ya'nikim, tarix shunchaki yillar, joy nomlari, voqealar va shaxslardan iborat ma'lumot omboriga o'xshatilgan mexanik tarzda yondoshilgan va tarixiy tahlil atayin, mafkura tufayli chetlab o'tilgan. Xo'sh, aslida bizga tarixiy tahlil nega kerak va biz buni qanday amalga oshira olamiz?

Tarixiy tahlil o'quvchida tarixiy jarayonlarga holis qarash, ushbu jarayonlarni shakllantirgan omillarni o'rganish va ushbu bilimlarni hayotda qo'llash hamda muammolarga yechim sifatida taklif qilaolish qobiliyatini shakllantiradi.

Shunday ekan, biz bu natijalarga qanday erisha olamiz? Albatta biz bu natijalarga yangi innovatsion texnologiyalar av vositlar orqali samaraliroq erishgan bo'lamiz. Demakki, Innovatsion texnologiya o'qitishning eng samarali yo'llarini izlovchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'llaniladigan usullar, prinsiplar va boshqaruvlar sistemasi sifatida ham, o'qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish o'rganish juda ham ko'plab ilmiy tahlillar va tadqiqotlar bilan bog'liq.

1. XX asr oxirlaridan bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar.

2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar va pedagogik eksperimentlar.

3. Xorijda olib borilayotgan eng so'ngi tadqiqotlar.

Bizga ma'lumki, Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir [1].

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. (Izohli lug'at).

Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir [2].

Interfaol (“Inter”- bu o'zaro, ”ast”- harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladi, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi [3]. Pedagog faoliyatining eng salmoqli qismi ayni shu tushuncha bilan bog'liq ekanligi bu tushunchaning muhimlik darajasini belgilab beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tarix fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalarining o'zni beqiyos bo'lib, ushbu yo'nalishda pedagogning novatorligi ayni damda fanning rivojlantiruvchi asosiy omili bo'lib ham hisoblanadi. Metodologiya oqilona va hissiy, faktlar va umumlashmalar, jamoaviy va individual, axborot va muammoli, tushuntirish

va qidiruv usullarini birlashtiradi. O'quv jarayonida o'quvchilar turli tadbirlarga jalb qilinadi[4]. O'qitishda didaktik o'yinlar, munozaralar, shuningdek, tasavvurni, fikrlashni, xotirani, nutqni boyitishga qaratilgan o'qitish usullaridan foydalaniladi. Tarix o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi izlanish va rivojlanish bilan birga olib borilishi lozim. Dars ta'lim jarayonining asosiy elementi bo'lib qoladi, lekin uning vazifalari, tashkil etish shakli har xil bo'lishi mumkin. Bu vosita va usullardan maqsad shuki, o'quvchi egallashi kerak bilimlarni oson va tez o'zlashtirib olsin. Kvintillianning fikricha: "Bilishga intilish irodaga bog'liq, majburan o'qitish mumkin emas". Demak: 1. Bolada ilmga va o'qishga barcha vositalar bilan zo'r ishtiyoq uyg'otish zarur. 2. O'qitish metodi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam bersin, toki bolada norozilik tug'dirib, uni o'qishdan bezdirib qo'ymasin" [5].

"Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda —Rim klubida qo'llanilgan. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ma'lumki, har qanday pedagogik va innovatsion texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo'lib, u o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilmog'i kerak. Yangi pedagogik texnologiya markazida ta'lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti va ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchitalaba turadi. Buning uchun ta'lim jarayoni, o'qituvchi va ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari o'quvchi-talabani aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchitalaba shaxsiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini vujudga keltirish, o'quvchi-talaba faoliyatini aniq va to'g'ri baxolash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim [4].

Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari darajalari.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uchta tartib bilan bir-biriga bog'liq darajalarda ishlatiladi.

Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'limning ma'lum bosqichida ushbu region, o'quv yurtida yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi. Bu yerda pedagogik texnologiya pedagogik tizimga o'xshashdir: unga o'qitishning maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari to'plami, faoliyat ob'ekti va sub'ekti algoritmi kiradi.

Tarix fanining metodik darajasi: Tarix fanining metodik darajasi "tarix faning metodik" ko'rinishida qo'llaniladi, ya'ni tarix fani bo'yicha, tarix o'qituvchisi doirasida o'qitish va tarbiyalash ma'lum mazmunini amalga oshirish uchun metodlar va vositalar to'plami sifatida ishlatiladi.

Lokal (modulli) darajasi: lokal texnologiya o'quv-tarbiyaviy jarayonning alohida qismlari, xususiyl didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan iborat (alohida turdagi faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar).

Biz innovatsion yechimlar izlaganimizda Interfaol usullarga ko'plab marotaba murojaat qilamiz. Shundan kelib chiqqan holda Interfaol usullarning maqsad va vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

-ta`lim oluvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy, tahliliy mantiqiy, ijodiy fikrlashga va ular asosida to`g`ri qarorlar qabul qilishga o`rgatish;

-bilim oluvchilarni muammoli vaziyatlardan qiynalmay chiqqan olishga, nazariy va amaliy hamda kasbiy (hayotiy) topshiriqlarni bajarishni uddalashga o`rgatish;

-o`quvchilarni fikrlashga undash orqali, ularni izlanishga va ijodkorlikka yo`naltirish;

-ta`lim oluvchidagi hamkorlikning samarali yo`llarini va kasbiy bilim, ko`nikma hamda malakalarini egallashga bo`lgan xatti-harakatlarini faollashtirish;

- ta`lim oluvchilarni tashkilotchilik, boshqaruvchilik (rahbarlik) ka undash.

Interfaol usullardan foydalanishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi vositalardan foydalanish mumkin:

- kasbiy didaktik o`yinlar;
- rolli o`yinlar;
- kasbiy kompyuterli o`yinlar;
- interfaol o`quv adabiyotlari;
- axborot kommunikatsiya;
- metodik ko`rgazma.

Ushbu usulblarning samaradorligi albatta pedagog va o`quvchi o`rtasidagi muloqot va muloqot vositlariga ham bog`liq.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, tarix fanini o`qitishning innovatsion usullari va texnologiyalari ayni vaqtda ta`limning rivojlanishiga va o`quvchini yoki talabaning tarix fanini o`zlashtirish darajasini osonlashtirish, tezlashtirish hamda samarador qilishga, shuningdek, bir vaqtning o`zida oldinga qo`yilgan ta`limiy maqsadlarga yetishga zamin yaratadi. Bunda dars jarayonida bu kabi usullarni tizimli ravishda qo`llash oxir-oqibatda bo`lajak pedagoglar va o`quvchi yoshlarda tarix fanini o`rganish uchun psixologik rag`bat beradi. Bu jarayon ta`lim sifatiga o`z tasirini o`tkazmay qolmaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.

2. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогических технологий. - М: 1989. - 192 с

3. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta`limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008

4. O`quv jarayonida ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash yo`llari. - T.: TDIU, 2005. 60-bet.

5. Ya.A.Komenskiy. Buyuk didaktika. O`qituvchi nashriyoti, 1975. 134-bet

6. A.T. Teshayev, O.Boboqulov. Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o`qitilishi (Is`hoqxon Ibrat va munavvarqori tashkil etgan maktablar misolida). scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601. 276-283-b

7. A.T. Teshayev, O.Boboqulov. Turkistonda yangi usul maktablarining faoliyati (XIX asr oxiri-XX asr boshlari) scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601. 269-275-b

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ БЕНАЗИР СИЙМО (Атоқли давлат ва жамоат арбоби Назир Ражабов сиёсий фаолиятига чизгилар)

*Қахрамон Ражабов,
тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон ФА Тарих институти
бош илмий ходими*

Аннотация: Мақолада Ўзбекистоннинг таниқли давлат ва сиёсат арбоби Назир Ражабов ҳаёти ва фаолияти ҳақида сўз юритилади. Мақола оғзаки тарих маълумотлари ҳамда даврий матбуот материаллари асосида ёзилган бўлиб, унда сиёсий арбоб фаолиятининг муҳим жиҳатлари тадқиқ этилади.

Калит сўзлар: сиёсий раҳбар, обком секретари, министр, Марказий Қўмита, порахўрлик, қайта қуриш, ошкоралик, демократия, халқ депутати, катагон, мустақиллик.

ВЫДАЮЩИЕСЯ ЛИЧНОСТЬ. В УЗБЕКИСТАНЕ (Политическая карьера Назира Раджабова, выдающегося государственного и общественного деятеля)

Аннотация: В статье подробно проанализирована жизнь и политическая карьера Назира Раджабова, выдающегося государственного и общественного деятеля в Узбекистане. Статья использует комплексное сочетание устных исторических свидетельств и материалов современных СМИ, для исследования ключевых аспектов политических деятельностей Раджабова.

Ключевые слова: политический лидер, секретарь обкома, министр, Центральный Комитет, взяточничество, реформы, давление, демократия, народный депутат, репрессии, независимость.

BENAZIR SIYMO IN UZBEKISTAN (The Political Career of Nazir Rajabov, a Prominent State and Community Figure)

Annotation: This article provides a detailed analysis of the life and political career of Nazir Rajabov, a prominent state and community figure in Uzbekistan. The article draws on a combination of oral historical accounts and contemporary media materials to explore the key aspects of Rajabov's political activities.

Keywords: political leader, secretary obkom, minister, Central Committee, bribery, reform, oppression, democracy, people's deputy, repression, independence.

Ўзбекистоннинг қадимий ва табаррук гўшаларидан бири Бухоро саналади. Бухоро вилоятидан, хусусан, унинг ўзидек кўхна ва муқаддас Шофиркон туманидан (қадимий Вардонзе худудидан) кўплаб машҳур кишилар чиққан. Бу табаррук тупрокда туғилган олим ва шоирлар, ёзувчилар ва санъаткорлар, давлат ва сиёсат арбоблари силсиласида шундай бир беназир зот борки, бундай инсон ҳар бир халқ тарихида камида ҳар эллик – юз йилда бир марта туғиладиган ҳамда тарихнинг бурилиш даври ва миллатнинг оғир дамларида унга ҳамдард ва йўлбошчи бўладиган арбоб саналади. Аср одами (академик Тўра Мирзаев ибораси), XX аср иккинчи ярмида Ўзбекистон халқ хўжалиги тараққиётида чуқур из қолдирган, сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнларда фаол қатнашган, таниқли сиёсат ва давлат арбоби Назир Ражабович Ражабовнинг жўшқин фаолияти ҳамда мураккаб тақдири Ўзбекистоннинг янги ва энг янги тарихида ноёб ҳодиса ҳисобланади .

Назир Ражабов феномени энг аввало ақл-идрок, юксак маънавий салоҳият

ва эътиқод ҳамда тантилиқ ва беназир раҳбар тимсолидир. “Шухрат – офат келтирар” деган гап бежиз айтилмаган экан. Шухратми, тухматми, хусуматми – нимадан туғилган бўлмасин, кулфату офатларни Назир Ражабов мардонавор енгиб ўтди. Чунки унинг сабр-бардоши, матонат ва чидами илм ва тафаккур, ҳақиқат ва одилликка таянган. Илм-фан ва адабиётни у қандай яхши кўрса, тарих, фалсафа, сиёсат, меъморчилик билан ҳам шундай қизиққан.

Назир Ражабов 1939 йил 9 майда Бухоро вилояти Шофиркон туманидаги Талисафед қишлоқ совети ҳудудидаги Шўробод қишлоғида деҳқон оиласида туғилди. Унинг отаси Ражаб Бобоқалонов (1903 – 1989) нафақат Шофирконда, балки Бухорода ҳам Калонбобо деб ном қозонган эди. Унинг онаси Ҳабиба ая (1912 – 2005) мушфиқ ва мунис аёлларимиз тимсоли бўлган. Ота-она 9 нафар фарзандни тарбиялаб, вояга етказдилар. Назир оилада тўртинчи фарзанд бўлган. Унинг Муборак ва Шамсия номли 2 нафар опаси ҳамда Наим исмли укаси ва Амина номли синглиси бўлган. Ёш Назир туман марказидаги Шота Руставели номли ўн йиллик мактабни 1956 йили битирди ва ўша йили Тошкентга олий ўқув юртига кириш учун жўнаб кетди. Мактабда унга Ж.Тўраев (математик), Н.Шодиев (физик), М.Мухторов (адабиётчи), Р.Отамуродов (тарихчи) каби ўқитувчилар дарс беришган, таълим ва тарбияни ўргатишган. Орадан ўн йиллар ўтгач, мен ўқиган Саврак ва Боғиқал қишлоқларидаги Свердлов ва Ойбек номли мактабларда ҳам бу домлаларнинг айримлари ишлашган, уларнинг баъзи сабоқларини эшитиш каминага ҳам насиб этган. Бу муаллимларнинг айримларига мен ҳам ҳамқишлоқ ва қўшни бўлганман.

Назир Ражабов Тошкентдаги Ўрта Осиё политехника институти (ҳозирги Тошкент давлат техника университети)нинг механика факультетини 1961 йилда тугатди. У институтда кейинчалик катта давлат арбоби ва сиёсатчилар бўлиб етишган Ислом Абдуғаниевич Каримов (Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти) ва Раҳим Ражабович Ражабов (Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат котиби ҳамда Тошкент шаҳридаги Алгоритм заводи ва мавзеси ташкилотчиси) билан биргаликда ўқиган. Бухоро ва самарқандлик бу уч нафар ёш йигитлар институтни 1960 – 1961 йилларда тугатишди, ҳатто улар ётоқхонада битта хонада туришган. Талабалиқ йилларидаги дўстлик, ўзаро тортишув ва баҳслар кейинчалик ҳам давом этди...

Назир Ражабов ҳаёти, ижтимоий ва сиёсий фаолиятининг муҳим жиҳатлари:

- Қозғоғистоннинг Целиноград (ҳозирги Нур-Султон) шаҳридаги “Қазахсельмаш” заводи ҳузуридаги бош конструкторлик бюросида инженер-конструктор, етакчи конструктор, гуруҳ бошлиғи (1961 – 1964);
- Ўзбекистон Қурилиш министрлиги қошидаги “Главстройиндустрия”да бош конструктор, конструкторлик бюроси бошлиғи ўринбосари (1964 – 1966);
- Бухородаги Қуйимозор [Қуюқмозор] қурилиш материаллари заводи директори (1966 – 1968);
- “Главстройиндустрия” Бош бошқармаси бошлиғининг ўринбосари (1968);
- “Ўзбекнорудаматериаллар” трестининг бошлиғи (1968 – 1970);
- Бухородаги 163-қурилиш трести бошлиғи (1970 – 1975; 1991 – 1993);
- Бухоро вилояти партия комитетининг саноат, қурилиш, транспорт ва алоқа масалалари бўйича секретари (1975 – 1977);
- Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг қурилиш ва шаҳар хўжалиғи бўлими мудири (1977 – 1979);
- Ўзбекистон Қишлоқ қурилиш министри; Қурилиш министри (1979 – 1984);
- Наманган вилоят партия комитетининг биринчи секретари (1984 – 1987);
- Самарқанд вилоят партия комитетининг биринчи секретари (1987 – 1988);

- Ўзбекистон Қурилиш комитети раисининг биринчи ўринбосари (1990 – 1991).

Мазкур қисқа рўйхатдан кўриниб турибдики, Назир Ражабов институтни тугатгач, аввал Қозоғистонда, сўнгра Ўзбекистоннинг турли вилоятлари ва Тошкент шаҳрида халқ хўжалигининг кўплаб соҳаларида ишлади. У 36 ёшида обком секретари, 38 ёшида Марказий Комитетда бўлим мудир, 40 ёшида министр, 45 ёшида обкомнинг биринчи секретари каби масъул лавозимларда самарали фаолият кўрсатди.

Назир Ражабов талантли конструктор ва билимдон меъмор ҳамда машҳур қурувчи сифатида Ўзбекистонда замонавий саноат объектлари қурилишига бош бўлди, у кўплаб ихтиролар муаллифи саналади. Н.Ражабов халқнинг меҳр-муҳаббати ва эҳтиромига сазовор бўлган оз сонли раҳбарлардан бири сифатида Ўзбекистон тарихида ўзидан ўчмас из қолдирди.

Н.Ражабовнинг моҳир раҳбар ва лидер бўлиб етишишида энг аввало Бухоро вилояти партия комитети биринчи секретари Қаюм Муртазаев ҳамда ўша пайтда Ўзбекистоннинг биринчи сиёсий раҳбари бўлган Шароф Рашидовнинг хизматлари катта бўлди. Назир ака Шароф Рашидовнинг шогирди ва сафдошларидан бири сифатида XX аср 60-80-йилларида раҳбарлик маҳорати ва бошқарув илмининг жуда кўп жиҳатларини пухта ўрганди. Шароф Рашидов айрим ҳозирги раҳбарлардан фарқли равишда кадрларни танлаш ва жой-жойига қўйишда моҳир бўлиб, бу соҳада унинг меҳри ҳам, қаҳри ҳам бўлакча бўлган. Айнан шунинг учун Ўзбекистон Шароф Рашидов раҳбарлик қилган чорак асрда катта ютуқларга эришди. Бу даврда ўзбек халқи турмуши яхшиланди, шаҳар ва қишлоқлар қиёфаси таниб бўлмас даражада ўзгариб кетди.

Юрт фидойиси ва эл фарзанди бўлган Назир Ражабов Ўзбекистонда катта бунёдкорлик ишларини амалга оширди. Хусусан, унинг Бухородаги бунёдкорлик фаолияти алоҳида тадқиқот мавзуи саналади. Республика раҳбарияти бу пайтда Н.Ражабовни доимий равишда энг қолоқ ва мураккаб бўлган турли соҳаларга раҳбарлик лавозимларига жўнатар, у эса қисқа муддат ичида бу тармоқ соҳаси ёки корхоналарни илғорлар қаторига кўтарар эди. Ражабовча иш услуги ўша пайтда нафақат Ўзбекистонда, балки ундан ташқарида ҳам машҳур бўлган. Бухородаги 163-қурилиш трести унинг раҳбарлигида ўз даврида турдош корхоналар ўртасида Иттифокда энг йирик Бухоро ип-газлама комбинати қурилишини қисқа муддатда амалга оширишади. Комбинатнинг биринчи навбати 1973 йилда ишга туширилди. (Қурилиш 1970 йилда бошланган эди.) Стратегик аҳамиятга эга бу қурилиш ўз муддатида қурилганлиги учун Назир Ражабов 1974 йили фан ва техника соҳасида СССР Давлат мукофотига ҳамда 1977 йили Ҳамза номидаги Ўзбекистон ССР Давлат мукофотига сазовор бўлади.

Назир Ражабов даврдан ўзиб яшаш, ишлаш ва фикрлаш, кўркмаслик ва дадиллик, муносиб кадрларга жасорат билан қалқон бўла олиш намунасини кўрсатди, фақат пахтачилик эмас, балки Ўзбекистонда халқ хўжалигининг барча тармоқларини комплекс ривожлантириш дастурини ҳамда дадил ғояларни илғари сурди. Бу ҳолат, хусусан, қайта қуриш йилларида, у 1984 – 1988 йилларда қарийб 5 йил давомида Наманган ва Самарқанд вилоятлари партия комитетларининг биринчи секретари лавозимида ишлаган вақтларида яққол намоён бўлди. Ундаги зукколик, донолик ва ташкилотчилик қобилияти таҳсинга сазовор эди.

Назир Ражабовнинг иш фаолияти ва раҳбарлик услуги тўғрисида марказий матбуот (“Правда”, “Известия” ва б.)да кўплаб ижобий мақолалар босила бошланди. Республика матбуоти бундай мақолаларни кўчириб ёки ўзбекчага таржима қилиб босиши шарт бўлса ҳам кўпинча “кўринмас кўллар” бу мақолаларни тўхтатиб қўярди. Назир Ражабовдаги дадиллик ва қатъият, инсонларга ғамхўрлик, адолат принципи, пахта йиғим-теримида талаба ва

ўқувчиларни жалб қилмаслик, коррупция, порахўрлик ва қўшиб ёзиш ҳамда кўзбўямачиликка нисбатан қаттиқ кураш ўша йилларда нафақат Ўзбекистон раҳбариятини, балки Марказ сиёсий раҳбарияти ва Кремль раҳнамоларини ҳам ташвишлантириб қўйди. Н.Ражабов Наманган вилоятига раҳбарлик қилган 1984 – 1987 йилларда у вилоят аҳолисининг меҳрини шу даражада қозондики, сўнгги 100 йилликда Наманган тарихида бундай воқеа мутлақо кузатилмаган. У вилоятда ўн йиллар давомида “қонун ҳимояси”да бўлган “моҳир пахтакор ва илғор ташкилотчи” Аҳмадjon Одилов ва гуруҳининг баъзи жиноий ҳаракатларига чек қўйди. Вилоятда ижтимоий адолат тикланди, наманганликлар қўрқув ва хавотирни унутиб, эркин нафас олишди. Ҳозирги кунгача қўплаб наманганликлар Назир Ражабов билан мустаҳкам алоқаларни тутиб турибдилар. Уларнинг хотиралари алоҳида китоб мавзуси...

И.Каримов сиёсий раҳбарлигининг дастлабки даврида унинг командасида бўлган ҳамда Ўзбекистон Республикаси Давлат Котиби лавозимида атиги 8 ойча қисқа муддат давомида фаолият кўрсатган (бу лавозим 1992 йил декабрда тугатилди) Раҳим Ражабовнинг хотирлашича, 1987 йил охири ва 1988 йил бошларида на республика аҳолисининг, на Марказнинг талабларига жавоб бермай қолган Иномжон Усмонхўжаев ўрнига Назир Ражабов номзоди Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети биринчи секретари лавозимида тавсия қилинган. Назир Ражабов билан Москвада КПСС МК Бош секретари Михаил Горбачёвнинг шахсан ўзи бу хусусда бир неча марта суҳбатлашган. Бироқ бу суҳбатда Назир Ражабов мабодо Ўзбекистонга биринчи секретарь бўлса, ўзи қиладиган ишларни очиқ айтгач, яъни Ўзбекистоннинг иқтисодий ва сиёсий мустақиллигини таъминлаш вазифасини ўз ҳаётий йўлининг мақсади эканлигини эътироф этгач, кейинчалик Горбачёв уни бу лавозимга тайинлашга қўрқди. Чунки Москвага Назир Ражабовдек ўз халқига содиқ хизмат қиладиган раҳбарлар керак эмас эди.

Тарихдан маълумки, 1988 йил 12 январда Ўзбекистон коммунистик партияси Марказий Комитетининг биринчи секретари қилиб Рафиқ Нишонов сайланди. Рафиқ Нишоновнинг ўша пайтлар Тошкентда, 1989 – 1991 йилларда Москвада қандай “хунарлар” кўрсатганлиги барчага маълум. Москвада КПССнинг Бутуниттифоқ XIX партия конференцияси ўтаётган 1988 йил қайноқ ёзида (28 июнь – 1 июль кунлари) бир воқеа юз беган.

Бутуниттифоқ партия конференцияси ўтаётган кунларда Самарқанд область партия комитети биринчи секретари Назир Ражабовга унинг талабалик курсдоши, Қашқадарё область партия комитети биринчи секретари Ислом Каримов мажлис танаффусларидан бирида қўйидагича мурожаат қилган: “Назир, сени табриклайман! Горбачёв суҳбатидан ўтиб, Ўзбекистонга биринчи секретарь бўлаётган эмишсан. Мени республика премьер-министри қилиб оласанми?” Гувоҳларнинг тасдиқлашларича, И.Каримовни ўсмирлиги ва ёшлигидан яхши билган ҳамда унинг сиёсий ҳокимияти оқибатларини олдиндан қўра олган Назир Ражабов унга қўйидагича кескин жавоб берган экан: “Мен сендай карьерист одам билан ҳеч қачон бирга ишламайман!”

Бу сўзлар жаранлаган 1988 йил июнидан кейин кўп ўтмай Н.Ражабов атрофини турли шубҳали кишилар ўраб олди. Унга гоҳ зимдан, гоҳ ошкора равишда турли тухматлар қилиш бошланди. Москвадан Ўзбекистонга махсус юборилган Т.Гдлян ва В.Иванов бошчилигидаги терговчилар гуруҳи “ўзбеклар иши” доирасига Назир Ражабовни ҳам тортиш учун барча жирканч ишларни амалга оширди. Бу фитнага ўша пайтда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи секретари бўлган Рафиқ Нишонов бошчилик қилади. Чунки у Н.Ражабов сингари миллий кадрларни турли бўҳтонлар билан вазифасидан олиб, уларни четлатмаса тез орада у эгаллаган биринчи котиблик курсисига улар келиши мумкин эди.

1988 йил 19 октябрда Тошкентда бўлган Ўзбекистон Компартияси

Марказий Комитети бюроси мажлисида биринчи секретарь Рафиқ Нишонов Ўзбекистондаги иккита йирик вилоятлар партия ташкилотларининг раҳбарлари бўлган Назир Ражабов (Самарқанд вилояти партия комитети биринчи секретари) ва Исмоил Жабборов (Бухоро вилояти партия комитети биринчи секретари)ни ноҳақ равишда порахўрликда айблади. Улар ўз лавозимларидан озод қилиниб, партиядан ўчирилади. Бюро мажлисидан эзилган ва нохуш кайфиятда чиққан Н.Ражабов ва И.Жабборов Тошкент кўчаларида алоҳида гуруҳ аъзолари томонидан қўлга олинди, махсус самолёт билан Москвага келтирилади. Улар СССР ва Ўзбекистон ССР Олий Совети депутатлари бўлишса ҳам, совет режими депутат дахлсизлиги мақомига риоя қилмади. Шу тариқа Р.Нишонов томонидан Шароф Рашидовнинг муносиб шогирдларидан бири, кўпчилик Ўзбекистоннинг бўлғуси биринчи раҳбари деб қараётган Назир Ражабов илк марта сиёсий майдондан четлаштирилди.

Н.Ражабов 9 ой давомида (1988 йил 19 октябрь – 1989 йил 19 июль) Москвадаги Матросская тишина ва Бутирка қамоқхоналарида сақланди. Унга Гдлян томонидан тухмат қилиниб, “пора олиш ва бериш” каби сохта айблар кўйилди.

Назир Ражабов ва Исмоил Жабборов қамоққа олинганлиги ҳақидаги хабарни мен “Маяк” радиостанцияси янгиликларида “Москва – Тошкент” поездида Тошкентга қайтаётганимда йўлда эшитдим. Ўша пайтда Тошкент давлат университети тарих факультети КПСС тарихи бўлимининг сўнгги V курс талабаси бўлган камина Москвадан қайтаётган эдим. Мен Орол денгизи тақдири масаласида КПСС МК Бош секретари М.Горбачёвга мурожаат қилиш учун Кремлга борган эдим. Бу хабар мени қаттиқ ларзага солди. Поезд қайсидир шаҳардаги бекатда тўхтаганда мен олиб чиққан “Правда” газетасининг 20 ёки 21 октябрь сониди ҳам бу дахшатли хабар босилган эди. Ўша пайтда 26 яшар талаба ва комсомол йигит бўлган камина учун фамилиядошим Назир ака замонамиз сиёсий раҳбарларининг идеал тимсоли, биллурдек пок инсон, ўтюррак коммунист, яъни партия аъзоси эди. Наҳотки, совет давлати ва халқига фидокорона хизмат қилаётган, турли порахўр ва жиноятчиларни жазолаган, жамиятда ижтимоий адолат ўрнатишга интилаётган ҳамюртим, ажойиб инсон ва сиёсий йўлбошчи порахўр бўлса?! Мен ўша поезднинг ичида ҳам бир лаҳза бўлсин Назир Ражабовнинг жиноятчи эканлигига ишонмаганман. Мана шу воқеа ҳамда 1988 йил октябрда мен Москва ва Кавказда кўрган воқеалар айнан менинг сиёсий дунёқарашим ва ҳаёт йўлимни белгилади. КПСС тарихи ихтисослиги бўйича бўлғуси мутахассис ва сиёсий партия ходими бўладиган мен ўзим яшаётган Совет Иттифоқи деган улкан мамлакат сиёсий раҳбариятидан ҳам, унинг раҳбар ва раҳнамо кучи бўлган коммунистик партиядан ҳам ҳафсалам пир бўлишига олиб келди. 1989 йил ёзида бўлган сиёсий воқеалар эса узил-кесил равишда мени сохта коммунистик ғоялардан демократик йўлга қайтишимга, Ўзбекистоннинг миллий манфаатлари учун имконият даражасида иш юритишимга сабаб бўлди. Орадан ўтган 35 йил давомида мен ўз демократик тамойилларимга содиқ қолдим. Бунда айнан Назир Ражабов фаолияти, унинг мураккаб тақдири ва кечмиши менга намуна бўлиб хизмат қилди...

Назир Ражабовнинг рафиқаси Қундуз Ражабова ўша мудҳиш кунларни хотирлар экан, тухмат билан қамалган Назир Ражабовни қамоқдан озод қилиш учун СССР халқ депутатлари бўлган ўзбек зиёлиларидан ёзувчи Одил Ёқубов, академик Эркин Юсупов, журналист Аҳмаджон Мухторов ва бошқалар унга турли йўл-йўриқлар кўрсатиб, 20 нафар депутатнинг имзоси остида махсус хат билан СССР Бош прокуратурасига киришни ҳамда СССР Халқ депутатлари съездига мурожаат қилишни тайинлашади. Бироқ бу пайтда Ўзбекистон сиёсий раҳбариятидан ҳеч ким Назир Ражабовнинг тақдири билан қизиқмайди. Чунки бу пайтда Гдлян ва Иванов гуруҳи Ўзбекистонда И.Усмонхўжаев, О.Салимов, Р.Абдуллаева ва бошқа биринчи раҳбарлардан тортиб кўпчиликни қамоққа

олган, “пахта иши”ни “Ўзбеклар иши” сифатида кўрсатишаётган, республика сиёсий ҳаётида Р.Нишонов ва унинг югурдаклари ҳукмрон бўлган оғир ва даҳшатли йиллар эди.

Бироқ халқимиз айтганидек, ҳақиқат эгилса ҳам, букилса ҳам синмади, адолат тантана қилди. Назир Ражабов қамоқхонада 50 ёшини “нишонлаб”, тергов жараёнининг ўзида айби бўлмаганлиги сабабли 1989 йил 19 июлда озод қилинди. Совет Иттифоқи Бош прокуратураси 1989 йил 29 декабрда унинг жиноий ишини асосиз деб топиб, барча ҳуқуқлари тикланишини маълум қилди ва ундан кечирим сўради. “Правда” газетасида 1990 йил 1 февралда журналист В.Артеменконинг бу ҳақда “Айбсиз, аммо...” деган махсус мақоласи чоп этилди.

Назир Ражабов 1989 йил ёзида Тошкентга қайтди. Бироқ республиканинг янги сиёсий раҳбарияти (у қамоқдан озод қилинишидан бир ой муқаддам Москвага ишга ўтган Рафиқ Нишонов ўрнига Ислон Каримов Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи секретари қилиб сайланган эди), ҳолбуки, янги биринчи секретарь Н.Ражабовнинг талабаликдаги курсдоши ва тенгдоши бўлса ҳам унинг сиёсий майдонга қайтишига рўйхушлик бермади. Иттифок прокуратурасининг расмий қароридаги айрим бандлар ҳам бажарилмади. У ўзининг аввалги лавозимига қайта тикланмади. Лўнда қилиб айтганда, Назир Ражабовдан нафақат Ўзбекистоннинг эски раҳбарияти, балки мустақиллик арафаси ва мустақилликнинг дастлабки йилларидаги янги сиёсий раҳбарияти ҳам қаттиқ чўчиб қолган эди. Чунки Назир аканинг зуваласи пишиқ қорилган ҳамда нафси тўқ бўлиб, у ҳалол, виждонли, принципиал ва халқпарвар раҳбарлар сирасига кирган. Афсуски, XX асрда Ўзбекистонда бундай сиёсий етакчилар жуда оз бўлган, улар ҳатто битта кўлнинг бармоқлари билан санарли даражада ҳам кам эди. Файзулла Хўжаев, Усмон Юсупов, Нуриддин Муҳитдинов, Шароф Рашидов... Яна борми?! Марҳамат, айтинг. Мен тарихчи сифатида бошқа бундай лидерларни билмайман...

Тарихдан маълумки, 1990 йил 18 февралда Ўзбекистон ССР халқ депутатлари ва маҳаллий советларга депутатлар сайланган кун бўлди. Ўзбекистонда сайлов тизимини демократиялаштириш мақсадида республика Олий Советига кўп мандатли округлар бўйича эксперимент сифатида сайлов ўтказилди. Бухороликлар ўз ўғлонларини (бу пайтда Назир Ражабов айни куч-ғайратга тўла, ҳали 51 ёшни ҳам тўлдирмаган паҳлавонкелбат инсон эди) Ўзбекистон ССР халқ депутатлигига номзод қилиб кўрсатганларида Тошкентда фаолият кўрсатаётган Марказий сайлов комиссияси бир қалқиб тушди. Назир Ражабовнинг Бухоро шаҳрида асосий рақобатчиси Бухоро давлат педагогика институти ректори, тарих фанлари доктори, профессор Фарҳод Қосимов бўлди. Тошкентдаги расмийлар исёнкор талабалар сиёсий қувғиндаги шахсга эмас, балки севимли ректорлари бўлган таниқли тарихчи олимга овоз беради, деб қаттиқ ишонган эдилар. Бухородаги расмий ҳокимият томонидан бутун куч ва эътибор, тарғибот ва ташвиқот эндиликда Марказнинг буйруғи билан (бу гал Марказ ролини Москва эмас, Тошкент бажарди) тарихчи олимни халқ депутати қилишга қаратилди. Бироқ бутун мамлакатда илк марта ўтказилган кўп босқичли ва кўп мандатли сайловда Назир Ражабов Бухорода учинчи турдан сўнг ғалаба қозонди...

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач ҳам, Назир Ражабов ўз салоҳияти ва даражасига мос иш билан таъминланмади. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримов талабалик дўсти Назир Ражабовга (ва яна бошқа ўнлаб қобилиятли раҳбар ходимларга ҳам!) сафдош ва ҳамкор сифатида эмас, балки рақиб ва ғоявий муҳолиф сифатида қаради. Тошкентдан Бухорога фахрий бадарға қилинган Н.Ражабов 1991 – 1993 йилларда аввал ўзи ишлаган 163-қурилиш трестини бошқарди. Бироқ бу даврда, айнан жаҳон харитасида мустақил бўлган ёш Ўзбекистон давлатининг сиёсий ва ҳуқуқий асослари яратилаётган даврда Назир Ражабовга нисбатан

турли таҳдидлар кучайди. Унинг фаолияти ва шахсий ҳаёти Каримов режими томонидан назорат остига олинди. 1993 йил декабрда Назир Ражабов Ўзбекистон халқ депутати бўлишига қарамасдан 2 ҳафта давомида мутлақо айбсиз ҳолатда қамокда сақланди. Бу ҳақда ушбу сатрлар муаллифи Н.Ражабовнинг ўзидан ҳам, унинг яқин дўстларидан ҳам сўнгги ўн йиллар мобайнида кўп маълумотларни эшитган ва улар тарихчининг шахсий архивида сақланади.

Нихоят, Ўзбекистондаги сиёсат майдонидан бу гал иккинчи марта Ислоҳ Каримов томонидан четлаштирилган Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши депутати Назир Ражабовга ўз туғилган юртида яшаш хавфи бўлиб қолди. У депутатлик мандатини топширишга мажбур бўлгач, 1994 – 1997 йилларда Москва шаҳрида яшаб, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланди.

Хуллас, Назир Ражабов тадбиркор ва меценат бўлгач, сиёсат билан шуғулланишни тўхтатди. Бунинг эвазига у ва оила аъзолари Тошкент шаҳрида тинч ва хотиржам ҳаёт кечириш ва яшаш ҳуқуқини қўлга киритишди. Назир Ражабов 1997 йил баҳорида Москвадан Тошкентга қайтди ва тадбиркорлик фаолиятини ўз юртида давом эттирди...

Мен яқин чорак аср давомида Назир ака билан у кишининг Тошкент шаҳри ҳамда Дўрмонда жойлашган хонадонларида кўп марта суҳбат қурганман. Бизнинг биринчи учрашувимиз “Тошкент” меҳмонхонаси олдидаги кафедра бўлган эди. Назир Ражабовнинг гурунглари, ўзаро мулоқотларни мен ҳеч нарсага алишмайман. Бу суҳбатларда сўз кўпроқ ўзбек халқининг яқин ўтмиш тарихи, совет ҳокимияти йилларида биз қўлга киритган ютуқлар ва йўқотган кадрларимиз, миллий арбоблар фаолияти, адабиёт ва санъат тўғрисида борган. Мен кўп қисташимга қарамай Назир Ражабов ўз хотираларини ёзишлари кераклиги фикримга ёки диктофонга ёзиб олишимга розилик бермаганлар. Бироқ ўзаро суҳбатлар асносида мен кўп нарсаларни қоғозга туширганман. Мазкур мақолани ёзишда ўша суҳбатлар ҳам қўл келди.

2019 йил майда Назир Ражабов таваллудига 80 йил тўлди. Камтарин ва беназир Назир ака (мен ҳеч қачон у кишини бобо дея олмайман!) бу қутлуғ тўйни оила аъзолари, ўз яқинлари, дўстлари ва шогирдлари қуршовида “Саёҳат” ресторанида элга ош бериб ўтказдилар. Ўша куни Назир Ражабов ҳақида тайёрланган ҳамда “Тафаккур” нашриётида чоп этилган “Ҳаёт ва ирода” китоби тўпланганларга тақдим этилди. Бу китобда академик Тўра Мирзаев мухтасар сўзбоши ёзганлар. Ўзбекистон халқ шоирлари Жамол Камол ва Ҳабиб Саъдулла Н.Ражабовга бағишланган ўз шеърларини киритганлар. Иброҳим Ҳаққулнинг “Қалб ва қисмат” эссеси ҳамда бошқа таниқли инсонларнинг дил сўзлари китобнинг салмоқли саҳифаларини ташкил қилади. Каминанинг 2021 йилнинг Наврўз кунини эса бу буюк инсонга бағишланган “Назир Ражабов” китоби нашр этилди.

Адабиётлар

Ҳаёт ва ирода [Назир Ражабов ҳақида мажмуа]. Масъул муҳаррир: Иброҳим Ҳаққул. –Тошкент: “Тафаккур”, 2019.

Ражабов Қ. Назир Ражабов. – Тошкент: Vodomzor invest, 2021. – Б.24.

Мирзаев Т. Эл ва юрт фарзанди //Ҳаёт ва ирода [Назир Ражабов ҳақида мажмуа]. Масъул муҳаррир: Иброҳим Ҳаққул. –Тошкент: “Тафаккур”, 2019. –Б. 4.

Қаранг: Ражабов Қ., Бобомуродов К. Шофиркон тумани тарихи. –Тошкент: “Tafakkur”, 2015. –Б. 70 – 71; Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. –Тошкент: “Tafakkur”, 2016. –Б. 312 – 313.

Артеменко В. “Не виновен...”//”Правда” (Москва), № 32. 1 февраль 1990 г.

PROFESSOR PO‘LAT SOLIYEV IJODIDA BUXORO TARIXI MASALALARI

*Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti, o‘qituvchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixchi olim, o‘zbek tarixchilarining ustози, birinchi tarix fanlari doktori Po‘lat Soliyevning Buxoro vohasi tarixi, xususan Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar davridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashqi aloqalar shuningdek, savdo-sotiq munosabatlariga oid qadimgi manbalar asosida yoritilgan asarlari va ularning keyingi davrlarda o‘rganilgan asarlari va maqolalari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mang‘it, "Inqilob", kutubxona, sharqshunos, arxiv, Buxoro, Somoniylar.

ПРОБЛЕМЫ ИСТОРИИ БУХАРЫ В ТРУДАХ ПРОФЕССОРА ПОЛАТА СОЛИЕВА

*Носиров Шерзод Уктам угли,
Бухарский государственный университет, преподаватель*

Аннотация: В данной статье история Бухарского оазиса Полата Солиева, историка, преподавателя узбекских историков, первого доктора исторических наук, в частности, политические, социально-экономические, внешние связи, а также торговые отношения в период Мангитов, правивших Бухарой, освещается на основе древних источников, анализируются сочинения и их произведения и статьи, изучаемые в более поздние периоды.

Ключевые слова: мангит, «Инкилоб», библиотека, востоковед, архив, Бухара, сомониты.

PROBLEMS OF THE HISTORY OF BUKHARA IN THE WORKS OF PROFESSOR POLAT SOLIEV

*Nosirov Sherzod Uktam ugli,
Bukhara State University, teacher*

Abstract: In this article, the history of the Bukhara oasis by Polat Soliev, a historian, teacher of Uzbek historians, the first doctor of historical sciences, in particular, political, socio-economic, foreign relations, as well as trade relations during the period of the Mangits who ruled Bukhara, is covered on the basis of ancient sources, analyzed writings and their works and articles studied in later periods.

Key words: mangit, «Inqilob», library, orientalist, archive, Bukhara, Somonites.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tarix insoniyat bosib o‘tgan zalvorli yo‘lni qonuniyatli bir jarayon tarzida atroflicha o‘rganuvchi fan sifatida ijtimoiy fanlar (adabiyot, huquqshunoslik, falsafa va sotsiologiya) tizimida muhim o‘rin tutadi va keng xalq ommasini, ayniqsa yosh avlodni o‘z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda biz birinchi navbatda kimligimizni, xalqimizning o‘q tomiri qayerdaligini, uning shakllanish jarayoni qanday kechganligini bilishimiz zarur. Bu borada ko‘p yillik tarixiy va ilmiy izlanishlar orqali Buxoro vohasi tarixini tadqiq qilgan tarixchi olim Po‘lat Soliyev ilmiy ijodi maydonga keladi.

Olim izlanishlari samarasi o‘laroq dunyoga kelgan bir qator asarlar aynan Buxoro vohasini kengroq va chuqurroq mushohada etgan holda o‘rganish imkonini beradi. Olimning “Buxoro tarixi” (1923) hamda “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) asarlari aynan mana shunday asarlar sirasiga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Buxoro tarixini o'rganish juda ham ko'plab ilmiy tahlillar va ilmiy asarlar bilan bog'liq. Buxorning ko'p yillik tarixi, xususan, amirlik davrida mang'itlar hukmronligi davrida Rossiya imperiyasi istilochi sifatida kirib kelgunga qadar bo'lgan davr tarixi Polat Soliyev asarlari va ularning tahlilida quyidagicha manbaviy tadqiqotlarga bo'linadi

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

TAHLIL VA NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / ANALYSIS AND RESULTS)

Professor Po'lat Soliyevning Buxorodagi ijodi asosan O'rta Osiyodagi eng qiziqarli va kam o'rganilgan davrlardan biri o'tmishini o'rganishga bag'ishlanib, ana shu davrda uning "Buxoro tarixi" (1923) hamda "Mang'itlar davrida Buxoro o'lkasi" (1925) nomli asarlari chop etildi. Bu yerda taqdir unga har qanday tarixchi orzu qilishi mumkin bo'lgan ulkan sovg'a in'om etdi – Po'lat Soliyev Buxoro amirlarining boy kutubxonasi va arxivida birinchilar qatorida ishlash imkoniga ega bo'ldi. Keyinchalik unga Abdurauf Fitrat va Lutfulla Alyaviy bilan birgalikda bu arxiv va kutubxonani saralab, ilmiy tadqiqot institutiga topshirish uchun tayyorlash vazifasi yuklatiladi[1]. "Inqilob" jurnalining bir sonida bu qadimiy arxiv va kutubxonadagi saralash ishlari haqida hisobot ham chop etilgan.

1921–1922 yillarda Po'lat Soliyev arab va fors-tojik tillarida yozilgan, Buxoroda saqlangan asarlar ustida tadqiqotlar olib boradi. 1924-yil avgustida Buxor Xalq Maorif Nozirligi Po'lat Soliyevni Moskvaga, Buxoro Maorif uyiga o'qituvchi sifatida jo'natadi. 1924-yil oxiridan boshlab u SSSR xalqlari Markaziy nashriyotida ilmiy xodim, ayni paytda qizil professura institutida va Sverdlov nomli Kommunistik Universitetda tinglovchi ham edi.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoroda amirlik tuzumi ag'darib tashlandi, 1920-yil 8-oktyabrda xalq vakillarining I Umumbuxoro qurultoyi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligini e'lon qiladi. 1920-yil 11-noyabrda BXSR Maorif nozirligi "Buxoroda inqilob tarixi"ni nashr etish va uning mualliflarini tasdiqlash haqida qaror qabul qiladi. Bu mualliflar qatoridan Po'lat Soliyev, Sadridin Ayniyar ham joy olgan. 1922-yildan boshlab Po'lat Soliyev BXSR Maorif nozirligining Ilmiy kengashi raisi, ayni paytda o'qituvchilar institutida arab adabiyoti tarixi, arab tili nazariyasi va amaliyotidan dars berib, "Maorif" jurnalining muharriri sifatida ham ish olib boradi.

Po'lat Soliyev Buxorodagi ilmiy ijodi va ilmiy tadqiqotlar safari unga benihoya katta tarixiy imkoniyatlarni berdi. Olim Buxoro amirlarining boy kutubxonasida ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi va bu kutubxona xazinasidan joy olgan, fors-tojik tilida bitilgan nodir, qimmatli tarixiy manbalar bilan tanishdi. Bu yerdagi minglab sharq qo'lyozmalari va asarlarni ko'rib hayratda qoldi. Mana shu imkoniyat olimga ko'plab tarixiy ma'lumotlarni to'plashiga katta yordam berdi. Tarixchi olim keyinchalik yozgan Buxoro tarixiga oid asarlarida ushbu qo'lyozmalardan foydalanadi.

Po'lat Soliyev Buxoro tarixiga oid qo'lyozma asarlar fondini tuzishni ham rejalashtirgan edi, lekin bu amalga oshmadi. Po'lat Soliyev Buxoro amirlarining qarorgohi bo'lgan Ark va boshqa joylarda bo'lib, Buxoroning o'tmishini, bu yerda umrguzaronlik qilgan xonlar, amirlarning shaxsiy hayotini o'rganib, qimmatli tarixiy ma'lumotlar to'pladi va, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, "Buxoro tarixi" (1923) va "Mang'itlar davrida Buxoro o'lkasi" (1925) kabi asarlarini yaratdi. Bu asarlarning ilmiy qiymati shundaki, asarda Buxoro amirlarining ichki va tashqi siyosati, amirlik tarikibiga kirgan bekliklar va hududlar, shuningdek, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bayon qilinadi.

Olimning “Buxoro tarixi” nomli birinchi asari sharq qo‘lyozma manbalari asosida yozilgan bo‘lib, o‘zining ilmiy qimmatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Asarning xronologik chegarasi Buxoroning miloddan avvalgi VI–V asrlardan to Somoniylar davlati boshqaruvigacha bo‘lgan davri tarixini o‘z ichiga oladi. Tarixchi olim ushbu tarixiy tadqiqotini yozishda bir qancha sharq qo‘lyozma manbalariga murojaat qilgan. Masalan, olim o‘z davrida ma‘lum va mashhur bo‘lgan muarrixlar – Narshaxiy, Mirxond, Xondamir, arab tarixchisi Ibn al Asir, Herman Vamberi, shuningdek, taniqli rus sharqshunos va tarixshunoslari bo‘lgan V. Bartold, Jukovskiy, Krimskiylarning asarlaridan ham foydalangan[11].

Po‘lat Soliyevning “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” asari ayniqsa diqqatga sazovor bo‘lib, tarixchi ushbu asarini Buxoroda hukmronlik qilgan so‘nggi mang‘itlar sulolasi davri tarixiga bag‘ishlaydi. Olim o‘z asarida asosan mang‘it amirlarining ichki va tashqi siyosati bilan birga, Buxoro amirligining Hindiston, Afg‘oniston va Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini aks ettirgan. Asarda amir Nasrullo (hukmronlik davri: 1826–1860), amir Muzaffar (hukmronlik davri: 1860–1885) va amir Abdulahad (hukmronlik davri: 1885–1910) davri tarixi qisqacha bayon qilingan. Po‘lat Soliyev asarining kirish qismida quyidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi:

“IX–X asr, XV asr milodlarida o‘z vaqtig‘a yarasha Buxoroning dong‘i, Buxoroning o‘zidagina yetishgan olimlari, shoirlari bor edi. Buxoroning o‘z vaqtidag‘i ilm-maorifi, savdo-sanoati sharq va g‘arb olamidan juda ko‘p kishilarni o‘ziga torturg‘on edi.

Buxoro o‘zining hayotida bo‘lar vaqtida qora va yomon bir hayot o‘tkazgani ma‘lum emasdir. Buxoro boshidan juda ko‘p davrlar kechirdi, turli qabilalar, turli xonliklar hokimiyat surdilar.

IX asrdan, Somoniylar davrindan olib Temuriylarning so‘nggi vaqtigacha Buxoroning hayoti yorug‘ va ravshan kunlar ko‘p ko‘rinadur. Qay vaqtki, Buxoroning taqdiri va istiqboli mang‘itlar qo‘lig‘a, ayni Mir Olimning nasllari idorasiga o‘tdi, shul kundan boshlab Buxoroda hayot so‘ndi, ko‘ngilsiz kunlar bilan Buxoroning holi va istiqboli cho‘lg‘ondi”[7]. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, tarixchi olim asarda mang‘itlar idorasining salbiy tomonlarini ko‘proq sharhlab o‘tadi.

Po‘lat Soliyev o‘z asarida amir Shohmurod tomonidan Marv shahrining istilo qilinishi haqida ko‘proq to‘xtalib, ushbu shaharga ko‘p talafot yetkazilganligi va aholisi turli hududlarga tarqalib ketganligini izohlab o‘tadi. Olimning o‘z davrida yirik madaniyat va ma‘naviyat markazi bo‘lgan Marv haqida keltirgan ma‘lumotlari muhim ahamiyatga molik. Jumladan, Marv shahrining o‘rta asr davri tarixiga murojaat etib, olim arab tarixchi va yozuvchilarining asarlaridan parchalar keltirish asnosida o‘z fikrlarini bildiradi. Po‘lat Soliyev o‘z asarida quyidagi muhim ma‘lumotni keltirib o‘tadi:

“Marvning o‘rta asr hayoti to‘g‘risida arab yozg‘uvchilaridan mashhur Yoqut Hamaviy (Havafiy) janoblari shu satrlarni yozadur: ”Men Marvni 1219 yilda tashlab chiqdim, agarda totorlarning hujumi va ularning falokati bo‘lmasa edi, men Marvda yashab o‘sha yerda o‘lar edim. Xalqining yaxshilig‘i, shirin so‘zlig‘i, ilmi meni o‘ziga jalb etdi. Men turg‘on vaqtda Marvda 10 dona kutubxona bor edi, juda katta kutubxonadur. Birisi “Aziziya”, ikkinchisi “Katoliya” nomlarida bo‘lib, ”Aziziya”da 12000 kitob bor edi”[7].

Shuningdek, asarda Angliya va Rossiyaning O‘rta Osiyo masalasidagi ziddiyatlari, elchilik aloqalari, Rossiya tomonidan O‘rta Osiyoning istilo qilinishi, savdo-sotiq munosabatlari va boshqa masalalar haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, ushbu ma‘lumotlardan kelib chiqib tarixchi olim Po‘lat Soliyev asarlarida Buxoro vohasi tarixi bilan bog‘liq juda qimmatli ma‘lumotlar uchraydi va bizgacha ketib kelgan hudud tarixiga oid bo‘lgan manbalarni to‘ldiradi va ularga aniqlik kiritadi. Buxoroning XVIII–XIX asrlar tarixiga bag‘ishlangan asarlari

juda qimmatli bo'lib, ushbu davrda Buxoro vohasi va unga tutash hududlar tarixi ham aks ettirilgan.

Har qanday vaziyatda ham tarixni xolislik va haqqoniylik asosida yoritgan olim hayoti va uning ilmiy ijodining aynan Buxoro vohasi bilan bog'liq jihatlati xalqlarning o'zlikni anglash tushunchalarini yanada boyitadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. (XVIII-XIX вв), Алматы-2004, стр, 360,
2. Ахророва Х. Биринчи тарих фанлари доктори. // Халқ сўзи.2002 й.18 октябрь.
3. Муҳаммаджонов А. Яҳё Фуломовни хотирлаб.Т.,2001.-Б.11.
4. Германов В.А. Ўзбек тарихчиларининг устози // Турон тарихи. (Тўплам). Т.,1993.-Б.23.
5. Гермонов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время. Т.,2002.стр.37.
6. Ражабов Қ. Солиев Бўлат // Ўзбекистон миллий энциклопедияси.Т.7. Т.: ЎЗМЕ нашриёти, 2004. 689-бет
7. Солиев П. Бухоро тарихи (араб имлосида ўзбек тилида). - Тошкент: 1923

MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO MINTAQASIDA TOLIBON HUKUMATINING TUTGAN O'RNI

*Sharopov Dilshod Ravshan o'g'li,
BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg'onistondagi yangi siyosiy hokimiyat hisoblanmish Tolibonning mintaqada xavfsizligi va barqarorligiga ta'siri, uning Markaziy va Janubiy Osiyo kommunikatsiyasidagi o'rni atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: sanksiya, transport-kommunikatsiya, Transafg'on temir yo'li, Termiz – Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar, ShHT, Baxt ul-Raxmon Sharofat, X.Xasilov, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Toshkent — Bandar Abbas.

РОЛЬ ПРАВИТЕЛЬСТВА ТАЛИБАНА В РЕГИОНЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ЮЖНОЙ АЗИИ

*Шаропов Дилшод Равшанович,
Бухду Археология и история Бухары преподаватель кафедры*

Аннотация: В этой статье подробно рассматривается влияние Талибана, считающегося новой политической властью в Афганистане, на безопасность и стабильность региона, его роль в коммуникациях в Центральной и Южной Азии.

Ключевые слова: санкции, транспорт-коммуникации, Трансафганская железная дорога, Термез – Мазари-Шариф – Кабул – Пешавар, ШОС, Бакhti ул-Рахман шарафат, х.Хасилов, Шанхайская Организация Сотрудничества, Южная Азия, Центральная Азия, Ташкент — Бандар - Аббас.

THE ROLE OF THE TALIBAN GOVERNMENT IN THE CENTRAL AND SOUTH ASIAN REGION

*Sharopov Dilshod Ravshan son,
Archeology and history of Bukhara chair teacher*

Annotation: this article covers in detail the impact of the Taliban, considered the new political power in Afghanistan, on the security and stability of the region, its role in central and South Asian communication.

Keywords: sanction, transport-communication, Transafgan railway, Termez-Mazori-Sharif-Kabul-Peshawar, SCO, Bakhti ul-Rahman Sharafat, H.Khasilov, Shanghai Cooperation Organization, South Asia, Central Asia, Tashkent — Bandar Abbas.

Kirish. XXI asrdagi Afg'oniston hukumatida ro'y bergan siyosiy jarayonlar jahon hamjamiyatini muntazam ravishda e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Tolibon hokimiyatga kelguniga qadar Afg'onistonda kuniga 200-300 odam halok bo'lar, davlat mablag'larining katta qismi urushga sarflanar edi. Ta'lim tizimi, umuman ijtimoiy – iqtisodiy hayot ayanchli ahvolda bo'lib kelgan. Bugungi kunda Tolibon oldida katta to'siqlar bor- sanksiyalar, shuningdek, xalqaro hamjamiyat yordamini kesib qo'ygan. Biroq yangi hukumat hamjamiyatning o'ziga bo'lgan salbiy fikrini o'zgartirishga harakat qilayapti. Qo'lida bor mablag'ni, qariyb 30 milliard afg'oniyini, xalq ravnaqi uchun sarflashga bel bog'lagan.

Natijalar va Muhokama. 2022 - yilning 25-26 iyul kunlari Toshkent shahrida "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Afg'oniston tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Amir Xon Muttakiy boshchiligidagi Muvaqqat hukumati delegatsiyasi hamda O'zbekiston hukumati, turli

vazirlik va idoralar rahbarlari va dunyoning 20 dan ortiq mamlakatlaridan hukumat vakillari, mutaxassislar ishtirok etishdi. Xalqaro konferensiyada asosiy masalalardan biri – transport-kommunikatsiya yo‘nalishini, xususan, O‘zbekiston – Afg‘oniston – Pokiston davlatlari orasida temir yo‘l liniyasini qurish bo‘yicha loyiha ishlarini ko‘rib chiqish masalasi ham o‘rin olgan edi. Shu munosabat bilan, 2022 – yil 25 iyul kuni, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv raisi hisoblangan X.Xasilov Afg‘oniston temir yo‘llari bosh direktori Baxt Ul-Raxmon Sharofat hamda uning texnik masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Seddiki Abdul Bari bilan uchrashdi.

Tadbirda X.Xasilov “Termiz – Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar” temir yo‘lini qurilishi mintaqa davlatlari, xususan, Markaziy Osiyo hamda Afg‘oniston mamlakati uchun yirik istiqbolli, iqtisodiy jihatdan katta foyda bo‘ladigan loyiha ekanligini ta’kidlab, tezroq ushbu qurilishni amalga oshirish va bu yo‘nalishda yuk tashishni ta’minlab, O‘zbekiston qo‘shni davlatlarni temir yo‘l orqali Pokiston bandargohlariga chiqishini amalga oshirish zarurligini qayd etdi. Shu bilan birga Afg‘oniston uchun ham keng qamrovda tranzit imkoniyatlarini yaratib, ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, xususan, temir yo‘llarini tez orada taraqqiy etib ketishiga sabab bo‘lishini ta’kidladi. Buning uchun “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan yaqin qo‘shnimiz bo‘lgan Afg‘oniston temir yo‘llariga zarur bo‘ladigan barcha yordamlarni berishga tayyorligini aytib o‘tdi. O‘z o‘rnida Afg‘oniston temir yo‘llari bosh direktori Baxt Ul - Raxmon Sharofat ham X.Xasilovga qabul uchun samimiy minnatdorchilik bildirib, yaqin qo‘shni va birodar xalq bo‘lgan O‘zbekiston bilan Afg‘oniston aloqalari har tomonlama ishonchli rivojlanayotganidan mamnun ekanligini aytib o‘tdi. Bu ayniqsa, transport-kommunikatsiya tizimidagi uzoq yillik ishonchli hamkorlik yana-da rivojlanishiga katta umid bildirdi.

Uchrashuvda shuningdek, Afg‘oniston temir yo‘llari rahbari afg‘onistonlik yoshlarni O‘zbekistonda tahsil olishini yana-da ko‘paytirishda hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ham aytib o‘tdi.

Bu kabi xalqaro doiradagi qator uchrashuvlar o‘z samarasini ko‘rsatib, Termiz — Mozori Sharif—Kobul — Peshovar kommunikatsion temir yo‘li qurilsa Eron, Pokiston portlariga yo‘l ochiladi. Bu loyihaning qiymati juda yuqori. Loyiha O‘zbekiston sharoitida eng katta masala - portlarga chiqish yo‘li va infratuzilmasini yaratish muammosini ijobiy hal qiladi. “Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar” temir yo‘l loyihasi salmog‘i ulkan va istiqboli yuqori bo‘lgan kommunikatsiya ko‘lamini kengaytiradigan loyihadir. Toshkentda “Asr loyihasi” qurilishi loyihasiqa Pokiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston vakillari samimiy va do‘stona ruhda qaror qabul qildilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jurnalistlar bilan uchrashuvda Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘li qurilishining ilk bosqichlari uchun Jahon banki tomonidan 35 mln dollar mablag‘ ajratilishini ma’lum qildi.

Qayd etilishicha, tarixda qoladigan ishlardan biri O‘zbekiston xalqiga mulk bo‘ladigan ikkita temiryo‘l — O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy temir yo‘li va Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘li hisoblanadi.

Transafg‘on temir yo‘lining qurilishi O‘zbekiston uchun qo‘shimcha bozorlar paydo bo‘lishiga, ishlab chiqarayotgan mahsulotlar tannarxining 60–70 foizga kamayishiga imkon yaratadi. Loyihani amalga oshirish uchun 5 yil ketishi mumkin. Bunga 4,8 mlrd dollar kredit mablag‘larini jalb qilish rejalashtirilayotgani haqida ham xabar berilgan edi. Shuningdek, mazkur qurilish ishlari kelasi yilning sentyabr oyida boshlanishi kutilayotganligi ham ma’lumot berilgan.

Samarqandda 15 - 16 - sentabr 2022-yilda o‘tkazilgan ShHT ning 22 - yig‘ilishida Afg‘oniston masalasiga ham e’tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ShHT Samarqand sammitiga bag‘ishlangan dasturiy ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual maqolasida bugun ShHT doirasida shakllangan mana shunday ijobiy va muvaffaqiyatli tajribadan Afg‘onistonni rivojlantirish masalasida ham foydalanish o‘ta muhim va dolzarb ekanligini, shak-shubhasiz, Afg‘oniston ShHT

makonining ajralmas qismi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bugun afg'on xalqi qo'shni va xayrixoh davlatlar ko'magiga har qachongidan ham muhtoj. Iqtisodiyot izdan chiqqan. Xalqaro hamjamiyat Afg'onistonga birgalikda yordam qo'lini cho'zishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mintaqaviy va global taraqqiyot jarayonlariga integratsiyalashuviga ko'maklashishi va shu orqali ushbu davlatning ko'p yillik inqirozdan chiqishi uchun qulay sharoit yaratib berish har qachongi kabi, eng muhim vazifa hisoblanadi.

Asrlar davomida global miqyosdagi davlatlar va mintaqaviy kuch markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda bufer rolini o'tab kelgan Afg'oniston endilikda Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi ko'priq vazifasini bajarishdek yangi tinchlik missiyasida o'zini namoyon etmog'i lozim.

Bunday o'zaro manfaatli mintaqalararo hamkorlikning namunaviy ramzi sifatida Transafg'on koridorining qurilishi loyihagini aytish mumkin. Shuni ham anglash muhimki, "Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar" temir yo'li kabi qo'shma infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish orqali, ijtimoiy-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya vazifalarini hal etibgina qolmasdan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga ham salmoqli hissa qo'shish mumkin. Bu loyihaning ahamiyati Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun birdek manfaatli hisoblanadi. Afg'onistonda tinchlik o'rnatilsa, avvalambor, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qo'shni davlatlari uchun janubga yo'l ochiladi, ya'ni ular uchun yangi savdo yo'llari orqali Pokiston, Hindiston hamda Yaqin Sharq bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri kirib borish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston o'zining tranzit va eksport salohiyatini keng ko'lamda rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Natijada yer yuzining 2 milliarddan ko'proq odami yashaydigan, yalpi ichki mahsuloti 3,5 trillion dollar bo'lgan Janubiy Osiyo mamlakatlari biz uchun yirik iqtisodiy bozori bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Janubiy Osiyo mamlakatlari ham Afg'oniston va O'zbekiston hududlari orqali Shimol tarafdagi boshqa Markaziy Osiyo davlatlari hamda Rossiya va Xitoy bozorlariga qisqa yo'l bilan kirib kelishlari mumkin. Ushbu ijobiy imkoniyat Afg'onistonni yirik tranzit davlatga aylantirib, mamlakat iqtisodiyotini jadal tarzda rivojlantirish istiqbolini yaratadi. Boz ustiga, ushbu yurtga xorijiy sarmoyalar oqimi kuchayib, uning hududida joylashgan qazilma boyliklar afg'on xalqi ravnaqiga xizmat qilishni boshlaydi.

«Mozori Sharif — Qobul — Peshovar» temir yo'l loyihasi to'liq amalga oshirilishi bilan Pokistondan O'zbekistonga yuk tashish uchun 35 kun emas, 3–5 kun sarflanishi kutilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, konteynerni Toshkentdan Karachiga etkazish narxi taxminan 1400–1600 dollarga teng bo'ladi, hozir amaldagi «Toshkent — Bandar Abbos» yo'nalishida bu xarajat 2600–3000 dollarni tashkil qilmoqda.

Mozori Sharifdan Peshovargacha bo'lgan temir yo'l qurilishi doirasida 264 ta ko'priq, 7 ta tunnel va 641 ta suv o'tkazgichli tizimli infratuzilma yaratiladi, bu Afg'oniston va Pokistondagi kesib o'tuvchi hududlarning rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

O'zaro pozitsiyalarimizni yaqinlashtirib, tinch, barqaror va farovon Afg'oniston uchun ShHTning yangi kun tartibini birgalikda ishlab chiqa olishimizga aminman. Shundagina tom ma'noda barqaror va izchil rivojlanayotgan, yaxlit xavfsizlikka ega bo'lgan ShHT makonini barpo eta olamiz.

Xulosa: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2021-yilning 15-16-iyul kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiya muhim hamda tarixiy ahamiyat kasb etdi. Zero, O'zbekistonning faol va insonparvarlik diplomatiyasi Afg'oniston hududini Markaziy hamda Janubiy Osiyoni o'zaro bog'laydigan ko'priikka aylantirishga, ya'ni afg'on diyorini ikki submintaqa o'rtasida o'ziga xos iqtisodiy-geografik koridor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tavsiyalar. Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga va qulay geografiyaga ega bo'lgan Afg'onistondagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat ushbu mintaqa mamlakatlarining tinchligi uchun haligacha xavf tug'dirayotganligi hech kimga sir emas. Qariyb 20 yil davomida mamlakatda vaziyatni nazorat qilgan xalqaro koalitsiya qurolli kuchlarining Afg'onistondan chiqib ketishi, "Tolibon" harakatining siyosiy hukumatni qo'lga olishlariga imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston uchun eng muhimi — Afg'onistonda urush to'xtab, tinch va barqaror muhitning yuzaga kelishidir. Faqat shunday vaziyatgina O'zbekistonning janubiy yo'nalishdagi, shu jumladan, ushbu qo'shni davlatga tegishli ko'plab geostrategik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun qulay zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev jurnalistlar bilan uchrashuvda Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo'li qurilishining ilk bosqichlari. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/06/02/new-railway/>

2. shavkat-mirziyoyevning-shht-samarqand-sammitiga-bagishlangan maqola https://dunyo.info/cyrl/site/inner/shanhay_%D2%B3amkorlik_tashkilotining_samarqand_sammiti_ozaro_bogliqlikdagi_duniada_muloqot_va_%D2%B3amkorlik-1br

3. https://railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti

4. Suhayl Shahin. URL // <https://www.amerikaovozi.com>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. URL. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shmmirziyoyevning-markaziy-va-janubiy-osiyo-mintaqaviy-ozaro-bogliqlik-tahdidlar-va-imkoniyatlar-mavzusidagi-xalqaro-konferensiyadagi-nutqi>.



QORAQALPOG`ISTONDA 1929-YILGI TAXTAKO`PIR VOQEASI VA UNDA KEYIN MUSULMON ULAMOLARNING QATAG`ONGA UCHRASHI

*Zinatdinov Nuratdin Kobeyzinovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktranti
<https://orcid.org/0009-0000-8814-7055>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1920-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida Sovet hukumatining olib borgan siyosati natijasida Qoraqalpoq`istonda Taxtako`pir qo`zg`olonining yuz berishi va hukumatning Islom diniga, musulmon ulamolarga nisbatan agressiv siyosatining yanayada kuchayishi tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Islom dini, musulmon ulamolar, Qoraqalpoq`iston, mulla, so`fi, imom, qozi, maxsum, eshon, oxun, repressiya, ateist, partiya

РЕПРЕССИИ МУСУЛЬМАНСКИХ ДУХОВНИКОВ ПОСЛЕ ТАХТАКУПЫРСКОГО ИНЦИДЕНТА 1929 ГОДА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

*Зинатдинов Нуратдин Кобейсинович
Базовый докторант, Каракалпакский государственный университет*

Аннотация: В данной статье анализируется возникновение Тактакупырского восстания в Каракалпакстане как результат политики советского правительства в конце 1920-х - начале 1930-х годов и дальнейшее усиление агрессивной политики правительства по отношению к Исламу и мусульманскому духовенству.

Ключевые слова: Исламская религия, мусульманские духовенство, Каракалпакстан, мулла, суфий, имам, кази, махсум, ишан, ахун, репрессии, атеист, партия

REPRESSION OF MUSLIM CLERICS AFTER THE TAKHTAKUPYR INCIDENT IN KARAKALPAKSTAN IN 1929

*Zinatdinov Nuratdin Kobeyzinovich
Basic doctoral student of Karakalpak State University*

Abstract: This article analyzes the emergence of the Takhtakupyr uprising in Karakalpakstan as a result of the policy of the Soviet government in the late 1920s - early 1930s and the further strengthening of the government's aggressive policy towards Islam and Muslim clerics.

Key words: Islam religion, Muslim clerics, Karakalpakstan, mullah, sufi, imam, qadi (judge), mahsum, ishan, akhund, repression, atheist, party

INTRODUCTION. The end of the 1920s - the beginning of the 30s is one of the difficult periods in the history of Karakalpakstan. During these years, as a result of the land and water policy, collectivization, the liquidation of kulak farms, and large amounts of taxes collected from the population, numerous armed uprisings took place in the form of open protests. It was during this period, as a result of a large-scale strengthening of the atheistic movement, that the attitude of the Soviet authorities towards religious figures and Muslim clerics changed to a very reactionary and cruel one.

MAIN PART. In 1929, in the Takhtakupyr district of the Karakalpak Autonomous Region, a public protest took place against the brutal policy of the Soviets, Abdjalil Ismatullaev, Karimberdi akhund, Barliqbay Nurumov, Ibragimov Ubbi, Ibraimov Ajim, Ernazarov Xojahmet and others held secret councils in Chimbay and determined a plan of action. However, employees of the OGPU (Joint State Political Directorate)

found out about this and on September 18-21 arrested 35 out of 44 members of the Chimbay counter-revolutionary organization. But nine people, including Ismetullaev Abdujalil, Abdukarim, Davletnazarov Qdir-qadi, Nurumov Barliqbay and others, cannot be found [1].

The liberated Ismatullaev, Nurumov and other armed young people (60 of them) gather at a place called «Andat Lake» 10-12 versts south of Takhtakupyr. The general leadership of the meeting was entrusted to Ismetullaev Abdujalil mahsum. The documents record that Ismetullaev was elected khan at the meeting. At the meeting, Nurullayev Karimberdi was appointed to the post of qadi (judge) and Nurumov Barliqbay was appointed military commander of the assembled youths [2].

On September 27, at 1-2 pm, the gangs of Nurumov and Ismetullaev launched an armed attack in the regional center of Takhtakupyr, shouting “Allah”, “Allah”, and invaded the city[4]. Entering the city, the rebels killed the people’s inspector Kutlumuratov, the servant Mambetaliev, the farmhand Ibragimov, the locust control instructor Soshnikov, the wife and child of the servant Shpilokova, the servant Lagunina [5]. The rebels were almost ready to overthrow Soviet power in Takhtakupyr. However, after these events, the Soviet government on September 28 declared a state of emergency in the capital Turtkul. A detachment of 62 people will be sent to Takhtakupyr [6]. The uprising was brutally suppressed by the fighters of the regional branch of the OGPU and parts of the communist detachments. Only in Takhtakupyr, the 6th division arrested 44 people from among the leaders and participants in the uprising in Takhtakupyr [7]. But not only in Takhtakupyr, many people associated with the uprising from the Khojeyli and Kungrad regions were arrested.

At the request of the Center, the Trio group, headed by the head of the OGPU of the Karakalpak Autonomous Region A. Belonogov and the deputy full representative of the GPU (state political administration) in Kazakhstan A.R. Alshansky according to the articles 58, sections 1-2 and 59 of the Criminal Code of the RSFSR Under part 1 of the article, 252 people were arrested who had ties with the rebels. 88 of them were sentenced to death, 27 of them were shot on January 24, 1930 in Chimbay. Among them were Matkerim Bekanov, assistant to the head of the executive committee of the Chimbay region, Askar qadi Orinbaev, Khalilya akhund Atauliev, Bokey makhsun Ismetullaev, Pakhratdin akhund Munaidarov, Pirzhan Khodja Eskeldiyev and others.. Ismetullaev Abdujalil, who was considered the leader of the uprising, was sentenced to death, and Nurumov Barliqbay died in one of the battles [8].

After the suppression of the Takhtakupyr armed uprising, the rich and religious clerics were severely persecuted, the reason for which, in the opinion of Soviet authorities, they were considered the main supporters of the uprising. They were seen as forces opposed to the Soviet system and were rated as «counter-revolutionaries» and «basmachi (assailant, from Turks-attacker)» in the history literature of the Soviet era. The rich and religious clerics were charged with involvement in basmachi, assistance to basmachi, hiding basmachi, espionage, membership in counter-revolutionary organizations, conducting counter-revolutionary propaganda, terrorism, ideological sympathies with basmachi.

In 1929, the Central Committee of the VKP (b) (All-Union Communist Party of Bolsheviks) “On measures to strengthen the fight against religion” and on October 10, 1929, at a closed meeting of the Bureau of the Regional Committee of the All-Union Communist Party of Bolsheviks of Kazakhstan, the people of the Kazakhstan Commissariat decided to organize an off-site meeting of the Supreme Court of the Autonomous Republic on cases related to gangs in Karakalpakstan. In the sphere of repression, they begin to collect information about “big rich people and ishans helping bandit gangs”, confiscate their property and deprive them of land. That is, the Soviet government intensified its policy of open struggle against religion and local Muslim clerics (mahsum, imam, ishan, sufi, qari).

The relationship between the Soviet government and the Muslim clerics became more and more evident during the «extermination of the counts as a class» at the beginning of the spring sowing campaign in 1930. In the decision of the regional committee of Kazakhstan dated January 11, 1930, the agricultural regions of Shurakhan, Shabbaz, Kipchak, Khojeyli, Karauzyak, Takhtakupyr, Chimbay, Kungrad and Kegeyli of Karakalpakstan were clearly defined. These areas had the necessary conditions for the implementation of the «policy of the extermination of ears as a class.» For example: a high commodity economy, organized labor and the poor.

Along with the bourgeoisie, religious clerics were among those who were abolished - kulaks, usurers, rich people. All these social categories, according to the communists, are a mutual unity and are closely related on the basis of common interests. In this place, the local party authority of Karakalpakstan appeals to the regional committee of Kazakhstan to move the land-water reform from the end of 1930 to the spring planting season. Procedures for the use of assets of the OGPU, prosecutor's office, court, police, criminal investigation, communists and Komsomol assets will be developed by the Soviet government. In this case, the «triad» members of the NKVD (The People's Commissariat for Internal Affairs) and OGPU offices (Varlamov, Kholkovskiy, Jhalud, Sunchaliev, Belonogov) collect any information about religious clerics. It is clearly stated in the archive documents that the law enforcement agencies of the government unjustly persecuted those who were innocent and protected their human dignity during the investigation process.

As of March 1930, there were 45 farms from Shabbaz district, 36 farms from Kipchak district, 21 farms from Kungrad district, 10 farms from Karauzyak district, 36 farms from Turtkul district, 38 farms from Khojeyli district, 20 farms from Takhtakupyr district, 44 farms from Chimbay district and 45 farms from Kegeyli district were registered and liquidated. Among them were Muslim clerics. Including:

□ From Turtkul city and Turtkul (Shurakhan) district: imam-mullah Urumbetov Khojabek, akhund Dinmukhametov Khojaniyaz, ishan Asirov Mullah Ishan, mahsum Qadi Mukhamet-Aminov, mahsum Imamishanov Mukhetdin, mullah Bayramglichev Turdi, ishan Ibadullaev Ishan-Jan, sufi Qulbaev Halli-Murat, mullah Khurbandurdiev Murat;

□ From Shabbaz district: mullah Qultimirov Qutum, imam Avezimbetov Urazimbet, mullah Khojakhmedov Fazilkhoja, mullah Zarbaev Sapar, ishan Sadatdin Mahsum Abdullaev, mullah Ashirov Mullah Safar, qadi Hasanov Atajan, qadi Vaisov Rajap, mahsum Nurumbetov Utey, mullah Ibraimov Nurjan, mahsum Erimbetov Abdimalik, mullah Sapaev Palvaniyaz, mahsum Babajanov Kochkar, ishan Urazimbetov Annajan, mullah Kulimbetov Kurban, mullah Shimanov Nuratdin;

□ From Kipchak district: ishan Niyazimbetov Babajan, imam Khaldurdiev Nuri, mullah Qutligeldiev Atash, qadi Ishturganov Khalmurat, ishan Matkarimov Sadiq-Mahsum, qadi-mullah Davletmuratov Sherimbet, ishan Babaniyazov Sadiq, mullah Amanov Parakhat, qadi Matrzaev Shaniyaz, mullah Matniyazov Nurumbet, ishan Matrzaev Salli, ishan Yusupov Allan, mahsum Sadikov Abdijamil, mahsum Sadikov Alim, mahsum Sadikov Majit, mahsum Sadikov Aziz, akhund Kamalov Murat, mahsum Abdukadirov Madamin, ishan Avezov Ables, ishan Ishaqov Abdurasul, ishan Khodja-Ahmedov Perijan, ishan Suttaev Akhumbet, ishan Alimov Seimbay;

□ From Khojeyli district: ishan Janquvatov Labaq, mahsum Julumbetov Ziyatdin, ishan Assamutdinov Imamutdin, mullah Ishan Abdulzharov Abdikarim, akhund Primbetov Palvaniyaz-Mullah, mullah-ishan Davletov Sari, imam-mullah Mametov Itchan, ishan Abdurasul, ishan Bayniyazov Khoja, mullah Fatikhov Matniyaz, imam-mullah Urazimbetov Gani, imam Darvishev Kamal, ishan Mambet-Kerim, ishan Bazim, imam-mullah Mamenov Ramatulla;

□ From Kungrad district: ishan Ismatullaev Madraim-Mahsum, ishan Askarov Ibniamin, ishan Abdurashid-Ishan, ishan Ismatulla-Ishanov Madraim Mahsum,

imam-mullah Allaniyazov Madiyar-Qadi, imam-mullah Matrzaev Matchan, mullah Nurabullaev Halmurat, imam-mullah Sayfullaev Karamatdin, imam-mullah Yakshimov Sapar, ishan Jadigerov Mustafa, imam-mullah Mamutov Allayar, sufi Nazarbekov Turganbek, ishan Bekmanov Ibadulla, qadi Rakhmatullaev Jalal, ishan Khalillaev Sari, sufi Rakhmanov Safar, ishan Matkarimov Mussa, akhund Baybullaev Afub, mullah Ibniyazov Masharip;

□ From Kegeyli district: ishan Ametov Aytimbet, ishan Shamambetov Matkarim, ishan Besimov Khudaybergen, qadi Qaidagulev Qurbaen, ishan Musaev Sapa, mahsum Khalillaev Khaibulla, akhund Mazanov Najim, sufi-ishon Arziev Ismail, sufi Aytemov Allan, imam-mullah Shentibaev Ernazar, mahsum Suleymanov Ibraim, akhund Qulnazarov Qilish, ishan Khalkamanov Suleyman, mullah Ermanov Ali, ishan Ayimbetov Tajetdin, ishan Jalimbetov Doshan, ishan Mansullaev Imam, ishan Patullaev Aytimbet;

□ From Chimbay district: ishan Pakhratdinov Pariyatdin, ishan Primbetov Inoyatulla, ishan Palimov Marzambet, ishan Kadirishanov Saykhutdin, mahsum Fayzullaev (Seydullaev) Jamal, akhund Torakhmetov Mahsum, mullah Mazurov Abduniyaz, ishan Taqsanbaev Utebergen, ishan Mawletdinov Najim, ishan Bagautdinov Inoyat, ishan Ataullaev, Khalila, mahsum Abilkasimov Baqi, akhund Orumbaev Razbergen, sufi Aytbakov Nurumbet, ishan Abibullaev Abdujamil, ishan Ernazarov Karimberdi, sufi Abdurahmanov Abdurasul, ishan Panaev Nurumbet, ishan Kosnazarov Arzi, ishan Ayimbetov Maktum, mullah Davletnazarov Qdir, akhund Patilaev Serjan, mullah Mukhiyatdinov Jalalatdin, sufi Abdilkasimov Madamin, akhund Shlimbetov Bekbaul, mullah Ramberdiev Iskander, ishan Ishimov Akhmet-Mahsum, sufi Davletyarov Saparimbet, ishan Sadirishanov Saynatdin;

□ From Takhtakupyr district: akhund Bekimbetov Ansabay, mullah Aktarov Kulamek, akhund Edilbaev Ansatbay, ishan Kaymaqbaev Ayimbet, akhund Nurullaev Karimberdi, ishan Tulepov Allambergen, ishan Khojabaev Sadiq, ishan Esilov Tahunbet, akhund-ishan Nawrizimbetov Ayimbay, ishan Matekeev Abdujamil, ishan Sayakeev Kalimbet, mullah Turumov Erimbay, ishan Nurumov Ikhlas, akhund-ishan Abdurakhmanov Seytnazar, ishan Abdukabirov Kamal;

□ From Karauzyak district: ishan Davletov Amet, mahsum Kosumbetov Baki, ishan Tazhetdinov Vais, ishan Idrisov Ilyas [9];

According to archival documents, some of the Muslim clerics were forced to flee to Turkmenistan, Uzbekistan, Afghanistan and other regions. One of these priests, mullah Kurbanberdiev, who lives in the Turtkul region, said: "The Bolsheviks began to completely destroy the mullahs. We must choose where to run now. "I think that Karakalpakstan needs to be left somewhere," he said. That is, one of the clerics, mullah Masakov Abdulla, who lives in village No. 4 of the Kungrad region, said: "It has become difficult to live in the Kungrad region. I am thinking of moving to Uzbekistan, where they pay fewer taxes" [10].

CONCLUSION. From January 1, 1929 to May 1, 1930, 112 people were shot in the Karakalpak Autonomous Region, 29 people were exiled to concentration camps. Most of them were people related to the Takhtakupyr uprising [11]. It was after this uprising and after the second half of the 1930s. the policy of repression intensified. Only in 1937-1939, according to Professor Sh. Babashev, 3139 people were convicted in Karakalpakstan in connection with the «revolutionary movement», of which 1431 people were repressed [12].

As a result of the coercive policy of the Soviet government, innocent Muslim clerics were subjected to the most severe repressions. Some of them were shot, some were exiled to distant countries, and some were forced to flee to other countries with their families. A group of clerics who survived the coercive policy stopped going to mosques because they were afraid of the government's policies. It was during this period that mosques and madrasahs were closed. As a result, mature clergies of

Islamic science in Karakalpakstan were lost, and supporters of atheistic ideology took their place. Such people only officially performed their duties and were executors of orders from above.

However, these repressive tortures, prohibitions and pressures could not expel love and faith in religion from the minds and consciousness of our people. Respect for Islamic clergies and intellectuals has not disappeared. Fortunately, with the honor of independence, archival documents were studied by historians, as a result of which most of our clerics were acquitted. However, a deeper study of the historical truth about the policy of the Soviet government directed against Islam and religious clerics and its disclosure remains an important part of the history of Karakalpakstan.

REFERENCES

1. Allaniyazov.T-Voorujennoe vistuplenie v Taxtakupire Karakalpakskoy avtonomnoy oblasti.- www.caa-network.org, 2022 July 4th
2. Allaniyazov.T-Voorujennoe vistuplenie v Taxtakupire Karakalpakskoy avtonomnoy oblasti.- www.caa-network.org, 2022 July 4th
3. Central State Archives of the Republic of Karakalpakstan Fund-P-551, inventory-1, file-1158, page 13
4. Central State Archives of the Republic of Karkalpakstan Fund-P-551, inventory-1, file-1417, page 19
5. Central State Archives of the Republic of Karkalpakstan Fund-P-551, inventory -1, file-1158, page 13
6. Qaraqalpaqstan ASSRi tariyxi volume II, "Qaraqalpaqstan", 1977, page 188
7. Central State Archive of the Republic of Karkalpakstan Fund-P-551, inventory -1, file-1158, page 13
8. Babashev.Sh . Jaziqsiz jazalang'an repressiya qurbanlari. Nukus: Qaraqalpaqstan, 2007 , pages 20,29,362
9. Central State Archives of the Republic of Karkalpakstan Fund-P-551, inventory -1, file-1815, between pages 1 and 103
10. Central State Archives of the Republic of Karakalpakstan Fund-P-551, inventory -1, file-1793, pages 26-27
11. Central State Archives of the Republic of Karakalpakstan Fund-P-551, inventory -1, file-1509, page 246
12. Babashev Sh. Politicheskiy terror v Karakalpakstane v 1937-1938 gg.// Materiali Nauchnoy sessii Uchenogo Soveta IIAE KKO AN RU, posvyashennoy itogam NIR 2000 goda. Nukus, 2001. page 33, B.A.Koshanov, G.T.Izimbetova, N.K.Zinatdinov-Politika sovetsoy vlasti v otnoshenii musulmanskoogo duxovenstva v Karakalpakstane (1917 - 1941 gg.)-Nukus

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV KOMPONENTLAR VA ULARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Akramova S.R.,

BDU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. Bugungi kunda so'z darajasida ifodalangan axborot lisoniy birlikning keng kontekstda funksiyaga kirishuvi nuqtayi nazardan tadqiq etilishi kengkuatilmoqda. Buo'rindalisoniy birlik ifodalaydigankommunikativ maqsad, munosabat, turli munosabat o'rnatuvchi va estetik vazifalarni qo'shimcha (konnotativ) ma'no, pragmatik ma'no sifatida ham talqin qilina boshlandi. Maqolada zamonaviy tilshunoslikda konnotativ komponentlar, pragmatik, madaniy konnotativ komponentlar, ularning pragmatik xususiyatlariga e'tibor qaratdik.

Kalit so'zlar: konnotatsiya, pragmatik komponentlar, madaniy konnotativ komponentlar, so'z birikmalari, semantik struktura.

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'lqinlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. Tilshunoslikning barcha bo'limlarida o'rganilishi mumkin bo'ladigan lingvistik birlik leksemdir. Zero, leksema, nafaqat, lug'aviy birlik, balki morfologik sathda sintaktik aloqani vujudga keltiradigan muhim vositadir. Bu holatlar so'zning denotativ (atash) ma'nosi bilan bog'liq ravishda yuz beradi. So'zning denotativ ma'nosi uning til tizimida muhim lug'aviy birlikligini anglatadi, shu ma'no bilan uzviy bog'liq holda vujudga keladigan konnotativ ma'no so'zning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uning uslubiyatning ham muhim tekshirish obyekti ekanligini namoyon etadi. Nutq uslublarida qo'llanilishi nuqtayi nazaridan so'zlar: umumiste'mol so'zlar va nutqning ayrim turlari uchun xos bo'lgan so'zlar kabi ikki guruhga ajratiladi.

1. Umumiste'mol so'zlar mohiyat jihatidan til lug'at tarkibining asosini

tashkil qiladi va barcha nutq turlarida tayanch lug‘aviy birlik sifatida qo‘llaniladi.

2. Nutqning ayrim turlari uchun ham xoslangan so‘zlar bo‘lib, ular uslubiy jihatdan chegaralangan bo‘ladi. Masalan, kitobiy so‘zlar kitobiy nutq uchun xoslangan bo‘lsa, og‘zaki nutqning ham uslubiy xoslangan so‘zlari mavjud.

Shuningdek, ilmiy terminlar ilmiy nutq uchun, rasmiy atamalarning rasmiy nutqqa xosligi, eskirgan so‘zlar, dialektizmlar, argo va jargonlarning, asosan, badiiy nutqda qo‘llanilishi so‘zlarning nutqlararo taqsimlanishi lingvistik ehtiyoj natijasi ekanligidan dalolat beradi. Keltirilgan mulohazalar so‘z, uning ma‘nosi va uslubiy xoslanganlik munosabatlari hali chuqur tadqiqotlar olib borilishi uchun asos bo‘la oladi. Matn tarkibida leksemalar asl lug‘aviy ma‘nosidan tashqari ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanish xususiyatlariga ham ega. Ma‘no ko‘chishi orqali vujudga keladigan ma‘no 329 so‘zning hosila ma‘nosi hisoblanadi. So‘zning hosila ma‘nosi matn orqali anglashiladi. Shunday ekan, so‘z ma‘nosini asl yoki hosila ma‘no ekanligi lug‘aviy birliklarning matniy qo‘llanilishi asosida izohlash mumkin. Barcha lug‘aviy birliklar singari umumiste‘mol so‘zlar ham turli ma‘nolarda qo‘llaniluvchi vositalardan hisoblanadi. Ayni paytda pragmatik komponentlar qo‘shimcha (konnotativ) ma‘no anglatuvchi so‘zning semantik strukturasi tarkibiga ham kirishi mumkin. Bu holat so‘zning assotsiativ belgilari mavjud bo‘lganida yoki o‘xshash va farqli tomonlari tahlil qilinganda ko‘proq seziladi.

Pragmatik ma‘noni (konnotatsiyani) nutq jarayonida qo‘llanilishi va qo‘shimcha, ko‘pincha noverbal ifodalangan ma‘nolarni aniqlash tamoyillarini belgilash tilshunoslikdagi kommunikativ-funksional paradigmaning yanada rivojlanishiga olib keldi. So‘z va lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan pragmatik (konnotativ) ma‘noni keng nutq va matn miqyosida o‘rganilishi murakkab va serqirra bu tushunchani ilgari paytlarga nisbatan yanada kengroq ma‘noda qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda leksik birlikning semantik strukturasi qo‘shimcha ma‘no (pragmatik, konnotativ ma‘no) konnotatsiyani vujudga keltiruvchi matnlarlar, tagma‘no ifodalovchi alohida leksemalar, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, iboralar, maqollar asosida tadqiq qilinmoqda. Shunday qilib pragmatik tahlil asosida konnotativ ma‘noning ichki va tashqi pragmatik belgilari aniqlanadi. Konnotatsiyaning ichki belgilari leksema mazmuni strukturasi qo‘shimcha ma‘no komponentlarning mavjudligi bilan bog‘liq. Tashqi pragmatik belgilar esa, aniq kommunikativ aktdagi muloqot vaziyati, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning xarakteri, ularning fon bilimlarining bir-birlariga yaqinligi, muloqot presuppozitsiyasi kabi ekstralingvistik omillar orqali aniqlanadi. Shunga ko‘ra konnotatsiyaning turli tiplari: bir tomondan so‘z orqali ifodalanib, uning semantik strukturasi kengaytiruvchi konnotatsiya va ikkinchi tomondan matn orqali ifodalanib, tagma‘no hosil qiluvchi konnotatsiyalar farqlanadi.

Matnni va nutqni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil etish muloqot jarayonidagi nutq odobi qoidalarini egallash, muloqot jarayonini madaniy tashkil qilish, suhbat jarayonida rozilik va norozilik, muloqot va odob me‘yorlariga rioya qilish suhbatdosh shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini va bazaviy bilimlarini hisobga olish kabi amaliy muloqot ko‘nikmalarini shakllanishiga olib keladi. Boshqa tomondan pragmatika til vositalaridan unimli foydalanish

qoida va parametrlarini belgilaydi. Oxirgi yillarda leksik birlik semantikasining strukturasi, ayniqsa uning predmet-mantiqiy mazmunini ifodalovchi semantik komponentlarining nutqda ifodalanishi turli soha tadqiqotchilarining alohida diqqat-e'tiborini tortmoqda. Shunday masalalardan biri leksik birlik semantik strukturasiidagi pragmatik xususiyatlarning konnotativ komponentlar orqali ifodalanishidir.

Bugungi kunda leksik birlikning semantik strukturasi-tuzilishidagida qo'shimcha ma'no yoki pragmatik, konnotativ ma'no deb atayotganimiz konnotatsiyani vujudga keltiruvchi kontekstlar, tagma'no ifodalovchi alohida so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, iboralar, maqollar asosida tadqiq qilinmoqda. Shunday qilib, pragmatik tahlil asosida konnotativ ma'noning ichki va tashqi pragmatik belgilari aniqlanadi. Konnotatsiyaning ichki belgilari so'z mazmuni strukturasiidagi pragmatik komponentlarning mavjudligi bilan bog'liq. Tashqi pragmatik belgilar esa, konkret kommunikativ aktdagi muloqot vaziyati, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri, ularning fon bilimlarining, ya'ni ulardagi mavjud ma'lumoti, bir-birlariga yaqinligi, muloqot presuppozitsiyasi kabi ekstralingvistik omillar orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra konnotatsiyaning turli tiplari: bir tomondan so'z orqali ifodalanib uning semantik strukturasiini kengaytiruvchi konnotatsiya va ikkinchi tomondan matn orqali ifodalanib, tagma'no hosil qiluvchi konnotatsiyalar farqlanadi. Matn va nutqni pragmatik nuqtai nazardan o'rganish muloqot jarayonidagi nutq odobi qoidalarini egallash, muloqot jarayonini madaniy tashkil qilish, suhbat jarayonida rozilik va norozilik, muloqot normalariga rioya qilish suhbatdosh shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini va fon bilimlarini hisobga olish kabi amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllanishiga olib keladi. Boshqa tomondan pragmatika til vositalaridan unimli foydalanish qoida va mezonlarini belgilaydi. E.S.Aznaurova o'z tadqiqotida tilshunoslikda ilk marotaba kommunikativ pragmatik vaziyatning asosiy parametrlariga asoslanib so'zning lingvopragmatik tahlili prinsiplarini nazariy jihatdan asoslab berdi. Olima ular qatoriga quyidagilarni kiritadi: -kommunikativ akt ro'y beradigan vaziyat va joy; -muloqot mavzusi va maqsadi; - muloqot ishtirokchilarining etik, individual xarakteristikasi; -muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabat [Aznaurova, 1988: 38]. V.I.Zabotkina bu nazariyani yanada rivojlantirib tilning lug'at tarkibini pragmatik nuqtai nazardan o'rganishda leksik va frazeologik birliklarni jo'yali yoki o'rinli qo'llashda muloqot vaziyatini va gapiruvchi shaxsning muloqot maqsadini hisobga olish nazariyasini ishlab chiqdi. Bu yo'nalish tilning leksik tizimini o'rganishda yangicha yondashuv: funksional leksikologiyaning shakllanishiga olib keldi. [Zabotkina, 1989, 6]. Y.D.Apresyan ta'biricha lisoniy pragmatika atalmish yangicha tushuncha lisoniy birlik zamiridagi (leksema, affiks, grammema, sintaktik konstruksiya orqali ifodalanadigan gapiruvchi shaxsning atrof borliqqa, axborot mazmuniga, tinglovchiga (kitobxonga) munosabati tushuniladi [Apresyan, 1995:136]. Masalan, "fransuzcha initiateur so'zining tashabbuskor, novator, tarbiyachi ma'nolari nol pragmatik xarakteristikaga ega bo'lsa, bu so'z konnotativ ma'noda biror yomon (salbiy) ishni boshlovchisi ma'nosiga ega bo'lib, so'z ifodalaydigan pragmatik ma'no salbiy xarakteristikaga ega bo'ladi" [Ko'chiboev, 1915: 26]. Shunday qilib

soʻz semantikasiga qoʻshimcha yangi pragmatik maʼno, yaʼni yangi maʼno oʻttenkasi qoʻshiladi. Shunga muvofiq Y.D. Apresyan lugʻatlar definitsiyasiga qoʻshimcha belgilar, yaʼni iboli-yumshoq (vejlivo), qoʻpol (vulgarnoe-gruboe), kinoyaviy (ironicheskoe), erkalovchi (laskatelnoe), nomaʼqul (neodobritelnoe), quvnoqi (rezrvitelnoe), beeʼtibor (prenebrejitelnoe), hazilomuz (shutlivo), eifeministik (evfemisticheskoe) singari pragmatik-stilistik belgilar kiritishni taklif qiladi. [Apresyan, 1995:145]. Bu orqali pragmatik maʼno ifodalovchi lisoniy birliklarning emotsional-ekspressiv taʼsirini oʻrganish borasida yangi bir pragmatik yoʻnalishga asos solindi. Har qanday lisoniy birlikning nutq (matn) ichidagi pragmatik (konnotativ) potensialini (taʼsir darajasini) tadqiq qilish, pragmatik komponentlarini aniqlash ogʻzaki yoki yozma nutqda oʻz ifodasini topgan, matnga murojaat qilishni taqozo qiladi. Til hodisalarini matn tarkibida, turli xajmdagi nutq kesimlari orqali tahlil qilish kitobxonni ijodiy intuitsiya (his qilish, sezish) orqali soʻz, ibora va jumla, kontekstda ifodalangan qoʻshimcha axborotlarni anglashga yordam beradi. Lisoniy birliklarning jumladan, matnda, kontekstda bunday funktsiyaga kirishuvi nafaqat ularning soʻzlar qurshovidagi maʼnosini ochish vositasi boʻlib, balki yangi yasama birliklarni yaratishda va ularni anglashda inson tafakkurining harakatga keltiruvchi vositalari sifatida talqin qilinadi. Har qanday konkret fikrda nutqning pragmatik (egotsentrik- shaxsning oʻzligini xarakterlovchi) komponentlari mavjud deyish mumkin [Bobrova 1991]. Egotsentrik soʻzlar gapiruvchi shaxs tomonidan tilni oʻzlashtirganlik darajasini bildiradi va shu sababli ular pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Bunda soʻzning «lugʻaviy» maʼnosi ifodalanmishning mazmunini aniqlash uchun xizmat qilsa, kontekstual maʼnosi material ifodalangan belgining intensionalligini, yaʼni biror maqsadga yoʻnaltirilganligini, konkret predmetga aloqadorligini bildirib keladi. Binobarin, fikrning semantik-sintaktik qurilishi umumiy holda gapiruvchi shaxsning kognitiv bilimi va kommunikativ maqsadlarini oʻz ichiga oluvchi pragmatik tajribasini aks ettiradi. Moddiy mazmun esa (tajriba orqali toʻplangan ekvivalent tushunchalar, uning xususiyatlari va ular orasidagi aloqadorlik) avvalgi va keyingi kontekst bilan bogʻliq boʻlgan fikrning leksik-grammatik belgilari orqali toʻldiriladi. Hozirgi paytda matn nutqning yozma voqelanishidagi asosiy omili, muayyan ijtimoiy tajriba mahsuli sifatida tilshunoslikning asosiy tadqiqot obʼektiga aylangan boʻlsa-da, yakuniy nutq aktining shakllanish jarayoni etarli darajada oʻrganilmagan. Masalan, lingvistik tadqiqotlarda shaxsning bilimlar zaxirasining kommunikatsiya jarayoniga taʼsiri masalasi haligacha chuqur va atroficha tadqiq qilinmagan [Makarov, 1996]. Shu nuqtai nazardan turli diskurslarda pragmatik omillarning fikrning tematik va rematik qismlari joylashuviga taʼsirini tahlil qilish, shuningdek nutqni tashkil qilishda lisoniy vositalarni tejash masalasi ham atroficha tadqiq qilinmagan muammolardan biridir. Bu oʻrinda nutqdagi ayrim axborotlar muloqot ishtirokchilarining har biriga tanish boʻlishi mumkinligi bois, u implitsit ifodlanishi yoki umuman tushirib qoldirilishi mumkin. Aynan mana shu hodisa nutqdagi «koʻrinmas», baʼzan ilgʻab boʻlmaydigan maʼno - mazmunni vujudga kelishiga olib keladi. [Makarova, 1996]. Hozirgi zamon tilshunosligida leksik birliklar semantikasi tarkibidagi konnotatsiya orqali

ifodalangan pragmatik ma'no T.V.Lixovidova (1978), N.D. Arutyunova (1979), Ternin (1985), V.N.Teliya (1986), Y.D.Apresyan (1995), A.N.Vstavskiy (2006) va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.

Bunday tadqiqotlarda leksik birlik orqali ifodalanuvchi konnotatsiyaning pragmatik xususiyatlari inson faoliyatining bilishga oid o'ziga xos komponenti sifatida birinchidan, lisoniy belgilarning muloqotda, nutqda baholovchi funksiyalarda qo'llanilishi, ikkinchidan xorijiy tillarda muloqot qilishga o'rgatishda muhim vosita vazifasini bajarishi ta'kidlanadi.

Tadqiqotlarida konnotatsiya yakka lisoniy birlik, frazeologik birikmalar, milliy realiyalar orqali voqelanishi, bunda ingegrent, agderent kontseptual, matn hosil qiluvchi konnotatsiya turlari va ularning pragmatik xususiyatlari alohida ajratilib o'rganiladi.

Leksik birlikning konnotativ komponenti deyilganida odatda shu tilda gapiruvchi shaxsning ongida shakllangan odamlarga, voqea-hodisalarga nisbatan subyektiv munosabati tushuniladi. Bunday munosabat lisoniy birliklar orqali ifodalanib, nutqda obyektga nisbatan yaxshi, yomon, yoki neytral pragmatik munosabatni belgilab keladi. Kishilarning real borliq obyektlariga baholovchi munosabatlari til sistemasida, jumladan shu tilning leksik birliklarida pragmatik munosabatlar sifatida o'z ifodasini topadi. So'z leksik ma'nosining baholovchi komponentlarini pragmatik nuqtayi nazardan o'rganilishi qator yechimini topmagan bahstlab muammolarni o'rganilishini taqozo qildi. Shu nuqtayi nazardan leksik birlikning pragmatik ma'nosidagi baholovchi komponentining xillarini, tiplarini aniqlash, ularni semantik komponent sifatida leksik birlik ma'nosida ishtirokini o'rganish tilshunoslar, tarjimonlar, metodist o'qituvchilar uchun ham g'oyat muhimdir. Voqelik yoki predmetlarni baholashda gapiruvchi shaxsning ijtimoiy xarakterdagi pragmatik munosabatlari ham ishtirok etadi. Bunday munosabat odatda me'yor tushunchalariga, jamiyatda shakllangan muayyan qoidalarga rioya qilishni taqozo qiladi. Lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan pragmatik konnotatsiyaning baholovchi komponentining ikki tipi mavjud:

1. Atrof-muhitni, subyektini, sifatni, fazilatni, xodisalarni ratsional (intellektual) baholash;

2. Ularni inson psixikasi ishtiroki yordamida emotsional baholash.

Ratsional baholash so'z manisini detonativ aspektida voqelanishi natijasida hosil qilinadi. Emotsional baholash esa, so'z ma'nosini baholovchi semalarini konnotativ aspektida voqelanish natijasidir. So'z manosining pragmatik ifodalangan konnotativ komponentlari o'zaro bir-birlari bilan integratsiyalashgan, ya'ni doimiy aloqada, ammo ularning har birining miqdoriy o'ziga xosliklari mavjud. Baholash konnotatsiyaning boshqa komponentlari bilan birga so'z ma'nosining ekspressivligini (pragmatik ta'sirini) oshirishga xizmat qiladi va aynan ular kommunikativ aktda subyektiv munosabatlarni yanada ta'sirchan, juda ifodali ifodalash uchun xizmat qiladi. Ekspressivlik shu jihati bilan so'z ma'nosining pragmatik komponenti hisoblanadi va u muloqot jarayonida so'z tanlash, uni muloqot vaziyatiga ko'ra qo'llash va bu orqali suhbatdoshga kommunikativ ta'sir etishni ko'zda ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чоратadbirlари тўғрисида” ги 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5058351>.

2. Mamatov A.E. Grammatik va semantik muammolar hamda ularning qiyosiy-tipologik tadqiqi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Samarqand, 2015, - B. 12-13.

3. Yuldasheva D.N. O`zbek tilini o`qitish metodikasi (OO`MTV tasdiqlagan darslik).– Buxoro: Durdona, 2021.– 445 b.

O'ZBEK TILIDA APOTROPEIK SEMANTIKALI ANTROPONIMLAR TASNIFI

*Allamuratova Xosiyat,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada antroponimlarning xalq madaniyati va etnografiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni bolaga asrovchi, himoya qiluvchi ismlarning qo'yilishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, apotropeik ismlarning semantikasi, etnolingvistika va lisoniy tizimda tutgan o'rni o'zbek antroponimlari misolida yoritiladi. Maqolada kishilarning qadimdan so'zning magik kuchga egaligiga ishonish, shaxs ismi uning taqdiriga ta'sir qilishiga ishonib qo'yilgan antroponimlarning motivatsion xususiyatlari hamda ularning guruhlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: apotropeik ismlar semantikasi, yovuz kuchlardan asrovchi nomlar, xunuk ismlar, tuban ismlar, himoya nomlari.

КЛАССИФИКАЦИЯ АНТРОПОНИМОВ С АПОТРОПЕЙЧЕСКОЙ СЕМАНТИКОЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

*Алламуратова Хосият,
Преподаватель Термезского государственного университета*

Аннотация. В статье освещаются аспекты антропонимов, связанные с народной культурой и этнографией, то есть вопросы присвоения ребенку оберегающих и охранительных имен. Также на примере узбекских антропонимов освещается семантика апотропейческих имён, их роль в этнолингвистике и языковой системе. В статье анализируются вера в магическую силу слова, мотивационные характеристики антропонимов и их групп, которые считают, что имя человека влияет на его судьбу.

Ключевые слова: семантика апотропейческих имён, оберегающие имена от злых сил, уродливые имена, базовые имена, защитные имена.

CLASSIFICATION OF ANTHROPONYMS WITH APOTROPEIC SEMANTICS IN THE UZBEK LANGUAGE

*Allamuratova Khosiyat,
Lecturer at Termez State University*

Annotation. The article highlights aspects of anthroponyms associated with folk culture and ethnography, that is, the issues of assigning protective and protective names to a child. Also, on the example of Uzbek anthroponyms, the semantics of apotropaic names, their role in ethnolinguistics and the language system are highlighted. The article analyzes the belief in the magical power of the word, the motivational characteristics of anthroponyms and their groups, who believe that the name of a person affects his fate

Keywords: semantics of apotropaic names, protecting names from evil forces, ugly names, base names, defensive names.

Kirish. Ismlar o'tmishda ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida yetib kelgan ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga molik bo'lgan lug'aviy qatlamdir. Ismlarning yaratilishida o'zbek xalqining o'tmish-tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, rasm-u odatlari, e'tiqod va ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismidir. Ismlarning yaratilishida o'zbek xalqi o'tmishining tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, rasm-u odatlari, e'tiqod va ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi o'zbek

xalqi ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Antroponimlarni keng ko'lamda tahlil qilish mamlakatimizda XX asrning 70-yillaridan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida rivojlandi. E.Begmatov [1], G'.Sattorov [2], R.Xudoyberganov [3], S.Kenjayeveva [4] kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar asosida antroponimika sohasi takomillashdi. Ammo o'zbek antroponimikasida apotropeik nom va ismlarning tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas, zero, bugungi o'zbek lingvomadaniyatida ushbu tadqiq obyekti bilan bog'liq nazariy asosni shakllantirishga yetarlicha sabablar mavjud. Jahon tilshunosligidan farqli, o'zbek tilshunosligida bu toifadagi ismlarni ifodalovchi alohida termin mavjud emas: umumiy holda, apotropeik nomlar alohida olingan atoqli otlar, muayyan tasviriy vositalar hamda etnografizmlar sirasida o'rganiladi. Binobarin, mazkur maqolamiz apotropeya hodisasining o'rganilish metodologiyasi hamda uning xalq etnomadaniyati, tilida tutgan o'rnini yoritishga bag'ishlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Apotropeik nomlar mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, lug'aviy-ma'naviy, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik, lingvomadaniy va etnografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Apotropeya dastlab etnografik tushuncha hisoblangan. «Etnografik tushunchalar va atamalar kodeksi» da apotropeyaga «inson, hayvonlar, o'simliklar, narsalar va binolarni yovuz kuchlarning zararli harakatlaridan himoya qiladigan narsa, belgi, harakat yoki holat, so'z, ibora, tovush, hid (ruhlar, xudolar, yovuz ko'z, sehrgarlik)», deya izoh beriladi. Qadimgi yunonchadan (topos) so'zmaso'z tarjima qilinganda, «baxtsizlikning oldini olish», «yovuzlikni rad etish» degan ma'nolarni anglatadi. Qadimgi yunon madaniyatida turli xil qo'rqinchli tasvirlar (sherlar, gorgonlar, griffinlar, falluslar va b.) ko'rinishida namoyon bo'lgan yovuz ruhlarni odamlardan haydab chiqaradigan, uylarini, ekinlari va hayvonlarini himoya qiladigan afsonaviy narsalarni apotropeyonlar deb nomlangan.

Etnografiya va onomastikaga oid adabiyotlarda «asrovchi nomlar», «himoya nomlari», «tuban nomlar», «xunuk ismlar» kabi tushunchalar mavjud. Qadim davrlardan beri ota-onalar o'z farzandini qandaydir dushmanlardan himoya qilib kelgan. Bunday harakat chaqaloqqa beriladigan ismda ham ifodalangan. Bunda bolaning dushmani deb bilingan yovuz kuchlarni boladan uzoqlashtirish ko'zda tutilgan. Shu sababli bolani yomon, xunuk, yoqimsiz, bu bola bizning bolamiz emas, uni topib, sotib olganmiz kabi tavsiflashgan. Bu choralar tufayli bola irodali, u yovuz kuchlar hujumiga bardosh bera oladi, deb umidlanish va o'shanga mos ravishda chaqaloqni mahkam, mustahkam narsalarga qiyoslash alohida o'rin tutgan. Ushbu tushuncha va tasavvurlar motiv rolini o'ynagan ismlarni keltiramiz:

1) bola e'tiborga arziyas, xunuk, yomon deb tasvirlangan: Dunbay (arziyas), Devona, Yomon//Jaman, Yomonbola//Jamanbola, Yomonqul// Zabunboy (arziyas), Zalil (tuban), Sanor (balchiq, iflos), Tasqara (xunuk), Turob (tuproq), Cho'tir.

N.B.Aldarova buryat antroponimiyasidagi "himoya nomlari" haqida yozar ekan, Muuday, Muuxan, Muutxa (yomon) ismlarini tilga oladi [5, C. 6].

T.Kusimovning yozishicha, boshqirdlarda bolaga qirq kun ichida ism berilmasa, u ism so'rab yig'laydi degan ishonch mavjud. Ushbu muallif boshqird tilidagi Sotibaldi, Saylik, Satilg'an, Tapildi, Tabish hamda Torson, Teroq (Turoq), Isan, Isanbika, Isansura, Terag'ol ismlarini «himoyalovchi nomlar» qatoriga kiritadi. U ushbu motivli ismlar qatoriga Bukbash, Buksibay, Buksa, Buktiy, Kildebukbasar (buk – kal), Ketkenə, Selegay (so'lakay), Sasikg'ol (Sassiqqul), chuvash tilidagi Sassikbash, Yamantay, Yamankay, Yamaka ismlarini ham kiritadi [6, C. 11-13].

2) bola irodali, mahkam, mustahkam, yovuz kuchlar havfiga bardosh bera oladi, deb tasavvur qilingan hamda u o'shanday narsa va qurollar nomiga qiyoslangan:

– toshga: Toshbadal, Toshbeka, Toshboy, Toshbibi, Toshbolta, Toshbosh, Toshjigit, Toshgul va b.;

– po'latga: Po'lat, Po'latturdi, Po'latoy, Po'latgul, Bekpo'lat va b.;

– temirga: Temir, Temira, Temirbek, Temirberdi, Temirpo'lat, Temirtosh, Temirqo'zi va b.;

– ba'zi mustahkam buyum va qurilmalarga: No'xta, Sovut, Sovutboy, Boltaboy, Bolg'aboy, O'roqboy va b.;

– ba'zi mustahkam o'simliklarga: Archa, No'xat, Yovshon, Yovshanboy va b.

E.Begmatov o'z ishlarida yuqoridagi ismlarni berishda kishilar amal qiladigan ba'zi etnografik udumlarni A.L.Troitskaya ma'lumotiga asoslanib keltirgan. Masalan, Qoramurt va sayramlik o'zbeklar bolaga tosh, temir so'zidan hosil qilingan ismlar berar ekan, quyidagi iboralarni aytishgan:

Toshdek bo'lsun, temirdek bo'lsun.

Itday tishlab tursun.

Yoki:

Toshdek qil, temirdek qil, sutiga ega qil [7, B. 20-21].

Ba'zi hollarda «mahkam», «mustahkam», «qattiq» ma'nosini anglatadigan so'zlardan ism hosil qilinganini ko'ramiz: Mahkam, Mahkampo'lat, Mahkamqul, Mahkamtosh, Mekkamoy, Mahkamoy.

A.Shayxulov tatar va boshqirdlarda bola uzoq umr ko'rsin degan niyatda Biktash (Bektosh), Aytimer (Oytemir) ismlari beriladi deb yozadi [8].

3) bola yoqimsiz, bemaza deb tasvirlangan va ism achchiq narsalar nomidan hosil qilingan. Shunday qilinsa, bola dushmanlari unga yaqinlashmaydi deb hisoblangan: Anzur, Anzura (piyoz), Affon (badbo'y), Norachchiq, Piyozbek, Piyozgul, Sarimsoq, Tolhak (achchiq kakra), Turishboy (achchiq).

Oltoylar bolaning dushmanini aldash uchun bolaga ataylab xunuk ismlar berishadi. Shunday qilinganda yovuz kuchlar bolaga e'tibor bermaydi deb hisoblashadi: Tezek (tezak), Sirke (gnida – bit tuxumi), Iyt-Kulan (Itqulon) [9, C. 23].

Tatar antroponimisti professor G.Sattarov chaqaloqni turli balo-qazolardan saqlash motiviga oid ismlar deb Yomon, Yomonbika, Aldar, Achchiq, So'g'on (piyoz), Sarimsoq, Basar (tog' sarimsog'i), Sassi, Sassiqbosh, Otsiz, Urkash (hurkmoq), Urkish // Qo'rqi sh nomlarini keltiradi. Shuningdek tatar tilidagi Qoldi, Qoldiboy (og'ir kasaldan sog' qoldi), Tirilgan (sog' qolgan), Omonqoldi, Sog'qoldi, Najot ismlari motivida ham bolani kasallikdan himoya qilish maqsadi yotadi [10, B. 91-92, 180]. A.Idrisovning yozishicha, qirg'izlarda bolaga ko'z tegmasin, yomon niyatli kishilar nazaridan bola uzoq bo'lsin deya, xunuk ma'noli ismlar qo'yiladi: Bokmurun, Bokbasar, Itbay, Kuchukbay kabi [11, C. 50].

T.Januzaqov fikricha, qozoq tilidagi Kiyozbay (Kigizbay), Jundibay (Junlibay), Eynek, Sheynek, Shinibek, Orindik, Otinshi (O'tinchi) ismlari ham bolani ko'z tegish, o'limdan asrash uchun qo'yiladi [12, B. 41].

Turkman antroponimiyasida o'tmishda udum bo'lgan Tirrik, Kirli, CHer, Tezek, Deli, Kurre, Eshek, Tiken, Gizgan, Sarimsak, Italmaz, bola uzoq kasal bo'lib qolganda beriladigan Gechmish, Achil, Ore (O'rlasin), Doduk, Yanildi ismlari ham bolani bevaqt o'limdan asrashga qaratilgan [13, B. 15-16].

Mo'g'ullar bolani yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan asrash uchun Ənəbış («bu boshqa»), Xunbış (odammas), Nərguy (ismsiz, nomsiz), Xulgana (sichqon) deb nomlashadi. Tuvalliklar yovuz kuchlar bolani topa olmasin deb uning asosiy ismini yashirishadi va bolani yoqimsiz ismlar bilan (Bagay-ool – yomon bola, Miyyak-ool – iflos bola kabi) bilan atashadi [9, C. 306];

4) bola o'zi tug'ilgan oilaga aloqasi yo'q, u begona, boshqaning farzandi yoki «sotib olingan», «topib olingan» deb tasvirlangan. Bolaning dushmanlarini aldash, adashtirish, boladan uzoqlashtirish uchun shunday qilingan. Bu quyidagi nomlar motivida aks etgan: Begona, Bo'lak, Bo'lakboy, Bo'lakberdi, Bo'lakqul, Digar (o'zga), Yanglish, Musofir, Musofira, Muhojir, Muhojira, Tabdil, Tabdila (almashtirilgan), Tog'ay, Tog'aymurod, Tog'aygul, Tog'ayqiz (tog'asi uyida tug'ilgan), O'lja, O'lpon.

Bolani «topib olingan», «sotib olingan» deb tasvirlash odati hamda bolaga o'shanga mos ismlarni tanlashda bajarilgan rasm-rusmlar, udumlar ba'zi etnografik adabiyotlarda, shuningdek, E.Begmatovning ishlarida atroflicha yoritilgani uchun

ularga batafsil to'xtashni lozim topmadik.

Qayd qilingan odatga ko'ra, quyidagi ismlarda chaqaloq topib yoki sotib olingan deb tasvirlanadi: Sotiboldi, Sotimbika, Sotgul, Sotilg'on, Sotimxon, Sotqil, Sotqinoiy, Sotqinqul; Topildiq, Topdiq, Topilg'on, Topildi, Topiboldi;

5) ba'zi ismlarda «bola himoya ostiga olingan», «u yashiringan, berkitilgan, xavf-xatardan to'silgan» deb tasvirlanadi va unga o'sha ishonchlarni ifoda etuvchi ismlar beriladi: Berk, Berkli, Berkboy, Izolat (himoyali), Mahsura (to'silgan), Mahrusa (himoyali), Osim, Osima (qo'riqlangan), Tabiya (himoya qilingan), Chimmat, Chimmatoy (to'silgan), Qo'riqboy (himoyalangan), Himoyat (himoyalangan) va b.;

6) avvalgi bolalari turmasdan nobud bo'lavergan oilalarda navbatdagi chaqaloqni o'sha turmagan farzand o'rniga, evaziga berilgan bola deb ta'riflashgan va o'shanga mos ravishda ism tanlangan: Avaz, Avazoy, Avazbadal, Avazberdi, Avazxon, Badal, Badalbibi, Badaljamol, To'labergan, To'lagan, To'lamish, To'landi, To'lov, To'lan, O'tagan, O'tabergan, O'tal, O'talsin, O'talmish, O'taxol.

Bolasi turmasdan o'lavergan oilalarda navbatdagi chaqaloqni uydan ketib, boshqa joyda tug'ish odati bo'lgan. Ism mana shu holatga mos ravishda tanlangan. Masalan, qirg'izlarda Kachkin, Kachkinbay ismlari mana shu ma'noda. A.Idrisov yo'lda tug'ilgan bola Jolchubay, Jolon deb nomlanishini keltirgan [11, B. 51].

Sh.Japarov bolasi turmasdan o'lavergan oilalarda navbatdagi chaqaloqni o'limdan himoya qilish maqsadida Satkin (Sotgin), Alipsatar, Taabaldi (Topiboldi), Adashkan, Adashma Satibaldi, ismlari berish udum ekanini yozgan. U Tilapoldi, Tilegen, Suran, Surandi, Surabaldi, Asiran, Asirandi nomlarini ham ushbu motiv bilan bog'lab izohlagan [14, B. 47-48].

Adigeylar bolasi o'laversa, navbatdaxisini Byagoz (ajdaho), Guchip (Temir qalb), Tetschet (oyoqqa turish, sog'ayish), Uchujuk (oyoqqa turgan o'g'il), Alid (ular bu bolani xohlamaydi), Ramipe (kutilmagan) kabi himoya nomlaridan foydalanishadi. Arablar yovuz kuchlarni adashtirish, aldash, norasidadan uzoqlashtirishni ko'zda tutib chaqaloqni Kabixa (bemaza), Murra (achchiq), al-Xanash (ilon), Shabat (tarantul), Yamut (u o'ladi) kabi nomlaydi. Yovuz kuchlarni chalg'itishga intilish odati vyetnamlarda ham bor. Ular bu maqsadda chaqaloqni Et (baqa), Zyun (qurt), Txeo (rubets) deb atashadi, Mandingolar tilida janubiy Sudanlar Vatva (krokodil) demakdir [9, C. 14, 47, 99, 204];

7) ba'zi ismlarda chaqaloq Allohdan iltijolar qilib so'rab olingan bola, uni Alloh o'zi asraydi (Asra, Asron, Qo'rchiboy - ehtiyotlash) deb tasvirlanadi va bolaning sog'u salomat yashab ketishiga umid qilinadi. Niyoz, Niyozbeka, Niyozberdi, Niyozgul, Niyozoy, Xudoybergan, Egamberdi, Darig' (nadomat), Tokay va b.;

8) go'dak dushmanlarini cho'chitish, qo'rqitish uchun bola ular xavfiga javob bera oladigan imkoniyatlarga ega deb tasvirlangan hamda chaqaloq mag'rur, o'jar ma'noli ismlar bilan atalgan: Asov, Asovboy (tutqich bermovchi), Inod (o'jar, qaytmas, sarkash), Kibriyo, Kibriyoniso (mag'rur, ulug'lik), Masar (viqorli), Mag'rur, Mag'rurboy (viqorli, ulug'vor), Sarbaland (boshi falakda bo'lgan, mag'rur), Faxriniso (mag'rur ayol), Faxrixon, Faxriya, O'jarboy, O'jarberdi, O'jarqul (qaytmas, o'z so'zida turuvchi), Qaysar (o'jar, mahkam), Qaytmas (o'jar, bir so'zli) kabi;

9) chaqaloqning umri uzoq bo'lsin degan niyatda ba'zan bolaga uzoq umr tushunchasini anglatadigan Momogul, Zol, Zoliya (keksa), Cholboy kabi ismlar berilgan.

Ismlarning paydo bo'lishidagi o'ziga xos qonuniyatlar, ilmiy asoslarni bilmagan ba'zi shaxslar o'zbek tilidagi Bo'riboy, Bo'rioy, Qo'chqor, Itolmas, Itemas, Topiboldi, Sotiboldi, Boltaboy, Bolg'aboy, Ketmon, Cho'tmat ismlarini eshitib hayron bo'lishadi, hatto ularni «nomunosib, eski nom» deb qoralashadi. Holbuki, bu ismlarning asosida bolaning sog' o'sishini, bevaqt nobud bo'lmasligini istash, umid qilish motivlari yotadi.

Antroponimik nominatsiyaning etnografik asoslari – onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar ikkinchi (takroriy) nomlanish natijasida yuzuga keladi. Antroponimlar (ism, ota ismi, familiya, laqab va taxallus)ning yaratilishi muayyan

ehtiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi. Nomlash jarayoni ma'lum bosqichlardan iborat bo'ladi. Bu bosqichlar birin-ketin, ikkinchisi birinchisidan mantiqan va ehtiyojga ko'ra kelib chiqadi. Masalan, chaqaloqni nomlash (ism berish) quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich:

- nomlash ehtiyoji (bolaning tug'ilishi);
 - nomlanuvchi (nomlash lozim) obyekt (bola, chaqaloq);
 - nom tanlash (an'anaviy nomlar orasidan yoki yangi nom topish);
 - tanlangan ism motivi (asos, sababi);
 - nomning lisoniy materiali (vositasi) (so'z yoki so'z birikmasi);
 - nomlash jarayoni (ism qo'yish bilan bog'liq rasm-odatlarining ijrosi);
- nomlash hosilasi, ijrosi (ism, antroponim) antroponimik, nominatsion birlik; ismning nominativ va kommunikativ funksiyasi (nom berilgan shaxsni boshqa shaxslardan farqlash, ajratish).

Ikkinchi bosqich:

- shaxs ismiga familiyani tirkash;
- shaxsning ota ismini qayd qilish.

Tilda birorta ism yo'qki, u muayyan maqsad, istaksiz berilgan bo'lsin. Ism tanlangach, u o'zining asosiy vazifasi atoqli otlik vazifasini, ya'ni shaxsni o'zgalardan farqlash vazifasini o'tay boshlaydi. Ammo uning boshqa vazifalari ham bor: kishi ismlari jamiyat a'zolari ichida, shuningdek, avloddan avlodga ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, tarixiy-etnografik, etikaviy-estetik xabarlarini tashiydi.

Xalq bolani yovuz kuchlar ta'siridan asrashning muhim vositalaridan biri – bolaga munosib ism berish deb hisoblagan. Ushbu udum asosida kishilarning qadimdan so'zning magik kuchga egaligiga ishonish, shaxs ismi uning taqdiriga ta'sir qiladi, deyilgan ishonch, e'tiqod yotadi. Natijada ota-onalar bolaning sog'lig'i, yashab ketishi, kelajak baxti va omadi uning ismiga bog'liq deb bilishgan. Ushbu e'tiqod kishilarda ismlar «xosiyatli», «xosiyatsiz» bo'ladi degan tasavvurni tug'dirgan. «Chaqaloqqa qo'yiladigan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi, ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo'ladi, deyilgan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismlarni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, bolaga umri davomida esh, hamdam bo'lib yuradigan vositaga aylantira borgan. Shu tarzda «asrovchi ismlar» yoki «himoyalovchi nomlar» deb yuritiluvchi nomlar guruhi yuzaga kelgan» [15, B. 590].

So'z sehriga ishonish asta-sekin bolaning ismidan uning taqdiri va qismatiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida foydalanishga olib kelgan. Bolaga ism berish usuli, udumlar va ismdan bolaga xavf tug'diruvchi, uni balo-ofatlarga giriftor qiluvchi qandaydir yovuz kuchlar chaqaloqning dushmanlari bilan kurashish yo'lida foydalanish udumi yuzaga kelgan. Bunda ism berish bilan bog'liq turli udumlarni ado etish jarayonida o'sha asosda chaqaloqqa qo'yilgan ismdan foydalanishgan. Chaqaloqqa balo-ofatlar keltiruvchi yovuz kuchlar, chaqaloq dushmanlari haqida etnografik adabiyotlarda ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Dunyodagi barcha xalqlarda mana shunday kuchlar borligi haqida xilma-xil tasavvurlar mavjud.

E.Begmatov yovuz kuchlar haqidagi o'zbeklar tasavvurida qadimdan yashab kelayotgan ishonchlar haqida quyidagilarni yozadi: «O'tmish ajdodlarimiz, bolaning turli kasalliklarga chalinishini, nogiron bo'lib qolishi, nosog'lom tug'ilishi, chaqaloqlarning turmasdan bevaqt o'laverishi yoki kelajakda baxtsiz, omadsiz bo'lishi ma'lum yovuz kuchlarning, chaqaloq dushmanlarining ishi deb hisoblashgan. Go'dakning dushmani deb hisoblangan bunday yovuz kuchlar xayoliy, afsonaviy, ba'zi hollarda esa moddiy (real) tushunchalar, narsa va obyektlardan iborat bo'lib, O'zbekistonning turli hududlarida har xil tasavvur qilingan va nomlangan. Ularning eng asosiylari quyidagilar: shayton, dev, alvasti, ajdaho, pari, azroil, yalmog'iz kampir, jin, insu jins, ajina, ayaz, chilton, maston kampir, tulpor, arvohlar, o'tgan ajdodlar ruhi, shaytonlash, yel qoqishi, xosiyatsiz shabada tegishi, jin urishi, pari qoqishi, yog'in tagida yotib qolish, xosiyatsiz yerda bemahalda uxlab qolish, farzandsiz ayolning nazari (suqi), ko'z tegishi, kinna kirishi, ko'zikish, ichikish, xosiyatsiz kiyimlar, ota yoki onaning qandaydir noo'rin harakatlari (gunohi), chaqaloq tug'ilgan uy (joy)

ning, qolaversa, bolaga qo'yilgan ismning xosiyatsizligi yoki og'irlik qilishi va b.» [16, B. 588]. Shunday qilib, bola dunyoga kelgan paytda yuz bergan xilma-xil tabiiy hodisalar, mo'jizalar, chaqaloq badanida mavjud bo'lgan g'ayritabiiy holatlar yoki bolaning ko'rinishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ifoda etish ko'zda tutilgan ismlar tasviriy ismlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa. Umuman, barcha ismlarning berilishida so'z sehri, so'zning ilohiy ta'sir kuchiga egaligi (magiya) tushunchasi yotadi. Masalan, chaqaloqqa tug'ilish jarayoni va ba'zi belgi-xususiyatlariga mos nom berish, bolaga ism orqali turli istak hamda orzularning izhor qilinishi, bolaning birinchi ismini yashirin tutish, bola ismini unga og'irlik qilmoqda deb boshqa ism bilan almashtirish, bolaga nomunosib xarakterli kishilar ismini qo'ymaslik, ism uchun keksalar nomini tanlash, buyuk tarixiy shaxslar ismiga taqlid qilib, bolani Alloh, payg'ambar, avliyolar, mashhur din namoyandalari, o'tgan ajdodlar nomi bilan atash, ularning ruhi bolani qo'llaydi deb bilish va boshqalar buning isbotidir.

Yuqorida keltirilgan jihatlarni ism orqali tasvirlash maqsadi bolani turli kasalliklarga yo'liqishdan asrash, bevaqt o'limdan himoya qilishdir. Bizning kuzatishlarimiz bo'yicha tasviriy ismlar qadimiy antroponimlar namunasi bo'lib, dunyoda ko'pchilik xalqlar onomastikasida uchraydi. Xulosa qilib aytganda, antroponimlarni ijtimoiy - lisoniy nuqtai nazaridan tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, etika va estetika, xalq madaniyati hamda ma'naviyati tarixi, etnolingvistika, psixolingvistika sohalari uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013; O'sha muallif. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME, 1998. – B. 590; Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
2. Sattorov G'. O'zbek ismlarining turkiy qatlami. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1990. – 21 b.
3. Xudoyberganov R. O'zbek antroponimiyasi tizimining varantdorligi. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.
4. Kenjayeva S.E. O'zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi. Filol. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2019. – 26 b.
5. Алдарова Н. Бурятская антропонимическая лексика. Исконные личные имена. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1979.
6. Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 1975.
7. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
8. Шайхулов А. Тематические группы татарских и башкирских личных имен доисламского периода // Номинация в ономастике. – Свердловск, 1991. – С. 137-142. (URL: www.elar.urfu.ru/bitstream/10995/39178/1/vtop_19_16.pdf)
9. Система личных имен у народов мира. – М.: Наука, 1989.
10. Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ, 1990.
11. Идрисов А. Кыргыз тилиндегі ысымдар. – Фрунзе: Мектеп, 1971.
12. Жанузаков Т. Қазақ тіліндегі жалқы есімдер. – Алматы, 1965.
13. Атаниёзов С. Туркмен адам атларының дүшүндиришли сөзлүги. – Ашгабат: Туркменистан, 1992.
14. Жапаров Ш. Кыргыз адам аттары. – Фрунзе: Илим, 1989.
15. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME, 1998.
16. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi (ikkinchi nashri). – Toshkent: O'zME, 2007.
17. Allamuratova X. Linguistic features of contominational and apotropeic names in the system of anthroponyms of Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 141-145.
18. Allamuratova X. Apotropeya – etnolingvistikaning tadqiq obyektini sifatida // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2021 yil, № 1/2/1, – B.202-206.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZINI O'RGATISH USULLARI

*Atamurodova Gulnora Shermurodovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinfo 'quvchilariga unli tovushlar talaffuzini o'rgatish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimiga doir taklif va mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida matndagi so'zlar asosida to'g'ri talaffuzga o'rgatish masalasi ham tadqiq etilishiga oid gipotézalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tovush, talaffuz, mashq, boshlang'ich ta'lim, talaffuz shakli, namuna, to'g'ri talaffuz, ona tili, o'qish savodxonligi

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРОИЗНОШЕНИЮ ГЛАСНЫХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Атамуродова Гульнара Шермуродовна,
независимый исследователь Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои*

Аннотация. В статье изложены проблемы, связанные с обучением младших школьников произношению гласных звуков, а также предложения и соображения по их решению. Выдвигались также гипотезы о том, что на занятиях по родному языку и грамотности чтения также исследуется вопрос обучения правильному произношению на основе слов в тексте.

Ключевые слова: звук, произношение, упражнение, начальное образование, форма произношения, образец, правильное произношение, родной язык, грамотность чтения

METHODS OF TEACHING VOWEL PRONUNCIATION IN PRIMARY SCHOOL

*Atamuradova Gulnara Shermurodovna,
independent researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi*

Annotation. The article describes the problems associated with teaching younger schoolchildren the pronunciation of vowel sounds, as well as suggestions and considerations for their solution. Hypotheses have also been put forward that the issue of teaching correct pronunciation based on words in the text is also being investigated in classes on native language and reading literacy.

Keywords: sound, pronunciation, exercise, primary education, pronunciation form, sample, correct pronunciation, native language, reading literacy

Boshlang'ich ta'limda adabiy talaffuzga o'rgatish, keying sinf va bosqichlardagiga qaraganda samaraliroq bo'ladi. Ravon va ta'sirchan nutq uchun o'quvchida zarur so'z boyligi bo'lishi kerak. G'.Hamroyev ta'kidlagani kabi "Uzluksiz ravishda turli ibratli matnlarni yodlatish orqali so'z boyligini oshirib borish zarur."[1]

O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasi shakllanishi uchun ularda zarur so'z boyligi bo'lishi zarur, qolaversa, mashq jarayoni ham to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi kerak. O'. Usmonova bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklarga shevalarni sabab qilib ko'rsatadi[2]. Tadqiqotchi talaffuz masalasi o'zbek tilida o'rganilmasdan kelinayotganligini ta'kidlaydi va bu borada o'z ishida adabiy talaffuz me'yorlarini belgilash ishlariga birinchi bo'lib qo'l urgan olim F.K.Kamolov hamda professor

S.I.Ibrohimovlarning qimmatli fikrlariga tayanadi.

Bu borada H.Ne'matovning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta'limi uchun ahamiyatli: "Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz".[3]

Ona tili ta'limida, xususan, to'g'ri talaffuz o'qitishda adabiy til to'g'ri talaffuziga sheva to'g'ri talaffuzining ta'siri masalasi hal etilishi zarur bo'lgan asosiy muammo sifatida turibdi. Mahalliy tilda unlining 9 xil talaffuz varianti mavjud. Ona tili o'qituvchilarining aksariyati buni farqlamaydi. Aslida o'qituvchi qat'iy tarzda adabiy tilda dars o'tishi lozim. Darsliklarda bu jihat e'tiborga olinishi kerak.

"Ona tili" darsliklarida [i] unlisining talaffuzi va imlosiga doir muhim ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, to'g'ri talaffuz o'qitish jarayonida ayrim munozaralar paydo bo'lmoqda. O'zbek tilida [i] rus tilidagi kabi talaffuz qilinmaydi. Shu o'rinda tovushlarni ifoda etuvchi harflarning talaffuzi va nomlanishini o'zaro farqlash lozim. Jumladan, [o'] va [u] unlilarini o'qitishda ham muammolar mavjud.

Boshlang'ich sinf dastur va darsliklarida to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallari mazmuni tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1-sinfda "Tovushlar va harflar" mavzusi berilgan bo'lib, unga jami 28 soat vaqt ajratilgan. Chunonchi:

Tovushlar va harflar. Unli tovushlar va harflar; a va o, i va u, o va o' unlilarning talaffuzi va imlosi. Undosh tovushlar va ularni ifodalovchi harflar. Ayrim undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi (d-t, b-p, z-s undoshlarining talaffuzi va imlosi), so'z oxirida, talaffuzda tushib qoladigan d, t undoshlari. Harf birikmalari: sh, ch, ng. Alifbo: Harflarning nomi. Harflarning bosh va kichik shakllari. So'zlarni alifbo tartibida yozish. Alifboning ahamiyati.

Tutuq belgisi ('), uni so'z tarkibida to'g'ri shakllantirish. Tutuq belgisining so'zdagi vazifasi: o'zidan oldingi unlining cho'ziq aytilishiga, oldingi bo'g'inni keyingi bo'g'indan ajratib talaffuz qilinishiga xizmat qilishi, so'z ma'nolarini farqlashi.

Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. Bo'g'in ko'chirilishi, bir unlidan iborat bo'g'inli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi, tutuq belgili so'zlarni, ketma – ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni bir yo'ldan keyingi yo'lga bo'g'inlab ko'chirish. Harf birikmasi (sh, ch, ng) qatnashgan so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi kabilar berilgan.

2-sinfda birinchi sinfda o'tilganlar yuzasidan (6 soat)takrorlashdan so'ng to'g'ri talaffuzga 50 soat vaqt ajratilib, unda quyidagi mavzular qamrab olingan:

Unli va undosh tovushlar, ularning bir-biridan farqi. Tovushlarni harflar bilan belgilash. Unli tovushlar va harflar. O'zbek tilidagi olti unli tovushning olti unli harf bilan belgilash. [a] va [o], [u] va [i], [e], [o'] unli tovushlarining talaffuzi va undosh tovushlar portlovchi f va p, h va x hamda harf birikmasi bilan ifodalangan ng tovushining talaffuzi va imlosi. Tutuq belgisi (') va uning ishlatilishi, tutuq belgisining so'zdagi vazifasi kabilar.

"Bo'g'in" mavzusiga doir quyidagi ma'lumotlar berilgan. So'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismini keyingi satrga bo'g'inlab ko'chirish. So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishi. Bo'g'in tarkibi unli tovushdan, bir unli va bir undosh tovushdan, bir unli va bir nechta undosh tovushdan tuzilishi kabilar.

"Bo'g'in ko'chirish"ga alohida e'tibor berilgan. So'zning bir yo'ldan keyingi

yo'lga bo'g'inlab ko'chirilishi. Bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni oldingi yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmasligi. Bir bo'g'inli so'zlar, (ona, ahil, o'rik, elak kabi ikki bo'g'inli so'zlarning ko'chirish uchun bo'linmasligi. Tutuq belgisi qo'yib yoziladigan so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'linishi, tutuq belgisining oldingi bo'g'inda qoldirilishi (va'-da, mash'-al, ta'-lim). Harf birikmali so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi (si-ngil, ko'-ngil, tong-gi kabi) yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi (ik-ki, kat-ta, is-siq kabi) Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning imlosi, bunday so'zlarning yozilishini so'z oxiriga unli tovush qo'shib aytib tekshirish: (maktabim – maktab, kitobim-kitob, maqsadim – maqsad, umidim – umid kabi) Aytilishda tushib qoladigan undoshlar. (Farzand, daraxt, do'st kabi) ularning imlosiga doir o'quv materiallari o'rin olgan.

3-sinfda to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallariga kamroq soat ajratilganligini ko'rish mumkin. Masalan: Tovushlar va harflar. Unli va undosh tovushlar va harflar. Bo'g'in, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarga bo'lib ko'chirish qoidalari. So'zlarni bo'g'in, tovush va tovush – harf jihatdan tahlil qilish; Tutuq belgisi va uning ishlatilishi. sh, ch, ng harf birikmalari, ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlar va ularning imlosi. So'z oxirida kelgan, jarangli, jarangsiz jufti bor undoshlar imlosidan iborat.

4-sinfda ham to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallarini o'qitishga 10 soat vaqt ajratilgan bo'lib, ular quyidagi mazmunda:

Unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovushli so'zlarning talaffuzi va imlosi; jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi; bir xil qo'sh undoshli so'zlar va ularning imlosi; so'z oxirida qator kelgan undoshli so'zlar va ularning imlosi, x-h tovushli so'zlar va ularning imlosi, tutuq belgili so'zlarning talaffuzi va imlosi kabilar.

Bu sinfda ham "Bo'g'in" mavzusiga 2 soat ajratilgan. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish; unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi; so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirish; so'zlarni bo'g'in, tovush va harf jihatdan tahlil qilish, shuningdek, so'zlarni alifbo tartibida qayta tuzish, alifboning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar qamrab olingan.

Boshlang'ich sinf dastur va darsliklari tahlil qilinganda ularda ham maxsus talaffuz mashqlari yo'qligi ma'lum bo'ldi. Vaholanki, o'quvchining nutq apparati shakllanayotgan bu davrda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida takrorga asoslangan fonetik mashqlarni muntazam o'tkazib borish lozim.

Kichik irmoq kecha-kunduz tinmay mehnat qildi, xarsangtoshning bir yonini yemirib, yana yo'lga tushdi. U yo'l-yo'lakay dov-daraxtlar bilan do'stlashdi. Daraxtlar tomirlari bilan irmoq suvining yer ostiga singib ketishga yo'l qo'yishmadi. Yaproqlari esa quyosh nurini to'sib, suvni bug'lanishdan saqladi. Kichik irmoq ham yashil do'stlarini qondirib sug'ordi.

Topshiriq. Savollarga javob berish orqali o'quvchining matnni tushnganlik darajasini bilib olish mumkin:

1. Katta irmoq nima uchun tez oqa oldi?
2. Daraxtlar nima maqsadda katta irmoq yo'lga peshvoz chiqdi?
3. Katta irmoq nima uchun daraxtlardan qochdi?
4. Katta irmoq qanday halokatga uchradi?
5. Kichik irmoqqa daraxtlar qanday yordam ko'rsatdi?
6. Bunday hodisalar tabiatda rostdan ham sodir bo'lishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qanday sodir bo'ladi?

Quyidagi topshiriq o'quvchining tafakkurini o'stirishga, ma'qul variantni to'g'ri tanlashga o'rgatadi:

Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. Mevali daraxtlar uning yo'lga peshvoz chiqibdi. Mazkur gap mazmuniga o'xshash javoblarni aniqlang.

A. Mevali daraxtlar unga norozilik bildiribdi.

- B. Mevali daraxtlar uni qarshi olibdi.
- D. Mevali daraxtlar uni yoqtirishmabdi.
- E. Mevali daraxtlar uni kutib olibdi .

To'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallarning asosini tashkil etuvchi mashq va topshiriqlar didaktik, metodik jihatdan tahlilga tortilib, ularni takomillashtirish zarurati mavjudligi ko'rsatildi, kerakli o'rinlarda tavsiyalar berildi. Ona tili mashg'ulotlarida hozirgacha foydalanilgan va foydalanilayotgan o'quv materiallarining berilishi, ularning tadrijiy taraqqiyoti tarixiy aspektda tekshirib ko'rildi.

I. Azimova, K. Mavlonova va Sh. Tursunovlar tomonidan tuzilgan 3-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligiga o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ham tayyorlagan. Unda darslik tarkibidagi o'quv topshiriqlari bilan qanday ishlash kerakligi ko'rsatib berilgan:

Siz uchun eng go'zal joy qayer? U joy haqida 4–5 ta gap yozing. Yozgan gaplaringizda u joy qayerda ekani, u joyga qachon borganingiz, u joyda nimalar borligi haqida ma'lumot bering.

3-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida matn bilan ishlash uchun quyidagi o'uv topshiriqlari berilgan:

Savollarga javob bering.

1. Podsho nimaga qiziqar ekan?
2. Uning bog'i qanday ekan?
3. Malika nima yerkan?
4. Jallod qushni nega so'ymoqchi edi?
5. Jallod nimadan hayron qoldi?
6. Qush shohga nima dedi?
7. Nima deb o'ylaysiz, qushning qanday iltimosi bo'lishi mumkin?

Yangi 1-2-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida ham o'zbek tili tovushlarini talaffuz qilishga o'rgatuvchi mashqlar mavjud emas. Darslik asosan matn ustida ishlashga, savollarga javob berishga mo'ljallangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 1-4-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari asosida mashg'ulotlar olib borilganda tovushlar talaffuzi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ham tizimli ishlash lozim. Zero, o'quvchi o'z ona tili tovushlarini to'g'ri ayta olmasa, uning nutqida ta'sirchanlik bo'lmaydi, qolaversa, tilning morfemik tarkibiga ham bu noto'g'ri talaffuz salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchi matn ustida ishlar ekan unga talaffuzi qiyin so'zlar va tovushlar bilan ishlash topshiriqlari ham berib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinflar uchun darslik. Respublika ta'lim markazi. Tuzuvchilar Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova – Toshkent. 2022. 43-b.

2. Azimova I., Mavlonova K., Sh. Tursunov Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf darsligiga O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2022.

3. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinflar uchun darslik. Respublika ta'lim markazi. Tuzuvchilar Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova – Toshkent. 2022. 144 b.

4. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b. ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 1-sinf uchun mashq daftari / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.

5. F. Xamroev Ona tili ukitishning samarali usullari. Metodik kullanma. – Toshkent. Ba'ez. 2018. 197 b.

6. Usmonova U. Talaqfuq madaniyati. – T.: Fan, 1976. – 3-6.

7. Gulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni. Ukituvchilar uchun metodik kullanma. – T.: Ukituvchi. 1996. 9-6.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ

Ашуров Зафаржон,

*Самаркандский государственный институт иностранных языков
(СамГИИЯ), старший преподаватель кафедры «Гуманитарных наук и
информационных технологий»*

Аннотация. В современном мире информационные технологии проникают во все сферы нашей жизни, включая образование. Одной из областей, где технологии имеют значительный потенциал, является обучение языкам. Интерактивные методы с использованием информационных технологий предоставляют новые возможности для более эффективного и увлекательного обучения языкам.

В данной статье рассматриваются преимущества таких методов и их влияние на процесс обучения.

Ключевые слова: интерактивное, информационная технология, обучения, язык, эффективный, образования.

TILLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHING INTERFAOL USULLARI

Ashurov Zafarjon,

*Samarqand davlat chet tillar instituti (SamDChTI), «Gumanitar fanlar va
axborot texnologiyalari» kafedrasida katta o'qituvchisi,*

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga, jumladan, ta'limga ham kirib bormoqda. Texnologiya muhim salohiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri - tillar o'rgatish yo'nalishi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda interfaol usullar tilni yanada samarali va qiziqarli o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu maqolada bunday usullarning afzalliklari va ularning o'quv jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlari: interfaol, axborot texnologiyalari, o'rganish, til, samarali, ta'lim.

INTERACTIVE METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING LANGUAGES

Ashurov Zafarjon,

*Samarkand State Institute of Foreign Languages (SamSIFL), senior lecturer of
the Department «Humanitarian Sciences and Information Technologies»*

Annotation. Nowadays, information technologies penetrate into all spheres of our life, including education. Technology has significant potential in language teaching. Interactive methods using information technology provide new opportunities for effective language learning as well as for fun.

This article considers the advantages of such methods and their impact on the learning process.

Key words: interactive, information technology, learning, language, effective, education.

В настоящее время Узбекистан делает огромные шаги в области развития информационных коммуникационных технологий и интеграции научных исследований с ИТ-индустрией. В Постановление Республики Узбекистан № ПП-4851 от 6 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с ИТ-индустрией» одними из основных

направлений является развития системы образования с использованием информационно-коммуникационных технологий и интеграция научных исследований с ИТ-индустрией [1].

Учителя должны иметь гибкий подход к обучению и умение изменять свои методы и материалы, чтобы подходить к уникальным потребностям каждого учащегося. Некоторые ученики могут обучаться лучше, если им предоставить более визуальные или аудио-ориентированные материалы, тогда как другие могут лучше усваивать информацию через практические упражнения.

Онлайн-курсы и мобильные приложения предоставляют доступ к обучению языкам в любое удобное время и место. Интерактивные задания, встроенные в эти платформы, позволяют студентам непосредственно применять свои знания и навыки, взаимодействуя с языковыми материалами и получая мгновенную обратную связь. Такой подход способствует активному и самостоятельному обучению, что повышает мотивацию и усваивание языковых навыков.

С помощью онлайн-курсов и мобильных приложений студенты могут учиться в собственном темпе, повторять материалы по необходимости и пропускать то, что они уже освоили. Это позволяет каждому студенту создать индивидуализированную учебную программу, соответствующую его потребностям и уровню знаний.

В целом, онлайн-курсы и мобильные приложения предоставляют гибкие и удобные возможности для обучения языкам в любое время и место. Они дополняют традиционные методы обучения и могут быть ценным инструментом для самообучения и дополнительной практики.

Виртуальные классы и видеоконференции позволяет преодолеть географические и временные ограничения, связанные с обучением языкам. Студенты могут взаимодействовать с преподавателем и другими студентами в реальном времени, обсуждая языковые темы, выполняя упражнения и проводя групповые проекты. Это способствует развитию навыков общения на языке, а также повышает культурную осведомленность и межкультурное понимание.

Игровые технологии и виртуальная реальность (VR) могут превратить процесс обучения языкам в увлекательную игру. Игровые приложения и симуляторы создают иммерсивную среду, где студенты могут применять языковые навыки

Иммерсивное обучение – это с помощью игровых технологий и VR студенты могут погрузиться в виртуальную среду, которая имитирует реальные языковые ситуации. Они могут взаимодействовать с виртуальными персонажами, выполнять задания, общаться на языке и применять свои знания в практических ситуациях. Такой подход помогает развивать навыки общения, аудирования и понимания речи, а также повышает уверенность студентов в использовании языка.

Использование игровых технологий и виртуальной реальности в обучении языкам предлагает более привлекательный и практический подход, который может мотивировать студентов и улучшить их языковые навыки. Однако важно учесть, что эти технологии должны быть внедрены в рамках хорошо спроектированного учебного плана и под руководством компетентных преподавателей, чтобы обеспечить максимальную эффективность и результативность обучения.

Социальные сети и онлайн-сообщества предоставляют студентам возможность практиковать язык, общаясь с носителями языка и другими учащимися. Это способствует развитию навыков общения и позволяет узнать о культурных особенностях стран, где используется изучаемый язык. Форумы, блоги и чаты предлагают студентам платформу для обмена знаниями и опытом, а также для получения обратной связи от сообщества.

Адаптивные технологии и системы машинного обучения позволяют

индивидуализировать обучение языкам в соответствии с потребностями и уровнем каждого студента. Путем анализа данных и оценки успеха студентов такие системы могут предлагать персонализированные упражнения, рекомендации и подсказки, чтобы усилить процесс обучения и устранить пробелы в знаниях. Также адаптивные технологии и системы машинного обучения представляют собой инновационные подходы к обучению, которые адаптируются к потребностям и индивидуальным особенностям каждого учащегося. Они используют методы машинного обучения и анализа данных для персонализации процесса обучения. Основная идея адаптивных технологий и систем машинного обучения заключается в том, чтобы предоставить студентам индивидуальные образовательные ресурсы и опыт, которые наилучшим образом соответствуют их уровню знаний, потребностям и учебным целям. Вместо применения универсальных методов обучения, адаптивные системы анализируют данные об учебном прогрессе и предоставляют персонализированные рекомендации, задания и материалы для каждого студента.

Таким образом, интерактивные методы, основанные на использовании информационных технологий, существенно обогащают процесс обучения языкам. Онлайн-курсы, мобильные приложения, виртуальные классы, игровые технологии, социальные сети и адаптивные технологии предоставляют студентам широкий спектр инструментов и ресурсов для усвоения языковых навыков. Такие методы не только делают процесс обучения более увлекательным и доступным, но и способствуют повышению мотивации, самостоятельности и эффективности обучения языкам. В современном образовательном контексте использование информационных технологий в обучении языкам является важной и перспективной практикой, которая помогает студентам достигать успеха в освоении иностранных языков.

Литература:

1. Постановление Республики Узбекистан № ПП-4851 от 6 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с ИТ-индустрией». <https://lex.uz/docs/5032131>

2. Полат Е.С. «Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пос. для студентов педагогических вузов». - М.: Издат. центр «Академия», 2000. - С. 272

3. Чаброва А.И. Использование ИКТ на уроках английского языка как средство интенсификации образовательного процесса // Инновационные педагогические технологии: материалы III Междунар. науч. конф. – Казань: Бук, 2015 – С. 183-187. –

4. Куревлева И. П. «Современный урок иностранного языка: интерактивные методы и компьютерные технологии» МОУ «Степанщинская СОШ» 2016

Интернет ресурсы:

1. <https://moluch.ru/conf/ped/archive/183/8830/> (дата обращения: 08.10.2019).

2. <https://cyberleninka.ru/article/n/interaktivnye-tehnologii-v-obuchenii-inostrannym-yazykam>

3. <https://multiurok.ru/files/ispol-zovaniie-intieraktivnykh-form-i-mietodov-na-.html>

РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Ашурова Ситора Эркиновна

*Преподаватель английского языка Кафедры иностранных языков
Каршинский инженерно-экономический институт*

Аннотация: В этой статье рассмотрены вопросы использования компьютерных технологий для успешного практического овладения иностранным языком, раскрыта роль программного обеспечения в обучении и всё многообразие форм его применения в изучении, показано место компьютера и информационных ресурсов в современной коммуникативной технологии преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: информационная технология, иностранные языки, компьютерные программы, интеллектуализации обучения, лингвистические информационные ресурсы.

THE ROLE OF THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Ashurova Sitora Erkinovna

*English teacher at the Department of Foreign Languages of
Karshi Engineering and Economic Institute*

Annotation: This article discusses the issues of using computer technologies for foreign language, reveals the role of software in teaching and all the variety of forms of its application in learning, shows the place of a computer and information resources in modern communicative technology for teaching foreign languages.

Key words: information technology, foreign languages, computer programs, intellectualization of learning, linguistic information resources.

CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI

Ashurova Sitora Erkinovna

*Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini muvaffaqiyatli amaliy o'zlashtirish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish masalalari, o'qitishda dasturiy ta'minotning o'rni va uni o'rganishda qo'llashning barcha shakllari, zamonaviy kommunikativ texnologiyada kompyuter va axborot resurslarining o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kompyuter dasturlari, o'quv intellektualizatsiyasi, lingvistik axborot resurslari.

Введение. В настоящее время внедрение персонального компьютера, технологии мультимедиа и глобальной информационной компьютерной сети Интернет влияет на систему образования, вызывая значительные изменения в содержании и методах обучения иностранным языкам. Перед современным учителем встает проблема поиска нового педагогического инструмента. В современных условиях, учитывая большую и серьезную заинтересованность учащихся информационными технологиями, можно использовать эту возможность в качестве мощного инструмента развития мотивации на уроках английского языка. Компьютер позволяет качественно изменить контроль за деятельностью учащихся, обеспечивая при этом гибкость управления

учебным процессом. Роль преподавателя здесь не менее важна. Он подбирает компьютерные программы к уроку, дидактический материал и индивидуальные задания, помогает учащимся в процессе работы, оценивает их знание и развитие. Специфика предмета иностранного языка обуславливает активное и уместное применение компьютера на уроках. Ведущим компонентом содержания обучения иностранного языка является обучение различным видам речевой деятельности: говорению, аудированию, чтению, письму. Обучающая компьютерная программа является тренажером, который организует самостоятельную работу обучаемого, управляет ею и создает условия, при которых учащиеся самостоятельно формируют свои знания, что и особо ценно, ибо знания, полученные в готовом виде, очень часто мимо их сознания и не остаются в памяти. Использование компьютеров на уроках английского языка – потребность времени [1].

Литературный обзор. Однако сегодня наблюдается смешение понятий «технология» и «методика преподавания» и, таким образом, подмена инновационных технологий новыми приемами и методами обучения. По сравнению с методикой преподавания технологию обучения можно охарактеризовать следующими специфическими особенностями:

- 1) нацеленностью на охват гораздо большего количества процессов;
- 2) целенаправленным обучением, воспитанием профессионально-значимых качеств личности;
- 3) научностью, т.е. методологическим и теоретическим обоснованием процессов, с которыми технология имеет дело;
- 4) способностью в результате этого вызвать новые процессы;
- 5) более целенаправленным, значимым и эффективным управлением процессом обучения.

Становление инновационных технологий обучения иностранным языкам вызвано необходимостью преодоления кризиса в образовании, что способствовало бы подготовке специалистов новой формации. Внедрение новых технологий крайне важно еще и в связи с тем, что наступивший XXI век предъявляет иные требования к выпускникам вузов, чем технократическое общество XX века. Технология обучения прошлого столетия, основанная на логике науки, на принципе «от знаний к умениям» должна превратиться в технологию, базирующуюся на закономерностях познавательной деятельности студентов, на достижении выпускниками вершин профессиональной, творческой и духовно-нравственной деятельности.

Под информационной технологией в одних случаях понимают способ и средства сбора, обработки и передачи информации для получения новых сведений об изучаемом объекте, в других – совокупность знаний о способах и средствах работы с информационными ресурсами.

В настоящее время использование информационных технологий, а также интернета в университетах и общеобразовательных школах пока ограничено и довольно слабо связано с учебным процессом. Применение компьютерных технологий в обучении иностранному языку (ИЯ) значительно облегчает работу как ученика, так и учителя. Но этот метод обучения пока еще не оценен по достоинству.

Компьютер можно использовать на всех этапах обучения: при объяснении нового материала, при закреплении, повторении, а также контроле. Обучение иностранному языку с использованием компьютера и различных компьютерных программ отличается рядом преимуществ. Е.С. Полат выделяет следующие плюсы:

- интерес обучающихся к компьютерным технологиям часто приводит к высокой мотивации процесса обучения;
- во время обучения с использованием компьютерных программ у учащихся

повышается общая, компьютерная и языковая культура;

- процесс обучения индивидуализирован;
- развиваются познавательные способности учащихся;
- оценка носит объективный характер;
- обеспечивается эффективное выполнение упражнений.

Также следует отметить преимущества использования компьютерных программ и, непосредственно, компьютера. В список этих плюсов входит:

- Свободный режим обучения (самостоятельный выбор времени, пауз и темпа работы).

- Объективная оценка ответов обучающихся; отсутствие предвзятости к кому-либо из учащихся.

Также существуют характерные недостатки при обучении с использованием информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Это могут быть:

- сложности в передаче больших объемов информации;
- необходимость использования труда высококвалифицированных специалистов для поддержки и актуализации программной системы и данных.

В обучении иностранному языку применяются различные лингвистические информационные ресурсы. К особо значимым именно для обучения профессионально-ориентированному иностранному языку в техническом вузе следует отнести прежде всего электронные справочно-информационные системы, авторские электронные средства образовательного назначения, разработанные преподавателями при помощи инструментальных средств, коммерческие мультимедийные электронные издания образовательного назначения, образовательные web-сайты, распределённые профессионально-ориентированные иноязычные лингвистические информационные ресурсы, представленные текстовыми массивами, электронный языковой портфолио.

В рамках интеллектуализации обучения студентов иностранному языку привлекают внимание средства обучения, которые имеют встроенную модель обучающегося для максимальной адаптации к индивиду, объём знаний в определённой области для ведения естественного диалога и возможность выбора стратегии достижения учебной цели. Интеллектуализация опирается на четыре фазы деятельности: стимул → подсказка / помощь → ответ → обратная связь.

Причём для подсказки и помощи электронные справочно-информационные средства используются как автономные системы или как встроенные в систему модули. Однако лингводидактический анализ преимуществ данных интеллектуальных средств в обучении профессионально-ориентированному иностранному языку затруднён вследствие их высокой стоимости и отсутствия профессионалов должного уровня по их использованию.

Обсуждение и результат. Ученые считают, что любой метод обучения обогащается за счет интеграции в него информационных технологий. Но если в процессе обучения информатике средства ИКТ выступают и как объект изучения, и как средство обучения, то в процессе преподавания иностранного языка они являются только средством обучения. Под средствами ИКТ следует понимать программные, программно-аппаратные и технические средства и устройства, функционирующие на базе микропроцессорной, вычислительной техники, а также современных средств и систем транслирования информации, информационного обмена, обеспечивающие операции по сбору, продуцированию, накоплению, хранению, обработке, передаче информации и возможность доступа к информационным ресурсам локальных и глобальных компьютерных сетей [3]. К наиболее часто используемым в учебном процессе средствам ИКТ относятся:

- электронные учебники и пособия, демонстрируемые с помощью

компьютера и мультимедийного проектора,

- электронные энциклопедии и справочники,
- тренажеры и программы тестирования,
- образовательные ресурсы Интернета,
- DVD и CD диски с картинками и иллюстрациями,
- видео- и аудиотехника,
- научно-исследовательские работы и проекты [4].

Основной целью обучения иностранным языкам (ИЯ) является формирование и развитие коммуникативной культуры обучающихся, обучение практическому овладению иностранным языком. Овладеть же коммуникативной компетенцией на английском языке, не находясь в стране изучаемого языка, дело весьма трудное. Реализовать данную цель лучше всего помогает использование информационных технологий в обучении ИЯ. Основными целями применения ИКТ на уроках английского языка являются:

1. повышение мотивации к изучению языка;
2. развитие речевой компетенции;
3. увеличение объема лингвистических знаний;
4. расширение знаний о стране изучаемого языка;
5. развитие способности к самостоятельному изучению ИЯ.

Использование новых информационных технологий в преподавании английского языка и помогает нам подобрать методические средства и приемы, которые позволяют разнообразить формы работы и сделать урок интересным и запоминающимся для обучающихся. Они также позволяют коренным образом изменить организацию процесса обучения детей, сформировать у них системное мышление. В своей работе я часто использую разнообразные электронные ресурсы: мультимедийные программы, материалы, найденные в сети Интернет, интерактивные тесты. Они делают уроки разнообразными и интересными, учат детей пользоваться различными новыми технологиями. В Интернете можно найти необходимую для проектов информацию: о музеях, достопримечательностях, информацию о текущих событиях в разных странах, об экологической ситуации в различных уголках мира, о национальных праздниках и т.д. И эти материалы выступают в роли «реального «культурного носителя» в процессе межкультурной коммуникации. При этом моя роль, как учителя английского языка, состоит в том, чтобы адаптировать их к данному учебному курсу, изучаемой теме и языковому уровню учащихся.

Вывод. Задачи модернизации образования не могут быть решены без оптимального внедрения информационных технологий во все его сферы. Использование информационных технологий дает толчок развитию новых форм и содержания традиционных видов деятельности учащихся, что ведет к их осуществлению на более высоком уровне. Работа с компьютерами должна быть организована так, чтобы с первых же уроков начальной степени обучения она стала мощным психолого-педагогическим средством формирования потребностно-мотивационного плана деятельности школьников, средством поддержания и дальнейшего развития их интереса к изучаемому предмету. Правильно-организованная работа учащихся с компьютером может способствовать в частности к росту их познавательного и коммуникативного интереса, что в свою очередь будет содействовать активизации и расширению возможностей самостоятельной работы обучаемых по овладению английским языком, как на уроке, так и во внеурочное время.

Литература

1. Пахомова Н.Ю. Компьютер в работе педагога. – М., 2005.
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В.



Моисеева, А.К. Петров. – Москва: Издательский центр «Академия», 1999. – 224 с.

3. Словарь педагогического обихода / под ред. Л. М. Лузиной. Псков, 2003.

4. Сайков Б. П. Организация информационного пространства образовательного учреждения: практическое руководство. М., 2005.

O'QUVCHILARDA NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Jakbarova Mahliyo Ibrohimjonovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-11 sinf o'quvchilarida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari, usul va vositalari, shuningdek, ulardan qanday foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar haqida fikr yuritilgan. Nutq so'zlashning dastlabki talablaridan biri sifatida adabiy til me'yorlarini egallash, so'z boyligini oshirish va o'z nutqida o'zgalar fikridan unumli foydalanish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: so'zlash, nutq so'zlash, gapirish, yozish, tinglab tushunish, so'z boyligi, o'zgalar nutqi, nutq texnikasi, talaffuz ko'nikmasi

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ

Джакбарова Махлиё Ибрагимджоновна,
независимый научный сотрудник Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Keywords: visual tools, illustration materials, audiova video materials, theoretical knowledge, practical skills, folklore, samples of folk oral creativity, new pedagogical technologies, reading literacy, independent thinking

Folklor janrlari orasida dostonlar o‘quvchi ma‘naviy qiyofasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Xalq dostonlari milliy mentalitetni o‘zida mujassam etgan muqaddas obida hisoblangani sababli uni o‘qitishda ziyakroq yondashish talab etiladi. Dostonlarda ko‘rinib turgan voqea yoki mazmundan ko‘ra ko‘rinmay turgan, matn ostiga yashiringan ma‘nolar ko‘pdir. Shuning uchun o‘qituvchi o‘ta ehtiyotkorlik bilan o‘quvchini asar mazmuniga, mohiyatga olib kira olishi kerak, bunda mavzuga doir nazariy bilimlar ham kerak bo‘ladi.

Ayrim litseylarda xalq og‘zaki ijodiga bori yo‘g‘i 4 soat ajratilgan bo‘lib, unda ham “Alpomish” yoki “Rustamxon” dostonlari o‘qitilishi nazarda tutilgan. Aniq va tabiiy yo‘nalishlarda 4 soat “Rustamxon” dostoni berilgan, Ijtimoiy-gumanitar, xorijiy yo‘nalishlarda 5 soat “Alpomish” dostonini o‘qitish mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirli akademika litseylarda Adabiyot fani o‘quv dasturi. Toshkent-2018 Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018-yil 18-avgustdagi № 4-son majlis bayoni bilan ma‘qullangan va Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 25-avgustdagi 744-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan. Mazkur dasturda 1-bosqich uchun xalq og‘zaki ijodidan “Rustamxon” dostoni berilgan va 4 soat vaqt ajratilgan. Mustaqil o‘qish uchun 1 soat berilgan.

2-bosqich uchun “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni berilgan va 4 soat vaqt ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi akademika litseylarda Adabiyot fani (chuqurlashtirilgan) o‘quv dasturi. (2018) Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi

kengashning 2018-yil 18-avgustdagi № 4-son majlis bayoni bilan ma'qullangan va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 25-avgustdagi 744-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Mazkur dasturda 1-bosqich uchun jami 136 soat ajratilgan. Shundan xalq og'zaki ijodiga 16 soat ajratilgan.

Jumladan, Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari (2 s) Xalq og'zaki ijodining tur va janrlari (2 s) Lirik tur (2 s), Epik tur (2s), Dramatik tur (2s) O'zbek xalq dostonlari (2s) Nazariy ma'lumot doston va uning turlari "Rustamxon" dostoni (4s) 2-bosqich uchun jami 136 soat ajratilgan. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni berilgan va 4 soat vaqt ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Adabiyot fanidan (chuqurlashtirilgan) akademik litseylar uchun namunaviy o'quv dasturi.(2021) Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 26-fevraldagi 1-son majlis bayoni bilan ma'qullangan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 10-martdagi 110-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Dasturda 1-bosqich uchun jami 108 soat ajratilgan. "Alpomish" dostoni uchun hammasi 5 soat ajratilgan. Shundan 2soat nazariy, 2 soat amaliy va 1 soat mustaqil o'qish uchun ajratilgan.

Milliy adabiyotning asosini tashkil etgan xalq og'zaki ijodi materiallari o'quvchilarga qancha keng o'rgatilsa, shuncha foydali deb o'ylaymiz. To'g'ri, soatlar qisqarishi, o'qitish metodikasining takomillashini davr taqozosi, ammo akademik litseylarda dostonlar bilan birga yashash qoidalariga teng bo'lgan xalq maqollari, termalar, qo'shiq va ertaklarni o'qitish lozim.

Hozirgi paytda xalq maqollari, xalq qo'shiqlari, ertaklari, doston va boshqa janrlarni bilish ma'naviy yuksalishni anglatadi. Bugungi kunda O'zbekistonda zavq bilan o'qilayotgan, maroq bilan aytilayotgan doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona va rivoyat, askiya va latifa, loflar o'zbek xalq og'zaki ijodining janrlari hisoblanadi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz butun o'zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir.

Adabiyot o'qitish metodikasining asosiy vazifasi o'quvchilarning badiiy-estetik didini o'stirish, mashg'ulotlarda o'qish savodxonligini rivojlantirishdir. Bugungi kunga kelib adabiyot o'qitishga doir turli yangicha yondashuvlar o'quv jarayoniga tatbiq etilmoqda, xususan, xalq og'zaki ijodiga oid janrlarni va unga aloqador nazariy ma'lumotlarni o'qitish bo'yicha interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanmoqda.

Prof. Q. Yo'ldoshevning yozishicha, "turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi". Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, "asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi"

Akademik litseylarda xalq og'zaki ijodini o'qitishda nazariy ma'lumotlardan foydalaniladi. Xususan, folklor janrlari

Epos – yunoncha «epos» – rivoya, hikoya, qo'shiq so'zidan iborat bo'lib, so'z san'atida biron hikoya, voqeani bayon qilish yoki hayotiy lavhani ifodalash ma'nosini anglatadi. Ta'rifdagi qo'shiq so'ziga ajablanish kerak emas, chunki qadimgi yunonlar nazarda tutgan qo'shiqlar bizning tasavvurimizdagilardan farqli o'laroq voqeahodisalar bayo - nini she'riy tarzda aks ettirib ohang bilan ijro etish xususiyatiga ega bo'lgan. Shunday qilib, «epos» deganda, aniq bir voqeani badiiy tarzda hikoyalash tushunilar ekan. Umuman, hamma xalqlar og'zaki ijodida epos yoki epik janrdagi asarlar mavjud bo'lib, ular ertaklardan, afsonalardan, ruslarda bilinalardan, turkiy xalqlarning ko'pchiligida dostonlardan iboratdir. Ammo shu bilan birga o'zbek xalq og'zaki ijodidagi mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, tarixiy qo'shiqlar, terma, doston kabi janrlarni epik asarlar deb atash mumkindir. Shu bilan birga maqollar,

topishmoqlar kabi atamalar bilan yuritiladigan asarlarni ham, professor B. Sarimsoqov “maxsus tur” deb ataydi.

Haqiqatan ham, ularda ma’lum darajada epiklik ya’ni qaysidir hayotiy lavha yuzasidan ma’lumot berish belgisi mavjuddir. Ayni paytda, xalq og’zaki ijodida shunday asarlar ham borki, ularda xalqimiz tarixiga oid voqealar mardligi, jasurligi, qahramonligi orqali dong taratgan botirlarimiz faoliyati bilan uyg’un qo’yilgan holda aks etadi. Bunday asarlarda ko’tarinki ruh ham alohida sezilib turadi. Alpomish va Go’ro’g’li turkumiga oid ayrim dostonlar ana shunday asarlar qatoridan o’rin oladi. Taniqli folklorshunos olimlardan V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov o’zbek xalq og’zaki ijodidagi dostonlarni “Qahramonlik eposi” deb ataganlar. 1947-yilda Moskvada e’lon qilingan katta hajmdagi kitobni “O’zbek xalq qahramonlik eposi” deb ataganlar va unda “Alpomish”, Go’ro’g’li turkumiga oid dostonlar, “Kuntug’mish” kabi ishqiyy-romanik dostonlar tahlil etilgan.

Lirika — inson hayotida, tabiatda ro’y bergan biron hodisa, lavhadan ta’sirlanish natijasida unga nisbatan paydo bo’lgan munosabatni ichki kechinmalar, his-tuyg’u vositasida ifodalashdir. Lirika o’zida ichki kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan epik asarlardan farqlanadi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo’lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarni ifodalashdan iboratdir. Shuning uchun lirik asarda voqea bayonini nisbiy tushunish lozim. Masalan, «Alpomish» dostonidagi bir lavhani olaylik: «Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o’qib o’tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi». Bu parchada baxshi tinglovchiga Hakimbek hayotida ro’y bergan bir voqea haqida xabar bermoqchi. Aslini olganda, dostonning butun mazmuni ana shunday xabarlar yig’indisidan tashkil topadi. Endi «Yor-yor»dan olingan quyidagi parchaga e’tibor qilaylik:

Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi yor-yor,
Yangi tushgan kelinni
G’am bosibdi yor-yor.

Yuqoridagi to’rtlikda yor-yor aytayotgan ijrochining maqsadi tinglovchilarga mutlaqo tokchadagi qaychini zang bosgani haqida ma’lumot yoki xabar berish emas. Bu qo’shiqda yosh qizning ko’ngil qo’ymay turmushga chiqayotganiga nisbatan achinish kayfiyatini ifodalash yetakchidir.

Akademik litseylarda dostonlarni o’qitishda albatta, uning boshlang’ich jumlasidan boshlash shart emas. Odatda dostonlar hajman bir darsga sig’maydi uni o’rganish uchun litseyda 5 soat ajratilgan. Dasturda 1-bosqich uchun jami 108 soat ajratilgan. “Alpomish” dostoni uchun hammasi 5 soat ajratilgan. Shundan 2soat nazariy, 2 soat amaliy va 1 soat mustaqil o’qish uchun belgilangan

“Alpomish” dostoni “Burungi o’tgan zamonda, o’n olti urug’ Qo’ng’irot elida Dobonbiy degan o’tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o’g’il farzand paydo bo’ldi. Alpinbiydan tag’in ikki o’g’il paydo bo’ldi: kattakonining otini Boybo’ri qo’ydi. Kichkinasining otini Boysari qo’ydi”, deb boshlanadi. O’z-o’zidan ma’lumki, Fozil Yo’ldosh o’g’li dostonni tinglovchiga aytilajak asardagi voqealar qanday boshlangani yuzasidan ma’lumot bermoqchi. Matnda baxshi Qo’ng’irot, Dobonbiy, Alpinbiylar bilan tinglovchini tanishtirmoqda. Aslini olganda, dostonning to’liq mazmuni ana shunday xabarlar tizimidan iborat. Endi lirik qo’shiqdan bir namuna keltiraylik:

Tolga chiqib tol bo’ldim,
Tusholmay behol bo’ldim.
O’z tengimning ichida
Muncha betole bo’ldim.

Qo’shiq aytayotgan qizmi, yigitmi tolga chiqqani, tushgani haqida xabar berayotgandek tuyiladi. Vaholanki, uning maqsadi bizga qilgan harakatini aytish emas. Balki o’z tengini topa olmay qalban iztirob chekayotganini izhor qilishdir. Tol

esa shunchaki bir vosita, xolos. Odatda, qo'shiqlarning dastlabki misralari, ko'pincha, tinglovchini chalg'itish yoki nimanidir ifodalash maqsadida to'qiladi. Asosiy maqsad oxirgi misrada, ba'zan 3-4-misralarda ifodalanadi. Yana bir qo'shiq matniga murojaat qilaylik:

Dayrani ul yuzidan sel keladi,
Sel bilan ikki o'rdak teng keladi.
O'rdakka o'rdak munosib, g'ozga g'oz,
Yigitga qayliq munosib, qizga noz.

Bu qo'shiqda daryodan toshib kelayotgan sel, sel bilan teng uchayotgan o'rdak, o'rdakning o'rdakka, g'ozning g'ozga munosibligi, yigitning orzu qilgan qizda noz, istig'noni ko'rish havasi borligini ifodalovchi vosita, bir bahona, xolos. Yigitning asosiy niyati o'ziga munosib deb bilgan yor tavsifi, uning o'ta andishali qiz ekanini ta'riflashdir. Shunday qilib, inson qaysi vosita bilan bo'lmasin, o'zining his-tug'usini, ichki kechinmalarini, ruhiy holatini izhor qilgan ekan, lirik asar namunasi vujudga keladi. Shuning uchun ham ayrim iqtidorsiz shaxslarning ma'nosiz qofiyalar yig'indisidan iborat she'riy asarlarini lirika namunasi deb bo'lmaydi. Haqiqiy ma'nodagi lirik asar insonni loqayd qoldirmaydi, unga ma'naviy huzur bag'ishlaydi, estetik rohat beradi.

Drama. Yunoncha "drama" so'zidan olingan bo'lib, harakat, tanglik, mushkullik ma'nolarini bildiradi. Badiiy adabiyotda "drama" so'zidagi harakat ma'nosi asos qilib olingan va muayyan voqea-hodisani sahnada harakat orqali ifodalash tushunchasi nazarda tutiladi. Shubhasiz, mazkur harakat orqali so'z vositasining yetakchiligini inkor qilish mumkin emas. Dramatik asarlarda vaqt, makon cheklangan bo'ladi. Voqeaning mohiyati drama ishtirokchilarining nutqlari bilan ochiladi. Akademik litseylarda xalq og'zaki ijodining drama turiga mansib janrlar ham o'qitiladi, mazkur tur haqida quyidagi nazariy ma'lumotlar beriladi:

Xalqimiz og'zaki ijodidagi xalq dramasi va askiya janrlarini ana shunday asarlar namunasi sifatida baholash mumkin. Chunki xalq dramasi tomosha ishtirokchilari asar mazmuniga ko'ra qozi, jinoyatchi, jabrlanuvchi, sho'rpehona ona, baxtsiz ota, landovur farzand kabi rollarni bajaradilar, ularning xarakteriga mos ohangda so'zlaydilar, atrofdagilarni kuldirish uchun turli harakatlar

o'ylab topadilar. Askiyada esa mazkur so'z o'yini musobaqasida qatnashadigan askiyabozlar to'y, sayilga kelgan odamlarning davrasida ko'zga ko'rinarli e'tiborni egallaydilar. Bunga xalq teatrlari, qo'g'irchoq teatrlarini misol keltirish mumkin.

Xalq og'zaki ijodida dramatik janrlarni, Bahodir Sarimsoqov fikricha, og'zaki drama, kulki – hikoya, qo'g'irchoqbozlik, askiya janrlari tashkil etadi. Bu asarlarni ijro qiluvchilar faqat og'zaki nutqlari bilangina emas, tovush tovlanishi – intonatsiya, yuz, ko'z, bosh, qo'l harakatlarini ishga solib ham obraz yaratadilar. Oqibatda, tomoshabin tinglovchilarni o'ziga jalb qiladigan teatrlashgan tomosha ko'rinishi vujudga keladi.

Misol uchun Yo'ldosh A'zamov rejissyorlik qilgan "O'tkan kunlar" badiiy filmidagi Xudoyorxon va Musulmonqul qiyofalari bilan o'ynalgan qo'g'irchoqbozlikni eslashingiz mumkin. Xalq dramasi haqida yaxshiroq tushunchaga ega bo'lish uchun, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi "Xon ko'ngil ochmoqchi" va "Qiziqqlar" bobini misol keltirish mumkin. Xalq dramasi qatnashchilari asar mazmunini o'zlari o'ylab topadilar. Tomoshaga yig'ilgan odamlar o'rtasida qallob qozi, jinoyatchi, jabrlanuvchi, sho'rpehona ona yoki xotin, baxtsiz ota, landovur farzand kabi rollarni bajaradilar. Uzoq o'tmishdan tortib o'tgan asrning o'rtalarigacha bozorlarda, guzarlarda qiziqchilarning sahna ko'rinishlarini uyushtirishlari oddiy odat edi.

Askiya esa maxsus so'z o'yini musobaqasi tarzida to'ylarda, sayillarda, yig'inlarda o'tkazilgan. Askiyabozlar ikki, ba'zan uch-to'rt guruhga bo'linib tanlangan mavzu doirasida so'z asos bo'lgan bellashuvlarda kuch sinashganlar. Bunday anjumanlarda askiya ishtirokchilarining turgan joylari o'z-o'zidan sahnaga aylanib qolar edi. Tinglovchilar esa askiya jozibasiga mast bo'lib, qayerda o'tirganlarini ham bilmay



qolar edilar. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan janrlar dramatik tur tarkibini tashkil etgan.

Ogʻzaki ijod yozuv madaniyati shakllanishidan ancha oldin vujudga kelgan. Ammo ogʻzaki ijodning oʻzi paydo boʻlishida qadimgi miflarning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.
2. Рыбникова М. А. Очерки по методике литературного чтения. – М., 1985. – С. 58.
3. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Тошкент, Ўқитувчи, 1996, 118-бет.
4. Обидова М., «Рустам» туркумидаги дostonлар, Т., 1982. 230 б.
5. Мадаев О. Халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т., 2010. 208 б.
6. О.Мадыев Халқ оғзаки poetik ijodi –Toshkent, 2010. 208 б.
7. Оʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Adabiyot fanidan (chuqurlashtirilgan) akademik litseylar uchun namunaviy oʻquv dasturi. Toshkent-2021 44-б.

AFFIKSATSIYA USULIDA YASALGAN OKKAZIONALIZMLAR

*Qurbonova Moxinur Abdusoli qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Affiksatsiya bu so'z yasalishining eng faol usullaridan biridir. O'zbek tilida so'zlar asosan ana shu usulda yasaladi. Okkazonalizmlar nutqiy hodisa bo'lganligi sababli uning yasalishi ham muallif tomonidan erkin tanlanadi. Maqolada okkazonalizmlarning affiksatsiya usulida yasalishi, bu borada jahon va o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar, yechimini topmagan masalalar bo'yicha fikr yuritiladi. Maqolada qiyosiy, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tayanch so'z va iboralar: So'z yasalishi, okkazonalizmlar, suffiks okkazonalizmlar, prefiks okkazonalizmlar, prefiks-suffiks okkazonalizmlar, lisoniy andoza, analogiya, affiks, semantik shart-sharoit, grammatik shart-sharoit.

ОККАЗИОНАЛИЗМЫ СДЕЛАННЫЕ С МЕТОДОМ АФФИКСАЦИИ

*Курбанова Мохинур Абдусоли кизи
Преподаватель Ферганского государственного университета*

Аннотация: Аффиксация является одним из наиболее активных способов словообразования. В узбекском языке слова образуются в основном таким образом. Поскольку окказионализмы являются речевым явлением, то и их создание автором является произвольным. В статье рассматриваются создание окказионализмов методом аффиксации, исследования, проведенные в этом отношении в мировом и узбекском языкознании, и нерешенные вопросы. В статье использованы методы сравнительного, компонентного анализа.

Основные слова и словосочетания: Словообразование, окказионализмы, суффиксальные окказионализмы, префиксальные окказионализмы, префиксно-суффиксальные окказионализмы, языковая модель, аналогия, аффикс, семантические условия, грамматические условия.

OCCASIONALISMS MADE BY THE AFFICTION METHOD

*Kurbanova Mohinur Abdusoli kizi
Teacher of Fergana State University*

Abstract: Affixation is one of the most active ways of word formation. In the Uzbek language, words are formed mainly in this way. Since occasionalisms are a speech phenomenon, their creation is also freely chosen by the author. The article discusses the creation of occasionalisms by the affixation method, researches conducted in this regard in world and Uzbek linguistics, and unsolved issues. Comparative, component analysis methods are used in the article.

Basic words and phrases: Word formation, occasionalisms, suffix occasionalisms, prefix occasionalisms, prefix-suffix occasionalisms, linguistic pattern, analogy, affix, semantic conditions, grammatical conditions.

Kirish. So'z yasalishi tilshunoslikning eng faol va o'zgaruvchan sathlaridan biridir. Bu sath bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ma'lumki, okkazonalizmlar nutqiy birlik hisoblanib, rus tilshunosligida bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan. A.V.Gorelkina M.Svetayevoy va A.Belogoning memuar asarlarida qo'llangan so'z yasovchi okkazonalizmlar yuzasidan ish olib boradi. So'z yasovchi okkazonal qo'shimchalarni 1) suffiks okkazonalizmlar; 2) prefiks okkazonalizmlar; 3) prefiks-suffiks okkazonalizmlar kabi turlarga ajratadi [1]. Ye.S.Stepashkina ham okkazonallarning yasalishiga oid o'z tadqiqot ishini olib borgan

[2]. O‘zbek tilshunosligida esa S.Toshaliyevaning “O‘zbek tilida okkazional so‘z yasaliishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi okkazional so‘zlarning yasaliishiga oid ilk monografik ishdur [3]. G‘ayriodatiy so‘zlar asosan tildagi barqaror (uzual) yoki tasodifiy (okkazional) andozalarga, ayon bir so‘z tarkiblanishiga o‘xshatib olish yo‘li bilan yaratiladi. Lekin o‘z lisoniy andozasi, namunasiga xos umumiy, doimiy mezonlardan chetga chiqadi: nimasi bilandir ularga o‘xshamaydi – analogiyaning tabiiy lisoniy amal qilish tarzi, morfem bog‘lashuvi (valentligi) me‘yori buziladi [3.14].

Adabiyotlar sharhi. Affiksatsiya bu so‘z yasaliishining eng faol usullaridan biridir. O‘zbek tilida so‘zlar asosan ana shu usulda yasaladi. Okkazionalizmlar nutqiy hodisa bo‘lganligi sababli uning yasaliishi ham muallif tomonidan erkin tanlanadi. O.To‘xtasinova tadqiqotlarida okkazionalizmlarni so‘z turkumlariga mansubligi jihatdan ot okkazionalizmlar, sifat okkazionalizmlar, fe‘l okkazionalizmlar va ravish okkazionalizmlar kabi turlarga ajratadi”[4.79].

Biz milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotidagi affiksatsiya usuli bilan yasalgan okkazionalizmlarni tahlilga tortamiz. So‘z yasovchi affikslar asosga qo‘shilib, shaxs, narsa, joy, belgi, harakat-holat kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Dastlab ot okkazionalizmlarning yasaliishida affikslarning o‘rnini ko‘ramiz.

Jumladan, -iston qo‘shimchasi ma‘lum bir millat ma‘nosini ifodalovchi so‘zga qo‘shilib, ana shu millat yashaydigan hududni ifodalovchi so‘zni hosil qiladi: O‘zbekiston, Hindiston kabi.

Bu jahliston eliga va‘zlar kor etmagay, faryod,
Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod,
Bu osiyo sangin ustida turpo ketmagay, faryod,
Bu ko‘histon dilini kafhi xobi bitmagay, faryod,
Yotar doim farog‘atda na nangu or g‘or etmaz.
(Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 1-jild)

Ijodkor jahliston so‘zini – “jaholat ostida qolgan el, ilmsizlik, ma‘rifatsizlik botqog‘iga botgan yurt” ma‘nosida qo‘llagan.

Bu mavhistonda bermas ibrat-u samar, hayhot,
Hama yo‘l ko‘rsatuchilar tama‘chi, darbadar, hayhot.

Firat mavhiston so‘zi orqali “egallangan hudud” (bosib olingan joy) ma‘nosini ifodalagan. Shu o‘rinda asosdagi so‘zning ko‘pligi ma‘nosini ham ifodalaydi.

Oh, mozoriston – ming - ming nomuntazam tepachalar sado nidodin xoli maxsus zamini ma‘volar (boshpana, makon). (Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Oq yolg‘ochli chinli xotun” hikoyasi)

Shu qadari borki, shaharg‘a muttasil yerlarda bog‘-u tokistonlar etib, tufroq imoratlarg‘a o‘ltirgonlari-da ko‘rilur”. (Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”) Behbudiy tokzor ma‘nosida qo‘llagan.

Ma‘lumki, -don affiksi narsa-buyum otlariga qo‘shilib, ana shu narsa saqlanadigan predmetni ifodalaydi. Bu affiks okkazional otlarning yasaliishida ham ishtirok etadi.

Adab bobida tanho o‘zgalar lof urmasun, oxir,
Hazil o‘rnig‘a badnom-u haqoratdonimiz bordur.
Muhandis bizda yo‘q, deb noraso so‘z demagil, notiq.
Sharorat tog‘ida mino topib olg‘onimiz bordur.

Haqoratdonimiz so‘zini “haqoratli so‘zlar” ya‘ni “hazil o‘rniga haqoratli so‘zlarimiz bor” ma‘nosida qo‘llagan. (Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 1-jild)

O‘rin-joy otini yasovchi -xona affiksi ham Behbudiy asarlarida okkazional so‘zlarni hosil qilishda faol qo‘shimchalardan biridir.

“Bolalar uchun tarbiyatxona (pansiyon) ochmoq kerak. Va bu tarbiyatxonalar zamoncha ham milliy va diniy ruhda bo‘lishi kerakdur”. (Mahmudxo‘ja Behbudiy “A‘molimiz yoinki murodimiz” maqolasi) Behbudiy maktablarga nisbatan

tarbiyatxona soʻzini qoʻllaydi.

Yana bir oʻrinda shifoxona soʻziga nisbatan xastaxona soʻzini qoʻllaydi.

“...yana ikki olmon, ikki fransuz, bir itolyon, bir ingliz muntazam maktabi va bir fransuz xastaxonasi bor ekan.” (Mahmudxoʻja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”)

“Olami Islomning aksari madrasalari shunday xarob va hasharotxonadur.” (Mahmudxoʻja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”) Bu oʻrinda hashorotlar koʻpligi maʼnosini kuchaytirish maqsadida ana shu atamani qoʻllaydi.

“Oshxona, taomxona, hammom, mashq va ijtimoxonalari boshqadur”. Koʻpchilik, odamlar, toʻplanadigan joyga nisbatan ana shu atamani qoʻllagan.

(Mahmudxoʻja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”)

Okkazonal mavhum otlar ham uchraydi. “Oradan soʻzsizlik uzoqqa choʻzila bergach, qutidor Hasanalidan soʻradi.” (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”)

Yuqoridagi gapda Abdulla Qodiriy jimjitlik maʼnosini ifodalashda -lik affiksi orqali ravishdan mavhum ot yasagan.

“Qizlar maʼnolik qilib yer ostidan Kumushka qaraydilar. Majlisda bir xil maʼyusiyat. (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”) -iyat affiksi orqali okkazonal mavhum ot hosil qilingan. Yuqoridagi oʻrinda maʼyuslik maʼnosi ifodalangan.

“Qizlar ipka chizilgʻan guldek uy tevatagini olgʻanlar, buning ustiga yovoshliq, uychanliq ularning tuslariga maʼnaviy bir husn va jiddiyat berib, birga yuz husn qoʻshqan edi.” (A.Qodiriy “Oʻtkan kunlar”) Bu gapda esa -at affiksidan foydalangan.

“Ertasi fotihaxonlar birlan ovora boʻlib... Xullas kalom shulki, bu tashvishlar birlan xat qilishgʻa fursat tanglik qildi.” (Hamza, Xatlar) Maʼlumki, -xon shaxs oti yasovchi affiks hisoblanib, bu gapda ham fotihaxon soʻzini yasagan.

Abdulla Avloniyning okkazonal soʻzlar yasashdagi oʻziga xosligi shundaki, u oʻz okkazonallarida fors tilidan oʻzlashgan -on qoʻshimchasini koʻp oʻrinlarda qoʻllagan. Maʼlumki, -on qoʻshimchasi bu fors tilidan oʻzlashgan boʻlib, koʻplik maʼnosini ifodalaydi.

“Butun islomiyon gʻaflatda, shaxsiylik ila magʻrur,

Xayoliga keturmaydur sira asri saodatni.” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild “Shoir ila toʻti”)

Berilgan misolda qoʻllangan islomiyon soʻzi muallif tomonidan musulmonlar maʼnosida qoʻllagan. Bu oʻrinda sifatning otlashishi roʻy beryapti, mazkur qoʻshimcha orqali sifatdan ot yasalgan oʻrinlar ham koʻzga tashlanadi.

“Boʻynini egmas kishigʻa haqni bilgon nafs uchun,

Molin isrof aylamas oliyjanobon nafs uchun.” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild “Iffatli insonlar”)

“Okkazonalizmlarning qoʻllanish chastotalarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, badiiy nutqda ot okkazonalizmlar eng faol. Miqdoriga koʻra, sifat okkazonalizmlar ikkinchi oʻrinda, feʼl okkazonalizmlar uchinchi oʻrinda, boshqa turkum soʻzlari esa keyingi oʻrinlarda turadi”[4]. Koʻrinib turibdiki, ot okkazonalizmlar turkumiga koʻra koʻp oʻrinlarda qoʻllanganligining guvohi boʻlamiz.

“Siza arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,

Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar!” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild “Gapurmanglar”)

Muhokama va natija. Kuzatishlar va tahlil qilingan materiallar shuni koʻrsatadiki, Abdulla Avloniy -on qoʻshimchasini shaxs otlari tarkibida koʻp oʻrinlarda qoʻllagan.

“Chiqdi boshlab “Sadoyi Turkiston”,

Oʻqungiz shavq birla, ey doʻston.” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild “Jarina muhiblarina”)

“Johilon bilgaymu nafʼi-sudini, ey olimon,

Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz?” (“(A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild “Biz nima holdamiz”)

Yuqoridagi misollarda shoirion, do‘ston, olimon so‘zlari shoirlar, do‘stlar, olimlar ma‘nosida kelgan.

“Bu xabarlar xalq tomonidan juda oddiy, ortiqcha sovuqqonlik bilan qarshi olindilar. Bu voqi‘aga hech kim ajabsinmadi va bunda favqulottaliq ko‘rmadi. Xalq bunga haqli edi, chunki bunday tinchsizliklarni endi ko‘ra-ko‘ra juda ham o‘rganib qolg‘an.” (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”) Tinchsizliklarni okkazonalizmi esa sifatning otlashishi natijasida hosil bo‘lgan.

Yuqoridagi misolda favqulotda sifatiga ot yasovchi –liq affiksini qo‘shish orqali favqulottaliq (yangilik) okkazonalizmi hosil bo‘lgan.

Ahli majlis “to‘g‘ri topdi” adibbekning so‘zini,
 “To‘g‘ri aytgan” adibbek ham pilanglatdi ko‘zini...
 (“Shamol nimadan paydo bo‘ladur”)

Bilamizki, -bek qo‘shimchasi atoqli otlarga qo‘shilib, o‘ziga xos hurmat, erkalash ma‘nosini ifodalaydi. Cho‘lpon turdosh otlarda ham qo‘llab, shakl yasovchi affikslardan ham okkazonallikni hosil qilgan.

Affiksatsiya usulida yasalgan sifat okkazonalizmlarni ham uchratamiz.

Vasvasalanishning o‘rni yo‘q, mundan so‘ng ham sizning xayrixohona kengashlaringizga, ham vujudingizga muhtojman... (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Hasanalining yuziga padarona tarahhum tusi kirib, keksalarga maxsus ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og‘ir yukni ola boshladi. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

“Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzu‘ni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lgan keyingi “xon zamonlari” dan belguladum. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Ravish okkazonalizmlarni, -ona affiksi bilan hosil qilingan okkazonal so‘zlarni Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ko‘p o‘rinlarda uchratamiz. Bu affiks ma‘lum harakatni holatini ifodalab keladi.

Xayrullo.Xo‘sh! Choy va la‘li keltirar, choy suzar, alar tanavvul aylar, Toshmurod kirar, salomsiz beadabona.”(Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Padarkush”)

“Domulla boy va Toshmurodga‘a badbinona boqib, boshini solar”. (Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlanganasarlar “Padarkush”)

“Bu iqomatga mavt va manzilga xomushona bir karra kirildimi yana qaytmoq mumkin yo‘q.” (Tanlanganasarlar “Oqyolpog‘ichlichinlixotun” hikoyasi)

“Chung‘ichin u mahaldin mutaassufona ayrildi.”(Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Oq yolpog‘ichli chinli xotun” hikoya)

“Oxiri, loilojon suratda ochlik sababidan Shukri posho Adriani taslim etmoqchi bo‘ldi.” (Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”). Ma‘lumki, -lo qo‘shimchasi arabcha inkorma‘nosini ifodalovchi affiksdir.

Okkazonallar orasida fe‘l yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan hodisalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Jumladan, -la, -lan, -lash affikslari fe‘l okkazonallarni yasashda sermahsul qo‘shimchalardan biridir.

“Bizni kechirasiz,bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, - vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.

Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda :

Tinchsizlamadingizlar, bilaks quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga birinchi martaba kelishim bo‘lg‘ani uchun tanishsizlik, yolg‘izliq meni juda zeriktirgan edi.” (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Yer-yer askar, to‘p, miltiq va ozuqa hamda tog‘lardek pichan anborlari.Turklarda endi ko‘zini ochdi.Kafanini bo‘ynig‘a solib, o‘lumini ko‘zga olib, mahkam yerlashmoqdadir.”(Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”)

“Bu shahar kundan-kun obodlashiyur.(Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”)

O‘ris shaharlariga borib savdo qilg‘uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo‘lib, chet ellarni ko‘rgan Otabek majliska tansiqlandi. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Hujra orqa-o'ngni ajratib bo'lmisliq qorong'ilandi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")
Qarshisida ulturg'an buvisining o'tkan-ketkandan qilg'an hikoyalariga erinibgina quloq berar va ko'nglini ochish uchun aytilgan qiziq so'zlariga iljayish bilan javoblanar edi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

"Ismi noshirki Obidu Mahmud,

Chiqsa shoyad muvaffaqiyatlona" (Ibrat, "Tabrik Namangondin")

Yuqoridagi misolda ham so'z tarkibida buzilish, normadan chekinish holatini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa. Okkazonal birliklar bu nutqiy hodisa, ularni muallif o'z uslubidan, maqsadidan kelib chiqqan holatda yaratadi. Bunday birliklarning yasalishi erkin bo'lganligi sababli muallifning imkoniyati yanada yuqori. Misollarni tahlilga tortish jarayonida okkazonal birliklar ko'proq affiksatsiya usulida hosil qilinganligini guvohi bo'lamiz. Okkazonallarni hosil qilishda muallif uslubidan kelib chiqib affikslar tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Горелкина А.В. Словообразовательные окказионализмы в мемуарных прозаических произведениях М.Цветаевой и А.Белого: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -М., 1999.

2. Степашкина Е.С. Окказиональное слово в публицистике А.И. Солженицына: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -М., 2014.

3. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. -Т.,1998.

4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. -Т.,2007.

TURLI TIZIM TILLAR MAQOLLARIDA DUNYONING PAREMIOLOGIK MANZARASI

*Rahimov Obid Orziqulovich,
dekan muovini, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Romano-German fakulteti*

Annotatsiya: Ushbu maqola ushbu tilda nutq aloqasi uchun muhim atribut bo'lgan asosiy tushuncha sifatida dunyoning paremiologik rasmining xususiyatlariga bag'ishlangan. Har bir tilning maqol va matallari til tizimining eng yorqin ifodali va ifodali ko'rsatkichi bo'lib, unda odamlarning dunyo, inson, shaxs, xalq, uning xarakteri, urf-odat va an'analari haqidagi kuzatishlari, tushunchalari va qarashlari saqlanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. avlod. Maqol va maqollarda jamiyat iqtisodiy hayotining inson, ijtimoiy va oila kabi barcha jabhalari, shuningdek, odamlarning aksiologik qadriyatlari va munosabatlarning xususiyatlari aks ettirilgan. Maqolada olimlarning ushbu masala bo'yicha turli nuqtai nazarlari tahlil qilinadi va tavsiflanadi. Ushbu maqoladagi paremiologik birliklar semantik, sintaktik va pragmatik jihatlarda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: paremiologik birliklar, aksiologiya, baholovchi ma'lumotlar, maqol va matallar, tushuncha, stereotip, ingliz lingvomadaniyati, semantik aspekt, struktur-sintaktik jihat, pragmatik aspekt.

ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКАЯ КАРТИНА МИРА В ПОСЛОВИЦАХ РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКОВ

*Рахимов Обид Орзиқуллович,
заместитель декана, романо-германского факультета
Узбекского государственного университета мировых языков*

Аннотация: Данная статья посвящена особенностям паремиологической картины мира как главного концепта, который является существенным атрибутом для речевого общения на данном языке. Пословицы и поговорки каждого языка представляют собой наиболее ярким экспрессивно-выразительный показателем системы языка, в которых из поколения в поколения хранили и передавали народные наблюдения, понимание и видение мира, человека, личности, народа, его характера, обычаев и традиций. Пословицы и поговорки отражают все аспекты хозяйственной жизни общества таких как, человеческих, общественных и семейных, а также аксиологические ценности народа и особенности взаимоотношений. В работе анализируются и описываются различные точки зрения ученых по данной проблеме. Паремииологические единицы в данной статье рассматриваются в семантическом, синтаксическом и прагматическом аспектах.

Ключевые слова: паремииологические единицы, аксиология, оценочная информация, пословицы и поговорки, концепт, стереотип, английская лингвокультура, семантический аспект, структурно-синтаксический аспект, прагматический аспект.

PAREMIOLOGICAL PICTURE OF THE WORLD IN PROVERBS OF DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES

*Rahimov Obid Orziqulovich,
Deputy Dean, Uzbek State University of World Languages
Faculty of Romano-Germanic*

Abstract: This article is devoted to the features of the paremiological picture of the world as the main concept, which is an essential attribute for speech communication in this language. Proverbs and sayings of each language are the most striking expressive and expressive indicator of the language system, in which people's

observations, understanding and vision of the world, man, personality, people, his character, customs and traditions were stored and transmitted from generation to generation. Proverbs and sayings reflect all aspects of the economic life of society such as human, social and family, as well as the axiological values of the people and the peculiarities of relationships. The paper analyzes and describes the different points of view of scientists on this issue. Paremiological units in this article are considered in semantic, syntactic and pragmatic aspects.

Keywords: paremiological units, axiology, evaluative information, proverbs and sayings, concept, stereotype, English linguoculture, semantic aspect, structural-syntactic aspect, pragmatic aspect.

Введение. Паремииологические единицы обладают большим аксиологическим потенциалом, поскольку содержат в себе оценочную информацию о человеке и его качествах, свойствах предметов и явлений окружающей действительности, определяют действия и поведение, регулируют нормативность «всех сторон жизни во взаимоотношении и взаимодействии с человеком: предмет – человек, действие – человек, человек – человек. Соблюдение описываемых норм является непременным условием сохранения целостности общества. Особенно много в фольклоре паремий, касающихся различного рода взаимоотношений людей» [7, с. 9].

По справедливому утверждению Р.А. Хажоковой и Э.А. Хажоковой, средством контактирования людей является «общение, поэтому в паремиях разносторонне освещаются речевые взаимодействия, требования к построению и ведению коммуникативного процесса. Пословицы и поговорки не только аккумулируют универсальные для всего человечества знания и представления, но также отражают национально-специфическое мировосприятие конкретного этноса. Значение пословиц и поговорок напрямую связано с членением, категоризацией континуума окружающего мира, в них сформировано эмоционально-оценочное отношение к этому миру. Особенности коммуникации как одной из составляющих культуры народа находят прямое отражение в сокровищнице национальной паремииологии» [10, с. 383]. Все это дает нам основание рассматривать паремииологические единицы в качестве объекта исследования лингвистической аксиологии.

Литературный обзор. Как показывают результаты исследования паремииологического (фразеологического) фонда Я.А. Павлицевой, в нем отображаются и закрепляются национально-культурные стереотипы того или иного народа, посредством воспроизведения базовых шаблонов определенной языковой картины мира выражается менталитет народа. При этом культурная значимость образов фразеологизмов может быть всесторонне раскрыта при условии соотнесения этих образов с категориями, концептами, мифологемами, стереотипами и эталонами национальной культуры (материальной, социальной или духовной) культуры и ее интерпретации [6, с. 65]. В свете такого изложения вопроса нам представляется обоснованным высказывание о том, что в рамках языковой картины мира «фонд паремий национального языка составляет собственную картину мира, называемую паремииологической» [2, с. 24].

Например, в англоязычных пословицах находят свое отражение такие национально-культурные гендерные стереотипы английского народа, как «андроцентризм, тенденция доминирования мужского над женским, противопоставление женской хитрости и коварства мужской силе и прямоте, преобладание женщины над мужчиной вследствие ее хитрости, угроза со стороны женщины вследствие ее подверженности эмоциям и из-за этого страх мужчины потерять контроль над своей жизнью в целом. В то же время в некоторых фразеологизмах прослеживается тенденция нивелирования оппозиционной двойственности мужчины и женщины» [6, с. 65].

Паремиологические единицы можно охарактеризовать в нескольких аспектах, прежде всего в семантическом, синтаксическом и прагматическом: «Наиболее общим основанием для классификации языковых явлений выступает трехмерная семиотическая модель, включающая семантику, синтактику и прагматику того или иного высказывания. Паремии включают синтаксические характеристики, состоящие из структурной организации (выявление того, что высказывание является универсальным суждением), семантические характеристики, сводящиеся к их содержательным признакам (соотношение первичных и переосмысленных образов), прагматические характеристики – к ситуативным признакам (интерпретация уместности использования речения в той или иной конкретной ситуации)» [3, с. 58].

В семантическом аспекте паремиологические единицы – это назидания, в которых требуется соблюдать определенные нормы общества или же дается информация о типичных причинно-следственных связях в поведении людей. Такие паремиологические единицы могут иметь образную или необразную форму и выражают коллективную мудрость народа или же индивидуально-авторские высказывания о важных или ярких характеристиках поведения людей [3, с. 60]. Например, в таких паремиологических единицах, как пословицы, в плане семантики передается многовековой опыт народа, отражаются особенности уклада его жизни, культуры, мировоззрения. Пословицы содержат бытовые, социальные, религиозные, эстетические взгляды народа, в которых запечатлелись особенности традиций, обычаев, нравов, поведенческие концепции и моральные установки [10, с. 382].

Обсуждение и результат. В структурно-синтаксическом аспекте паремиологические единицы есть выражающие универсальные истины предложения, которые построены по типу экзистенциальных высказываний либо предредписаний и содержат в прямом или подразумеваемом выражении кванторы всеобщности (все, каждый, никто, всегда, никогда и др.) [3, с. 59-60]. Паремиологическим единицам присуща фразеологичность и воспроизводимость.

В прагматическом аспекте паремиологические единицы выступают как языковые единицы, обладающие прагматическими свойствами выражать «ситуативно-личностный смысл, который актуализируется в конкретной ситуации общения» [3, с. 60]. Например, пословицы в прагматических целях используются коммуникантами для обоснования ими своих точек зрения, для выражения прогнозов, сомнения, упрека, оправдания или извинения, утешения, издевки, злорадства, пожеланий, обещаний, разрешения, приказа и запрета, устоявшегося взгляда человека на природу и общество [3, с. 36]. Таким образом, по справедливому замечанию М.Р. Шаймардановой, весьма актуальными являются «научные изыскания, направленные на изучение пословиц с точки зрения речевых действий, особенностей использования паремий в коммуникации в вариативных типах дискурса и их связи с коммуникативными стратегиями говорящего» [4, с. 10-11].

Наряду с вышеперечисленными аспектами изучения паремиологических единиц все больший интерес у исследователей-лингвистов вызывают жанрово-стилистические, когнитивные, лингвокультурологические, аксиологические и др. признаки рассматриваемых единиц.

В стилистическом плане паремиологические единицы, в частности пословицы представляют собой предложения с четкой ритмической структурой, характеризующиеся стихотворным размером и запоминаемостью. Такое свойство пословиц, как запоминаемость, реализуется при помощи эвфонических средств языка, к которым относятся логическое ударение, ритмика, рифма, звуковые повторы, акцентные слова, параллелизм в построении синтаксических конструкций и т.п., что в совокупности организует стихотворный размер пословиц и обеспечивает их запоминаемость.

Жанрово-стилистическая природа паремиологических единиц разнообразна. Паремии представлены пословицами, поговорками, загадками, афоризмами, парадоксами, сентенциями, веллеризмами и т.п. Р.А. Хажокова, Э.А. Хажокова к паремиям относят представляющие собой целостные предложения пословицы и являющиеся фрагментами предложений поговорки. Паремии есть анонимные изречения, представляющие собой речевые клише, близкие по образности и афористичности крылатым словам [10, с. 383].

Лингвокультурологический анализ паремиологических единиц, в частности, пословиц с компонентом зоонимом, является значимым при выявлении взаимосвязи языка и культуры, функции выражения зоонимами в составе пословиц мировоззрения народа, его мышления, ценностей, так как зоонимы присущи языку каждой нации и отражают положительные и негативные ситуации, свойственные поведению человека [9, с. 129].

Проблема взаимосвязи языка и культуры является на сегодняшний день изучается в следующих ипостасях:

1) «для дискурсов, реализуемых в пространствах различных национальных языков/миров, выводимые как относительно «универсальные», общечеловеческие на понятийном уровне, концепты и постулаты имеют различное значение, определяемое, прежде всего, по их оценочному и образному наполнению»;

2) «смыслы, оформившиеся как ценностные в одной культуре, не всегда формулируются как таковые в других культурах. Иначе говоря, концепты, существенные для речевого общения на данном языке, являются ценностными признаками – ориентирами-символами и обладают качественной характеристикой феноменов культуры»;

3) «каждая из лингвокультур порождает целостные национальные образы мира, которые, в своей особой комбинаторике вокруг этнокультурных доминант, образуют определенную концептосферу, уникальный характер которой обусловлен именно ее ценностным измерением» [5, с. 22].

Как видим, лингвокультурологический анализ паремиологических единиц производится в неразрывной связи с аксиологической интерпретацией лингвокультурных концептов.

Следует отметить, что из существующего «множества классификаций паремий ни одна из них не считается всеобъемлющей. Тем не менее, наибольший интерес паремиологов вызывают тематическая и функциональная (распределение паремиологических единиц в соответствии с их прагматическими, когнитивно-дискурсивными функциями) классификации паремий» [4, с. 9].

Анализ паремиологических единиц, в особенности пословиц, в когнитивном аспекте «позволяет обнаружить тот фундамент, на котором базируется мировоззрение человека, его ценностные ориентиры и приоритеты, и в то же время – стереотипы, коренящиеся в сознании личности» [6, с. 67], выявить обладающие первостепенной важностью для общества структуры знаний, так как пословичный фонд являет собой фрагмент культурной традиции [1, с. 35].

Дело в том, что переживаемые человеком состояния «подлежат осмыслению в их принадлежности к ряду открытых концептуальных рядов, выражаемых посредством ценностных понятий, что позволяет аксиологически интерпретировать деятельность *homo verbo agens*. Элементами таких рядов можно считать те, которые определенным образом объективируются в речи человека как языковой / дискурсивной личности и в своей семантике отражают эмоционально-когнитивное состояние человека в его ценностном измерении. К данным элементам относятся такие понятия, как долг (следуя долгу, обязан, по долгу службы, как мать, я должна), воля (проявляя волю, по доброй воле, из добрых побуждений), искренность, самоутверждение, неприятие, сомнение,

признательность, сострадание, целеустремленность и др.» [5, с. 10].

Пословица в этом отношении способствует «созданию моделей, передающих определенную картину взаимного расположения объектов в пространстве и во времени. Ситуация в таких пословицах вычисляется заранее» [3, с. 33].

Между значением и внутренней формой пословиц существует три основных типа отношений – совпадения, пересечения и параллельного существования, включая переходные случаи, которые, представляя собой дескриптивно-когнитивные уровни, образуют двойной фрейм – схему знаний двух ситуаций: на уровне значения – знание о принятых в социуме стереотипах поведения; на уровне внутренней формы – бытовые представления [1, с. 37].

Важно подчеркнуть, что «когнитивные уровни пословицы взаимодействуют с прагматическими подуровнями оценки и эмотивности и прагматико-когнитивным подуровнем сценария. Сценарий, как правило, в большинстве случаев содержит имплицитную рекомендацию, как надо действовать исходя из ситуации – фрейма» [1, с. 37]. Иначе говоря, пословицы в качестве фрейма суммируют опыт и подводят итог прошлому, а в качестве сценария выполняют моралистически-дидактическую функцию и тем самым обращены в будущее [1, с. 38].

Итак, как видно из обзора аспектов изучения паремиологических единиц, в том числе и пословиц, выделяются такие актуальные темы их исследований, как выявление их национально-культурной специфики, сопоставление значения и смысла, анализ модальности и оценочности в них и др. [11, с. 10]. По мнению М.К. Гаспарян, на культурную содержательность пословиц и поговорок может указывать «их оценочность, в которой отражается отношение носителя языка к представленному в пословице явлению, объясняя его взгляд на окружающую действительность. Для выявления этноспецифичности культурной семантики пословиц и поговорок становится необходимым изучение последних в сопоставительном аспекте. Подобный подход представляется обоснованным, так как освоение мира человеком проходит в сравнении» [4, с. 127].

Вывод. Таким образом, следует подчеркнуть, что изучение жанрово-стилистических, когнитивных, аксиологических, лингвокультурологических и др. признаков свидетельствует об антропоцентрической направленности паремиологических исследований в современном языкознании, ибо, как пишет Р.Д. Тажибаева, «антропоцентризм позволяет выявить существенные свойства языковой личности. Ныне все лингвистические исследования имеют антропоцентрическую направленность, однако наиболее ярко антропоцентризм проявляет в исследованиях текста, в том числе пословиц и других паремиологических единиц» [8, с. 171].

Литература:

1. Биктагирова З.А. Когнитивные характеристики пословиц. // Общедидактические и практические проблемы языкознания и лингводидактики: Матер. Междунар. науч.-практ. конф. – Екатеринбург, 2006. – С. 35.

2. Бредис М.А. Представления о денежных отношениях в пословицах (на материале русского, латышского, литовского, немецкого и английского языков): Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2017. – С. 24.

3. Бурмистрова Л.В. Структурные, семантические и прагматические характеристики комических пословиц: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Астрахань, 2017. – С. 58.

4. Гаспарян М.К. Пословицы и поговорки как источник при изучении русской и армянской языковых картин мира. // Филологический аспект. – Нижний Новгород, 2018. – № 11 (43). – С. 127.

5. Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 22.

6. Павлищева Я.А. Фразеология как источник гендерных стереотипов (на материале английского языка). // Наукові праці. Філологія. Мовознавство. – Миколаїв, 2014. – Т. 221, № 209. – С. 65.
7. Сайфуллина Э.Р. Когнитивная сфера русских и татарских паремий: «образ языка» и нормы речевого поведения: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 2009. – С. 9.
8. Тажибаева Р.Д. Проблемы исследования пословицы в современном языкознании. // Вестник Казахского национального университета имени Аль-Фараби. Серия филологическая. – Алматы, 2011. – № 2 (132). – С. 171.
9. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Фалс. фанл. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2017. – С. 129.
10. Хажокова Р.А., Хажокова Э.А. Сравнительно-сопоставительный анализ пословиц и поговорок, выражающих отношение к женщине в русской и французской лингвокультурах. // Научный альманах. – Тамбов, 2015. – № 11-5 (13). – С. 383.
11. Шаймарданова М.Р. Прагмалингвистический анализ гендерно-маркированных паремий (на материале английского и русского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Казань, 2015. – С. 10-11.

RASMIY NUTQDA PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI*Rasulova Azizaxon Muydinovna**Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri**Shodiyeva Asila Anvarjon qizi**Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi*

Annotatsiya: Rasmiy uslubga oid matnlarni pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat, presuppozitsiyaning ifodalanishi rasmiy nutqning yozma og'zaki shakllarida misollar orqali yoritib berilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, uzviy tahlil usullaridan foydalanildi. Rasmiy nutqqa oid matnlarda pragmatik maqsadning ifodalanishi isbotlangan, rasmiy nutqqa oid rasmiy ish hujjatlari va diplomatik yozishmalar matnlaridagi pragmatik maqsad misollar orqali dalillangan. Ish natijalarining ilmiy ahamiyati pragmatolingvistik sohasining nazariy masalalari, xususan, rasmiy nutqning lingvopragmatik xususiyatlariga aloqador muammolarni tadqiq etish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish va kengaytirish bilan belgilanadi. Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan o'quv darsliklari tuzishda, nutq madaniyati, rasmiy matnning lingvistik tahlili kabi fanlarni o'tishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin. Ishimizda jamlangan dalillar ma'lum bir rasmiy nutqqa oid matnlarning pragmatik xususiyatlari bo'yicha yaratilajak monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: rasmiy nutq, rasmiy ish hujjatlari, propositsiya, pragmatika, diktal ma'no, presuppozitsiya, pragmatik ma'no, sigmatik ma'no.

ВЫРАЖЕНИЕ ПРЕСУППОЗИЦИИ В СЛУЖЕБНОЙ РЕЧИ*Расулова Азизахан Муьдиновна**Заведующая кафедрой узбекского языка и литературы Ферганского государственного университета**Шодиева Асила Анваржон қизи**преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Ферганского государственного университета*

Аннотация: Он заключается в выявлении прагматических особенностей текстов, относящихся к формальному стилю. Для освещения темы исследования использовались методы описания, сравнения, противопоставления, обобщения и интегрального анализа. Доказывается выражение прагматического назначения в текстах официальной речи, на примерах доказывается прагматическое назначение официальных рабочих документов и текстов дипломатической переписки. Теоретическая и практическая значимость исследования. Научная значимость результатов работы определяется дополнением и расширением научно-теоретических взглядов, связанных с исследованием теоретических вопросов в области прагматологии, в частности проблем, связанных с лингвопрагматическими особенностями официальной речи. Практическая значимость работы заключается в том, что она может быть использована в качестве теоретического пособия при составлении учебных пособий, при прохождении таких предметов, как культура речи, лингвистический анализ официального текста. Собранные в нашей работе доказательства послужат для подготовки монографий, учебников, учебных пособий, которые будут созданы по прагматическим особенностям текстов, относящихся к той или иной официальной речи.

EXPRESSION OF PRESUPPOSITION IN OFFICIAL SPEECH*Rasulova Azizakhon Muydinovna**Head of the Department of Uzbek Language and Literature of
Fergana State University**Shodiyeva Asila Anvarjon kizi**Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature of Fergana State
University*

Abstract: It is to reveal the pragmatic features of the texts related to the official style, the expression of the presupposition is highlighted through examples in the written oral forms of the official speech. The methods of description, comparison, contrast, generalization, and integral analysis were used to illuminate the research topic. The expression of the pragmatic purpose in the texts of official speech is proved, the pragmatic purpose of official working documents and the texts of diplomatic correspondence is proved by examples. The scientific significance of the results of the work is determined by the addition and expansion of scientific-theoretical views related to the research of theoretical issues in the field of pragmalinguistics, in particular, problems related to the linguo-pragmatic features of official speech. The practical importance of the work is that it can be used as a theoretical resource in the preparation of educational textbooks, in passing such subjects as speech culture, linguistic analysis of official text. The evidence collected in our work will serve for the preparation of monographs, textbooks, training manuals to be created on the pragmatic features of texts related to a certain official speech.

Keywords: official speech, official working documents, proposition, pragmatics, dictal meaning, presupposition, pragmatic meaning, sigmatic meaning.

Kirish. Jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilayotgan yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmatika sohasida qator ishlar olib borilmoqda. "Pragmatika (grek. pragma, pragmatos – ish, harakat, amaliy) – til belgilarining nutqdagi vazifasini tadqiq etuvchi tilshunoslikning alohida yo'nalishi". [2;155]

"Pragmatikaning manbasi Ch.Pirs, U.Djems, D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi". [8;471]

Adabiyotlar tahlili. Pragmatika yuqoridagi olimlarning g'oyalari asosida shakllangan bo'lsa, termin sifatida amerikalik olim Ch.Morris tomonidan ilmiy tilga olib kirildi: "Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida CH.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan". [2;155] Keyinchalik ushbu termin bir necha olimlarning ilmiy asarlarida keng qo'llanilib, turli qarashlar vujudga keldi. Mana shu nazariyalar orqali XX asrning 60-70 yillarida tilshunoslikda pragmatik yo'nalish paydo bo'la boshladi.

Pragmatikaning umumiy ta'rifini SH.Safarov quyidagicha umumlashtiradi: "Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga

pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo‘nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o‘rtasida mavjud bo‘lib turgan «uzilish»larni biroz toraytiradi”. [7;50]

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi verbal hamda noverbal munosabatning mazmuniy yo‘nalishiga asoslanishi, mazmunning so‘zlovchi yoki tinglovchi ichki maqsadlarini ifoda etishdagi vazifasi ishimizning mohiyatini tashkil etadi. Ustozimiz M.Hakimovning ta’kidlashicha, matnning pragmatik yo‘nalishi so‘zlovchi kommunikativ ichki niyatini aks ettirish darajasiga ko‘ra individual uslubiy janr shakllaridan birini tanlab oladi. Ana shu tanlangan janr shakli axborotning turlicha ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi va ular til bosqichida quyidagi tartibda nomlanishi mumkin: 1. Axborotning presuppozitsion janr shakli. 2. Axborotning propozitsional janr shakli. 3. Axborotning tagma’no janr shakli.

Rasmiy matnlarining berilayotgan axborotning shaklini belgilashda yuqoridagi pragmatikaning janr shakllaridan bo‘lgan propozitsiya va presuppozitsiya hodisalarini obyekt sifatida belgilab, ularning rasmiy matnlarda ifodalanishini tahlil qilib o‘tamiz.

Presuppozitsiya hodisasi haqidagi dastlabki qarashlar nemis mantiqshunosi G.Frege tomonidan ilgari surilgan. Uning ta’kidlashicha, presuppozitsiya hukmning mantiqiy asosi hisoblanadi”. [4;404] U fikrini isbotlash uchun “Kepler bechoralikdan olamdan o‘tdi” gapini misol ketiradi va bu erda presuppozitsiya sifatida Kepler degan odamning yashaganligini nazarda tutadi. G.Frege mavjudlik bildiruvchi ikkinchi hukmni presuppozitsiya deb ataydi. Presuppozitsiya termini tilshunoslikka P.Strosnon nomi bilan bog‘liq bo‘lib uning qarashlari ham Fregening qarashlariga juda yaqin turadi. Demak, presuppozitsiya jumladan anglashilgan ikkilamchi axborot deb qarash mumkin.

Presuppozitsiya ma’lum matn ifodalayotgan propozitsiyaning to‘g‘ri tushunilishiga imkon beradigan so‘zlovchilar o‘rtasidagi “bilimning umumiy fondi”, “oldindab bilishning jami” sifatida belgilanadi. [6;28]

Tilshunos olim M.Hakimov presuppozitsiyani tagma’no hodisadan farqini quyidagicha ta’kidlaydi: “...matnning semantik tuzilishi faqat presuppozitsiya bilan murakkablashib qolmay, balki so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat yashirin ma’no komponentlari bilan ham murakkablashadi. Ana shu ma’no komponentlaridan biri matn orqali yashirin bayonga ega bo‘luvchi tagma’no ko‘rinishidir. Tagma’noning matndagi bayoni ikki xususiyatga ega: birinchidan, ko‘p hollarda tagma’no oshkora verbal bayonga ega bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda matndagi tagma’no ko‘rinishi propozitsiyalarning mantiqiy tahlili yordami bilan aniqlanadi”. [2;112]

Muhokama va natija. Shu kunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, tagbilim, ichki ma’no, pragmatik ma’no, sigmatik ma’no terminlari qo‘llanilgan.

Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra, “presuppozitsiya” hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha ikkilamchi ma’lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma’lum bilimlari kabi omillar ta’sirida nutqiy maydonda namoyon bo‘ladi, ya’ni bunda shuni ham alohida ta’kidlash o‘tish joizki, presuppozitsiya hodisasi mantiq va tilshunoslik fanlari kesishmasida yuzaga kelgan hodisa hisoblanadi. Ushbu fanlar uzviy bog‘lanmas ekan presuppozitsiya hodisasining mohiyati to‘liqligicha namoyon bo‘lmay qolaveradi.

Presuppozitsiya hodisasi hukmning ikkilamchi ma’noga, axborotga, ayrim hollarda ikkilamchi humkga ishorasi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda til birliklarining presuppozitsiya hodisasini yuzaga keltirishdagi roli muhim hisoblanadi. Ayrim o‘rinlarda nutq vaziyatida so‘z semantikasidagi ma’no atenkasi presuppozitsiyani yuzaga keltiradi:

Ular bir necha vaqt suhbatlashishganlaridan keyin bir-birlarini tanib qolishdi.

Yuqoridagi misolda “tanib qolmoq” so‘zining ma’nosi nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda ikkilamchi ma’noga ishora qilib o‘tgan, ya’ni bu misoldan nutq adresatlari oldin ham bir-birlari bilan ko‘rishishgan yoki tanish bo‘lishgan degan ikkilamchi xulosa kelib chiqadi. Ayrim o‘rinlarda gap sturkturasidagi o‘zgarishlar bevosita ikkilamchi ma’noga (presuppozitsiyaga) ishora qilishi mumkin.

Unsin uchun –bechora qiz uchun –bu qanday mudhish sinov. (A.Qahhor “Dahshat” hikoyasi)

Yuqoridagi gap sturkturasidagi ajratilgan bo‘lakning ishtirok etishi gap semantikasidagi pragmatik ma’noga so‘zlovchining bevosita diqqatini tortadi. Agar ushbu misol “Unsin uchun bu mudhish sinov” jumlasini orqali ifodalanganda tinglovchi Unsinning ruhiy holatini to‘liq tushunib yeta olmagan bo‘lar edi. To‘ldiruvchining ajratilishi yuqoridagi misolda presuppozitsiya hodisanini yanada bo‘rttirib, ya’ni Unsinning shu ishga majburligi, uning bu sinovdan o‘tishdan ortiq chorasining yo‘q ekanligi haqidagi ikkilamchi axborot gap orqali ifoda etilayotgan asosiy propozitsiyasidan ham ahamiyatlilik kasb etgan.

Demak, yuqoridagi misollar va nazariy baxslar shuni ko‘rsatib turibdiki, presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayonda turli vositalar va birliklar orqali ifodalanishi mumkin.

Rasmiy nutqning pragmasemantik xususiyatlaridan biri, unda bir necha vositalar, ya’ni rasmiy nutqqagina xos bo‘lgan vositalar presuppozitsiya hodisasiga ishora qilib o‘tadi.

Uslubshunos olimlar qarashlari va o‘rganishlaridan bilamizki, rasmiy uslubning o‘ziga hos belgisi – ifoda etilayotgan fikrning qisqa va lo‘nda ekanligi. Aniq va ravshan tarzda bayon etilishidir. Bu ma’lumotdan xuddi rasmiy nutqda hech qanday pragmatik hodisaga o‘rin qolmagandek ko‘rinadi. Lekin biz bu ishimizda rasmiy nutqning pressopozitsiya aspektiga to‘xtalib o‘timishning sababi nimada? degan savolga javob bermoqchimiz. Dunyo o‘zgarimoqda. Bugungi globallashuv jarayonida axborot eng muhim qurolgan aylanib bormoqda. Uning xavfsizligini ta’minlash mamlakat miqyosida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o‘z navbatida, rasmiy nutqning tadrijiy rivojiga ham ta’sir etmay qolgani yo‘q. Bugungi kunda rasmiy nutqqagina xos bo‘lgan birliklar ostiga minglab ikkilamchi axborotlar yashirilmoqda. Ishimizda aynan rasmiy nutqning pragmatik aspektini tekshirish obyektini sifatida olinishi ham shu tadrijiy jarayonni o‘rganishdir.

Presuppozitsiya xodisasi nutqiy jarayon ishtirokchilariga sintaktik strukturani ixchamlashtirish, til birliklarini nutqiy vaziyatda tejash imkonini beruvchi, nutq egalariga muomala jarayonida tilning ichki imkoniyatlarini boshqa til egalariga ko‘rsatib berishda yordamga keluvchi xodisadir.

Rasmiy nutqda bu jarayonga juda ko‘p o‘rinlarda guvoh bo‘lishimiz mumkin. Fikrimizning isboti tariqasida adibimiz A.Qahhor ijodidan bir jumla keltiramiz.

Ho‘kizingiz hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. (A.Qahhor, “O‘g‘ri” hikoyasi)

Ellikboshining nutqidan olingan ushbu parchani konteksning qolgan parchalariga bog‘lagan holda tahlil qilarkanmiz. Ijodkorning presuppozitsiya hodisasidan unumli tarzda foydalangani orqali so‘zlovchining ichki niyatini, ikkilamchi hukmni ifodalab berganiga guvoh bo‘lamiz. Yuqoridagi misolda rasmiy nutqga xos tarzda majhul nisbatdagi fe‘l bilan ifodalanmoqda (Yuqorida ta’kidlaganimizdek, rasmiy nutqda gaplarning kesimi majhul nisbatdagi fe‘llar bilan ifodalanadi). Lekin ijodkor shu oddiygina nisbat shakli orqali so‘zlovchining ichki niyatini hukm shaklida ifodalab bermoqda. Ya’ni Qobil boboning ho‘kizi topiladi. Lekin ellikboshi tomonidan emas. Chunki ellikboshi majhul nisbatdan foydalanish orqali undan umid qilish kerak emasligiga ishora qilib ketgan. Asarning keyingi parchalaridagi voqealar rivoji esa ushbu fikrlarimizning tasdig‘i hisoblanadi:

Ho‘kizingiz hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. (A.Qahhor, “O‘g‘ri” hikoyasi)

Jumlasini majhul nisbat shaklining qo‘llanishi orqali “Ho‘kizingizni men topib

bermayman” degan ikkilamchi axborotning uzatilishiga xizmat qilib presuppozitsiya hodisanini yuzaga keltirgan.

Rasmiy nutqda keng qo‘llaniluvchi nutqiy odat tusiga kirgan buyruq ohanggiga ega gaplar tahliliga e‘tibor bersak, uslubning talabi nuqtayi nazaridan ikkilamchi axborotning ifodalanishiga guvoh bo‘lamiz:

Bu yerda chekish mumkin emas!

Yuqoridagi jumladan ifodalanyotgan asosiy propozitsiya chekish mumkin emasligi. Endi gap strukturasi va uslub talabi jihatidan yondashsak, “Bu yer chekilmaydigan joy” degan ikkilamchi axborotni anglashimiz mumkin.

“O‘zbekiston so‘mini soxtalashtirish qonunga muvofiq ta‘qib qilinadi”

Yuqoridagi gapni tahlilga tortaylik:

1) gap orqali ifodalanayotgan asosiy propozitsiya davlatning valyutasini soxtalashtirgan insonlarning ta‘qib qilinishidir;

2) yuqoridagi misolni pragmatik jihatdan tahlil qilsak, turli ikkilamchi axborotlarning ifodalanayotganini va ushbu axborotlar turli til birliklari tomonidan yuzaga keltirilayotganiga guvoh bo‘lamiz.

a) ushbu maqolda qo‘llangan “so‘m” leksemasi “O‘zbekistonning valyutasi, ya‘ni pul birligi “so‘m” degan ikkilamchi axborotni ifodalamoqda;

b) “qonunga muvofiq” birikmasi esa O‘zbekistonning qonuniy davlat ekanligi haqida ikkilamchi axborotni yuzaga keltirmoqda. Chunki ushbu ibora shariatga muvofiq emas, qonunga muvofiq, yoki ixtiyoriy emas, aniq qonunlarga muvofiq degan o‘zgarma hukmni yuzaga keltirgan.

c) “soxtalashtirish” leksemasi ta‘qib qilinishga asos bo‘ladi, degan ikkilamchi hukmni ifodalab kelmoqda. Ya‘ni soxtalashtirmasang, ta‘qib qilinmaysan. Shu yerda “soxtalashtirmang” hukmning ham ifodalanayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

d) kesim tarkibida ma‘lum shaxs-son shakllarining qo‘llanmayotgani e‘tibor beraylik. Bunda so‘zlovchi tinglovchining shaxsidan qat‘iy nazar ta‘qib qilinishi haqida ogohlantirmoqda.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shularni aytib o‘tish joizki, har bir nutq uslubi ma‘lum til vositalari, ma‘lum sintaktik strukturalarning yig‘indisi o‘laroq yuzaga kelar ekan, bu strukturalarni tanlash so‘zlovchining ixtiyoridadir. Bu barcha uslub birliklari o‘zida so‘zlovchining yashirin xohish va istaklariga bo‘ysundirilishidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и смысл. М., 1976, с.50.
2. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Академнашр”, 2013. – 155-бет.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.401.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2012. – 404-бет.
5. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, 1992. - 28-бет.
6. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // ЎТА. 1986. №6
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
8. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. -М., 1985.

RASMIY-IDORAVIY USLUBDA MATNLAR YARATISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Raxmanov Uchqun Toshpo'latovich,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada rasmiy-idoraviy uslubda matn yaratish bilan bog'liq muammolar, ularni yuzaga chiqaruvchi omillar, vositalar, nutqiy vaziyatlar tahlili, shuningdek, mazkur muammolarni hal etish bo'yicha taklif mulohazalar ishlab chiqish haqida fikr yuritilgan. Rasmiy uslubda matn yaratishda duch kelinadigan muammolar va belgilangan talablarga nomuvofiq amaliy natijalar to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: hujjatlar, rasmiy uslub, matn yaratish, yozma nutq, yozishmalar, ariza, tarjimai hol, sana, imzo, tasdiqlash, tarkib, tartib, talablar, mezonlar, mashq va topshiriqlar

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ УМЕНИЯ СОЗДАВАТЬ ТЕКСТЫ ФОРМАЛЬНО-ВЕДОМСТВЕННОГО СТИЛЯ

Рахманов Учкун Таишулатович,
преподаватель Каршинского Международного университета

Аннотация. В статье рассматривались проблемы, связанные с созданием текста в формально-ведомственном стиле, анализ факторов, средств, порождающих их, речевых ситуаций, а также выработка предложений по решению указанных проблем. Формальный стиль описывает проблемы, с которыми сталкивается при создании текста, и практические результаты, не соответствующие установленным требованиям.

Ключевые слова: документы, формальный стиль, создание текста, письменная речь, переписка, заявление, биография, дата, подпись, утверждение, содержание, порядок, требования, критерии, упражнения и задания

THE CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF THE ABILITY TO CREATE TEXTS OF FORMAL DEPARTMENTAL STYLE

Annotation. The article considered the problems associated with the creation of a text in a formal departmental style, the analysis of factors, means generating them, speech situations, as well as the development of proposals to solve these problems. The formal style describes the problems encountered when creating a text and the practical results that do not meet the established requirements.

Keywords: documents, formal style, text creation, written speech, correspondence, statement, biography, date, signature, approval, content, order, requirements, criteria, exercises and tasks

O'zbek tilidagi idoraviy uslubidagi og'zaki nutqning xususiyatlari to'g'ri formatdagi idoraviy uslubidagi matnlarni yozish hamma uchun berilmaydi. Har kuni minglab mualliflar duch keladigan asosiy qiyinchilik idoraviy matnlarini mutlaqo noto'g'ri talqin qilish va ularning ishlash tamoyillarini noto'g'ri tushunishdir. Agar siz rasmiy manbalarga ishonsangiz, unda: rasmiy idoraviy uslubi matni – bu shaxsiy bo'lmagan rasmiy ma'lumotlarni almashishni ta'minlaydigan idoraviy, huquqiy va boshqa muhitdagi asosiy aloqa vositasidir. Va shunga qaramay, noma'lum sabablarga ko'ra minglab advokatlar, iqtisodchilar, menejerlar va hatto diplomatlar har kuni bunday matnlarga bir xil noto'g'ri belgini qo'shishga harakat qilishadi.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so'zlar ko'p qo'llanadi. Hatto fe'l bilan

ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin soʻz shakllari tanlanadi, yaʼni “harakat nomi” deb ataluvchi soʻz shakllari faol ishlatiladi. “...tayyorgarlikning borishi haqida”, “...qarorning baiirilishi toʻgʻrisida”, “...vordam berish maqsadida”, qabul ailishinsizni soʻrayman” kabi. Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda, ularda soʻroq va undov gaplar deyarli qoʻllanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilining ikki vazifasi - xabar berish va buyurish vazifalari amalga oshadi. Masalan, maʼlumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, bayonnomada esa ham axborot (“eshitildi ham buyurish (“Qaror qilindi...”) oʻz ifodasini topadi

Zamonaviy rasmiy-idoraviy yozishmalarining xatosi shundaki, xodimlar buni ataylab murakkablashtiradi. Baʼzi sabablarga koʻra, xabar qanchalik murakkab boʻlsa, terminologiya qanchalik murakkab va jumla qanchalik uzun boʻlsa, material shunchalik kuchli boʻladi, deb ishoniladi. Ushbu materialda biz idoraviy uslubining chindan ham yaxshi matni qanday boʻlishi kerakligi, uning tuzilishi qanday boʻlishi kerakligi, nimaga eʼtibor berish kerakligi va qanday xatolarga yoʻl qoʻymaslik kerakligi haqida fikr yuritishga harakat qilamiz. Ushbu mulohazadan soʻng idoraviy matnlarini yozish qoidalariga biroz boshqacha qarash mumkin boʻladi. Idoraviy matniga va uning tuzilishiga qoʻyiladigan talablar umuman olganda, Konstitutsiya va davlat hujjatlaridan tortib tushuntirish va ishdan boʻshatishgacha boʻlgan koʻplab hujjatlar rasmiy idoraviy uslubida yoziladi. Biz, birinchi navbatda, idoraviy uchun matnlarga eʼtibor qaratamiz. Idoraviy matnlar boshqa uslublar ega boʻlmagan oʻziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerda asosiy belgilardan biri – ixchamlik. Idoraviy matnini yaratish talabdan eʼtiborni talab qiladi. Ishbilarmonlik bilan band boʻlgan odamlar boʻlganligi sababli, matnlarni odam ular bilan korvalolsiz tanishishi uchun qilish kerak. Faqat faktlar, faqat raqamlar, faqat muhim tafsilotlar keltiriladi.

Qisqartirish hech qanday muhim tafsilotlarning dolzarb boʻlishini anglatmaydi. Barcha tushuntirishlar berilishi kerak va muhim fikrlar aytib oʻtilishi kerak. Bu holda ixchamlik – bu soʻz birikmasi uchun boshqa soʻz birikmasidan voz kechishdir. Idoraviy xatining tuzilishini oldindan oʻylab koʻrish kerak. Matnda matniy muvofiqlikdan muhimroq jihatlar ham bor, unda maʼno doimiy ravishda bittasidan ikkinchisiga oʻzgarishi mumkin.

Matnning soddaligi masalasi. Agar matnni oʻqiydigan odamni hurmat qilsangiz, materialni sodda tuzing. Soddalashtirilgan emas, balki tushunarli boʻlishiga erishish lozim. Rasmiy uslubidagi matnlarni yozish qoidalari kanselyarizm va maxsus atamalardan foydalanishga imkon berishiga qaramay, materialni murakkab tuzilmalar bilan ogʻirlashtirmasligingiz kerak.

Til darajasi: morfologiya otlarning ustunligi (ayniqsa ogʻzaki, koʻpincha toʻliq boʻlmagan feʼllar bilan iboralar hosil qiladi). Ijro etish, qaror qabul qilish, koʻrsatma berish, qabul qilish, topshirish; ishtirok etish, afsuslanish, murojaat qilish, taʼsir oʻtkazish. Bogʻliq otlarning (va sifatning) genitiv holatlarini «bogʻlash» chastotasi. Yadro qurolini tarqatmaslik rejimini mustahkamlashning ahamiyati; shahar uy-joy fondining turar-joy binosining umumiy mulkini sanitariya saqlash . 1-va 2-shaxslarning shaxsiy olmoshlari va feʼlning tegishli shakllarining deyarli toʻliq yoʻqligi (istisnolar bayonotlar, ishonchnomalar va boshqa maxsus hujjatlar, shuningdek shakl ishlatiladigan buyruqlar - buyurtma).

Men, Abduraupova Mehribon Artiqova, Nurova Gulsanam Tolmasovnaga ishonaman... mening stipendiyamni olishiga...; “Iltimos, meni oʻquv mashgʻulotlaridan ozod qiling... emas, “meni oʻquv mashgʻulotlaridan ozod qilishingizni soʻrayman” shaklida bayon qilish oʻrinlidir. Feʼllarning noaniq shakldagi chastotasi, shuningdek, majburiyat va retseptning maʼnosi bilan hozirgi zamon shakllarining ustunligi. Roʻyxatdan oʻtish, ishdan boʻshatish, tayinlash, tashabbusni tasdiqlash, ushlab turish tavsiya etiladi, koʻrib chiqilishi kerak. Kasb boʻyicha ayollarni nomlashda erkak shakllaridan foydalanish. Oʻqituvchi T.P. Turanov, mahalla noziri I.G. Otabekov oddiy

yordamchilarni (chunki, dasturiy ta'minot va boshqalar) nominal bilan almashtirish. Oziq-ovqat yetishmasligi sababli, isitish mavsumi boshlanishi munosabati bilan, buyruqqa muvofiq. Kishilik va o'zlik olmoshlaridan bosh harfdan majburiy foydalanish. "Ruxsat berishingizni so'rayman", "iltimos qilaman", kabi fe'llardan foydalaniladi.

Talab, buyruq, ehtiyojning ma'nosi bilan shaxssiz jumladan keng foydalaniladi. Ot o'rnini olmosh bilan almashtirishning yo'qligi va shunga mos ravishda ot va iboralarni takrorlash. Sudlanuvchining ishtirok etishi majburiydir va sudlanuvchi yo'qligida ishni tinglashga faqat ruxsat beriladi: 1) sudlanuvchining to'g'ridan-to'g'ri roziligi bilan ; 2) agar sudlanuvchi sudga chaqiruv qog'ozini topshirishdan qochganligi yoki suddan yashiringanligi isbotlangan bo'lsa. Rasmiy idoraviy matnlarini yozish qoidalari bilan sizni yuklamalik uchun darhol bir nechta misollarni ko'rib chiqing.

Idoraviy matniga misol 1. Kechiktirish. Shunday qilib, idoraviy uslubi rasmiy munosabatlar muhitidir. Shu sababli, rasmiy idoraviy uslubida yozilgan matnlarning axborot to'yinganligi juda katta, ammo idrok etish qiyin. Matnlarni yaratishning rasmiy ish uslubi nafaqat kundalik hayotda foydali va zarur bo'lgan narsa, balki kopirayterlik bilan shug'ullanishda ham foydali bo'ladi.

Bundan tashqari, rasmiy idoraviy uslubi qisqartmalar va atamalardan foydalanishni o'z ichiga oladi, ular ishlatilgan sohaga xos bo'lib, ularning ma'nolarini oshkor qilmasdan ifodalash. Rasmiy idoraviy uslubining tuzilishi ko'pincha ushbu uslub ishlatiladigan hujjatlar turlari bilan belgilanadi. Rasmiy matnning tuzilishi o'ziga xos murakkablikka ega.

Rasmiy idoraviy uslubi – bu hujjatlar uslubi: xalqaro shartnomalar, davlat hujjatlari, huquqiy qonunlar, qarorlar, nizomlar, ko'rsatmalar, rasmiy yozishmalar, ish hujjatlari va boshqalar. Misollar o'tmishda ham topilgan. Rasmiy idoraviy uslubining ushbu turidagi hujjatlarga misollar quyida keltirilgan parchalardir. Idoraviy uslubidagi matnlar uchun ma'lum so'zlardan foydalanish odatiy holdir, bu yuqoridagi barcha misollarda aniq ko'rinadi.

Rasmiy idoraviy uslubi quruqlik, hissiy jihatdan rang-barang so'zlarning yo'qligi, ixchamlik, taqdimotning ixchamligi bilan ajralib turadi. Rasmiy hujjatlarda ishlatiladigan til vositalarining to'plami oldindan belgilangan. Rasmiy idoraviy uslubining eng muhim xususiyati bu til shtamplari yoki klishe deb ataladi. Hujjatda uning muallifning o'ziga xosligi namoyon bo'lishi kutilmaydi, aksincha, hujjat qanchalik klişe bo'lsa, undan foydalanish shunchalik qulay bo'ladi (klişe misollariga qarang). quyida) rasmiy idoraviy uslubi-bu turli janrdagi hujjatlar uslubi: xalqaro shartnomalar, davlat hujjatlari, huquqiy qonunlar, qarorlar, nizomlar, ko'rsatmalar, rasmiy yozishmalar, ish hujjatlari va boshqalar. ammo tarkibidagi farqlar va janrlarning xilma-xilligiga qaramay, rasmiy idoraviy uslubi umuman umumiy va eng muhim xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- 1) chet el talqin qilish imkoniyatini istisno qiladigan aniqlik;
- 2) til standarti. Ushbu xususiyatlar o'z ifodasini topadi a) lingvistik vositalarni tanlashda (leksik, morfologik va sintaktik); b) idoraviy hujjatlarini tayyorlashda. Rasmiy ish uslubining so'z boyligi, morfologiyasi va sintaksisining xususiyatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Rasmiy-idoraviy uslubining lingvistik xususiyatlari rasmiy uslubining leksik xususiyatlari, uslubining leksik (lug'at) tizimi, umumiy kitob va neytral so'zlardan tashqari, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) til shtamplari (kanselyarizmlar, klişeler): qaror asosida savol berish, kiruvchi-chiquvchi hujjatlar, bajarilishini nazorat qilish, muddati tugaydi.
- 2) professional terminologiya : qarzdorlik, alibi, qora nal, idoraviy;
- 3) arxaizmlar : men ushbu hujjatni tasdiqlayman. Rasmiy idoraviy uslubida polisemantik so'zlardan, shuningdek majoziy ma'nodagi so'zlardan foydalanish

qabul qilinishi mumkin emas va sinonimlar juda kam ishlatiladi va qoida tariqasida bir xil uslubga tegishli tajriba, natijada uning lug'ati juda umumlashtirilgan.

Qo'lda yoziladigan hujjatlardan eng asosiysi – bu ariza. Uni mazmuniga qarab bir qancha turlarga ajratish mumkin. Tahliliy ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda shikoyat, da'vo arizalari ko'proq rasmiylashtirilmoqda. Ammo ularning yozilish qoidalari muntazam buzib kelinadi.

Fuqarolarning murojaatlari ariza, taklif yoki shikoyat ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ariza – fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan murojaatidir. Taklif – fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarini o'z ichiga olgan murojaatidir. Shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaatidir. Qonunga muvofiq, davlat organlari, ularning rahbarlari fuqarolarning takliflari, arizalari va shikoyatlarini belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishlari, ularga javob berishlari va zarur choralar ko'rishlari shart. Fuqarolarning murojaatlari og'zaki yoki yozma shaklda kiritiladi. Fuqarolarning og'zaki va yozma murojaatlari bir xil ahamiyatga ega. Fuqarolarning murojaatlari yakka tartibda yoki jarnoa tomonidan berilishi mumkin. Murojaatlarda fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan, ariza, taklif yoki shikoyatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Yozma murojaatlarda murojaat etuvchining imzosi bo'lishi lozim. Murojaatga shaxsiy imzo qo'yish imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaatlar uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ham yozib qo'yiladi. Fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoki u haqda soxta ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek, imzo qo'yilmagan yozma murojaatlar anonim deb hisoblanadi va ko'tib chiqilmaydi.

Aslida unchalik murakkab hujjat emas. Quyidagi tarkibiy qismlardan tarkib topgan:


Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida, ayniqsa, ko'p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

ARIZA

Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza amaliyotda eng ko'p qo'llanadigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'quvchisi va talaba, menejer va fermer, muhandis va olim, tadbirkor va mansabdor shaxs – jamiyatning barcha a'zosi ariza yozishdan xoli emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va lavozimi, ariza yo'llanayotgan muassasalar va idoralar g'oyat xilma-xildir. Arizalar ilmiy-tadqiqot muassasasi direktoriga, maktab direktoriga, oliy o'quv yurti rektoriga, korxonada direktoriga, tuman rahbariyatiga – xullas, oddiy arizachining taklif, iltimos yoki shikoyatini ko'rib chiqib hal qila oladigan har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin. Hajmi, uslubi va turidan qat'i nazar, ariza o'zining umumiy zaruriy qismlariga ega va u ana shu qismlarning izchilligi asosida tuziladi. Arizaning zaruriy qismlari:

1. Ariza yo'llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.
2. Ariza yozuvchining turarjoyi, vazifasi, ismi, otasini va familiyasi.
3. Hujjatning nomi (Ariza).
4. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).
5. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa).
6. Ariza yozuvchining imzosi, ismi va otasini bosh harflari, familiyasi.
7. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy).

Shuni eslatib o'tmoq joizki, arizaning zaruriy qismlari barcha arizalarda ham birday takrorlanavermaydi. Masalan, xodim o'zi ishlayotgan korxonaga yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda, uning yashash joyi haqidagi ma'lumot zarur bo'lmaydi. Bunday hollarda xodim o'zi ishlaydigan bo'lim va lavozimini ko'rsatsa, kifoya. Shuningdek, ko'pchilik arizalar uchun ilovalarning ham hojati bo'lmaydi. Yuqorida sanab o'tilgan zaruriy qismlarning odatdagi joylashuvi 1-ilovada ko'rsatildi. Ariza ham boshqa har qanday rasmiy hujjat kabi aniq va qisqa jumlar bilan tushunarli qilib yozilishi kerak. Ariza shakli



Hujjat tilining aniqligi, tushunarligi maqsadning tezroq amalga oshishiga xizmat qiladi. Ariza, asosan, qo'lda yoziladi va mazmuni erkin bayon qilinadi. Mazmuni va uslubiga ko'ra arizalar bir xil emas: u bir necha so'zdan iborat bo'lishi, masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan xat tarzida bo'lishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan arizalar sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Murakkab ariza matni katta bo'lishi bilan birga, unga ilovalar qilinishi mumkin. Aksar hollarda arizalar shaxsiy xususiyatga egadir. Shuningdek, xizmat arizalari ham bo'ladi. Xizmat arizasi – fuqarolar yoki tashkilotlarning o'z huquqlarini amalga oshirish yoki manfaatlarini himoya qilish yuzasidan yozma axborotlaridir. Da'vo arizalari ana shunday arizalardandir. Iltimos va shikoyat mazmunidagi arizalar taklif mazmunini aks ettiruvchi arizalarga hamda da'vo arizalariga nisbatan ko'p qo'llanadi. Shuni ham aytib o'tmoq lozimki, korxonaga va tashkilotlarda belgilangan tartibga asosan, arizalar elektron shaklda yozilib, elektron hujjat aylanishi tizimida ro'yxatga olinishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni joylashtirishda ariza ota yoki ona nomidan yoziladi.

Umumta'lim maktablarida ham, oliy ta'lim tizimida ham o'quvchi/talabalarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qilinadi.

Oliy ta'lim tizimida talabani kasbga tayyorlash bilan bir qatorda ularga davlat tilida ish yuritish fani ham o'qitiladi, biroq mazkur fan amaliy xarakterda deb bo'lmaydi. Ko'pincha talabalarga "Davlat tilida ish yuritish" qo'llanmasidan ma'ruza o'tib beriladi. Rasmiy ish qog'ozlarining zaruriy tarkibiy qismlari o'qib eshittiriladi, yoki konspekt qilish uchun topshiriq beriladi.

Misol uchun:

19-mashq. Gaplarni diqqat bilan o'qing. Noto'g'ri qo'llangan so'zlarni aniqlab, ma'nosiga ko'ra mos so'z bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.

1. So'zlovchining o'z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga yetkazishi ham o'ziga xos san'atdir. 2. So'zga benazir kishi mayda bir maqsadni uzoq so'zlab

bayon qiladi. 3. Nojo'ya so'z yurak ko'zhusini parchalashi, tag'in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4. Nutqi asal kishining mehribon odamizoti ham ko'p bo'ladi. 5. Shirin so'z, go'zal til inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so'z, beso'naqay gap inson dilini shunchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 6. Mashq sababli so'zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san'atchiligini odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin. 7. Tilda uni nomlovchi suxan bo'lmasa, bunday so'zni hamsoya tildan olish mumkin. Ammo tilda turgan so'zlar o'rnida boshqa suxanni qo'llash falokatdir.[1]

Davlat tilida ish yuritish bo'yicha yaratilgan qo'llanma va darsliklarning aksariyatida nazariy ma'lumotlar ustunlik qiladi. Quyidagi darslikda esa, talabaga matn tuzish ko'nikmalarini hosil qiluvchi o'quv topshiriqlari berilgan:

24-topshiriq. o'zingiz tanlagan fan yo'nalishidagi darslikdan biror matn parchasini o'qing, so'ng undagi ixtisoslik atamalarini boshqa ma'nodoshlari bilan almashtirib, mustaqil ravishda matn yarating. Asl va ijodiy matn o'rtasidagi farqni izohlang. Esda tuting Ixtisoslikka oid matn tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: 30 30 - matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish; - ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinli joylashtirish; - so'z va atamalarni imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish; - kasbdoshlarga unchalik tanish bo'lmagan yoki faol qo'llanmaydigan atama, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish; - ixtisoslikka oid atamalarni boshqa tillardan o'zlashtirish, so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish; - kasb-hunar so'zlari va atamalarini o'rinsiz takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish va boshqalar.

T. Saydaliyev "O'zbek tilida ish yuritish bo'yicha mashqlar to'plami"ni ishlab chiqqani bu borada amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkonini beradi.

20-topshiriq. Lug'atdan ajratib yoziladigan so'zlarga 10 ta misol toping va ulaming 4 tasi ishtirokida gaplar tuzing.

18-mashq. Matnni o'qing. Ajratib yoziladigan so'zlarni aniqlabl tuzilishini izohlang. — ... Maqsadlari juda ochiq! Bittasi mingboshi bolmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga minmoqchi, uchinchi yana bir shahami o'ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmongulgabo'lgan adovatini qipchoqni qirib alamdand chiqmoqchi! Menga qolsa o'rtada shundan boshqa hech gap yo'q, o'g'lim! Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni nima ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichgan mansabparast, dunyoparast muttahaamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam boshimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'liga qoldirgan bo'lurmiz. O'z naslini kofir qo'liga tutqin qilib topshiruvchi — biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni kofirxona qilishga hozirlangan biz itlar, yaratuvchining qahriga albatta yo'liqarmiz! Temir ko'ragon kabi dohiylarning, mirza Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilganlari bir halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, Tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalarini yetim, xonalarini vayron qiluvchi zolimlar — qurtlar qushlar, yerdan o'sib chiqqan giyohlar qarg'ishiga nishonadir, o'g'lim! A. Qodiriy, "Otkan kunlar"dan.

19-mashq. Juft so'zlarai ajratib oling va daftaringizga ko'chiring. Ulaming ma'nosini tushuntiring.

Urf-odat, nim pushti, yarim orol, tez-tez, baxt-saodat, dori-darmon, toshko'mir ng oyoq, tasdiq etdi, uch-to'rt, yoza-yoza, o'g'il-u qiz, qosh-qovoq, olgan bo'ldi,

qo'rqapisa, shu on, tokqaychi, yuzma-yuz, hovli-joy, so'ramaynetmay, olaqarg'a, asbob-uskuna, yer-u osmon, sap-sariq, hol-ahvol, ko'ksulton, keta ber, yoz-u qish.

21- topshiriq. Quyidagi so'zlar yoniga mos so'zlar qo'yib juft so'zlar yasang va yozishini izohlang. Qarindosh - ..., kuch - ..., qovun - ..., yoel - non - osh - o'yin - bo'lar - gul - yer - yor — dor - tepsa — ..., temir - asta — oq — chora - kirim - ..., mehr - aytdi - ..., keeha - ..., uzoq.

Rasmiy-idoraviy matnlarni yaratishda mashq va topshiriqlardan tizimli foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, har bir til vositasini nutqiy vaziyatga mos ravishda qo'llay olish, sinonimlarni to'g'ri va o'rinli tanlashga erishish – davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suyarova A.O'zbek tilida ish yuritish. Uslubiy qo'llanma. –Namangan 2018. 19-b.
2. Hasanov A., Ishmuxamedova R. Ish yuritish. Darslik Voris-nashriyoti–Toshkent, 2007, 39-b.
3. Davlat tilida ish yuritish: amaliy qo'llanma / M. Aminov va boshq. - T.: «O'zbekiston nashriyoti» DUK, 2020. - 528 b
4. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish Darslik Toshkent – 2002. 69 b.
5. Saydaliyev T. O'zbek tilida ish yuritish bo'yicha mashqlar to'plami. O'quv qo'llanma. –Toshkent. 2010. 40 b.
6. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish Darslik Uchinchi nashri Jizzax DPI Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent, 2008. 509 b.

XITOY KLASSIK ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Tuxtayev Sirojiddin Toshpo'latovich
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy klassik adabiyotining rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqiladi, muhokama qilinadi. Qayd etilishicha, xitoy adabiyoti butun dunyoga mashhur. Xitoy adabiyotida asosiy narsa esa uning universal tamoyilidir. She'rlar ierogliflarda yozilgan va bu ularning birinchi xususiyati. Ammo ieroglif yozuvi tarjimani boshqacha qiladi, unga ieroglif ortidagi tushuncha va so'zlarni tanlashda ko'proq erkinlik beradi.

Kalit so'zlar: Xitoy mumtoz adabiyoti, she'r, ieroglif, asar, talqin, tarjimashunoslik.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КИТАЙСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Тухтаев Сирожиддин Тошполатович
Преподаватель Государственного университета мировых языков
Узбекистана

Аннотация: В статье рассматриваются этапы развития китайской классической литературы. Отмечается, что китайская литература известна во всем мире. Главным в китайской литературе является ее общечеловеческое начало. Стихи написаны иероглифами и это их первая особенность. Но иероглифическое письмо делает перевод иным, давая ему большую свободу в выборе понятий и слов, стоящих за иероглифом.

Ключевые слова: китайская классическая литература, стихотворение, иероглиф, произведение, интерпретация, переводоведение.

STAGES OF DEVELOPMENT OF CHINESE CLASSICAL LITERATURE

Tukhtayev Sirojiddin Toshpolatovich
Teacher of the State University of World Languages of Uzbekistan

Abstract: The article examines the stages of development of Chinese classical literature. It is noted that Chinese literature is known all over the world. The main thing in Chinese literature is its universal principle. The poems are written in hieroglyphs and this is their first feature. But hieroglyphic writing makes the translation different, giving him greater freedom in choosing the concepts and words behind the hieroglyph.

Key words: Chinese classical literature, poem, hieroglyph, work, interpretation, translation studies.

Introduction. The history of Chinese literature has about three thousand years. The wide scope of distribution, originality and influence on the literature of neighboring peoples put it on a par with the literatures of Europe, India and Persia. Like European literature before the 19th century, Chinese literature was until recently the prerogative of an aristocracy – not a military or mercantile ruling elite, but a class of government-employed «learned men» whose power rested on monopoly possession of the secrets of reading and writing. The Confucian bureaucracy, formed in the first period of the unification of the Empire, faded into the shadows in the troubled era of the interregnum (189-589), but, with the exception of another period of «eclipse» in the years of the Mongol dominion (1206-1368), managed to maintain its position until the 20th century. Like the clergy, she was distinguished by adherence to the code of orthodox moral teaching, petty observance of the ceremonial way of life, reverence for the authorities and conservatism. In literature, this was expressed in the neglect

of originality, the cultivation of traditional themes and the retreat into literary and historical allusions.

Literature review. Popular literature (lyric poetry, drama and prose), designed to entertain rather than instruct, up to the 20th century. did not have the status of «serious» art. When in 1772 Emperor Jian Long decided to compile lists of all literary works of artistic value (they included 10,254 works, 3,461 of which were reproduced), the latter were divided into four categories:

- 1) classical texts (qing) and commentaries on them;
- 2) historical legends;
- 3) philosophical treatises;
- 4) fiction [8].

This systematization was reflected in the concept substantiated in the first fundamental work on literary criticism, *Wenxin Jiaolong*, written by Liu Se in the 5th century. In this treatise, literature is seen as the main element of Confucianism, and the value of a work is determined by its proximity to the modern era and adherence to the wisdom of the ancients.

The history of classical Confucian texts is not entirely clear. Although their redaction is attributed to Confucius (551-479), they did not take their final form until the last two centuries.

1) The *Yijing* (Book of Changes) contains 64 pentagrams, each of which consists of 6 incomplete or complete lines, originally intended for the divination ritual. Later additions interpreted the occult meaning of the diagrams and laid the foundations of metaphysics;

2) *Shujing* (Book of Historical Traditions) was created as a collection of speeches, polemical judgments and other texts dating from the period from the 3rd millennium to the 6th century, but most of these works are certainly later inclusions;

3) The *Shi Ching* (Book of Songs) is a collection of folk songs and ritual hymns composed between 1200 and 600. All of them, including innocent love songs, were interpreted in the spirit of moral allegories;

4) *Li ji* (Book of rituals) contains discourses on the principles of behavior and detailed descriptions of palace and private rituals;

5) *Chun Qiu* (Annals of Spring and Autumn) – an artless chronicle of the state of Lu in the period from 722 to 484.

It is appended with two texts of explanatory notes; the longer one, *Zuo zhuan*, is rather a collection of stories about all the feudal states, distributed along with the early editions of the chronicle. *Zuo zhuan* becomes the first of the great historical chronicles and one of the masterpieces of Chinese literature.

The greatest of the early commentators on the classical texts was Cheng Xuan (127-200), whose commentaries served as a standard until the advent of the *Chu Ci* school (1130-1200), which, by adopting some aspects of Taoism and Buddhism, gave Confucianism a more emotional and metaphysical coloration. *Chu Tzu* substantiated the essence of his teaching in two chapters of the *Book of Rituals*: *The Great Teaching* and *The Treatise on the Base*. Along with the texts of *Lun Yu* (*The Judgments and Discourses of Confucius*) and *Mencius* (372-289), these two chapters made up the *Tetrabook*, which was revered in much the same way as the *Five Classical Texts*.

The greatest work of Chinese philosophical literature is the book of *Chuang Tzu*, written in the 4th century.

Ancient Chinese fiction includes poetry and prose by individual authors, as well as anthologies, the first of which, *Wen Xuan*, was compiled around 530. *Xiao Dong*, Prince of the House of Liang. In addition to poetry, it included 33 types of prose texts.

Discussion. The outstanding researcher and translator of Chinese lyrics, Professor Lev Zalmanovich Eidlin, spoke very well about the peculiarities and attractive power of Chinese literature: “Chinese literature is known in the world ... What is important

and most attractive for us in Chinese classical literature? Unusualness, national astringency, everything that she reflected from customs, from a worldview, from nature and what distinguishes it from all other poetry of the East and West? If it were only so, then nothing but curiosity, and she would not arouse a non-native reader. But we see how the translations of her beautiful samples draw hearts to themselves. And this means that the main thing in Chinese literature is still its universal human principle, which is contained in it and, before translation, is hidden from an unprepared eye behind a mysteriously mesmerizing ornamental wall of hieroglyphs [6, p. 62].

Is there really so much you need to know in order to feel the beauty and naturalness of the lines of a building or vase, to delve into the meaning of the painted picture, if even the genius of a people far from us created them? There are no obvious barriers between the viewer and the object of his admiration; here a stranger can sometimes be no less a connoisseur than a compatriot of the artist. The poetry of another nation, for communication with itself, requires the translation of words and the transmission of thoughts, which is always not easy and which is not always available. Thanks to translation, the literature of countries and peoples, in their aggregate, rightfully becomes the literature of the whole world, that is, the literature of universal humanity.

Thanks to the translation, we also learned Chinese poetry. And they realized that her national identity is only a frame for our common thoughts and feelings. And, realizing this, without the slightest prejudice, but rather in anticipation of new joys, we bow over what the translator of Chinese poets was able to convey to us [2, p. 247].

The poems are written in hieroglyphic characters. This is their first feature, which could not have been noted, since it is so obvious. But the hieroglyphic writing makes the translation different, giving him greater freedom in choosing the concepts and words behind the hieroglyph [7, p. 70]. We would be mistaken if we assume, as is sometimes done, that a Chinese poem is a pictorial spectacle and is itself a kind of painting. Such an assumption, if not a final lie, then, in any case, is a huge exaggeration, especially for the modern Chinese reader, who sees in the hieroglyph an expression of a concept, and nothing more, and forgets about the beginning of the origin of the sign. But the concept embraced by a hieroglyph is “many-sided” and wordy, and thus a Chinese poem is, of course, more subordinate to the reader’s imagination than a poem written in phonetic alphabet. The translator is also a reader, and he chooses one of the number of readable interpretations available to him and offers it to his reader ...” [1, p. 234]. In connection with this circumstance, we should always pay attention not only to the authors of Chinese literary works, but also to the names of their translators.

Let us analyze the classic work of Chinese literature “Meng Chiang-nyu”. According to the Zuo Zhuan text, in 550. The troops of the Qi kingdom marched against the Ju □ □ kingdom (now the Ju county of the Shandong province), and the general of the Qi kingdom Qiliang died. His wife Mengjiang was waiting for her husband’s coffin outside the city. She wept bitterly and refused to the head of the kingdom Chuang-gun in his demand to honor the memory of the deceased and express her condolences. 200 years later, a record appeared in the historical chronicles, which stated that “Qiliang’s wife was waiting for her husband’s coffin and cried, and the head of the Chuang-gun kingdom sent an official to honor the memory of the deceased. “During the reign of the Western Han dynasty, this plot was further developed – in it there was a plot about the “collapse of the wall”: “Qilian’s wife was crying, standing near the city wall, and the wall collapsed. “In “Le Nu Chuang”, this plot has a tragic ending – about the suicide of Qiliang’s wife in the Zi River. The ancient legend of Qiliang’s wife served as the prototype for the story of Meng Chiang-nyu [6, p. 72]. The content of the legend has changed significantly compared to the prototype. A woman from the Qi kingdom who lived during the Chunqiu period turned into Meng Chiang-niu, who lived during the reign of Qin Shihuang. The central storyline was chronologically linked to the time of the active construction of the Great Wall of

China.

One of the favorite genres of literature in China was the novel. The novel appears in China relatively late, at the turn of the 13-14th centuries, and its heyday falls on the Ming (14-17th centuries) and Qing (17th – early 20th centuries) epochs. The breeding ground for the novel was: firstly, Chinese history, most often in its folklore adaptations; secondly, popular syncretic religious beliefs. The appeal to historical figures and facts created the effect of credibility. And the elements of fiction, borrowed from folk religion, increased the amusement.

Chinese classical novels are divided into the following types: historical, heroic or adventurous, love, fantasy, judicial. The Chinese forensic novel was akin to the heroic one, it combined an entertaining historical plot with adventurous heroic elements.

The most famous work in the genre of judicial novel is *The Case of Judge Shi* (19th century). Court novels became especially popular in the 90s of the 19th century. The content of a forensic novel usually followed a single scheme. In accordance with this scheme, the characters in the novel were distributed over three levels.

At the very top was the emperor – wise and magnanimous. As a rule, he always remains out of criticism. This is the supreme and invariably just ruler of the destinies of his subjects. One step below are officials – capital and local, honest and dishonest, good and bad [9, p. 75]. Even lower on the social ladder are the Knights of Green Forests, marginal social elements.

Result. Fantastic elements were of great importance in judicial novels. Very often, only with the help of miraculous powers, the heroes managed to extricate themselves from a difficult situation [5, p. 200]. At the same time, the novelists did not really care about the measure of reasonable believability.

The famous Russian researcher and translator of Chinese classical literature V.F. Soroki noted: “The variety of themes and characters of the Chinese drama of the first centuries of its existence corresponds to the variety of components that make up its ideological basis. Among them are Confucianism, Taoism and Buddhism, mainly in their vulgarized versions, folk religious syncretism, legends and superstitions, orthodox housebuilding and the sprouts of a humanistic worldview noted above. This variegation reflected the comparative tolerance inherent in the Yuan era towards different faiths. Confucianism, which prevailed under the Sunakh, lost its dominant position; the court patronized, or, in any case, did not obstruct, not only the followers of such traditional Chinese religions as Buddhism and Taoism, but also Muslims, Nestorians and even Catholics. And yet the ideas of Confucianism in its later interpretation occupy the most prominent place in the drama. This is, first of all, the idea that the only occupation worthy of a noble person is the study of the Confucian canon in order to pass the exams and then serve the country and the sovereign with faith and truth [6, p. 79]. This also includes theses about the unconditional respect for elders, about the dominant role of men in the family. It would be unfair to point out only the negative function of Confucianism. Mainly figures of honest servants of the state, fighting against intriguers or defending the country from invaders, were painted in Confucian tones.

For few nations, poetry is as natural and significant as it is for the Chinese. Folk song flourished in China at all times, and Chinese drama is essentially a poetic art form. Starting from the 7th the composition of a poetic text is included in the program of state examinations. From time immemorial, the quotation of poetry has been important in diplomacy and official life; composing and reciting poetry is a favorite pastime. Chinese poetry is predominantly lyrical. When its purpose is not formal skill, it is intended for some special occasion - parting, gift, or perpetuates some precious moment of being. Like Chinese painting, it is created with «light touches». The most revered is the form of the poetic miniature «Quejiu» – a «truncated» poem of four lines. The Book of Songs contains songs dedicated to love and war, rural labor and

holidays.

The development of dramatic literature in China is closely connected with the theatre. While official literature was under the strict control of the state, «folk» literature developed among the common population, which was distinguished by a variety of trends and originality of plots. All this was embodied on the stage and led to the creation of a school of Chinese theater, known today throughout the world. It was thanks to the emergence of «Yuan drama» as a literary trend during the reign of the Mongolian Yuan dynasty that the famous «shadow theater» became widespread, and subsequently Peking and Shanghai operas were created.

Conclusion. In addition, the exaltation of the learned class – the main bearer of Confucian ideals – in the first decades of the Yuan rule bore a tinge of social protest. Later, when the Confucians were again brought closer to the court, the role of the exponent of nonconformist ideals again returned to Taoism and Buddhism with their refusal to serve the powers that be and especially the preaching of avoiding the “dusty world”. Such sentiments were most widespread during the last period of Mongol rule, when uprisings, wars and social anarchy engulfed a significant part of China, when life again began to seem unstable and full of dangers.

References:

1. Alekseev V.M. Trudy po kitajskoj literature: v 2 kn. / Sost. M.V. Bankovskaya. – M.: Vost. lit. RAN, 2002-2003.
2. Alimov I.A., Kravcova M.E. Istoriya kitajskoj klassicheskoj literatury s drevnosti i do XIII veka: poeziya, proza. – V 2 chastyah. – SPb., 2014. – 1408 s.
3. Bankovskaya M.V. V.M. Alekseev i Kitaj: kniga ob otce. – M., 2010. – 487 s.
4. Golygina K.I. Kitajskaya literatura v Rossii // Duhovnaya kultura Kitaya: enciklopediya v 5 t. – T.3: Literatura. – M., 2008. – S.176-193.
5. Ejdlin L.Z. Kitajskaya klassicheskaya poeziya // Klassicheskaya poeziya Indii, Kitaya, Korei, Vyetnama, Yaponii. – M.: Hud. lit., 1972. – S.193-203.
6. Filonov S.V. Istoriya literatury Kitaya. // Uchebnoe posobie. – Blagoveshchensk, 2015. – 90 s.
7. Kitajskaya klassicheskaya drama / Per., predisl. k drame «Zapadnyj fligel» i komment. L. Men’shikova, (1960-1966); obshchee predislovie V. Petrova, s. 5-20 (1966). – SPb.: «SeveroZapad Press», 2003. – 416 s.
8. Kravcova M.E. Hrestomatiya po literature Kitaya. – SPb.: Azbuka klassika, 2004. – 766 s.
9. Malinovskaya T.A. Ocherki po istorii kitajskoj klassicheskoj dramy v zhanre czaczyuj (XIV-XVII vv.). – SPb.: Izd. SPbGU, 1996. – 240 s.
10. Alimov I.A., Kravcova M.E. Istoriya kitajskoj klassicheskoj literatury s drevnosti i do XIII veka: poeziya, proza. V 2 chastyah. – SPb.: Peterburgskoe vostokovedenie, 2014. – 1408 s.

O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDAN MASHQ TURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Umarova Nigora Zaynitdinovna,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri*

Annotatsiya: maqolada oliy ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitishda mashq turlaridan samarali foydalanish, texnika yo'nalishi talablariga o'zbek tili bo'yicha belgilangan ko'nikma va malakalar hamda ularni shakllantirishga o'quv topshiriqlargadoir taklif-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, mashqlar tavsiflangan, tasnif etilgan hamda yangi darslik va qo'llanmalarida grammatik va nutqiy mashqlar qanday bo'lishi haqida taklif hamda namunalari berilgan.

Kalit so'zlar: mashq, mashq turlari, grammatik mashqlar, oliy ta'lim, nutqiy ko'nikmalar, o'zbek tili, malaka, kompetensiya, DTS, o'quv topshiriqlari, fonetik mashqlar, metodika, takomillashtirish, darslik, qo'llanma, zamonaviy o'quv topshiriqlari, leksik mashqlar, o'qib tushunish mashqlari

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИДОВ УПРАЖНЕНИЙ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

*Умарова Нигора Зайнитдиновна,
заведующая кафедрой Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова*

Аннотация: в статье описывается эффективное использование видов упражнений при преподавании узбекского языка в системе высшего образования, навыки и квалификации, установленные по узбекскому языку в требованиях технического направления, а также учебные задания для их формирования, и предложения-соображения. Упражнения также описаны, классифицированы, а новые учебники и руководства содержат рекомендации и образцы того, на что похожи грамматические и разговорные упражнения.

Ключевые слова: упражнение, типы упражнений, грамматические упражнения, высшее образование, речевые навыки, узбекский язык, квалификация, компетентность, DTS, учебные задания, фонетические упражнения, методика, совершенствование, учебник, пособие, современные учебные задания, лексические упражнения, упражнения на понимание прочитанного

EFFECTIVE USE OF TYPES OF EXERCISES IN UZBEK LANGUAGE LESSONS

*Umarova Nigora Zaynitdinovna,
Head of the Department of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov*

Abstract: the article describes the effective use of types of exercises when teaching the Uzbek language in the higher education system, the skills and qualifications established in the Uzbek language in the requirements of the technical direction, as well as training tasks for their formation, and suggestions-considerations. Exercises are also described, classified, and new textbooks and manuals contain recommendations and samples of what grammar and conversational exercises are like.

Keywords: exercise, types of exercises, grammar exercises, higher education, speech skills, Uzbek language, qualification, competence, DTS, training tasks, phonetic exercises, methodology, improvement, textbook, manual, modern training tasks, lexical exercises, exercises for reading comprehension

Kirish. O'zbek tilidan yangi bilim va ko'nikmalarni egallash mashqlar vositasida


amalga oshadi. Yangi material taqdim qilinib, namuna berilgandan so‘ng, ushbu materialdan nutqda foydalanishni o‘rgatish bosqichi va uni mahorat darajasiga yetkazish jarayoni ham o‘quv topshiriqlari zimmasidadir. Talaba grammatik shaklni ishlatish jarayonida zarur ko‘nikmani ham mashqlar vositasida o‘rganadi, bu holda uni ishlatish mahorati yetarlicha tez shakllanadi. Barcha turlardagi mashqlar tabiatda kommunikativ bo‘lishi kerak. Mashqlar grammatik yo‘nalishda va nutqqa xos bo‘lish mumkin, ya‘ni ko‘nikmalarni shakllantiradigan hamda nutq qobiliyatlarini rivojlantiradigan mashqlar, tayyorgarlik mashqlari.

Bu borada X. Muxitdinovning “Mashq o‘quv mashg‘ulotlarining alohida turi bo‘lib, ular yordamida berilgan bilimlar asosida o‘quvchilarda tegishli malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Til ta‘limida mashqlarning o‘rni juda katta. Til tizimi o‘zining ko‘p qirraliligi, birliklarining struktural va funksional xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadigan hodisa, shu bois til ta‘limidagi mashqlar ham turli-tuman ko‘rinishga va tuzilishga ega bo‘ladi. Ona tili ta‘limidan farqli ravishda boshqa tilni o‘rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, keyingi paytlarda bunday mashqlarni ayrim metodistlar nutq mashqlari va til mashqlariga ajratishni tavsiya etmoqdalar ,

E.Davronov topshiriqlarga ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada “topshiriq”, “tarbiyaviy topshiriq”, “intellektual”, “muammo” atamali bilan, “mashq” “mustaqil ish” atamali bilan birga qo‘llaniladi. A.N.Leontiev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: “Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo‘yilgan maqsaddir”. U topshiriqning o‘ziga xos xususiyatlarini ta‘riflash uchun “ehtiyoj”, “motiv” va “faoliyat” atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o‘quv vaziyatida sub‘ekt va ob‘ektning o‘zaro ta‘sirini, bilimlarni o‘zlashtirish, ularni takomillashtirish bo‘yicha sub‘ektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o‘quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o‘quv material bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, “o‘quv topshirig‘i o‘quv maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialining o‘zgartirilgan shaklidir” .

Ona tili ta‘limida mashqlar – bilim berish emas, ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir .

Umuman, quyidagi mashq turlari mavjud:



Ular haqiqiy nutq amaliyotida ma‘ruzachining vazifasiga mos keladigan kommunikativ vazifaga ega bo‘lishi kerak. Buni yodda tutgan holda, tayyorgarlik mashqlariga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

- 1) kommunikativ vazifaning mavjudligi;
 - 2) vaziyatlararo bog‘liqlik;
 - 3) ular nisbiy aniqlik va bajarilish tezligini ta‘minlaydigan tarzda qurilishi kerak.
- Metodikada, ishlash uslubiga ko‘ra, tayyorgarlik mashqlari taqlid, almashtirish,

transformatsion va reproduktivga bo'linadi.

1. Taqlid mashqlari. Ularning maqsadi – taqdim etilgan tayyor namunalarni qayta-qayta tinglash va talaffuz qilish. Talabalar o'zlari bu yerda hech narsa yaratmaydilar: ular tayyor shakllarni olishadi va hech narsani o'zgartirmasdan ulardan foydalanadi. Bunda topshiriqning asosiy sharti “Tinglang va takrorlang” tarzida bo'ladi. Taqlid mashqlarining ham bir nechta turlari mavjud:

1. Savollarga qisqacha javoblar:

– Sayrga borasizmi?

– Ha, boraman. (Yo'q, bormayman.)

Ushbu mashq haqiqiy muloqot harakatini taqlid qiladi.

2. Muqobil savollarga qisqa javoblar:

– Maktabga borasizmi yoki do'konga?

– Maktabga.

Bu yerda talabalar javob berish imkoniyatiga yega.

3. Qabul qilish mazmunidagi mashqlar:

– Men hozir kutubxonaga boraman.

– men ham kutubxonaga boraman. (Bu yerda siz so'zlashuv uslubidagi so'zlarni taklif qilishingiz mumkin: Ha? Bu yaxshi! Qanday qiziq, men ham ... va hokazo.)

4. Aniqlashtirish mazmudagi mashqlar.

– Men hozir do'konga boraman.

– Do'konga?

– Ha, do'konga.

Taqlid mashqlari juda samarali, ular qiyinchiliklar sabab bo'lmaydi, muloqot illyuziyasini yaratish, yangisini “erkin” egallash shakllangan, psixologik qulaylik muhitini yaratadi.

2. Almashtirish mashqlari – bu yerda talabalar berishlari kerak bo'lgan taklif mavjud jumlaning boshqa leksik tarkibi, qabul qilingan tuzilishga boshqa leksik birlikni almashtiriladi:

– Men hozir kinoga boraman.

– dorixonaga?

– Va keyin shifoxonaga.

3. Transformatsion mashqlar – bu yerda talabalarning o'zlari leksik birlikni to'g'ri shaklda ishlatishi kerak:

– Men qalam sotib olmoqchiman.

– qalamingiz yo'qmi?

4. Reproaktiv mashqlar – bu yerda talabalar o'zlari leksik birlikni tanlaydilar, uni o'qitiladigan shaklda ishlatadilar. Bunday mashnlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Savollarga bepul javoblar:

- Shanba kuni qayerga ketyapsiz?

- Qachon yekskursiyaga borasiz?

2. Mashqlar - “guess”kabi o'yinlar:

Va endi shanba kuni qayerga borishimni taxmin qilyapsizmi?

- Muzeyga

- Muzeyga? Yo'q, muzeyga emas.

- Teatrga.

- Teatrga? Yo'q, teatrga ham emas va hokazo.

3. Turli xil obyektlar, diagrammalar yordamida mashqlar, kartalar.

Nutq mashqlari – ular nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, kommunikativ vazifa. Bular « nutqiy faoliyatining har xil turlarida tabiiy muloqot mashqlari hisoblanadi. «Savol tug'iladi grammatik mavzuni o'rganish doirasida talabalarga nutqiy mashqlarini berish kerakmi? Axir, bu grammatikani o'rgatish emas, balki gapirishni

o'rgatishdir. Grammatikani o'rgatish orqali biz amaliy dars bermaymiz. Ko'p sonli nutqiy mashqlar orasida biz uchta katta guruhni ajratamiz:

1. Matnni o'rgatish mashqlari (O'qilgan, eshitilgan, ko'rilgan). Ular kommunikativ asosga ega. Lekin nutqiy mashqqa aylanishi uchun quyidagi shartlar zarur: bu odam uchun hikoya bo'lishi kerak, matn notanish bo'lishi kerak, shunda u ma'lum bir kommunikativ vazifa bilan qayta hikoya qilinadi.

2. Vaziyatli mashqlar. Bu yerda vaziyat faqat suhbat mavzusi yoki suhbat o'tkaziladigan joy emas. Vaziyat – bu nutqiy harakatlarini rag'batlantiradigan omillar majmuasi. Bunday omillar “aktyorlar” ning o'zlari ularning ijtimoiy rollari, ularning munosabatlari, xarakterlari, motivlari, shuningdek, vaziyat rivojlanadigan sharoitlar. Masalan, siz xalqaro yoshlar lagerida dam olmoqdasiz, sizga bayram oqshomi uchun menyu ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Ushbu muammoni hal qilishda talabalar o'zlarining barcha bilimlari – til vositalaridan foydalanadilar.

3. O'yin mashqlari – talabalar orasida mashhur, ular auditoriyada tabiiy jonli muloqot va ijobiy his-tuyg'ular muhitini yaratadilar, bu tilni o'qitishda ayniqsa muhimdir. Til bu yerda aloqa vositasi sifatida ishlaydi, chunki o'yinning maqsadi taxmin qilish, g'alaba qozonish. Bunday holatda talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi, Masalan:

1. «Bu kimligini taxmin qiling.» Talabalar ikkita jamoaga bo'lingan, bittasi – taxmin, boshqa-taxmin.

2. «Portret orqali bilib oling.»

3. «Shaharni kim yaxshiroq biladi.»

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha turdagi o'yinlar, tanlovlar dam olish, “jiddiy” faoliyatdan chalg'itish. Aslida, barcha turdagi o'yinlar har qanday shaklni tayyorlashning yakuniy bosqichidir. O'rganilgan har bir grammatik shakl tayyorgarlik mashqlarining “qadamlari” orqali izchil olib borilishi kerak.

2. Leksik mashq va uning turlari

1. O'qituvchi tomonidan berilgan so'zni izohlang.

2. O'qituvchi tomonidan berilgan suratni bir so'z bilan ifodalang.

3. Tinglangan jumladagi so'zlar sonini aniqlang.

4. So'zga yetishmayotgan harflar yoki harf birikmalarini kiriting (rasm asosida yoki usiz).

5. Ma'lum elementlar asosida so'zning ma'nosini aniqlang (ildiz, prefiks, qo'shimchalar).

6. Belgilangan mavzu bilan bog'liq so'zlar bir qator tanlang, va boshqalar.

Talabalarining retseptiv va samarali nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan mashqlar.

1. Shakl so'zlar, iboralar, foydalanish quyida berilgan asoslar, qo'shimchalar.

2. Qatordan tanlang va bir xil asosga ega, boshqacha so'zlarni yozing.

3. Bu bilan birlashtirilishi mumkin bo'lgan fe'l va otlarni nomlang.

4. Frazelogik birikmalarni bitta so'z bilan almashtiring.

5. Gapni ketma-ket toraytirish, uni har safar bir so'z bilan qisqartirish va aksincha, ketma-ketlik qiling.

6. O'qilgan matnni takrorlang (rejaga muvofiq, savollar bo'yicha, tomonidan kalit so'zlar, rasmlar orqali).

7. Nomlangan leksik birliklardan foydalanib, dialogni monolog shaklida takrorlang.

8. Ulardan foydalanib monolog asosida dialog yarating.

9. Tinglangan hikoyaning rejasini tuzing.

10. Hikoyani tugating.

Talabalarining samarali nutq ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shadigan mashqlar.

1. Stol ustidagi narsalarni nomlang.
2. Rasmdagi soʻzlarni tanlang.
3. Taklif etilgan vaziyatga soʻzlarni tanlang.
4. Avval ushbu soʻzlar yordamida rasmni tasvirlab bering, keyin mustaqil ravishda bayon qiling.
5. Tavsif bering (xona, fasllar, odamning tashqi koʻrinishi va boshqalar.).
6. Kalit soʻzlar asosida hikoya qiling.
7. Muayyan mavzu boʻyicha hikoya tuzing.
8. Berilgan mavzu boʻyicha esse yozing va boshqalar.

Talabalar lugʻat daftariga ega boʻlishlari kerak. Yangi soʻzlarni yozib oling. Bu talaba qaysi soʻzlarni aytishi kerakligini koʻrsatadi. Soʻzlarni yozishning toʻgʻri usulini ishlab chiqish lugʻat boʻyicha umumiy ishda muhim omil hisoblanadi. Soʻzlarni yozish va lugʻatni qayta yozish jarayoni ularni yodlashga yordam beradi. Yangi soʻzlarni yozish nafaqat kirish, balki lugʻatni tuzatishning boshlanishi hamdir.

Matnni oʻqishni oʻrgatish ishi uni shakllantirish bosqichidan boshlanadi. Oʻqish texnikasi, ovoz chiqarib oʻqish va oʻzi uchun oʻqish qobiliyatlari. Bu ish tilning fonetik jihati bilan uzviy bogʻliq holda amalga oshiriladi:

talaffuzni shakllantirish bilan oʻrganilayotgan tilning ritmik-melodik va intonatsion modellarini oʻzlashtirish;

ovoz chiqarib oʻqish harf-tovush nisbatlarining mustahkam assimilyatsiyasini taʼminlashi, mahoratning shakllanishiga hissa qoʻshish;

nutq oqimini semantik va birlashtirilgan birliklarga boʻlish ritmomelodik munosabatlar va maʼlum bloklar tomonidan grafik materialni idrok yetish.

Shu munosabat bilan metodik adabiyotlarda ovoz chiqarib bajariladigan quyidagi mashqlar tavsiya etiladi.

1. Shakllanishga qaratilgan fonetik mashqlar.
2. Elementlarning asta-sekin toʻplanishi bilan jummalarni oʻqish (avval sekin harakatda, keyin esa tobora tezlashib borayotgan surʼatda).

Masalan:

- Dildora oʻqiydi.
- Dildora kitob oʻqiyapti.
- Dildora qiziqarli kitob oʻqiyapti.
- Dildora Samarqand haqida qiziqarli kitob oʻqiyapti.

3. Tasdiqlovchi va soʻroqni muqobil oʻqish.

4. Jummalarni fonetik tahlil qilish.

matn (frazologik urgʻuni, semantik guruhlarni topish, intonatsion konstruksiyalar turini aniqlash).

5. Oldindan ishlangan kichik parchalarni oʻqish uni tashkil etuvchi alohida iboralarni oʻqish.

6. Kichik sheʼrlar va nasrlarni yodlash parchalar, maqollar, soʻzlar, iboralar, til burmalari va ularni kitobdan keyingi oʻqish.

7. Xuddi shu materialni eshitish orqali yodlash.

8. Sheʼriy va nasriy parchalarni ifodali oʻqish.

M.Usmonova tomonidan tuzilgan “Mashqlar toʻplami”da berilgan mashqlar asosan grammatik malaka hosil qilishga qaratilgan bir tilli mashqlardan iborat boʻlsa-da, 12 ta mashqdan iborat variantlar majmuasining oxirgi mashqlariga bogʻlanishli matnlar va tarjima mashqlari kiritilgan boʻlib, ular talablarning soʻz boyligini, grammatik mavzularni qanchalik puxta oʻzlashtirganliklarini aniqlash, egallangan bilim va koʻnikmalarni ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllay olishlarini tekshirib koʻrishga qaratilgan topshiriqlar berilgan.[1]

Agar darsni qanday tashkil etish, xususan, oʻzbek tili darslarida, fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini oʻqitish oʻqituvchining ixtiyoriga toʻliq topshirib qoʻyilsa, talablarning adabiy talaffuz hamda imloga oid koʻnikma va malakalari bir xil boʻlmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu

ma'noda talablarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo'lib qoladi.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, talab uchun o'ta zarur bo'lgan to'g'ri talaffuz, imloviy savodxonlik, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari, so'z boyligining muntazam oshishi uzuq-yuluq mashg'ulotlar bilan emas, balki tizimli ravishda, maxsus savol, mashq va topshiriqlar tizimi asosida uzluksiz, amaliy ishlash orqali hosil qilinadi. Bu – tizimli takrorlanishga olib keladi, natijada ko'nikma va malaka shakllana boshlaydi[2], rivojlanadi.

O'qishni o'rganish uchun mashqlar.

O'qish murakkab nutq mahorati sifatida uning tarkibiy qismlarini o'zlashtirish asosida o'qitiladi; uning tarkibiy qismlarining sintezi barcha xususiyatlarga ega bo'lgan matnni o'qiyotganda paydo bo'ladi.

Natijada ma'lum bir mahoratning shakllanishi sodir bo'ladi. Xuddi shu tartibdagi qiyinchiliklarni maxsus tashkil etilgan takrorlash magg'ulotlari bartaraf etadi. Ko'nikmalarni shakllantirish darajasi til faktlarini avtomatlashtirilgan holda o'zlashtirishni tan olishga erishishi kerak, bu esa talab e'tiborini shakldan tarkibga o'tkazishga imkon beradi.

Mashqlar quyidagi sohalarida murakkablashishi mumkin:

– bir vaqtning o'zida hal qilingan vazifalarni oshirish;
– turli darajadagi matn elementlari – so'z, ibora, jummalardan foydalanish tufayli til materialining murakkablashishi, mikrotekst;

– jismoniy mashqlar tezligini oshirish. Matndan oldingi mashqlar-vazifa o'qishning psixologik mexanizmlarini maqsadli shakllantirish, yangi so'zlar va grammatik hodisalarning ma'nolarini tushuntirish va o'qitish ulardan foydalanish.

Til faktlarini o'zlashtirish quyidagiassimilyatsiya bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Idrok – grammatikani namoyish qilish paytida sodir bo'ladi gapdagi hodisa yoki leksik birlik.

2. Taqlid – o'rganilganlarning reproduktiv ortishi, o'qituvchiga ergashish.

3. Kuzatish – turli xil til materiallarini o'qish shakllar va kontekstlar.

4. Foydalanish – bilan jumlar tuzish bo'yicha mashg'ulot o'rganilayotgan til hodisasi.

Til materiali bilan ishlash matndan oldingi mashqlar bosqichida tugaydi. Keyingi bosqichlarda talabalar diqqatiga matn ma'lumotlarini, uning semantikasini tushunishga yo'naltiriladi:

Matndan oldingi mashqlar o'qishga kommunikativ munosabatni shakllantiradi. Matndan keyingi mashqlar – nazoratni ta'minlashi kerak. O'qishni tushunish, matndan oldingi mashqlarda tuzilgan savol va topshiriqlarga muvofiq ma'lumotni semantik qayta ishlashning muvaffaqiyati hisoblanadi.

Lingvistik va ekstralingvistik (kontekstual) tayanchlarga asoslangan taxminlarni ishlab chiqish bo'yicha ishlar quyidagilar bo'lishi kerak. o'qituvchining diqqat markazida va bir qator maxsus mashqlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, uslubiy adabiyotlarda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

1. So'zlar (matn) ro'yxatidan bitta asosli so'zlarni tanlang; ularning ma'nosini aniqlang.

2. Muayyan qo'shimcha asosida so'zlar (matn) ro'yxatidan tuzing; ularning ma'nosini aniqlang.

3. Shaxsni, obyektini, belgi, harakatni bildiruvchi so'zlarini guruhlang.

4. Berilgan so'zlar orasidan, ba'zan imloga o'xshash so'zlarni topib, yetishmayotgan so'z bilan jumlani to'ldiring.

5. Jumlani yetishmayotgan so'z bilan to'ldiring.

6. Matn mazmunini (yakunlashni) taxmin qiling, uni nomlang.

To'liq o'qishni amalga oshirish uchun o'rgatish ham muhimdir. Gap, paragraf, matnda asosiy narsani ajratib ko'rsatish qobiliyati. Shu munosabat bilan quyidagi

mashqlar tavsiya etiladi:

1. Gapdagi asosiy fikrni toping.
2. Jumlada (matnda) muhim bo'lgan so'zlarni (paragraflarni) toping.
3. Taklif etilganlarga e'tibor qaratib, matndagi asosiy fikrlarni toping
4. Matn rejasini tuzing.

Ishbilarmonlik yozishmalari, tuzilishi va leksik va grammatikasini o'zlashtirish diplomatiya kabi biznes yozish turlarining xususiyatlari, tijorat, sanoat sohalarida ham dolzarbdir. Shunday qilib, yozishni o'rgatishning lingvistik asoslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'p janrli matnlar bo'lishi kerak – lingvistik va yekstralingvistik.

Yozishni o'rgatish uchun mashq turlari

Yozma matn tuzilishining murakkabligi, uning kengayishi yozishni o'rganish jarayonini uzoqlashtiradi va qiyinlashtiradi.[1] Nutqiy faoliyatining boshqa turlarini o'rgatishda bo'lgani kabi, yozishni o'rgatishda ham tayyorgarlik va nutq mashqlari qo'llaniladi.

Tayyorgarlik mashqlari quyidagilarga ajratiladi:

1) tegishli leksik va grammatik materiallarni ishlab chiqish (masalan, rahmat, kechirim, tabrik xatlari shakllari; fe'llarning shakllari istaklarni turli uslubdagi xatlarda ifodalash va hokazo.);

2) muayyan janrdagi matnlarning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berish va keyinchalik kengaytirish;

3) yozma ravishda ma'lumot berish va keyinchalik kengaytirish;

Nutq ishlarining har bir turi o'ziga xos tayyorgarlik mashqlariga ega. zarur. Tayyorgarlik mashqlari odatda uyda bajariladi. Masalan, xat yozish uchun savollar berish qobiliyati, ma'lumotni yetkazish qobiliyati, birinchi shaxs nomidan insho yozish uchun ma'lum bir tezisni isbotlash, voqea va hodisani tavsiflash, hikoya qilish kabi ko'nikmalar. Bu auditoriyadagi vaqtini tejash bilan bog'liq, buni og'zaki nutq shakllariga bag'ishlash yaxshiroqdir: ma'lumki bir daqiqada yozish tezligi taxminan 15-25 so'zni tashkil qiladi.

Nutqiy mashqlari. Yozma nutqni rivojlantirishda, ekspozitsiyalar va kompozitsiyalar nutq mashqlari sifatida tan olinadi.

Taqdimot har doim ijodiy jarayondir. Bu dastlabki matn asosida mustaqil kommunikativ asosli bayonotni qurish, deb tushuniladi. Ma'ruzachi manba matnidan chiqib ketadi, umumlashtiradi, tafsilotlar, o'zgartirishlar kiritadi, til dizaynini o'zgartiradi, shaxsiy munosabatni ifodalaydi, baholaydi

Taqdimotning uch turi mavjud.

1. Qisqacha taqdimot-semantik tayanchlarda matnni qisqacha takrorlash; xulosa (matnning asosiy fikrlarini sarhisob qilish);

xulosa; Referat (asar mazmuni va xulosalarining qisqacha mazmuni).

2. Batafsil taqdimotni namoyish etish;

taqdimot matni har qanday tafsilotlarning qo'shimcha tavsiflarini kiritish, kirish, xulosani yozib olish bilan bog'liq bo'lishi mumkin matn, qahramonning tarjimai holini tiklash va hokazo.

3. Erkin taqdimot – tinglashdan keyin bir marta talabalar matn mazmunini yozma ravishda takrorlaydilar, tarkibni o'zgartirish, umuman matn haqidagi taassurotlarini bildirishga harakat qilishadi

Esse – bu talabaning mustaqil yozma ishi. Esse. Matn qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarning asosiy g'oyani shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Vaziyatga ko'ra so'zlar, dasturning semantik va predikativ tuzilmalari, o'zgartirilishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy o'quv yurtlarining texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini davlat tili sifati o'qitishda o'quv topshiriqlaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda

mashqlarning o‘rni muhim. Mashq turlarini mavzuga mos ravishda tatbiq etish talabalarda nutq qo‘nikma hamda malaklarni rivojlantirishga olib keladi. Albatta, oliy ta’limda ham o‘quv topshiriqlarining vazifasiga ko‘ra turlarini jiddiy farqlash, o‘z o‘rnida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухитдинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш Пед. фан. док. ... дис. –Тошкент, 2011. –347 б.
2. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
3. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50 с
4. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.
5. Усмонова М., Азларов Э., Шарипов Ғ. Ўзбек тили (олий ўқув юртлари рус гуруҳлари учун қўлланма). –Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –304 б.
6. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.
7. Чеснокова М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного Второе издание, переработанное Утверждено в качестве учебного пособия редсоветом –Мади Москва Мади 2015. –С. 45.

ONA TILI DARSLARINI TASVIRIY SAN'AT VA TARIX FANLARIGA BOG'LAB O'QITISH ORQALI NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Uteuliyeva Mexriban Ibragimovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: maqolada ona tilini boshqa fanlarga integratsiya qilgan holda o'qitish usullari haqida fikr yuritilgan. Xususan, ona tili mashg'ulotlarida tilni tasviriy san'at namunalariga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda ko'rib tushinish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi, uni rivojlantirish, mezonlari va tamoyillarini ishlab chiqish kabilar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, ko'rib tushinish, savol, o'quv topshiriq, mashq, tasviriy san'at namunalari, tasvirlash, ranglarning ma'nosi, ramzlar, ko'nikma, malaka, bilim, taassurot

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЧЕРЕЗ ПРЕПОДАВАНИЕ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА С ПРИВЯЗКОЙ К ПРЕДМЕТАМ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ИСТОРИИ

*Утеулиева Мехрибан Ибрагимовна,
Преподаватель Ташкентского гуманитарного университета*

Аннотация: В статье рассматривается методика обучения родному языку с интеграцией его в другие дисциплины. В частности, на занятиях по родному языку обсуждались такие вопросы, как методика развития навыка видения у учащихся путем интеграции языка в образцы изобразительного искусства, его развитие, разработка критериев и принципов.

Ключевые слова: речевая компетентность, видение, понимание, вопрос, учебное задание, упражнение, образцы изобразительного искусства, описание, значение цветов, символов, умений, навыков, знаний, впечатлений

DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCE BY TEACHING NATIVE LANGUAGE LESSONS IN CONNECTION WITH THE SCIENCE OF FINE ARTS

*Uteuliyeva Mekhriban Ibragimovna,
Teacher of Tashkent University of Humanities*

Annotation: the article reflects on the method of teaching, integrating the native language into other disciplines. In particular, native language classes discussed methods for developing the skills of visual comprehension in students by integrating the language into visual art patterns, its development, development of criteria and principles.

Keywords: speech competence, visual comprehension, question, instructional assignment, exercise, Fine Arts patterns, representation, color meaning, symbols, skill, competence, knowledge, impression

Ona tili ta'limi boshqa fanlarni rivojlantirishga kata hissa qo'shadigan asosiy fanlardan biridir. Ayniqsa, uni tarix, tasviriy san'at fanlariga bog'lab o'qitish samaralidir. Darslik va qo'llanmalar barchasi o'tmishning har bir qirrasini aks ettiruvchi suratlar bilan to'ladi. Qisqasi, ona tili mashg'ulotlarini tarixiy ma'lumotlarsiz, tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi va aksincha, har bir tasviriy san'at asari o'z tarixiga ega. Buyuk san'at asarlari buyuk tarixni o'zida mujassam ettiradi. Shu ma'noda, tasviriy san'at va tarix o'quv predmetlarini oliy ta'limda ham maktab ta'limida ham o'zaro bog'lab o'qitish, integratsion yondashuvdan samarali

foydalanish ikkala fanga ham yaxshi samara beradi.

Ma'lumki, ona tili o'qitishida ham ko'rgazmalilik prinsipi asosiydir. Harholda, "yuz marotaba eshitgandan bir marotaba kurgan afzaldir" – degan maqol xalq orasida bejiz aytilmaydi. Shu sababli K.D.Ushinskiy, –"rasmni ko'rganda soqov ham tilga kiradi", – deganda haq edi. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik ahamiyati shunchalik yuksakki, bu o'kuv fanni o'qitishda biror dars ko'rgazmasiz o'tmaydi. Bu fanda ko'rgazmasiz o'tilgan dars – dars hisoblanmaydi.

O'qitishning didaktik asoslarini yaratgan Ya.Kamenskiy – "Xudo aqldan butunlay mahrum qilmagan yoshlarning barchasi ta'lim oladi. Insonni aqlli, dono, zakovatli, yaxshi fazilatli, yuksak ma'naviyatli qilib tayyorlashga yordam beradigan barcha narsalar yoshlarga o'rgatiladi. O'qitiladigan narsalar zohiriymas, balki haqiqiy, to'g'ri obyektiv, ilmiy bo'lishi kerak"– deb ko'rsatgan edi.

Ona tilini tasviriy san'at bilan bog'lashda quyidagi o'quv topshirig'idan foydalanish tavsiya qilinadi:

1-topshiriq. Kim ko'proq rang nomlarini biladi?



2- topshiriq. Ranglarning ma'nosi haqida o'z fikringizni og'zaki so'zlab bering.

3-topshiriq. Siz qaysi rangni yoqtirasiz? Nega? Izohlang.

4- topshiriq. Rang bilan bog'liq iboralarga misollar keltirib tavsif qiling.

5-topshiriq. Ranglar bilan bo'liq maqollarni yozma bayon qiling.

6-topshiriq. Ranglarning hayotga ta'siri haqida esse yozib keling!

Shu o'rinda ona tili o'qitishda ranglar yoki sifatlarni o'rgatish tasviriy san'at namunalarini tushunish uchun ranglar anglatadigan ramzlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi:

Quyidagi rasm "Shomahmudovlar oilasi" deb nomlangan bo'lib, u o'zbek xalqining naqadar buyuk ekanini o'zida aks ettiradi. Tomoshabin muzkur suratni tushunishi uchun ko'rinib turgan rangtasvirning o'zi yetarli bo'lmaydi, tarixni bilishi, ikkinchi jahon urushi oqibatlarini yaxshi bilishi kerak.

1-topshiriq. Ko'rib turgan rasmningiz haqida yozing.



Ayrim suratlar aynan tarix bilan, tarixiy voqyealar bilan bog'liq bo'lmasa ham ularning o'z tarixi bo'ladi. Tarixiy shaharlar haqidagi suratlar ham o'quvchi bilimini boyitadi, tasavvurlarini kengaytiradi. Uni o'rganib, tushunganlarini so'zlab, yozib

berish topshirig'i berilsa, dars qiziqarli va samarali bo'ladi:

1-topshiriq. "Samarqand" rasmidan tushunganingizni og'zaki so'zlab bering.

2-topshiriq. Suratda qaysi rang ustuvorlik qiladi, rassom nimani tasvirlamoqchi?

3-topshiriq. Surat haqida eshitganlaringizni yoki topgan yangi ma'lumotlaringizni bo'lishing!

Buyuk Chex pedagogi Ya.O.Kamenskiy: – "dars materiallarini shunday taksimlamoq zarurkim, har bir yangi material o'zidan oldingi materialni davomi bo'lsin va keyingi materialni to'ldirmog'i lozim," – deb yozgan edi. Ma'lumki predmetlararo bog'lanishni barcha pedagoglar e'tirof etgan holda unga katta baho berib keladilar.

Haqiqatdan ham maktab o'quv fanlarini o'rganishda predmetlararo bog'lanish bugungi kunda ham eng samarali didaktik prinsip bo'lib koladi. Predmetlararo bog'lanish – ikki xarakterda namoyon bo'ladi:

Tasviriy san'at namunalaridan ko'plab fanlarni samarali, qiziqarli o'qitishda foydalanish mumkin. U o'quvchi/o'quvchilarga mavzuni tushunishga, oson va tez o'rganishga yordam beradi, ammo tasviriy san'at asarlarning o'zini tushunishdagi qanday fanlar yordamga kelishi, qaysi fanlardan tasviriy san'at mashg'ulotlarini qiziqarli o'qitishda foydalanish mumkinligi, qanday foydalanish kerakligini ko'rsatish, bu bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berish muhim ahamiyatga ega.

Agar ona tili fani tarix fani bilan bog'lama o'qituvchi tasviriy san'at namunalarini talab/o'quvchi, tomoshabinga tushuntirib bera olmaydi. Ayrim kartinalar yaxlit bir tarixiy kun, tarixiy voqeya yoki buyuk bir tarixiy shaxsga bag'ishlanadi. Bunday paytda tasviriy san'at o'qituvchisidan tarixni bilish talab etiladi. Chunki u talab/o'quvchi, tomoshabinning savoliga javob bera olishi, tushuntirib bera olishi kerak. O'quvchilar quyidagi rasmini ona tili darslarida yuqori sinf o'quvchilari ko'rib tushuna olishi va tushunganlarini boshqalarga turli shakllarda tushuntirib bera olishi kerak:



Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi tasviriy san'at namunalarini yaratishga, chizishga o'rgatadi, ma'lumki, rasm chizishga hamma ham qobiliyat bo'lavermaydi. Ammo har bir o'quvchi/o'quvchi o'z duch kelgan tasviriy san'at namunasini ko'rganda tushuna olishi, undan o'ziga kerakli xulosa chiqara olishi, musavvirning chizgan suratidan, ranglar uyg'unligi va anglatadigan ma'no-mazmundan zavqlana olishi, bir paytning o'zida hissiyotlari va taasurotlarni bayon qilib bera olishi ham kerak. Tafakkur vositasida rassomning mazkur asarni yaratishdan maqsadini anglay olish ko'nika hamda malakasiga ega bo'lishi, tushunganlarini ona tilida ravon og'zaki va yozma shaklda tushuntirib bera olishi lozim bo'ladi. Aks holda, yaratilayotgan asarlarning qiymati bo'lmaydi. Shu ma'noda, o'quvchi/o'quvchilarga tasviriy san'at namunalarini tushuntirishda mavzuni tarix, adabiyot, psixologiya, agar zarurat tug'ilsa, boshqa aniq hamda tabiiy fanlarga ham integrasiya qilgan holda o'qitish tasviriy san'at namunalarini teran tushunish va asarlarning qadrlanishiga olib keladi. Ona tili mashg'ulotlarini tasviriy san'at, adabiyot va tarix bilan integratsiya qilgan holda o'qitish yaxshi samara berdi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. К.Д.Ушинский. Танланган пед.асарлар. Т. 1959 . 56-б.
2. Коменский Я. Избранные педагогические сочинения. В 2-х т. Т. 1. - М.:



1982.

3. Усмонова Ў. Талаффуз маданияти. –Т.: Фан, 1976. – 3-б.
4. Гуломов А., Нейматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
5. Ғ.Ҳамроев Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Методик қўлланма. – Тошкент. Баёз. 2018. 197 б.

**O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI, TARIXI VA UNING
ADABIYOTDAGI O'RNI***Shamsiyev Sherzod Istamovich**Buxoro davlat pedagogika institute Musiqa va tasviriy san'at kafedrası
o'qituvchisi*

*Ahrorov Asrorbek Aminjon o'g'li**Buxoro davlat pedagogika institute Musiqa va tasviriy san'at kafedrası talabasi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek folklorshunosligi, uning tarixi, uning kelib chiqishi, Badiiy so'z san'ati, madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lishi haqida, uning kurtaklari ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridayoq vujudga kelishi haqida, mehnat jarayonining rivoji kishilar tajribasi va onging taraqqiyoti og'zaki adabiyotning rivojlanishi uchun zamin yaratganligi to'g'risida insonlar astasekin turmush tajribalarini tabiyat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so'z orqali tasvirlash, bayon etishko'nikmalari haqida maqola yoritilgan.

Kalit so'zlar: folklorshunoslik, maqollar, topishmoqlar, an'anaviylik, versiyaviylik, og'g'zakilik, folklor tarixi, adabiyotdagi o'rni, laparlar.

**IN UZBEK FOLKLORE, HISTORY AND ITS LITERATURE
PLACE***Shamsiyev Sherzod Istamovich**Bukhara State Pedagogical Institute, Music and Fine Arts Department
teacher*

*Ahrorov Asrorbek Aminjon**Student of the Department of Music and Visual Arts of the Bukhara State
Pedagogical Institute*

ANNOTATION. In this article, about Uzbek folklore, its history, its origin, the art of speech, the oldest and longest history of its culture, about the emergence of its buds in the period of the primitive collective system, the development of the labor process, the experience of people and The article about the development of consciousness created the ground for the development of oral literature, about the ability of people to gradually describe their life experiences, their thoughts about nature and society through figurative words.

Key words: folklore, proverbs, riddles, traditionalism, versionism, orality, history of folklore, place in literature, la pars.

В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ, ИСТОРИИ И ЕГО ЛИТЕРАТУРЕ*Шамсиев Шерзод Истамович**Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель
кафедры музыки и изобразительного искусства*

*Ахроров Асrorбек Аминжона.**Студентка отделения музыки и изобразительного искусства Бухарского
государственного педагогического института*

АННОТАЦИЯ. В этой статье об узбекском фольклоре, его истории, его происхождении, искусстве речи, древнейшей и давней истории его культуры, о зарождении его почек в период первобытно-коллективного строя, развитии трудового процесса, опыт людей и Статья о развитии сознания создала почву для развития устной литературы, о способности людей постепенно описывать

образными словами свой жизненный опыт, свои мысли о природе и обществе.

Ключевые слова: фольклор, пословицы, загадки, традиционализм, версионизм, устность, история фольклора, место в литературе, лапару.

KIRISH. Badiiy soʻz sanʼati madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega boʻlgan bir sohasidir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridayoq vujudga kelgan. Mehnat jarayonining rivoji, kishilar tajribasi va ongining taraqqiyoti ogʻzaki adabiyotning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Insonlar asta- sekin turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr- tushunchalarini obrazli soʻz orqali tasvirlash, bayon etish koʻnikmalarini yarata boshlaydilar. Badiiy soʻz tajribasining oʻsishi, badiiy did va zavqning takomillashib borishi xilma- xil badiiy shakllarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Shu tariqa badiiy soʻz sanʼati yozuv va yozma adabiyotdan koʻp vaqtlar ilgari ogʻzaki ijod shaklida paydo boʻladi hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. U ogʻizdan ogʻizga, avloddan avlodga, davrdan davrga oʻtadi. Biroq u dastlab qanday yaratilgan boʻlsa, harqachon ham aynan shu holicha saqlanib qolmaydi, balki ijodiy qayta ishlanadi, turli xil oʻzgarishlarga uchraydi, yangi- yangi maʼlumotlar bilan boyiydi, yangi tarixiy sharoitga muvofiqlashadi, keyingi yaratilgan asarlar bilan birg ayashaydi uzoq umr koʻradi. Shu bilan bir qatorda yozma adabiyotning tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Ogʻzaki adabiyotning bu turi hozirgi zamonaviy adabiyotda Folklorshunoslik debataladigan katta bir janrni tashkil etadi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oʻzbek folklorining soʻz sanʼatiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, ogʻzaki drama, maqol va hikmatli soʻzlar, afsun, avrash, olqish va qargʻishlardan iboratdir. Folklor har bir xalqning maʼnaviy boyligi hamda ulugʻ qadriyatidir. Insonning maʼnaviyatini yuksaltirishda xalq ogʻzaki ijodining oʻrn ihaqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tugʻilishida boshlanadi. Onalarimiz, momolarimiz aytgan allalar, ertaklar, tez aytishlar, maqollar va qoʻshiqlar bolaning tili va dunyoqarashi shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yosh vakillarini birday qiziqtiruvchi xalq oʻyinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulgʻayishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xalqning til boyligi birinchi navbatda, uning folklorida namoyon boʻladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish zarur. Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan boʻladi. Alloma Hodi Zarif: Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lugʻat boyligi bilan belgilanadi – degan edi. Barcha davr tilshunolarini xalq poetik ijodini oʻrganish qiziqtirib kelgan. Mahmud Koshgʻariy zamonidan to bugungi kunga qadar xalq ogʻzaki ijodi haqida nimaiki aytilgan boʻlsa, bularning bari buyuk merosni oʻrganishga oʻzining munosib ulushini qoʻshgan.

Folklor ijod namunalarini xalqning boyligi hisoblanar ekan, ularni oʻrganish ham hammavaqt dolzarb masalalardan biri boʻlib kelgan. Xalq ogʻzaki badiiy ijodini oʻrganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristika deb yuritiladi. Shu maʼnoda folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor toʻgʻrisidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Barcha davrlarning oʻziga xos urf-odat va madaniyati shakllanishi natijasida folklorshunoslik ham darajamadarajaoʻsib borgan. Arab xalifaligi hududlaridagi xalqlar ertak va rivoyatlarining yigʻindisi boʻlmish Ming bir kecha kitobini ham folklor namunalarini yigʻishda oʻziga xos tajriba deyish mumkin.

Folklor atamasini 1846- yilda ingliz olimi Uilyam Tomas taklif qilgan boʻlib, u xalq donoligi degan maʼnoni anglatadi. Dastlabki vaqtlarda el adabiyoti, xalq adabiyoti, —ogʻzaki adabiyot, —xalq ogʻzaki ijodi deb yuritilib kelingan oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi Hodi Zarif ijodidan boshlab, yaʼni 1935- yildan eʼtiboran Oʻzbek folklori nomi bilan ishlatiladi. Xususan, folklor namunalarini hisoblangan Toʻmaris,

Shiroq kabi afsonalar, Alpomish, — Ravshan, Kuntug'mishlkabi dostonlar, —Malikai Husnobod, —Uch og'a-ini botirlar kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqi qadriyatlarining ajralmas qismidir. Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar u bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turuvchi san'at turidir — deb ta'kidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov. Darhaqiqat, buni tan olmasdan ilojimiz yo'q chunki xalqimiz madaniyatining eng dastlabki kurtaklari folklor namunalari orqali ko'rinadi. Bugungi kunda ma'lumki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta'sir qilmasdan samaraga erishib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Dostonlarimizning bosh qahramonlariga aylangan jasur va mard o'g'lonlar va barno va iboli qizlar timsoli hech bir o'quvchini e'tiborsiz qoldirmaydi. Ularning qilgan xatolari orqali yoshlarga to'g'ri yo'lni tanlash kerakligi uqtiriladi. Nafaqat dostonlarimiz tarbiyaviylik ahamiyati jihatdan folklorshunoslikda maqollarning ham ahamiyati salmoqli darajadadir.

Muokama. Maqol og'zaki ijodning kichik ko'rinishlaridan biri. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. Maqollar hajm jihatdan kichik bo'lsa-da, fikr va mazmun jihatdan kech qamrovlidir. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o'z maqoliga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq o'z qarashlari va hayotiy tajribalari mahsulini maqollar ko'rinishida avlodlarga qoldiradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlashimiz kerak bo'lgan yana bi folklor namunasi bu topishmoqlardir. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik va ommabop hamda xalqaro janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr yosh avlod nihayot bilishga, borliqdaginarsa-buyumlarning xususiyatlarini yodda saqlab qolishga o'rgatadi. Topishmoqlarning mohiyati, asosan, metafora bilan bog'liq bo'lib, ulardatopilishi lozim bo'lgan narsa-buyum xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Topishmoq Aristotel ta'biri bilan aytganda — Eng yaxshi metafora tuzish usulidir.

NATIJARLAR. Folklor asarlar so'z san'ati sifatida yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. Folklorga xos bu xususiyatlar, avvalo, uning jamoaviy ijod ekanligidadir. Shuning uchun ham bu kabi dostonlar, —Malikai Husnobod, —Uch og'a-ini botirlar kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqi qadriyatlarining ajralmas qismidir. Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar u bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turuvchi san'at turidir — deb ta'kidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov. Darhaqiqat, buni tan olmasdan ilojimiz yo'q chunki xalqimiz madaniyatining eng dastlabki kurtaklari folklor namunalari orqali ko'rinadi. turdagi asar namunalarning muallifi xalq ommasi hisoblanadi. Ularning aniq ijodkori noma'lum, ya'ni anonim bo'ladi va xalq orasida avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib tarqaladi, og'zaki ijro etiladi. Bunda, albatta, an'analarga rioya etilib, sayqallanib variantlarga, versiyalarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, folklorga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og'zakilik, an'anaviylik, variantlilik hamdaversiyaviylik ko'rsatiladi. Jamoaviylik — o'zbek xalq og'zaki ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Bilamizki, xalqimiz qadim-qadimdan jamoa bo'lib mehnat faoliyatini olib borishgan, ya'ni hashar yo'li bilan biri-birining og'irini yengil qilishgan. Mana shu jarayonlar davomida turli xil qo'shiqlar, laparlar kuylangan va ayrim hududlarda hozir ham jamoaviy tarzda kuylab kelinmoqda. Xalq turmushining, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi, insonlar badiiy tafakkurining o'sishi jarayonida alohida ijrochilar — qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar hamda qiziqchilar, ijro maktablari, ustoz vashogird munosabatlari paydo bo'la boshladi. Xalq orasida Tilla kampir, Sulton kampir, Jo'lmon baxshi, Bo'ron

shoir, Ergash Jmanbulbul o'g'li, Yo'ldosh bulbul kabi xalq namoyondalar iyetishib chiqdi. Anonimlik - folklor asarlari muallifining noaniqligi anonimligi (grek. Anonymis – noma'lum) bilan ajralib turadi. Folklorida biror bir aniq muallif yo'q. Xalq dostonimi, ertakmi yoki marosim qo'shig'imi ularni dastlab kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan avlodga o'ta rekan, vaqt va zamon talablariga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi, an'analari o'zgarishsiz kelaveradi. Folklorida biror bir asarni kimdir dastlab yaratgan bo'lishi mumkin, lekin bu asar syujeti, tasvir vositalari, ohang yo'llari xalq og'zaki ijodi an'alariga tayanilib ijod etilsa, u folklore asari bo'lib qoladi. Vaqtlaro'tishidavomida xalq ijrochilari tomonidan yanada ishlov berilib, chinakam folklore namunasiga aylanadi. Og'zakilik - xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og'zaki avloddan avlodga, og'izdan og'izga ko'chishidan paydo bo'ladi. Bu o'rinda umumfolkloriy bilim va folklore an'analari asos vazifasini o'taydi. Xotira manbai va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo'lmay, butun bir xalqning bilim va an'alaridan iborat bo'ladi. Bu bilim va an'alar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug'dan urug'ga o'tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o'zgarish kiritishi – nimaningdir qo'shilishi yoki tushirib qoldirilishida bo'y ko'rsatadi. An'anaviylik — folklorning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifodavositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'alar san'atidir. An'anaviylik xalq ijodida ma'lum bir asar matnining, ijro usullarining og'izdan og'izga o'tish jarayonida nisbatan barqarorliginigina anglatib qolmaydi, balki o'sha asarning avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijroga xos xususiyatlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganini ham anglatadi.

An'anaviylik - jamoaviy ijod mahsuliva yashash tarzi, shu bilan birga, folklorning folklor asarini jamoaviy holda saqlab qolishningham o'zigaxos shakli, omili hisoblanadi. Og'zakilik – folklorning ijro usuli va yashash tarzi bo'lib, o'z navbatida, ijrochidan ulkan xotirani, yoddan aytishni, eslamoqni, vaziyatga mos tayyor shakl va eng qulay va ishonchli quvvat zaxirasi hisoblanadi. O'zbek baxshi-shoirlari orasid ko'plab an'anaviy dostonlarni, qanchadan qancha termalarni bilgan kuylagan, yana o'zi to'quvchi – badihago'ylarning borligi – shu an'anaviy ehtiyojning hosilasidir. An'anaviylik xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining hamo'ziga xos belgisi sanaladi. Variantlilikversiyaviylik – folklor namunalarining har bir ijrosi o'ziga xos variant hisoblanadi. Folklor asari ijro jarayoni davomida qaytadan yaratiladi, yangi yashash holatiga kiradi va bu holat o'ziga xos variant paydo etadi. Ya'n folklor ijro jarayonida xilma-xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folklorning yashash tarzi hisoblanadi. Olimlarning eslashicha, Alpomish dostonining 100 ga yaqin variant ma'lum bo'lib, shulardan 30 dan ortig'i yozib olingan. Variantlilik folklor tabiati, uning yaratilishiga jonli og'zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo'lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazliligi, poetikasi, janr xususiyatlarini to'la qamrab oladi. Xususan, o'zbek folklori ko'p ming yillik tarixga ega va yuqoridagi barcha xususiyat larmujassamlashgan madaniyatimizning ajralmas bo'lagidir.

O'zbek folkloriga oid ma'lumotlarning bir qismi chet ellik mualliflarning qalamiga mansub kitoblar orqali yetib kelgan. Bu o'rinda yunon tarixchisi Herodotning Tarix va Poliyenning Harbiy hiylalar asarlarini misol qilishimiz mumkin. Keyingi yillarda televideniye orqali namoyish etilgan hind xalqining mashhur eposlari asosida suratga olingan — Ramayana, Mahobhorat kabi teleseriallardan ma'lum bo'ldiki, o'zbek xalqining qadimgi qahramonlik eposlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar jahonning boshqa xalqlar qarashlari bilan chambarchas bog'liq va mushtarakdir.

XULOSA. Xalq og'zaki poetik ijodining tilni o'rganishda ahamiyati juda yuqori. Chunki biron bir xalqning tilini o'rganishdan oldin u xalqning yashash tarzi, madaniyati haqida bilim- ko'nikmaga ega bo'lishimiz kerak. Har bir xalq folklorida esa bularning bari jamlangan bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi — East or West home is best

hamda o'zbek tilidagi —Ona yurtning – oltin beshiging maqollarini olaylik. Harikkala maqolda ham har bir inson uchun tug'ilgan yerining naqadar azizligi, dunyoning eng go'zal go'shalari ham kindik qoni to'kilgan bir siqim tuproqdan ortiq ekanligi aks etgan. Bu kabi misollarni juda ham ko'p keltirishimiz mumkin, lekin bizdan talab qilinadigan narsa ularning tub mohiyati nimada ekanligini anglash va ulardan kerakli joylarda unumli foydalanishdir. Xalq og'zaki poetik ijodi yuzasidanko'plab izlanishlar olib borilgan va bundan keyin ham bu jarayon qizg'in davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шамсиев Ш. И., Солиев А. А. Основы хорового пения на уроках музыки //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 55-57.
2. Шамсиев Ш. И. Молодой специалист учитель музыки, как руководитель хорового коллектива в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 540-545.
3. Шамсиев Ш. И. Новые подходы к подготовке молодых специалистов учителей музыки, разработка уроков музыки //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 528-533.
4. Shamsiev S. I. The role of folk songs in educating student's role of folk songs in student education //International Journal on Integrated Education. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 76-78.
5. Shamsiyev S. I., Ramazonov S. R. O. G. L. Boshlang'ich sinflarda vokal-xor malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uslublari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 377-381.
6. Shamsiyev S. I. Shukhratjon Rakhimjon OGLI Ramazonov METHODS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF VOCAL-CHORAL SKILLS IN PRIMARY SCHOOLS //Scientific progress. – 2021. – №. 5.
7. Шамсиев Ш. И., Солиев А. А. Развивайте навыки чтения музыки во время пения //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 92-95.
8. Shamsiyev S. Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy ijodkorlik faoliyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
9. Шамсиев Ш. ГОЛОС И ЭМОЦИЯ–ПСИХОЛОГИЯ ВОКАЛА // АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПСИХОЛОГИИ, ПЕДАГОГИКИ, ФИЛОСОФИИ XXI ВЕКА. – 2020. – С. 358.
10. Shamsiev S. I., Mosinova D. S. EDUCATING STUDENTS IN AESTHETIC SPIRIT THROUGH CHOIR WORKS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 453-455.
11. Shamsiyev S. I. Choir Performance in European Countries Emergence // EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 347-350.
12. Шамсиев Ш. И. Формы организации музыкального общения //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 71-74.

O'ZBEK VA KOREYS TILLARINING PAREMIOLOGIK BIRLIKLARI*Sharipova Malohat Saidjanovna**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada maqollar tilning maxsus mazmunli birliklari sifatida tahlil qilinadi. Turli tizimli tillardagi maqollarning o'xshashligi va farqi qayd etilgan. Shuningdek, turli tizimli tillarning paremiologik tizimlarida xalqaro va milliy tillarning tahlili o'tkaziladi. So'z, frazeologik birlik va maqol o'rtasida taqqoslash amalga oshiriladi. Tilning har bir mazmunli birligiga xos xususiyat berilgan.

Kalit so'zlar: maqol va matallar, tilshunoslik, folklor, chet tili, madaniyat, paremiologik birliklar, o'zbek tili, koreys tili.

ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ УЗБЕКСКОГО И КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКОВ*Шарипова Малохат Саиджановна**Преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков*

Аннотация: В статье проводится анализ паремий как особых значащих единиц языка. Отмечается сходство и различие паремий в разносистемных языках. Также проводится анализ интернационального и национального в паремиологических системах разносистемных языков. Осуществляется сравнение между словом, фразеологической единицей и паремией. Дается характеристика каждой значащей единице языка.

Ключевые слова: пословицы и поговорки, лингвистика, фольклор, иностранный язык, культура, паремиологические единицы, узбекский язык, корейский язык.

PAREMIOLOGICAL UNITS OF UZBEK AND KOREAN LANGUAGES*Sharipova Malohat Saidjanovna**Teacher of Uzbekistan State World Language University*

Abstract: The article analyzes paremiology as special meaningful units of the language. The similarities and differences of paremiology in different system languages are noted. Also, the analysis of international and national in the paremiological systems of heterogeneous languages is carried out. A comparison is made between a word, a phraseological unit and a paremia. A characteristic is given for each significant unit of the language.

Key words: proverbs and sayings, linguistics, folklore, foreign language, culture, paremiological units, Uzbek, Korean.

Introduction. The proverb is an integral part of folklore; an element that preserves the wisdom and experience of past generations. Along with this, the proverb is also designated as a kind of separate unit in the language. V.L. Arkhangelsky believes that any proverb can be actively used in speech [1, p. 89]. This is largely due to the mass media that introduce it into everyday life.

Research in the field of linguistics, of course, has become a priority in recent times, because learning foreign languages has become a necessity nowadays. In particular, the close economic cooperation between Korea and Uzbekistan has become one of the important issues in the study of the Korean language in the scientific direction.

Literature review. The founder of the science of paremiology was the famous German linguist K.F. Vanger. According to him, the object of the science of paremiology is proverbs, that is, their study is the main goal of science, proverbs are studied in the

field of paremiology, and the paremiological unit is parema. Paremiology as a short, simple, logical and meaningful logical generalization that is verbally transmitted from generation to generation in a certain language, is a branch of science that studies fixed expressions, proverbs and parables.

Idioms. Idioms are also colloquial because they consist of several words that are usually used together, but the difference is that we cannot guess the meaning of the whole phrase from the meaning of its parts. This criterion is called the level of semantic isolation. It is used in different ways in different expressions.

“Korean is what we call a language of reference,” says John B. Whitman. “It has common features with all the neighboring languages of the region, as if it is a kind of intermediary between them. We cannot say what modern Korea is connected with in the sense that it came from one common ancestor. But we can show that it is unique in that it shares with all its neighbors the property that they do not share among themselves” [2].

Many aspects of the Korean language are related to other Northeast Asian languages. Whitman points to some of these details: vowel harmony, in which vowels that are next to each other in words must be pronounced in a form similar to each other, a feature of the Korean language that separates Mongolian and Tungus; pitch accent, a type of pitch accent in which pitch differences occur in some syllables of words that Korean shares with Japanese and Ainu; and an extremely large vocabulary borrowed from Chinese, resulting in some Chinese-influenced Korean grammatical patterns [3].

Whitman is principal investigator for a group of linguists from North America, Europe, Korea and Japan. Through their work, the researchers hope to eventually help educate the world about the role of Korean culture in general. “When people think of promoting culture, they usually think of literature, music, art and the like,” Whitman says. “The language seems neutral. It is difficult to think of a language as something that can perpetuate the history of a country and its culture. But Korea has been so heavily influenced throughout history, especially by China, that in many ways the most important legacy of Korean culture is its language and its unique writing system.

The unity of language and culture presupposes foreign language communication with native speakers not only as an exchange of information, but also as a dialogue of cultures. Largely due to this provision, the interest of scientists in the cumulative, cultural and informative function of paremias was determined, i.e. to the ability to accumulate and consolidate the experience of many generations in the semantic structure, the peculiarities of the national-cultural worldview and worldview. Folk sayings in a concise and capacious form reproduce the totality of opinions developed by the people, and make it possible to discover significant mental values that reflect the philosophy and psychology of the ethnos. With the depth and sharpness of thought, the paremias synthesize the age-old treasures of folk traditions. The linguistic, stylistic richness of proverbial sayings is based on a complex system of verbal and artistic culture of the national language. Paremia absorbed the expressive and pictorial means of lively colloquial speech, oral folk art and the common language. Proverbs and sayings of each nation are unique, distinctive, one and the same thought can have a “national” expression, therefore a linguocultural approach to paremias makes it possible to identify the features of the language system and norms of behavior in their relationship, which helps to make intercultural communication adequate. Along with this, proverbs and sayings have their own quality, their own specificity, and therefore they cannot be identified with phraseological units: phraseological units act as signs of things and phenomena, express concepts, therefore they are semantically equivalent to words; proverbs and sayings are signs of situations or certain relationships between things, and are semantically equivalent to sentences.

In linguistics, there is no generally accepted view of proverbs and sayings. It has

not yet been precisely established what should be attributed to these expressions, since proverbs and sayings are complex formations with several different plans. On the one hand, proverbs and sayings of the phenomenon of language, stable combinations are in many ways similar to phraseological phrases. On the other hand, these are speech units expressing judgment. On the third, these are artistic miniatures, in a vivid, chased form, generalizing the facts of reality itself. Due to the significant differences between words and phraseological phrases, on the one hand, and paremias, on the other, linguists failed to build a consistent system of phraseology, including proverbial sayings: "... not being the equivalent of a word, but being the equivalent of a whole story, a description of events, and being a complete phrase with a direct meaning, a proverb cannot be considered a phraseological unit in this narrow sense of the word" [4, p. 202].

Proverbs and sayings are more complicated than any phraseological phrases, so they should be distinguished into an independent class of linguistic units. G.L. Permyakov called this class the paremiological level of the language [3, p. 85].

Discussion. Proverbs, sayings and other sayings as special communicative units' express thoughts common to all mankind, for a particular religion, a particular nation, class, social or professional group, for a particular place. In other words, the communicative unit of the language is the result of collective creativity, expressing the thoughts and aspirations of the people and enshrined in the form of proverbs, sayings, commandments, well-known quotations, which, as a rule, have a predicative structure ... They occupy a peripheral position in the linguistic sign system. "Unlike linguistic nominative units, they are compared not with a word – an identifier or denotation, but with other thoughts and ideas. This is the main difference. This determines their status. Ideas expressed in proverbs, sayings, etc., can be considered normatively correct, identifying, because they have been tested by the practice of the people" [2, p. 136].

A characteristic feature that distinguishes proverbs and sayings from the winged word, phraseological unit is that, in them, there is a clear, definite, complete thought. This not only gives the proverbial sayings the integrity and rigor of the composition, but also makes them, first of all, significant in the ideological sense of the genre. That is why the paremias lack elements of description, which will complicate the disclosure of their ideological essence.

Paremias are characterized by an extraordinary brevity of expression of thought, these are maxims of expression. That is why they are a genre, the logical side of which is exposed. This highlights the moment of generalization in them, which is emphasized by their verbal form.

However, many paremias have a very specific character, and at first glance there is no generalization or distraction in them, they are associated with specific life situations, but they, as a rule, contain a metaphorical subtext that forms generalization and abstraction.

The paremiological fund of the language is a valuable linguistic heritage of the people, reflecting its customs, traditions and history, and other specific features of the people. In proverbs and sayings, as in any other genre of folklore, everything that lives and encounters this or that people over the centuries is reflected. Here is a complete set of ethnographic realities, ranging from tools and ending with outfits, and a comprehensive description of the geographical environment with its landscapes, climate, animals and flora; here are memories of bygone events and outstanding personalities, echoes of ancient religious views and a detailed picture of the modern organization of society.

There is no defined term *paremia* in Korean, and there is no clear distinction between different types of proverbs. For their designation, the terms «proverb», «maxim» and «parable» are used, which are used, in fact, as synonyms.

Korean paremiology has a long tradition. To designate the concepts of proverbs,

sayings, aphorisms and sayings, there was a complex terminology. More than ten terms corresponding to these concepts have been preserved. Such terms can be divided into two categories according to their origin:

- a) terms of Chinese origin;
- b) proper Korean names.

In modern Korean paremiology, three terms of Chinese origin are mainly used. Although these terms are often semantically confused, nevertheless, shades of their meanings can be distinguished.

The study of paroemias makes it possible to identify, firstly, the culturally determined component of linguistic meanings and, secondly, to consider the cognitive mechanisms of the formation of the most important cultural stereotypes. Functioning as a means of storing and transferring experience, being a kind of crystallization of the ethnic worldview, paremiological units find an organic connection with the language of the people and with concepts as culturally specific variants of concepts that constitute the cognitive basis of the national linguistic picture of the world.

The unity of thought and word is clearly manifested in proverbs and sayings. Their forms are both forms of judgment and inference. They are often distracting and generalizing; thesis and explanations, statements or denials, definitions, they indicate an action, its causes, effect and condition, contain comparisons and contrasts, have the form of advice, teaching, evaluation of action and conclusion.

Result. Proverbial sayings use figurative possibilities, more often metaphors. Paremias create an image that combines generalization and concreteness. Typical phenomena of folk life are brightly, expressively, with great artistic skill. The main sources of human life were the land and its cultivation. Therefore, it is no coincidence that such sayings as:

부지런한 이는 앓을 틈도 없다

Hardworking has no time to get sick [5, p. 101].

Many sayings reveal a stunning picture of human poverty:

집도 절도 없다

No home, no chopsticks [5, p. 186].

There are paremias indicating the ruling classes of previous eras:

양반은 물에 빠져도 개헤엄을 안 친다

Yangban will drown, but will not swim like a dog [5, p. 154].

Selfishness, individualism are reflected in Korean and Uzbek paremias:

제 배 부르니 남의 배도 부른가 한다

He himself is full, he thinks that others are full, that is. the well-fed does not understand the hungry [5, p. 213].

Proverbial sayings use allegorical images, “coming” often from fairy tales and beliefs. These are usually images of animals, natural phenomena, etc. They also have characteristic, stable features, their own specificity. This is, for example, a Korean proverb:

산소에 꽃이 폈다

Flowers bloomed on the grave of the ancestors (it is said about a man who made a brilliant career) [5, p. 251].

Folk wisdom, expressed in the proverbs and sayings of the Korean and Uzbek languages, undoubtedly arouses scientific research interest, Korean and Uzbek proverbial sayings are a source of the identity of national cultures, which has a versatile cognitive meaning, reflecting the peculiarities of the mentality, preserving life experience derived from direct observation. Korean and Uzbek proverbs and sayings are unique, original, like history, customs, and culture of peoples. They generalize, typify the phenomena of the life of their country, they have their own life material, their observations, but containing deep thoughts about life, they outgrow the national framework and acquire universal value.

A specific feature of the morphology of the Korean verb is the presence of special forms of the orientation category, which reflect the social relationships of the speakers. Of the many forms of this category in proverbs, only the form of the so-called neutral degree of politeness is used. Among the temporal forms of the predicative, the most common forms are the absolute present tense.

The features of the syntactic structure of proverbs are closely related to the style of their language. The style of proverbial sayings is affected, first of all, by the desire to teach, to teach a lesson in correct behavior. This task of proverbial sayings is mainly subordinated to their syntactic form.

In the proverbs of the Korean language, generalized-personal sentences are widely used, which aim to formulate instruction. In such sentences, the final predicate is usually expressed by imperative forms of the verb, which reflects the direction of the maxim contained in the proverb. Many proverbs are characterized by their construction in the form of a rhetorical question.

The fund of paremiological units of the language is of undoubted interest for linguoculturology, as it allows reconstructing the most important stereotypes of mass national consciousness. Paremiology reflects the peculiarities of relationships between people, the socio-historical context, the peculiarities of everyday life, customs and traditions.

The study of paremiology makes it possible to identify, firstly, the culturally determined component of linguistic meanings and, secondly, to consider the cognitive mechanisms of the formation of the most important cultural stereotypes. Functioning as a means of storing and transmitting the experience of the people, being a kind of crystallization of the ethnic worldview, paremiological units find an organic connection with concepts as culturally specific variants of concepts that constitute the cognitive basis of the national linguistic picture of the world.

Despite the fact that the majority of linguists dealing with the problems of paremiology, phraseology or folklore gave their own definition of a proverb, dry, scientific or poetic, nevertheless, it can be said that their universal, generally accepted definition has not yet been developed. The question of the inclusion or non-inclusion of proverbs in the phraseological system of the language also remains problematic. Nevertheless, all scientists admit that proverbs are an extremely valuable phenomenon for modern science and have great heuristic potential for cultural studies, ethnosemantics, and cognitive linguistics.

Imagery, emotionality, expressiveness, appraisal – the absolute expressive properties of phraseological units – underlie the functioning of phraseological units without changing semantics and structure. Phraseological units give an assessment through the image that served as the basis for creating a phraseological unit, which allows the author to express a certain attitude towards persons, facts and evoke response emotions in the reader. Therefore, phraseological units are one of the means of artistic expression.

Consequently, the main properties of a phraseological unit are its thematic inseparability (denotes a whole concept, can be replaced by one word), figurativeness and expressive-evaluative coloring (always expresses approval / disapproval).

Due to the fact that phraseological units are units with a complex structure, there are different approaches to their classification.

Conclusion. Proverbs are characterized by closedness, completeness and completeness of judgment. At the same time, the vast majority of them are generalized proposals. All proverbs are sayings with figurative motivation of general meaning.

The national coloring of the images in proverbial sayings is inspired by the fact that these images are taken from the environment: nature, life and customs of the Koreans. Household items, pets, animals, birds, plants – everything appears in proverbs and makes up the «Korean» gallery of images.

Among Korean folk sayings, there are many instructive ones that capture the ethical views of the people on family foundations, marriage, love, raising children, etc. They teach the younger generation to respect elders and parents, to love relatives and friends, to be true friends.

References:

1. Arhangelskij V.L. Ustojchivye frazy v sovremennom yazyke. – Tula, 2010.
2. Bolotov V.I. Osnovnye edinicy nominacii i kommunikacii v yazyke i rechi. – M., 1999.
3. Permyakov G.L. Osnovy strukturnoj paremiologii. – M., 1988. – 236 s.
4. Felicina V.P. O poslovicah i pogovorkah kak materiale dlya frazeologicheskogo slovarya. – M., 1964. – S. 202.
5. Pak Son Gu. Nacional'naya specifika frazeologizmov korejskogo i korejskogo yazykov // Yazyk, soznanie, kommunikaciya. Sb.statej / Otv. Red. Krasnyh V.V., Izotov A.I. – M.: Dialog-MGU, 1999.
6. Semenenko N.N. Lingvokul'turologicheskoe opisanie struktury i semantiki paremij // Avtoreferat diss. issled. – Belgorod, 2002. – 18 s.
7. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskij, pragmaticeskij i lingvokul'turologicheskij aspekty. – M.: Yazyki russoj kul'tury, 1996. – 137 s.
8. Choj Yun Hi. Frazeologicheskij obraz v konnotativnom aspekte (na primere somaticheskix frazeologizmov russkogo i korejskogo yazykov) // Yazyk, soznanie, kommunikaciya. – M.: Filologiya, 2001. – Vyp. 17. – 25 s.
9. 박영준, 최경봉. <관용어 사전>. – 파주:태학사, 1996.

TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YONDASHUV

*Shodieva Shoxida Inatovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Bizga ma'lumki, kognitiv tilshunoslikda so'zlovchi yoki nutq qaratilgan shaxsning ichki kognitiv tuzilishi hamda dinamikasini tavsiflash va izohlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu yo'nalishdagi lisoniy tahlil inson ongidagi kognitiv tuzilmalar to'g'risida muayyan ilmiy ma'lumotlar berishi xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, lisoniy hodisa, mentallik, kognitiv tuzilma, biologik nazariya, biomadaniy nazariya, sinkretik birlik, fikriy obraz, sun'iy intellekt, kognitiv semantika.

КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД В ЛИНГВИСТИКЕ

*Шодиева Шахида Инатовна,
преподаватель Джизакского государственного педагогического
университета*

Аннотация: как мы знаем, в когнитивной лингвистике одним из основных вопросов является описание и интерпретация внутренней когнитивной структуры и динамики говорящего или человека, на которого направлена речь. В данной статье рассматривается вопрос о том, что лингвистический анализ в данном направлении дает определенную научную информацию о когнитивных структурах человеческого разума.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, языковой феномен, ментальность, когнитивная структура, биологическая теория, биокультурная теория, синкретическая единица, образ мышления, искусственный интеллект, когнитивная семантика.

COGNITIVE APPROACH IN LINGUISTICS

*Shodieva Shokhida Inatovna,
Teacher of Jizzakh State Pedagogical University*

Annotation: as we know, in cognitive linguistics, the description and interpretation of the internal cognitive structure and dynamics of the person to whom the speaker or speech is directed is one of the main issues. In this article, the linguistic analysis in this direction is reflected on the fact that it provides certain scientific information about cognitive structures in the human mind.

Keywords: cognitive linguistics, linguistic phenomenon, mentalism, cognitive structure, biological theory, biomadanium theory, syncretic unit, mental image, artificial intelligence, cognitive semantics.

Kirish. Keyingi yillarda kognitiv tilshunoslik predmeti va kategoriyalarini turli nuqtai nazardan talqin etishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi [3]. Kognitiv lingvistika kategoriyalarini belgilashda olimlar tilni tizim sifatida va nutqiy voqelanishini o'rganishda yangi yo'nalishlarni aniqladilar. So'z yasalişhini o'rganishda, grammatik kategoriyalarni aniqlashda kognitiv yondashuv yo'llari ishlab chiqildi [4]. O'zbek tilshunosligida ham lisoniy hodisalar mohiyatini aniqlashga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Jahontilshunosligidabu yo'nalishda erishilgan salmoqli yutuqlarga nazartashlansa, o'zbek tilshunosligi uchun kognitiv tilshunoslik mutlaqo yangi soha ekanligi ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishdagi ayrim ishlar

yzuga kela boshladi. O'zbek tilshunosligida kognitiv yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borish endigina boshlangani bois bu yo'nalishda olib borilgan har bir tadqiqot ma'lum darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Bu o'zbek tilshunosligida mazkur sohada ham ma'lum yutuqlar qo'lga kiritilayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, prof.Sh.Safarovning kognitiv tilshunoslikka bag'ishlangan kitobi bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning qaldirg'ochi bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. Bundan tashqari O'.Q.Yusupov, S.Muhamedova, Q.Nazarov, A.Jo'raev kabi olimlar ham kognitiv tilshunoslik muammolari haqida maqolalar e'lon qildilar.

Tilshunoslikda mentallik xususiyatiga ega bo'lgan til birliklari belgilar tizimi sifatida tushuniladi va ular vositasida inson o'zini o'rab turgan ob'ektiv olamga xos xususiyatlarni asta-sekinlik bilan anglaydi, voqelik faktlarini o'zlashtira boradi. Ana shu holatda tilning o'z ijtimoiy vazifalarini namoyon etishi bevosita amalga oshiruvchini – inson ishtirokini taqozo qiladi. S.Muhamedova to'g'ri qayd etganidek, «an'anaviy lingvistikada, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planiga e'tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo'lgan insonning o'zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi». Zamonaviy tilshunoslikning an'anaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda belgining ifoda va mazmun planiga emas, balki mazkur jarayonni amalga oshiruvchi inson omiliga, insonning bu jarayondagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslik shu asosda inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, qomusiy, mantiqiy bilimlari zaxirasi va ularni nutqning og'zaki va yozma shakli orqali namoyon bo'lishini ta'minlovchi vosita – tilni ongga bog'liq holda o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va lingvistik tadqiqotlarda shunga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Muayyan kognitiv fanlarning boshqa qoidalaridan farqli ravishda mazkur tilshunoslikda insonga xos kognitiv tuzilma va jarayonlar tahlil etiladi. Bunda birinchi o'rinda insonning tilni o'zlashtirish mexanizmi va lisoniy bilimlar tuzilishi tamoyillarini sistemali tasniflash va izohlash turadi. Shunga ko'ra kognitiv tilshunoslikda quyidagilarni o'rganishga e'tibor qaratiladi:

1. Tilni o'zlashtirish va uning tuzilish tamoyillari hamda mental xususiyatlarning namoyon bo'lishi.

2. Til birliklari qo'llanilishining kognitiv talqini.

3. Idrok qilishning kognitiv mexanizmi.

Kognitiv tilshunoslikda so'zlovchi yoki nutq qaratilgan shaxsning ichki kognitiv tuzilishi va dinamikasini tavsiflash va izohlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikning ko'zda tutgan vazifalari jumlasiga til hodisalarini sistemali ifodalash emas, balki ushbu tizimni tadqiq etish va uning asosiy tamoyillarini joriy qilish ham kiradi. Kognitiv tilshunos uchun til bilimining mental reprezentatsiyasi qanday bo'lishi lozimligi va bu bilim kognitiv qanday qayta ishlanishi hamda «kognitiv haqiqat» qanday bo'lishini tushunish muhim hisoblanadi [6, 22]. S.Muhamedovning ko'rsatishicha, kognitiv tilshunoslikning bugungi kunda quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

1) Bilishning biologik nazariyasi;

2) Bilishning biomadaniy nazariyasi;

3) Sun'iy intellekt yaratish nazariyasi;

4) Kognitiv semantika yo'nalishi.

Kognitiv lingvistikaning shakllanishida tilshunoslikdagi semasiologik, semasiologik grammatika, mantiqiy tahlil, nutqiy tafakkur, onomasiologik, psixologik, germeneytik yo'nalishdagi tadqiqotlar ilmiy nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Xullas, zamonaviy kognitiv tilshunoslik til vositalarining kognitiv tuzilishini

o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Bu yo'nalishdagi lisoniy tahlil inson ongidagi kognitiv tuzilmalar to'g'risida muayyan ilmiy ma'lumotlar beradi.

Bugungi kunda tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv sohalar bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini ham yana bir yangi soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi [15, 6].

Tahlil va natijalar.

Tilshunoslikda kognitiv yondashuv til va tafakkur, so'z ma'nosi, uning o'zaro munosabati muammolarini, kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish va ularni tilda namoyon qilish kabi masalalar rivojlana bormoqda.

Tilda kategoriyalash jarayoni u yoki bu munosabatdagi o'xshash hodisalarni kattaroq tushunchalar, kategoriyalarga birlashtirish uchun yo'naltirilgan. Shu bilan birga bilish jarayoni sifatida kategoriyalash – bu ob'ekt yoki hodisani ma'lum kategoriyaga xayoliy nisbat berish bilan bog'liqdir.

Hozirgi fanda bilish, fikrlash va lisoniy jarayonlarni birlashtirib anglatadigan bir necha atamalar taklif qilingan: lingvokulturema (madaniyatema) [18,44], konsept [7, 59] va hokazolar. Bizningcha, eng ma'quli konsept atamasidir. Konsept olam haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi va lisoniy vositalar bilan voqelanadi.

Konsept – to'g'ridan-to'g'ri ong bilan mos bo'lgan til belgisiga aloqador bo'lgan moddiy yoki ideal ob'ektning xayoliy obrazidir. Konsept yordamida tushuncha mundariyasi nomlanadi, fikr ifodalanadi.

Shunday qilib, konsept olamning lisoniy manzarasi asosida yotgan sodda ko'rinishining birligi sifatida tushuniladi. Biroq aksariyat olimlar konseptni tafakkurning sinkretik birligi deb ancha keng ko'lamli fikriy obrazni tushunishadi [1, 234]. Bunda konseptning o'ziga xos qirralari sifatida uning yaxlitligini [5, 67]. va strukturasining ehtimolli xarakterini ta'kidlashadi.

Konsept turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin. Konseptga ta'rif berilar ekan, u yoki bu soha vakillari o'z tadqiqotining aniq maqsadidan kelib chiqadi. Biz esa konsept deganda mental birlikni, voqelik ob'ekti haqidagi bilimlarning lisoniy vositalar yordamida voqelanadigan va milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan fikrlash birligini tushunamiz.

Lisoniy tadqiqotlarga yangi terminning kiritilishi bilan uni mavjud tushuncha, so'z, ma'no, mazmun va hakoza atamalar bilan farqlash masalasi ham paydo bo'ladi. Tilshunoslikda konsept va tushuncha atamalarini farqlamaslik holatlari kuzatiladi. So'z ichki shakliga ko'ra konsept va tushuncha so'zlari bir xil: konsept lotin tilidan olingan bo'lib, conceptus «tushuncha» ma'nosini bildiradi. Ammo ularni aniq differentsiyalash lozim, chunki garchi mazkur atamalar bir tartibli bo'lsa-da, bir ma'noga ega emas. Tushuncha – mavjud belgilar haqida olingan bilimlar yig'indisi bo'lsa, konsept – mazmun rejasi berilgan ob'ekt haqida barcha bilimlarning til vositalari yig'indisi bo'lgan milliy-ma'naviy jamlanmasidir.

Konseptni tilda namoyon qilishda aynan so'zga nisbat beriladi. So'zning o'zi konsept nomi mavqeini oladi, ular inson ongida konseptlar shakllanishining manbalaridan biri hisoblanadi. So'z ma'nosi konseptni til va nutqda namoyon qilish vositasidir. Inson tug'ilgandan boshlab o'zini o'rab turgan ob'ektiv borliq bilan munosabatga kirishadi: tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarni, voqea-hodisalarni asta-sekinlik bilan idrok qiladi, o'rganadi, ularni o'zaro qiyoslaydi hamda bu haqdagi xulosalarni umumlashtiradi, to'plagan axborotlarga qayta ishlov berish bilan zarur deb hisoblaganlarini yodda saqlab qoladi. Til orqali o'z faoliyati natijalarini baholaydi.

Konsept obraz asosi bo'lib, inson shaxsiy hissiyoti tajribasi asosida shakllanadi. U inson ongida yuzaga keluvchi obraz sifatida mavhumlik bosqichlari bo'ylab harakatlanadi. Dastlabki mazmun qo'shimcha ma'lumotlar hisobiga murakkablashadi,

ya'ni mantiqiy belgilar hisobiga boyib boradi. Mavhumlik darajasi oshishi bilan, konsept mukammallashib hissiy obrazdan, fikriy obrazga aylanadi. Shu bilan birga, istalgan konsept misol orqali tushuntirilishi lozim. Konseptni isbotlovchi dalillar obraz tabiatidan dalolat berib, ularning konseptlashish maydonidagi yig'indisi konseptosferani tashkil etadi.

Xulosa.

So'z ma'nosi kognitiv xarakterga ega: u nutqda konsept mazmunini hosil qiladigan ba'zi kognitiv belgilarni namoyon qiladigan semalardan tashkil topadi. D.S.Lixachyovning fikriga ko'ra, konseptni so'z bilan barcha ma'nolari yig'indisi emas, balki asosiy ma'nolaridan biri bilan bog'lash lozim [8, 280-287]. Ma'noning konseptdan barcha farqlari u o'z mavjudligini belgi bilan bog'lashidan kelib chiqadi. Shu tarzda konsept so'z ma'nosi bilan o'zaro munosabatda, ammo unga teng emas. Konsept so'z lug'aviy manosidan kengroq va boyroq, chunki konsept shakllanishida insonning atrof dunyoni bilish jarayonida egallaydigan butun tajribasi ishtirok etadi.

Bizningcha, konsept, ma'no va mazmun farqlarini tushunishda N.F. Alefirenkoning qarashlariga qo'shilish mumkin. Muallif mazmunni protoverbal mazmun va nutqiy mazmun kabi turlarga ajratadi. Uning kuzatishlarida protoverbal mazmun predmetlar, hodisalar va vaziyatlarni o'z-o'zicha emas, balki ko'plab aloqa va munosabatlar bilan bog'langandek aks ettiruvchi "yaxlit kognitiv hosila" sifatida ta'riflanadi [2, 19-23]. Shunday qilib, mazmunning bu ko'rinishi mohiyati ahamiyatlilik va qadr-qiyamat kategoriyalari bilan belgilanadi. Tilga oid mazmunlar uni ifodalash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта. - Волгоград: Перемена, 2003. С.126; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике. - Воронеж: изд-во ВГУ, 1996. -С.90; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. - Воронеж: изд-во ВГУ, 1999. -С. 234.
2. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта.- Волгоград: Перемена, 2003.-С.19-23.
3. Беляевская Е.Г. Когнитивные основания изучения семантики слова // Структуры представления знаний в языке. М., 1994.; Худяков А.А. Концепт и значение // Языковая личность: культурные концепты. Волгоград-Архангельск, 1996.; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. Тамбов, 2001.; Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. №1, 2004.
4. Болдырев Н.Н. Системные и функциональные связи языковых единиц как результат категоризирующей деятельности языкового сознания // Связи языковых единиц в системе и реализации. Межвуз. сб. науч. тр. Тамбов, 1998.
5. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. - Тамбов, 2002.- С.67.
6. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // ВЯ № 4, 1994. – С.22.
7. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания // НЗЛ. Вып. 23. - М, 1988. - С.54; Лакофф Дж. Когнитивная семантика // Язык и интеллект. - М.: Прогресс, 1996. - С.156; Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода / Концепты. - Вып. I. - Архангельск, 1997. - С. 59.

HIKOYA POETIKASIDA METAMORFOZA, MAKONIY XOSLIK VA BADIY ZAMON

Cho'liyeva Nilufar A'zam qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada F.Kafkaning “Evrilish” va N.Eshonqulning “Bahovuddinning iti”, “Istilo” (“Evolyutsiya”) hikoyalari tahlilga tortilib, metamorfoza, unga ko‘ra badiiy makonning xoslanishi va badiiy zamon masalasi tadqiq etilgan. Mazkur nazariy muammolarning hikoyalar badiiyatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: metamorfoza, badiiy makon, badiiy zamon, absurd adabiyoti, syujet, makromakon, mikromakon, tasavvuf falsafasi, kitobxon vaqti, muallif nuqtayi nazari, istetik ideal.

METAMORPHOSIS, SPATIAL SPECIFICITY AND ARTISTIC TENSE IN NARRATIVE POETICS

Choliyeva Nilufar Azam qizi,
doctoral student of the National University of Uzbekistan

Annotation: In The Article F.Kafka’s “Metamorphosis” and N.Eshonkul’s stories “The Dog of Bahovuddin”, the “Invasion” (“Evolution”) were subjected to analysis, and the question of metamorphosis, according to which the peculiarity of the artistic space and the artistic time were studied. The importance of these theoretical problems in the fiction of stories is revealed.

Keywords: metamorphosis, artistic space, artistic time, absurdist literature, plot, macrospace, microspace, philosophy of mysticism, reader’s time, author’s point theory, hysterical ideal.

МЕТАМОРФОЗА, ПРОСТРАНСТВЕННАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВРЕМЯ В ПОЭТИКЕ ПОВЕСТВОВАНИЯ

Чулиева Нилуфар Азам кызы,
докторант Национального университета Узбекистана

Аннотация: В статье были подвергнуты анализу «Метаморфоза» Франс Кафки и рассказы Назара Эшонкула «Собака Баховуддина», «Вторжение» («Эволюция»), а также вопрос о метаморфозе, в соответствии с которым изучалось своеобразие художественного пространства и художественного времени. Раскрывается важность этих теоретических проблем в художественном поэтике рассказов.

Ключевые слова: метаморфоза, художественное пространство, художественное время, литература абсурда, сюжет, макропространство, микропространство, философия суфизма, время читателя, авторская точка зрения, эстетический идеал.

Kirish (Introduction; Введение). Badiiy asar syujetining o‘ziga xos strukturasi tashkil etuvchi, og‘zaki ijod tasvir usullarining yozma adabiyotga ko‘chgan shakllaridan biri metamorfoza (evrilish)dir. Ertaklarda, aniqrog‘i, sehrli-fantastik ertaklarda metamorfoza motivi yetakchilik qiladi. “Ularda qahramonlar sehrli-tilsimli predmetlar yordamida o‘z istak-tilaklarini ro‘yobga chiqaradiki, buning zamirida ibtidoiy insonlarning magik tasavvur-tushunchalari yotishidan darak etadi”[9:209]. Umuman, nafaqat subyektning, balki atrofimizdagi dunyoning hamisha bir xil, o‘zgarishsiz qolishi haqidagi fikrlar antik davr falsafiy bilimlar tizimida ham inkor qilinadi. (Xususan, Geraklitning “bir daryoga ikki marta sho‘ng‘ish mumkin

emas"ligi to'g'risidagi fikrlari, platonizm maktabi namoyondalarining qarashlari bunga yorqin misol.) Adabiyotdagi ilk badiiy metamorfoza antik davr ijodkori Ovidiy va uning "Metamorfozalar"i nomi bilan bog'liq. Ovidiy asarida metamorfoza mo'jizaviy voqealik fonida ro'y beradi. Tabiiy va g'ayritabiiy, tarixiy jarayonlar, aynan, metamorfoza orqali bir-biriga "ulanadi". Shu sabab insoniyat va g'aroyibot, jonli va jonsiz qutblar orasidagi chegara buziladi. Umuman olganda, badiiy asardagi evrilish mavjud mazmun va muallif niyati bilan chambarchas bog'liq. Metamorfoza, shuningdek, badiiy vaqt ya'ni o'tmish va hozir (ba'zida kelajak) bilan bevosita aloqador. Antik davr adabiyotining yana bir ijodkori Apuley o'zining "Oltin eshak" asarida qahramon Lyutsiyning uchta obrazini beradi, ya'ni "...eshakka aylanmasdan oldingi Lyutsiy, Lyutsiy – eshak va misterik poklangan, tubdan yangilangan Lyutsiy" [1:81]. Apuley qahramoni metamorfozasi uch zamonga tegishli bo'lib, har zamonda obraz o'ziga xos mohiyatga ega. Unda insonning yangi individual tasviri yaratilib, obraz ichki - ruhiy evrilishlari uning shakliy metamorfozasi asosida ko'rsatib beriladi.

Metodlar (Methods; Методы). Metamorfozaning ahamiyati subyekt – qahramonning dunyoga, borliq tartibotlariga bo'lgan munosabatlarini obrazli va yorqin aks ettirish vositalaridan biri ekanligidir. Shu jihatdan mazkur mavzu dunyo adabiyotshunos olimlari tomonidan hozirga qadar tadqiq etilmoqda. Jumladan, M.Baxtin [1], R.Yakobson [10], G.Bachelard [2] ning nazariy tadqiqotlari aynan metamorfozani tushuntirishga bag'ishlangan ilk ishlar bo'lsa, M.Baxtin tadqiqotida metamorfoza yunon avantiyur-maishiy romanlari tahlili misolida ko'rib chiqiladi. Baxtinga ko'ra, "...metamorfoza negizida inson hayoti, unga xos inqiroz pallalari, burilish nuqtalarini tasvirlash tipi barpo etiladi: odam qanday o'zgaradi. Bir odam hayotining turli bosqichlariga xos nisbatan va tubdan farq qiluvchi obrazlari tasvir etiladi. Bu yerda tom ma'noda barpo bo'lish emas, balki inqiroz va undan keyingi qayta shakllanish bor"[1:81]. Mazkur tadqiqotlarda metamorfoza yaxlit badiiy qonuniyatlar asosida o'rganiladi. Ba'zi tadqiqotlarda, xususan, K. Mikkonen metamorfozlarni matnlarni qayta ishlash usuli deb hisoblaydi va uni intertekstuallik tushunchasi bilan bog'laydi [7]. D.Galleger esa metamorfozlarning mifologik tasavvur orqali qabul qilinishini ta'kidlasa [4], K.Perry esa "Metamorfozlar "jismoniy o'zgarishlarni inkor etish" vositasi bo'lib, adabiy o'zgarishlarning xayoliy maydoni diniy, axloqiy va siyosiy tuzilmani tanqid qilishga imkon beradi" deb hisoblaydi [8:237]. Bu kabi fikrlarni yana davom ettirish mumkin. Ushbu maqolada esa badiiy metamorfoza makon va zamon bilan aloqadorlikda o'rganilgan. Bu jarayonni amalga oshirishda bir nechta metodlarni qo'llash samaralidir, albatta.

Mazkur maqolada induksiya metodidan foydalanish o'rinlidir. Sababi dastavval, tanlab olingan har bir hikoya mazmunidagi metamorfoza, badiiy zamon va makon xususiyatlari alohida o'rganiladi (analiz qilinadi), so'ngra ularni yaxlitlab, mazkur masalalar yuzasidan muayyan xulosaga kelamiz (sintez qilinadi). Shuningdek, muallif uslubini o'rganishda ham analiz va sintez usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, qiyoslash metodi orqali ikki xil – G'arb va Sharq adabiyoti namunalari asosida asar badiiyatining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib beriladi. Voqealar bayoni sabab va oqibat dialektikasiga binoan tahlil etildi. Shu bilan birga asar mazmuni va u orqali muallif aytmoqchi bo'lgan fikrlar avtobiografik metod aloqadorligida qayta tekshirildi va muayyan natijalar olindi.

Natijalar va munozara (Results and Discussion; Результаты и обсуждение). Keyingi yillar jahon nasrida metamorfoza janrning xususiyatlarini aks ettiruvchi element emas, syujetning o'ziga xos strukturasi hosil qiluvchi usullardan biriga aylandi. Kafkaning "Evrilish" hikoyasi aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. Zamonaviy o'zbek nasrida, xususan, Nazar Eshonqulning "Bahovuddinining iti" hikoyasida esa metamorfoza qahramonning ma'naviy-ijtimoiy yuksalish darajasini ko'rsatish usuli sifatida tashkillanadi.

Har ikki hikoyani tutashtirib turuvchi syujetga xos belgi metamorfozadir. Kafka

asari qahramoni Gregor Zamzaning noma'lum, yirik hasharotga aylanib qolishi va bu holatning u tomonidan tezda qabul qilinishi absurd adabiyoti xususiyatlardan biridir. Gregor Zamzaning hasharotga do'nishi uning jismoniy – oilani moliyaviy tanqislikdan olib chiquvchi ishchi kuchi sifatida keraksiz vujudga aylanganini ko'rsatadi. Avval boshda bu holatdan qo'rqib ketgan ota-onasi, singlisi, so'ngra undan jirkanib, nafratlanishni boshlashadi. Gregorning hasharotga xos zaifligi, instinktlari uni yanada yolg'izlatadi. Kafka metamorfozasi jamiyatda qanday qilib insonning o'zgarib qolishi va uning o'z yaqinlari tomonidan go'yo bir jirkanch hasharotdek unutilishi, va hatto, tugab, chiqitga chiqishi mumkinligini badiiy ko'rsatib beradi. Hikoyadagi metamorfoza go'yo bo'lishi muqarrar hodisa kabi tabiiy yuz beradi. Bu jarayonning yuz berishi qanday kechgani, qancha vaqt oralig'ida ro'y bergani ma'lum emas, bu matnda izohlanmaydi. Zamza oilasi yashaydigan uy va bir xona (Gregorning xonasi)da kechadigan voqealar nafaqat shu mikromakonda, balki butun bir jamiyatda - makromakonda yuz berayotgandek tasavvur uyg'otadi. Albatta, bu anglanish hikoyaning g'oyaviy mazmun qamrovini belgilaydi. Hikoya voqealari badiiy zamonning ikki xil sur'atida kechadi. Zamza xonadonidagi yashash tarzi, garchi moddiy qiyinchiliklar ortsa-da bir maromda oqayotgan badiiy vaqt silsilasida davom etadi. Gregor uchun esa vaqt to'xtab qolgandek edi. Uning xonasida vaqt juda sekinlashadi: "Gregor ota-onasini o'ylab kunduz kunlari derazaga tirmashmasdi. Ammo bu katakday xona polida hadeb sudralaverish uning joniga tegdi. Kechayu kunduz qimirlamay yotish undan battar. Hatto ovqat ham unga yoqmay qolgan edi"[11]. Ko'ringanidek, Gregor bilan bog'liq hatti-harakatlar badiiy vaqt tezligini "o'ldiradi". Chunki u uchun metamorfozaik holat anglash vaqti. Ayni qahramon bilan bog'liq tasvirlarda asarning ijtimoiy-psixologik qamrovi kengayadi. Chunki Kafka badiiy olamiga xos avtobiografik chizgilar hikoyaga ham ko'chadi: badjahl ota, yaqinlarining mehri, e'tiboriga tashnalik Gregorni oxir-oqibat o'ldiradi.

Kafka asarida syujet metamorfoza bilan boshlanib, bu evrilish qahramonning asliga qaytishi bilan emas, balki shu holatda o'lim topishi bilan yakunlanadi. Gregor metamorfozasi makoniy xoslikni ham tanlaydi. Ya'ni u chinakam hasharot kabi karavot ostiga yashirinadi, xona devorlari va shifti bo'ylab o'rmlaydi. Bu makoniy chegara qahramonning ijtimoiy belgilari: begonalik, ruhiy tanazzul, sotsial munosabatlarning cheklanganligini ifodalaydi. Kafka qahramoni jamiyat uchun begona va bema'nilikdan ma'no axtarayotgan inson obrazidir.

Nazar Eshonqulning "Bahovuddinining iti" hikoyasi syujetida esa metamorfoza asar so'ngida sodir bo'ladi. Hikoyada rejissorning itga aylanib qolishi muallif uslubiga xos ramziy-timsoliy tasvir. Bu to'g'rida adabiyotshunos olim B.Jovliyev shunday yozadi: "Qahramon "it"ning tovushi bilan o'zining kibridan voz kechadi, oddiy insoniylik qiyofasiga – ilohiy maqomga qaytadi. Vafo, sadoqat, faqirlik, komillik mumtoz adabiyotda ma'naviy yetuklik timsoli sifatida sharhlanadi. Bu fazilatlaridan uzoq yashayotgan zamonaviy kasb egasi bo'lmish rejissor tashlandiq bog'ga qaytgach, bu yerda "it" qiyofasidagi o'zligiga duch keladi. O'zligi bilan uchrashgan qahramon faqir va gadoy bo'lsa ham bir umr o'zligi bilan qolishni ma'qul ko'radi" [6:90].

Adabiyotshunos olim U.Jo'raqulovning fikricha mazkur hikoyadagi it obrazi alohida metaforik obraz: "Birinchi hikoyadagi Devona ham (Nurulloh Muhammadning "Etakdagi kulba" asari nazarda tutilyapti – N.Ch.), ikkinchi hikoyadagi it ham yagona shaxs, demakki, jamiyat osoyishtaligiga rahna soladi. Mavjud oqimni izdan chiqaradi. Hikoyalardagi Devona bilan it, Begona bilan jurnalist obrazlari go'yo egizakka o'xshaydi. Metaforikligi jihatidan to'rtala obraz ham o'z manzil-makonida "olami kabir"ni ifodalaydi. Ammo bu olamlarning ikkitasi (Devona va it) o'tmish, boshqasi esa hozir qiyofasiga ega. Mana shu ikki zamon va ikki siyratning qorishuvi metaforik model originalligini, o'ziga xos hikoya xronotopini, estetik idealning umuminsoniy, shu bilan birga zamonaviyligini ta'min etadi" [5:223-224].

E'tiborimizni tortgan jihat shuki, syujetda badiiy metamorfozaning tanlanishi.

Hikoyadagi ziyoli, kasb-korga ega, jamiyatning faol a'zosi bo'lgan shaxs nega evrilishga yuz burdi? Aslida, shakl o'zgarsa-da, mohiyat o'zgarmaydi. Yer yuzidagi har bir mavjudlik Allohning tajallisi ekan, shu aks alal-oqibat asliyatga ergashadi, qaytadi, u bilan birlashadi. Tasavvufga ko'ra shunday. Bu qaytish, albatta, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Buning uchun nafs barham topishi, yo'l belgilanishi, ma'rifat hosil etilishi kerak. Bu bosqichlar esa pir-murshidlik an'anasida qaror topadi. Komillik darajasiga erishish uchun bu yo'lni o'zidan avval bosib o'tgan pirdan maslak istaladi. Go'yo "Lison ut-tayr"dagi qushlar ulug' visolga yetishish uchun simurg'ni qidirib, yakunida o'zlari simurg'ga aylanganlaridek. Buyuk visolga oshiqqlar "tolibi sodiq"qa evriladilar, bu yo'lda sobit bo'ladilar: go'yo hikoya epigrafida keltirilgani kabi: "... Shayx u go'zalning jamolini ko'rish umidida yor ko'chasidagi itlar orasiga qo'shildi" [3:342]. Xullas, Qalbdagi Ishq va Iymon, purning ko'rsatmalarigina asl mohiyatni tushunishga yo'l ochadi.

Asarning o'ziga xos vazmin ohangi – ritmini ramziylik foni ta'minlaydi. Voqealarning sirli, birin-ketin, sabab-oqibat dialektikasida yuz berishi, badiiy vaqt uzluksizligi va maromini belgilaydi. Hikoya zamoni real va irreal tushunchalarni birlashtirib turuvchi cheksiz, subyektiv vaqtdan iborat. Itning musibatli uvlashi tashlandiq makon bilan uyg'un. Har ikki belgida ham ojizlik, har qanday hashamat va dabdabadan holi azaliy haqiqatlar mavjud. Inson Haqqa yetishishi uchun shakl va makon chegara bo'la olmaydi, vaqt esa bu yetishuvni ta'minlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarimiz metamorfoza motivi va obrazning bir ma'nosi. Hikoyada boshqa bir ma'no ham borki, bu inson erki masalasi. Asardagi quyidagi izohga e'tibor qilaylik: "Ko'zlarimni ochganimda uvillash yo'qolar, yumib olishim bilan qulog'im tagida paydo bo'lar, meni o'z ohangigiga olib kirib ketardi. Uvillashda xo'rlik va haqorat to'la edi. Mahkumlik va mute'lik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo'rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi" [3:357] Nazar Eshonqul asarlarining bosh mavzusi bo'lgan erkinlik, ozodlik ushbu asarda ham yetakchilik qiladi. G'arb adabiyotining eng sevimli mavzularidan biri bo'lgan shaxs ozodligi, uning jisman, fikran erkinligi masalasi ushbu hikoyaning yana bir ma'naviy qatlamini ko'rsatadi. Hikoyadagi metamorfozaik tasvir bu erkinlikdan mosuvo inson fojiasini ham tasvirilaydi. Demak, matndagi metamorfoza bir paytning o'zida ikkita: ham diniy-tasavvufiy, ham ijtimoiy-falsafiy g'oyani tashishga xizmat qilmoqda. Buning ortidan asarga tegishli kitobxon vaqti (idrok vaqti) ikki baravar uzayadi, kengayadi.

Nazar Eshonqulning "Istilo" hikoyasida ham metamorfoza hikoya so'ngida sodir bo'ladi. Asar qahramoni o'z yurtining bosqinchilar tomonidan istilo etilganidan so'ng ta'qibda, qo'rquvda, yolg'izlikda yashaydi. Hikoyada qahramon o'tmishi – bolaligini xotirlaydi, shu zamonga xayolan qaytadi. So'ng yana ortga - ayni paytda o'zi mavjud bo'lgan vaqtga qaytadi. Asarda tanlangan metamorfoza shakli – qahramonning aynan qo'zichoqqa aylanib qolishi hikoya g'oya va mazmuni bilan uyg'un. Chunki qo'zichoq ojiz, qaram va yuvosh, doim o'lja bo'luvchi jonivor. Mazkur metamorfoza qullikka asoslangan totalitar tuzumning jabrlanuvchilari bo'lgan erksiz va tobe olomonning ramziy-majoziy tasviridir. Asardagi badiiy makon ham shu tasvirga xoslangan ya'ni qulagan qo'rg'onning hujrasi bosqinchilar tomonidan barbod qilingan, talangan, toptalgan makon sifatida taassurot qoldiradi. Bu kabi hujrada qo'zichoqning bo'lishi tabiiy hol ekani va shu orqali xaroba aylangan yurtga, erki tugagan, o'zi esa yo'qotilgan millatga ishora bor. Qahramon qanchalik ojiz bo'lsa, u yerdagi makon ham shunday omonat, to'kilib bitgan. Hikoyada istilo etilgan yurt, jamiyat, millat va avlod majoziy ko'rsatib beriladi. Metamorfoza ham ushbu g'oyani ifodalashga xizmat qilgan. Muallif mazkur hikoyani keyinchalik "Shaftoli guli" to'plamida, "Saylanma"sida "Evolyutsiya" nomi ostida nashr ettirdi. Aslida, asar sarlavhasi ham semiotik belgi, narrativ koddur. Chunki ushbu sarlavhadan keyin hikoyani yana bir yangi mazmunda talqin etish mumkin. O'ta sivilizatsiyalashayotgan jamiyatda texnologiyalar inson turmushini qulaylashtirish bilan birga, uning ruhiy-ma'naviy qiyofasiga xavf solidi.

Bu esa asardagi kabi maxluq oldida insoniyatning ojiz va notavon qolishiga o'xshaydi. Bu xulosani aynan sarlavhaga tayanib ta'kidlash mumkin.

Xullas, obyekt sifatida tanlangan hikoyalarda Inson borlig'ining deformatsiyalari badiiy metamorfoza asosida ko'rsatib beriladi. Badiiy zamon va makon ayni shu tasvirga uyg'un holda tashkillanadi. Umuman olganda badiiy inshoot bo'lmish asarning har bir uzvi inja va, ayni paytda, mustahkam, tasodifiy bo'lmagan aloqalardan iborat. Ularni yaxlit o'rganish asar badiiyatini teranroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baxtin M. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 288 b.
2. Bachelard. Launstreamont. Paris, 1968. – 167 p.
3. Eshonqul N. Saylanma: I tom. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 512 b.
4. Gallagher D. Metamorphosis: transformations of the body and the influence of Ovid's Metamorphoses on Germanic Literature of the Nineteenth and Twentieth Centuries. N.Y., 2009.
5. Jo'raqulov U. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – 356 b.
6. Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida) : Filol.fanlari.fals.dokt....diss. – Toshkent, 2023. – 127 b.
7. Mikkonen K. Theories of Metamorphosis: from metatrophe to textual revision — Phetoric and Poetics, 1996.
8. Perry K.A. Another Reality: Metamorphosis and the Imagination in the Poetry of Ovid, Petrarch, and Ronsard. N.Y., 1990.
9. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.
10. Якобсон Р. Работы по поэтике. - М.: Прогресс, 1987. - 464 с.
11. www.ziyouz.com

O'ZBEK VA INGLIZ TOPISHMOQLARINING BADIY VA KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

Choriyeva Zebiniso Baxtiyor qizi,
Qarshi Davlat universiteti ingliz filologiyasi fakulteti o'qituvchisi.

Annotatsiya. Dunyo folklorshunosligida bolalarning badiiy tafakkuri va estetik didini o'zlashtirish maqsadida yaratilgan xalq og'zaki ijodi janrlarining paydo bo'lish jarayoni hamda tarixiy-poetik tadrijiy rivojini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Folklorning kichik yoshdagi bolalarga qaratilgan lirik namunalari genezisini, etnopedagogik mazmun-mohiyatini, poetik kompozitsion, ijro xususiyatlarini yoritish esa etnofolkloristika asoslarini ochishda, xalq og'zaki ijodining pedagogika va etnografiya kabi fanlar bilan integratsion taraqqiyoti tarixini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida bolalar folklorining poetik tabiati, obrazlar tarkibi, motivlari va badiiy-estetik vazifalarini bevosita ijro holati bilan bog'lab tadqiq etish tamoyili kuchayib bormoqda. Natijada dunyo xalqlari bolalar folkloridagi o'xshash janrlarning shakllanishi va tadrijiy taraqqiyoti tarixiy-folkloriy jarayonning tarkibiy qismi ekanligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, topishmoqlar, kompozitsiya, xalq og'zaki ijodi hikoyalari, tilshunoslik, qo'shiq, ertaklar;

ARTISTIC AND COMPOSITIONAL CHARACTERISTICS OF UZBEK AND ENGLISH RIDDLES

Choriyeva Zebiniso Bakhtiyar kizi,
Teacher of Karshi State University, Faculty of English Philology.

Annotation. In world folklore studies, special attention is paid to determining the process of emergence of genres of folk oral works created in order to develop children's artistic thinking and aesthetic taste, as well as the historical-poetic gradual development. Elucidation of the genesis, ethnopedagogical content, poetic composition, and performance features of folklore lyrical examples aimed at young children is of great importance in opening the foundations of ethno-folkloristics, in substantiating the history of the integration of folklore with such disciplines as pedagogy and ethnography. Nowadays, the principle of researching the poetic nature of children's folklore, the composition of images, motives, and artistic-aesthetic tasks in direct connection with the state of performance is gaining strength in world folklore studies. As a result, it was proved that the formation and gradual development of similar genres in children's folklore of the peoples of the world is a component of the historical-folkloric process.

Key words: children's folklore, riddles, composition, stories of folk oral creativity, linguistics, song, fairy tales;

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И КОМПОЗИЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ЗАГАДОК

Чориева Зебинисо Бахтияр кызы,
преподаватель Каршинского государственного университета, факультет
английской филологии.

Аннотация. В мировом фольклористике особое внимание уделяется определению процесса возникновения жанров народных устных произведений, созданных в целях развития у детей художественного мышления и эстетического вкуса, а также историко-поэтическому постепенному развитию. Выяснение генезиса, этнопедagogического содержания, поэтического состава и исполнительских особенностей фольклорных лирических образцов, ориентированных на детей раннего возраста, имеет большое

значение в раскрытии основ этнофольклористики, в обосновании истории интеграции фольклора с такими дисциплинами, как педагогика и педагогика этнография. В наше время в мировой фольклористике набирает силу принцип исследования поэтичности детского фольклора, композиции образов, мотивов, художественно-эстетических задач в непосредственной связи с состоянием исполнения. В результате было доказано, что формирование и постепенное развитие подобных жанров в детском фольклоре народов мира является составной частью историко-фольклорного процесса.

Ключевые слова: детский фольклор, загадки, сочинение, рассказы народного устного творчества, языкознание, песня, сказки;

Introduction. omposition (Latin: compositio - structure, union, connection) is an arrangement of parts of an artistic work connected in terms of content, character and purpose. The artistic and compositional features of Uzbek and English riddles clearly show the skill of the artist. Through composition, the author organizes lines, shapes, colors and images, absorbs spatial breadth and creates an artistic environment. Logicality, clarity of form and their mutual harmony form the basis of the composition. At the base of every work created by the artist is a composition, in which the thoughts and feelings formed in the process of perception of existence are reflected. There are «static» and «dynamic», «open» and «closed» types of composition. Composition is defined and limited by certain «laws» (canons). This has led to a narrowing of the means of compositional expression. During the Renaissance period, «static» and «closed» composition prevailed, and in Baroque art, «dynamic» and «open» composition prevailed. In the history of art, compositions based on laws and free composition methods played an equally important role. In the period of renaissance, there was a desire to scientifically justify the composition. This sort of tricky question is what we'd call a "riddle." It's a question or puzzle that often has a funny, clever or unexpected answer. A riddle makes you think about the many different meanings of a word[3].

In riddles, the composition is the situation, interrelationship of various parts that serve the artistic formation of the work, events, characters-images, lyrical digressions, description of details, and so on. The integrity of the puzzle composition is its main condition. Excess characters, episodes and details reduce the value of the work. Therefore, there should be no shortage or excess in the work of art. the originality of the composition depends on the arrangement of plot elements, the presence or absence of non-plot elements (lyrical, philosophical-journalistic digressions, additional episodes), the norm and order of tools such as landscape, portrait, psychological image, author's description. composition creation method and styles are different. Since ancient times, the composition has been understood as inextricably linked with the idea of the work. composition is not just the structure of the work, but the purpose of this structure, what it is based on. The composition depends on the idea of the work. Whether the selected image or story is suitable for inclusion in the work or not can be determined only in relation to what the writer wants to say[1]. This is also an important aspect of composition. composition is one of the important factors that show how meaningful the content is in this aspect.

Riddle — 1) your work (form); 2) the product of the composer's creativity; 3) the process and type of creation of multilingual riddle works; It consists of information such as the principles of creating puzzle themes, the ways of effective use of multi-voice musical instruments in their development, the genre of puzzles, the characteristics of types and styles, the rules for the structure and completion of works.

A riddle can be defined as a complex question, usually expressed in the form of a metaphor. The difference between a proverb and a riddle is that a riddle has to be guessed, while a proverb is a lesson. This special «question-and-answer» literature covers many works of different eras and peoples, while in Indian poetry, in

«Edda» and «Kalevala» repetitions of the same motif can be found. English and other enigmatic Slavic songs generally contain legends about the «wise girl» and riddles that tend to prove that the bride is no more stupid than the groom. The riddle contains items related to the correct answer - so this is what distinguishes the riddle from other generalization questions. If you refer to textbooks like Wiki, then you will have a dry law, a puzzle is one that predicts each other and develops logic and reasoning, etc. There is a saying: «the answer is always bigger than the question». The concept of «mystery» is known to many from childhood[2].

The riddles have to be in the language the kids involved speak. So, if the kids you're riddling speak English, make sure the riddle can be understood in that language. Give the kids a theme to orient them in the right direction. So, give them a head's up that you're giving them an animal riddle when the answer involves an animal. Let them know they'll have to think in numbers when you give them a math riddle. In every way you can, give the kids the best chance to stay engaged and work hard at solving the riddles. If you're going to be giving them a particularly tricky riddle, go ahead and let them know ahead of time. Let them know it's ok not to know things. For example, to answer most riddles, your kid needs to know what the words in the riddle mean and their various applications. For example, when you ask, "What has a head, a foot, and four legs?" your kiddo needs to know that the concept of "legs" applies not only to animals but to beds. If they don't know that, well, the riddle is a way for you to teach them and expand their perspective and vocab[5]. Many must have heard a similar expression - the riddle of the Sphinx. In Giza, next to the pyramids, there is a huge stone statue of a lion with a human face for many centuries. Obviously, nature tried to place it in such a way that once a year the shadow at the top of the Sphinx coincides with the top of the main pyramid at sunrise. The whole complex, together with the sphinx, forms a kind of hieroglyph that holds a message that has not yet been revealed by science. The secrets that modern science is working on have to do with knowing the human heart. Belief in God has always helped people to survive in the most difficult circumstances. The area around the Holy Sepulcher is carefully guarded - both before and during the Sacred Fire Ceremony. But no fraud has been detected yet. Riddles are one of the oldest folklore genres. Even Aristotle, speaking of poetic art, when speaking of riddles, called this genre a well-constructed metaphor. There are many writings and statements about riddles. There are several definitions of the puzzle. In particular, some literary experts gave the following definition of a riddle: «A riddle is a description of something, usually given in the form of a question.» V.P. Anikin defines a riddle as «a complex question presented in the form of a complex, short, as a rule, rhythmically organized description of an object or phenomenon.» According to the definition of folklorist V.I. Chicherov, «riddles are an allegorical description of an object or event, usually given in the form of a question.» The main way of describing the find is metaphor (in simile). With the development of society, the subject of riddles changes, but its importance in human life and development remains unchanged: a riddle reflects the essence of something or an event, their most special signs, which folk wisdom expresses in very easy and simple, simple, backward words. represents, it is of invaluable pedagogical value. For the learning process, it is a strong point of concentration around which a complete picture of the subject or phenomenon being studied is formed. In appropriate situations, it is recommended to make riddles for children. The puzzle can be used for walking, in games, at home, at work. It forces the child to think, develops observation, the desire to reflect and knowledge of the surrounding reality. The form itself, riddles, attracts the attention of children and makes teaching interesting, indifferent. A puzzle is not only a game, but also an exercise in reasoning and proof skills. But the content and structure of the riddles are such that they allow children to develop their logical thinking, to develop the skills of speech-evidence, speech-image perception and their use. Thus, the riddle is both an educational tool and a tool for teaching and developing children.

It is appropriate to classify the artistic and compositional features of Uzbek and English riddles as follows.

In Uzbek	In English
1. "Tabiat va inson" "Moviy parda butun dunyoni qopladi", osmon topishmoqda juda aniq ko'rsatilgan.	1. "Nature and Man" "A blue veil covered the whole world", the sky is very clearly indicated in the riddle.
2. "Iqtisodiyot va moddiy hayot" "Bizni nima ovqatlantiradi, lekin ovqatlanishimizni so'ramaydi?"	2. "Economy and material life" "What feeds us but does not ask us to eat?"
3. "Jamoat va oilaviy hayot" "Ho'kiz yuzta tog'da, mingta ko'lda hurdi"	3. "Community and family life" "The ox barked on a hundred mountains and a thousand lakes"
4. "Madaniyat" "Yurdim, yurdim, ikkita yo'l topdim va ikkalasiga ham ketdim".	4. "Culture" What's black and white and read all over?"(A newspaper)
5. "Topishmoq-hazillar, topishmoqlar-topshiriqlar" "Yurdim, yurdim, ikkita yo'l topdim va ikkalasiga ham ketdim" (shim).	5. "Riddles-jokes, riddles-tasks" "I walked, I walked, I found two ways and went to both" (pants).

Solving puzzles is a really complex series of mental operations. Taking into account the complexity of such an activity as solving a puzzle, educational work should be started from a young age group. In the younger group, you can use descriptive riddles (non-rhyming text containing the names of various qualities of the object and, possibly, the method of action or goal). Such «puzzles» are very convenient for children 3-4 years old, because at this age, children, as a rule, have already formed ideas about the color, size, sometimes taste of objects, and these qualities are functionally important (lemon only). yellow and sour, cucumber green). The vocabulary of preschool children includes a sufficient number of adjectives and verbs. Riddles-definitions offered to children of preschool age are divided by topic.

These riddles are used in the didactic game «Find by definition». Riddles - descriptions (3-4 years). Flowers: daisy - it has many white petals; dandelion - it has many yellow leaves. Vegetables: potatoes - the skin is brown and the inside is white; carrot - it is elongated, orange; cucumber - elongated, green, tomato - round, red, hanging; turnip - round, large, yellow, sweet. Trees: birch - it has a white trunk, pine - it has long green needles. Fruit: apple - can be round, red, yellow, green; sweet, sour; banana - elongated, yellow. Insect: butterfly - it has beautiful wings, it trembles; Beetle - he whispers. Birds: crow - big, black, screams; sparrow - small, chirping; rooster - big, crowing. Animals: cat - soft, meows, washes; dog - bites, barks; the hare is gray in summer, white in winter, has long ears (ears are bigger than the head); fox - red coat, long furry tail, cunning; bear - big, brown, small tail, sleeps in winter. Toys: ball - like a ball, jump, doll - she looks like a girl. Clothes: coat - we wear it only in autumn, winter, spring; jacket - we wear it in autumn, spring. Transport: truck - it has a body; a passenger car - he drives, few people enter it. Utensils: a bowl - for pouring tea, with a handle, a saucepan - for boiling soup. Furniture: table - they eat, draw, write, sculpt; chair - they sit on it and have legs; bed - to sleep on it. Body parts: hands - they help us eat, sculpt; legs - they help us walk, run, jump; fingers - they help us pick up, hold, write, draw. Children in the middle age group already distinguish correct pronunciation from defective pronunciation. This is due

to the intensive development of phonemic hearing at this age (although the phonetic aspect of speech may still be very imperfect). From 5 to 5.5 years old, children can distinguish the first and last sounds in a word, count the number of syllables, divide a word into syllables, find words that are similar in phonetic structure, and rhyme for a word they choose. This explains that when working with 4-5-year-old children, it is necessary to use riddles that require the last word - riddles to be agreed upon. Therefore, the riddle is already given in a rhyming form, which attracts children's attention, increases their interest, activates speech (to get the word of the riddle in the rhyme, the child must analyze the content of the riddle (a). The number of speech thinking operations), select several words that match in meaning, and then select a rhyming word from their number. In a large group, children should be offered riddles, a rhyming question that corresponds to the general idea of the riddles. However, this question should not contain figurative descriptions and comparisons. Comparison should force the child to look for common external signs that do not exist in the inner essence of any object or phenomenon. Children have a sufficient vocabulary that includes words of all categories, but the child is not yet able to draw complex analogies between the object and its description, associations appear only as a result of external similarity, qualities and actions. Therefore, riddles should be such that the child thinks and reason, but not abstractly, but on an emotional level. The gradual complexity of the content of riddles offered to children allows to activate more and more mental operations in different age groups. Therefore, for the preparatory group, children are taught to distinguish the important signs of objects, to combine objects into groups according to their purpose, qualities, actions, to distinguish the necessary things, if they are sufficiently described. In addition, in a small group, the riddle is reduced to only a description (often without rhyme), in the middle group - to a partial description with rhyme - in a large group, the hint is reduced to a rhymed, very complete description. In the preparatory group, children who complicate the educational task are offered riddles containing a brief description, often metaphorical comparisons, twists. Adherence to the principle «from simple to complex» during three years allows children to be adequately prepared for such a complex activity as solving riddles with abstract, comparative descriptive content. Such riddles require children not only to know the characteristics and qualities of objects, the names of the objects themselves, but also the ability to make complex analogies, associations, understand phraseological units and metaphors. Developing the ability to understand the meaning of phraseological units and metaphors is a very difficult task, because even older preschool children often clearly understand their meaning. The teacher's task is to understand the meaning of metaphors, metonyms, phraseological units, to make as many associations as possible for the child to understand. The meaning of riddles, twists, phrases is carefully understood in the preparatory group, as never before, because children must not only understand them, but also independently explain their content and meaning. The riddle has been defined since the time of Aristotle, who called it a well-crafted metaphor[6].

It is made up of many genres, such as riddles, quick sayings, and counting. Songs in adult folklore, fairy tales in children's folklore are adapted for children. However, epics, proverbs, and stories are not found in children's folklore because they are related to complex life problems. Scientists have tried to answer the question of who creates children's folklore.

In English	In Uzbek
You see a boat filled with people, yet there isn't a single person on board. How is that possible? Answer: All the people on the boat are married	Ko'prik tagida to'rtta qoziq
You walk into a room that contains a match, a kerosene lamp, a candle and a fireplace. What would you light first? Answer: The match	To'rt mergan bir quduqqa suv otar.
I have branches, but no fruit, trunk or leaves. What am I? Answer: A bank	Shildir-shildir suv kechar, oyog'i suvga tegmas.
The more of this there is, the less you see. What is it? Answer: Darkness	Oppoq kenglikda bitta otni uch chavandoz minib kertishmoqda. Orqalaridan rangli iz qoldirib bazan o'nga bazan chapga qayrilib ketishmoqda. Savol. Nima xaqida gap ketyapdi. chavanod nimaga qiyoslandi? ot nimaga qiyoslandi? oppoq kenglik nima degani.
What has many keys but can't open a single lock? Answer: A piano	Ertak she'r-u matnlar Yashar bir mamlakatda Dunyoni o'rganishda Uning xizmati katta
If you've got me, you want to share me; if you share me, you haven't kept me. What am I? Answer: A secret	Suvga tushsa mingta, suvdan chiqsa bitta.
What has lots of eyes, but can't see? Answer: A potato	Qoziq ustida qor turmas.

Children's folklore of Uzbek and English folk riddles, as one of the traditional, independent poetic genres, clearly shows all the poetic features characteristic of folk singing and has a special place among the genres. Riddles, which are one of the oral poetic forms, are one of the important sources for studying the gradual development of the genre. Riddles are manifested as a whole poetic system through certain genre features, artistic compositional features, linguopoetic elements, stanza construction, weight and rhyming system peculiarities. Riddles, as humorous songs created by adults for children, pave the way for a correct assessment of the genetic connection between children's folklore and adult folklore. It is noticeable that the repertoire of popular interest played an important role in their creation. Therefore, recording and special research of examples of the genre of fast telling not only creates a perfect classification of the genres of Uzbek and English children's folklore, but also substantiates their connection with adult folklore, the poetic laws associated with folklore traditions are manifested in children's singing. It is of great importance in proving the effect of popular interest with the emergence of quick sayings, as well

as in proving that a number of examples of children's creativity, such as sanama, tezhimachak, and guldur-gup, developed in relation to each other.

Riddles are told by adults to children. They are created and performed by adults for two purposes: firstly, to interest children in life events, living, and to teach life relationships, and secondly, in order to entertain children and play. Riddles of the first purpose do not involve humor, and in the second one, in many cases, there are expressions and images made of humor or satire.

References

1. Виноградов Г. Детская сатирическая лирика. – “Сибирская живая старина”. – Вип. ИИИ-ИВ. – Иркутск, 1925. – С.84-92.
2. Виноградов Г. Детский фольклор и бит. Программа наблюдений. Випуск ИИИ. Иркутск, 1925. – С. 50-71.
3. Nizomova M. B. Polysemantic features of pedagogical terms in English and Uzbek translation. // Current research journal of philological sciences 2(12): 21-25, December 2021 .DOI: <https://doi.org/10.37547/Philological-crjps-02-12-05> ISSN 2767-3758, – 2021. Master Journals. 21-25 pages.
4. Виноградов Г.С. Народная педагогика. Изд. Восточно-Сибирского Отдела Русского Географического Общества, 1927. – С.27-31.
5. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. – T.: Fan, 1998. – 96 b.
6. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi, 1975. – 102 b.
7. Jo'rayeva M. O'zbek folklorida topishmoq. – T.: Fan, 2011. – 112 b.
8. Mirzayev T., va b. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 1990, – 304 b.
9. Nizomova, M. B. (2022). Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages. American journal of philological sciences, 2(03), 1-6.
10. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3-jild. – T.: Fan, 1963. – 462 b.
11. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – T.: O'qituvchi, 1985.–250 b
12. Низомова, М. Б. (2022). Pedagogikaga oid terminlarning etimologik komponenti asosida ilmiy matnlarni tarjima qilishni o'rgatish modelini amalga oshirish. Международный журнал искусство слова, 5(2).



**TALABALAR MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDA
ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

*Fayoz Vahobjonovich Khalilov
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, doktoranti
Orchid ID: 0009-0007-6324-6592*

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ
ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ОРГАНИЗАЦИИ
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ**

*Фаёз Вахобжонович Халилов
Бухарский инженерно-технологический институт, докторант*

**EFFECTIVE USE OF MODERN DIDACTIC TOOLS IN ORGANIZING
STUDENTS' INDEPENDENT WORK**

*Fayoz Vahobjonovich Khalilov
Bukhara Institute of Engineering and Technology, doctoral candidate*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda oliy ta'lim tizimiga davlat tomonidan berilgan e'tibor, shaxsan prezidentimiz tomondaridan tizimni yanada rivojlantirishga qaratilgan Farmonlari va unda olg'a surilgan g'oyalar to'g'risida ma'lumotlar o'z aksini topgan. Bundan tashqari oliy ta'lim tizimida kredit tizimi va unda talabalar mustaqil ishlarining tashkil etilganligi, uning shakllari, bugungi kun holati to'g'risida, ko'pgina olimlar tomonidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil samarali tashkil etishlari bo'yicha qarashlari yoritilgan. Institutda talabalar mustaqil ishlarini tashkil etilganligi, aniq fan bo'yicha tatbiq etilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqot yuzasidan xulosa qismi keltirilgan.

Kalit so'zlar: talaba, oliy ta'lim, mustaqil ish, kredit-modul, tizim, tahlil, fan, ta'lim, didaktik vosita, motiatsiya, texnologiya

Аннотация: В статье рассмотрены внимание правительства к системе образования в нашей стране, поручения Президента о дальнейшем совершенствовании системы и сведения о высказанных в ней идеях. Кроме того, описывается кредитная система в высшем образовании и организация самостоятельной работы студентов, ее формы, состояние на сегодняшний день, мнения большинства ученых об эффективной организации самостоятельной работы студентов. Также указано формирование самостоятельной работы студентов, организация по точным наукам. Заключение о научном исследовании включено.

Ключевые слова: студент, высшее образование, самостоятельная работа, кредит-модуль, система, анализ, наука, образование, дидактический инструмент, мотивация, технология.

Annotation: It is depicted in this article the attention of the government towards the educational system in our country, orders of the President about further improvement of the system and informations about the raised ideas in this. Furthermore, it is also described the credit system in higher education and organization of students' independent working, its forms, the situation of today, opinions of most scientists about effective organization of students' independent working. The forming of students' independent working, organizing according to the exact science are also stated. Conclusion about scientific research is included.

Key words: student, higher education, independent work, credit-module, system, analysis, science, education, didactic tool, motivation, technology.

Kirish. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kon

tsepsiyasini ta'kidlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida xalqaro ilg'or tajribalarga tayangan holda, oliy ta'lim standartlarini joriy etish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim yo'nalishlari o'quv fan dacturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish vazifalari belgilab berilgan [1].

Hukumatimiz tomonidan yuqori malakali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun belgilangan vazifalar muammolarini kompleks hal etish zarur, bu ko'plab omillarga bog'liq: ta'lim mazmunini malakali loyihalash, zamonaviy usullar, o'quv jarayonining didaktik vositalari va texnologiyalari, shuningdek o'qituvchilarning doimiy malakasi oshirish va talabalarning mustaqil ishlarni bajaritish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish hamda ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayoni qayta ko'rib chiqib uni takomillashtirish.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlar bo'yicha mustaqil ishlari ta'lim jarayonining muhim formasi emas, balki uning asosiy formalaridan biri bo'lishi kerak. Chunki, mustaqil ish talabada ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan umummadaniy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga va professional faoliyatini muvoffaqiyatli olib borishi uchun chuqur bilim va malakalarni egallashga xizmat qiladi. SHu bilan birga mustaqil ishlarni kompetentli yondoshuv prin tsiplari asosida tashkil etish orqali bilimlarni egallashning faol metodlariga o'tish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini hamda bo'lajak kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holda jamoaviy o'qitishdan individual o'qitishga o'tish imkoniyatlarini beradi. Bu erda asosiy masala fanlar bo'yicha mustaqil ishlarga ajratilgan soatlar hajmini oshirish ustida emas, balki talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni prin tsipial jihatdan qayta ko'rib chiqish, talabalarda mustaqil bilim olish qobiliyatlarini shakllantirish, olgan bilimlarini amaliyotda joriy etish va ularni bo'lajak kasbiy faoliyatiga adaptatsiyalash vazifalari nazarda tutiladi.

Shu munosabat bilan talabalarga ta'lim berish sifati hamda ularning mustaqil ishlarining samaradorligi to'g'ri tuzilgan o'quv jarayoniga, qo'llaniladigan didaktik vositalariga, o'qitish metodlariga va texnologiyalariga bevosita bog'liq. To'g'ri tanlangan didaktik vositalar, o'qitishning metodlari va tashkiliy shakllari talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishga yordam beradi va talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirishga imkon beradi

Bolonya jarayoni - bu Evropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirish jarayonidir. U tushunish oson bo'lgan va o'xshash oliy ta'lim darajalar tizimini yaratishni, ta'limda kredit-modul tizimiga o'tishni, ta'lim sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Evropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Evropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

O'zbekistonda kredit ta'lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Evropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'lim sifatini va dunyo ta'lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir. ECTS kredit tizimi ko'p millatli Evropa an'alarini inobatga olgan holda turli ta'lim tizimlarini yaqinlashtiradi. Kredit-modul tizimida ahamiyat beriladigan asosiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin [2]:

- talabalar bilimini reyting asosida baholash;
- o'qitishning modulli texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashini ta'minlash uchun fanning metodik ta'minotini yanada takomillashtirish.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- o'quv jarayonini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan va kurs kesimida kreditning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting asosida aniqlash va baholash;
- talabalarning o'z shaxsiy o'quv rejalarini individual tarzda shakllantirishga imkoniyat yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yiladigan talabdan kelib chiqib o'zgarishlarni amalga oshirish;
- talabalarning fanlar va professor-o'qituvchilarni tanlashi uchun imkoniyatlar yaratish.

Bundan ko'rinib turibdiki kompetentli kadrlarni tayyorlashda talabalarning bilim olishlarida mustaqil ishlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Hozirgi vaqtda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar mustaqil ishni o'qituvchilar tomonidan fan uchun taqdim etilgan mustaqil ish mavzularini talabalar bajarishlari, idrok etishlari va mustaqil tushunishlari kerak deb bilishadi. Boshqa bir tadqiqotchilar bu hodisaning mohiyatini faqat tashqi belgilar bilan ochib beradi. Yana birlari esa mustaqil ishni yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va chuqur egallash, o'quvchilarning o'zlari tomonidan ish ritmini o'rnatish va qo'yilgan savollarni o'rganish uchun vaqt miqdori kabi asoslar bilan belgilaydilar.

Bundan kelib chiqadiki, mustaqil ishlar nafaqat shaklga ega, balki o'rganish vositasi hamdir, shunday ekan talabalar ma'lum yangi bilimlarni va ko'nikmalarni shakllantirishlari uchun bir qancha funktsiyalarni bajarishlari lozim: rivojlantiruvchi, axborot – o'rgatuvchi, yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi, ta'lim va tadqiqot [3].

Tahlil etilgan dissertatsiyalar va ilmiy-uslubiy ishlar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun turli xil o'quv vositalaridan foydalanilgan, lekin uni qayd etish ishlari amalga oshirilmagan va shuning o'qitish vositasi sifatida qaralmagan. Ko'p yillik ta'lim berish tajribasi shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoniga turli didaktik vositalari qo'llash orqali talabalar fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari mumkin, shuningdek, davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq bo'lajak muhandislarining kompetentsiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tahlil etilgan dissertatsiyalar va ilmiy-uslubiy ishlar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun turli xil o'quv vositalaridan foydalanilgan, lekin uni qayd etish ishlari amalga oshirilmagan va shuning o'qitish vositasi sifatida qaralmagan. Ko'p yillik ta'lim berish tajribasi shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoniga turli didaktik vositalari qo'llash orqali talabalar fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari mumkin, shuningdek, davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq bo'lajak muhandislarining kompetentsiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarning mustaqil ishlarini bilan bog'liq muammalarni ko'plab olimlar va ilmiy izlanuvchilar tatqiq etishgan, jumladan, mustaqil ishlarni tashkil etish masalalarini S.I.Arhangelskiy, M.N. Axmetova, N.V. Bordovskoy, V. Ya.Lyadis, P.I.Pidkastyoy, A.P. Tryapitsyna ko'rib chiqishgan bo'lishsa, talabalar mustaqil ishlarining "individualligi"ni rivojlantirish shartlari E.H.Voronova, I.A. Ivanov tadqiqotlarida bayot etilgan bo'lsa, talabaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish ishlarini S.N. Gayday, V.P. Ushachyova tadqiqotlarida uchratish mumkin, Mustaqil ish talabalarning individualligini rivojlantirish sharti sifatida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan A.K.Vorstera, I.A.Dubovec, E.V.Ospennikovoy shug'ullanishgan, V. Ya. Lyadis, P.I. Samoylenko, G.V.SHironina va boshqa olimlar talabalarning mustaqil ishlarini turli o'quv didaktik vositalar yordamida tashkil etish bo'yicha izlanishlar olib borgan, hamda A.E.Jukova, N.V.Smetaninoy, L.V. Turkinoy va boshqa bir qancha olimlar Mustaqil ish samaradorligini oshirishga bag'ishlangan

ilmiy ishlarni olib borishgan.

Talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etishda didaktik o'quv vositalaridan foydalanish bo'yicha V.P. Bespalko, N.V. Bordovskaya, L.Ya. Zorina, Yu.G. Tatur, N.L. Shubina, N.E. Erganova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib boishgan.

Mamlakatimiz pedagog olimlaridan T.T.SHOymardanov, N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, O.X.To'raqulov, A.R.Xodjaboev, R.Mavlonova, U.N.Nishonaliev, E.T.Choriev, O.A.Qo'ysinov va boshqalar o'z tadqiqotlarida talabalar mustaqil ta'limining tashkiliy va metodik asoslari borasida fikr yuritganlar.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida T.R.Niyazmetova, R.Saidova, A.I.Axmedov, B.M.Turdibaeva, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.Nishonova, J.Tolipova, N.Xalilov, S.Matchanov va boshqalar o'z ishlarida tadqiq qilishgan.

Jahon pedagogik amaliyoti shuni ko'rsatadiki oliy ta'limni rivojlantirishning milliy va jahon tendentsiyalarini o'rganishda quyidagilarni ko'rish mumkin:

- zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlar uzluksiz ta'lim g'oyasining o'ziga xos qiymatini talab qiladi, bunda talabalardan doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirishlari talab etiladi;

- axborotlashgan jamiyat sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishda tub o'zgarishlar talab etiladi: sinf yuklamasini kamaytirish, ma'ruzalarni passiv tinglashni esa talabalarning mustaqil ishlari ulushini oshirish bilan almashtirish;

- ta'limdagi og'irlik markazi o'quvchilarning mustaqil ishlarni o'qitishdan uni o'rganishga o'tishdir.

Hozirgi kunda zamon talablariga mos, kompetentli mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchilar tomonidan talabaning mustaqil faoliyatini tizimli ravishda nazoratga olish eng asosiy o'qitish vositasi sifatida qaralishi lozim.

Talabaning mustaqil ishlarini bajarish yoki o'tkazish joyi hamda vaqti, o'qituvchi tomonidan uni boshqarish va natijalarini nazorat qilish usuliga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

- auditoriya mashg'ulotlarida (ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari);
- o'qituvchi nazorati ostidagi mustaqil ishlar rejalashtirilgan konsultatsiyalar, test sinovlariga va imtihonlarga tayyorlanish shaklida;
- talaba tomonidan o'quv va ijodiy xarakterdagi vazifalarini auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarish.

Metodlar. Har qanday sharoitda talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish uchun avvalo uning loyhasini, amalga oshirish shartlari, mexanizmlari ishlab chiqiladi. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish shartlariga binoan talab va takliflardan kelib chiqib, taqdim etilgan ma'lumotlar ishonchliligi bilan ahamiyatlidir. Buni amalga oshirishning bir nechta metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mustaqil ishning nazariy asoslari va qo'yilgan vazifalar, eksperimental tadqiqotni tashkil etish shartlari va metodlari belgilab beriladi. Mustaqil ishlarni bajarishda jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. Tizimni tahlil qilish usuli (shu jumladan morfologik va funk tsional-parametrik tavsif).

2. Statistik usullar (normativ, qiyosiy, tasodifiy baholash usuli, o'zgarishlarni kuzatish usuli, konstruktiv-tanqidiy usul va boshqalar.).

3. So'rov usullari: intervyular, anketalar, ijtimoiy o'rganish usuli.

Bo'lajak muhandislarning mustaqil ishlarida tizimli yondashuv metodidan foydalanish bizga loyihani yaratish va amalga oshirish shartlarini belgilashda hattoki tabiatning ko'plab elementlarining o'zaro ta'sirini hisobga olishga, ob'ektga eng katta ta'sir ko'rsatadiganlarni aniqlashga, ularga samarali ta'sir qilish yo'llarini topishga imkon beradi.

Muhandislik mavzulariga oid mustaqil ishlarni bajarishda loyiha yaratish va

amalga oshirishda normativ, qiyosiy, tasodifiy baholash usuli, o'zgarishlarni kuzatish usuli, konstruktiv-tanqidiy metod kabi statistik metodlarlar ham zarur.

Mustaqil ishni bajarishda normativ metod orqali loyiha faoliyatining umumiy baholashlari belgilanadi. Unda ba'zi ko'rsatmalar mavjud, bunda «buni qanday qilish kerak», «tizim yoki quyi tizim qanday bo'lishi kerak», «ba'zi hujjatlarni qanday rasmiylashtirish kerak» kalitli so'zlardan foydalanish mumkin. Asosan me'yoriy-huquqiy baza muayyan modellar, tasvirlar, shtamlarda o'rnatiladi, ularga muvofiq loyiha faoliyatining haqiqiy darajasi baholanadi [4].

Bugungi kun Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar rahbarligida talaba o'z-o'zini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun eng asosiy vosita bu mustaqil ta'limni samarali va to'g'ri ta'minlashdir.

Talabaning mustaqil ishini texnologik jihatdan samarali tashkil etish quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Talabalar mustaqil ta'limi maqsadlarni tanlash texnologiyasi. Davlat ta'lim standartida, malaka talablarida, kasbiy nazariyalarda, kurslarning maqsadini aniqlashtirishda, tizimlarda, texnologiyalarda aniq belgilanishi;

- Talabalar mustaqil ta'limi mazmunini tanlash texnologiyasi. Bunga Davlat ta'lim standarti, o'qitish manbalari (adabiyot, tajriba, o'z-o'zini tahlil etish), talabalarning individual psixologik xususiyatlari.

- Topshiriqlarni loyihalash texnologiyasi. Vazifalar turli darajadagi maqsadlarga mos kelishi, har bir fanning mazmunini aks ettirishi, talabalar faoliyatining turlari va bilim darajalarini o'z ichiga olishi kerak.

- Nazoratni tashkil etish texnologiyasi. Nazorat vositalarini chuqur tahlil etib tanlash, bosqichlarini aniqlash, turli xil nazorat vositalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Maxsus fanlarni o'rganishda talabalarning mustaqil ishi alohida ahamiyatga ega, chunki u talabalarni kerakli adabiyotlar bilan ishlashga undaydi, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SHuning uchun bir nechta talabalar jamoasiga keys topshiriqlarini ishlab chiqish istiqbolli ko'rinadi, chunki bu yondashuv talabalarga jamoaviy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu turdagi mashg'ulot jamoa bilan ishlashda har bir shaxsga o'z rollarni taqsimlashni va individual topshiriqlarni bajarishni hamda bajarilgan ishni baholash murakkabligini o'rgatadi. SHu orqali talabalar yangi bilimlarni oson va tez o'zlashtiradilar, ular bevosita ishtirok etgan jarayonlarni yaxshiroq yoki yorqinroq tushunadilar.

Mustaqil ishini tashkil etishda axborot texnologiyalari, ta'lim platformalari va boshqa dasturiy vositalar talabalarga juda yaxshi imkoniyatlarni berishi mumkin, masalan jarayonlarni loyihalashda, real jarayonlarning atrofdagi voqelikka asosanib ehtimoliy xususiyatini inobatga olgan holda modellarini ishlab chiqish imkon beradi. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va talabadan zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etishi shubhasiz.

Mustaqil ish faoliyat xarakteriga ega va shuning uchun uning tarkibida faoliyatga xos bo'lgan tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin: motiva tsion aloqalar, muayyan vazifani belgilash, amalga oshirish usullarini tanlash, nazorat qilish. [5]

Mustaqil ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- o'quv vazifasini rag'batlantirish;
- belgilangan aniq vazifalarni bilish;
- talabaning bilimi topshiriqni bajarish usulini, algoritmini bajarish bo'yicha etarli bo'lishi;
- o'qituvchi tomonidan toshiriq hajmi, uni topshirish usuli va hisobot shakli hamda muddatlari aniq belgilash lozim;
- konsultatsiya turlarini aniqlash (o'rnatish, tematik, muammoli maslahatlar);
- baholash mezonlari, hisobot berish va h.k;
- nazorat turlari va shakllari (seminar, nazorat ishlari, test, seminar va boshqalar).

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda talabalarning motivatsiyasini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Motivatsiyaning uch turi mavjud:

1. Tashqi motivatsiya – kasbiy karyeraning universitetda o'qish natijalariga bog'liqligi.

2. Ichki motivatsiya – talabaning moyilligi, universitetda o'qish qobiliyati. Talaba yo'nalishni yoki mutaxassislikni tanlashda universitetga kirishdan oldin turli xildagi testlar, so'rovnomalar orqali uni boshqarish imkoni mavjudligi.

3. Pro tsessual (o'quv) motivatsiya – talaba bajargan topshiriq foydaliligini tushunishida namoyon bo'ladi. Bu talabaning kasbiy tayyorgarligi, mutaxassisning dunyoqarashi va bilimni kengaytirish nuqtai nazaridan ham bajarilayotgan ishning ahamiyatiga psixologik moslashishni talab qiladi. Talabaga mustaqil ishlarining natijalari ma'ruza materialini kengroq tushunishga yordam berishini ko'rsatish kerak. Talabalar mustaqil ishlarining bajarilishi kurs ishi, kurs loyihalarining ajralmas qismi hisoblanadi ayniqsa bitiruv ishini bajarishda juda katta samara beradi.

Ushbu motivatsiyani amalga oshirish uchun aynan bir fan misolida tushintirishga harakat qilamiz:

“Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda lokal, global tarmoqlarni loyihalash. Tarmoqlarni loyihalashda OSI modeliga asoslanish to'g'risidagi ma'lumotlarni berish. Tarmoqqa ulanadigan turli xil qurilmalar uchun IP manzillarni tanlash va ular orqali ma'lumotlarni uzatishni o'rgatish. Bundan tashqari tarmoqda ma'lumotlar xavfsizligini taminlash bo'yicha mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

“Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fani uchun jami 150 soat ajratilgan bo'lsa, unda auditoriya mashg'uloti uchun 60 soat, mustaqil ta'lim uchun 90 soat yuklama taqsimlangan. Ushbu fan uchun 5 kredit ajratiladi va kredit tizimi orqali baholanadi.

Natijalar. Biz amaliy faoliyatimizda “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish va talabalarning faolligini oshirish uchun quyidagilarni tatbiq etdik:

- Auditoriyada o'tiladigan mavzular o'zlashtirishlari, mustahkamlashlari uchun talabalarga mavzuga oid savol va topshiriqlar ishlab chiqildi;

- Talabalarga individual va jamoa bilan birgalikda topshiriqlarni bajarish uchun topshiriqlar ishlab chiqildi

- “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni mustahkamlash uchun “Cisco Packet Tracer” dasturiy ilovasidan foydalanish bo'yicha ko'rsatma ishlab chiqildi

- Mustaqil ish mavzularini mustaqil o'qib o'rganishlari, loyiha sifatida topshirishlari uchun turli xil o'quv adabiyotlar, ilmiy ishlanmalar, internet havolalari, video va audio materiallar bilan ta'minlandi

- Ta'lim yo'nalishining malaka talabidan kelib chiqqan holda, talabalarga kompetentli muhandis bo'lishlari uchun auditoriyada qamrab olinmagan mavzularni mustaqil o'rganishlari uchun tayyorlandi

- Talabalar mustaqil ishlarni bajarib, topshiriqlarni topshirishlari uchun ta'lim platformasiga joylashtirish imkoni yaratildi

- Mustaqil ishlar mazmunan to'liq bajarilganligini tekshirish uchun ishlab chiqarishdan volontyor mutaxassislar jalb etildi

Munozara. Xulosa qilib, aytganda talabaning mustaqil ishi bo'lajak kompetentli mutaxassislarni tayyorlashda katta rol o'ynaydi, chunki u talabalarni yangi bilimlar bilan boyitadi, har qanday nostandart vaziyatlarda o'z yechimini topishga undaydi va qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Talabalar mustaqil ish samaradorligini oshirish uchun ularni tashkiliy usullari, shakllari va zarur o'quv-uslubiy materiallari bilan ta'minlash zarur.

Talabalarga zamonaviy laboratoriya, texnologiya, o'qitish texnikalari orqali bilim berish ularning kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, mutaxassis sifatida kasbiy



kompetentini rivojlantirish hamda ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish zarur.

Bundan tashqari:

- har bir topshiriqning hajmi shunday ishlab chiqilishi kerakki, talaba nazariy va amaliy olgan bilimlarini yaxshi o'zlashtirgan holda, berilgan topshiriqning barcha savollariga belgilangan vaqt ichida yozma ravishda javob berishga ulgurishlari zarur.

- - fan bo'yicha barcha vazifalar bir xil murakkablikda ishlab chiqilishi tavsiya etiladi;

- - har bir topshiriqda yetarlicha aniq javoblarni talab qiladigan savollar bo'lishi kerak;

- - o'quv adabiyotlarida har bir topshiriqda mustaqil o'rganiladigan material bo'yicha savol bo'lishi kerak;

- - o'tilgan ma'ruza mashg'uloti materiali bo'yicha tuzilgan savollar yoki topshiriqlar mazmunan bir xil bo'lmasligi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni <https://lex.uz/docs/-4545884>

2. М.Л. Болтаева, Kredit–modul ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatining dolzarbligi/ Ученый XXI века • 2022 • № 5-1 (86), 46-49 bet

3. С.С. Рахматов., Использование дидактических возможностей информационных технологий в учебном процессе/Информационно-коммуникационные технологии: достижения, проблемы, инновации (ИКТ-2022), 2022 г. 198-201 стр.

4. И.Н.Мишин, Реализация проектной деятельности в системе студентоцентрированного обучения/ Высшее образование в России. 2022. Т. 31. № 3, 141-150 стр.

5. О. В. Мицук, Самостоятельная работа как условие профессионального самосовершенствования учителя в образовательном процессе учреждений дополнительного профессионального образования/ Вестник ТГПУ. 2011. Выпуск 6 (108), 27-32 стр.

FUTBOL MUXLISLARI SLENGI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Xasanov Zafar Baxtiyorovich

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

Annotatsiya. Maqola futbol muxlislari jargoni shakllanishining nazariy jihatlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Futbol muxlisining nutqi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, zamonaviy sharoitda ular internet forumlari va hamjamiyatlarida xolisona namoyon bo'lishi qayd etiladi. Futbol muxlislarining ma'lumot beruvchi funksiyani amalga oshiradigan nutqi ko'pincha klishe konstruksiyalar bilan to'ldiriladi. Futbol muxlisi nutqining o'ziga xos xususiyati uning dinamikligidir. Futbol muxlisining nutqi lingvistik hodisa sifatida futbol muxlislari tilida aniqlangan nutqiy xususiyatlarning yig'indisida o'z ifodasini topadi. Ushbu hodisa dinamik bo'lib, bu yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: futbol diskursi, futbol tili, til o'zgaruvchanligi, rus tili, ingliz tili, futbol terminologiyasi, lingvistik vositalar, metafora, sotsiolekt.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СЛЕНГА ФУТБОЛЬНЫХ БОЛЕЛЬЩИКОВ

Xasanov Zafar Baxtiyorovich

*Узбекский государственный университет мировых языков
Вопросы молодежи и духовно-просветительские
заместитель декана по делам*

Аннотация: Статья посвящена рассмотрению теоретических аспектов формирования сленга футбольных болельщиков. Указывается, что языковая личность футбольного болельщика имеет ряд специфических черт, которые в современных условиях наиболее объективно репрезентируются в интернет-форумах и сообществах. Отмечается, что речь футбольных фанатов, в рамках которой они реализуют информативную функцию, зачастую наполнена клишированными конструкциями. Особенной чертой речи футбольного болельщика является её динамичность. Языковая личность футбольного болельщика как лингвистический феномен находит своё выражение в совокупности особенностей речи, выявленных в языке футбольных болельщиков. Данное явление несёт динамичный и многоаспектный характер, что требует дальнейшего и более глубокого изучения.

Ключевые слова: футбольный дискурс, язык футбола, языковая вариативность, русский язык, английский язык, футбольная терминология, футбольный сленг, языковые средства, метафора, социолект.

THEORETICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF SLANG FOOTBALL FANS

Khasanov Zafar Bakhtiyorovich,

Uzbekistan State University of World Languages Youth issues and spiritual and educational deputy dean for affairs

Abstract: The article is devoted to the consideration of the theoretical aspects of the formation of the slang of football fans. It is pointed out that the linguistic identity of a football fan has a number of specific features, which in modern conditions are most objectively represented in Internet forums and communities. It is noted that the speech of football fans, in which they implement an informative function, is often filled with cliched constructions. A special feature of the speech of a football fan is its dynamism. The linguistic personality of a football fan as a linguistic phenomenon

finds its expression in the totality of speech features revealed in the language of football fans. This phenomenon is dynamic and multifaceted, which requires further and deeper study.

Key words: football discourse, football language, linguistic variability, Russian language, English language, football terminology, football slang, linguistic means, metaphor, sociolect.

Kirish. Yirik sport tadbirlari, shuningdek, yirik siyosiy voqealar, yirik ofatlar, urushlar va milliy bayramlar milliy birdamlikni mustahkamlovchi asosiy ommaviy marosimlardir. Agar sport milliy identifikatsiya uchun katalizator vazifasini o'tasa, millat sport orqali o'zini namoyon qilish va tan olinishga intiladi. Ta'kidlash kerakki, aynan jamoaviy sport turlari ijtimoiy va milliy qadriyatlarni tarbiyalash va namoyon etishga xizmat qiladi.

Futbol, shubhasiz, dunyodagi eng mashhur jamoaviy sport turi bo'lib, u o'zining sadoqatli muxlislari ishtiyoqi bilan ta'minlangan. Futbol diskursi, umuman sport diskursi kabi, barcha ijtimoiy qatlamlarni qamrab olganligi sababli zamonaviy dunyoda eng mashhur diskursdir. Futbol – bu professionallar, havaskorlar va ko'plab muxlislar tomonidan shug'ullanadigan sport turi. Uning namoyon bo'lishi xilmayildir.

Adabiyotlar sharhi. Sh. Balli, I.A. Boduen de Kurtene, V. fon Gumboldt, A.A. Potebnya kabi mashhur xorijiy va rus olimlarining tadqiqotlari til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik masalalariga bag'ishlangan. Ayrim olimlar madaniy komponentni lingvistik tadqiqotlarning ajralmas qismi deb hisoblaydilar. "Xalqlarning jahon tizimiga integratsiyalashuvining tezlashishi" sifatida madaniyatning globallashuvi tilda o'zgarishlarga olib keladi, buning natijasi o'zlashtirish jarayonidir. Dunyoning turli tillarida olib borilgan tadqiqotlar (L. Blumfeld, V. Vaynrayx, L.P. Krysin, A.P. Maiorov) hukmron jahon madaniyati tili sifatida ingliz tilining leksik birliklari eng ko'p o'zlashtirilganligini ko'rsatadi.

Davlatimizning zamonaviy siyosati sport va sog'lom turmush tarzini ommalashtirishga qaratilgan bo'lib, shu munosabat bilan eng muhim sport tadbirlari: Olimpiada o'yinlari, yengil atletika, suv sporti bo'yicha jahon chempionatlari va boshqalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada shubhasiz e'tibor futbolga qaratilgan. Har yili ushbu sport turi muxlislari soni barqaror ravishda o'sib bormoqda, bu esa «futbol muxlislari» kichik guruhining shakllanishiga olib keladi, bu «futbol jargoni» yoki «futbol slengi» o'ziga xos tilning mavjudligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy tilshunoslikda futbol terminologiyasiga bag'ishlangan bir qator ishlar mavjud (A. Zilbert, B. Zilbert, Zaxarovich, Elistratov va boshqalar).

Milliy birlikni mustahkamlovchi asosiy jamoaviy marosimlar yirik siyosiy voqealar (masalan, saylovlar, ofatlar, urushlar, milliy bayramlar, dafn marosimlari yoki yirik sport tadbirlari) bilan ifodalanadi. Sport milliy taqdimotlar o'z ifodasini topadigan qimmatli madaniy maydondir. J. Maguayr millat va sport o'rtasidagi dialektik munosabatlar haqida gapirar ekan, sport milliy identifikatsiya uchun katalizator vazifasini bajaradi, millat esa sport orqali uning tasdig'i va tan olinishini ta'minlaydi deydi.

Shubhasiz, jamoaviy sport turlari millat va jamoalar qadriyatlarini tarbiyalash va namoyon etishga ta'sir qiladi. Futbol, shubhasiz, dunyoning asosiy jamoaviy o'yini va aynan futbol ishqibozlari odatda eng sadoqatli deb hisoblanadilar. Futbol musobaqalari mahalliy o'yinlar doirasida milliy o'zlikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatmasa-da, xalqaro miqyosda o'tkaziladigan o'yinlar butun xalqni ifodalovchi yagona jamoa bilan bog'lanadi, "so'zning to'g'ri ma'nosi bilan aytganda davlat bayrog'ini ko'tarib maydonga kirib, o'z mamlakati madhiyasini kuyladi". Shunday qilib, futbolchilar oddiy o'yinchilar sifatida emas, balki o'z xalqini jahon arenasida targ'ib qilish mas'uliyati yuklangan millat vakillari sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi o'n yilliklarda mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar futbol tufayli sezilarli darajada kengaydi. Ushbu munosabatlarni tartibga solish uchun tillararo

muloqot vositalarini topish kerak. Bugungi kunda, har qachongidan ham, turli til va madaniyatlar egalari o'rtasidagi muloqotning samaradorligi haqida savol tug'iladi. Futbol nutqida qo'llaniladigan lingvistik vositalar, ayniqsa, tilning ekspressiv vositalarini o'rganish bizning tadqiqot vazifamizdir, chunki ular institutsional madaniyat kodeksining tarkibiy qismlari bo'lib, sport diskursining milliy-madaniy parametrlarini shakllantirishda ishtirok etadi. Madaniyat va til tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladigan ixtisoslashgan futbol tili alohida hodisa bo'lib, matn yaratishning kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, futbol sohasida muvaffaqiyatli muloqotga erishish uchun o'rganilayotgan diskursning kognitiv-pragmatik jihati, uni verbalizatsiya qilish usullarini etnomadaniy tadqiq qilish zarurdir.

Yuqorida aytilganlarning barchasi submadaniyatning maxsus ramzlari, jargon va boshqa atributlarni shakllantirishga xizmat qildi, keyinchalik ular futbol muxlislarining zamonaviy tilini shakllantirish uchun asos bo'ldi: болельщик (muxlis), футболист (futbolchi), нападающий (hujumchi), защитник (himoyachi), вратарь (darvozabon), судья (hakam), команда (jamo'a), мяч (to'p), соревнования (musobaqa), antifascist (fashistik g'oyalar muxoliflari), bus (muxlislar bilan avtobus), skinhead (soqolini olgan, skinhed), glory hunter (shon-sharaf ovchisi), scarfer (klub ramzi tushirilgan sharf kiygan muxlis) [Бургаков 2016:4].

Muhokama. Deyarli har qanday futbol tadbirining muhim elementi bo'lgan muxlislar sevimli jamoalarini qo'llab-quvvatlashlarini qarsaklar, hayqiriqlar, mahalliy jamoani qo'llab-quvvatlovchi yoki raqib jamoa va uning muxlislarini masxara qiladigan qo'shiqlar orqali bildiradilar. Muxlislar va sportchilar tilidagi ba'zi iboralar odamlarga tushunarsiz tuyuladi, ba'zan esa mutlaqo kulgili ko'rinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muxlislar va futbol ishqibozlarining nutqlari asosan metafora, ko'pincha harbiy, tajovuzkor yoki hajviy, masxara, shuningdek, sleng so'z va iboralar bilan ifodalanadi. Tilda qabul qilinmagan bo'lsa-da, u nutqni o'zining jonliligi, moslashuvchanligi va kutilmagan zukkoligi bilan sezilarli darajada boyitadi.

Futbol matchini tomosha qilayotganda ingliz tilida so'zlashuvchi futbol muxlislaridan tez-tez eshitiladigan iboralarni ko'rib chiqamiz: What a screamer! (sensatsiya, ajoyib nusxa); What a beauty! (go'zallik) / What a cracker! (chiroyli va hokazo) – odatda Messi, Ronaldu kabi ustalarga nisbatan qo'llaniladi, chunki bu so'zlar o'yinchi uzoq masofadan gol urib, stadiona shodlik portlashiga sabab bo'lganda ishlatiladi. That was a sitter (oddiy masala) / he should have buried that (u ko'mib qo'yishi kerak edi) – bu ikki ibora ko'pincha jamoa o'diy o'yin vaziyatida gol ura olmaganida qo'llaniladi. Ularga muxlislarining qo'rquv, qayg'u va g'azab aralash tuyg'ulari hamroh bo'ladi. We need a clean sheet (so'zma-so'z "bizga toza varaq kerak") – bu ibora darvozabon gol o'tkazib yubormasligiga va shu bilan jamoaga g'alaba qozonish imkoniyatini berishiga umid bildiradi. It's time to park the bus (avtobusni to'xtatish vaqti keldi) – bu ibora o'ta himoyaviy o'yin uslubini talab qiladi, bunda jamoa o'z darvozasini (a clean sheet) saqlab qolishga astoydil harakat qiladi, bunda barcha 11 o'yinchi raqiblar tomonidan hujum qilish tahdidlariga to'sqinlik qilishga intiladi, bu esa darvoza oldida turgan avtobusdek taassurot qoldiradi. Man on! – stadion bu iborani o'yinchi dushmanning yaqinligini sezmaganda aytadi va shu bilan yaqinlashib kelayotgan hujum haqida ogohlantiradi. The wall did its job (devor ishladi) – jarima zarbasini tepishda "devor"ning bir qismi bo'lish uchun jasorat kerak degan ma'noni bildiradi. Erkin zarbada o'yinchilar to'pdan 10 metr masofada «devor» deb ataladigan chiziqda turishlari kerak. Agar devor mustahkam bo'lsa va to'pni to'sib qo'ysa yoki uni chetga surib qo'ysa, o'yinchilar o'z ishlarini bajargan deb aytiladi [English football slang].

Futbol ishqibozlarining ma'lumot beruvchi vazifasini tushunadigan nutqi ko'pincha klishe konstruksiyalar bilan to'ldiriladi. Masalan, «эффектный момент» (ajoyib lahza), «очевидные проблемы» (aniq muammolar), «построить игру» (o'yin qurish), «проблемы в обороне» (mudofaadagi muammolar), «виден прогресс»

(taraqqiyot ko'rinadi), «системные ошибки» (tizim xatolari), «положительный результат» (ijobiy natija).

Futbol ishqibozi nutqining o'ziga xos xususiyati uning dinamikligidir. Uni aniqlash juda qiyin, ammo uning ifodasi sintaktik konstruksiyalarning ma'lum bir turidir. Qoida tariqasida ular sodda gaplar orqali ifodalanadi (masalan, «Класс!», «Супер!»).

O'yinlar yakunida muxlislar o'rtasidagi muloqotda, birinchi navbatda, nutqning analitik vazifasi amalga oshirilishi kerak. Bu nutqni so'roq savollari bilan to'ldirishni o'z ichiga oladi (masalan, «Хватит ли тренерскому штабу способностей не развалить команду в ближайших играх?» (Murabbiylar shtabi keyingi o'yinlarda jamoani buzmaslik qobiliyatiga ega bo'ladimi?)). Misoldan ko'rinib turibdiki, bunday muhokamalar ritorikdir, garchi ular keyingi suhbatni qo'llab-quvvatlasa va rag'batlantirsa ham.

Muxlislar nutqining muhim qismi nutqning baholash vazifasini amalga oshirishdir. Replikalarda u hissiy ekspressiv til vositalarida o'z ifodasini topadi.

Futbol muxlislari futbol o'yini haqida o'z fikrlarini bildirish uchun turli uslub va janr vositalarini tanlashlari mumkin. Shu sababli, muxlislar bayonotlari orasida rasmiy biznesning lug'atini ham, badiiy uslubni ham, so'zlashuv va ba'zan hatto odobsiz so'zlarni ham uchratish mumkin.

Shu bilan birga, har bir futbol ishqibozlari nafaqat o'yin taktikasi, balki jamoani boshqarish borasida ham o'z iqtidorini ko'rsatishga harakat qilmoqda. Bu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildirish darajasi odamlarning futbolga bo'lgan chuqur qiziqishidan, ularning yoshi va madaniy saviyasidagi farqidan, shuningdek, klub tarixi, an'analari, murabbiylari va hokazolarni bilishidan dalolat beradi.

Demak, futbol ishqibozlarining lingvistik hodisa sifatidagi lisoniy o'ziga xosligi futbol ishqibozlari tilida aniqlangan nutqiy xususiyatlar yig'indisida o'z ifodasini topadi. Ushbu hodisa dinamik va ko'p qirrali bo'lib, bu yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Futbol ishqibozlarining lingvistik faoliyati faqat og'zaki muloqot bilan cheklanmaydi. Muxlislar o'z fikrlari va his-tuyg'ularini o'yin davomida ko'rsatilgan jamoa bayroqlari yoki bannerlarda ham ifoda etadilar. Stadiondan tashqarida jamoa muxlislari o'z fikrlarini muxlislar jurnallari (fanzines), onlayn bloglar va muhokama saytlari (forumlar) orqali bildiradilar. Ular norasmiy tilni ishlatishga moyil bo'lib, ba'zida raqib muxlisarga murojaat qilganda haqoratli bo'lib qoladi. U yerda nashr etilgan matnlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki ulardagi lingvistik shakllar gibriddir – yoshlar tili va ma'lum bir submadaniyat tili media shaklida beriladi. Tilshunoslarning chat-muloqot kontekstida sport muxlislari tomonidan yaratilgan yangi, interaktiv matn turlarini tahlil qilishga qiziqishi ortib bormoqda, chunki diskursiv makonga kiritilgan matnlar materialidan foydalangan holda zamonaviy tilshunoslikning ko'plab asosiy muammolarini yoritish mumkin bo'ladi.

Umuman futbol tili jonli futbol sharhlarida, muxlislar nutqida uchraydigan turli-tuman idiomatik iboralar, metaforalar, idiomalar, shuningdek, o'zlashtirib olishlar bilan ajralib turadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, fransuz futboli terminologiyasidagi o'zlashgan so'zlarning aksariyati anglitsizmlar tufayli paydo bo'lgan. Ingliz tili futbol slengida futbol voqeliklarini nomlash uchun fransuz va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar mavjud.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, futbol milliy o'ziga xoslik haqidagi munozaralar xaritada tasvirlangan va ommaviy kommunikatsiyalar orqali vositachilik qiladigan tasavvurni taqdim etadi. Sport gapiradigan til boshqa tillardan farq qilmaydi. U xalqlarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy mohiyatining bir qismidir.

Futbol muxlislari qisqartirilgan so'z birikmalaridan foydalanadilar. Masalan, «жаба» – klubni o'zgartirgan muxlis; «болото» – sifatsiz yer; «утка» – stadiondagi skameyka; «пердь» (пердьявка) – viloyat; «adopted ball» – gol; «ball boy» – to'p

uzatadigan bola; “chest” (shuningdek chest trap) – ko'krak bilan to'pni qabul qilish; “dummy” – aldanchi harakat; “hoof!” (копыто) – to'pni raqib darvozasi tomon kuchli olib tashlash uchun ishlatiladigan atama va boshqalar.

Ingliz tilida bo'lgani kabi rus tilida ham umumiy jargon va turli guruh va professional jargonlar va adabiy til o'rtasida lug'at almashinuvi mavjud. Boshqa subtilardan ko'plab elementlarni o'zlashtirgan futbol jargoni tezda umumiy foydalanish uchun yangi so'zlarni ishlab chiqara boshladi.

Futbol ishqibozining jargoni metaforik model sifatida namoyon bo'ladi, bunga misol sifatida “матч – битва” kabi so'zlar bo'lishi mumkin, u barcha sport mashg'ulotlariga singib ketgan va chuqur ildizlarga ega, chunki sport faoliyati “dastlabki musobaqaga, jangga tayyorgarlik edi” [Елистратов 2005:5].

Rus tilidagi juda ko'p miqdordagi o'zlashgan so'zlar bilan bir qatorda yangi voqeliklarni nomlash zarurati tufayli ruscha ildizlar, metaforalarga asoslangan yangi so'zlarning shakllanishi jarayoni bir vaqtning o'zida davom etdi.

Natija. Futbol muxlislari jargoni – bu boshqa subtilarning so'z boyligini faol ravishda o'zlashtiradigan, o'ziga xos so'z va iboralarni yaratadigan va ular bilan umumiy tilni boyitib turuvchi dinamik subtildir.

Bugungi kunga qadar futbol ishqibozlarining jargoni to'liq shakllanmagan. Fan harakati rivojlanish jarayonida, shuning uchun vaqti-vaqti bilan yangi leksik birliklar paydo bo'ladi. Biroq, hozir ham lug'at shunday holatdagi, ushbu submadaniyat va uning tili bilan tanish bo'lmagan odam uchun ushbu jargondagi suhbatning ma'nosini tushunish qiyin – ushbu submadaniyat dunyosidagi aniq vaziyatni bilmaslik, qo'shimcha semantik ma'no yuklatilgan ko'plab so'zlarning mavjudligi sababli.

Futbol tilini quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin: o'ta ixtisoslashgan atamalar, keng qo'llanish doirasidagi terminlar, jargon, futbol aforizmlari va maqollari. Shu bilan birga, futbol tilining ma'lum leksik birliklar bilan boyitishi notekis kechganini ta'kidlash joizki, bunga muxlislarning futbolga bo'lgan qiziqishi darajasining o'zgarishi, shuningdek, ayrim ijtimoiy va hatto siyosiy omillar sabab bo'lgan.

Ingliz tili bilan chambarchas bog'liqlik futbol slengi lug'atining o'ziga xos xususiyatlarini aniqladik. Biz o'rgangan so'zlarning aksariyati anglitsizmlardir. Yangi so'zlarning ma'nolari bilan bir qatorda, ular bilan birga kelgan semantik hodisalar ham rus tiliga ingliz tilidan o'tadi. Shu bilan birga, futbol jargonidagi xorijiy so'zlar rus tiliga xos grammatik toifalarni egallab, tezda nutqqa integratsiya qilinadi.

Xulosa. Ruscha so'z yasovchi morfemalar yordamida olingan so'zlar asosida doimiy ravishda yangi so'zlar hosil bo'ladi. Futbol slengidagi so'zlar so'z yasashning turli usullaridan foydalangan holda faol ravishda yaratiladi, ulardan eng faoli prefiks va qo'shimchalardir. Ko'pincha so'z ildizining kesilishini ham uchratish mumkin, chunki muxlislar nutqni soddalashtirish uchun so'zlarni iloji boricha qisqartirishga moyildirlar.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, futbol muxlislari slengi boshqa tillar lug'atini faol ravishda o'zlashtiradigan, o'ziga xos so'z va iboralarni yaratadigan va ular bilan umumiy tilni boyitib turuvchi dinamik tildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alder J. Football Glossary [Электронный ресурс]. URL: <https://www.thoughtco.com/football-glossary-1335397>.

2. English football slang [Электронный ресурс]. URL: <http://www.lingualearnenglish.com/blog/featured/english-football>.

3. LONGMAN – Longman Dictionary of Contemporary English /Eds. Fox Ch., Combley R. – Pearson Education, 2014.

4. OED – The Oxford English Dictionary /Eds. Simpson J., Weiner E. – Oxford University Press, 2005. // URL://www.oxforddictionaries.com



5. Абросимова Л.С., Богданова М.А. Жаргон в спортивном дискурсе. // Вопросы лингвистики. – 2015. № 4. URL: <http://rrmedicine.ru/article/580>.
6. Арутюнова Н.Д. Жанры общения. – М.: Наука, 1992. – 102 с.
7. Банников С.Е. Футбол: учеб. электронное текстовое издание. – Екатеринбург: ГОУ ВПО УГТУ-УПИ, 2006. – 101 с.
8. Богословская В.Р. Структурно-семантическая и функциональная адаптация заимствований: на материале спортивной лексики английского и русского языков: дисс. на соискание ученой степени кандидата фил. наук. – Волгоград, 2003. – 201 с.
9. Бургаков М.Г. Жаргон футбольных болельщиков в системном и коммуникативном аспектах // Языкознание. – Элиста, 2016. – 50 с.
10. Гуреева Е.И. Разновидности специальных обозначений в современной спортивной терминологии // Вестник Челябинского гос. ун-та. Филология. Искусствоведение. – Вып. 57. – 2011. – № 24 (239). – С. 7173.
11. Елистратов А.А. Именная нетерминологическая лексика спорта. – Вып. 36. – 2009. № 34 (172). – С. 26-32.
12. Елистратов А.А. Лексико-семантические параллели между жаргоном спортсменов и жаргоном наркоманов // Вестник РГГУ. – М., 2010. – С. 27.

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HUDUDIIY MILLIY
KONSEPTLARNING DIALEKTIZMLARDA AKS ETILISHI***Khusanov Eldor Davlat o'g'li**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*Ilmiy rahbar: Madjidova Ra'no Urishevna**Filologiya fanlari doktori, professor**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya: Til va madaniyat tushunchasi ajralmasdir va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o'zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o'rinda til vositasida namayon bo'ladi. Dialektizmlarni ifodalashda ham til va madaniyatning chambarchas bog'liqligiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida hududiy milliy konseptlarning dialektizmlarda aks etilishi haqida so'z yuritilgan bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi dialektizmlarning hududiy jihattan farqlari va o'xshashliklari misollar bilan tushuntirilib berilgan.

Kalit so'zlar: dialekt, dialektizm, ingliz tili, o'zbek tili, hududiy konsept, milliy konsept, til-madaniyat tashuvchisi, til-madaniyatning yaratilish vositasi, til-madaniyat ko'zgusi, til-madaniyat boyligi, lingvokulturologiya, til-madaniyat quroli.

**ОТРАЖЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ НАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПТОВ
В ДИАЛЕКТИЗМАХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ***Хусанов Элдор Давлат угли**Независимый студент Узбекского государственного университета
мировых языков*

*Научный руководитель: Маджидова Раъно Уришевна**доктор филологических наук, профессор**Узбекский государственный университет мировых языков*

Аннотация: Понятия язык и культура неразделимы и закономерно требуют друг друга. Язык отражает культуру во всех ее аспектах, и культура также проявляется через язык. Мы наблюдаем тесную связь языка и культуры в выражении диалектики. В данной статье говорится об отражении территориальных национальных понятий в английском и узбекском языках в диалектизмах, а также на примерах поясняются территориальные различия и сходства диалектизмов в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: диалект, диалектизм, английский язык, узбекский язык, региональная концепция, национальная концепция, носитель языка и культуры, средства созидания языка и культуры, зеркало языка и культуры, богатство языка и культуры, языковая культура, языковая культура.

**REFLECTION OF REGIONAL NATIONAL CONCEPTS IN
DIALECTICISMS IN ENGLISH AND UZBEK***Khusanov Eldor Davlat ugli**Independent student of Uzbekistan State University of World Languages*

*Scientific supervisor: Madjidova Rano Urishevna**Doctor of philological sciences, professor**Uzbekistan State University of World Languages*

Annotation: The concept of language and culture are inseparable and regularly require each other. Language reflects culture in all its aspects, and culture is also

manifested through language. We witness the close connection of language and culture in the expression of dialectics. This article talks about the reflection of territorial national concepts in English and Uzbek languages in dialectisms, and the territorial differences and similarities of dialectisms in English and Uzbek languages are explained with examples.

Key words: dialect, dialectism, English language, Uzbek language, regional concept, national concept, carrier of language and culture, means of creation of language and culture, mirror of language and culture, wealth of language and culture, linguistic culture, language cultural weapon

Kirish. Tilshunoslik ilmidagi barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq lingvokulturologiya masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda va zamonaviy tilshunoslikning yangi bir sohasi sifatida tadqiq qilinmoqda. Buning sababi, dastaval, bugungi kunda yuz berayotgan dunyo hamjamiyatida jadal rivojlanish, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi, globallashtirish, ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, turli xalqlar tili va madaniyatini o'rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish, lingvistika muammolarini hal qilish har jihatdan dolzarb vazifa hisoblanmoqda.

Qolaversa, yurtimizda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va turizm aloqalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, respublikamizning dunyo hamjamiyatida nufuzi oshishida, xorijdagi mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, albatta, til va madaniy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Aytish joizki, til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, o'zbek tili va xorijiy tillarni o'rganish masalalari alohida e'tiborni talab qiladi.


Insonlar jamiyatining axborot-faoliyatining o'ziga xosligi jamoaviy axborotni to'plash, saqlash va uzatish uchun maxsus tizimlarning mavjudligidan iborat bo'lib, ulardan eng muhimi – tildir. Bundan tashqari, ayniqsa bugungi kunda til madaniyatning paydo bo'lishining asosiy sharti, uning mavjudligi va rivojlanishining asosiy yo'li bo'lib xizmat qiladi. Til madaniy ahamiyatga ega axborotlarni saqlash va to'plash vositasi hisoblanadi [qarang: 3.1-chizma].

3.1-chizmaga e'tibor beradigan bo'lsak, til va madaniyatning bog'liqligi masallasida til – madaniyat ko'zgusi, til – madaniyat boyligi, til – madaniyatning yaratilish vositasi, til – madaniyat tashuvchisi ekanligiga alohida urg'u berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Til va madaniyatning mushtarakligini til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, shu bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etishida ko'rish mumkin.

3.1-chizma

Til va madaniyatning mushtarakligi. Madaniyatning tilda aks etishi



Til – madaniyat xazinasini, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy, ilmiy va umuman barcha turdagi adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi.

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini, turli xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini ham o'zlashtiradi.

Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Til va madaniyat mushtarakligini o'rganish va tadqiq etish jarayonida tilshunoslikda “lingvokulturologiya” termini fanga kirib keldi.

Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda milliy madaniyat aks etishi va mustahkam o'rnatilgan olishini tadqiq etuvchi sohalar to'qnashgan o'rinda paydo bo'lgan tilshunoslik tarmog'idir. Shuningdek, lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi bo'lib, madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o'rganadi. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy ma'nolar o'rganiladi. Ma'lumki bu borada ko'plab jahon va o'zbek tilshunos olimlar o'z ta'dqiqotlarini olib borishgan va bugungi kunda ham bu izlanishlar davom etmoqda.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon Gumboldt o'zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri” kitobi bilan tamal toshini qo'ygan bo'lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “turli tillar, o'z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg'uga ta'siriga ko'ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o'rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan [Gumboldt 1985: 370, 377]. Shu tariqa, olim tilning turli shakllarida turlicha hissiyot va tafakkur uslublarini ko'radi va tilda madaniy o'ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi.

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, V.N. Teliya o'z ta'dqiqotlarida lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikatsiya jarayonlarini va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qilishini ochib berdi. Ilm ahli uchun ayonki, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi tilshunoslik sohasi bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir”. [1]

V.V. Vorobyov o'z fikr va mulohazalarida lingvokulturologiyaga quyidagicha izoh beradi: “Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır”. [2]

Lingvokulturologiyaning obyektı – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni tildan

foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyektini lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi.[3]

N. Alefirenko fikr va mulohazalariga tayangan holda lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

-lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

-lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

-lingvokulturologiya tilshunoslik fanlari tarkibiga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillarini qiyosiy tadqiq etishda amaliy foydalanish mumkin.[4]

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganligini ko'rish mumkin:

-muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miqlar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili o'rganilgani;

-muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan;

-qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko'proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan.

O'zbek tilshunoslik ilmidagi ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", "O'xshatishlar – obrazli tafakkur maxsuli", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi" mavzusidagi monografiyasi, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"ni belgilash mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p shug'ullangan va samarali natijalarga ega bo'lgan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi" demakdir" [5]

N. Mahmudov tilga ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berishni ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: "Til benihoya muqaddas va mo'tabar ne'mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtamligining e'tirofidir".[6]

Sh.Safarovning ta'kidlashicha, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks etishi

tabiiydir.[7]

Tilshunos olim D. Xudoyberganova lingvokulturologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: lingvokulyurologiya (lot. lingua – til + lot. cultura – ishlov berish + grek. logia – ta'limot) tilshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi fan deya ta'riflaydi.[8] Bu borada o'zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasini yaratdi. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishni ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berdi.[9]

Xulosa va takliflar. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikasi namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi.[10] Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi.

Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Shuningdek, lingvokulturologiyada nutqiy muomala tushunchasiga alohida urg'u berilgan. Ta'kidlashimiz o'rinliki, nominativ, grammatik va stilistik birliklarda mustahkamlangan har qanday muomala lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. Наука 2010. –С.21
2. Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М. Издательский центр «Академия», 2001 –С.35-36.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012 -№ 5 –В. 10.
5. Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998 –Б. 3
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor 2006 В-65.
7. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Турон замин зиё, 2015 – Б.26.
8. Худойберганова Д. Matnning antroposentrik tadqiqi – Toshkent: Fan,2013
9. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 222.
10. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10

O'ZGA TILLI GURUHLARDA IZCHIL RUS NUTQIDA KEYS SHAKLLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI

*Ziyayeva Xushnudabonu Ilxomjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zga tilli maktablarda rus tili o'qitish metodikasi va texnologiyalari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari berilgan.

Kalit so'zlar: keyslar, nutqiy ko'nikmalar, psixologik asoslar, pedagogik asoslar, nutq mexanizmlari, semantika, grammatika.

So'nggi paytlarda maktabda rus tilini o'qitishda kommunikativ yo'nalish katta rivojlanishga ega bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati ta'limning amaliy yo'nalishidir. Muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'quv jarayonida og'zaki muloqot uchun sharoit yaratish kerak. Boshlang'ich milliy maktabda rus tilini o'rgatishda maktab o'quvchilarining ona tili darslarida olgan bilimlariga tayanish, shuningdek, o'quv jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. O'quvchilarga ona tiliga o'rgatishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ikkinchi tilni amaliy assimilyatsiya qilish jarayonida ularning ongida ikki til tizimi o'zaro ta'sir qiladi, bu esa ikkinchi tilda nutqni idrok etish va uni ishlab chiqarishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalar rus nutqini ona tili prizmasi orqali qabul qiladilar.

Ma'lumki, ona tiliga xos bo'lmagan nutq birliklarini idrok etish va ko'paytirish psixofiziologik tomondan juda murakkab jarayondir, chunki bolalar nutq apparati nutqni o'z ona tili qonunlariga muvofiq loyihalash uchun ishlatiladi. til. N.N.Jininning fikriga ko'ra, «... turli tillarda nutq mexanizmlari hayot davomida shakllanadi».

Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, rus bo'lmagan maktab o'quvchilarining izchil nutqida holatlar shakllarini idrok etish va takrorlash ko'nikmalarini rivojlantirish katta qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lsa-da, boshlang'ich maktab yoshi ikki tillilikni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Rus tilining amaliy shakllarini o'zlashtirish uchun o'quvchilar so'z birikmalarining yangi shakllarini, iboralar va jummalarni qurishlari kerak. Keys shakllarini o'rgatishning birinchi bosqichida ikki tillilar so'zlarni bog'lash tajribasiga tayangan holda, o'z ona tili qonunlariga muvofiq nutqni qurishda ushbu shakllardan foydalanadilar. Bu rus tilidagi so'zlarning aloqasini shakllantirishda doimiy xatolarga olib keladi. Yangi nutq birliklarini (og'zaki iboralar va holatlar shakllari) dastlabki assimilyatsiya qilish jarayonida o'quvchilar o'z nutqlarini ona tili qoidalaridan farq qiladigan rus tili qonunlariga muvofiq shakllantirishlari kerak. Rus bo'lmagan maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarining izchil nutqini shakllantirishda ishtirok etgan psixologlarning tadqiqotlariga asoslanib, kichik yoshdagi o'quvchilarning rus nutqini shakllantirishning ma'lum bir ketma-ketligini ajratib ko'rsatish kerak:

- so'zlarning bog'lanish xususiyatlarini, hol shakllarining ma'nosini, ularning asosiy so'zlarga bog'liqligini bilish;

- ibora va uning tarkibiy qismlarini sintez qilish; hol shakllarini so'zlarning grammatik ma'nolari va semantikasini farqlash vositasi sifatida o'zlashtirish;

- gaplar darajasida sintez qilish, har xil turdagi gaplarga hol shakllarini kiritish. Bunday operatsiyalarni ona tilida bo'lmagan holda amalga oshirayotganda, ikki marta almashtirish usullarini bajarish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, nutqda ruscha kelishiklar (padej) qiymatlari shaklida amalga oshiriladigan grammatik shakllar so'zlarni bog'lash va ma'noni ajratish funksiyalarini bajara boshlaydi. Dastlab, yangi grammatik ma'nolarni o'zlashtirish o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan so'zlarning bog'lanish shakllari, ularning ma'nolari (o'quvchilarning rus va ona tillarining holatlar shakllari teng) bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Rus tilidagi iboralar va jumladagi holat shakllarini dastlabki idrok etish jarayonida o'quvchi bir ma'noni boshqasidan ajrata olmaydi. Ona tili malakasi ta'sirida o'quvchilar tomonidan holat shakllaridan foydalanishda o'ziga xos xatolar yuzaga keladi. Misol uchun, Biz yo'l bo'ylab yurdik. Mushuk yo'lga chiqdi. Ikki tilli (o'zbek-rus) rus tilidagi nutqini taqqoslash hol shakllarining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tillararo sintaktik aralashuvni bartaraf etish asosida izchil rus nutqining shakllanish ketma-ketligini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek boshlang'ich maktab o'quvchilarining rus tilidagi nutqini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bolalar har doim ham nominativ va ayblov shakllarini, masalan, matn ustida ishlashda to'g'ri ajrata olmaydilar.

Mushukcha yo'lga chiqdi, sayr qilish uchun, isinish uchun, mo'ylovli og'zini yaladi, baxmalini orqasiga burdi. (Yu. Moritz) o'quvchilar ajratilgan so'zlarning kelishigini (padejini) aniqlashda qiynalardi.

Rus nutqini idrok etishda o'quvchilarning morfologik va sintaktik xatolari maktab o'quvchilarida rus tili normalariga mos keladigan so'zlarning aloqalarini o'rnatish uchun etarli darajada shakllanmaganligining natijasidir. Buzilishni tuzatish uchun iboraning shakllarini tanish standart bilan solishtirish orqali o'zgartirish va normaga muvofiqligini nazorat qilish kerak. Xuddi shunday teskari nazorat impulslari nutq organlarining butun tizimidan markazga o'tadi, bu erda asosiy so'zning leksik-semantik xususiyatlariga, nutq organlarining qaysi pozitsiyasida norma buzilganligiga qarab o'ziga xos o'zgarishlar hisobga olinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi holatlar shakllari bolalar tomonidan osonroq o'zlashtiriladi, boshqalari esa ancha qiyin. Bundan tashqari, bir xil qurilishning qiyinligi yoki foydalanish mumkinligi uning o'xshash ona tilidagi konstruktiviyalarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Masalan, ko'makchili qo'shma gaplarni o'zlashtirib olish, bosh gap bo'lmaganlarga nisbatan ancha qiyin, chunki o'quvchilarning ona tilida bosh gap gap bo'lagi sifatida o'rganilmaydi. Erta bolalik davrida ikki tillilikning izchil shakllanishi uchun atrof-muhit ta'sirini hisobga olish kerak. Shu bilan birga, bolalar tafakkurining rivojlanish qonuniyatlari va bola shaxsini shakllantirish nutqni rivojlantirish omili uchun katta ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Psixologlarning ikki tillilik hodisasi haqidagi qarashlarini tahlil qilib, L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, u Eynshteyn va boshqa olimlar ta'kidlagan zararli ta'sirga ega bo'lmasligi mumkin. "Bilinguallik ona tilida nutqni rivojlantirishda ham, bolaning umumiy intellektual o'sishida ham qulay omil bo'lishi mumkin, bu ona tilini o'rgatish amalga oshiriladigan pedagogik sharoitlar bilan bog'liq. Pedagogik ta'sir, ta'limning rahbarlik roli hech bir joyda bolalar nutqining butun taqdiri va bolalarning intellektual rivojlanishi uchun, bolalar populyatsiyasining ikki yoki ko'p tilliligi kabi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas». Psixologlar va metodistlar ikkinchi tilni o'rgatish uchun eng maqbul bo'lgan boshlang'ich maktab yoshi ekanligini isbotladilar, bu bolalar nutqi, nutq apparati va bolalar psixologiyasining rivojlanish tabiati bilan bog'liq.

Rus tilida nutqning rivojlanishi qanday sodir bo'ladi? Maktabda tilni o'rgatishda nutqning shakllanishi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- 1) til tizimini, uning adabiy me'yorlarini bilish orqali;
- 2) muloqot nuqtai nazaridan stixiyali nutq asosida tabiiy ravishda yuzaga

keladigan nutqni rivojlantirish orqali.

Nutqni rivojlantirish darslarida siz qo'llab-quvvatlovchi so'zlar bilan ishlashingiz mumkin, rasmdagi miniatyuralar, berilgan mavzu bo'yicha insholar, maqol bo'yicha insholar, o'qiganlarga o'xshash, o'quvchilarning kuzatuvlariga ko'ra, do'stingizga yoki do'stingizga xat yozishingiz, boshida insho yozishingiz mumkin. Yuqorida tavsiflangan mashqlar mening rahbarligim ostida amalga oshiriladi, o'quvchilarning mustaqillik darajasi doimiy ravishda oshib boradi. O'quvchilar materialni etarlicha qattiq o'zlashtirganda va tegishli ish turini bajarish uchun «texnikani» o'zlashtirganda, o'quvchilarga uyda shunga o'xshash vazifalar taklif etiladi. Yaxshi insho yozishda nutqni tahlil qilish, umumlashtirish, mantiqiy jihatdan to'g'ri, aniq va hissiy jihatdan qurish qobiliyati zarur. Shuning uchun biz ularga nutq faoliyatini rivojlantirishga yordam berishimiz kerak. «Nutq faoliyati» - bu turli xil aloqa vaziyatlarida odamlarning o'zaro ta'siri paytida til vositalari yordamida amalga oshiriladigan bayonotlarni yaratish va idrok etishning faol, maqsadli jarayoni.

Inshoga tayyorgarlik bosqichlari:

1) nutq holatini yaratish. Maqsad - motivni yaratish, zarur hissiy kayfiyatni ta'minlash, ishga qiziqishni uyg'otish, kuzatuvlarni tashkil etish, vaziyatning vazifalari va shartlarini muhokama qilish;

2) oldindan tayyorgarlik. Maqsad - keyingi ish uchun asos yaratish, zarur bilim va taassurotlarni to'plashni tashkil etish;

3) insho yozish.

Maktab yoshidagi o'quvchining o'ziga xos xususiyati - idrokning pokligi va tezkorligi. O'quvchilarning tasavvurlari, ixtiro qilish qobiliyatlari va yozish zarurati g'ayrioddiy va boy. V.A.Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: «ertak, fantaziya, o'quvchilar ijodidagi takrorlanmas o'yinlar o'quvchining qalbiga haqiqiy to'g'ri yo'ldir».

Ertaklarni tuzish o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi, ularni tabiatga yaqinlashtiradi, kuzatish va qiziqishni rivojlantiradi, yaxshi his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, o'quv jarayonini jonlantiradi va qiziqarli qiladi. Ertaklarni yozishda o'quvchilarning so'z boyligi kengayadi. O'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda bayon qilishni o'rganadilar. O'quvchilarning ertaklarga bo'lgan qiziqishi ayniqsa katta, bu ertak dunyosidagi harakatlar va harakatlarning cheksiz erkinligi bilan izohlanadi.

Nutqni rivojlantirish darslarida ish turlari.

1. Erkin yozish - o'zingiz xohlagan narsani yozing! Yuqorida aytilganlarni takrorlashda tanbeh olish xavfi ostida, men ushbu turdagi ish nutqni rivojlantirish uchun juda muhim ekanligiga yana bir bor e'tibor qaratmoqchiman.

2. «Mening kundaligim» - hozir eslagan narsalar haqida yozing. Ushbu turdagi ishlarni bajarish turli odamlarning nashr etilgan kundaliklari yoki adabiy qahramonlarning kundaliklari bilan tanishish orqali rag'batlantirilishi mumkin.

3. «Fantaziya-rasm» - yo'q rasmni so'zlar bilan tasvirlab bering, uni faqat siz tasavvuringizda ko'rasiz. Agar yozilgan narsa yangi va ifodali bo'lsa, so'zlar rasmga kiritilishi mumkin.

4. Professional rassomlarning rasmlari reproduksiyalari bo'yicha san'at galereyasiga ekskursiya. Ekskursiyaning holati rasm bo'yicha kompozitsiya kabi janrni hayotga yaqinlashtiradi.

5. Doskada chizilgan rasmlar bo'yicha multfilm ssenariysi o'spirinning rasmni jonlantirish va insho-tavsif o'rniga insho-rivoyat yozish ehtiyojini qondiradi.

6. Musiqiy kompozitsiya.

1-variant - tinglangan musiqiy asar taassurotlari ostida ongingizda paydo bo'ladigan tasvirlarni tasvirlab bering.

2-variant - filmdan, spektakldan (mavjud yoki siz ixtiro qilgan) parchani ijro etish, unga hamroh bo'lgan musiqa bo'lishi mumkin.

7. Insho - bir kun oldin yozilgan taqdimot yoki diktantning davomi.

8. Insho - bir vaqtlar yozilgan diktant yoki taqdimot asosida uyushmalar.

Ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarining e'tibori beixtiyor, etarlicha barqaror emas, hajmi cheklangan. Shuning uchun o'quvchini o'qitish va tarbiyalashning butun jarayoni diqqat madaniyatini tarbiyalashga bo'ysunadi. Etarlicha rivojlangan nutq bilan o'quvchilarga matnni tinglash paytida rasm chizish texnikasini taklif qilish mumkin (eslatma - eskiz), bu uslub e'tiborni, xotirani, fikrlashni rivojlantiradi, ijodkorlik uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ladi. Eskizlar bo'yicha taqdimotni o'rgangan o'quvchilar va insho elementlari bilan taqdimotni o'qitish bosqichida faol o'quvchilar bo'lishadi.

O'quvchilar taqdimotni yozishda boshdan kechirgan qiyinchiliklar tajribasini umumlashtirib, men taqdimotni o'qitishning quyidagi algoritmini tanladim:

- o'qituvchi tomonidan matnni birinchi o'qishdan faol tinglashni boshlang;
- har bir jumлага eslatma so'zlarini yozing;
- takliflar orasida qo'shimchalar uchun ikki qatorli oraliq qiling;
- birinchi faol tinglashni tugatgandan so'ng, ko'zingizni yuming va matnni o'qiyotganda paydo bo'ladigan xayoliy rasmlarni xotiradan tiklang;
- ularni varaqning orqa tomoniga yasab, o'zingizga rasm yoki diagramma bilan yordam bering;
- so'zlardan barcha jumalarni tuzing;
- o'qituvchi tomonidan matnning ikkinchi o'qilishini faol tinglang, siz qoldirgan satrlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiriting;
- qoramamada taqdimot ustida ishlashni tugating, yozilganlarni o'qing, xatolarni tuzating.

Ikkinchi tilni o'zlashtirish mexanizmi ona tilini o'zlashtirish mexanizmidan ko'p jihatdan farq qiladi. Bola o'z ona tilini ongsiz ravishda o'rganadi. Bola ona tilini o'zlashtirishni alifboni o'rganish, o'qish va yozish, so'zlarning ma'nosini aniqlash, grammatik qoidalarni o'rganish va ona tilini o'rganishda bo'lgani kabi ongli ravishda nutq shakllarini qurish bilan boshlamaydi. L.S. Vygotskiy shunday deb yozgan edi: «Birinchi holatda, nutqning elementar xususiyatlari avvalroq paydo bo'ladi va faqat keyinroq tilning fonetik tuzilishini, uning grammatik shakllarini va nutqning o'zboshimchalik bilan tuzilishini bilish bilan bog'liq bo'lgan murakkab shakllari rivojlanadi». Mordoviya maktabining o'quvchilari bir vaqtning o'zida ona va rus tillarini o'rganishadi, bolalar erta bolalikdan gapirish va fikrlashni o'rgangan ona tilini bilgan holda maktabga kelishadi. Ona tili darslarida o'quvchilar rus nutqi madaniyatini tushunadilar: o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyati yaxshilanadi, so'z boyligi boyitiladi, ona tilining sintaktik tuzilishi o'zlashtiriladi, nutqning stilistik tomoniga qiziqish uyg'otiladi va imlo ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bularning barchasi muvaffaqiyatli o'rganishga va boshqa fanlarga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хушнудабону Илхомжон Кизи Зияева (2023). РЕЧЕВАЯ СИТУАЦИЯ И УЧЕБНАЯ РЕЧЕВАЯ СИТУАЦИЯ. Academic research in educational sciences, 4 (KSPI Conference 1), 261-264.

2. Khushnudabonu, Z. (2022). METHODS AND TECHNIQUES FOR ENHANCING THE INTERCULTURAL COMMUNICATION ACTIVITIES OF



STUDENTS IN THE STUDY OF A FOREIGN LANGUAGE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(09), 29-31.

3. Зияева, Х. Методы и приемы активизации межкультурной коммуникативной деятельности учащихся при изучении иностранного языка / Х. Зияева // Современная наука, общество, образование: актуальные вопросы, достижения и инновации : Сборник статей II Международной научно-практической конференции, Пенза, 15 сентября 2022 года. – Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2022. – С. 262-264. – EDN BYFJUW.

4. Ziyayeva, X. I. Q. (2021). Hypertextuality Of Tolstoy's Prose. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 64-68.

5. Кахарова, Н. (2019). Актуальность использования интерактивных и дидактических методов на занятиях по русскому языку в общеобразовательных учреждениях. in Library, 19(2), 4-8.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

SPORTCHILARNING YUQORI NATIJALARGA ERISHISHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI

*Abdumadjidova Dildora Raxmatullayevna,
Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi "Sport psixologiyasi" bo'limi
psixologi, PhD*

Annotatsiya. Mazkur maqolada sportchilarning maksimal darajada natijalarga erishish samaradorligini oshirish uchun psixologik tayyorgarlikning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Muvaffaqiyatli sport yutuqlari asosan psixologik tayyorgarlik va psixologik omillar bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: psixologik omil, psixologik tayyorgarlik, psixodiagnostika, o'z o'zini boshqarish.

ВАЖНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ДОСТИЖЕНИИ СПОРТСМЕНАМИ ВЫСОКИХ РЕЗУЛЬТАТОВ

*Абдумаджидова Дилдора Рахматуллаевна,
Республиканский научно-практический центр спортивной медицины при
НОК Узбекистана, психолог отдела "Спортивной психологии", PhD.*

Аннотация. В этой статье рассматривается о важности психологической подготовки спортсменов для повышения эффективности достижения максимальных результатов. Успешные спортивные достижения во многом определяются психологической подготовкой и психологическими факторами.

Ключевые слова: психологический фактор, психологическая подготовка, психодиagnostika, саморегуляция.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL TRAINING IN ACHIEVING HIGH RESULTS BY ATHLETES

*Abdumajidova Dildora Raxmatullayeva,
Republican Scientific and Practical Center of Sports Medicine at the NOC of
Uzbekistan, psychologist of the department "Sports Psychology", PhD.*

Annotation. This article will talk about the importance of psychological preparation of athletes to improve the effectiveness of achieving maximum results. Successful sports achievements are largely determined by psychological training and psychological factors.

Key words: psychological factor, psychological preparation, psychodiagnostics, self-control.

Kirish. Zamonaviy professional sport, boshqa sohalar kabi innovatsion yondoshuvlar hamda yangi texnologiyalar asosida shiddatli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tmoqda. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport, xususan, olimpiya harakatini rivojlantirish muayyan ma'noda strategik va aholi salomatligi hamda farovonligi, kelajak avlod tarbiyasi omilidir. Sport psixologiyasi yo'nalishida sportchi shaxsi, sport faoliyati, sportchining psixologik xususiyatlari, sportchining psixologik tayyorgarligi, sport mashg'ulotlarining sportchi shaxsi shakllanishiga ta'siri, sport jamoalarida shaxslararo munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit kabi muammolarni tadqiq etishga bag'ishlangan bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Sport faoliyati, agar taqqoslanadigan bo'lsa, boshqa zamonaviy faoliyat turlaridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Sport – bu doimiy ravishda muayyan to'siqlarni yengib o'tish, qiyinchiliklarga nisbatan kuchli matonat, psixologik chidamlilik

xususiyatlarini talab etuvchi faoliyatdir. Sport psixologiyasida sportchining psixologik tayyorgarligi - sport tayyorgarligi va musobaqa shart-sharoitlariga sportchining psixikasini hamda shaxsiyatini mos tarzda samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir [2, 56-57 s.].

Professional sportchi psixologik sifatlari – bu shaxsning biror-bir sohada, alohida bilim, ko'nikma va malaka talab etuvchi jarayonda insonning imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi individual-psixologik omillaridir. Mazkur model sportchilarning professional psixologik xususiyatlarini sport turlaridagi farqlarga va o'ziga xosliklarga bog'liq tarzda o'rganishga zamin yaratadi. Sportchini psixologik tayyorgarlik jarayonidagi asosiy faoliyat shakllari quyidagicha ajratib ko'rsatiladi:

- 1) joriy psixologik tayyorlik holatini baholash;
- 2) individual o'zaro ta'sir dasturini ishlab chiqish;
- 3) sportchining holati bo'yicha qayta aloqani tashkil etish;
- 4) ehtiyoj asosida qo'shimcha chora-tadbirlarni qo'llash;
- 5) sportchida adekvat psixik holatni shakllantirish;
- 6) musobaqalarda sportchining psixik holatlarini boshqarish;
- 7) salbiy holat va oqibatlarini kompensatsiya qilib borish.

Sportchilarning psixologik barqarorligi shakllanishini o'rganishda shu narsa aniq bo'ldiki, ijobiy yoki salbiy xususiyatga ega bo'lgan energiyaning to'planishi turli shakllardagi agressiya ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda sportchining psixologik tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Sportchilarning psixik imkoniyatlari musobaqa jarayonlarida eng muhim omilga aylanadi. Gohida bu ko'rsatkich eng yuqori natijalarga olib chiquvchi muhim omil hisoblanadi [1, 189 s.].

Sportchi biror kichik bo'lsada, psixologik tayyorgarlik bilim-ko'nikmasini o'zida shakllantirsa, sport faoliyatni amalga oshirishni yaxshiroq uddalaydi. Aynan sportchidagi psixologik tayyorgarlik yoki psixologik bilim-ko'nikmalar tizimi unda shaxs sifatida eng kerakli qobiliyat va sifatlarni yuzaga chiqishiga, oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik bilim-ko'nikmalar zarur faollikni amalga oshirish yoki qobiliyatni namoyon etish kerak bo'lgan jarayonida o'z natijadorligini namoyon etadi. Vaqt o'tishi va tajriba oshishi bilan sportchidagi mavjud psixologik ko'nikmalar bir nechta omillar qatorida unda professionallikni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Sport tayyorgarligining eng muhim asoslari jismoniy va texnik tayyorgarlikdan tashkil topadi, qachonki ushbu tayyorgarliklar me'yoriga keltirilganda sportchining taktik tayyorgarligi shu ikki asos ustiga quriladi. Murabbiylar va sportchilar bilan olib borilgan faoliyatning tahlil qilish natijasida, sportdagi oliy sport yutuqlariga faqat jismoniy, taktik, texnik tayyorgarlik bilan erishish mumkinligi holatlari kuzatiladi [4, 312 s.]. Bu esa, zamonaviy professional sport tendensiyalari hamda sportchi tayyorgarligidagi yangicha yondoshuvlardan xabardor bo'lmaslik, o'zini yuqori baholash, mos ravishda o'ziga yuqori darajadagi ishonch kabi ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Sportchining o'ziga bo'lgan ishonchini hamda o'ziga berilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishini his etishi va buni verbal ifoda eta olishi, murabbiy uchun sportchining stresslarga chidamliligi, o'zini boshqarish ko'nikmasini yaxshi egallayotgani haqida amaliy xulosa chiqarishiga asos bo'ladi. To'g'ri hissiy-emotsional fon va xulq-atvorni shakllantirishda, shubhasiz, murabbiy eng katta rolni bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Murabbiy oldida turgan asosiy maqsad va vazifa faqat musobaqada g'alaba qozonish emas. Shuni tushunish kerakki, odatda murabbiy sportchi shaxsida ham jismoniy, ham madaniy va har tomonlama rivojlanishni ta'minlovchi vazifalarni bajara oladigan insonga aylanadi [6, 171 s.]. Muvaffaqiyatli murabbiylar sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda ularga aniq sport bilim-ko'nikmalarini o'rgatishi bilan birga, sportchilarni psixologik jihatdan ham tayyorlashlari zarur. Bunda murabbiylar,

sportchining jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy bilish darajasidan qat'iy nazar barcha sportchilarni qamrab olishi, kerakli joyda individual yondoshuvni amalga oshirishi kerak. Chunki, barcha sportchi yuqoridagi omillar mezonida bir xil darajada bo'la olmaydi.

Murabbiylar sportchilarning o'quv jarayonidan ham xabardor bo'lishlari kerak. Bu xabardorlik sportchilarda kerakli sport ko'nikmalarini shakllantirishda muhim samaradorlikka erishishga yordam beradi. Murabbiylar sportchilari uslubini ham hurmat qilishlari zarur. Raqobatbardosh sportchilarni saralash, tanlash va baholashda, potensial tanlanadigan sportchi vizual, audial va kinestetik idrok etish qobiliyati rivojlangan bo'lishini inobatga olish maqsadga muvofiq [5, 463 s.]. Murabbiylar sportchining qabul qilingan ma'lumotni qanday qayta ishlashiga e'tibor berishlari, sportchilarga musobaqalarda maksimal ishtirok etishga va salohiyatini oshirishga imkon beradigan maqsadlarni qo'yishlariga yordam berishlari kerak. Bir vaqtning o'zida sportchida o'z maqsadlarini, ko'nikmalarini va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish murabbiyning ahamiyatini yanada oshiradi.

Sportchilarni psixologik tayyorgarligi jarayonini atroflicha tahlil qilish hamda uni amalda qo'llashga yordam beruvchi qonuniyatlarni o'zlashtirish uchun, mazkur jarayonning tarkibiy qismlarga ajratib olish mumkin. Sportchilarning psixologik tayyorgarlik jarayoni strukturasi tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: tanlangan sport turining psixologik pasporti; sportchini psixologik xarakteristikasi; umumiy psixologik tayyorgarlik; konkret mashg'ulotga psixologik tayyorgarlik; musobaqa oldi psixologik tayyorgarlik; start oldi psixologik tayyorgarlik; bevosita musobaqaga oid psixologik tayyorgarlik; musobaqadan keyingi psixologik tayyorgarlik.

Ko'plab adabiyotlarda psixologik tayyorgarlik ikkiga bo'lingan holda ajratib ko'rsatiladi, umumiy va maxsus psixologik tayyorgarlik. Bu tayyorgarlik jarayoni tanlangan sport turi bilan shug'ullanish va oliy yutuqlarga erishishni ta'minlovchi sifat va xususiyatlarni tarbiyalaydi, jumladan umumiy psixologik tayyorgarlik o'z ichiga:

- sportchining motivatsiyasini shakllantirish;
- sportchining shaxsiy sifatlarini shakllantirish (jumladan: tartiblilik, intizomlilik, rejalilik, jamoada ishlash va h.k);
- aqliy yoki intellektual tarbiya;
- irodaviy sifatlarini tarbiyalash;
- psixik holatni boshqarishga yordam beruvchi usullarni o'zlashtirish kabilarni qamrab oladi [3, 19-21s.].

Tahlil va natijalar.

Maxsus psixologik tayyorgarlik esa, farqli ravishda konkret psixologik qonuniyatlarni va psixotexnikalarga asoslanadi hamda aniq vaziyatlardagi psixologik jarayonlarni ko'rib chiqadi. Bu jarayon sportchini musobaqada ishtirok etish uchun yakuniy tayyorgarlik holatini vujudga keltiradi. Sportchining musobaqada ishtirok etishga tayyorgarligi hamda bevosita musobaqadagi ishtirokida o'zining psixik holatini boshqarishga yo'naltiriluvchi psixologik tayyorgarlik jarayoniga nisbatan maxsus psixologik tayyorgarlik atamasi ishlatiladi.

Sportchilarning psixologik tayyorgarligi dasturi sportchining imkoniyatlari va qobiliyatlari, o'z holatini tushunish va nazorat qilish haqidagi tasavvurlarni aniqlaydi va rivojlantiradi, natijada o'z kuchiga bo'lgan ishonch ortadi, o'z navbatida sport natijalari yaxshilana boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, psixologik tayyorgarlikning uch darajasini alohida ko'rib chiqish mumkin:

1. Ijtimoiy-psixologik - jamoadagi munosabatlar, jamoaning shaxs rivojlanishiga, uning shakllanishiga ta'siri, shuningdek, shaxsning jamoadagi roli, shaxs va sport jamoasining shakllanishi.

2. Psixofiziologik - insonning o'z tanasining imkoniyatlariga anatomik va fiziologik nuqtai nazardan munosabati.

3. Psixologik daraja - o'z o'zini anglash, o'z o'zini baholash, keng dunyoqarashga ega bo'lish va undan foydalanish kabi murakkab psixologik fenomenlarning ishlashini ta'minlash qobiliyati.

Shunday qilib, psixologik tayyorgarlik uchta darajani o'z ichiga oladi: jamoaviy, shaxsiy va individual xususiyatlar. Bunday uch bosqichli yondashuv sportchi shaxsini har tomonlama barkamol rivojlantirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik tizimini yaratish imkonini beradi.

Binobarin, sportchilarni psixologik tayyorlash dasturi o'z ichiga diagnostika tadbirlari, konsultatsion faoliyat: psixodiagnostik tadqiqotlar natijalari va ishtirokchilarning so'rovi asosida hamda korreksion-rivojlantirish ishlarini qamrab oladi.

Psixologik tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda quyidagi boshlang'ich nuqtalarga tayanish maqsadga muvofiq:

1. Sportchilarning psixologik tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur bo'lib, bu jarayon ularning faoliyatidagi va ruhiyatidagi salbiy hodisalarni bartaraf etish uchun "shoshilinch chora-tadbirlar"ga aylanmasligi kerak.

2. Psixologik tayyorgarlik psixodiagnostika natijalari va psixik rivojlanishning yoshga doir qonuniyatlarga asoslanishi kerak.

3. Psixologik tayyorgarlik talablarni har tomonlama tahlil qilishga asoslanishi kerak.

Zamonaviy sport musobaqalari sportchidan yuqori funksional, shu jumladan psixomotor tayyorgarlikni talab qiladi. Hatto yaxshi jismoniy va texnik jihatdan tayyorlangan sportchi, uning uchun kerakli psixik funksiyalari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, g'alaba qozonolmaydi. Musobaqalarning psixologik xususiyatlari, musobaqa oldi holatlarining dinamika va sabablari, psixologik qonuniyatlari sportchi psixikasiga yuqori talablarni qo'yadi. Bir necha oylar yoki yillar davomida mashg'ulotlar asosida shakllantirilgan hamda o'rganilgan bilim yoki malaka sport turidan kelib chiqib, start oldi yoki kurashga kirishishdan bir necha daqiqa oldin yo'qolib qolishi mumkin [7, 427s.].

Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik, sportchining aynan ushbu musobaqaga psixik tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan, ya'ni o'sha musobaqadan oldin va uning davomida sportchining psixik holati kerakli samaradorlik, boshqaruv, ishonchlik va xulq-atvorni ta'minlay olishga qodir bo'lish holatidir. Murabbiyning vazifasi aynan shu holatni shakllantirish va ta'minlab berishiga to'g'ri keladi. Shunday qilib, zamonaviy sport nafaqat mashg'ulot jarayonida va musobaqalar paytida organizmga yuklanadigan katta zo'riqishlar, balki yuqori psixik zo'riqish hamdir. Sportchi aksariyat xollarda ekstremal vaziyatlarga tushib qoladi, shunday vaziyatlarda u moslashishi va ularni qanday yengib o'tishni o'rganishi kerak, aks holda sportchi uchun musobaqalardagi muvaffaqiyat erishib bo'lmaz natijaga aylanadi. Aynan yuqori natijaga erishish uchun sportchilarga psixologik yordam dasturi zarur.

Xulosa

Psixologik tayyorlash dasturini amalga oshirishda psixodiagnostika usullarini qo'llashdan asosiy maqsad sportchi shaxsi hamda uning imkoniyatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu, odatda, musobaqa siklining boshida amalga oshiriladigan va sportchining salohiyatini o'rganishga imkon beradigan asosiy psixodiagnostikani o'z ichiga oladi. Asab tizimi va kognitiv jarayonlarning individual namoyon bo'lishi, jumladan idrok, xotira, tafakkur, diqqat, psixomotor soha, xarakter xususiyatlarining rivojlanish darajasi, motivatsion va irodaviy sohalarning shakllanishi bilan baholanadi. Samarali guruhiiy faoliyat talab qilinadigan holatda, sportchilarning o'zaro mosligini baholash dolzarb sanaladi. Sportchilar tomonidan tanlangan muayyan sport faoliyat

turida samaradorlikni oshirish hamda yuqori natijalarga erishish uchun psixologik tayyorgarlik, ya'ni bu sportchilarda musobaqalarga psixologik tayyorlik holatini vujudga keltirish hamda aniq texnika va usullarni amalda qo'llash orqali kerakli psixologik holatni shakllantirish jarayonidir. Mazkur jarayon muayyan sifatni kasb etishi mumkin. Sportchini sifatli psixologik tayyorlashning asosiy omili bo'lgan diqqatni asosiy maqsadga yo'naltirish, sportchining imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish - umumiy professional mahorat bilan bir darajaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ашихмина А. А. Техники саморегуляции субъекта спортивной деятельности как фактор его психологической безопасности / А. А. Ашихмина. М.: Наука, образование и культура. — 2016. — 189 с.

2. Буриков А.В. Формирование психологической устойчивости к действиям в экстремальных условиях // Педагогика & Психология. Теория и практика. Международный научный журнал, № 3 (17), Волгоград, 2018, С. 56-57.

3. Гаппаров. З.Г. Спортивная психология: Учебник // МВ и ССО РУз. - Т.: 2009. - 19-21 с.

4. Горбунов, Г.Д. Психопедагогика спорта / Г.Д. Горбунов. – М. : Советский спорт, 2012. –312 с.

5. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: общая теория и ее практические приложения. М., 2005. С. 463.

6. Юрина Ю. В. Спортивная психология. Психологические методики в системе подготовки спортсменов к соревнованиям // Молодой ученый. - 2021, № 42, (384). - С. 168-171. - URL: <https://moluch.ru/archive/384/84668/>.

7. Gangyan, S., Cruz, J., Jaenes, J.C. (Ads). Sport Psychology - Linking Theory to Practice. Instituto Politécnico de Lisboa. - 2017. - 427 p.

PEDAGOGNING METODIK TAYYORGARLIGI VA IJODKORLIGI INNOVATSION KLASTERNI SAMARALI REJALASHTIRISHNING OMILI SIFATIDA

Abdusamatov Javlonbek Qahramon o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktab menejmenti yunalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada maqola pedagogning metodik tayyorgarligi va ijodkorligi innovatsion klasterini samarali rejalashtirishning omili to'g'risida mulohaza yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Tayanch iboralar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, kasbiy mahorati, pedagogik jarayon, pedagogning metodik tayyorgarligi, ijodkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim-tarbiya, pedagogik jarayon sub'ektlari, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalar.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yangilanishlar talaba yoshlarimiz taqdiri, ularning yorug' istiqboliga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik, aynan, o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning talabnomasi (prossiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

O'z ertangi kelajagiga befarq bo'lmagan, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda:

- birinchidan, hududiy rivojlanish istiqbolaridan kelib chiqib, kasb yo'nalishlarini belgilash va joriy etish amalga oshirildi;
- ikkinchidan, ta'lim muassasalarining kasbiy yo'nalishlari loyihalashtirildi;
- uchinchidan, ta'limning moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlandi;
- to'rtinchidan, ta'lim muassasalari yuqori malakali pedagog va xodimlar bilan ta'minlandi;
- beshinchidan, ta'lim muassasalari faoliyatini yuritishda davlat budjet va homiylik mablag'laridan samarali foydalanildi;
- oltinchidan, ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasida uzviylikni ta'minlash ishchi kuchi talab va taklifi muvofiqlashtirildi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishidir. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'qituvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi ma'suliyatini yanada oshiradi. Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z soxasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak.

Klasterlar o'z tarkibidagi subyektlarning barqaror munosabatlariga, kichik innovatsion korxonalar va o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualarini yaratishga, mamlakatimiz ilmiy muhitida talab qilinadigan tadqiqotlarni o'tkazishga, reyting nashrlarini tayyorlashga, barqaror patent faoliyatiga, faol grant loyihalariga yo'naltirilgan bo'lib, bu ilmni tijoratlashtirish bilan bog'liq ustuvor vazifalarni

yechish imkonini beradi. Klaster yaratish innovatsion rivojlanish assotsiatsiyasini tashkil etish, tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish, shuningdek, klaster tizimi doirasida innovatsion g'oya va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish imkonini beradi.

Ilmiy faoliyat innovatsion tadbirkorlik faoliyatining kuchli manbai bo'lib xizmat qiladi, ammo buning uchun ilmiy maktablarning yuqori darajasi, rivojlangan innovatsion infratuzilmasi bo'lishi talab qilinadi. Shuning uchun ilm-fan, ishlab chiqarish va ta'limning integratsiyalashuvi doirasida bu jihatga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, klaster ilm-fan, ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyalashuvining ustuvor shaklidir. Ushbu integratsiya mexanizmlari mavjud resurslardan foydalanishni maksimal darajada kuchaytirish, klasterning innovatsion faoliyatini faol amalga oshirish imkonini beradi.

Rivojlangan innovatsion infratuzilmani shakllantirish nafaqat samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi, balki ishlab chiqarishda yangi texnik tizimlardan, bilim, malaka va ko'nikmalardan, insonlar xatti-harakatining modellaridan foydalanish zaruratini ham taqozo qiladi. Fan, texnika va ishlab chiqarish integratsiyasining kuchayishi natijasida bilimlar hamda axborotning ahamiyati orta boradi, pirovardida, ular inson kapitaliga aylanadi. Bu esa kadrlar tayyorlash tizimining nafaqat fan sohasi bilan, balki amaliyot bilan ham integratsiyalashuvining katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi.

Pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham, pedagoglarning malakasini oshirishda:

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish;
- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash masalalari asosiy deb belgilanadi.

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish,

balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bilirishlari) ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi. O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

Hozirgi zamon ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshirad

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi 30.09.2020.

2. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish T.: "Turon-Iqbol", 2006. 590 b.

3. J.G'.Yo'ldoshev "Innovasiyalarni ta'lim jarayoniga uzluksiz ravishda tatbiq etish zamon talabi" T.: "Uzluksiz ta'lim" j. 2011. № 6, 11-15 b.

AUTIZM SINDROMLI BOLALARNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O'RNI

Asrarxanova E'tibor Abduvaxob Qizi,
Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Psixologiya"
kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarning psixologik jihatdan taraqqiy etishi hamda ularni maxsus terapiyalar yordamida xulq-atvoridagi kamchiliklarini bartaraf etish usullari keltirib o'tilgan. Autizmning asosiy belgisi reallikni qabul qilishning buzilishidir. Autizmga chalingan bola tashqi olam bilan aloqani uzadi, va uni hayotga qaytarish esa psixolog, psixiatr, defektolog kabi mutaxassislarining vazifasidir.

Tayanch tushunchalar: Autizm, stereotip, sindrom, kasallik, yolg'izlik, exolaliya, psixolog, defektolog metod, terapiya, korreksiya

РОЛЬ ДЕТЕЙ С СИНДРОМОМ АУТИЗМА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ

Asrarxanova E'tibor Abduvaxobovna - преподаватель кафедры «Психология» Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

Аннотация: В данной статье упоминается психологическое развитие детей с синдромом аутизма и пути устранения их поведенческих дефицитов с помощью специальной терапии. Основным признаком аутизма является нарушение восприятия действительности. Ребенок с аутизмом теряет контакт с окружающим миром, и вернуть его к жизни — задача таких специалистов, как психологов, психиатров, дефектологов.

Ключевые слова: аутизм, стереотип, синдром, болезнь, одиночество, эхолалия, психолог, метод дефектолога, терапия, коррекция

THE ROLE OF CHILDREN WITH AUTISM SYNDROME IN SOCIAL LIFE

Asrarkhanova E'tibor Abduvahob kizi,
teacher of the department «Psychology» of the Tashkent State Pedagogical University Nizami

Annotation: This article mentions the psychological development of children with autism syndrome and ways to eliminate their behavioral deficits with the help of special therapy. The main symptom of autism is a violation of the perception of reality. A child with autism loses contact with the outside world, and bringing him back to life is the task of specialists such as psychologists, psychiatrists, speech pathologists.

Keywords: autism, stereotype, syndrome, disease, loneliness, echolalia, psychologist, defectologist method, therapy, correction

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2-aprel sanasi autizm sindromi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda ommalashtirish kuni sifatida belgilangan. 2008-yildan beri bu kunda autizmning erta tashxislanishi, autist bolalarning davolanishiga yordam ko'rsatish, jamiyatni mazkur sindrom haqida boxabar qilish masalalariga e'tibor qaratiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayni kunda dunyoda 10 milliondan ziyod bolaga autizm tashxisi qo'yilgan. Har yili bu ko'rsatkich 11 foizga ortib bormoqda. Ya'ni o'tgan asrning 90-yillarida har 5000 nafar boladan bittasiga autizm tashxisi qo'yilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich har 50 bolaga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi vaqtda bolalik autizmi psixikaning rivojlanishidagi buzilishining alohida turi sifatida qaraladi. Autizm sindromlilari barcha bolalarda muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi buzilgan bo'ladi va bu holat rivojlanishdan orqada qolishga, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. Ular uchun umumiy xususiyat affektiv muammolar va dinamik o'zgaruvchan muhit bilan faol munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar bo'lib, ular atrof-muhitdagi doimiylikni saqlashga bo'lgan munosabatini va o'z xatti-harakatlarining stereotipini belgilaydi.

Shu bilan birga, bunday bolalar, shu jumladan maktab yoshidagilar soni juda xilma-xildir. Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda tobora ko'proq odamlar autizm haqida emas, balki autizm spektrining buzilishi (ASD) «chiziqi» haqida gapirishmoqda.

Bugungi kunga qadar autizmning sabablari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shu bilan birga, genetik va neyrofiziologik anomaliyalar autizm rivojlanishining faqat zaruriy sharti bo'lishi ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi, tashqi omillar, masalan, atrof-muhit sharoitlari, yuqumli kasalliklar, zaif immunitet, erta tug'ilish va boshqalar autizmning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin degan farazlar ham hali o'z isbotini topmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. U yoki bu tarzda autizmlilarni odamlarga duch kelgan har birimiz, ularning xatti-harakati va muloqotining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratganmiz. E'tibor bering, autizm juda xilma-xildir. «Agar siz bitta autistik odamni bilsangiz, demak siz ... faqat bitta autizmlilarni odamni bilasiz» degan gapni eshitganmisiz? Bu to'g'ri. Rivojlanishning umumiy turidagi autizm tashqi tomondan juda boshqacha shakllarni oladi. U aqliy rivojlanishi past bo'lgan chuqur sozlangan nutqsiz bolani ham, yorqin «kattalar» nutqiga ega bo'lgan va bilimning erta va mavhum sohalari, tanlangan iqtidorli bolalarni o'z ichiga oladi.

Psixologlar buzilgan rivojlanishning namoyon bo'lishini umumlashtirib va yetakchi belgilarni ajratib ko'rsatib quyidagicha tasniflaganlar:

- ijtimoiy o'zaro ta'sirning buzilishi, boshqa odamlarning his-tuyg'ulariga reaksiyaning yo'qligi, ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi;
- aloqa buzilishlari (aloqa qilmaslik, odam bilan suhbatni boshlashga urinishda hissiy reaksiyaning yo'qligi, o'ziga qaratilgan nutq);
- nutqni rivojlantirishning bir turi (nutqning to'liq yo'qligidan tortib «kattalar» nutqi, nutqni ifoda etishning yetarli darajada moslashuvchan emasligi, intonatsiyadan foydalanishning buzilishi, atipik tovushlardan foydalanish, nutqda yig'lash);
- barcha turdagi kontaktlar uchun periferik ko'rishni qo'llash (otistik ko'zlariga qaramaydi, «orqali» yoki yon tomondan qaramaydi);
- qoliplash, xatti-harakatlarning takrorlanishi;
- kundalik hayotda qat'iy bir marta va umuman tartibga moyillik, bu tartibdagi o'zgarishlarga og'riqli munosabat;
- cheklangan doiradagi manfaatlar (yuqori ixtisoslashgan, ustun manfaatlar);
- funksional bo'lmagan xarakterdagi marosimlarga bog'lanish (sanalar, marshrutlar, jadvallar bilan mashg'ullik);
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, kiyim-kechak, o'yinchoqlar, mashg'ulotlar tanlashda buzilishlar va selektivlik;
- o'z-o'zini himoya qilish tuyg'usining buzilishi;
- qo'rquv, uyqu buzilishi, g'azab va tajovuzkorlik portlashlari.

Shunday qilib, autizm asosiy simptomlar uchlikli - muloqot, ijtimoiy o'zaro ta'sir va stereotipik xatti-harakatlarning buzilishi, shuningdek, boshqa rivojlanish buzilishlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunga kelib ko'pgina pedagog-psixologlarni birgina muammo qiynamoqda. Autizm sindromli bolalarga ta'lim berishning qaysi usullaridan foydalanish kerakligini va ularning samarasi haqida ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Bu savol ota-onalarni ham, ushbu toifadagi bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilarni ham qiziqtiradi. Bugungi kunda autizm sindromli

bolalar bilan ishlashning turli xil yondashuvlari mavjud. Amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) yoki amaliy xulq-atvor tahlili («kuzatilgan xatti-harakatlar», stimulyavob nazariyasi) eng keng tarqalgan va autizmlil shaxslarga nisbatan insoniyat nuqtai nazaridan qizg'in muhokama qilinmoqda. U ijtimoiy ahamiyatga asoslangan holda inson xatti-harakatlarining o'zgarishiga olib keladigan muhit omillariga ta'sirini rejalashtirish, qo'llash va baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tavsiya etiladigan odamlar toifalariga og'ir autizm, og'ir aqliy zaiflik va Daun sindromi bo'lganlar kiradi. ABA maqsadi - o'rganish va ijtimoiy o'zaro ta'sirga xalaqit beradigan istalmagan xatti-harakatlarni oshirish va kamaytirishdir. Boshqacha aytganda, bu «ijobiy mustahkamlash» va «xulq-atvorni funktsional baholash» strategiyasidir.

Autizmlil bolalarning oilalari talab qiladigan navbatdagi yondashuv Ayres sensorli integratsiya (ASI), Jan Ayresning hissiy integratsiya usulidir. Uning mohiyati boshqa odamlar bilan adekvat munosabatlarni o'rnatish, kundalik hayotda ob'ektlar bilan o'zaro ta'sir qilishning turli usullarini o'zlashtirish imkoniyati uchun barcha hissiy tizimlarning o'zaro ta'sirini o'rnatishdan iborat.

TEACH usuli yoki Strukturaviy o'qitish hozirda dunyoda ma'lum va keng qo'llaniladi. Quyidagi tuzilish turlarini o'z ichiga oladi:

Jismoniy tashkilot;

Jadval-Kundalik jadval;

Ish jarayonini tashkil etish - Ish tizimi.

Ushbu ishning maqsadi bolalarga uy-ro'zg'or ko'nikmalarini o'rgatish va autizmlil bolalarni ijtimoiylashtirishdir. Texnikaning afzalliklari shundan iboratki cheklangan makonda bolaning nazorat qilinishiga erishish qobiliyati va ota-onalarni ishga 100% jalb qilish zarurati yo'qligidadir. Eng og'ir va ko'p rivojlanish buzilishlari bo'lgan bolalar uchun javob beradi. Ushbu texnikaning elementlari - vizual jadval, taklif qilingan tadbirlar asosida xonani rayonlashtirish, shovqin va stimulyatsiyani minimallashtirish ko'rinishida bo'ladi. Bu defektologlar ishida keng qo'llaniladi.

Autizm spektrining buzilishini tuzatishga zamonaviy hissiy-semantik yondashuv rus psixologlari (K. S. Lebedinskaya, O. S. Nikolskaya, E. R. Baenskaya, M. M. Liebling va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan. U autizmdagi ruhiy disontogeneznining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan tadqiqotlarga asoslangan. U gumanistik ildizlarga ega va defektologlar tomonidan autizm bilan kasallangan bolalar bilan ishlashda faol foydalaniladi.

Ma'lumki, autizmda ruhiy rivojlanish buzilishlarining xususiyati uning bola psixikasining barcha sohalariga tarqalishi, uning affektiv va kognitiv rivojlanishi hisoblanadi. Affektiv soha insonning o'zi va tashqi dunyo bilan munosabatlarini rivojlantirishga rahbarlik qiluvchi ma'nolar tizimi sifatida qaraladi. Autizmda ma'nolar tizimi ko'proq himoya tizimiga o'xshaydi va bu bolaning aqliy rivojlanishida buzilishlarni keltirib chiqaradi.

Bunday bolaga dunyo bilan munosabatlarda yanada faol va konstruktiv pozitsiyani shakllantirishga yordam berish uchun uning rivojlanishini normallashtirish mumkin emas, hissiy-semantik yondashuv ishlab chiqiladi va qo'llaniladi. Semantik yondashuvni afzalliklari shundaki, uning asosiy vazifasi bolaning individual ta'sirchan tajribasini to'plash va mazmunli tartibga solish bo'lib, u atrof-muhit bilan faol va differentsial munosabatlarni rivojlantirish uchun yordamga aylanishi mumkin. Hissiy, chunki bolaga yordam berishning asosiy vositasi birgalikda yashash va nima bo'layotganini hissiy tushunishdir. Hissiy aloqani o'rnatish qiyinligiga qaramay, autizmlil bolalarda unga bo'lgan ehtiyoj mavjud bo'ladi, autizmdagi aqliy rivojlanish buzilishlarining o'ziga xosligini tushungan holda, bu vazifani mutaxassis juda ishonchli hal qiladi.

Autizmlil bola bilan hissiy aloqa usuli, agar u uchun mavjud bo'lgan aloqani tashkil qilish parametrlarini hisobga olgan holda o'rnatilsagina bu usul kafolatlanadi: masofa, davomiylilik, ritm, intensivlik va shakl, jalb qilingan taassurotlarning

hissiy modalligini o'z ichiga oladi. Birinchi, barqaror takrorlanadigan aloqalar mutaxassisning bolani egallagan yoqimli taassurotlarga qo'shilishi, bolaning odatiy zavqini o'z hissiy reaksiyasi bilan bo'lishish va mustahkamlash asosida yuzaga keladi. Ularning maqsadi bolaga umumiy zavq, umumiy manfaatdorlik tajribasini berish, uni muloqotga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirib, mustahkamlanadigan birgalikdagi umumiy tajribaga jalb qilishdan iboratdir.

Hissiy yuqumli kasallik bolani ruhiyatini ko'tarishga imkon beradi va bu unga noqulayliklarga dosh berishni osonlashtiradi, aloqalarda faollikni oshiradi va taqlid ko'rinishini rag'batlantiradi, odatdagi yoqimli taassurotlarga rang-baranglik qo'shish istiqbollari ochadi. Kattalar boshidanoq hissiy ma'noga ega bo'lgan umumiy zavqli faoliyatda birlashish ularni doimiy, takrorlanuvchi o'zaro ta'sir epizodlarini o'z ichiga olgan o'yinga aylantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu epizodlar bola tomonidan afzal ko'rgan yoqimli hissiy stimulyatsiya asosida quriladi va rivojlanadi, lekin ayni paytda ular haqiqiy hayotning tanish va yoqimli daqiqalarini o'ynash sifatida tushuniladi. Ushbu epizodlarning birgalikdagi hissiy hayotida bolaning kundalik hayotiy tajribasi yangilanadi, ijobiy tushuniladi va mazmunli tashkil etiladi, bu uning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarining yanada faol va murakkab shakllarini rivojlantirish uchun asos va yordamga aylanadi. Bola tomonidan himoyalangan hayotning stereotipi asta-sekin mazmunli ravishda farqlanadi va boyitiladi, kamroq jizzaki bo'ladi, ya'ni oddiy va farovon uy hayotining mazmunli yo'lga yaqinlashadi va uning dunyosi tasviri yanada uyg'un va yashashga yaroqli bo'ladi.

Sohaviy yo'nalishga qarab zaxira kadrlarning ko'rsatkichlarini tahlil etadigan bo'lsak, ularning “oliy nufuzga erishish” ko'rsatkichlari nisbatan bir xilda ekanligini kuzatsa bo'ladi. Boshqacha aytganda, Samarqand viloyati zaxira kadrlari (28,30), Namangan viloyati zaxira kadrlari esa, (28,35) o'ziga xos miqdoriy qiymatga ega bo'ldilar. Ularning ko'rsatkichlari metodikaning xususiyatiga ko'ra 10 dan 50 gacha oraliqdagi qiymatga ega bo'lishi kerak edi. Respondentlarimiz natijalarini ushbu me'yor bilan solishtirganda o'rtachadan yuqori ekanligini qayd etish mumkin. Demak, oliy o'quv yurti talabalarining qaysi yo'nalish bo'lishidan qat'iy nazar, shu sohada nazariy jihatdan yuqori mavqeyga va natijalarga ega bo'lishni orzu qilar ekanlar. Ammo ularning to'laqonli yuqori ko'rsatkichga da'vogar bo'lmaganliklari ham ijtimoiy talablarni qabul qilishganligidan dalolat beradi. Ular atrofdagilar xohish-istaklariga mos ish tutishga harakat qilishligi natijalardan ko'rinib turibdi.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik shaxsning o'z hayotidagi shaxsiy farovonligiga yashashning asosiy sharti sifatida qarashini ifodalaydi.

“Yuqori moddiy ta'minlanganlik” (3) qadriyatlari yo'nalishi bo'yicha ham respondentlar bir - biriga yaqin qiymatlarni to'plaganlar, ya'ni Samarqand viloyati zaxira kadrlari (28,07), Namangan viloyati zaxira kadrlari (28,02), deyarli bir xilda bahoga erishganlar. Ularning yuqori moddiy ta'minlanganlikka qanday erishish borasidagi tasavvurlari keyingi faoliyatlarida o'z aksini topgan va u talabalarining shaxsi va kasbiy kamolot o'rtasidagi uyg'unlik natijasi sifatida gavdalanadi. Shunday bo'lsa-da, hali ularda yuqori moddiy ta'minlanganlikka xohish - istak hayot tarzining keyingi bosqichida ko'zga tashlanadi. Hali ularda to'kin - sochin hayot kechirishga intilish o'rtacha ko'rsatkichga ega. Ular ijtimoiy munosabatlarga kirishib, shaxsiy hayot tarzini shakllantirib borgandan keyingina, bu xususiyatdagi qadriyatlarga munosabat o'zgarishi mumkin bo'ladi. Balki yuqori moddiy ta'minlanganlikka ishtiyoqning quyi bo'lib qolishi ham ularni mutaxassis sifatida kamol topishiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bo'lishligi ehtimol.

Zaxira kadrlarning “ijodkorlik” (4) qadriyatlar yo'nalishi bo'yicha baholari ham an'anaviy ko'rsatkichlarni takrorladi. Ularning barcha yo'nalishlar bo'yicha

ko'rsatkichlari o'rtachadan yuqorini ifodalamoqda, ya'ni mazkur qadriyatlar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar olindi: Samarqand viloyati zaxira kadrlari (29,26), Namangan viloyati zaxira kadrlari (28, 12). Bu holat ularda ijodkorlik imkoniyatlari mavjud emas, degan xulosani bermaydi. O'tgan ma'lumotdagi singari izohlaganda, kasbiy ustanovkalarining to'g'ri shakllantirilmaganligi mutaxassislikni to'g'ri tanlash va u bo'yicha yetakchi xodim bo'lib yetishish chora tadbirlarini belgilashga to'siq bo'lib qoladi. Shu sababli kasbiy faoliyatdagi shaxsning ijodkorligi, kelajak rejalar tuzish, o'zlikni anglash, yangilikka intilish va tirishqoqlik ancha sust rivojlanadi.

Zaxira kadrlarda "ijodkorlik" qadriyati ancha yuqori va yuksak tarkib topgan bo'lishi lozimki, bu holat shaxs ruhiy imkoniyatlarini vaqtida ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

"Faol ijtimoiy munosabat" (5) qadriyati shaxsning muomalaga moyilligi, muloqotga kirishuvchanligi va ijtimoiy nufuzga ega bo'lishini belgilaydi. Ma'lumki, ular faol ijtimoiy munosabatlarda ham o'z aksini topadi. Samarqand viloyati zaxira kadrlari "Faol ijtimoiy munosabat" kirishishda 28,69 ko'rsatkichlarini namoyon qilgan bo'lishsa, Namangan viloyati zaxira kadrlari 29,81 balli ko'rsatkichlarni namoyon qildilar.

"O'z ustida ishlash qadriyati" (6) yo'nalishi shaxsning o'zidagi xislat va fazilatlarini rivojlantirishga, imkoniyat va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishiga qaratilgandir. Bu qadriyatlar yo'nalishi bo'yicha respondentlar o'ziga xos ko'rsatkichlarni namoyon etdilar. Respondentlar qaysi yo'nalishda bo'lishlaridan qat'iy nazar natijalarida boshqa qadriyatlarga nisbatan bir oz farqli ko'rsatkichga, ammo sohalariga ko'ra esa qisman farqli qiymatlarga ega bo'ldilar. Ular orasidan Samarqand viloyati bo'yicha o'qiydigan zaxira kadrlari go'yoki o'zlarida ishonchsizlik va o'z ustida ishlash hech qanday nafga ega emasdek baholaganlar (30,90). Namangan viloyati zaxira kadrlari esa 31,79 o'rtachadan biroz yuqori ko'rsatkichni namoyon etdilar.

Bu ularda o'z ustlarida ishlash tizimi ishga tushgan degan xulosani bermaydi. Ulardagi faollik, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va o'z xatti-harakatlarini umumiy faoliyatga muvofiqlashtirish ayrim hollarda ko'zga tashlanmaydi. Ulardagi vaqtinchalik xatti - harakatlarni nazorat qilish va o'z ustida ishlash jarayonlari kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirishda ma'lum to'siqlarga olib kelayotgan bo'lishi mumkin. Ammo shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda, zaxira kadrlar uchun yuqori talabchanlik va intilish zarur hisoblanadi.

"Yutuqlarga yo'nalganlik" (7) qadriyat yo'nalishi ham boshqa qadriyatlar yo'nalishi singari o'rtachadan yuqori chegaradan o'rin oldi, ya'ni 31,90 (Samarqand viloyati zaxira kadrlari), 31,86 (Namangan viloyati zaxira kadrlari). Bundan ko'rinadiki, ularning yuqori yutuqlarga, muvaffaqiyatga intilish qadriyatlarini ham talaba shaxsida to'laqonli o'z aksini topa olgan deya olmaymiz. Ularning faoliyat natijalaridan anglasa bo'ladi, zaxira kadrlardagi manfaatdorlik tuyg'usi ham yetarli darajada rivojlanmagan.

Zaxira kadrlarning "ma'naviy qoniqish" (8) qadriyat yo'nalishi natijalari ham qolgan barcha qadriyatlarini singari miqdoriy ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Ularni o'zida ancha farqli natijalarni aks ettirgan, ularning kasbga o'zlari qiziqqan va manfaatdor bo'lgan hamda qoniqadigan hayot sohalariga yo'naltirilgan deb bo'lmaydi. Chunki barcha zaxira kadrlari natijalari 33,28 (Samarqand viloyati zaxira kadrlari), 31,18 (Namangan viloyati zaxira kadrlari) natijalar to'plamini o'zida aks ettirdi.

Hattoki zaxira kadrlarning qadriyatlar yo'nalishlarida asosiy o'ringa ega bo'lgan "o'zlikni anglash" (9) qadriyati bo'yicha ko'rsatkichlari ancha bahsli holatga ega. Ularning bu qadriyatlar yo'nalishi mustaqillik, shaxsning o'ziga xosligini, dunyoqarashda ajralib turishi va atrofdegilar ta'siridan yiroq va mustaqil qarorlar qabul qilishga moyilliklarini ifodalashi lozim edi. Ammo bunday holat kuzatilmadi

31,42 (Samarqand viloyati zaxira kadrlari), 28,92 (Namangan viloyati zaxira kadrlari). Bunga asosan aytish mumkinki, talabalarning kasb tanlashi va kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirishlari uchun mustaqil xulosa qabul etishdan oldin atrofdegilarning ta'siri va qo'llab-quvvatlashlariga zarurat bor. Bunday tayanch yordamisiz ularda ijobiy o'zgarishlar bo'lishi qiyin.

Bizning tajribamizda zaxira kadrlarning kasbiy faoliyatga munosibligi va kasbiy faoliyat sohalari to'g'ri tanlaganligini baholash bilan bir qatorda ularning hayotiy sohalari bo'yicha maqsadli qadriyatlarini o'rganish ham zarur ekanligidan kelib chiqib quyida shu muammo tahliliga e'tibor qaratamiz.

Zaxira kadrlarning ijtimoiy intellekti va maqsadli qadriyatlari o'rtasidagi korrelyasion munosabatlarda bir qator to'g'ri va teskari munosabat hosil qilgan koeffitsiyentlar kuzatildi (2 - jadval).

Zaxira kadrlar kamolotida ijtimoiy intellekt bilan kasbiy qadriyatlar - "Oliy nufuzga ega bo'lish" ($r < 0,01$), "Faol ijtimoiy munosabatlar" ($r < 0,01$), "O'z ustida ishlash" ($r < 0,05$), "Yutuqlarga yo'nalganlik" ($r < 0,01$), "Ruhiy qoniqish" ($r < 0,01$), "O'zlikni anglash" ($r < 0,01$) shkalalari o'rtasida ijobiy korrelyasion munosabat aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, zaxira kadrlar kasbiy kamolotida shaxsning muomalaga moyilligi, muloqotga kirishuvchanligi va ijtimoiy nufuzga ega bo'lishini belgilaydi.

Qadriyatlararo munosabatlardagi korrelyasion bog'lanishlarda asosan teskari korrelyasiya koeffitsiyentlari yetakchilik qilayotganligi bizning zaxira kadrlarni kasb tanlashi va mutaxassis sifatida shakllanishida o'ziga xos o'ringa ega ekanligidan dalolat bermoqda. Faqat qadriyatlar orasidan "oliy nufuzga ega bo'lish", "moddiy jihatdan yuqori darajada ta'minlanganlik" bilan ijobiy bog'lanish hosil etgan ($r = 0,329$, $R < 0,01$ ga teng). Hayotiy kuzatish va tajribalar ham shaxsning oliy nufuzga yo'nalishi ko'proq uning yuqori moddiy ta'minlanishga intilishi bilan yoki "moddiy jihatdan yuqori darajada ta'minlanganlik" shaxsning oliy nufuzga intilishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib turibdi. Zaxira kadrlar ko'proq tanlagan kasblarida ushbu ikkita qadriyatga urg'u berayotganliklari shubhasiz.

Zaxira kadrlarning kasbga munosibligini belgilovchi ijtimoiy intellekt va qadriyatlararo munosabatlar o'rtasidagi korrelyasion bog'lanishlar

	Ijtimoiy intellekt	Oliy nufuzga ega bo'lish	Yuqori moddiy ta'minlanganlik	Ijodkorlik	Faol ijtimoiy munosabatlar	O'z ustida ishlash	Yutuqlarga yo'nalganlik	Ruhiy qoniqish	O'zlikni anglash
Ijtimoiy intellekt	1	0,308*	-0,081	-0,104	0,306*	0,139*	0,233*	0,486*	-0,190**
Oliy nufuzga ega bo'lish		1	0,329**	0,293*	0,306*	0,394*	-0,062	0,499*	-0,133*
Yuqori moddiy ta'minlanganlik			1	-0,103	0,358*	0,440*	-0,177*	0,353*	-0,102
Ijodkorlik				1	-0,001	-0,052	0,305*	-0,097	-0,167**
Faol ijtimoiy munosabatlar					1	0,139*	0,233*	-0,006	-0,187**
O'z ustida ishlash						1	-0,004	0,251*	-0,083
Yutuqlarga yo'nalganlik							1	0,100	-0,065
Ruhiy qoniqish								1	-0,010
O'zlikni anglash									1

* $P < 0,05$; ** $r < 0,01$

Ammo, "oliy nufuzga ega bo'lish" qadriyati qolgan qadriyatlar bilan teskari korrelyasiya munosabatlariga ega bo'ldi ($r = -0,293$, $r = -0,306$, $r = -0,499$, $r = -0,133$, $P < 0,01$ ga teng bo'ldi). Bundan ko'rinayaptiki, yuqori martabaga erishish uchun hali talabalar ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaganligi, ijtimoiy munosabatlarda yetarlicha faollikni namoyon eta olmaganliklari, o'z ustida ishlash qobiliyatiga ega emasliklari, irodaviy xususiyatlarning shakllanmaganligi, o'z mehnati va faoliyat natijalaridan qoniqmasligi, xatti-harakatlarini to'g'ri baholash malakasiga ega emasligi, refleksiyaning shakllanmaganligi va bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil fikrlarni shakllantirishga ko'nikmasiga ega emasliklari ko'zga tashlanib turibdi.

Moddiy jihatdan yuqori darajada ta'minlanganlikka erishish shaxsdan bir qator xususiyatlar egasi bo'lishni taqozo etadi. Zaxira kadr yuqori moddiy ta'minlanganlikka erishishlari uchun kasbiy shakllanishda ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishi, hamkorlikda ishlash uquviga ega bo'lishi, simpatiya hosil qilishi va insonlar bilan iliq munosabat o'rnatishlari lozim. Zaxira kadrlarning bunday ichki munosabatni hosil qilolmaganliklari tanlangan kasb bo'yicha mutaxassisga qo'yiladigan talablar to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emasligidadir.

Shu o'rinda zaxira kadrlarning ma'lum maqsadga yo'nalgan qadriyatlari tahlili natijasida yuzaga chiqqan ikkita holatga to'xtalib o'tish muhimdir. Birinchisi, zaxira kadrlar kasbga munosiblikni ta'minlashi va kasbiy shakllanishi uchun "faol ijtimoiy munosabat" ga xos qadriyatlarni shakllantirishda o'z ustida ishlashi ($r = 0,139$, $P < 0,05$)

zarur bo'lsa, ikkinchisi esa, o'z ustida ishlash va shaxsiy fazilatlarini shakllantirib borish barobarida ruhiy qoniqish va ma'naviy yetuklikka ($r=0,251$, $P<0,01$) erishish imkoniyati mavjudligini inobatga olishlari lozim.

Demak, shaxsni kasbiy faoliyatga munosibligi bilan uning ijtimoiy intellekti va qadriyatlarini o'rtasida izchil bog'liqlikni o'rnatgan taqdirda mazkur yo'nalishda yuqori natijalarni qo'lga kiritishi mumkin ekan.

Ushbu natijalar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Olingan ma'lumotlar zaxira kadrlarning, ijtimoiy turdagi kasblar bo'yicha bo'lajak mutaxassislarining sosial intellekt komponentlarini faolligining rivojlanishidan dalolat beradi.

2. Zaxira kadrlarda o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha maqsadli qadriyatlar bilan vositali qadriyatlar orasida ma'lum munosabatlar mavjud bo'lib, ular bir-birini to'ldira olmagan.

3. Zaxira kadrlarning kasbiy qadriyatlarini ularning ijtimoiy intellekti bilan ijobiy bog'lanishga ega. Zaxira kadrlar kasbiy rivojlanish uchun qaysidir sohalarga qiziqishlarini yaqqol ifoda etishlari lozim bo'lardi. Ularning ko'rsatkichlarida tub ma'noda maqsadli qadriyatlar bilan ijtimoiy intellekt o'rtasida yuqori darajadagi bog'lanish va munosabatlar o'rin olgan. Statistik ko'rsatkichlar esa zaxira kadrlarning ijtimoiy intellektlari shaxsiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holatlarni ifodalab bergan. Ammo ba'zi ahamiyatga molik ko'rsatkichlar borki, ular talabalarning mutaxassis sifatida shakllanishi uchun kasbga munosiblikni to'liq oqlay olmaydi.

4. Achinarli tomoni shundaki, ko'rsatkichlarda zaxira kadrlarning qadriyatlarini bilan ijtimoiy intellektlari orasidagi munosabatlar ko'proq manfiy korrelyasiya koeffitsiyentlariga egalik va ishonchlik darajasiga yetmaganlik holatini o'zida mujassamlashtirgan.

5. Shunday bo'lsada, zaxira kadrlarning kasbiy tasavvurlari va kasbning istiqboli bo'yicha olingan anketalar natijalaridagi fikrlari qadriyatlar bilan sosial intellektlari o'rtasidagi korrelyasiya koeffitsiyentlarida ham o'z tasdig'ini topgan. Ularning yuqori moddiy manfaatdorlik qadriyati "Oliy nufuzga ega bo'lish" ($r= 0,308$, $P<0,01$), "O'z ustida ishlash" ($r= 0,139$, $P<0,05$), "Ruhiy qoniqish" ($r= 0,486$, $P<0,01$), yo'nalishlari bo'yicha musbat korrelyasiya munosabatlarini hosil qildi. Biroq ushbu aloqadorlik statistik ahamiyatsiz darajada ekani e'tiborga loyiq. Shaxsning tasavvuri bilan qo'yilgan maqsadni amalga oshirishi o'rtasida anchagina tafvutlar kuzatiladi. Aynan bugungi kun zaxira kadrlarining kasbga munosibligi borasidagi muammolarini Dj.Kellining shaxs konstruktleri psixologiyasidagi samarali faoliyatni uch bosqichga bog'lab tushuntirgan g'oyalari bilan bog'lash mumkin. Inson o'ziga mos xulq-atvor yo'nalishini tanlaydi. Bu yo'nalishdagi xatti - harakatlar uch bosqichdan, ya'ni mo'ljal olish, tanlash va ijro etishdan iborat. Zaxira kadrlar kasbiy shakllanish va rivojlanish borasida ham ushbu uch bosqichni boshdan kechiradilar, ammo ularning harakat bosqichlaridan qaysidir pog'onasi talab darajasida emasdi. Bu ijtimoiy intellektni takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.

6. Tadqiqot natijasi ko'rsatishicha, kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida uning mezonlari shakllanishlari o'z-o'zidan, ijtimoiy munosabatlardan, ishdan va hayotdan qoniqishda ifodalangan ijtimoiy intellekt determinantlarining tashqi omillarga mos kelishi darajasiga qarab o'zgaradi.

7. Shaxs kamoloti kasbiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashganligi va hayot strategiyalarini sifat xususiyatlarining muhim omilidir.

8. O'tkazilgan tadqiqotlar ta'lim faoliyati muvaffaqiyati va kasbiy o'zini o'zi anglashning hal qiluvchi omillaridan biri kasbiy qadriyatlar va ijtimoiy intellekt ekanligini aniqlashga imkon berdi. Zaxira kadrlarda kasbiy kamolotning yuqori ko'rsatkichlari, erta kasbiy o'zini o'zi anglash, ta'lim faoliyatining yuqori ko'rsatkichlari bo'lgan talabalar uchun xarakterlidir.

Adabiyotlar:

1. Avlayev, O.U., & Mamatkulova, Z.G. (2019). The dynamics of the interpersonal relationship of the components of social intelligence of students. *Science and education today*, (12 (47)).
2. Avlayev O., Butayeva U. Psychological determinant of personality development. *Scientific-methodical journal of public education*. 2021. № Pages 6, 87-92.
3. Butayeva U., Avlaev O., Abdumannotova N. Scientific and practical studies of psychological maturity of students./ *Journal of critical reviews. JCR*. 2020; 7 (12): 3063-3070 doi: 10.31838 / jcr.07.12.463
4. Burkhanov A., Avlayev O., Abdujalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity / *E3S Web of Conferences* 2021.
5. Maslou A. *Motivasiya i lichnost*. - SPb, 2006.
6. Mixaylova (Aleshina), Ye.S. *Test Gilforda diagnostika sosialnogo intellekta [Tekst]: metodicheskoye rukovodstvo / Ye.S. Mixaylova (Aleshina)*. – SPb.: IMATON, 2006. – 56 s.
7. Rusalov, V. M. *Psixologicheskaya zrelost: yedinaya ili mnojestvennaya xarakteristika?* / V.M. Rusalov // *Psixologicheskij jurnal*. – 2006. – № 5. – S. 83-97.
8. Sirliyev B.N. *O'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari ustalari kasbiy kamolotining psixologik jihatlari*. Diss. psix. fan. nom. - T.: 2000. – 121 s.
9. Safayev N.S. *Psixologicheskiye osobennosti nasionalnogo samosoznaniya studencheskoy molodeji* // Diss. doktora psixol. nauk. -Tashkent, 2005. - 291 s.
10. G'oziv E.G'., Jabborov A.M. *Faoliyat va xulq-atvor motivasiyasi*. – Toshkent: Universitet, 2003. - 167 b.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ СПОРТСМЕНОВ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ ВО ВРЕМЯ УЧАСТИЯ НА СОРЕВНОВАНИЯХ ПО СПОРТИВНЫМ БАЛЬНЫМ ТАНЦАМ

*Быстрова Юлия Александровна,
доктор психологических наук, доцент, ведущий научный сотрудник
Института проблем инклюзивного образования ФГБОУ
ВО МГППУ, Москва, Россия*

*Лapp Елена Александровна,
кандидат педагогических наук, доцент ФГБОУ ВО «Волгоградский
Государственный социально-педагогический университет»,
Волгоград, Российская федерация*

Аннотация: в настоящей статье рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются спортсмены с особыми образовательными потребностями (ООП), особенности их психологического сопровождения и консультирования, уточнено понятие психологической готовности к соревнованиям, предложены критерии оценки психологической готовности спортсменов к ответственным соревнованиям.

Ключевые слова: психологическое сопровождение, готовность спортивной танцевальной пары, спортсмены, ООП, бальные танцы, стрессоустойчивость.

PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR ATHLETES WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS DURING PARTICIPATION IN BALLROOM DANCING COMPETITIONS

*Bystrova Yulia Alexandrovna,
Doctor of Psychology, Associate Professor,
Leading Researcher Institute of Problems of Institute
of Problems of Inclusive Education, FSBEI HE MSUPE,
Moscow, Russia Bystrova*

*Lapp Elena Alexandrovna, Candidate of Pedagogical
Sciences, Associate Professor FGBOU VO
Volgograd State Socio-Pedagogical University,
Volgograd, Russian Federation*

Annation: this article discusses the difficulties faced by athletes with special educational needs (SEN), the features of their psychological support and counseling, the concept of psychological readiness for competitions is clarified, criteria for assessing the psychological readiness of athletes for important competitions are proposed.

Key words: psychological support, readiness of a sports dance couple, athletes, PLO, ballroom dancing, stress tolerance.

Современный спорт считается уникальным социальным институтом развития. Общеизвестно связывать спорт с соперничеством, состязательностью, под которыми понимается борьба между людьми, между человеком и природными явлениями или человека с самим собой. Ключевым в определении понятия является и то, что спорт выступает как средство и форма выявления социального признания высших психических и духовных способностей индивида и команды [4; 5]. Особенно важным такое признание становится для людей с ООП, оно

помогает им поверить в себя и успешно социализироваться в обществе.

Спортивные балльные танцы помогают спортсменам с ООП получать социальные навыки группового взаимодействия, т.к. являются исключительно парным видом спорта, в котором важны не только активность и техника танцевания, но и психологическая связь партнера и партнерши [1; 5].

Целью каждого спортсмена является достижение максимального для него результата. Целью психологического консультирования является формирование психологической готовности спортивной пары с ООП к участию в соревнованиях различного уровня сложности и значимости в спортивной карьере [2; 7].

Формирование готовности спортсмена с ООП происходит при погружении и включенности психолога в процессы переживания, доверия, присутствия, рефлексирования, осознанности и ответственности по отношению к спортсмену, к осуществляемому процессу: тренировки, выступления, соревнования, а также взаимодействия спортсменов в паре [1; 2; 3; 10].

В нашем исследовании мы определяем психологическую готовность спортсменов с ООП как наличие психических ресурсов для успешного преодоления ситуации выступления танцевальной пары на ответственных соревнованиях. К таким ресурсам относятся собственный индивидуальный образовательный маршрут (ИОМ), определенные мотивы достижения успеха и избегания неудач, готовность к риску, стрессоустойчивость, уровень взаимодоверия внутри танцевальной пары, удовлетворённость тренировками и уверенность в своей физической и спортивной подготовке. Психологическая готовность спортсменов с ООП зависит от их личностных качеств, формируется в ходе тренировок и соревнований, а также в результате целенаправленного воздействия психолога в процессе консультирования [2; 6; 8; 9].

Степень психологической готовности спортсменов к ответственным соревнованиям мы предполагаем оценивать в нашем исследовании по следующим критериям:

Критерий соотношения мотивов избегания неудач и достижения успеха. Существуют две важные составляющие мотивации — мотивация успеха и мотивация боязни неудачи [3].

Мотивация успеха/достижение успеха — показывает психологическое состояние спортсмена, отражающее: сосредоточенность, боевую готовность, повышенную тревожность, беспокойство, депрессию, чрезмерную расслабленность, несобранность, что непосредственно отражается на достижении успеха в соревнованиях [3]. Инициативность и предприимчивость спортсменов с ООП зависит от потребности в достижении успеха.

Любой опыт, испещренный ошибками и болью, ожиданием неприятных последствий, является мотивацией боязни неудачи. Спортсмен на стадии выступления прогнозирует свой провал и думает, как его избежать. Страх сковывает его и не дает сосредоточиться на мотивации успеха. Диагностику психологической готовности по данному критерию предлагается определять по методикам Т. Элерса «Методика диагностики мотивации избегания неудач» и «Методика диагностика мотивации к успеху». Соотношение данных мотивов определяет поведение человека при встрече с препятствиями к достижению цели.

В исследовании принимало участие 20 спортсменов, из них: 10 спортсменов контрольной группы (норма) и 10 спортсменов экспериментальной группы (спортсмены с ООП).

Полученный результат по диагностике нашего исследования по мотивации достижения успеха представлены в таблице 1 нашего исследования.

Таблица 1.

Результаты исследования мотивации достижения успеха по методике Т. Элерса

Группа	Кол-во спортсменов	ВЫСОКИЙ		СРЕДНИЙ		НИЗКИЙ	
		Кол-во спортсменов	%	Кол-во спортсменов	%	Кол-во спортсменов	%
норма	10	6	60	2	20	2	20
ООП	10	4	40	3	30	3	30

Данные нашего исследования показывают, что у контрольной группы 60% (6 спортсменов) просматривается преобладание высокого уровня выраженности критерия в мотивации достижения успеха, а в экспериментальной всего 40% (из 4 спортсменов), что говорит о сильной мотивации спортсменов не смотря на сложность поставленной задачи, а значит эффективности их работы.

Мотивация достижения успеха тесно связана с уровнем самооценки волевых качеств спортсмена и оказывает влияние на процесс принятия решения.

В связи с чем, низкий уровень мотивации спортсменов КГ – 20% (2 спортсмена) и ЭГ – 30% (3 спортсмена) позволяют сделать вывод, что спортсмены с низким уровнем мотивации испытывают страх перед неудачным выступлением в ответственных соревнованиях, считая себя неудачником в глазах тренера и других спортсменов по клубу.

Дальнейшими направлениями нашего исследования будет психологическое сопровождение спортсменов с ООП и исследование еще их готовности к ответственным соревнованиям еще по трем критериям:

1. Уровень готовности к риску. Анализ направлен на ситуации, являющиеся потенциально рискованными, приводящие спортсмена к необходимости совершать рискованные действия. Диагностику уровня личностной готовности к риску рекомендуется оценить по методике «PSK» ШУБЕРТА. В данной методике риск понимается, как действие наудачу в надежде на счастливый исход или возможная опасность, как действие, совершаемое в условиях неопределенности [3].

2. Доверие к партнеру. Показателями критерия служит согласованность действий спортсменов танцевальной пары, помогающая стимулировать друг друга на достижение успеха. Высокий уровень тревожности и недоверия имеет отрицательную связь с принятием партнера [3]. Чем выше тревожность, тем ниже чувство взаимной ответственности и вера в способность контролировать поведение других людей. Существует определенное сочетание индивидуально психологических свойств личности, которое можно продиагностировать по МПДО А. Е. Личко.

3. Стрессоустойчивость. Успешное выступление спортсменов на соревнованиях очень часто зависит в каком психическом состоянии он находится. Во всех видах спорта сезон включает в себя три-четыре выступления, а все остальное время идет подготовка. В спортивных бальных танцах турнирные соревнования доходят до частоты два раза в неделю (пять дней тренировки, два дня соревнования), в связи с чем в данном виде спорта, необходим другой подход к выступлениям [1; 3]. У спортсменов данного вида спорта практически нет выходных, что сильно сказывается не только на физическом «истощении» спортсмена, но и сильно влияет на психофизиологическую функцию и нервно-психическое состояние в целом спортивной пары.

Оптимальным выбором на диагностическом этапе с целью выявления спортсменов с низким уровнем стрессоустойчивости рекомендуется использовать следующие психодиагностические методики: тест самооценки стрессоустойчивости С.Коухена и Г.Виллиансона, методика «Копинг-поведение в стрессовых ситуациях» (адаптированный вариант методики Н.С.

Эндлера, Д.А. Паркера), опросник «Шкала самооценки предстартовой тревоги» (разработан Ч.Д. Спил-бергером, адаптирован Ю.Л. Ханиным), методика «Исследование волевой саморегуляции» (А.В. Зверьков и Е.В. Эйдман). Данный выбор диагностики обусловлен известностью и давно применяется в экспериментальной и прикладной психологии [3].

Таким образом, проведенный анализ критериев психологической готовности спортсменов к ответственным соревнованиям позволил создать собственный инструментарий для оценки психологической готовности спортсменов. Теоретическая база дальнейшего эмпирического исследования сформирована.

Литература

1. Абрамова В. В., Иванькова Ю. А. Пути преодоления стресса спортсменами в спортивной соревновательной деятельности // Научный результат. Педагогика и психология образования. – 2016. – Т. 2. – №. 4 (10).

2. Быстрова, Ю. А. Возможности психологической поддержки и сопровождения молодых людей с интеллектуальными нарушениями при трудоустройстве / Ю. А. Быстрова // Консультативная психология и психотерапия. – 2022. – Т. 30, № 4(118). – С. 143-162. – DOI 10.17759/cpp.2022300408. – EDN AWDOJK.

3. Быстрова, Ю. А. Критерии психологической готовности спортсменов к участию в ответственных соревнованиях по спортивным бальным танцам / Ю. А. Быстрова, А. А. Данилов, Л. В. Неровный // Психология и педагогика: актуальные проблемы теории и практики (ко дню психолога) : Материалы III Всероссийской научно-практической конференции с применением технологий дистанционного онлайн-участия, Москва, 18 ноября 2021 года / Отв. редактор А.С. Поляков. – Москва: Московский государственный областной университет, 2021. – С. 37-41. – EDN SKFMCC.

4. Быстрова Ю.А. Развитие социальной компетентности у подростков с ОВЗ в условиях инклюзивного образования // Психологическая наука и образование. 2022. Том 27. № 6. С. 102–114. DOI: 10.17759/pse.2022270608

5. Психология спорта: наука, искусство, профессия / Под ред. К. А. Бочавера, Л. М. Довжик. – М.: Московский институт психоанализа–Когито-Центр, 2019. – 270 с.

6. Коробейникова Елена Ивановна, Даянова Марина Александровна Характеристика психологической подготовки спортсменов // Наука-2020. 2019. №11 (36).

7. Лапп Е. А., Кочеткова, Е. О. Особенности тренинга личностного роста для лиц с ОВЗ / Е. О. Кочеткова, Е. А. Лапп // Актуальные проблемы развития личности в онтогенезе: материалы IV Всероссийской научно-практической конференции, Якутск, 03 апреля 2015 года. – Якутск: Общество с ограниченной ответственностью «Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2015. – С. 199-200. – EDN TRBRHD.

8. Лысакова Анастасия Николаевна, Новицкая Маргарита Сергеевна Психологические особенности спортивно-танцевальной деятельности // Вестник ГУУ. 2014. №2.

9. Ронь Ирина Николаевна. Психолого-педагогические условия формирования соревновательной эмоциональной устойчивости конкурсных танцевальных пар : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 Ставрополь, 2006 192 с. РГБ ОД, 61:06-13/1238

10. Bystrova Yu., Kovalenko V., Kazachiner O. Social and pedagogical support of children with disabilities in conditions of general secondary educational establishments // Journal for Educators, Teachers and Trainers. 2021. Vol. 12(3). P. 101–114. DOI: 10.47750/jett.2021.12.03.010

11. Lapp, E. A. Staffing of Special Education for Children with Mental Impairments: Problems and Perspectives / E. A. Lapp // Education of Children with Special Needs: Theoretical Foundations and Practical Experience in the Selected Works of Russian, Belarus, and Polish Scholars. – Switzerland : Springer Nature Switzerland AG, 2022. – P. 381-389. – DOI 10.1007/978-3-031-13646-7_39. – EDN VQWQOI.

DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLAR SHAXSIDA RUHIY-JINSIY BUZILISHLAR IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Elov Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlar shaxsida uchraydigan ruhiy-jinsiy buzilishlarning ijtimoiy psixologik sabablari va uning muammolari ilmiy tahlillarda muhokama qilingan. Turli olimlarning ushbu muammo yuzasidan fikrlari va qarashlariga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, deviant xulq-atvorli o'smir shaxsida ushbu muammoning yuzaga kelishi sabab bo'luvchi asosiy sababalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: deviyatsiya, jinsiy mayl, buzilish, libido, agressiya, tajovus, shaxs, diskomfort, ozorlanish, emotsiya, nafrat, transseksualizm – gonadalar, urogenital transseksualizm, gonadalar, urogenital, onanizm, autoidentifikatsiya, erogen zona, ehtiyoj, manifestatsiya, ereksiya.

ПСИХО-СЕКСУАЛЬНОЕ РАССТРОЙСТВО КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

В статье рассматриваются социально-психологические причины сексуальных расстройств личности подростков с девиантным поведением и проблемы ее научного анализа. Отдельно были обсуждены мнения и взгляды различных ученых на данную проблему, а также проанализированы основные причины возникновения данной проблемы у подростка с девиантным поведением.

Ключевые слова: девиация, сексуальная ориентация, расстройство, libido, агрессия, агрессия, личность, дискомфорт, обида, эмоция, ненависть, транссексуальность - гонады, уrogenитальный транссексуализм, гонады, уrogenитальный, онанизм, самоидентификация, эrogenная зона, потребность, проявление, эрекция

PSYCHO-SEXUAL DISORDER AS A SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEM IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. The article discusses the socio-psychological causes of psycho-sexual disorders in the personality of adolescents with deviant behavior and its problems in scientific analysis. The opinions and views of various scientists regarding this problem were discussed separately, and the main reasons for the occurrence of this problem in a teenager with deviant behavior were analyzed.

Key words: deviation, sexual orientation, disorder, libido, aggression, aggression, personality, discomfort, hurt, emotion, hatred, transsexualism - gonads, urogenital transsexualism, gonads, urogenital, onanism, self-identification, erogenous zone, need, manifestation, erection.

Kirish: Ruhiy-jinsiy deviyatsiyalar – jinsiy mayl yo'nalishi yoki uni qondirish usullarining buzilishidir. Ilgari ularga jinsiy axloqning mazkur jamiyatdagi umume'tirof etilgan modelidan farq qiluvchi har qanday jinsiy ehtiyoj va harakatlarni kiritishgan, zero ular nafaqat buzilishlar hisoblangan, balki ma'naviy jihatdan qoralangan ham. Hozirda ko'pgina mutaxassislar jinsiy deviyatsiyalarning faqat bir qismiga aniq nuqson deb qaraydilar. Ruhiy-jinsiy deviyatsiya deganda libidoning sifatli o'zgarishi nazarda tutiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Qator olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar jinsiy buzilishlarning yuzaga kelishida agressiya sabab qilib

ko'rsatilganligini ko'rishimiz mumkin. Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggređi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, YU.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi[1].

L.Bender agressiyani insonning o'z-o'zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta'kidlaydi. Motivlashtirish nuqtai nazaridan, L.Bender agressiyani ixtiyoriy va instrumental turlarga ajratadi. R.Beron va D.Richardson agressivlikning rivojlanishiga olib keluvchi shaxs xususiyatlarini quyidagicha ifodalagan:

impulsiv xulq ko'rinishlarining namoyon bo'lishiga moyillik, emotsional ta'sirchanlik – diskomfort, o'z-o'zidan qoniqmaslik, ozorlanish hislari, psixologik qulaylikning yo'qotilishi;

turli o'y-fikrlarga berilish (instrumental agressiya), diqqatning buzilishi (emotsional agressiya);

dushmanlik yondashuvi – barcha stimullarni ularning tabiatidan qat'iy nazar o'zi uchun xavfli, deb qabul qilish[2].

T.G.Rumyanseva, I.B.Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar. Bu borada agressiyani keltirib chiqaruvchi ikki holat tavsiflanadi:

qurbon uchun vaziyatlar natijasi xavfli deb hisoblanganda;

qabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga amal qilinmaganda.

SHaxs xususiyatlari emotsional tanglik holatlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. SHuning uchun psixologlar individni frustratsiya jarayonida o'rganishga alohida e'tibor qaratadilar[3].

G'.B.SHoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar (analysis results). Libido (lotincha libido - mayl, istak, intilish) – jinsiy mayl, jinsiy aloqaga intilish hoxishidir. O'zida miqdoriy o'zgarishlarni ifodalovchi frigidlik, satiriazis, nimfomaniya, erotomaniya va jinsiy maylning boshqa turlari ularga kirmaydi. Onanizm to'g'risida bir xil ma'nodagi fikrlar mavjud emas: u shunchalik tarqalib ketganki, ko'pchilik mualliflar uni jinsiy rivojlanishning buzilishi sifatida tavsiflashdan bosh tortadilar[4].

Onanizm (bibliyada keltirilgan personaj Onan nomi bo'yicha) – erogen zonalarini mexanik qo'zg'atish yoki ruhiy to'lqinlantirish yo'li bilan o'zini jinsiy qanoatlantirishdir.

Ruhiy-jinsiy deviatsiya rivojlanishining quyidagi turlari ajratiladi:

Transeksualizm – gonadalar, urogenital yo'llari va ikkilamchi jinsiy belgilarning to'g'ri shakllanganiga qaramay o'zini qarama-qarshi jinsga tegishli deb hisoblash.

Bugungi kunda transeksualizmning tarqalishi holati aholining 1:37 000 qismiga to'g'ri kelmoqda, vaholanki u erkaklarda 2-3 marta ko'p uchraydi[5].

1-jadval

Dunyo aholisi o'rtasida transeksualizmning tarqalishi holati
(har 100.000 aholiga nisbatan: 2021 yil holatida)


davlatlar	erkaklar o'rtasida jinsni o'zgartirish	ayollar o'rtasida jinsni o'zgartirish	farqlar
Singapur	35	12	3.0:1
AQSH	1.0	0.25	4.0:1
Shvetsiya	2.7	0.97	2.8:1
Angliya	5.0	2	2.5:1
Avstraliya	4.7	0.62	6.1:1
Sh.Irlandiya	2.8	1.0	3.0:1

Bu ruhiy-jinsiy rivojlanishdagi og‘ish jinsiy axloq uchun javobgar bo‘lgan miya tuzilishi differensirovkasidagi, birinchi navbatda, gipotalamusning qo‘pol buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri jinsiy tarbiya olganiga qaramasdan, autoidentifikatsiyaning buzib ko‘rsatilishiga va boshqa jinsga mansubligini his qilishga olib keladi. Jinsiy differensirovka buzilishining ifodasi keng doiralarda o‘zgarishi mumkin. Jinsiy o‘zini-o‘zi anglash shakllanishi bosqichida bunday bolalar o‘zlarini qarama-qarshi jins nomlari bilan ataydilar, qarindoshlaridan birovlarining oldida ularni o‘g‘il bola emas, balki qiz bola deb aytishlarini, yoki aksincha, iltimos qilishadi. Bolalar hech bo‘lmasa, jinsiy munosabatlardagi betaraf (neytral) bo‘lgan kiyimda yurish huquqini olishga harakat qiladilar, lekin qarama-qarshi jinsning kiyimlarini kiyishni maqsad qilib qo‘yadilar. Dastlabki vaqtda bunday axloq kattalar tomonidan bolalarcha hazil, tentaklik yoki inijlik deb qabul qilinadi. Holatning jiddiyligi va ko‘ndirishlarning samarasizligini anglagach, ota-onalar yanada «ta’sirchan» choralarni qo‘llashga harakat qiladilar, lekin, odatda maqsadga erisha olmaydilar. Aslida transseksual bolalarning hayoti - bu doimiy, fojiga to‘la bo‘lgan o‘z «Men»i bilan jinsini o‘zgartirish, shaxsiy jinsiy o‘zini anglash va o‘zining atrofdagilar tomonidan qabul qilinishi o‘rtasida muvofiqlikka erishish huquqi uchun kurashdir. Jinsiy autoidentifikatsiyaning buzilishi ifodalangan barcha holatlarda transseksualizm 5 yoshgacha manifestatsiya (namoyish) qiladi. Axloqning jinsiy roli shakllanishi bosqichida, ko‘pincha, kattalarning azoblariga zid ravishda, boshqa jinsga mansublikni his qilish jinsiy roldagi axloqning tegishli shakllariga burkanadi va transseksualizm namoyon bo‘lish uchun ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Ruhiy-jinsiy yo‘nalishlar shakllanishining bosqichi transseksualizmda to‘g‘ri jinsiy rivojlanishdan ko‘ra yanada murakkabroq va mas‘uliyatliroqdir.

1-rasm

Dunyo aholisi o‘rtasida transseksualizmning tarqalishi holati
(dunyo miqyosida 2017 yil holati)



Uning boshlanishi ikkilamchi jinsiy belgilar va jinsiy a‘zolar rivojlanishining cho‘qqisiga etgan, shuningdek, jinsiy mayl shakllanishi sodir bo‘ladigan pubertatli davrga to‘g‘ri keladi. Jinsiy bezlarning faol ishlashi boshlanishi bilan qarama-qarshi jinsga mansublik hissi keskin ortadi, «begona» maydondagi hayot qiynoqqa aylanadi, boshqa jins kiyimini kiyish doimiy tus ola boshlaydi. Jinsiy a‘zolar va ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi nihoyatda keskin qabul qilinadi, chunki ular «o‘zga» jinsga mansublikdan dalolat beradi va ular «noto‘g‘ri» axloqining dalili bo‘lib xizmat qiladi. Qizlarni sut bezlari kattarishi xavotirga soladi va ular ko‘kragini mahkam siqib bog‘laydilar. Kechasi ularga muz bog‘lab qo‘yadilar, «sun‘iy muz» yoki xloretil bilan muzlatib qo‘yadilar. Yigitlar jinsiy a‘zolar o‘sishi, yuzlarida tuklar paydo bo‘lishi, ilk ereksiyalardan g‘oyatda tashvishlanadilar. Ereksiyani bartaraf qilish uchun jinsiy a‘zolarini bog‘lab qo‘yadilar va butun bint hamda arqonlar yordamida oyoqlar oralig‘iga mahkamlab qo‘yadilar. Ayrim holatlarda transseksual o‘spirinlar o‘zini

o'zgartirishga: jinsiy a'zosini kesib tashlash yoki uni to'liq bichib qo'yishga qaror qilishadi.

Shu o'rinda, Z.Freydning psixoanalizining mohiyatini yana bir bor o'rganish lozimligini bugungi zamonaviy psixologiya ko'rsatib bermoqda. Uning fikricha ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo'yadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi degan g'oyani ilgari surib, odam xulqdagi ijtimoiylik, onglikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, seksual) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va h. k.)ning asosiy manbai sifatida qaraladi[6].

Deyarli hamma yorqin transseksuallar har qanday, hatto aldov yo'li bilan bo'lsa ham jinsini o'zgartirishga intiladilar. Ruhijinsiy devyatsiyaning shakllanishi bosqichida faqat pasportdagi jinsni o'zgartirishning o'zi etarli bo'lmaydi va transseksualning atrofdagilartomonidan uni o'zi «istagan» jins vakili sifatida to'liq e'tirof etishlarini talab qiladilar. Jinsiy maylning shakllanishi aksariyat hollarda jinsiy o'zini-o'zi anglashga mos keladi, ya'ni jinsiy moyillik erkakcha autoidentifikatsiyali ayollarda ayollarga nisbatan, ayollarcha autoidentifikatsiyali erkaklarda esa - erkaklarcha yuzaga keladi. Tashqaridan bunday moyillik gomoseksuallik kabi qabul qilinadi, lekin mazmunan bunday emas, zero jinsiy o'zini o'zi anglash bilan kelishgan holda u qarama-qarshi jinsga qaratilgan. Erkak-transseksuallar sherik sifatida geteroseksual erkaklarni afzal ko'rishadi va ularning jinsiy faolligi gomoseksual ekanligi to'g'risidagi fikrlarni rad etishadi. Ammo ayollar bilan aloqa qilish ular tomonidan g'ayritabiiy holat, masalan, gomoseksuallik kabi qabul qilinadi. Aksariyat transseksuallar o'zlari mansub jins vakillari bilan jinsiy aloqaga kirishadilar. Jinsiy mayl qarama-qarshi jins vakillarida ham shakllanishi mumkin, lekin, garchi tashqaridan geteroseksual bo'lib ko'ransada, uni gomoseksual deb baholash lozim[7].

Xulosa va takliflar (conclusion/Recommendations). Ehtiyoj va atrofdagilarning fikriga bog'liqlik o'rtasidagi o'zining «nuqsoni» bilan doimiy kurash shaxsning disgarmoniyasiga, uning hatto ruhiy-nuqsonli malolliklarsiz patoxarakterologik shakllanishiga olib keladi. Bunday ayollar va erkaklarning katta qismi qarama-qarshi jinsga xos bo'lgan ishga moslashadi. Ayollar shunchaki erkakcha kasbni emas, balki ulardan eng nufuzlilari bo'lgan: uchuvchilar, uzoq masofalarga suzuvchilar, geologlar, tergovchilar, jarrohlilar va hokazo kasblarni tanlashadi. Bunda ular nafaqat o'zligini namoyon qilish, balki «teng huquqlarda» erkaklar jamiyatida aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kasb ularning erkakcha odatlari, o'zlarini tutishlari, kiyinish uslublariga mos bo'ladi. Transseksual erkaklarga ijtimoiy moslashish ayollarga nisbatan qiyinroq bo'ladi. Bolalikdan ularning nazokatlilik pichinglarga, mensimaslikka va hatto tengdoshlari tomonidan ta'qib qilinishiga olib keladi. Nazokatli o'g'il bola tengdoshlarining ierarxik zinapoyasida eng past pog'onaga ega bo'ladi, «ikkinchi navli» odam bo'lib qoladi. Ular kelgusida tanlaydigan ayollarning kasblari nufuzli emas va erkaklarning hayratini hamda pichinglarini yuzaga keltirishda davom etadi. Biroq qizlar, kelgusida esa ayollar ularga xayrixoh munosabatda bo'ladi, «kuchli» jins kamchiliklaridan xoli bo'lgan bunday yumshoq tabiat va ko'ngilchan erkaklarni o'z jamoalariga jon deb qabul qiladilar.

Transseksualizmni differensiyali diagnostika qilishning qiyinchiliklari shu bilan bog'liqlik, bemorning jinsini o'zgartirish haqidagi iltimosi shifokorlar tomonidan bema'ni deb, ruhiy kasallikning ko'inishi kabi qabul qilinadi. Jinsni o'zgartirish haqidagi g'oyat qimmatli va hatto bema'ni g'oyalar haqiqatda turli ruhiy buzilishlar natijasida, ko'pincha paranoyali sindrom va bosh miya organik jarohatlanishi holatlarida ham uchraydi.

Intersekslarning kuzatishlaricha, erkak jinsini ayol jinsiga o'zgartirishdan ko'ra, ayol jinsini erkak jinsiga o'zgartirish ancha osonroq ekan. «Erkakcha» yurishning

o'ziga xos xususiyatlari uzoqroq saqlanadi va «ayollarcha» xususiyatlarga nisbatan tezroq o'zlashtiriladi. Erkaklar kiyimini kiyish odati ham osonroq yuzaga keladi. Erkak jinsidan ayol jinsiga o'tgan ayrim shaxslar, ayollar narsalarini orttirishadi, pariklar, shinonlar, hamma mumkin bo'lgan pardozi buyumlarini (kosmetikani) qurol qilib olishadi. 20-21 yoshdan keyin jinsni o'zgartirish maqsadida ijtimoiy sabablarga ko'ra qiyinlashadi: aksariyat individlar mutaxassislikka ega bo'lishgan, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lganlar va hokazo. Nafaqat hujjatlarni rasman almashtirish, balki turar joyini o'zgartirish (odatda boshqa shaharga ko'chib ketish), eski tanish-bilishlarga va qarindoshlar bilan uchrashuvlarga to'liq barham berish, yangi mutaxassislikka ega bo'lish va shu kabilar talab qilinadi. Avvalgi jinsda go'yoki ijtimoiy «o'lim» va yangi jinsdagi «tug'ilish» sodir bo'ladi.

Jinsini o'zgartirishga faol intiluvchi yorqin transseksuallar bunday imkoniyatni topa olmagan va ularning pasport bo'yicha jinslari va jinsiy o'zini-o'zi anglash o'rtasidagi nomuvofiqlik hal bo'lmagan holatlarni oldindan aytish noqulaydir. Bunday hollarda uzoq davom etadigan depressiv holatlar, o'z joniga qasd qilish fikri va urinishlar uchrab turadi. Jins o'zgartirishning barcha murakkabliklariga qaramay unga erishgan transseksuallar o'zlarini ancha yaxshi his qiladilar, jinsiy jihatdan moslashib hatto nikohga kira oladilar.

Adabiyotlar:

Агрессия в подростковом возрасте. – Санкт-Петербург: «Питер», 2007;
Семенюк Л.М. Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия его коррекции. – Воронеж: «Научная книга», 2010.

Бэрон Р., Ричардсон Д. Психология человеческой агрессии. – М.: «Вузовская книга». –С. 147.

Румянцева Т.Г., Бойко И.Б. Понятие агрессии и агрессивности в подростковом возрасте. – Минск: «Университетское», 2002. –С. 72

Шоумаров Ф.Б. Оила психологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 2000. –24-б.

Ҳақимова И.М. Девиант хулқ-атвор психологияси. – Т. 2014

Z.Ibodullaev. Asab va ruhiyat. – Т. 2015

Z.S.Elov. Deviant xulq – atvorli o'smirlarda kuzatiladigan psixologik o'zgarishlarining yosh bilan bog'liq xususiyatlari (Voyaga etmaganlarga ijtimoiy himoya ko'rsatish markazi tarbiyalanuvchilari misolida). PEDAGOGIK MAHORAT. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, №3 72-75

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE STATE OF AGGRESSIVENESS AND AUTOAGGRESSIVENESS IN ADOLESCENTS

*Ganjiev Feruz Furqatovich
Doctor of philosophy in psychological
sciences (PhD), docent Bukhara State University*

Annotation: this article reflects on the socio-psychological determinants and specificity of aggressive and autoaggressive adolescents ' underlying structure. In the article, all foreign and domestic psychologists created so far serve as a scientific basis for the scientific approaches, theoretical views, conceptual developments of researchers on aggressiveness behavior; the methodological aspect of our work.

Keywords: forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СОСТОЯНИЯ АГРЕССИВНОСТИ И АУТОАГРЕССИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

*Ганджиев Феруз Фурқатович,
Доктор философии по психологическим наукам (PhD), доцент
Бухарский государственный университет*

Аннотация: в этой статье рассматриваются социально-психологические детерминанты и идентичность агрессивных и аутоагрессивных подростков в их основной структуре. В статье представлены научные подходы, теоретические взгляды, концептуальные разработки всех зарубежных и отечественных исследователей-психологов на агрессивное поведение, созданные до сих пор, которые служат научной основой для методологического аспекта нашей работы.

Ключевые слова: судебный психолог, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

O'SMIRLARDA AGRESSIV VA AUTOAGRESSIVLIK HOLATINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Ganjiev Feruz Furqatovich,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada agressiv va autoagressiv o'smirlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari va o'ziga xosligi uning asosiy tuzilmasi haqida fikr yuritilgan. Maqolada, hozirga qadar yaratilgan barcha xorijiy va mahalliy psixolog tadqiqotchilarning agressivlik xulqqa oid ilmiy yondashuvlari, nazariy qarashlari, kontseptual ishlanmalari, mazkur ishimizning metodologik jihati uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertisasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

KIRISH. Hozirgi kunda jahon miqyosida shaxsda agressiv va autoagressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlarining diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshirishning psixologik usullarini takomillashtirish hamda dunyo miqyosida

bu holatlarni baholash dasturlari keng joriy etilgan va ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Ta'lim subyektlarining intellektual, kasbiy va guruhiy ishlash imkoniyatlarini tizimli o'rganishning ijtimoiy-psixologik innovatsion loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni Respublikamizning istiqbolli ta'lim dasturlaiga mos integratsiya qilish zarurati jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Jumladan, Bolonya Deklaratsiyasi, Evropa Kengashi mamlakatlarining 2020 yilga qadar ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasidagi Hamkorlik strategiyasi, Oliy kasbiy ta'lim muassasalari Yevropa assotsiatsiyasi EURASHE, ENIC-NARIC axborot-tizim markazi, Ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilot Education International hujjatlarida nafaqat bilim olish huquqini kafolatlash, balki shaxs ma'naviy yuksalashining diagnostik yo'nalishlari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirmoqda.

Globalashuv davrida avtoagressiyaning o'smirlar hayotida namoyon bo'lishi sof antropologik va psixologik hodisa bo'lib, muayyan ma'noda bu hodisaning keng tarqalganligi butun jamiyatning holatini, uning axloqiy salomatligini aks ettiradi. O'z joniga qasd qilishlar sonining ko'payishi o'smirlarda avtoagressiyaning ekstremal ko'rinishi sifatida bugungi kunda butun dunyoda va mamlakatimizda ham kuzatilmoqda. Avtoagressiya bu jismoniy va ruhiy sohalarda o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan qilingan faoliyat. O'zini ayblash, o'zini kamsitish, o'z joniga qasd qilish, zavq olishdan bosh tortish, ehtiyojni qondirish kabi turli darajadagi tan jarohati yetkazishda namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda voyaga yetmaganlarda avtoagressiya fenomenini chuqur o'rganish zarur. O'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga to'stinlik qiladigan sharoitlarni hisobga olgan holda, ularning buzg'unchi xatti-harakatlarini zamonaviy voqeliklar kontekstida tushunish kerak. Avtoagressiya va ijtimoiy-psixologik moslashuv muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bugungi kunda autoagressiv xatti-harakatlarning umumiy psixologik modellarini aniqlash va autoagressiv xatti-harakatlarga moyil bo'lgan o'smirlarning shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish vazifasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shunday qilib, o'smirlarning autoagressiv xulq-atvori va ijtimoiy-psixologik moslashuv o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish umumiy psixologik bilimlarning manfaatlari va zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liq. Shu sababli, mavjud ishlanmalarga asoslanib, o'smir shaxsining moslashuv jarayonining psixologik determinantlari va xususiyatlarini o'rganish kerak, bu esa o'z vaqtida autoagressiv tendentsiyalarning rivojlanishining oldini olishga imkon beradi.

Ushbu maqolada asosan autoagressiv xulq-atvorning paydo bo'lishining zaruriy shartlarini ko'rib chiqamiz, uning o'ta og'irligi, o'smirlarning o'z joniga qasd qilish xatti-harakati farqini hisobga olgan holdagi terminologiyadir.

Dunyoda autoagressiv xulq-atvor 19-asr oxiridan 20-asr boshlarida qadar o'rganila boshlandi. Yoshlar o'rtasidagi autoagressiv xulq-atvor muammosiga bag'ishlangan juda ko'p miqdordagi xorijiy va mahalliy ishlarga qaramay, mamlakatimizda ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy statistik tadqiqotlar kam. Asosan, faqat namunaviy statistik ma'lumotlar mavjud. Biz hali ham yoshlarining o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining haqiqiy darajasini va shakllarini bilmaymiz. O'z joniga qasd qilishning jinsi va yoshi prognozlarini mintaqaviy kontekstni hisobga olgan holda tahlil qilish va tushuntirish kerak. Shu bilan birga, vaziyatni tahlil qilish o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining maxsus, «ichki» shakli sifatida «auto-agressiv tendentsiyalar» miqyosini baholamasdan bo'lmaydi.

O'smirlik davrida o'z joniga qasd qilishga urinishlar ko'p, asosan bu namoyishkorona autoagressiv urinishlardir. Tajribani mustahkamlash bilan bunday urinishlar takrorlanishi mumkin. Ko'pincha o'smirlarda impulsiv tarzda sodir bo'ladi. O'smir ko'pincha o'z ehtiyojlarini qondirish uchun har to'siq tufayli stress va tajovuz tufayli o'z joniga qasd qilishga urinishadi.

O'smirlarda o'z joniga qasd qilish holatlari ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatilmoqda. D.Friman (1987) ma'lumotlariga ko'ra, o'z joniga qasd qilish 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan amerikalik o'smirlar va yoshlar orasida o'limning uchinchi (baxtsiz hodisalar va qotilliklardan keyin) sababidir. So'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda 10-14 va 15-19 yosh o'smirlarda o'z joniga qasd qilish darajasi 14 foizda va 17 foizga oshdi. Xuddi shu tendentsiya Markaziy Osiyoda, shuningdek bir qator boshqa mamlakatlarda ham kuzatilmoqda.

Agressiv va autoagressiv o'smirlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari muammosining umumiy jihatlari T.N.Safonova, M.V.Bashkin, Z.A.Zimeleeva, O.V.Bubnovskaya, A.A.Bukina, L.F.Burlachuk, N.B.Burtovaya, I.O.Denisov, Ye.E.Efimova, S.M.Emelyanov, D.V.Ivchenko, L.V.Malikov, M.A.Isaeva o'z asarlarida agressiv xulq namoyon bo'lishining psixologik jihatlari, nizolarga sabab bo'luvchi munosabatlar, agressiv xulq nazariyalari, yosh mutaxassislarining ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalarni tadqiq etishgan.

NATIJALAR. Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri tajovuzlikdir. Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan tajovuzkor holatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini o'rganish psixologlar uchun dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda ota-onalar bilan suhbatlashsangiz, ularning aksariyati farzandlar bilan ayniqsa, talabalik yosh davridagi o'spirinlar bilan muomala munosabatlarida bo'lish murakkablashib borayotganligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda talabalarning ijtimoiy moslashmaganligi muammosi dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa bu omil agressiv o'spirinlar sonini ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bizga ma'lumki, inson odobli yoki odobsiz, oliyjanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog'lom xulqli shaxs bo'lib dunyoga kelmaydi. Insonning turli mazmundagi xulq-atvor xususiyatlari va uning ustanovkalari shuningdek, uning ijtimoiy hayot faoliyati, shaxsni o'rab turgan obyektiv shart-sharoitlar va voqea-hodisalarning ta'siri asosida yuzaga keladi. Mazkur shart-sharoitlar va obyektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga keng xizmat qiladi. Bu unsurlar ijtimoiy turmush shart-sharoitlari oxir-oqibat natijada inson xulq-atvorining o'ziga xos shakllarini ta'minlab beradi.

Shunday ekan, bu masalalarni yaxshilash, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar bo'lib, shakllanishini ta'minlash har bir oila a'zosining, mahalla ko'nying, rahbariyatning, keng jamoatchilikning asosiy va muhim vazifasi bo'lmog'i darkordir.

O'smirlik mohiyatan ong egasi, u aql yo'rig'i bilan ish tutadigan davr hisoblanadi. Uning boshqalardan farqi ham ana shundadir. Demak shaxsning xatti - harakati, xulq-atvori, insonlarga munosabati, vazifasi va burchini anglash darajasi ham ong mahsuli sanaladi. Ong fe'l-atvorimiz doirasida namoyon bo'ladi va aqlimiz darajasini belgilaydi. O'smirga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri agressiv va avtoageressivlikdir. Bugungi kunda o'smirlarda kuzatilayotgan agressiv holatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, autoagressiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini o'rganish tadqiqotchlar uchun dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Maqolada belgilanadigan munosabatlarni aks ettiruvchi mazkur diagnostik baholarning nisbiyligi asosiy masaladir. Nuqtayi-nazarimizcha zaruriyatday tuyuladigan narsa boshqa bir inson uchun nafaqat foyda, balki zararli deb hisoblanishi mumkin, bir madaniyatda ma'qul sanalgan narsa boshqa bir madaniyatda noma'quldek e'tirof etilishi mumkin. Agressivlik ijtimoiy-psixologik holat sifatida norma hamda qoidalarni buzish, yon atrofimizdagilarga zarar va azob-uqubat keltirish deb qaraladi.

Shu o'rinda instrumental hamda g'araz bilan qilingan, oldindan rejalashtirilgan, tajovuzkorlik tiplari ham mavjud. O'smir boshqa birov unga nisbatan hujum qilish yoki salbiy istagidaligini bilsa, birinchi navbatda g'arazli maqsad, dushmanlik holatini o'ziga qanchalik darajada tegishli ekanligini hal qilib olishi lozimdir. Umuman agressivlikning boshlanishida faqatgina, boshqa bir inson dushmanlik maqsadidagi, hatto subyekt hujum qilmagan bo'lsa-da, bu haqdagi bilim unga yetarli asos bo'lishi kuzatiladi.

Ushbu qisqacha tahlildan ko'ramizki, o'smirlar o'rtasida agressiv va autoagressiv xulq-atvor muammosi butun dunyoda mavjud. Bu yana bir bor muammoning jiddiyligini va o'smirlar o'rtasida autoagressiv xatti-harakatlar tendentsiyalarini o'rganish zarurligini tavsiflaydi. Autoagressiya hodisalariga o'zini asossiz xavf-xatarga duchor qilish istagi (ekstremal), xavfli vaziyatlarni qidirish, o'ziga zarar yetkazadigan sevimli mashg'ulotlari (giyohvandlik, mastlik) kabi yashirin shakllar ham bo'lishi mumkin.

O'smirlik davrida agressiv va autoagressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlarida shaxs xususiyatlari muhim o'rin egallaydi biz buni quyidagi jadvalimizda ham ko'rishimiz mumkin.

1.1-jadval

Agressivlik va shaxs xususiyatlari so'rovnomasi natijalarining o'zaro aloqasi

Omillar	Agressivlikva autoagressivlik	O'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishi	Faoliyatda o'zini nazorat qilish	Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishi
Jahildorlik	0,483*	0,225**	0,622**	0,171
Tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik	0,480*	0,459*	0,140	0,524**
Psixologik jihatdan ezilish	0,277	0,473*	0,235	0,545*
Salga jahli chiqadigan	0,480*	0,464*	0,547**	0,175
Yuqori agressivlik va autoagressivlik	0,188	0,465*	0,311	0,479*
Ta'sirlanuvchanlik	0,285	0,515**	0,473*	0,453*
Ochiqlik-oshkorlik	0,506**	0,202	0,549**	0,163
O'zgaruvchanlik	0,176	0,536**	0,261	0,457*

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$.

Berilgan natijalardan jahildorlik shkalasi bilan agressivlik va autoagressivlik, o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishi va faoliyatda o'zini nazorat qilish shkalalari, tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik shkalasi tajovuzkorlik, o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish shkalalari, psixologik jihatdan ezilish shkalasi bilan o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishi shkalalari, yuqori agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, agressivlik va autoagressivlik, o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish va faoliyatda o'zini nazorat qilish shkalalari, yuqori agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan,

o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish shkalalari, ta'sirlanuvchanlik shkalasi bilan, o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, faoliyatda o'zini nazorat qilish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish shkalalari, ochiqlik-oshkoralik shkalasi bilan, agressivlik va autoagressivlik va faoliyatda o'zini nazorat qilish shkalalari, o'zgaruvchanlik shkalasi bilan, o'smirlarning emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish shkalalari korrelyatsion bog'lanishda ekani aniqlandi.

O'z-o'zini baholash jarayoni o'smirning agressiv xulq-atvorini hal qiluvchi determinant sifatida namoyon bo'ladi. O'zini o'zi baholash darajasi ichki majburiy bo'lgan normativ me'yorlarini boshqarib, agressivlikni amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Agar o'smirni nohaq shaxsiyatiga tegib, haqoratlab, hujum qilib, to'sqinlik qilinsa (bu normativ daraja) u holda bu vaziyatda agressivlik subyektning qasos olish orqali o'z qadr-qiyamatini tiklashiga yo'naltirilib, amalga oshiriladi. Umuman, agressivlik asosida biz nafaqat o'zimizni, balki atrofimizdagi insonlarni ham kayfiyatini balki ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatib, asablarini buzishimiz mumkindir. Shu sababli agressivlik asab buzuvchi holat sifatida e'tirof etiladi. Biz bu zo'ravonliklarning barchasini destruktiv, jismoniy tajovuzkorlik yoki atayin boshqa bировga yoki obyektga zarar yetkazish maqsadida amalga oshirilgan harakat deb ta'riflasak bo'ladi (1.1-jadval).

1.2-jadval

Tajovuzkorlik hissi va shaxs xususiyatlari metodikasi natijalarining o'zaro aloqasi

Shkalalar	Jismoniy tajovuz	Verbal tajovuz	Bilvosita tajovuz	Negativizm	Tajanglik	Shubhalanuvchanlik	Xafagarchilik	Aybdorlik
Jahildorlik	0,447*	0,161	0,252	0,511*	0,476*	0,268	0,455*	0,320
Tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik	0,486*	0,457*	0,249	0,451*	0,490*	0,257	0,644*	0,146
Psixologik jihatdan ezilish	0,174	0,246	0,462*	0,586*	0,581*	0,425*	0,588*	0,471*
Salga jahli chiqadigan	0,452*	0,464*	0,293	0,574*	0,487*	0,224	0,448*	0,211
Yuqori agressivlik va autoagressivlik	0,586*	0,464*	0,511*	0,277	0,184	0,470*	0,468*	0,541*
Ta'sirlanuvchanlik	0,227	0,515*	0,266	0,547*	0,561*	0,230	0,481*	0,486*
Ochiqlik-oshkoralik	0,201	0,240	0,463*	0,263	0,460*	0,512*	0,164	0,208
O'zgaruvchanlik	0,257	0,416*	0,293	0,583*	0,438*	0,508*	0,568*	0,462*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

O'smirlarda agressivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda agressivlik va autoagressivlik hissi va shaxs xususiyatlari so'rovnomalari quyidagi birliklarni jahildorlik

shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, tashqi ta'sirlarsiz paydo bo'ladigan agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, psixologik jihatdan ezilish shkalasi bilan, bilvosita tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalasi, salga jahli chiqadigan bilan jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, yuqori agressivlik va autoagressivlik shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, bilvosita tajovuz, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari, ta'sirlanuvchanlik shkalasi bilan, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari, ochiqlik-oshkoralik shkalasi bilan, bilvosita tajovuz, tajanglik va shubhalanuvchanlik shkalalari, ochiqlik-oshkoralik shkalasi bilan verbal tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari aloqaga kirishgan.

Ochiq agressiv xulq-atvorda jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri ochiq hujum qilinishi, jismoniy zarba orqali zarar yetkazish kuzatiladi. Yashirin tajovuzkorlik esa gap-so'zlar, mish-mishlar, aldov va yolg'onlar asosida ifodalanadi. Ko'p hollarda ochiq tajovuzkorlik yosh o'tishi bilan kuchsizlanib borsa, yashirin tajovuzkorlik esa aksincha kuchayib boradi.

Agressiv xulq-atvor paydo bo'lishida ko'pgina omillar ishtirok etadi, shu bilan birga individual va yosh xususiyatlari, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar ham qatnashadi. Masalan, agressivlikni quyidagi sharoitlar ta'minlashi mumkin: shovqin, jazirama issiq, tiqislik, ekologik muammolar, ob-havo sharoitlari va hokazo. Ushbu muammoning ko'pgina tadqiqotchilarining fikricha, shaxsning agressiv xulq-atvorining shakllanishida asosiy rol ni bevosita uning atrofidagi ijtimoiy muhit o'ynaydi.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana o'smir shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil- o'smir orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, o'smir shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi.

XULOSA

O'smirlarda agressivlik va autoagressivlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlariga, agressiv xulq-atvori, shaxs xususiyatlari va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishi kabi psixologik omillar ta'sir qiladi. O'smirlarda agressiv va autoagressiv holatlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini ta'minlovchi sifatlar: emotsional holatlarda o'zini nazorat qila olish, optimistik kayfiyat, mulqotmandlik, empatiya, kirishimlilik va nazoratning kuchliligi kabi psixologik omillar agresivlikning oldini olishda asosiy faktorlarni tashkil etganligi aniqlandi. Muammoning fanlararo qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yerda taxminlarning tarqalishi mavjud, turli tarixiy davrlar va turli xalqlar orasida turlichadir. Biz autoagressiv xulq-atvor demografik jihatdan barqaror hodisa bo'lib, asosan individual ildizlarga ega ekanligini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Басс А. Концепция агрессии / враждебности: учебник / А. Басс, А. Дарки. – Екатеринбург, 2013. – 86 с.

Ф.Ф. Ганжиев. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.

Bandura A. Social cognitive theory of mass communication// Bryant J., Zillman D. Media effects: advances and research. Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum, 2002.

P.121 - 153.

Зеер Э.Ф., Сималюк Э. Э Кризисы профессионального становления личности // Психол. журн. 1997. Т.18. №6.35 - 44 с.

Кязрст М. Рассмотрение компетентности в психологической концепции совершенствования управления производственной организацией // Актуальные проблемы труда: сб. науч. тр. – Тарту, 1980. – С. 45-67.

Стратегия Европейского Союза в области образования и профессиональной подготовки (ET2020) // Гаськов В.В. Согласование стратегических целей и индикаторов профессиональной подготовки кадров с международными рекомендациями и опытом (Обзорный технический доклад). – М., 2018. – С.11-21.

ТУРЛИ ХИЛ КАСБ ЭГАЛАРИНИНГ КАМОЛОТИГА СОТСИАЛ ИНTELLEKTNING TA'SIR XUSUSIYATLARI

Avlayev Orif Umirovich,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti, psixologiya kafedrasida dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagog, agrar va iqtisodchi kasb egalarining sotsial intellekti bilan kamoloti munosabatini aniqlash muammolari tahlil qilingan. Bunda pedagog, agrar va iqtisodchi kasb egalari kamolotida sotsial intellekti aniqlash bo'yicha ma'ruha natijalari qiyosiy o'rganilgan. Pedagog, agrar va iqtisodchi kasb egalarida sotsial intellekt ko'rsatkichi turli xil ekanligi aniqlangan. Iqtisodchi kasb egalarining kamoloti ularning sotsial intellektlari bilan kuchli korrelyatsiyasi boshqa kasb egalariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Shuning uchun tadqiqotimizda, sotsial intellekti muayyan kasb egalari shaxs kamolotiga qanchalik ta'sir darajasi o'rganilgan. Tadqiqotda olingan empirik materiallarning validligi va ishonchliligini aniqlash uchun matematik-statistika metodidan foydalanildi.

Kalit so'zlar: shaxs, kamolot, pedagog, agrar va iqtisodchi kasb egalari, sotsial intellekt, shaxs yo'nalganlik, shaxsning umumiy xususiyatlari, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ta'sir etuvchanlik, tashkilotchilikka qobiliyatlilik, tashkilotchilik qobiliyatining individual farqlari.

Kasbiy kamolotni belgilovchi asosiy psixologik omillar sifatida shaxsning individual psixologik xususiyatlariga alohida urg'u beriladi. Kasbiy qobiliyatlarning to'laqonli safarbar qilinishi shaxsning boshqa xususiyatlari bilan integrallashganda o'z natijasini beradi. Bu ayniqsa sotsial intellekt bilan uyg'unlashsa samarasi yuqori bo'ladi.

Shaxs sifatlarining ijobiy o'zaro aloqalari munosabatlari sifatida kasbiy faoliyat uchun zarur malakalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi, kasbiy kamolot qobiliyatlarning natijasi sifatida idrok qilinadi. Kasbiy kamolot jarayonida sotsial intellekt rivojlanishini shaxsning individual xususiyatlari kompleks ta'minlaydi. Kasbiy faoliyatga o'tish bir qator bosqichli jarayon bo'lib, ta'limdan mustaqil kasbiy faoliyatga o'tish har bir insonning e'tiborga molik jihati hisoblanadi.

Shaxs kamolotida sotsial intellekt determinanti muammosi bo'yicha ishlarni nazariy tahlil qilish, taklif qilingan shaxs kamoloti konsepsiyasi, ilgari surilgan gipotezalar va o'rganish tamoyillari asosida tadqiqotning bir nechta yo'nalishlari aniqlandi:

birinchidan, shaxs kamolotida sotsial intellekt determinantlarini strukturasi ochib berish, bunda shaxs individualligining ko'p darajali xususiyatlari - psixodinamik, shaxsiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq xarakterini aniqlash;

ikkinchidan, yosh (biologik jinsni hisobga olgan holda) va jinsi (gender o'ziga xosligini hisobga olgan holda) va kasbiy (ijtimoiy va boshqa kasblar vakillari uchun) faoliyatda sotsial intellekt xususiyatlarni belgilash.

uchinchidan, shaxs kamolotida sotsial intellekt determinanti funksiyalarini: tizimni tashkil etuvchi, moslashtiruvchi, uyg'unlashtiruvchi, mexanizmlarni aniqlash;

to'rtinchidan, ijtimoiy kasblar vakillarida sotsial intellekti rivojlanganlik darajalarini aniqlash, shuningdek, shaxs kamolotini ta'minlovchi faktorlarni aniqlash;

beshinchidan, shaxslar - bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy turdagi kasblar bo'yicha sotsial intellekti rivojlantirish imkoniyatlarini eksperimental ravishda aniqlash. Shuningdek, shaxs kamolotini ta'minlovchi sotsial intellekt determinanti bo'yicha psixologik yordam dastur(model)ini ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Shaxsning o'zini o'zi ifodalashi hayotning turli sohalarida amalga oshiriladi. Ulardan eng muhimi – kasb sohasi. Bizning tadqiqotlarimizda sotsial intellektning rivojlanish darajasi “inson – inson” kasb sohasida shaxsning o'sishi va o'z-o'zini

ifodalashi omili sifatida ko'rib chiqiladi.

S.S. Belovanning qayd qilishicha, sotsial intellektning alohida komponentlarining yoki u bilan bog'liq parametrlarning (xususan tafakkur) rivojlanishi sotsial intellektning umuman shakllanganlik darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi [2.]

V.M. Rusalovning ta'kidlashicha, kamolot parametri har qanday murakkab tizimli ruhiy hosilaga (inson, shaxs, xarakter, intellekt) ega, inson kamoloti jihatlari ro'yxatiga esa muallif ma'naviy, fuqarolik va kasbiy kamolotni qo'shadi. V.M. Rusalovning fikriga ko'ra [4], kamolot tushunchasini ikkita jihatdan ko'rib chiqish mumkin: defenitiv va akmeologik. Alohida ruhiy funksiyalarning defenitiv kamolotga erishishi haqida qachonki ularning parametrlari mazkur populyatsiyada jinsiy jihatdan yetilgan insonning belgilari darajasiga yetishganda gapiriladi. Akmeologik kamolot ruhiy funksiyalar o'zining eng yuqori nuqtasiga erishishini xarakterlaydi.

D. Goleman insonning turli xil kasb faoliyatlariga nisbatan muvaffaqiyatning dastlabki shartlarini aniqladi. Intellektual koeffitsient IQ qator kasblarda emotsional koeffitsient EQ – shaxsning o'z hislarini eshitish, his-tuyg'ularning jo'nbishga kelishini nazorat qilishi, to'g'ri qaror qabul qila olishi, va xotirjam turib, murakkab vaziyatni optimist sifatida baholashdan ortda qoladi. EQ koeffesienti yangi muvaffaqiyat kaliti bo'lib qoldi, u shaxsning kommunikativ ko'nikmalarining va boshqa insonlar bilan samarali munosabatlar o'rnatish mahoratining rivojlanishiga ko'mak beradi. Shaxsning yaxshi rivojlangan emotsional sohasi “aqlda” harakat qilish qobiliyati mexanizmining ishlashida o'ziga xos kompensatsiyalovchi rol o'ynashi mumkin [5]

Keyingi ishlar orasida sotsial intellektning shaxsning kasbiy yo'nalishi bilan bog'liqligini o'rgangan N.A.Aminov va M.V.Molokanovlarning tadqiqotlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi: sotsial intellekt darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tadqiqot faoliyatiga moyillik shunchalik yuqori bo'ladi. Maxsus qobiliyatlarning ikkala yetakchi komponentlari ham namoyon bo'lgan sub'ektlar amaliy psixologik faoliyatga va shaxslararo biznes aloqa shakllarini amalga oshirish jarayonida auditoriyaga konstruktiv ta'sir ko'rsatishga yuqori moyillik ko'rsatdilar. Bundan tashqari, aniq osonlikcha bo'lgan sub'ektlar hissiy «to'yanlik» sindromi rivojlanishi tendensiyasini kamroq ko'rsatdilar. Maxsus qobiliyatlarning motivatsion tarkibiy qismlari haqida ma'lumot olindi: tadqiqot ishlariga moyillik bilan, altruizmga nisbatan aniq munosabatni aniqlash ehtimoli ko'proq. Mualliflar psixologning professionalligi unda maxsus qobiliyatlarning mavjudligiga, xususan, sotsial intellektiga bog'liqligiga aminlar. [3].

Ijtimoiy talablarning o'sishi kasbning va mutaxassislarning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilaydi. Shaxsda kasbiy kamolot bilan sotsial intellekt o'rtasida ma'lum bog'lanishlar mavjud bo'lib, bu aloqani o'rganish orqali shaxsga o'zlariga mos kasb tanlashlari imkoniyatiga ega bo'ladi [1-3].

Tadqiqot metodlari:

1. Dj. Gilfordning “Sotsial intellektni o'rganish” metodikasining moslashtirilgan varianti;

2. E.G'oziening “Barkamol (komil) insonni baholash” metodikasi. Bu metodika ettita blokdan tashkil topgandir. Har bir blok shaxs kamolotining muayyan fazilatlarini va xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi hamda o'ziga xos funksiyani bajaradi

3. Matematik-statistika metodidan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqotimiz ob'ektlari pedagog, agrar va iqtisodchi kasb egalari bo'lganligi bois ularning kasbiy kamolotini sotsial intellekt bilan bog'liqligi bo'yicha olingan natijalar, bir tomondan, xilma – xil ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zaro solishtirish imkoniyatini beradi. Turli xil kasb egalari kasbiy va shaxslilik kamolotida sotsial intellekt asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Biz ushbu tadqiqot ishimizda uchta yo'nalish, ya'ni pedagogika, agrar va iqtisod yo'nalishi bo'yicha kasb egalari sotsial intellektini kamoloti bilan qanchalik bog'ligini ekisperimental o'rganamiz. To'plangan natijalar 1–jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalar jadvalda statistika qoidalariga muvofiq keltirilgan (o'rtacha qiymat, standart og'ish va Student t-mezone).

“Sotsial intellekt” (1) yo'nalishi bo'yicha uch xil kasb respondentlar bir - biriga yaqin qiymatlarni to'plaganlar, ya'ni pedagoglar (28,5), agrar yo'nalishi kasb egalari (33,1), iqtisod yo'nalishi kasb egalari (33,2) deyarli bir xilda bahoga erishganlar. Ularning yuqori moddiy ta'minlanganlikka qanday erishish borasidagi tasavvurlari keyingi faoliyatlarida o'z aksini topgan va u ushbu kasb egalarining shaxsi va sotsial intellekt o'rtasidagi uyg'unlik natijasi sifatida gavdalanadi. Bu ularda ijtimoiy munosabatlarga kirishib, shaxsiy hayot tarzini shakllantirib borganlar, mataxassis sifatida kamol topishiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bo'lishligi ehtimol. Ammo taqdim etilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodchilar orasida ijtimoiy intellekt balli (33,2) boshqa kasblarga qaraganda yuqoriroq bo'lgan. Bu iqtisodiy sohadagi ishlar ijtimoiy intellektning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muloqot, shaxslararo o'zaro ta'sir va nizolarni hal qilishda yuqori ko'nikmalarni talab qilishi mumkin. Iqtisodchilar boshqa kasblarga qaraganda allaqachon yuqori darajadagi ijtimoiy intellektga ega bo'lishi mumkin. Bu ularning shaxsiy imtiyozlari, shaxsiy xususiyatlari yoki ta'lim darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kasblar orasidagi ijtimoiy intellekt ballaridagi farqlarni yaxshiroq tushunish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Iqtisodchilar orasida ijtimoiy intellektning qaysi o'ziga xos jihatlari ko'proq rivojlanganligi va bu farqlar ularning kasbiy faoliyatiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganish mumkin.

Kasblar o'rtasidagi ijtimoiy intellekt ballaridagi farqlar nafaqat guruh ichidagi individual farqlar, balki kasbning o'ziga xos xususiyatlari, ish konteksti va kasbiy faoliyat talablari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini hisobga olish muhimdir.

Umuman olganda, psixologik tahlil kasblar o'rtasida ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlarida farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda ishning mazmuni, kasbning xususiyatlari va har bir kasbda ijtimoiy intellektning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni hisobga olish kerak.

“Shaxs yo'nalganlik” (2) yo'nalishi bo'yicha uch xil kasb respondentlar ya'ni pedagoglar (30,45), agrar yo'nalishi kasb egalari (29,8), iqtisod yo'nalishi kasb egalari (30,75) bahoga erishganlar. Bu ushbu kasblardagi respondentlar orasida shaxs yo'nalganlik o'xshash darajasini ko'rsatadi. Har uchala kasbda ham o'xshash ko'rsatkichlar bo'lganligi sababli, ushbu kasblardan respondentlar shaxsiy yo'nalish sohasida o'xshash imtiyozlar, motivatsiyalar va qadriyatlarga ega deb taxmin qilish mumkin. Shunga o'xshash ballar har uch kasbdagi respondentlar shaxsiy yo'nalish sohasida umumiy qadriyatlar va ustuvorliklarga ega ekanligini ko'rsatishi mumkin. Bu ularning kasbiy faoliyatida shaxsiy yo'nalish va motivatsiya muhimligini ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodchilar «shaxsiy yo'naltirish» (30,75) toifasida o'qituvchilar (30,45) va agrar yo'nalishi kasb egalari (29,8) bilan solishtirganda eng yuqori ball to'pladilar.

Iqtisodchilarning yuqori ko'rsatkichlarini kasb xususiyatlari va talablarining shaxsiy yo'nalishga ta'siri bilan izohlash mumkin. Iqtisodiyot kasbi raqobat, yutuq, oqilona fikrlash va muvaffaqiyatga intilishga urg'u berishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu jihatlarda iqtisodchilarning shaxsiy yo'nalishi va motivatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

Iqtisodchilarning shaxsiy e'tiborini kasbning umumiy qadriyatlari va ustuvorliklari bilan bog'lash mumkin. Masalan, moliyaviy mustaqillikning ahamiyati, martaba o'sishiga intilish, natijalar va samaradorlikka e'tibor berish.

«Shaxsga yo'naltirilganlik» komponenti bo'yicha iqtisodchilarning yuqori ball olish sabablarini aniqroq tushunish uchun qo'shimcha tadqiqotlar, shu jumladan iqtisodchilarning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa omillarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

Shaxsiy yo'nalishga kasb va ish konteksti ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olish muhimdir. Turli kasblarning o'ziga xos xususiyatlari va talablari bo'lishi mumkin, bu respondentlarning shaxsiy yo'nalishi va motivatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

Psixologik tahlil o'qituvchilar, agrar va iqtisodchilar o'rtasidagi «shaxsga yo'naltirilganlik» ko'rsatkichlarining o'xshashligini ko'rsatadi. Ularning shaxsiy yo'nalishi va motivatsiyasini aniqroq tushunish uchun keyingi tadqiqotlar, jumladan, ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish va normativ ma'lumotlar bilan taqqoslash talab qilinishi mumkin. Shuningdek, individual farqlarni va respondentlarning shaxsiy yo'nalishiga kasbning ta'sirini hisobga olish muhimdir.

“Shaxsning umumiy xususiyatlari ” (3) yo'nalishi bo'yicha har bir kasb egalari quyidagi ballar qiymatlarni ko'rsatadi: o'qituvchilar (29,5), agrarchilar (29,2), iqtisodchilar (29,7). Barcha uch kasbdagi respondentlarga xos bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsning umumiy xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Masalan, bu o'ziga ishonch darajasi, o'zini o'zi boshqarish, introversiya yoki ekstroversiya va boshqa jihatlar bo'lishi mumkin. Respondentlarning shaxsning umumiy xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan individual farqlar, ta'lim, ish tajribasi va boshqa jihatlar kabi boshqa omillarning mumkin bo'lgan ta'siri ham hisobga olinadi.

1-жадвал

Турли хил касб эгаларининг kamoloti va sotsial intellekt natijalari

Komponentlar	Pedagoglar N=80			Agrarchilar N=91			Iqtisodchilar N=78		
	O'.a.q	δ	t	O'.a.q	δ	t	O'.a.q	δ	t
Sotsial intellekt	28,5	3,317	2.24	33,13	3,74	3.26	33,2	3,74	6.10
Shaxs yo'nalganlik	30,45	4,27	2.75	29,8	3,30	3.75	30,75	4,08	3.61
Shaxsning umumiy xususiyatlari	29,5	3,28	1.95	29,2	3,71	2.95	29,7	3,25	5.74
Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari	29,1	3,96	3.99	29,6	5,05	3.89	29,1	3,96	4.91
Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik	29,15	3,75	3.42	29,33	4,48	3.65	29,5	3,76	5.26
Tashkilotchilikka qobiliyatlilik	28,75	3,31	3.26	28,87	3,14	4.25	29,15	3,18	6.38
Tashkilotchilik qobiliyatining individual farqlari	13,3	4,1	4.38	15,07	3,31	6.02	13,3	4,09	6.47

“Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari” (4). Har bir kasb uchun berilgan ballar respondentlarning shaxsiy xususiyatlarining o'xshashligini ko'rsatadi. O'qituvchilar 29,1, fermerlar 29,6, iqtisodchilar 29,1 ball oldi. Bu shuni anglatadiki, barcha uch kasbdagi respondentlar ushbu sohada o'xshash shaxsiy xususiyatlarga ega. Masalan, bu barqarorlik, yaxlitlik, mas'uliyat yoki boshqa bo'lishi mumkin. Bu respondentlarning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan individual farqlar, ish tajribasi, ta'lim va boshqa omillar bilan bog'liq. Ushbu uch xil kasbdagi respondentlarning shaxsiy xususiyatlarining o'xshashligini ko'rsatadi. Biroq,

natijalarni aniqroq tushunish va talqin qilish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish va har bir kasbdagi respondentlarning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni hisobga olish tavsiya etiladi.

“Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik” (5) yo'nalishi bo'yicha har bir kasb bo'yicha berilgan ballar respondentlar o'rtasidagi ijtimoiy sezgirlik darajasining o'xshashligini ko'rsatadi. O'qituvchilar 29,15 ball, qishloq xo'jaligi mutaxassislari 29,33 ball, iqtisodchilar 29,5 ball to'plashdi. Bu shuni anglatadiki, har uchala kasbdagi respondentlar ushbu yo'nalishda bir xil ijtimoiy sezgirlik darajasiga ega.

Ijtimoiy sezgirlik hissiy va ijtimoiy signallarni idrok etish, tushunish va ularga javob berish qobiliyatini, shuningdek, boshqa odamlarga nisbatan g'amxo'rlik va hamdardlik ko'rsatish qobiliyatini anglatadi. Masalan, bu empatiya, boshqa odamlarning ehtiyojlariga e'tibor, hamkorlik qilish qobiliyati va bo'lishi mumkin. Ushbu uchala kasb egalarining o'xshash ballar to'plashiga qaramay, har bir kasbda ijtimoiy sezgirlik darajasida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu respondentlarning ijtimoiy ko'nikmalari va hissiy intellektiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan individual farqlar, ish tajribasi, ta'lim va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

“Tashkilotchilikka qobiliyatlilik” (6) yo'nalishi bo'yicha har bir kasb bo'yicha berilgan ballar respondentlarning tashkilotchilik qobiliyati darajasining o'xshashligini ko'rsatadi. O'qituvchilar 28,75, qishloq xo'jaligi mutaxassislari 28,87, iqtisodchilar 29,15 ball oldi. Demak, respondentlarning uchala kasbi ham ushbu sohada tashkilotchilik qobiliyati bir xil darajada. Ushbu o'lchovdagi yaqin ballar har uch kasbdagi respondentlar orasida tashkilotchilik qobiliyatida umumiy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, bu rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish qobiliyati, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishish uchun resurslardan samarali foydalanish bo'lishi mumkin. Respondentlar ballari o'xshash bo'lishiga qaramay, har bir kasbda tashkiliy qobiliyat darajasida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu respondentlarning tashkiliy qobiliyatlari va qobiliyatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan individual farqlar, ish tajribasi, ta'lim va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, iqtisodchilar tashkilotchilik qobiliyati (29,15) bo'yicha yuqori ball to'plagan bo'lsa, o'qituvchilar (28,75) va qishloq xo'jaligi mutaxassislari (28,87) biroz pastroq ball olgan. Bu iqtisodchilarning iqtisod sohasidagi mutaxassislar sifatida, tashkilotchilik qobiliyatining yuqori darajasiga ega bo'lishi mumkin, chunki ularning ishi resurslar, loyihalar va vazifalarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarish bilan bog'liq. Bu muayyan tashkiliy va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish va ulardan foydalanishni talab qilishi mumkin.

“Tashkilotchilik qobiliyatining individual farqlari” (7) yo'nalishi bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichlarga ega. Ya'ni o'qituvchilar-13,3, agrarchilar-15,07, iqtisodchilar - 13,3 ballarni tashkil etdi. Har bir kasb egalari (o'qituvchilar, agrarchilar, iqtisodchilar) past ball respondentlarda tashkilotchilik qobiliyatining yetishmasligini anglatmaydi. Ushbu tadqiqotda har uch kasbdagi respondentlar ushbu sohada nisbatan past ball to'plashgan, ammo ular boshqa kontekst va vaziyatlarda muhim tashkiliy ko'nikmalarga ega bo'lish ehtimolini istisno qilmaydi.

Pedagog, agrar va iqtisodchi yo'nalishi kasb egalarida sotsial intellekt va shaxs kamoloti tizimi o'rtasidagi uyg'unlikni yana bir bor tasdiqladi. Bunda bir qancha sohalar bilan musbat korrelyatsiya koeffitsientini va ishonchlilik darajasini hosil qilganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra pedagoglarda sotsial intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik $r(SI,ShK)=0,74$ ga teng. Bunda pedagoglarning Ijtimoiy intellekt va shaxslilik rivojlanishi o'rtasida o'rtacha ijobiy munosabat mavjud. Bu shuni anglatadiki, ijtimoiy intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilar shaxslilik kamolotiga ega. Biroq, bu munosabatlar juda kuchli emas.

Shu bilan birgalikda agrar yo'nalishi kasb egalarida ijtimoiy intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi korelyatsion bog'liqlik $r(SI,ShK)=0,83$ ga teng. Qishloq xo'jaligi

mutaxassislari ($r = 0,83$): Ijtimoiy intellekt va shaxslilik kamoloti o'rtasida yuqori darajada bog'liqlik mavjud. Korrelyatsiya koeffitsienti kuchli ijobiy munosabatlarni ko'rsatadi, ya'ni ijtimoiy intellekt darajasi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi mutaxassislari ko'proq shaxslilik kamolotiga ega.

Ammo, iqtisodchi yo'nalishi kasb egalarida ijtimoiy intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik $r(SI,ShK)=0,99$ ga teng. Ushbu yuqori korrelyatsiya koeffitsienti o'zgaruvchilar o'rtasidagi juda kuchli aloqani ko'rsatadi. Bu korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,99$ yuqoridagi pedagog va agrar yo'nalish kasb egalariga qaraganda ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi kuchli aloqani ko'rsatdi. Demak, iqtisodchi kasb egalari boshqa kasb egalariga qaraganda sotsial inteellekti yuqori darajada rivojlangan. Shuningdek, sotsial intellekt bilan shaxs kamoloti komponentlari o'rtasida kuchli korrelyatsion aloqa borligidan dalolat beradi.

Boshqakasblarganisbataniqtisodchilardaijtimoiyintellektvashaxslilikrivojlanishi o'rtasidagi kuchli bog'liqlik uchun bir nechta mumkin bo'lgan tushuntirishlarni taklif qilishi mumkin. Ijtimoiy o'zaro munosabatlarga yuqori talablar: iqtisodchi kasbi turli odamlar, jumladan mijozlar, hamkasblar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan tez-tez muloqot qilishni o'z ichiga olishi mumkin. Iqtisodchilar ko'pincha jamoalar bilan ishlaydi, muzokaralar olib boradi va boshqalarga ma'lumot taqdim etadi. Bunday talablar ijtimoiy intellektni rivojlantirish va undan foydalanishni rag'batlantirishi mumkin, bu esa pirovardida shaxslilikning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Ijtimoiy intellekt hissiy intellekt bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish, tushunish va boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Odamlarning xatti-harakatlarini tushunish va tahlil qilish muhim bo'lgan iqtisodiy sohada hissiy intellektual kompetentsiya muhim rol o'ynashi mumkin. Iqtisodchilar yuqori hissiy intellektga ega bo'ladi.

Analitik ko'nikmalar va strategik fikrlash: Iqtisodiy sohada ko'pincha murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, tendentsiyalarni bashorat qilish va strategik qarorlar qabul qilish kerak. Bunday tahliliy yondashuv nafaqat kognitiv qobiliyatlarni, balki iqtisodiy omillar kontekstida inson xatti-harakatlarini tushunish va bashorat qilish qobiliyatini ham talab qilishi mumkin. Ijtimoiy intellekt bu jarayonda iqtisodchilarga odamlarning xulq-atvorini yaxshiroq tushunish, ular bilan o'zaro munosabatda bo'lish va bashorat qilishda yordam berish orqali muhim rol o'ynashi mumkin, bu esa pirovardida ularning shaxslilik kamolotini rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Umuman olganda, iqtisodchilarda ijtimoiy intellekt va shaxslilik rivojlanishi o'rtasidagi kuchli bog'liqlik ushbu kasbning xususiyatlari va talablari, jumladan, ijtimoiy o'zaro munosabatlarga qo'yiladigan yuqori talablar, hissiy intellektning roli va tahliliy qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosalar. Tadqiqotda pedagog, agrar va iqtisodchi yo'nalishi kasb egalarida sotsial intellekt va shaxs kamoloti tizimi o'rtasidagi musbat nuqtai nazaridan turib ham natijalar tahlil qilingan. Masalan, pedagoglarda sotsial intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik $r=0,74$ ga teng.

Agrar yo'nalishi kasb egalarida ijtimoiy intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi korelyatsion bog'liqlik $r(SI,ShK)=0,83$ ga teng. Iqtisodchi yo'nalishi kasb egalarida ijtimoiy intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik $r=0,99$ ga teng. Bu korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,99$ yuqoridagi pedagog va agrar yo'nalish kasb egalariga qaraganda ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi kuchli aloqani ko'rsatdi.

Kasb egalarida ijtimoiy intellekt va shaxslilik rivojlanishi o'rtasidagi kuchli bog'liqlik qanchalik aniq hamda yuqori darajada bo'lsa, kasbiy rivojlanish jarayoni anchagina samarali kechadi. Shuningdek, shaxs mutaxassis sifatida shakllanishi uning kamoloti bilan ijtimoiy intellekt uyg'unlashgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avlaev O. U. Gender differences of social intelligence in student development. Scientific journal «Psychology». 2021. № Pages 1, 34-41.



2. Avlaev, O. U. (2021). TALABALAR KASBIY KAMOLOTIDA USTANOVKALARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(10), 1247-1258.

3. Агеев, В.С. Механизмы социального восприятия / В.С. Агеев // Психологический журнал. – 1989. – Т.10. – №2. – С.63-71.

4. Крайг, Г. Психология развития / Г. Крайг. – СПб.: Питер, 2000. –992 с.

5. Линн, Р. Расовые различия в интеллекте : Эволюционный анализ / Р. Линн. – М. : Профит Стайл. – 2010. – 304 с

6. Umirovich, A. O. (2021). FACTORS, INFLUENCE ON STUDENT DEVELOPMENT. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 945-953.

HARBIY XIZMATCHILAR OILASIDA OTA VA BOLA MUNOSABATLARINING XUSUSIYATLARI

*Ikramova Shaxnoza Baxtiyorovna,
RTATM bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda yoshlarning ongi va dunyoqarashi qay darajada shakllanishiga befarq qarab bo'lmaydi. Kelajakda barkamol, bilimdon va ishbilarmon jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan, ongli va faol, Vatan oldidagi burchiga sadoqatli, erkin shaxsni tarbiyalash barchamizning burchimiz. Erkin shaxs mutaassiblikdan ozod holda aql-idroki, kuch-g'ayratiga tayanib, vijdonan, halol mehnati bilan faravon turmushga intiladigan bo'lishi darkor. Oila fenomeni dunyodagi eng umrboqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Oila insoniyatning ibtidoiy hayotidan madaniylashgan, sivilizatsiyalashgan turlari va hayotga o'tishini ta'minlangan eng muhim omillardan biri. Oila o'ziga xos ijtimoiy insitut sifatida juda uzoq tarixiy davrni bosib takomillashdi, ijtimoiy ahamiyati hamda vazifalari ortib boradi. Oila doimo rivojlanib boruvchi, takomillashuvchi, yangi mazmun, mohiyat bilan boyib boruvchi maskan. Harbiy xizmatchilar oilasida bolalar va ota-onalar munosabati, ota-onalik munosabati va ota-onalik ustanovkalari kabi bir-biri bilan bog'liq, lekin shu bilan birga bir-birini to'ldiruvchi hamda ko'pincha sinonim tarzida qo'llaniladigan tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Darhaqiqat oila–har bir shaxsning ilk yoshligidan boshlab shakllanuvchi insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar, ming yillar davomida tarkib topuvchi o'zbek xalqining ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. Maqolada oilaviy munosabatlarda ota va bola munosabatlari masalasi, bu munosabatlarning xarbiy xizmatchilar oilasida o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, ota-ona va bola, o'zaro munosabat, xususiyat, fenomen, o'smir, qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik, tobe'lik, avtonomiya, komponent, giperproteksiya, gipoproteksiya.

Аннотация: В наше время невозможно равнодушно смотреть на то, насколько сформирован ум и мировоззрение молодежи. Долг каждого из нас – воспитать свободного человека, который будет способствовать развитию грамотного, знающего и делового общества в будущем, сознательного и активного, преданного своему долгу перед Родиной. Свободный человек должен быть свободен от фанатизма, полагаться на свой ум и энергию и стремиться к благополучному браку добросовестным и честным трудом. Феномен семьи – одна из самых вечных ценностей в мире. Семья является одним из важнейших факторов, обеспечивших переход человечества от первобытной жизни к культурным, цивилизованным типам и быту. Семья как уникальный социальный институт развивалась на протяжении очень длительного исторического периода, возрастают ее социальная значимость и задачи. Семья – это место, которое постоянно развивается, совершенствуется, обогащается новым содержанием и сутью. В семье военнослужащих необходимо различать понятия, которые связаны между собой, но в то же время дополняют друг друга и часто употребляются как синонимы, такие как отношения детей и родителей, родительские отношения и родительские институты. По сути, семья – это место воспитания, обеспечивающее развитие человеческих качеств, добродетелей, ценностей, духовного наследия узбекского народа, которые формируются с самого раннего детства. В статье рассматривается проблема отношений отца и ребенка в семейных отношениях, особенности этих отношений в семье военнослужащих

Ключевые слова: семья, родитель и ребенок, взаимодействие, черта, явление, подросток, поддержка, забота, зависимость, автономия, составляющая,

гиперпротекция, гипопротекция

Annotation: Nowadays, it is impossible to look indifferently at the extent to which the mind and worldview of young people are formed. It is the duty of all of us to educate a free person who will contribute to the development of a competent, knowledgeable and business-oriented society in the future, conscious and active, devoted to his duty to the Motherland. A free person should be free from bigotry, rely on his intelligence and energy, and strive for a prosperous marriage with conscientious and honest work. The family phenomenon is one of the most eternal values in the world. The family is one of the most important factors that ensured the transition of humanity from primitive life to cultured, civilized types and life. The family as a unique social institution has developed over a very long historical period, its social importance and tasks are increasing. The family is a place that is constantly developing, improving, enriching with new content and essence. In the family of military servicemen, it is necessary to distinguish between the concepts that are related to each other, but at the same time complement each other and are often used synonymously, such as the relationship of children and parents, parental relationship and parental institutions. In fact, the family is a place of education that ensures the development of human qualities, virtues, values, and the spiritual heritage of the Uzbek people, which are formed from the earliest childhood. The article discusses the issue of father-child relations in family relations, the specific characteristics of these relations in the family of military servicemen.

Key words: family, parent and child, interaction, trait, phenomenon, adolescent, support, care, dependence, autonomy, component, hyperprotection, hypoprotection.

Barkamol shaxsning shakllanishi avvalo oilada, xususan, oilaviy munosabatlarning hal qiluvchi ta'siri ostida amalga oshadi. Shu sababli ham fonda ota-onalarning farzandlariga munosabat xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning farzandlariga bo'lgan munosabati xususiyatlari A.I.Zaxarov(1986), R.Dreykurs(1986), V.YA.Titarenko(1987), E.G.Eydemiller, V.V.YUstitskiy(1990) kabi psixologlar tomonidan keng o'rganilgan. Bola tarbiyasida ota-onaning g'amxo'rliqi etakchi hisoblanadi. G'amxo'rlik yoki qo'llab-quvvatlashning darajasi bola tarbiyasiga ota-onaning qancha kuch va vaqt ajratishiga bog'liq. Qo'llab-quvvatlashni ikkiga ajratish mumkin: me'yordan ortiq giperproteksiya) va etarli darajada qo'llab-quvvatlamaslik (gipoproteksiya). Me'yordan ortiq g'amxo'rlik hamda me'yordan ortiq qo'llab-quvvatlashga ota-onalar tomonidan juda ko'p vaqt ajratiladi. Tarbiya ular hayotining mazmuniga aylanib qoladi. Qo'llab quvvatlashning etarli darajada bo'lmagan (gipoproteksiya) shaklida biror bir jiddiy voqea sodir bo'lmaganiga qadar ota-onaning tarbiyaga "qo'li tegmaydi.

Me'yordan ortiq nazoratni Artur Rean ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati bo'yicha xulq atvorning quyidagi to'rtta parametrada o'rganadi:

1. Nazorat: bola faoliyatiga ta'sir etishga urinish. Bolaning ota-ona talabiga tobelik darajasi aniqlanadi;

2. Etuklikka talab: ota-ona tomonidan yuqori hissiy va ijtimoiy darajadagi aqliy imkoniyatidan yuqori vazifalarni bajarishga majbur etish bilan bolaga nisbatan bosim o'tkazish;

3. Muloqot: biror bir munosabatni yoki fikrni aniqlashtirish maqsadida boladan foydalanish uchun ota-onalar tomonidan ishonitirishni qo'llash;

4. Xayrixoxlik: ota-onalar bolaga nisbatan qanchalik darajada qiziqishlarini namoyon qiladilar (rag'batlantirish, uning muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lish), iliqlik, mehr, parvarish, unga nisbatan bo'lgan munosabatda hamdard bo'lishi.

Ota-onaning bolaga bo'lgan nazorat komponenti ikkita tizimda o'rganilgan: avtonom va nazorat. Ota-onaning har qanday tartibli xulq-atvori ikkita nuqta orasidagi

joyni egallaydi, jumladan, to'liq avtonomiyadan to ota-ona irodasiga bo'ysunishgacha.

Makkobi ota-ona nazoratining quyidagi komponentlarini kiritadi:

- 1) cheklaydigan – bola faoliyatiga chegara o'rnatish.
- 2) talabchanlik – bolalardan yuqori darajadagi ma'suliyatni talab etish;
- 3) qattiqqo'llik – bolalarni biror bir narsaga majburlash;
- 4) shilqimlik – bolaning munosabatlari va rejalariga ta'sir etish;
- 5) ixtiyoriy hokimlikni namoyon etish.

Bolaning ilk yosh davrlarida bola ehtiyojlari kattalar tomonidan qondiriladi. Biroq bolaning motorikasi va xulq-atvorini boshvarish shakllanishi bilanoq ota-onalar ularning faolligini yo'naltirish va chegaralashni boshlaydilar. Albatta, bolalar tarbiyasida ularning xavfsizligini ta'minlash uchun belgilangan chegaralash va rahbarlik zarur.

Ota-ona tomonidan qo'llaniladigan interiorizatsiya vositasi va nazorat malakasi bolaning xarakterologik qirralari, o'ziga javobgarlik va ijtimoiy kompetentlikni shakllanishida asosiy mexanizm hisoblanadi. I.A.Zaxarov (1988) ota-ona nazoratini uchga bo'lib o'rganadi: bartaraf etuvchi; o'rtamiyona; me'yordan ortiq avtoritar shakl xususiyatiga egalik.

Ota-ona talabi, birinchidan, bolaning majburiyatlariga, bolanning o'zi nimani qilishiga qaratilishi zarur. (o'z-o'ziga xizmat, ta'lim, uy ishlariga yordam v.x.). Ikkinchidan, bola kulishi mumkin bo'lmagan talab-ta'qiqni o'rnatish. Ota-ona talabi, majburiyat va talablarning me'yoridan ortiqqligi, bola psixik jarohatga olib keluvchi xatarning kengayishi - bola imkoniyatlariga mos kelmaydigan bolaga bo'lgan juda yuqori talab ma'suliyat va talablarni etarli darajada emasligi – bunday hollarda bola uy ishlari bo'yicha biror bir ishni bajarishda ota-ona tomonidan bolaning eng kam darajadagi majburiyatlarga ega bo'lishidir.

Ota-ona nazoratining bola shaxsining shakllanishi ta'sirida avtoritar uslubdagi ota-ona empatiyasi, o'zini baholashning pastligi, uning tashqi talablarga yo'nalganligi yo'qligiga olib keladi. Demokratik uslubni belgilovchi quyidagi parametrlar: ota-ona va bola o'rtasidagi verbal muloqotni yuqori darajada ekanligini, oilaviy muammolarni bolalar bilan muhokama etishni, bolani mustaqil muvaffaqiyatlariga ishonch va kerak bo'lsa yordam berishga tayyor o'z tarkibiga oladi. Nazorat stili esa bolalarni sezilarli darajada chegaralash, mazmunini bolaga aniq va to'liq tushuntirish, tartib intizom bo'yicha bolalar va ota-onalar orasida kelishmovchilikning yo'qligi demakdir.

E.L. Gorlova kompetent ota-onaning psixologik portretini o'rganishga muvaffaq bo'ldi. Psixologik kuzatuv amaliyotida zamonaviy vakolatni ota-ona - bu o'z farzandiga nisbatan aybdorlik va qo'rquv hissini his etmaydi, "yomon" ota-ona qo'rquvini boshidan kechirmaydigan inson deb e'tirof etilgan. Bu inson bola o'sayotgan real vaziyatni ko'rishga va uni o'zgartirish uchun kuchini sarflashga tayyor. Vakolatli ota-ona bolaning rivojlanishi uchun oilada muloqot uchun qanchalik yaxshi sharoit yaratilganligiga bog'liqligini tushunadi. Vakolatlikning tizimli komponenti ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalayotgan ota-onani to'rtta ota-onaning quyidagi portretini ta'riflash imkonini beradi.

Shartli ravishda "komponent" deb nomlangan birinchi guruhga kiruvchi ota-onalar bola rivojlanishiga ta'luqli bo'lgan savollarga dalillar asosida javob qaytaradi hamda ta'riflangan vaziyatda bola his etayotgan tuyg'uni adekvat ifodalaydi.

Bunday ota-onalar o'z farzandini rivojlanishi uchun sharoit yarata olishi mumkin. Ota-onaning bolani rivojlanishi uchun har tomonlama yordami bolani jismoniy, intellektual va hissiy ehtiyojlarini etarli va zarur sifatli darajada qondirishni anglatadi.

Bunday tarbiyaning natijasi – bolaning psixologik sog'lomligi uning baxti hisoblanadi. Hozirgi kunda ota-onaning kompetentligi uchta rakursda o'rganiladi: birinchisi – bola rivojlanishining u yoki bu yoshida ota-onaning umumiy ma'lumotga egalik darajasi etarli darajada shakllanganligi bilan bog'liq; ikkinchi aspekt o'z ota-onasini "his" etish, bola bilan savodli o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyati xulq-atvor

komponenti bilan bog'liq.

Demak, ota-ona va bola munosabatinnig o'ziga xosligi ota-onaning bolaga munosabatini ko'rsatadi. Psixologlar ota-onaning munosabati tuzilishini an'anaviy tarzda uchga bo'ladi: hissiy, kognitiv va xulq atvor. Ota-onaning munosabati kognitiv komponentda o'z farzandining qadriyatlarini, qiziqishlari, ehtiyojlari tavsifi haqida ota-onaning tasavvuri tushuniladi. Bunday tasavvur adekvat bo'lmasligi yoki adekvat bo'lishi mumkin. Bola haqidagi adekvat bo'lgan tasavvur – bu ota-onaning bolaning individual xususiyatiga asoslangan yo'nalganligi, moillik, qiziqish, psixik va xarakterologik xususiyati bilan bog'liq to'liq va ob'ektiv bilim.

Adekvat bo'lmagan bola haqidagi bir xil bo'lmagan tasavvur. Bolaga, uning psixofiziologik ma'lumotni baholay olmaslik, kasallikni qo'shib qo'yishi (invalidizatsiya); bolani "kichkintoy" ro'lida ko'rish, u haqida ota-onaning himoyasizdek tasavvur qilishi, bog'liqligini esa orttirib ko'rsatish (infantilizatsiya). Bolaga ijtimoiy kam o'zlashtirish deb nisbatan berilgan bo'lishi mumkin, shuning uchun ota-ona bolaning kelgusi hayotida xavotirlilikni his etadi, uning mavqeini pasaytiradi, uni ijtimoiy xatarli deb tasavvur etadi.

Hissiy komponent integral qabul qilish yoki qabul qilmaslik bilan bog'liq iztiroblar yig'indisini o'z tarkibiga oladi. Ota-ona munosabati tizimida asosan uning paydo bo'lish xususiyatini belgilovchi asosiy o'rnini egallaydi. Hissiy komponentda "simpatiya-antipatiya", "hurmat va hurmatsizlik", "yaqinlik-yiroqlik".

Ota-onamunosabatining xulq ko'rinishidagi komponenti – bu bola bilan bo'ladigan muloqotning shakli, nazorat ko'rinishi va usulidir. Bolaga o'tgan xulq-atvor ta'siri turli ko'rinishda bo'lishi mumkin: ota-onaning ustunligidan to bolaning avtonomligigacha. Ota-onaning farzandlariga bo'lgan munosabati xususiyatlari A.I.Zaxarov(1986), R.Dreykurs(1986), V.YA.Titarenko(1987), E.G.Eydemiller, V.V.Yustitskiy(1990) kabi psixologlar tomonidan keng o'rganilgan. Bola tarbiyasida ota-onaning g'amxo'rliqi etakchi hisoblanadi.

G'amxo'rlik yoki qo'llab-quvvatlashning darajasi bola tarbiyasiga ota-onaning qancha kuch va vaqt ajratishiga bog'liq. Qo'llab-quvvatlashni ikkiga ajratish mumkin: me'yordan ortiq giperproteksiya) va etarli darajada qo'llab-quvvatlamaslik (gipoproteksiya). Me'yordan ortiq g'amxo'rlik hamda me'yordan ortiq qo'llab-quvvatlashga ota-onalar tomonidan juda ko'p vaqt ajratiladi. Tarbiya ular hayotining mazmuniga aylanib qoladi. Qo'llab quvvatlashning etarli darajada bo'lmagan (gipoproteksiya) shaklida biror bir jiddiy voqea sodir bo'lmaganiga qadar ota-onaning tarbiyaga "qo'li tegmaydi". Bugungi kunda xarbiy xizmatchilar oilasida ota-ona va bola munosabatlarini o'rganish, ularda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchilar oilasida bolalar va otalar munosabati er-xotinlik munosabatlari bilan bir qatorda zamonaviy nuklear oilalarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar ichki oilaviy munosabat tizimining barcha tarkibiy qismida ixtiyoriylikka ega bo'lib, u bolaning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi katta ahamiyatga ega bo'lgan shartlardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Akramova F.A. "Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi" T.: "Shams ASA" 2006.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi T.: 2006
3. Ключева Н.В. Психолог и семья: Диагностика, консультатсия, тренинг. - Ярославль: Академия развития, 2001.
4. Крыгина Н.Н. Диагностика супружеских и детско-родительских отношений. Учебное пособие. - Магнитогорск, 1999.
5. Теория семейных систем Мюррея Боуэна: Основные понятия, методы, и клиническая практика. 2-е изд. стереотип. - М.: «Когнито-Центр», 2008.

**YOSHLAR MILLIY TARBIYASIGA SALBIY TA'SIR
KO'RSATAYOTGAN G'OYAVIY VA MAFKURAVIY TAHDIDLARNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI**

Jabborov Hazrat Xuseynovich

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar milliy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy-psixologik omillari bo'yicha sharq mutafakkirlarining qarashlari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: tarbiya, metod, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, g'oya, mafkura, tahdid.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИДЕЙНО-
ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИХ НА
НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ**

Жабборов Хазрат Хусейнович

*Доцент кафедры "педагогика и психология" Ташкентского
государственного университета востоковедения, доктор философских наук в
области психологии (PhD)*

Аннотация: В данной статье вы можете познакомиться со взглядами восточных мыслителей на социально-психологические факторы мировоззренческих и мировоззренческих угроз, негативно влияющих на национальное воспитание молодежи.

Основные понятия: воспитание, метод, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология, угроза.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IDEOLOGICAL AND
IDEOLOGICAL THREATS THAT NEGATIVELY AFFECT THE NATIONAL
EDUCATION OF YOUNG PEOPLE**

Jabborov Hazrat Xuseynovich

*Associate professor of the Department of pedagogy and psychology, Tashkent
State University of Oriental Studies, doctor of philosophy in Psychological Sciences
(PhD)*

Abstract: In this article, you can get acquainted with the views of eastern thinkers on the socio-psychological factors of ideological and ideological threats that have a negative impact on the national education of young people.

Key words: education, method, virtue, morality, national education, national character, idea, ideology, threat.

Kirish. Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog'lom shakllanishi, unga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog'lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo'lib, ezgu va sog'lom g'oya hamda mafkura asosida o'z yo'lidan adashmay o'z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida hamda "Avesto" va "Qur'on" kabi muqaddas kitoblarimizda, shaxs kamoloti, go'zal xulqli insonning chiroyli fazilatlarini, ezgulikka va bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to'g'ri yo'lga solish; sog'lom bo'lmagan xulq egalarini zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo'llar, buzg'unchi fikr va g'oyalarga

chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Kishilik jamiyatining ko'p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qarashlar, g'oya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo'lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzg'unchi va vayronkor qarashlar, g'oya va mafkuralar ham mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

O'tmishda yot g'oyalarning turli xil ko'rinishlari, tarixiy shakllari bo'lgan. Jumladan, xalqimizning o'lmas madaniy merosi, dunyo tan olgan bebaho ma'naviyat durdonasi "Avesto" yovuz g'oyalarni qoralash, inson va jamiyatni ezgulikka chorlashning mumtoz namunasi. Ushbu falsafiy yodgorlikning e'tiborga sazovor jihatlaridan biri shundaki, bu asar 2700 yil avval yaratilganini inobatga olsak, unga zamin, asos sifatida, avval ham kamida ikki ming yillik hayotiy tajriba, ilmiy bilimlar va psixologik mushohada bo'lganini ta'kidlash mumkin. Shubhasiz, bu kitobning yaratilishi ob'ektiv zaruriyatga aylangan. Avestodagi quyidagi fikrlar Zardushtiylik mafkurasining tub mohiyatini ifoda etadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman" [1].

Avestoning eng qadimiy qismi bo'lgan "Yasht"larda kishilarga dahshat urug'ini sohib, yuraklariga g'ulg'ula soladigan qahri qattiq Anxra Manyu (Axriman) boshliq xudolar bir taraf bo'lsa, ezgulik tarqatuvchi, yaxshilik tilovchi, yordam beruvchi Axura Mazda boshchiligidagi xudolar boshqa guruhga ajratilgan. Keyinchalik Zardusht ta'limotida politeizmdan monoteizm sari borilib, faqat Axura Mazda tangri sifatida e'tirof etilgan, qolganlari ma'bud va farishtalar, deb tushuntirilgan [2].

Yovuzlik, qanday shakl va mazmunga ega bo'lmasin, avvalo, g'oya sifatida paydo bo'lishi e'tiborga olinsa, Avestoda Axriman aynan buzg'unchi va yovuz g'oyalar muallifi, sababchisi va tarqatuvchisi, deb talqin etilgan. Bu ham hududimizda qadim davrlardayoq vayronkor g'oyalarning ijtimoiy mohiyati teran anglab yetilgani va unga qarshi mafkuraviy immunitet tizimi ustida bosh qotirilganligidan dalolat beradi.

Zardushtiylik ta'limotining mantiqiy davomi bo'lgan Moniychilikda ham ezgulik bilan yovuzlik kuchlari o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi markaziy o'rin egallaydi. Chunonchi, Moniy (216-276-y) asos solgan ushbu diniy-falsafiy ta'limot, eng avvalo, ma'naviy-axloqiy poklikka da'vat etgan. Moniy fikricha, Zulmat va Yovuzlik kuchlari Nur va Ezgulik kuchlarini qoplab olgan va inson faqat moddiy manfaatlarga qaramlikdan iloji boricha ozod bo'lish orqali Nurga Zulmat bilan o'zaro kurashda g'alabaga erishishga imkon yarata oladi.

Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning talqini Moniychilikdan qariyb ikki yarim asr keyin, taxminan V asrning oxirlarida paydo bo'lgan Mazdakchilik diniy-falsafiy ta'limotida ham o'ziga xos tarzda rivojlantirildi. Jumladan, uning asoschisi Mazdak qarashlariga ko'ra, Yer yuzida Zulmat va Yovuzlik kuchlari zo'rayib ketgan. Biroq, zaminni ulardan tozalab, Nur va Ezgulikka yuksak e'tibor qaratish zarur. Buning uchun avvalo, aql va adolatga keng o'rin ajratish kerak. Bu borada Mazdak, odamlarni shaxsiy mulkni qayta taqsimlashga da'vat etib, boylarning ortiqcha mulklarini kambag'allarga bo'lib berishga chaqirgan.

Turli manfaat va maqsadlar ifodasi sifatida paydo bo'lgan buzg'unchi g'oyalar, har xil ijtimoiy guruh va kuchlarga xizmat qilib, davr o'tishi bilan tarix sahifalaridan o'rin olgan. Ayni vaqtda, bunday g'oya va mafkuralar muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda shakllangan bunyodkor mazmunga ega bo'lgan ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga nisbatan mafkuraviy tahdidni o'zida ifoda etadi.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashinuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi. Bunday o'zgarishlar

qadimdan turon va turkiston mintaqasi deb nomlangan, bugungi kunda uning markazi hisoblangan hozirgi O'zbekiston hududida yuz bergan jarayonlarga ham tegishlidir.

Tahlil va natijalar. D.Alimovning "Insoniyat tarixi g'oyalari va mafkuralar tarixidir" risolasida ham, dastlabki yozma manba – "Avesto" kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Ya'ni ezgulik, insonparvarlik, bunyodkorlik g'oyalari bilan yovuzlik, buzg'unchilik, vayronkorlik illatlar bilan kurash o'ziga xos mafkuraviy immunitet shakllantiriganligi haqida yozadi [3].

Avestoda ezgulik va yovuzlik kurashi quyidagicha izohlanadi. "Ezgulik" – taraqqiyotga intiluvchi kuchlarning insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini ijtimoiy adolat tamoyillari yoki shu kitobdagi "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish"ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o'ziga xosligi madh qilinadi. "Yovuzlik" esa tarixiy reaksiya, taraqqiyot g'ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi.

Demak, bugungi kunda ham umumbashariy, insonparvar, bunyodkor g'oyalari bilan buzg'unchi ommaviy madaniyatning "yovvoyilik g'oyalari" har xil qora kuchlar, ya'ni buzg'unchi va vayronkorlik xususiyatlarini kasb etuvchi oqimlar diniy ekstremizm, terrorism, aqidaparastlik, prozelatizm, missionerlik kabilar orasidagi kurashni ko'rishimiz mumkin. Ular o'zlarining buzg'unchi g'oyalari bilan davlatlar, xalqlar, millatlar, insonlar orasiga nifoqlar solib, ularning yer yuzidan yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi. Jumladan, O'zbekistonning necha yuzlik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochish hamda qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalari va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq qayg'uli sahifalar ko'p.

Bu g'oyalari o'zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko'ramiz. Lekin mohiyat hamisha o'zgarmay qolavergan. Ya'ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysindirish va mafkuraviy asoratga solishga, o'zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot, buzg'unchi, vayronkor mafkuraviy tasavvurlarni targ'ib qilishga qaratilgan.

Buzg'unchi g'oyalari va mafkuralar azaliy madaniyatning yemirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo'lgan, ko'plab xalqlarni o'z yo'lini o'zi tanlash huquqidan mahrum etgan. G'oyalari hukmronligining tamal toshi aynan qadimiy sivilizatsiyalar davrida qo'yilgan edi. Unga binoan, odatlar va taomillarga emas, balki g'oyalari yoki biror maqsadga bo'ysundirilgan muayyan tildagi inson xulq-atvorini shakllantirish mumkin edi. Lekin shu bilan bir vaqtda, qadimdan oq kishilar ongini nayrang va aldovlar vositasida, yolg'on ideallar bilan zaharlash imkoniyati ham paydo bo'ldi.

Yoshlar milliy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy jihatdan o'rganar ekanmiz, biz mafkuraviy tahdidlar ta'sirini kuchsizlantirish, ta'sir doirasini zararlantirish, mafkuraviy xurujlarni bartaraf etishimizga to'g'ri keladi.

Abu Nasr Forobiy ta'limotida axloqiy tarbiya aqlli, fazilatli inson tarbiyalashning eng muhim shartlaridan bo'lib, aqliy tarbiya bilan uzviy ravishda bog'langandir. Uning axloqiy tarbiya to'g'risidagi fikrlari "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv haqida" kabi risolalarida bayon etiladi.

Bundan XI asr oldin yashab ijod qilgan Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ham shaxsda mafkuraviy immunitet shakllantirishga ehtiyoj sezilganini asar mazmunidan sezish mumkin. To'g'ri, o'sha davrda mafkuraviy immunitet degan lug'aviy so'z uchramagan, lekin shakl jihatdan boshqa, mazmun jihatdan esa biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet tushunchasini o'sha davrda ham ko'rishimiz

mumkin.

Demak Abu Nasr Forobiyning “Fozilodamlarshahri” asarini umumlashtirsak, undagi fikriga ko‘ra, “Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug‘ma ravishda o‘ziga xos bo‘lgan ichki shuurila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Hamma narsani idrok qilish insonni komillik va lazzat tomon boshlaydi. Insonning asl ruhiy kamoloti birinchi haqni tanish orqali hosil bo‘ladi. Ma‘rifat– baxt-saodat va kamolot sari qo‘yilgan birinchi qadamdir” [4], demak, har bir inson komillikka o‘z-o‘zidan erishmaydi, unga qa‘tiyatli iroda hamda mehnat asosida o‘z xulq-atvorida go‘zal fazilatlarni orttirish bilan erishishi ta‘kidlanadi. Asar mazmunida, inson o‘z hulq-atvorida o‘n ikkita eng go‘zal va mukammal fazilatlarni shakllantira olsagina, u kamolotga yetadi va ruhan hamda tabiatan xayrli amallarni bajarishga hamda sharr (yomon), buzg‘unchi ishlardan saqlanishga o‘zida kuch topa oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe‘l-atvor tug‘diradigan iste‘dod mavjud bo‘lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir, degan fikrlar ilgani suriladi.

Abu Nasr Forobiy o‘zining asarlarida insonlardagi sog‘lom xulq-atvor va uning fazilatlari kabi xislatlarni ma‘naviy kamolotning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Shaxs ma‘naviy jihatdan kamolga yetishida yoki biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishida avvalo ruhan pok, turli ichki qarshiliklarni yenga oladigan, qa‘tiyatli, o‘zligini anglagan, insonparvar g‘oyalarga pur inson bo‘lishi kerakligini uqtiradi [4].

Abu Rayhon Beruniyning inson turmushiga xos bo‘lgan xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari psixologik nuqtai nazardan ham qiziqish uyg‘otadi.

Beruniy inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deb hisoblab, ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi, inson doimo ularga rioya etishi zarur, deb ta‘kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun muhim bo‘lgan xislatlarni o‘zida tarbiyalashda kuch va irodaga ega bo‘lishi lozim, deydi. Olim “Minerologiya” asarida “Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z joni va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”, - deb ta‘kidlaydi [5].

Keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, alloma inson kamolotida sog‘lom xulq-atvor, iroda va irodaviy sifatning o‘rni beqiyos ekanini tan oladi. Ayniqsa, shaxs o‘zidagi ijobiy va salbiy xulq-atvor me‘yorlarini idora qilishi, o‘zini o‘zi nazorat qila olishi hamda boshqara olishida iroda va irodaviy sifatlar yaqqol namoyon bo‘lishiga alohida urg‘u beradi. Bu kabi xususiyat va sifatlar biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishining ham asosini tashkil qiladi. Ya‘ni shaxsda to‘g‘ri va sog‘lom xulq fazilatlari shakllansagina, u buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalar ta‘siriga berilmaydi. Allomaning yuqoridagi fikrlari bizning tadqiqotimizda ilgari surilayotgan “insonda mafkuraviy immunitet barqaror shakllansagina, u har qanday buzg‘unchi va yot g‘oyalarni daf eta olishi yoki ularga qarshi murosasiz bo‘la olishi nazarda tutilgan g‘oyalarga hamohangdir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini islom ma‘naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi deb bemalol ta‘riflash mumkin. Ushbu asar ham shaxsda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o‘sha davrning siyosiy, mafkuraviy qarashlari, inson kamoloti va shaxslararo munosabatlarda go‘zal va sog‘lom xulqni shakllantirish va shu asosda insonlar orasida ezgulik ishlarini olib borish, buzg‘unchi yomon illatlar bilan kurashish kabilar asar qahramonlarining timsolida shakllantirilgan.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qytadg‘y bilig” – (baxt saodatga elituvchi bilim) asarida ham mafkuraviy immunitet tizimining asosiy vazifalarini ham uchratamiz. Misol tariqasida, asarda komil insonning eng asosiy jihatlari sifatida alohida shaxsning o‘z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g‘ami bilan yashashi, ko‘pchilik manfaati uchun fidoyi bo‘lishi belgilarini ko‘rsatib

o'tadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr eshitish bilan birga bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rnini ham yoritib beradi. Bilimi buyuk – uquvi ulug', deb ta'kidlaydi. Chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda shaxs axloqiy xulq-atvorini sog'lom qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berish kerakligi uqtiriladi. Chunki sog'lom axloqiy xulq-atvor inson ziynati bo'lib, shaxs kamolotining asosiy jihatlaridan sanaladi. Shu bilan birga uning nazdida shaxsning sog'lom xulq-atvori har qanday yomon, buzg'unchi illatlardan uzoq bo'lishni ta'minlaydi [6].

Inson kamoloti, sog'lom xulq-atvorga, ma'naviy, mafkuraviy immunitetga ega bo'lish g'oyasi Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham keng yoritilgan. Kaykovusning fikricha, ilm insonni kamolotga yetaklovchi omildir. U ilmni uchga bo'ladi:

1. Biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm.
2. Ilm bilan bog'liq bo'lgan kasb-hunar .
- Z. Xayr va dalolatga taalluqli odat.

Kaykovusning mazkur qarashlari o'sha davrda ilg'or qarashlardan sanalgan. Chunki bu fikrlar uni zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega bo'lganligidan dalolat bergan. Uning pand-nasihatlarida har bir yoshning aqliy, ahloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush "Qobusnoma" asarining barkamol avlodni tarbiyalashda amaliy ahamiyati juda kattadir.

Kaykovus o'zining asarida shaxs xususiyatlari, sog'lom xulq-atvor, insonparvar va umuminsoniy g'oyalarga, chuqur ilm va kuchli irodaviy sifatarga ega bo'lishi uni har qanday salbiy, buzg'unchi g'oyalar va odatlardan o'zini tiya olishi lozimligini uqtiradi.

Umar Xayyom inson xulq-atvoridagi fazilatlar asta-sekin hosil bo'ladi, deb hisoblaydi. Agar inson biron-bir ijobiy axloqiy fazilatga ega bo'lmasa, u harakat qilib, o'zida uni vujudga keltirishi, yomon illatlar hamda buzg'unchi fikrlardan esa o'z irodasi bilan xalos bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi.

Umar Xayyomning fikricha, xulq-atvor ikki yo'l bilan – odat qilib olish yordamida va fikrlash jarayonida yuzaga keladi.

Demak, allomaning nazarida, insonlardagi xarakter xislatlari tug'ma bo'lmay, balki hayot davomida shakllanib boradi. Shu bois, insonlarda turfa xil xulq-atvor xususiyatlari tarkib topishi, avvalo, ijtimoiy hayot mahsuli hisoblanadi. Ayniqsa, shaxsning jamiyat hayotiga kirib borishi, ijtimoiy xulq-atvor namunalarini egallashida insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari hamda xarakter xususiyatlari muhim o'rin egallaydi.

Alisher Navoiy fikriga ko'ra, yaxshi xulqning asosi odob bo'lib, u barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar – qanoat, sabr, tavozu', ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) aynan odobli kishilarda tarkib topadi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya jarayonida insonning o'zini o'zi tarbiyalashi, xato va kamchiliklarini anglab, ularni tuzatishi maslasiga alohida e'tibor beradi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy o'zining qarashlarida komil insonga xos bo'lgan axloqiy sifat va fazilatlar orasida yomon illatlardan saqlanishga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra, inson o'zligini anglashi, sog'lom xulq-atvorga ega bo'lishi, iymon-e'tiqod va pok vijdon, kuchli iroda kabi muhim sifatlarning shaxsda shakllanishi uning komillikka yetishida o'ta muhimdir. Ulug' mutafakkir, ayniqsa, o'zini o'zi tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratib, bu jarayon bevosita o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat qilish orqali amalga oshishi va unda qo'llaniladigan usul va vositalarni oqilona tanlay olish muhimligini ta'kidlaydi [7].

Alisher Navoiy o'z asarlarida "Haqiqiy insonda ko'p fazilatlar bo'ladi: lekin bular orasida eng sharaflisi – insofdir. Insofsiz kishi – inson emasdir. Uning atvorida xatodan boshqa narsa yo'qdir", - deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, biz tadqiq qilayotgan ishimizda ham o'smir shaxsi barqaror mafkuraviy immunitetga ega bo'lishida uning xulq-atvorida insof shakllanishi ham nazarda tutilgan. Insonda insof va diyonat fazilatlarini shakllanmagan bo'lsa, u har qanday buzg'unchi nafs, faxsh, zo'ravonlik, buzuqlik, ma'naviyatsizlik, xudbinlik, yengil-yelpilik, baxillik kabi illatlarning quliga aylanishi aniqdir.

Husayn Voiz Koshifiy o'z qarashlarida insonni har qanday yomon illatlar hamda buzg'unchi fikr va g'oyalarga duchor bo'lishi unda sog'lom va go'zal xulq-atvor shakllanmaganligidandir, deb ta'kidlaydi. Koshifiyning ta'kidlashicha "Go'zal fe'l-atvorning nishonasi o'n narsadir: birinchi nishonasi – yaxshilik; ikkinchisi – insofli bo'lish; uchinchisi – boshqa odamdan ayb qidirmaslik; to'rtinchisi – biror kishida ham nojo'ya harakat ko'rsa, uni yaxshi yo'lga boshlash; beshinchisi – bir odam o'z aybiga iqror bo'lib uzr aytsa, uzrini qabul qilish; oltinchisi – boshqalar uchun mashaqqatni o'z ustiga olish; yettinchisi – faqat o'z manfaatini ko'zlamaslik; sakkizinchisi – ochiq yuzli, shirin so'zli bo'lish; to'qqizinchisi – muhtojlarning hojatini chiqarish; o'ninchi – muloyim va mulozamatli bo'lishdir".

Husayn Voiz Koshifiy o'z asarlarida ibo-hayo haqida shunday deydi: "Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo'qolsa, hech kimda vijdon ham qolmaydi. U holda dunyoda tartib buziladi. Kishilar bir-biriga befarq qaraydigan bo'ladilar".

Qarang, Husayin Voiz Koshifiy bizni bugungi kun buzg'unchi "ommaviy madaniyat" kirdikorlaridan ogohlantirmoqda. Chunki bugungi kunda buzg'unchi "ommaviy madaniyat" ishlab chiqaruvchilari insonlar orasiga buzg'unchilik urug'lari, ya'ni hayosizlik, fahsh, xudbinlik, o'zim bo'larchilik, loqaydlik, beparvolik, zo'ravonlik, erkin sevgi, bir jins vakillari sevgisi kabi milliy xarakterimizga yot bo'lgan yovuzlik urug'ini sochib, turli tartibsizliklarni yuzaga keltirishni rejalashtirganlar.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi barcha mulohazalar shaxs kamolotida sog'lom xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, shuningdek, shaxsning go'zal odobli, insonparvar g'oyalarga ega bo'lib borishi, irodaviy hamda xarakterologik sifatlarni rivojlantirish, shu jumladan, o'zini o'zi to'laqonli anglash tizimini takomillashtirish asosida ularda ma'naviy, mafkuraviy, psixologik immunitet hosil qilish muhim ekanligini ko'rsatdi. Zero, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g'oyalar bugun yoshlarni nafaqat aqlan, axloqan, balki ularda buzg'unchi, yot, vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi mustahkam, barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilishi ayni haqiqatdir.

Bu esa o'z-o'zidan mazkur masalaga ijtimoiy psixologik muammo sifatida qarashni va uning bugungi kundagi dolzarbligidan kelib chiqib, muammoni yanada chuqurroq, mukammalroq tahlil qilish uchun o'ziga xos empirik malumotlarga asoslangan ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy oydinliklar kiritish zarurligini taqozo etadi. Shu bois keyingi paragrafda muammoning xorij tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. //Asqar Mahkam tarjimai.– Toshkent: Sharq, 2001, –112 b.
2. Tohir Karim. Muqaddas "Avesto" izidan.– Toshkent: 2000, – B. 72-92.
3. Alimova D. "Insoniyat tarixi-g'oyalar va mafkuralar tarixidir" T.: Ijod dunyosi nashriyot uyi, 2002, -30 b.
4. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, bax-saodat va kamolat haqida. Toshkent: Yozuvchi, 2001, -38 b.
5. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar". Toshkent:



Fan, 1972.

6. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. –T.: “Akademiya”, 2015, - 544 b.

7. Alisher Navoiy. “Lisonut-tayr” (qush tili). -T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti 1991, –.176. b

O'SMIR YOSHI DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

*Madgafurova Dilfuza Oxunovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

*Yoqubjonov Ziyodjon,
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya. O'smirlik davrida psixik rivojlanish murakkab va dinamik jarayon bo'lib, sezilarli kognitiv, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ushbu ilmiy maqola o'smirlik davridagi ruhiy rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama ko'rib chiqadi, kognitiv qobiliyatlar, hissiy tartibga solish, shaxsni shakllantirish va ijtimoiy rivojlanish kabi asosiy jihatlarni ta'kidlaydi. Empirik tadqiqotlar va nazariy istiqbollarning keng doirasidan kelib chiqqan holda, ushbu sharh o'smirlik davrida ruhiy rivojlanish bilan bog'liq noyob muammolar va imkoniyatlar haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar; psixik rivojlanish, o'smirlik, kognitiv rivojlanish, hissiy tartibga solish, shaxsni shakllantirish, ijtimoiy rivojlanish, ijro funksiyalari, mavhum fikrlash, Metakognitsiya, xotirani rivojlantirish

ОСОБЕННОСТИ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

*Мадгафурову Дильфузу Охуновну,
старшего преподавателя кокандского государственного педагогического института*

*Якубжанов Зияджон,
студент Кокандского государственного педагогического института*

Аннотация. Психическое развитие В подростковом возрасте-сложный и динамичный процесс, характеризующийся значительными когнитивными, эмоциональными и социальными изменениями. В этой научной статье всесторонне рассматриваются особенности психического развития В подростковом возрасте, выделяются такие ключевые аспекты, как когнитивные способности, эмоциональная регуляция, формирование личности и социальное развитие. Основываясь на широком спектре эмпирических исследований и теоретических перспектив, этот обзор направлен на углубление нашего понимания уникальных проблем и возможностей, связанных с умственным развитием В подростковом возрасте.

Ключевые слова; психическое развитие, подростковый возраст, когнитивное развитие, эмоциональная регуляция, формирование личности, социальное развитие, исполнительные функции, абстрактное мышление, метапознание, развитие памяти

THE FEATURES OF PSYCHIC DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE: A COMPREHENSIVE REVIEW

*Madgafurova Dilfuza Oxunovna,
Senior Teacher of the Kokand State Pedagogical Institute*

*Yakubzhanov Ziyadzhan,
Student Of The Kokand State Pedagogical Institute*

Abstract: Psychic development during adolescence is a complex and dynamic process, characterized by significant cognitive, emotional, and social changes.

This scientific article provides a comprehensive review of the features of psychic development in adolescence, highlighting key aspects such as cognitive abilities, emotional regulation, identity formation, and social development. Drawing from a wide range of empirical research and theoretical perspectives, this review aims to deepen our understanding of the unique challenges and opportunities associated with psychic development in adolescence.

Key words; Psychic development, Adolescence, Cognitive development, Emotional regulation, Identity formation, Social development, Executive functions, Abstract reasoning, Metacognition, Memory development

Kirish. O'smirlik davri inson rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqich bo'lib, turli sohalarida, shu jumladan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarida sezilarli o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Ushbu sohalar orasida psixik rivojlanish shaxsning qobiliyatlari, idroklari va dunyo bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda Markaziy rol o'ynaydi. O'smirlik davrida ruhiy rivojlanish xususiyatlarini tushunish tadqiqotchilar, o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar uchun juda muhimdir, chunki u o'smirlar duch keladigan noyob qiyinchiliklar va imkoniyatlar haqida tushuncha beradi.

O'smirlik davrida shaxslar o'zlarining bilim qobiliyatlarida chuqur o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Rejalashtirish, muammolarni hal qilish va impulslarni boshqarish kabi ijro etuvchi funktsiyalar sezilarli darajada rivojlanib, o'spirinlarga yanada murakkab fikrlash va qaror qabul qilish bilan shug'ullanishga imkon beradi. Mavhum fikrlash va metakognitiv ko'nikmalar ham gullab-yashnaydi, bu ularga tanqidiy fikrlashga, o'z fikrlari va harakatlari haqida fikr yuritishga, o'zlarini va atrofda duniyoni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Hissiy tartibga solish va psixososyal rivojlanish o'smirlik davrida ruhiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismidir. O'smirlar bir qator his-tuyg'ularni boshqaradilar va bu his-tuyg'ularni samarali boshqarish va ifoda etish vazifasiga duch kelishadi. Ular hissiy ong, tushunish va tartibga solish tuyg'usini rivojlantirishga intilishadi, bu ularning boshqalar bilan munosabatlariga ta'sir qiladi va ularning umumiy farovonligiga hissa qo'shadi. Ushbu bosqichda hissiy o'ziga xoslikni shakllantirish insonning hissiy afzalliklari, qadriyatlarini va e'tiqodlarini o'rganishni o'z ichiga oladi, bu ularning o'z-o'zini tushunchasini shakllantiradi va tengdoshlari, oilasi va jamiyat bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir qiladi.

Shaxsni shakllantirish o'smirlik davrida ruhiy rivojlanishning taniqli xususiyatidir. Eriksonning psixososyal nazariyasiga ko'ra, o'spirinlar shaxsiyat va rol chalkashliklari bosqichidan o'tadilar, bu davrda ular «men kimman?» va «men nima bo'lishni xohlayman?» Ular turli xil rollarni, qadriyatlarini va o'ziga xosliklarni sinab ko'rish, oxir-oqibat o'zini izchil va barqaror his qilishni o'rnatishga intilish jarayonida qatnashadilar. Madaniy va gender identifikatorlari ham o'ynaydi, chunki o'spirinlar o'zlarining individualligini kengroq ijtimoiy va madaniy sharoitlarda boshqaradilar.

Ijtimoiy rivojlanish o'smirlik davrida ruhiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Tengdoshlar o'smirning tegishlilik, qabul qilish va o'ziga xoslik hissini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tengdoshlar munosabatlari ijtimoiy o'rganish, hamkorlik qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Oila dinamikasi va ota-ona va bola munosabatlari ham o'zgaradi, chunki o'spirinlar o'z oilalari bilan aloqalarini saqlab, avtonomiyaga intilishadi. Romantik munosabatlarning paydo bo'lishi ularning ijtimoiy rivojlanishiga yanada hissa qo'shadi, yaqinlik, do'stlik va romantik tuyg'ularni o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Biroq, o'smirlik davrida ruhiy rivojlanish uning qiyinchiliklari va xavflaridan xoli emas. O'smirlar giyohvand moddalarni iste'mol qilish, xavfli jinsiy xatti-harakatlar va ehtiyotsiz haydash kabi tavakkal qilish xatti-harakatlariga ko'proq moyil bo'lishadi, chunki ular yangilik, hayajon va tengdoshlarini qabul qilishga intilishadi. Bu davrda

ruhiy salomatlik muammolari, jumladan, depressiya, tashvish va ovqatlanish buzilishi keng tarqalgan bo'lib, o'smirlarning hissiy farovonligini tushunish va hal qilish muhimligini ta'kidlaydi. Tengdoshlarning bosimi va bezoriligi ularning ruhiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ularning tanlovi, o'zini o'zi qadrlashi va ijtimoiy integratsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

O'smirlar davrida ijobiy ruhiy rivojlanishga yordam beradigan himoya omillari va chidamlilik mexanizmlarini tan olish juda muhimdir. Ota-onalar, do'stlar va murabbiylar bilan qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar, shuningdek, ijobiy maktab muhiti va jamoatchilik ishtiroki ularning umumiy farovonligi va moslashuvchan ishlashiga hissa qo'shadi. Stress, his-tuyg'ular va nizolarni boshqarish uchun kurashish strategiyasini ishlab chiqish ularning qiyinchiliklarga nisbatan chidamliligini yanada oshiradi.

Bu keng qamrovli sharh o'smirlar davrida ruhiy rivojlanish xususiyatlari puxta o'rganish maqsad, bilim qobiliyatini o'z ichiga olgan, hissiy tartibga solish, tenglik shakllantirish, va ijtimoiy rivojlanish. Ushbu xususiyatlarni tushunib, biz o'smirlarning noyob tajribalari va ehtiyojlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin, bu esa hayotning ushbu muhim bosqichida sog'lom ruhiy rivojlanishni ta'minlaydigan samarali ta'lim strategiyalari, aralashuvlar va qo'llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqishga olib keladi.

Adabiyot Sharhi

O'smirlar davrida kognitiv rivojlanish:

Ko'plab tadqiqotlar o'smirlar davrida kognitiv rivojlanishni o'rganib, ijro funksiyalarining kamolotini ta'kidlaydi. Ijro etuvchi funksiyalar o'spirinlarga yuqori darajadagi fikrlash, muammolarni hal qilish va maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar bilan shug'ullanishga imkon beradigan ishlaydigan xotira, inhibitsiya va kognitiv moslashuvchanlik kabi jarayonlarni qamrab oladi (Diamond, 2013). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijro etuvchi funksiyalar o'smirlar davrida rivojlanishda davom etadi, kognitiv nazorat va qaror qabul qilish qobiliyatlari yaxshilanadi (Crone & Dahl, 2012). Bundan tashqari, mavhum fikrlash qobiliyatlari, shu jumladan faraziy fikrlash va mantiqiy fikrlash, bu davrda sezilarli yutuqlarni namoyish etadi (Keating, 2004) [1].

Metakognitivatsiya yoki o'z fikrlash jarayonlarini aks ettirish va tartibga solish qobiliyati o'smirlar davrida kognitiv rivojlanishning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Metakognitiv ko'nikmalar shaxslarga o'z tushunchalarini kuzatish, o'rganish strategiyalarini baholash va yondashuvini mos ravishda sozlash imkonini beradi (Shrav va Moshman, 1995). O'smirlar metakognitiv xabardorlikni oshirib, ularni yanada samarali o'rganish va muammolarni hal qilish bilan shug'ullanishga imkon beradi (Flavell, 1979)[2].

Hissiy tartibga solish va Psixososyal rivojlanish:

Hissiy tartibga solish o'smirlar davrida psixososyal rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Tuyg'ularni tushunish va tartibga solish qobiliyati yanada murakkablashadi, chunki o'smirlar yaxshi hissiy ongga ega bo'ladilar va o'zlarining hissiy tajribalarini tushunadilar (Gross, 2015). O'smirlar hissiyotlarini turli kontekstlarda boshqarish uchun qayta baholash va ekspresiv bostirish kabi hissiy tartibga solish strategiyasini ishlab chiqadilar (Silvers va boshq., 2012). Hissiy tartibga solish turli xil natijalar bilan bog'liq, shu jumladan adaptiv kurash, ijobiy munosabatlar va psixologik farovonlik (Eyzenberg va boshq., 2014)[3].

Empatiya va istiqbolga ega bo'lish ham o'smirlar davrida hissiy rivojlanishning muhim jihatlaridir. Empatiya boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rishni o'z ichiga oladi, istiqbolga ega bo'lish esa shaxslarga bir nechta nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish va turli istiqbollarni tushunish imkonini beradi (Devis, 1983). Ushbu qobiliyatlar prosotsial xulq-atvorni rivojlantirishga, nizolarni hal qilishga va sog'lom munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi (Eisenberg va boshq., 2006)

[4].

Hissiy identifikatsiyani shakllantirish o'smirlik davrida muhim psixosozial vazifadir. O'smirlar his-tuyg'ularning keng doirasini kashf qilishlari va boshdan kechirishlari bilan ular hissiy o'zini his qilishni rivojlantiradilar va his-tuyg'ularini o'z-o'zini kontseptsiyasiga qo'shishni o'rganadilar (Larsen & Prizmic, 2008). Hissiy identifikatsiyani shakllantirishga hissiy ifoda bilan bog'liq madaniy va ijtimoiy me'yorlar, shuningdek temperament va tajribalardagi individual farqlar ta'sir qiladi (Erikson, 1968)[5].

Shaxsni Shakllantirish:

Shaxsiyatni shakllantirish o'spirin rivojlanishidagi Markaziy jarayon bo'lib, Eriksonning psixosozial nazariyasi shaxsiyat bosqichiga va rollarning chalkashligiga urg'u beradi. O'smirlar o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy identifikatorlarini aniqlash uchun kashfiyot, tajriba va qaror qabul qilish bilan shug'ullanadilar (Marcia, 1966). O'z-o'zini anglash, shu jumladan e'tiqodlar, qadriyatlar, qiziqishlar va intilishlar bu davrda sezilarli o'zgarishlarga uchraydi (Xarter, 2012). O'smirlar o'ziga xoslikning turli xil ijtimoiy, madaniy va shaxsiy jihatlarini birlashtirgan holda izchil va barqaror o'zini his qilishga intilishadi (Erikson, 1968).

O'z-o'zini hurmat qilish shaxsni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq va o'smirning psixologik farovonligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'z-o'zini hurmat qilish shaxsning o'z qadr-qimmatini va malakasini sub'ektiv baholashni anglatadi (Harter, 1999). O'smirlarning o'z-o'zini hurmat qilishi ushbu rivojlanish bosqichining qiyinchiliklari va yutuqlari bo'ylab harakatlanayotganda o'zgarib turadi. Ijobiy o'z-o'zini hurmat qilish yuqori darajadagi chidamlilik, psixologik moslashuv va ijobiy ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq (Orth va boshq., 2017).

Izlanish va majburiyat shaxsni shakllantirishning Markaziy jarayonidir. Tadqiqot o'zini yaxshiroq tushunish uchun yangi tajriba va imkoniyatlarni faol ravishda izlashni o'z ichiga oladi, majburiyat esa doimiy tanlov qilish va muayyan rollar, qadriyatlar va maqsadlarga sarmoya kiritishni talab qiladi (Marcia, 1966). O'smirlar hisobga olish razvedka bilan shug'ullanish

Tadqiqot Metodologiyasi

- O'smirlik davrida ruhiy rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama ko'rib chiqish uchun adabiyotlarni ko'rib chiqishga tizimli yondashuvga rioya qilindi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan:

- * Tegishli adabiyotlarni aniqlash: PubMed, PsycINFO va Google Scholar kabi turli xil ilmiy ma'lumotlar bazalarida puxta qidiruv o'tkazildi. Psixik rivojlanish, o'smirlik, kognitiv rivojlanish, hissiy tartibga solish, shaxsni shakllantirish va ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq kalit so'zlar tegishli maqolalar, tadqiqot ishlari va kitob boblarini aniqlash uchun ishlatilgan.

- * Inklyuziya va istisno mezonlari: tadqiqot savoliga asoslanib, ko'rib chiqish uchun tegishli adabiyotlarni tanlash uchun inklyuziya va istisno mezonlari o'rnatildi. Faqat empirik tadqiqotlar, nazariy asoslar va ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan jurnallarda nashr etilgan keng qamrovli adabiyotlar sharhlari kiritilgan. O'smirlik davrida ruhiy rivojlanishga qaratilgan yoki tadqiqot savoliga tegishli bo'lmagan maqolalar chiqarib tashlandi.

- * Skrining va tanlash: dastlabki qidiruv natijalari potentsial tegishli maqolalarni aniqlash uchun sarlavha va Referat asosida tekshirildi. Tanlangan maqolalar keyinchalik baholash uchun to'liq matnda olingan.

- * Ma'lumotlarni qazib olish: tanlangan maqolalardan tegishli ma'lumotlar muntazam ravishda chiqarildi. Mualliflar, nashr etilgan yil, tadqiqot dizayni, namuna hajmi va o'smirlik davridagi ruhiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq asosiy topilmalar kabi ma'lumotlar qayd etildi.

- * Olingan ma'lumotlar o'smirlik davrida kognitiv rivojlanish, hissiy tartibga solish, shaxsni shakllantirish va ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq umumiy mavzular,

naqshlar va tendentsiyalarni aniqlash uchun tematik tahlil qilindi. Tahlil tadqiqotlar davomida ma'lumotlarni sintez qilish va konsensus yoki qarama-qarshi topilmalarni aniqlashni o'z ichiga olgan.

* Sintez va talqin: sintez qilingan topilmalar o'smirlik davridagi ruhiy rivojlanishning asosiy xususiyatlarini ta'kidlab, izchil tarzda tashkil etilgan va taqdim etilgan. Hozirgi bilimlardagi kuchli tomonlar, cheklovlar va bo'shliqlarni aniqlash uchun adabiyot tanqidiy baholandi. Topilmalarning oqibatlarini o'smirlik davrida sog'lom ruhiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun ta'lim strategiyalari, aralashuvlar va qo'llab-quvvatlash tizimlari bilan bog'liq holda muhokama qilindi.

* Kelajak yo'nalishlari: adabiyotlarda aniqlangan bo'shliqlar va cheklovlarga asoslanib, kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha takliflar berildi, qo'shimcha tadqiqotlar va izlanishlarni talab qiladigan sohalar ta'kidlandi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu adabiyot sharhi 2021 yil sentyabrgacha mavjud tadqiqotlarga asoslangan. Tadqiqotchilar va o'quvchilar o'smirlik davrida ruhiy rivojlanish sohasidagi yutuqlar haqida xabardor bo'lish uchun so'nggi adabiyotlar bilan maslahatlashishga da'vat etiladi.

Xulosalar

- Ushbu keng qamrovli sharh o'smirlik davridagi psixik rivojlanish xususiyatlari, kognitiv rivojlanish, hissiy tartibga solish, shaxsni shakllantirish va ijtimoiy rivojlanishni o'z ichiga olgan tushunchalarni taqdim etdi. Empirik tadqiqotlar va nazariy asoslardan olingan topilmalarni sintez qilish orqali bir nechta asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

- * Kognitiv rivojlanish: o'smirlik ijro funktsiyalari, mavhum fikrlash, metakognitsiya va qaror qabul qilish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Ushbu bilim qobiliyatlari ushbu davrda rivojlanib, o'spirinlarga yuqori darajadagi fikrlash, muammolarni hal qilish va o'zini o'zi boshqarish bilan shug'ullanishga imkon beradi.

- Hissiy tartibga solish va Psixososial rivojlanish: o'smirlar hissiy tartibga solishda sezilarli o'zgarishlarga duch kelishadi, ko'proq hissiy xabardorlik, tushunish va tartibga solish strategiyalariga ega bo'lishadi. Empatiya va istiqbolli ko'nikmalarni rivojlantirish ularning ijtimoiy va hissiy farovonligiga yordam beradi. Hissiy identifikatsiyani shakllantirish o'smirlik davrida madaniy me'yorlar va individual tajribalar ta'sirida Markaziy vazifadir.

- Shaxsni shakllantirish: shaxsni shakllantirish o'smirlik davridagi asosiy jarayon bo'lib, shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslikning turli jihatlarini o'rganish, majburiyat va integratsiyani o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilish o'zgarishlarga uchraydi, o'spirinlar izchil va barqaror o'zini his qilishga intilishadi. Shaxsiyatni shakllantirishga ijtimoiy kutishlar, madaniy kontekstlar va individual tajribalar ta'sir qiladi.

- Ijtimoiy rivojlanish: tengdoshlar munosabatlari ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi, ijtimoiy o'rganish, qo'llab-quvvatlash va shaxsni o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi. Oila dinamikasi va ota-ona va bola munosabatlari ham o'zgaradi, chunki o'spirinlar o'z oilalari bilan aloqalarni saqlab, avtonomiyaga intilishadi. Romantik munosabatlar ularning ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, yaqinlik va romantik tuyg'ularni o'rganishni osonlashtiradi.

- Qiyinchiliklar va xatarlar: o'smirlik-bu xavf-xatar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, ruhiy salomatlik muammolari va tengdoshlarning bosimi kabi qiyinchiliklar va xavflar bilan belgilanadigan davr. Ushbu muammolar ruhiy rivojlanish va farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu erta aniqlash, oldini olish va aralashuv strategiyalarining muhimligini ta'kidlaydi.

- Himoya omillari va chidamliligi: qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar, ijobiy maktab muhiti va jamoatchilikni jalb qilish o'smirlik davrida sog'lom ruhiy rivojlanish uchun himoya omillari bo'lib xizmat qiladi. English strategiyasini ishlab chiqish va chidamlilik o'smirlarning qiyinchiliklar va qiyinchiliklarni samarali boshqarish

qobiliyatini oshiradi.

Ushbu kompilyatsiya topilmalar turli manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyatga ega, tadqiqotchilar, shu jumladan,, o'qituvchilar, psixologlar, va otanalar. O'smirlilik davrida ruhiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish hayotning ushbu muhim bosqichida sog'lom rivojlanishga yordam beradigan ta'lim strategiyalari, aralashuvlar va qo'llab-quvvatlash tizimlarini loyihalashni xabardor qilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu rivojlanish jarayoniga ta'sir qiluvchi turli xil madaniy, ijtimoiy va kontekstual omillarni hisobga olgan holda o'smirlilik davridagi ruhiy rivojlanishning murakkabliklarini o'rganishni davom ettirishi kerak.

REFERENCES

1. Diamond, A. (2013). Executive functions. *Annual Review of Psychology*, 64, 135-168.
2. Crone, E. A., & Dahl, R. E. (2012). Understanding adolescence as a period of social-affective engagement and goal flexibility. *Nature Reviews Neuroscience*, 13(9), 636-650.
3. Keating, D. P. (2004). Cognitive and brain development. In R. M. Lerner & L. Steinberg (Eds.), *Handbook of Adolescent Psychology* (2nd ed., pp. 45-84). John Wiley & Sons.
4. Gross, J. J. (2015). Emotion regulation: Current status and future prospects. *Psychological Inquiry*, 26(1), 1-26.
5. Silvers, J. A., McRae, K., Gabrieli, J. D., Gross, J. J., Remy, K. A., & Ochsner, K. N. (2012). Age-related differences in emotional reactivity, regulation, and rejection sensitivity in adolescence. *Emotion*, 12(6), 1235-1247.

HAYOTIY BARDOSHLILIK — PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Mannabova E'zoza Baxromjon qizi
O'zXIA tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Hayotiy bardoshlilik borasida turli xil qarashlar va nazariyalar mavjud. Ushbu maqolada hayotiy bardoshlilik psixologik fenomen sifatida yoritilgan bo'lib, uning bir qancha psixologik kategoriyalar bilan bog'liqligi, xususan, tolerantlik, hayotiylik, stresga bardoshlilik, shuningdek, hayotiy bardoshlilik haqida yondashuvlar bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: hayotiy bardoshlilik, iroda, tolerantlik, stresga barqarorlik, hayotiylik, frustratsiya, ehtiyojlar, motiv, adaptatsion jarayonlar, emotsional muvofiqlik.

ЖИЗНЕСТОЙКОСТЬ ЖИЗНИ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

*Маннабова Эъзоза
Докторант МИАУ*

Аннотация: Существуют разные взгляды и теории о жизнестойкости. В данной статье жизнестойкость выделяется как психологический феномен и описывается ее связь с несколькими психологическими категориями, в частности, толерантностью, жизненностью, стрессоустойчивостью, а также подходы к жизнестойкости..

Ключевые слова: жизнестойкость, воля, толерантность, стрессоустойчивость, жизненность, фрустрация, потребности, мотив, адаптационные процессы, эмоциональная совместимость.

RESISTANCE OF LIFE AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

*Mannabova Ezoza,
Doctoral student in IIAU*

Annotation: There are different views and theories about life endurance. In this article, resistance of life is highlighted as a psychological phenomenon, and its connection with several psychological categories, in particular, tolerance, vitality, stress tolerance, as well as approaches to resistance of life are described.

Key words: resistance of life, will, tolerance, resistance to stress, vitality, frustration, needs, motive, adaptive processes, emotional compatibility.

Ijtimoiy qadriyatlarining tubdan yemirilishi, inson hayotining barcha sohalarining o'zgarishi fonida ro'y berayotgan zamonaviy insonning dunyoqarashi munosabatlarining butun tizimidagi tub o'zgarishlar, insoniyatning asosiy asoslarini ekzistensial tushunish masalalari natijasida. hayot paydo bo'ladi. Bu masalalardan biri — shaxsning hayotiy bardoshliliigi muammosi va bu tushunchaning psixologiya fanlarining tegishli kategoriyalari bilan bog'liqligi.

Zamonaviy sharoitda hayotiy bardoshlilik masalasi katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib bardoshlilik shaxsni dezintegratsiya va shaxsiy buzilishlardan asraydi, ichki garmoniya asosini tashkil etadi, to'laqonli psixik salomatlik va ishchanlikning yuqori darajasini saqlab qolishga yordam beradi. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning kuchayishi, qarorlarni qabul qilish samaradorligini kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan, shaxsning murakkab sifati hisoblanib, bir qancha qobiliyatlar majmuasini va xilma-xil hodisalar doirasini o'z ichiga oladi.

Bardoshlilik shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyati bo'lib, u favqulodda vaziyatlarga o'ziga zarar yetkazmasdan bardosh bera olish va uning oqibatlari

va zararlarini shaxsni takomillashtirish, uning moslashish darajasini va ijtimoiy yetukligini oshirish usullari yordamida bartaraf etish qobiliyatidan iboratdir.

Hozirgacha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, nazariy jihatdan "hayotiy bardoshlilik" tushunchasining mohiyati to'g'risida hali ham yagona tasavvur yo'q va u nima ekanligi (shaxsiy xususiyat, qobiliyat, shaxsiyat o'zgaruvchanligi, munosabat, qadriyatli ustanovka, salohiyat yoki resursligi) to'g'risida konsensus bahsli masala bo'lib qolmoqda.

Bardoshlilik borasida turli xil qarashlar va nazariyalar mavjud. Tarjima lug'atlarida yozilishicha "Tolerantlik lotincha — sabr-toqat, chidam, bardoshlilik, biron narsaga bag'rikenglik va yoqimsiz, salbiy xatti harakatlarni kechira olish" degan ma'noni anglatadi. Psixolog V.I.Dal nuqtayi nazariga ko'ra, "Bardoshlilik – biron narsaga sabr-toqat qilmoq, boshdan kechirmoq, o'tkazmoq, muhtojlik, azoblanmoq, bardam bo'lmoq, chidamlilik, o'zgarmasdan turmoq, umid qilmoq, biror yaxshi narsaga intilish, marhamatli bo'lish, ko'ngli bo'shlik, erkinlik bermoq, yoqtirmoq, yo'l qo'ymoq; shoshmaslik, shoshiltirmaslik, haydamaslik, teng ko'rishdir."

E.I.Ilin "Iroda psixologiyasi" kitobida "Insondagi irodaviy sifatlar orasida chidamlilik ko'p qo'llaniladi. Bardoshlilik turli holatlarda turlicha nomlanadi: chidam, bardosh, qat'iyat va bosh. Bardoshlilik iroda kuchi sarflanadigan jarayon ham deb aytiladi". V.K.Kalin va K.L.Babayan "Bardoshlilik — bu majburiyat emas, balki, faol va ongli chidamlilik, qat'iyatlilikni namoyish qilish. Bardoshlilik chiday olish vaqti tugaguncha jismoniy va psixik og'riq berishi mumkin.

Hayotiy bardoshlilik — bu inson xarakteriga xos jismoniy, aqliy va emotsional bosimni yengib o'tish, hatto oxirida yutqazsa-da maqsadga intilish. Bardoshlilikning ikkita chegarasi mavjud: muvofiq va nomuvofiq chegara. Muvofiqlik — bu umidni uzmasdan kutish, qat'iyat bilan maqsadga intilish, yengib o'tish, burilmaslik va bevaqt impulsiv harakatlar qilmaslik. Bu kuchni ko'rsatadi. Nomuvofiqlik — qarshilik ko'rsata olmaslik, haqorat va xo'rlashlarni qabul qilish, vaziyatni boshqara olmaslik. Bu zaiflik belgisi.

Hayotiy bardoshlilikning sog'lom ko'rinishi bu qo'yilgan maqsadga erishishda ongli, anglangan chidamdir. Aql, jasorat va bardoshlilikni paydo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi. Bardoshlilik insonni bag'rikeng qiladi, qayg'u, og'riq va g'amni xotirjamlik bilan yengib o'tishga yordam beradi.

Artur Rober "Psixologik lug'atda" bardoshlilik — bu liberal xarakterli insonlarga xoslik, ular qo'l ostidagilarga erkinlik va kenglik beradilar.

Bardoshlilik keng ma'noda biologiya va tibbiyotda (R.Bernet, R.Dillingem, L.Brent, M.Gashek, P.Medvar) organizmning adaptatsion jarayonlar bilan bog'liq degan tushuncha bildirib o'tilgan. Bunday holatda asosiy ahamiyati organizmning atrof muhitga bo'lgan reaksiyasiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni u o'z navbatida organizmning to'qima va hujayralarning biror bir narsaga bo'lgan ta'siri va u gomeostazning saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tolerantlik va bardoshlilik o'zaro munosabatlarda fikrlar, dunyoqarashlar, e'tiqodlar va boshqa shaxs xususiyatlari boshqa subyektning kutuvlari, fikri, baholashlari bilan to'qnashgan yuzaga keladi.

Zamonaviy ilmiy psixologiya bardoshlilikka bir necha yondashuvlar mavjud bo'lib, bir necha olimlar bardoshlilikni tolelantlik bilan bog'lashadi. (A.G.Asmolov, G.U.Soldatova), boshqalar esa hissiy barqarorlik bilan belgilashadi (A.E.Olipannikova, O.A.Sirotn, O.A.Lernikova).

Ko'plab tadqiqotchilar (A.A.Krilov, F.A.Brokgauza, I.A.Efron) hayotiy bardoshlilikni shaxs sifatleri, xususiyatlari qatorida qarab, boshqalarning kamchiliklariga marhamatli munosabatda bo'lish, deb hisoblaydi. F.A.Brokgauza va I.A.Efronlar esa hayotiy bardoshlilikning subyektiv va obyektiv tomonlari mavjudligini aytib o'tadi. Uning subyektiv tomoni aqliy yo'nalganlik, o'z fikrini chuqur anglash pozitsiyasida turib boshqalarni teng baholashdir.

Analitik L.F.Burlachuk fikriga ko'ra, hayotiy bardoshlilikning ijtimoiy psixologik jihatlari boshqa insonlarning xulq-atvori va odatlariga hurmat va xayrixohlik ko'zi bilan qarash, ishontirish, e'tiqodlilik, mulohazakorlik, qadriyatlilik kabi munosabatlarni anglatadi. Aynan mana shu kabi xususiyatlar bir-birini tushuna olish va tazyiqsiz, majburlamasdan, tahdidlarsiz harakat qilishni ta'minlaydi. Hayotiy bardoshlilik nafaqat qarama-qarshilikni kamaytiradi, shu bilan birga shaxs xususiyatlari rivojlanishi va munosabatlarni ham yaxshilanishini ta'minlaydi.

A.Ben ta'kidlashiga ko'ra, hayotiy bardoshlilik — bu hatti-harakatli assotsatsiyalarga bog'lanib, motiv va harakatlarni amalga oshirish vositasi. U motivlarni qondirishga asoslanadi. Motivlar kuchi o'zgarishi bilan chidamlilik sifatleri ham o'zgaradi.

K.Levin bardoshlilikni affektiv holat va xatti-harakatlarni nazorat qiladi, deb izohlaydi. Uning ta'kidlashiga ko'ra, insondagi bardoshlilik sifatleri uning fazoviy imkoniyatlarni talablariga bog'liq bo'lib, insonni rivojlanishi uchun xos bo'lgan talabdir.

B.G.Ananyev o'zining "Inson bilim obyekti" asarida hayotiylik (жизнеспособность) va hayotiy bardoshlilik tushunchalarini yonma-yon qo'yadi: "Intellektual funksiyalarni doimiy ravishda o'rgatish insonning hayotiy bardoshliliigi va hayotiyliigini, umumiy uzoq umr ko'rishning asosiy omilidir", bu bilan insonning butun umri davomida umumiy mehnat qobiliyatini nazarda tutadi.

B.G.Ananyev shogirdlari bilan insonning o'zi uchun yuqori yutuqlarga erishishi uchun eng qulay sharoitda ham, bunday yutuqlarga to'sqinlik qiladigan ekstremal vaziyatlarda ham odam bir xususiyatni emas, balki butun xususiyatlar majmuasini, shu jumladan hayotiylikni namoyon etishini ishonchli ravishda isbotladi. Lekin har qanday holatda ham ular turlicha tuziladi, ulardan ba'zilarining boshqalarga nisbatan roli o'zgaradi, hukmronlik va bo'ysunish munosabatlari yangicha rivojlanadi, tuzilishdagi har bir sifat ifodasi o'zini boshqacha namoyon qiladi. Hayotiylik — bu insonning umumiy mehnat qobiliyatining boshlang'ich tarkibiy qismi bo'lib, uning mehnat qobiliyatining o'ziga xos xususiyatlariga, intellektning faolligiga, irodaviy harakat darajasiga, hissiy chidamlilikka, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning barqarorligiga ta'sir qiladi. . Noqulay sharoitlarni boshdan kechirganda, energiya salohiyati pasayganda ushbu psixologik ko'rinishlarning ko'rsatkichlari yomonlashadi, insonning hayotiyliigi pasayadi.

Rubinshteyn har tomonlama inson rivojlanishining ichki sharoitlarining muhimliigini ta'kidlaydi, bu hayotiylik va hayotiy bardoshlilik tushunchalarining ma'nosini tushunish uchun muhimdir. Jumladan, iroda tushunchasini tahlil qilar ekan, u shunday yozadi: "Noqulay sharoitlarga qarshilik kuchi va ularni yorib o'ta olish qobiliyati nafaqat qobiliyatlarga, balki shaxsning irodaviy sifatlariga ham bog'liqdir. Bu yerda, birinchi navbatda, energiya katta rol o'ynaydi, ular baquvvat odam haqida aytganlarini inobatga olgan holda harakatga keltiriladigan jamlangan kuch va ayniqsa, qabul qilingan qarorni amalga oshirishdagi qat'iyatlilik. maqsadlarga erishish yo'lidagi har xil to'siqlarga qarshi kurash . U (energiya) faqat qat'iyat bilan qo'shilganda haqiqiy qimmatli sifatga aylanadi. Qat'iylik qiyinchiliklar va to'siqlarga qaramay, uzoq vaqt davomida energiyani to'xtatib turishda namoyon bo'ladi. Qat'iylik bilan birga mustaqil qaror qabul qilish irodaning alohida muhim xususiyatidir. o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini tuta bilish insonning muhim irodaviy fazilatleri hisoblanadi. Aynan ular yuqori motivlarning quyi motivlar ustidan hukmronliigini ta'minlaydilar .

Bu g'oyalar S.Maddining hayotiylik nazariyasida ham o'z ifodasini topgan . Maddining fikricha, insonda uch guruh ehtiyojlar mavjud: biologik, ijtimoiy va psixologik (S.L.Rubinshteyn bo'yicha). Psixologik ehtiyojlar ramziylik, hukm va tasavvurni o'z ichiga oladi. Aynan ular odamga o'ziga berilgan narsaga, uning biologik va ijtimoiy xususiyatlariga bog'lanishiga imkon beradi. S.Maddi shaxs rivojlanishining ikki turini tavsiflaydi. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlar hukmron bo'lgan

odam, o'zini biologik ehtiyojlar va ijtimoiy rollarning timsoli sifatida qabul qiladi, ular bilan o'zini identifikatsiya qiladi va shunga mos ravishda o'zini tutadi. Shaxsda psixologik ehtiyojlar hukmron bo'lsa, u kelajak imidjini yaratadi, maqsadlar qo'yadi, u vaqt istiqboliga ega, madaniy belgilarga tayanadi va hokazo, ya'ni. o'z hayotini o'zi quruvchi, o'z hayotining muallifi, yaratuvchisi bo'lgan shaxs tipi vujudga keladi.

Hayotiy bardoshlilik va stresga barqarorlikning ham umumiy jihatlari mavjud. O'zbek olimlarining stresni ayrim psixologik jihatlari tadqiq qilishga urinishlari XX asrning oxirlarida boshlangan bo'lib, dastlab M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov va ularning shogirdlari B.Umarov, E.Usmanovlar tomonidan tomonidan olib borilgan ishlarda o'z aksini topgan. Shaxsning hayot faoliyatni jarayonida kuzatiladigan emotsional holatlar muammosi keng o'rganilgan. Stresga barqarorlik muammosi alohida tadqiqot predmeti sifatida aynan talabalik davri va o'quv faoliyati bilan bog'liq holatda, qolaversa, stresga barqarorlikning psixologik determinantlari (o'z-o'zini baholash, frustratsion tolerantlik va koping-strategiya bilan bog'liqlikda kompleks tarzda N.Z.Ismoilovanning ilmiy ishida o'rganilgan.

Hayotni anglash qanchalik past bo'lsa, qiyin vaziyatlarda inson muammolarini bevosita hal etishga shunchalik kam yo'naladi, sodir etilgan voqea uchun javobgarlikni shunchalik o'z zimmasiga kamroq oladi, befaol harakat va vaziyatni to'g'rilashga intilish namoyon bo'lmaydi.

Oiladagi emotsional inkor etilganlik, himoyalannaganlik, tark etilganlik, turg'un qo'rquv kabi salbiy emotsiyalarning yuzaga kelishi, ijtimoiylashuvning buzilishi, stress va frustratsiyaga zaif tolerantlik, affektiv reaksiyalarni nazorat qilishning pasayishi, o'z qadr-qimmatini his qilishning yetarlicha rivojlanmaganligi, shaxsning himoya mexanizmlarining zaiflashuvi, o'zining beqadrligi, hatto o'zining keraksizligini his qilishi, tevarak-atrofdagi olamga ishonchsizlik, o'z imkoniyatlariga ishonmaslikni tug'diradi va bu xususiyatlar hayotiy bardoshlilikni rivojlanmasligiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, hayotiy bardoshlilik — bu subyektning o'zi uchun murakkab bo'lgan vaziyatlarda manfaatdor ishtirok etish, ularni nazorat qilish va boshqarish, tavakkal qila olish, hatto salbiy voqealarni qabul qilish qobiliyati va ularni muvaffaqiyatli yengish uchun asosiy resurs.

Foydalalanilgan adabiyotlar ro'uxati

1. Даль В. И. // Большая российская энциклопедия. Электронная версия (2016). — М.

2. Илин, Е.П. Психология воли [Текст].-СПб.: Питер, 2002.-288 с.

3. Горбунов, Н.А. Формирование и структура действия нравственно-волевых качеств в процессе занятий спортом в ДЮСШ [Текст] // Философско-педагогические и религиозные основания образования в России: история и современность: Седьмые Международные Покровские образовательные чтения. – Рязань: РГУ имени С.А. Есенина, – 2009. – С. 202–204

4. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания / Б.Г. Ананьев. - СПб: Питер, 2001.-288 с.

5. Бодалев А.А. О человеке в экстремальной ситуации (эмоциональная и интеллектуальная составляющая отношения в выборе поведения) / А.А. Бодалев // Мир психологии - 2002. - № 4 (32). - С. 127 - 134

6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. - СПб: Издательство «Питер», 2000 - 712 с

7. Рубинштейн С. Л. Бытие и сознание. Человек и мир / С.Л. Рубинштейн. - Питер, 2003.-512 с

8. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. - 3-е изд., доп. — М.: Смысл, 2007. — 511 с.

Maddi S. Hardiness: Operationalization of Existential Cjurance // Journal of Humanistic Psychology. 2004 a. Vol. 44, № 3. p. 279 - 298. Maddi S. Hardiness: Operationalization of Existential Cjurance // Journal of Humanistic Psychology. 2004 a. Vol. 44, № 3. p. 279 - 298.

OILAVIY MUNOSABATLARNI IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLARI

*Mirzayeva Sayyora Rustamovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya
fanlari bo'yicha doktori (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat kelajagini ta'minlashda oila institutining roli xususida so'z yuritilib, yosh oilalarga g'amxo'rlik qilishni zamonaviy metodlarini ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlari, zarur shart–sharoitlari, uzluksiz chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi hamda hayotga tadbir etilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, davlat, oila, mahalla, institut, barqarorlik, mexanizm, o'zaro hamkorlik, barqarorlik, sharqona tarbiya.

Annotatsiya: V dannoy state rassmatrivaetsya rol semi v obespechenii budushego strani, razrabotka i vnedrenie sovremennix metodov zaboti o molodix semyax s sotsialno-psixologicheskoy tochki zreniya, neobxodimie usloviya, sistema neprerivnix meropriyatiy i ix realizatsiya.

Klyuchevie slova: obshestvo, gosudarstvo, semya, sosestvo, institut, ustoychivost, mexanizm, sotrudnichestvo, stabilnost, vostochnoe vospitanie.

Annotation: This article discusses the role of the family in ensuring the future of the country, the development and implementation of modern methods of caring for young families from a socio-psychological point of view, the necessary conditions, a system of continuous measures and their implementation.

Keywords: Society, state, family, neighborhood, institution, stability, mechanism, cooperation, stability, oriental upbringing.

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlarining faollashuvi, ma'naviyat va axloqiy tarbiyada G'arb ma'naviyatiga xos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa, oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Negaki, oila kishilik jamiyatida yuz beradigan barcha islohotlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi ekanligi tarixiy tajribalardan ma'lum. Jamiyatimiz barqaror kelajagini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oilaga ham e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Oila institutini mustahkamlash, yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila barpo eish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan holda uzluksiz va keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilib, hayotga tadbir etilmoqda. Barchamizga ayonki bolalar qalbi va ongida ezgulik va yaxshilik haqidagi tushunchalar, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'usi, avvalo, oilada paydo bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar aynan shu muhitda shakllanadi va mustahkamlanadi. Biz ushbu holatni inobatga olib qaraydigan bo'lsak bugungi kunda jamiyatimizda oilalar o'rtasida yuz berayotgan salbiy oqibatlar va ajrimlar kelajakka rahna solayotgani, davlat barqarorligiga tahdid ekanligini o'z vaqtida anglashimiz va zaruriy ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-psixologik chora tadbirlar mexanizmini ishlab chiqishimiz davr talabidir.

Prezident Shavkat Mirziyoev 2019 yil 27 dekabrda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvda mamlakatda ajrimlar darajasi yuqori ekanligi, ya'ni 2019 yilning 11 oyi davomida mamlakatda 277 ming 420 ta nikoh qayd etilib, shundan 28 ming 755 ta oila, asosan yoshlar o'rtasida ajrimlar yuz berganini «juda achinarli» deb ta'kidladi[9]. Jamiyatimizda oilaviy inqirozning o'sib borishi

rivojlanayotgan mamlakatimiz ravnaqiga tahdid solayotgan o'tkir ijtimoiy-siyosiy masala ekanligi kundek ravshan bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash, oila bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, ayniqsa, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, ijtimoiy-siyosiy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Biroq oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani bu yo'nalishdagi ishlar yangicha yondoshuv qolaversa ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Chunki oilaviy nizolar, oilaning inqirozga yuz tutishi jamiyatga o'zining salbiy ta'sirini o'ztkazmasdan qolmaydi.

Ushbu masalani Andijon viloyati misolida olib ko'radigan bo'lsak 786 mingdan ortiq oila tarkibida 3 million nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Har yili viloyatda o'rtacha 30 mingdan ortiq yangi oila qurilmoqda. Birgina 2018 yilda 30 ming 344 nikoh qayd etilgan. Biroq 4 ming 149 oila qonuniy ajrashgan. Joriy yilning birinchi choragida esa ajrimlar 1 ming 56 tani tashkil etdi, shundan 431 tasi yosh oila[5].

Sirdaryo misolida olib qaraydiga bo'lsak statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilda viloyatda 1095 ta oilaviy ajrim ro'yxatga olingan bo'lib, bu 2016 yilga nisbatan (908) 21,0 foiz o'sishni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning barcha hududlari orasida eng yuqori hisoblanadi. 2012-2016 yillarda respublika bo'yicha oilaviy ajrimlarning o'sishi 58,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich 83,0 foizni tashkil etgan[6].

Statistik ma'lumotlar tahlillarga ko'ra, har ikkiala viloyatda ham ajrimlarga farzandsizlik, er-xotin o'rtasida bir-birini tushunish va totuvlikning yo'qligi, oiladagi doimiy janjal va mojarolar, er-xotin oilaviy munosabatlari va ularning shaxsiy hayotiga boshqalarning aralashuvi va ular o'rtasidagi o'zaro mojarolar, uzoq vaqt birga yashamaslik, er yoki xotinning uzoq muddatga xorijga ishga ketgani, iqtisodiy yetishmovchiliklar, alkogolizm asosiy sababi sifatida bayon etilgan.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda nikohlar va ajrimlar soni mos ravishda 306,2 ming va 31,9 mingni, 2018 yilda esa 311,3 ming va 32,3 mingtani tashkil etgan[12]. Bo' ko'rsatkichlar jamiyatimizdagi barcha ziyoli insonlarni tashvishga solayotgan bo'lsa ajab emas. Shu jihatda olib qaralganda, oilaning ma'naviy muhiti va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini mustahkamlanishi bir tomondan oilaga, davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan oilaning sub'ektiv, ya'ni ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda, oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy faoliyati, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muhabbat singari insoniy fazilatlarining oila muhitida shakllanishi va rivojlanishi tushuniladi.

Abdurauf Fitrat «Oila yoki oilani boshqarish tartiblari» asarida oila institutining jamiyatdagi o'rni va mohiyati haqida to'xtalib, millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqligini e'tirof etgan holda, qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tarbiyali bo'ladi. Agar bir mamlakat aholisi ahloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi deb yozadi.

Oila institutidagi o'zaro munosabatlar xoh u ijobiy bo'lsin, xoh salbiy jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. XIX asrning ikkinchi yarim yilligi boshlarida G'arb ommaviy axborot vositalarida tadqiqotchilarning yevropada oila inqirozi boshlanganligi xususidagi nuqtai nazarlar keng yoritila boshlandi. Xususan, 1859 yilda «Boston Kuaterli Revyu» jurnali shunday deb yozgan edi: «Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakterini xavf ostida qoldiradi, balki jamiyatimizning mavjudligini ham xavf ostida qoldiradi»[1]. Bunday fikrlar ko'pgina G'arb mamlakatlari bo'ylab aks-sado berib o'tdi. 1980 yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushinchasini siyosiy

jihattan muhokama qildi. 1986 yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher xotin-qizlar konservatorlar konferensiyasida: “Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi»[1] - degandi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilari oila institutining tushkunligini va hatto bora-bora yo‘qolib ketishini bashorat qiladilar.

Oilaning yo‘qolishi to‘g‘risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko‘p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondashish lozim. Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo G‘arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘z holicha Sharq olamiga, xususan O‘zbekiston turmush tarziga transformatsiya qilish, jamiyatimiz taraqqiyotiga tahdid solish bilan barobardir. Bugungi kunda oila instituti G‘arb mamlakatlari turmush tarzidan ajralib, tanqid ob‘ektiga aylanib qolmoqda. Shuningdek, oilaviy hayotni yashashning boshqa ijtimoiy shakllari bilan almashtirish to‘g‘risida harakatlarni amalga oshirmoqda. Oilaga nisbatan erkinlik va imkoniyatlarni cheklovchi omil sifatida yondoshilmoqda[1].

Mas‘ul va jamoat tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari bugungi kunda oilaviy ajrimlar statistikasini yuritish va uni keltirib chiqaruvchi sabab va oqibatlar haqida gapirishdan uyoqqa o‘ta olmayapti. Oddiy va o‘tkir bir haqiqatni tan olishimiz kerak, oilaviy ajrimlar sonini kamaytira olmayapmizmi, hech bo‘lmasa uning inqirozi oqibatida bolalarda kelib chiqadigan ruhiy tushkunlik bilan bog‘liq salbiy omillarni oldini olshi borasida birorta ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarni tashkil etishimiz, respublika va xalqaro miqyosidagi grant loyihalari asosida ularga amaliy psixologik yordam berish omil va vositalarini topishimiz mumkin. Tahlil qiladigan bo‘lsak inqirozga yuz tutgan oila bolalarining stress va depressiyaga tushib qolganligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasayib ketishi va umidsizlik bilan bog‘liq salbiy psixologik kechinmalar ruhiyatini qamrab olganligi, autizm va ertangi kunga bo‘lgan ishonch hissining yo‘qolishi, jamiyat va odamlardan nafratlanish tuyg‘usining paydo bo‘lishi, aqliy salohiyatining tushib ketishi yoki umuman yo‘qolishi, agressiv xulq-atvor inqirozi yuz berishi, o‘zgalar baxti va omadiga rahna solish hissini ortib borishi, bunyodkorlik va ijodkorlik omillarining yo‘qolishi, yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan moyillikning paydo bo‘lishi, ta‘lim va tarbiyasi masalasida defektlarni paydo bo‘lishi, individual qobiliyati va kasbiy qiziqishining so‘nishi, yosh va jins, dunyoqarash bilan bog‘liq inqirozning yuzaga kelishi, umidsizlik (apatiya), ishonchsizlik, maqsadsiz hayot tarzi ongidan o‘rnashishi, o‘ziga, tanlagan kasbiga va ertangi kuniga bo‘lgan ishonchining yo‘qqa chiqishi, noto‘liq oila farzandlar “nomi” bilan atalishi, suitsidga moyilligini ortib borishiga zamin bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda oliy inqiroz yuz bergan bolalar bilan individual psixologik ishlash jamiyat uchun istiqbolli masala bo‘lib, uning mexanizmini ilmiy-amaliy jihatdan yaratish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oila instituti hayotning abadiyligini, bunyodkorlik, ibratli ishlar va avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odat va qadriyatlarimizni asrab - avaylaydigan, kelajak nasllari qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan betakror tarbiya maskani sifatida e‘tirof etiladi. Oila a‘zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog‘lom muhitni yaratadi. Zero, sog‘lom tarbiya oila a‘zolari o‘rtasida yakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Aks holda esa, ichdan yemirilish, ma‘naviy inqiroz holatlari yuz beradi, bu esa har qanday tashqi ziyonlardan ko‘ra talofatliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Giddens Entoni Sotsiologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qullanma / tarj. N.Mamatov va J.Begmatov. –.: Sharq, 2002–B. 459.

2. Rustamovna, M. S. . “SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE MODERN UZBEK FAMILY”. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, vol. 2, no. 4, Apr. 2023, pp. 196-8, <http://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/1181>.

3. Rustamovna, Mirzayeva Sayyora. Psychological features of attitudes of students to their own health in conflict situations. journal of critical reviews. No. 17. ISSN-2394-5125 VOL 7, 2020.
4. Равшанова, Ханифа Акмаловна. «ZAFESHITUVCHIO‘SPIRINLARNING IJTIMOYIY INTELLEKT DINAMIKASI: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9.09.046 Ravshanova Xanifa Akmalovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2 bosqich magistranti. Avlayev Orif Umirovich, CHDPU Psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.» Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 9 (2022): 346-353.
5. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayevo Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich. (2020) “Problems of formation of learning motives in pupils”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6
6. Равшанова, Ханифа Акмаловна. «ЭШИТИШДА НУҚСОНИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙИ ИНТЕЛЛЕКТ ДИНАМИКАСИ.» Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.2 (2022): 258-265.
7. Tojiboyev M.N. The influence of pedagogical technologies on student thinking, Asian journal Multidimensional research, India, vol 11, issue 10, oktober 2022 SJIF 2022 8.179, 72-74 betlar.
8. Мирзаева, С. Р. «Талаба валеологик онгининг психологик химоя механизмлари билан детерминантлашуви.» Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 133-143.
9. Eshnaev N.J. Suitsid va uning ijtimoiy-psixologik omillari / Mug‘allim ham yzliksiz bilimlendirio‘ ISSN: 2181-7138 №2/1 2021 y
10. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/12/29/divorce/>
11. <https://uza.uz/oz/society/oila-masuliyatini-anchalik-is-ilasiz-16-07-2019>
12. <https://oilamarkazi.uz/conducted-research/sirdaryoda0ajrashish-21102018>
13. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/12/29/divorce/>

РОЛЬ ШКОЛЫ В РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССА ИНКУЛЬТУРАЦИИ ЛИЧНОСТИ

Насимджанова М.М.

Преподаватель Международной исламской академии Узбекистана

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim shaxs inkulturatsiyasi jarayonida qanday rol o'ynaydi, bu qanday universal mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi, degan savol muhokama qilinadi. Xulosa qilinadiki, aynan ta'lim muassasalarida bugungi kunda nafaqat bilimli kishilarni shakllantirishi mumkin bo'lgan sotsializatsiya jarayonini takomillashtirish, balki madaniyatli insonlarni shakllantirishga qaratilgan to'laqonli inkulturatsiya jarayonini yaratish haqida ham gapirish kerak.

Kalit so'zlar: madaniyat, shaxs, maktab, madaniyat, sotsializatsiya, ta'lim.

Abstract: This article discusses the question of what role education plays in the process of inculturation of the individual, with the help of what universal mechanisms this is carried out. It is concluded that it is in educational institutions that today it is necessary to talk not only about improving the process of socialization, which can form not only educated people, but also about creating a full-fledged inculturation process aimed at forming cultured people.

Key words: inculturation, personality, school, culture, socialization education.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о том, какую роль образование играет в процессе инкультурации личности, с помощью каких универсальных механизмов это осуществляется. Делается вывод, что именно в образовательных учреждениях сегодня необходимо говорить не только о совершенствовании процесса социализации, способного формировать не только образованных, но и о создании полноценного процесса инкультурации, направленного на формирование культурных людей.

Ключевые слова: инкультурация, личность, школа, культура, социализация образование.

Культура связана многочисленными сложными узлами с образованием. Переработка информации в знания представляет собой творческий, культурно значимый акт. Данный статус культуры определяет ключевую роль образования в инкультурации личности. Необходимость оптимизации культуросозидательных функций образования и ориентации его на воспитание человека культуры, способного активно реализовать себя в быстро меняющихся условиях, актуализирует прикладной характер исследования проблемы инкультурации личности в школе. В этой связи основным результатом деятельности образовательного учреждения должна стать не только система знаний, умений и навыков, но и позитивная инкультурация личности, обеспеченная содержанием культуросообразного образования. Образование всегда было транслирующей системой, благодаря которой подрастающие поколения включались в уже существующую культуру и становились носителями определенного образа жизни.

Изменение системы образования происходит сегодня активными темпами, при этом вектор образовательных трансформаций определяется общими тенденциями ментальных переориентаций, происходящих в обществе. Опосредованный контекстом механизм образовательного процесса – предмет научной рефлексии культурноисторической психологии: «Учитель дает урок, характер которого обусловлен учебным процессом, частью которого он является; учебный процесс, в свою очередь, обусловлен типом школы, в котором он происходит; тип школы, в свою очередь, зависит от местного сообщества и

так далее» [2]. Учреждения образования, являясь социальными институтами, ориентированы на выполнение социального заказа, трансляцию идеологии как «ценностно-смысловой сетки, помещенной между индивидом и миром и опосредующей его отношение к этому миру» [1]. При этом организаторам учебного процесса важно рефлексировать, какие идеологические установки лежат в основании тех или иных путей его изменения.

Получая в повседневной практике информацию о самых разных сторонах общественной жизни, человек формируется как личность, социально и культурно адекватная обществу. Социализация — это процесс усвоения индивидом культурных норм и социальных ролей, благодаря которому происходит превращение человека в социального индивида. Таким образом, под социализацией понимается гармоничное вхождение индивида в социальную среду, усвоение им нормативно-ценностной системы общества, что позволяет индивиду успешно функционировать и самореализовываться в качестве члена общества. Результат социализации — социализированность. Социализированность в наиболее общем виде понимается как сформированность черт, задаваемых статусом и требуемых данным обществом, но, с другой точки зрения, и как усвоение личностных и социальных качеств, которые будут характеризовать ее на следующей стадии развития. Выделены характеристики личности, обеспечивающие успешную социализацию: способность к изменению своих ценностных ориентаций, умение находить баланс между своими ценностями и требованиями роли при избирательном отношении к социальным ролям; ориентация не на конкретные требования, а на понимание универсальных моральных человеческих ценностей. Социализированность имеет «мобильный характер», может превратиться из успешной в неудачную, и в этом случае возможность вновь достичь успеха зависит от способности личности адаптироваться к новым условиям. Поэтому возникло понятие «ресоциализация» — изменение ставших неадекватными ценностей человека в соответствии с новыми социальными предписаниями. Задача системы образования, учитывая тенденции социализации на каждом этапе развития общества, использовать ее позитивные и компенсировать негативные потенции в процессе воспитания. В результате социализации человек становится полноправным членом общества — личностью, свободно исполняющей предписанные социальные роли. В отличие от социализации понятие «инкультурация» подразумевает обучение человека традициям и нормам поведения в конкретной культуре. Инкультурация — процесс приобщения индивида к культуре, усвоения им существующих привычек, норм и паттернов поведения, свойственных данной культуре. Конечный результат инкультурации — личность, способная к воспроизводству культуры [6].

Для социально-возрастного периода развития старшеклассников, студентов средних и высших учебных заведений характерно развитие мотивационной сферы личности, выражающейся в определении своего места в жизни, формировании мировоззрения и его влияния на познавательную деятельность, самосознание и моральное сознание. В юношеском возрасте решающее значение придается динамике «внутренней позиции» формирующейся личности, которая складывается из того, как молодой человек на основе своего предшествующего опыта, своих возможностей, своих ранее возникших потребностей и стремлений относится к тому объективному положению, какое он занимает в жизни в настоящее время и какое положение он хочет занимать. Именно эта внутренняя позиция обуславливает определенную структуру его отношения к ценностям и нормам жизнедеятельности в формирующемся информационном обществе. Вместе с тем в образовательном процессе происходит формирование познавательных и профессиональных интересов студента, его способности

строить жизненные планы и вырабатывать нравственные идеалы, которые, в свою очередь, влияют на становление внутренней позиции личности. Социализация и инкультурация связаны со становлением нормативно-ценностной системы у молодежи посредством овладения достаточным объемом культурных знаний и социального опыта через практическую деятельность в составе различных социокультурных групп и через знакомство с различными сферами культуры (наука, искусство, религия, право, мораль). Ее формирование — многогранный, диалектически развивающийся процесс, состоящий из трех взаимосвязанных этапов: на первом закладываются основы ценностных ориентаций молодого человека; на втором — приобретаются психологически отчетливо выраженные черты идеалов, убеждений, социально значимых качеств; на третьем этапе формируется их системная целостность[3]. И если первый этап протекает в рамках первичной социализации, то второй и третий — в рамках вторичной. Безусловно, процессы инкультурации и социализации являются главным механизмом, связывающим поколения между собой. Эти механизмы претерпевают и содержательные, и формальные изменения в ходе развития общества. И сегодня непосредственные участники процесса социализации и инкультурации более не противопоставляются как владеющие эталонным знанием эксперты (позиция учителя) и не обладающие этим знанием неэксперты (позиция учащегося). Монологические формы обучения уступают место диалогическому общению, принцип которого — «исключительная важность голоса личности» [1]. Смыслом образования, в рамках которого в большей мере реализуются эти процессы, становится основанный на идеях равенства, дополнительности, сотрудничества процесс понимания (а не только естественнонаучного объяснения) окружающей личность ученика реальности — материальной и духовной. Не беспристрастное, «отрешенное» познание, чуждое любым проявлениям человеческого чувства, а субъективное переживание, внутреннее преломление, постижение индивидуального значения — таков лейтмотив современной образовательной парадигмы. Таким образом, культурное воспроизводство в процессе образования коррелируется с типом культурной трансмиссии[5].

Школа, являясь транслятором культуры и языка как для конкретного этноса, так и для всего поликультурного сообщества в целом, выступает системообразующим и инкультурирующим фактором формирования обеих идентичностей. Национальная школа может с равной степенью полноты исполнять инкультурирующую роль одновременно как в отношении культуры конкретного этноса, так и в отношении изучения культурологических принципов формирования и осуществления бicultural образовательной стратегии.

Современные философские подходы к пониманию процесса инкультурации личности в школе обогащены субъективистским подходом к инкультурации и обусловлены новым видением сущности человека как активного, деятельного, неповторимого, способного к самоопределению, стремящегося к взаимодействию с другими; определением процесса становления личности как вероятностного, уникального; осмыслением новых ценностных приоритетов в образовании, значимость которых заключается в побуждении к действиям. Субъективистский подход не просто расширил представление об инкультурации личности, но и поставил вопрос о сущности и механизмах инкультурации как взаимодействия, выступающего в качестве «пограничной» категории для объективизма и субъективизма при интерпретации инкультурации личности школьника, овладевающего разными уровнями инкультурации и инкультурирующими структурами.

В процессе анализа культурологического, психолого-педагогического материала с целью раскрытия сущностных основ процесса

инкультурации личности в образовательном процессе выявлено, что инкультурация личности в школе - это совместная деятельность учителя, ученика, семьи и социокультурной среды с целью интеграции культурных миров в личном мире человека и приобретения широкой гуманитарной культуры. В результате человек, владея собственной культурной идентичностью, становится способным свободно ориентироваться в окружающей среде, пользоваться предметами культуры, созданными предыдущими поколениями, обмениваться результатами физического и умственного труда, устанавливать взаимопонимание с другими культурами[4].

Опора на духовно-нравственные начала этнической культуры при инкультурации личности школьника, пропаганда и культивирование в среде этноса здоровых нравственных ценностей, этнических норм, основанных на мудрости народных традиций, призваны заполнить образовавшийся вакуум в духовной жизни этноса и общества, дать ориентиры в свободном выборе личностью собственной модели поведения. Следовательно, построение содержания воспитательного процесса учреждений образования, основанное на принципах народной культуры, необходимо рассматривать как важную культурологическую проблему, имеющую большое значение в формировании человеческой личности, способной ощущать свою историческую принадлежность к родному народу, жить в гармонии с окружающим миром. Однако среди причин, обусловивших появление негативных процессов в инкультурации, следует назвать прежде всего теоретическую и научно-методологическую непроработанность проблемы организации содержания общего образования на бiculturalной и поликультуральной основах. Эффективным принципом организации содержания образования в таком случае является принцип диалога культур, позволяющий организовать сопряжение этнокультурного и федерального компонентов образования в ситуации различия их инкультурирующих ценностей.

Список литературы

1. Барт Р. – М.: РИК «Культура». – Изд-во AdMrginem. – 1994. – 280 с.
2. Коул М. Культурно–историческая психология: наука будущего / М. Коул. – М.: Когито– Центр. – Изд-во «Ин-т психол. РАН», 1997. – 432 с
3. Кравченко А.И. Культурология / А.И. Кравченко. – М.: Акад. Проект, 2001. – 340 с.
4. Дугарова Ц.Д. Инкультурация личности в современной национальной школе. // Материалы международной научно-практической конференции «Образование и воспитание в XXI веке: глобальные и региональные аспекты» (25-28 ноября 2003 года). Часть II. - Чита: Изд-во ЗабГПУ, 2003.- С.94-97
5. И.М. Кыштымова. Инкультурация как основа организации образовательного пространства. Казанский педагогический журнал. 2015. №6. Стр. 20-24.
6. Н. В. Мартинович. Образование как процесс социализации и инкультурации личности. ВЕСТНИК МГУКИ 4 (48) июль–август 2012. Стр. 136–139



ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ

Нурымбетова Эльмира Жумамуратовна
доктор философии по психологическим наукам (PhD)
Нукусский государственный педагогический институт

Аннотация. В статье изучается современное состояние развития профессионально-важных качеств студента-психолога. Также выявлен уровень развития интеллектуального структурного компонента профессионально-важных качеств студентов-психологов.

Ключевые слова: интеллект; общие умственные способности; обобщение и анализ; эмоциональная деструкция; гибкость мыслительных процессов; внимание; мышление.

INTELLECTUAL PECULIARITIES OF PSYCHOLOGY STUDENTS

Nurymbetova Elmira Jumamuratovna
Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD)
Nukus state pedagogical institute

Abstract. The article studies the modern state of development of professionally important qualities of a psychology student. The level of development of the intellectual structural component of the professionally important qualities of psychology students is also revealed.

Key words: intellect; general mental abilities; generalization and analysis; emotional destruction; flexibility of thought processes; attention; reasoning.

PSIXOLOGI TALABALARNING INTELLEKTUAL XUSUSIYATLARI

Nurimbetova Elmira Jumamuratovna
Psixologiya fanlari doktori (PhD)
Nukus davlat pedagogika instituti

Аннотация. Мақоллада talaba-psixologning kasbiy muhim sifatlari rivojlanishining hozirgi holati o'rganildi. Psixolog-talabalarining kasbiy muhim sifatlarining intellektual komponentining rivojlanish darajasi aniqlandi.

Kalit so'zlar: intellekt; umumiy aqliy qobiliyatlar; umumlashtirish va tahlil qilish; hissiy destruktivlik; fikrlash jarayonlarining moslashuvchanligi; diqqat; fikrlash.

По мнению преобладающего количества исследователей, подготовка к профессиональной деятельности обуславливается характеристиками современных требований, которые выражаются в комплексе профессионально-важных качеств психолога, имеющих значимое влияние на успешность его профессиональной деятельности, профессионально- личностное саморазвитие, а также отсутствием в практике обучения действующих, конкретизированных техник целенаправленного развития этих профессионально-важных качеств у будущих психологов. Такое положение дел создаёт условия, где в структуре личности обучаемого может существовать определенный комплекс значимых качеств, возможности практического развития которого весьма ограничен, вследствие чего достижение необходимого профессионального уровня выпускника высшего образовательного учреждения, его конкурентоспособности на современном рынке труда, профессионально-психологической полезности становится сложно достижимой задачей.

Психологическая готовность к профессиональной деятельности в области практической психологии предопределяет, наличие наряду с рядом профессионально-значимых личностных свойств и качеств (адекватная

самооценка, эмпатия, переносимость фрустраций, отсутствие проекций и т.п.), еще и когнитивных умений (слушать другого, устанавливая контакт, убеждать и разговаривать, продуктивно рефлексировать т.д), свойств психических процессов (способность к длительной концентрации, широта и объем внимания, оперативность и гибкость процессов восприятия и мышления, высокий интеллектуальный потенциал, развитость мыслительных операций и процессов и т.п.) и, наконец, способности будущего специалиста к диалогу и партнерству в создании профессиональных отношений, регуляции профессионального мышления [3].

По мнению Л.Е. Красавцевой, профессия психолога требует от студентов, будущих специалистов овладения соответствующими знаниями, умениями и профессиональными навыками практического психолога. На основе анализа практической психологической деятельности, навыки психолога автором распределяются на три группы:

- двигательные, сенсомоторные, диагностические и корректирующие;
- перцептивные навыки, связанные с профессиональным зрительным, слуховым, тактильным и другим восприятием человека и его состояния;
- интеллектуальные навыки, обеспечивающие проведение измерений, расчетов, решения стандартных задач [5].

А.В. Крупенин приводит следующий набор профессионально-значимых интеллектуальных качеств психолога-практика, который был получен в результате изучения работы школьных психологов:

- вариативность мышления;
- развитые аналитические способности;
- интеллектуальная активность;
- эмоциональный интеллект и пр.[6]

Л.А. Григорович, на основе обобщения и анализа экспериментальных данных в профессиограмме психолога выявила следующие особенности профессионально успешных психологов-практиков: интуитивность, эмпатию, развитые коммуникативные способности, высокий уровень вербального интеллекта. По результатам тестирования студентов психологических факультетов и работающих психологов с помощью 16-факторного опросника Кеттелла (16-PF), автором было обнаружено, что модель личности психолога-практика требует достаточно высокого интеллекта, широкого кругозора, высокого уровня самопознания, неконформности мышления, умение сочувствовать, внутреннего согласия, упорядоченности [4].

По мнению В.В. Тертычная, профессионально-желательные интеллектуальные особенности практического психолога включают следующую группу качеств:

- способность анализировать факты и явления;
- аналитичность и логичность;
- сообразительность и рассудительность;
- критичность и здравый смысл;
- стремление все анализировать, не принимать на веру;
- прогностичность и дальновидность;
- интуитивность, способность к синтезу, способность мыслить глобально, учитывая большое количество фактов и доказательств при постановке и решения проблем;
- не шаблонность мышления [7].

В свою очередь, для успешной профессиональной деятельности практического психолога, управления психотерапевтической ситуацией, необходимо обладать рядом личностных качеств. К ним автор относит эмпатию, умение слушать, наблюдательность, чтение психосоматических симптомов, распределение

внимания и т.п. Анализируя требования, которые предопределяют успешное выполнение профессиональных задач и операций деятельности современного психолога, также автор определяет, что недостаточный объем внимания и неспособность к ее четкого (устойчивого) распределения, чтобы держать в поле зрения одновременно, как минимум, психику клиента и собственную, а также трудности в переключении внимания и его низкая интенсивность, могут стать препятствием к эффективной профессиональной деятельности психолога [8].

Материал и методы исследования. В целях исследования современного состояния развития профессионально-важных качеств будущих психологов было организовано и проведено эмпирическое исследование, в котором приняло участие 253 человека из числа студентов-психологов, как женского (72,7 % - 184 чел.), так и мужского (27,3 % - 69 чел.) пола, в возрасте от 19 до 24 лет (средний возраст 22,1 года), различных курсов обучения (средний курс обучения - 2,5) (рис. 1)




Рис.1. Характеристика выборки эмпирического исследования современного состояния развития профессионально-важных качеств студентов-психологов (n=253)

Исходя из методологической базы настоящего исследования, имеющихся концептуальных положений построения модели специалиста, а также системного решения этой проблемы в науке, нами подготовлена структурная модель профессионально-важных качеств современного психолога. Основу данной разработки составили соответствующие компоненты, отражающие актуальные профессионально-важные качества современного психолога. Вместе с тем, для их выделения нами была организована и проведена экспертная оценка по заранее подготовленному опроснику. Основу данного инструментария составили ранее выделенные, по результатам теоретического анализа следующие обобщённые профессионально-важные качества психолога, объединённые в соответствующие структурные компоненты: мировоззренческий, межличностный, интеллектуальный, личностный.

Интеллектуальный компонент составляют: развитая социальная составляющая интеллекта; общие умственные способности; способность к обобщению и анализу информации; отсутствие эмоциональной деструкции; гибкость мыслительных процессов; способность к концентрации внимания; способность к обобщению и анализу; способность к пространственному мышлению.

Для психодиагностики таких профессионально-важных качеств как общие умственные способности, способность к обобщению и анализу информации, отсутствие эмоциональной деструкции, гибкость мыслительных процессов, способность к концентрации внимания, умение выделять общее в разном и составляющие в целом интеллектуальный структурный компонент подобран хорошо зарекомендовавший в психологической практике Краткий ориентировочный тест В.Н. Бузина, Э.Ф. Вандерлика [1,2]. Методика

предназначена для исследования общих умственных способностей человека. Согласно позиции авторов, умственные способности можно представить в виде следующих структурных составляющих:

- способность к обобщению и анализу информации;
- отсутствие эмоциональной деструкции;
- гибкость мыслительных процессов;
- способность к концентрации внимания;
- умение выделять общее в разном;
- способность к пространственному мышлению.

Кроме того, данные составляющие вступают также психодиагностическими шкалами теста. Стимульный материал инструментария состоит из подробной разъясняющей инструкции с практическими примерами для обследуемого и пятидесяти тест-заданий, которые необходимо решить за пятнадцать минут. Обработка результатов тестирования проводится путём подсчёта количества правильно решённых тест-заданий и интерпретации результатов с учётом ключа к тесту в соответствии с диагностируемыми признаками.

Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что для оптимального практического применения психометрического комплекса подготовлен специальный механизм перевода получаемых результатов по каждой психодиагностической методике в единую шкалу для обобщения, а также осуществлено нормирование психодиагностических результатов на репрезентативной выборке для адекватной интерпретации относительно как выделенных структурных компонентов, так и профессионально-важных качеств современных студентов-психологов. Данные действия в дальнейшем позволят исследовать современное состояние развития профессионально-важных качеств студентов-психологов.

Относительно интеллектуального структурного компонента - коэффициент математическое ожидание (M) равен 4,793 баллам. 0,75 % стандартного отклонения (σ) соответствует 0,787 баллам. Базируясь на данные значения, выполнив действия аналогично предыдущим (расчёт распределения мировоззренческого и межличностного структурных компонентов) было получено следующее распределение: первый интервал - от 0 до 4 баллов, что соответствует ниже среднему уровню развития интеллектуального структурного компонента; второй интервал - от 5 баллов, что соответствует среднему уровню развития интеллектуального структурного компонента; третий интервал - от 6 до 10 баллов, что соответствует выше среднего уровня развития интеллектуального структурного компонента (рис. 2).




Рис. 2. Результаты комплексного психодиагностического исследования интеллектуального структурного компонента профессионально-важных качеств современного психолога (n=253)

Относительно интеллектуального структурного компонента –то у преобладающего количества обследованных студентов диагностируемый признак развит на недостаточном уровне (42,7 %, 108 чел.), т.е. на ниже среднем уровне. Вместе с тем, обладателями среднего уровня развития интеллектуального структурного компонента профессионально-важных качеств являются 31,6 % (80 чел.) обследованных. Соответственно, на должном уровне (выше среднем уровне) было выявлено 25,7 % (65 чел.) студентов-психологов (рис.3).




Рис. 3 Современное состояние развития интеллектуального структурного компонента профессионально-важных качеств (n=253)

Выводы: Данные действия позволили исследовать современное состояние развития профессионально-важных качеств студентов-психологов и соответственно констатировать, при этом, у 42,7% респондентов был выявлен крайне недостаточный уровень (ниже среднего) развития психодиагностического исследования интеллектуального

структурного компонента профессионально-важных качеств современного психолога. Данные показатели с одной стороны подтверждают актуальность темы настоящего исследования, а с другой – выделяют практическую потребность в подготовке действенных средств развития профессионально-важных качеств в процессе подготовке будущих психологов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бендюков М.А., Соломин И.Л. Ступени карьеры: азбука профориентации. - СПб.: Речь, 2006. - С. 76-87.
2. Бузин В.Н. Краткий ориентировочный тест. // Практикум по психодиагностике. Конкретные психодиагностические методики. М.: МГУ, 2001. - С. 112-126.
3. Быкова Е.А. Становление профессионально-важных качеств будущего психолога на этапе обучения в ВУЗе. // Актуальные проблемы образования: первые шаги в социум: Материалы IV Всероссийской межвузовской научно – практической конференции 27 февраля 2006г., ЧГПУ. - Челябинск, 2006. - С. 200-205.
4. Григорович Л.А. Введение в профессию «психолог»: Учебное пособие. - М.: Гардарики. - 2006. - С. 92-118.
5. Красавцева Л.Е. Профессиональные качества будущего психолога. // Методология, теория и практика психологии труда: коллективная монография. - Тверь: Лилия Принт, 2005. - С. 63-66.
6. Крупенин А.В. К вопросу о профессионально-значимых интеллектуальных качествах психолога-практика. // Журнал прикладной психологии. - 2002. - №2. - С. 167-170.
7. Тертычная В.В. Актуализация интеллектуально-личностных характеристик студентов-психологов как субъектов саморазвития. // Актуальные проблемы гуманитарных наук. Материалы научно-практической конференции.



- Альметьевск: Изд-во ИИЦ АГИМС. - 2012. - С. 52-56.

8. Хорошилова Н.С. Введение в профессию семейный психолог: Санкт-Петербургский государственный университет культуры и искусств. - СПб.: Изд-во СПбГУКИ. - 2010. - 28 с.

SUDDA HUKM CHIQARISH VA UNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

*Nishanov Sanjar Yuldibaevich,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada sud jarayonining o'tkazilishi, jinoyatchiga odil hukm tayinlash, hukm tayinlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning o'rniga o'ldirilgan masalalar yoritilgan. Sudda hukm chiqarishning psixologik jihatlari shaxs individual psixologik xususiyatlariga bog'langan holda tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: sud, sudya, jinoyatchi, jazo, hukm, sud majlisi, advokat,

ВЫНЕСЕНИЕ ПРИГОВОРА В СУДЕ И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

*Нишанов Санжар Юлдыбаевич,
соискатель Ташкентского государственного педагогического
университета имени Низами*

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы проведения судебного процесса, назначения правосудия преступнику, роль факторов, влияющих на процесс вынесения приговора. Психологические аспекты вынесения приговора в суде анализируются применительно к индивидуально-психологическим особенностям человека.

Ключевые слова: суд, судья, преступник, наказание, приговор, судебное заседание, адвокат, прокурор.

JUDGMENT IN COURT AND ITS PSYCHOLOGICAL ASPECTS

*Nishanov Sanjar Yuldibaevich,
independent researcher of Tashkent State Pedagogical University named after
Nizami*

Annotation: this article covers the issues of the conduct of the trial, the appointment of a fair sentence to the offender, the role of factors affecting the process of appointing a sentence. Psychological aspects of sentencing in court are analyzed in relation to individual psychological characteristics of a person.

Keywords: Court, Judge, criminal, punishment, sentence, court session, lawyer, prosecutor.

Kirish. Sudda jinoyat ishini ko'rib chiqishda ishtirok etgan barcha shaxslarning psixik faoliyati bilan bog'liq qonuniyatlarni, shuningdek sud jarayoni va hukmning sudlanuvchiga va boshqalarga tarbiyaviy ta'sirini, jamoatchilik fikrini sud jarayoniga ta'sir etuvchi omil sifatida rolini o'rganadi.

Ishni sud majlisida ko'rib chiqishning rejalashtirilgan ketma-ketligi sud majlisi ishtirokchilari tomonidan uning to'g'ri idrok etilishini, ko'rib chiqilayotgan hodisaning haqiqiy dinamikasini aks ettirishini ta'minlashi kerak. Sudya factlar nuqtai nazardan «zaif» joylarni aniqlaydi va zarur sud-tergov harakatlarini belgilaydi. «Asosiy» faktlar manbalariga, ularning ichki muvofiqligiga alohida e'tibor beriladi. Ularning tasodifiy ro'y berish ehtimoli tahlil qilinadi. Sud majlisiga chaqirish uchun shaxslar doirasi aniqlanadi. Barcha kerakli hujjatlar talab qilinadi.

«Hukm sud jarayonining oxirgi, yakuniy qismidir. Sud muhokamasining ushbu qismida sudning kognitiv-baholash faoliyati yakunlanadi. Bu yerda to'g'ridan-to'g'ri sud jarayonida sodir bo'lgan barcha hodisalar-prokuror va himoyachining pozitsiyasi, jabrlanuvchining, alohida guvohlarning va sudlanuvchining xatti-harakatlari hisobga olinadi. Sudyalarning pozitsiyasida harakatsiz bo'lgan xulq-atvor omillarining butun

majmuasini sud ijtimoiy persepsiyasi deb atash mumkin».

Hukm chiqarishda sud maslahatxonasi - rasmiy-norasmiy guruh faoliyatidir. Bir tomondan, yig'ilish muayyan masalalar ro'yxatini hal qilishi kerak, boshqa tomondan, sudyalarning hay'atining har bir a'zosi o'z pozitsiyasini egallashi mumkin.

Sud jarayonida qo'yilgan barcha savollarga qat'iy ijobiy yoki salbiy javob berilishi kerak (ha, yo'q). Barcha masalalar oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi. Hakamlar hay'ati a'zolaridan har biri o'z fikrini bildirishi mumkin, raislik qiluvchi oxirida so'zlaydi.

Sud hukmi faqat sud majlisida ko'rib chiqilgan dalillarga asoslanib chiqaradi. Dastlabki fikrlar faqat ishonchli aniqlangan dalillarga asoslangan bo'lishi mumkin. Muayyan holat umumiy huquqiy holat bilan bog'liq. «Rad etish mumkin bo'lmagan barcha shubhalar sudlanuvchi foydasiga talqin qilinadi. Sudlanuvchining o'z aybini tan olishi sud hukmini faqat sud majlisida belgilangan boshqa dalillar to'plami bilan tasdiqlangan taqdirdagina asos bo'lishi mumkin. Sudyalarning yig'ilishida sud qaroriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha masalalar muhokama qilinadi. Yig'ilishda dalillar majmuasi umumiy ravishda baholanadi.

Ba'zi hollarda, dalillarni yuzaki o'rganish natijasida sud xatolariga yo'l qo'yiladi, natijada asossiz ogir va engil hukmlar chiqarilishi mumkin. Qonunda hukm tuzilishi uchun bir qator umumiy talablar belgilangan. «Hukm quyidagi qismlardan iborat:»

- kirish qismi;
- tavsiflovchi qismi;
- qaror qismi.

Metod. Hukm sudyalardan biri tomonidan tuziladi. Hukm barcha sudyalarning tomonidan imzolandi (alohida fikr yozma ravishda bayon qilinadi). Hukm ommaviy, tushunarli iboralarda tuziladi. Undagi jinoiy harakatning tavsifi sud tomonidan belgilangan faktlarga muvofiq bo'lishi kerak. Oqlov hukmida oqlanganlarning aybsizligini shubha ostiga qo'yadigan so'zlarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Sud qarorining asoslanishi dalillarni tahlil qilishni, ularning ba'zilarini hisobga olgan va boshqalarni rad etgan dalillarni o'z ichiga olishi kerak. Jazo to'g'risidagi qaror hukmi bajarishda hech qanday shubha bo'lmasligi uchun shakllantiriladi.

«Qonuniy, asosli, adolatli va tarbiyaviy jihatdan samarali hukm chiqarishning murakkab jarayoni sudyalarning chuqur tahliliy faoliyatini talab qiladi – ular ma'lum bir shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan aqliy nuqsonlarini belgilangan jazo chorasining aniq tuzatish imkoniyatlari bilan bog'lashga qaratiladi. Jinoyat-huquqiy jazo qasos olish harakati emas, balki qonunni buzgan shaxsni qayta ijtimoiylashtirish vositasidir».

Hukm chiqarish - sud muhokamasining yakuniy bosqichi bo'lib, u maslahat xonasida amalga oshiriladi. Maslahat xonasida sudning ishi faqat sudyalarning tarkibi o'rtasida yuzaga keladigan o'ziga xos munosabatlar sharoitida davom etadi. Bu vaqtda sudyalarning boshqa shaxslar bilan aloqa qila olmaydi, chunki bunday harakatlar qonun bilan qat'iy man etiladi. Bu sudyalarni barcha masalalarni muhokama qilishda aqliy faollik va e'tiborni kuchaytirishga, o'zlarining intrakollektiv munosabatlarini tenglik, sheriklik, ishonch tamoyillariga asoslashga majbur qiladi. Maslahat xonasida aytib o'tilgan psixologik qonuniyatlardan chetga chiqish qo'pol huquqiy xatolarga olib kelishi mumkin.

Kollegiallikni qat'iy cheklash sudyalarning maslahat xonasidagi faoliyati natijalari uchun javobgarlik hissini oshirishga yordam beradi, tashqi ta'sirlardan himoya qiladi. Kollegial muhokama sud tergov jarayonida sudyalarning har biri tomonidan qabul qilingan ma'lumotlar hissiy ta'sirining keskinligini pasaytiradi, ma'lumotni to'liq va aniqroq idrok etishni ta'minlaydi.

Uchrashuv eng muvaffaqiyatli davom etishi va ijobiy natijalar berishi uchun bu jarayonda sudyalarning faoliyatining ma'lum bir ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Jinoyat-protsessual qonuni sudyalarning yig'ilishini batafsil tartibga soladi. Jinoyat-

protsessual kodeksiga ko'ra hukm chiqarishda quyidagi yig'ilish tartibini belgilaydi. Raislik qiluvchi sud jarayonida Jinoyat-protsessual kodeksining 457-moddasida ko'rsatilgan tartibda savollar beradi. Har bir savol aniq va tushunarli tarzda berilishi kerak, shunda unga aniq (ijobiy yoki salbiy) javob berilishi mumkin. Sudyalarning hech biri javob berishdan bosh tortishga haqli emas. Raislik qiluvchining fikri sudning qolgan a'zolariga ta'sir qilmasligi uchun qonun bo'yicha u o'z fikrini eng oxirida bildiradi. Ushbu talab, muloqot qonuniyatlarini psixologik tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, agar ma'lum bir sohadagi mutaxassis guruhda muammolarni birgalikda hal qilish jarayonida bilimga ega bo'lsa, guruhning qolgan a'zolari ushbu mutaxassisning fikriga rozi bo'lishadi. Bunday holda, mutaxassis tomonidan ma'lum bir kuchli ta'sir kuzatiladi. Shuning uchun qonun raislik qiluvchi daliliy materialni muhokama qilish va baholash paytida o'z fikrini eng oxirida bildirish shart bo'lgan tartibni belgilaydi. Maslahat xonasida muhokama natijalariga ko'ra, qaror oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Amaliyotda sudning haqiqiy va asosli jamoaviy qarorini shakllantirishni kafolatlaydigan sudyalarning yig'ilishining bunday tartibini ishlab chiqilgan.

Barcha holatlarda sudyalarning yig'ilishi raislik qiluvchi tomonidan ishtirokchilarning fikrlarini aniqlashdan boshlanadi. Ularni tinglaganidan so'ng, sud raisi hal qilinayotgan masala bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Agar sudyalarning har birining shaxsiy fikrlari, e'tiqodlari o'z mazmuniga mos keladigan bo'lsa, unda jamoaviy fikr, sudning hukmi ularni aniqlash jarayonida shakllanadi. Bunday hollarda yig'ilish jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davom etadi va ikki qismdan iborat: birinchidan, savollar qo'yiladi va sudyalarning javoblari tinglanadi, ya'ni jamoaviy fikr shakllanadi, so'ngra ushbu fikr asosida qaror qabul qilinadi.

Bu individual dalillarni yoki ularning umumiylikini baholashda aniq farqlarni aniqlashga imkon beradi.

Ayrim sudyalarning fikrlari mazmunidagi qarama-qarshiliklar aniqlanganda, kimdir boshqalarni o'z qarashlarining to'g'riligiga ishonitirish, o'z fikrlarining to'g'riligini himoya qilish, isbotlash, yolg'on deb hisoblangan qarashlar va fikrlarni rad etish zarurati tug'iladi. Faktlar, holatlar o'rtasidagi zarur bog'liqlikni ishonchli tarzda isbotlash qobiliyati har bir sudya uchun juda muhim va zarurdir. Sudya sudning boshqa a'zolari uning nuqtai nazariga e'tiroz bildirganda isbotlashga murojaat qiladi.

Bunday psixologik muhitda yuzaga keladigan munozarali vaziyatlarni muhokama qilish ob'ektiv jamoaviy qaror qabul qilishga yordam beradi. Jamoaviy qarorni ishlab chiqish shuni ko'rsatadiki, sudning butun tarkibi yoki uning aksariyati ishning o'rganilgan holatlari haqiqatiga ma'lum bir munosabatni rivojlantirgan. Ushbu psixologik holat, anglanganlik va aniqlik bilan ajralib turadi, ko'rib chiqilayotgan ish bo'yicha jamoaviy qaror qabul qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. U maslahat xonasida qabul qilinadi va sudlanuvchini hukm qilish yoki uni oqlash yoki ishni qo'shimcha tergovga yuborishga olib keladi.

Qabul qilingan qarorning xususiyatiga qarab tegishli hukm tuziladi. Shunday qilib, agar sudlanuvchining aybsizligi to'g'risida fikr shakllansa, uni oqlash yoki ishni qo'shimcha tergovga yuborish to'g'risida qaror qabul qilinadi, bu esa oqlov hukmi yoki ajrimini tuzishga olib keladi.

Sudlanuvchining aybdorligiga ishonish uni hukm qilish va unga jinoiy jazo tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishga olib keladi, buning uchun ayblov hukmi tuziladi. Ushbu va boshqa barcha holatlarda protsessual hujjatning asosi sudning jamoaviy e'tiqodidir. Uning mazmuni protsessual hujjatning tegishli turini ham belgilaydi. Shu sababli, sud qarorining mazmuni tuzilgan hujjatda yetarlicha aniq va to'g'ri ifodalanishi muhimdir. Sudlanganlik hukmini tuzishda, bu sudyalarning fikriga ko'ra, sudlanuvchi sodir etgan jinoiy harakatning holatlarini qisqacha va izchil bayon qilish orqali amalga oshiriladi.

Maslahat xonasida sudyalarning nafaqat sudlanuvchining aybi to'g'risida xulosa

chiqarishlari, balki unga nisbatan jazo chorasini ham aniqlashlari kerak. Belgilangan qonun normasining sanksiyasiga asoslanib, sud tarkibi jazo chorasini masalasi hal qiladi. Bu masala faqat sudlanuvchining shaxsini chuqur va har tomonlama o'rganish asosida hal qilinishi mumkin.

Axloq tuzatish muassasasida ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganida, ozodlikdan mahrum qilish muddatini belgilashda, sodir etilgan jinoyatning og'irligi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy xavfi bilan birga, sud sudlanuvchi shaxsining ijtimoiy e'tiborsizligi darajasini ham hisobga oladi.

Xulosa. Sudlanuvchining ruhiy holati huquqiy psixologiyaning alohida, katta muammosidir. Sud majlisining qat'iy tartibga solingan, rasmiy tartibi barcha ishtirokchilarga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Sudlanuvchiga sudning holati stressli ta'sir ko'rsatishi, ruhiy shokni, hatto katarsis holatini keltirib chiqarishi mumkin - shaxsni ichki qayta qurish, o'zini o'zi tozalash, kelajakda xatti-harakatlarni strategik qayta yo'naltirish. Bu sud majlisining jinoiy xatti-harakatlarini ayblanayotgan shaxs uchun ahamiyati.

Sudyalarning adolatli va to'g'ri xulq-atvori muhim ahamiyatga ega. Suddan adolatli qaror kutilmoqda, ammo jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi bu adolatni boshqacha ifodalaydi. Mahkumning yengil jazoga bo'lgan umidi kuchli. Uning o'zini oqlaydigan tendensiyasi jazoni yengillashtirishga chaqiradi. Faqat sudlanuvchi «aybini yumshatadigan» hamma narsani yaxshi biladi. Ammo, qoida tariqasida, hukm uning umidlarini puchga chiqaradi.

Ko'pgina sudlanuvchilar uchun uzoq muddatli izolyatsiya uchun qattiq hukm hayot falokati, hayot umidlarining puchga chiqishidir. Uzoq vaqt davomida erkinlikni yo'qotib, inson aslida hayotning o'zi bilan xayrlashadi, hayotning ma'nosini yo'qotadi.

Chiqarilgan hukmning mohiyati qonunning ob'ektiv talablarini ham, sudyaning sub'ektiv fikrlarini ham aks ettiradi. Sudyaning o'rganilayotgan harakat va sudlanuvchining shaxsiga bo'lgan fikri dastlabki tergov materiallari, sud jarayoni, himoya va ayblov fikrlarini o'rganish jarayonida shakllanadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Jinoyat-protsessual Kodeksi/ <https://lex.uz/acts/-111460>.
2. Дагель П. С., Овчинников Н. И. // Правоведение. -1976. - № 4. - С. 82 - 89
3. Чуфаровский Ю.В. Юридическая психология. Учебное пособие. - М.: Право и Закон, 2008.
4. Шиханцев Г.Г. Юридическая психология. – М. 2005.



BOLA SHAXSI VA XULQ-ATVORI SHAKLLANISHIDA MULOQOTNING AHAMIYATI

*Norbosheva Maqsuda,
Termiz Davlat Universiteti psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yosh davrida muloqot jarayonining shakllanishi, bola shaxsi va xulq-atvori shakllanishida muloqotning ahamiyati, psixolog olimlarning bola muloqotini rivojlantirish masalalariga doir fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar; bola shaxsi, xulq-atvor, muloqot, bola.

ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ И ПОВЕДЕНИЯ РЕБЕНКА

*Норбошева Максуда,
старший преподаватель доктора философии(PhD) по психологии
Термезского государственного университета*

Аннотация. в данной статье становление процесса общения в дошкольном возрасте, значение общения в формировании личности и поведения ребенка, а также мнения психологов о развитии детско-го общения.

Ключевые слова; личность ребенка, поведение, общение, ребенок.

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY AND BEHAVIOR OF THE CHILD

*Norbosheva Maqsuda,
senior lecturer of doctor of philosophy(phd) in psychological sciences, termez
state university*

Annotation. In this article, the formation of the process of communication in preschool age, the importance of communication in shaping the personality and behavior of the child, as well as the opinions of psychologists on the development of children's communication.

Kirish. Zamonaviy dunyoda psixologiyada maktabgacha yoshdagi bola xulq-atvori va ruhiyatining shakllanishida shaxslararo munosabat va muloqot g'oyat katta o'rin egallaydi, degan yondashuv yetakchilik qilmoqda. Yoxud, aynan muloqotda bolaning rivojlanayotgan shaxs sifatidagi faolligi namoyon bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida muloqot jarayonining shakllanishi muhim masalalardan ham hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida muloqot jarayonining shakllanishi muhim masalalardan hisoblanadi. Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhim shakli bo'lib hisoblanadi. Muloqot yordamida kishilar turli xil faoliyatni tashkil etadilar, axborot almashinadilar, o'zaro bir-birini tushunishga erishadilar. Birgalikdagi faoliyat muloqot bo'lishini talab etadi. Aynan birgalikdagi faoliyatda inson boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi, ular bilan turli-tuman aloqalar o'rnatadi, zarur natijaga erishish uchun birgalikda harakatlar qiladi. Bu yerda muloqot faoliyatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Faoliyatning barcha turlarida muloqot uni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir.

Shaxsiy muloqot motivlari bu – bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga acta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni

egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini ko'rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi.

Katta maktabgacha yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o'rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bola shaxsining rivojlanishida muloqot katta ahamiyatga ega. Muloqotsiz shaxsning tarkib topishi, shakllanishi mumkin emas. Aynan muloqot jarayonida tajriba o'zlashtiriladi, bilimlar to'planadi, amaliy ko'nikma va malakalar shakllanadi, e'tiqod va qarashlarga erishiladi. Faqat muloqot jarayonlaridagina ma'naviy ehtiyojlar, axloqiy, siyosiy va estetik hislar tarkib topadi, xarakter shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Muloqot va o'z-o'zini anglash insoniyat ongini azaldan tashvishga solgan ikki muhim masaladir. Odamlar yolg'izlikni o'z hayotlariga ta'sirini his qilishadi va bundan azob chekishadi. Bu haqiqatni mashhur yozuvchi Antuan de Sent-Ekzyuperi: «Haqiqiy halovat - bu odamlarning muloqoti halovati!» - deydi. Muloqot bolaning dunyoga kelishi bilan darhol vujudga kelmaydi. Balki asta-sekin tarkib topa borib, bola 2 oylik bo'lganida namoyon bo'ladi. Muloqot normal nerv faoliyatiga ega bo'lgan barcha bolalarda yetarli tarbiya sharoitlarida mavjud bo'ladi. Go'daklik davri muloqot uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, bu davr davomida bola kattalarni ajratishga o'rganadi. Diqqatni katta kishiga qarata olish tarkib topayotgan muloqotning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Demak, muloqot maqsadga qaratilgan tarbiya asosida rivojlantirilishi zarur.

Bolalarni yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri mashg'ulotdir. Bolani maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga o'rgatadi. Avval elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullarni tarkib toptiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa, o'zining asosiy vazifasi etib har bir bola shaxsini maksimal rivojlantirish va uni keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta'minlash maqsadida muassasada ijobiy psixologik mikroiklim va sharoit yaratishni belgilaydi. Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa esa -bu katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvdir. To'g'ri yo'sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo'yishga tayyor bo'ladi. Maktabgacha, maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxsga ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil qilish orqali muloqotga o'rgatiladi. Shaxsning o'zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki shaxs muloqotda bo'lmasdan faoliyat sub'ekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to'laqonli rivojlana olmaydi.

Ta'lim jarayonining asosida ham muloqotga o'rgatish masalasi birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, ijod va mehnat jarayonida ham kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. Tajribali psixolog A.A. Bodalev fikricha, hatto o'yin faoliyatida bola muloqotda bo'ladi. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonning dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi, ya'ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi[4].

Shaxsning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali ham uni muloqotga o'rgatish oson ro'y beradi. Shu maqsadda tarbiyalanuvchilarga ularning insoniy muloqot, inson shaxsi, bir-birini baholash xususiyatlari («men va boshqalar», «men boshqalarning ko'zi bilan») to'g'risidagi mulohazalarini rag'batlantiruvchi axborotni berish zarur. Uni hikoyalar, suhbatlar, treninglar orqali uyushtirish mumkin. Maxsus mashqlar orqali muloqot usullariga o'rgatish shunga taalluqlidir.

Ilk yoshlik paytida o'z ruhiy holati haqida xayol surish kuchaygan, muloqot juda ahamiyatli va g'oyat tanlab o'tkaziladigan yoshda inson shaxsi, shaxslararo muloqot to'g'risidagi axborot zarurdir. Ba'zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo'lish uchun o'zidagi eng yaxshi narsalarni yashirishga, buzishga majbur etadi[2].

Nutq bilan ishlash orqali ham muloqotga o'rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she'r o'qish, hikoyani gapirish kabi treninglar ham muloqot shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ayniqsa, o'yin faoliyati davomida muloqotga o'rgatish oson kechadi. Muloqotga o'rgatishda o'yin va xalq og'zaki ijodi, muloqot odobi shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta:

1. Ta'lim faoliyatiga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paytda didaktik, ijodiy, syujetli rolli o'yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini tarbiyachi emas, bolalardan biri bajarishi, ijodiy o'yinlarni tashkil etish orqali bolalarni muloqotga o'rgatish. Jumladan, "xola-xola" "do'kon-do'kon", "maktab-maktab" kabi syujetli rolli o'yinlar orqali bolalarda muloqot odobi va madaniyatini o'rgatish.

2. E'tiborni javobning ijobiy jihatlariga qaratish. Bolalar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o'rgatiladi, ayni paytda mayda-chuydalargacha e'tiborni qaratib, o'rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatishni o'rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish, ya'ni kamchilikni bitta tarbiyalanuvchining o'ziga aytish orqali ta'sir qilish.

3. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos xususiyatga ega. Sharq tarbiya maktabida bolalarni muloqot odobiga o'rgatish orqali, ularda yuksak shaxs sifatlarini shakllanishiga erishilgan. Bunda, salomlashish odobi, uzr so'rash, ruxsat so'pash, mehmon kutish va mehmonga borish odobi, keksalar o'git va pand-nasihatlariga quloq tutish, kattaga hurmat va kichikka izzat ko'rsatish tamoyillari asosida bolalarni maktabgacha yosh davridanoq ijtimoiy munosabatlarga hamda muloqot madaniyatiga tayyorlab borilgan[2].

Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ham bolalarda go'zal xulq sifatleri, xususan muloqotda yuksak sifatlarni namoyon etishga o'rgatilgan. Shunday vositalardan biri so'z o'yinlaridan "yarashtirgichlar" bolalar orasida o'zaro ahillik, do'stona munosabatlar asosidagi muloqot timsoli sifatida qo'llaniladi: Karimga berdim toychoq, u olavermadi har choq, Toychog'imni kim olca, men u bilan chin o'rtoq. Yalinchoq-yalinmachoq, pista po'choq, qilichmi, to'qmoq - qirq yilgacha o'rtoq, To'qmoq- to'qson yilgacha o'rtoq!

Bola shaxsining uyg'un shakllanishi uchun o'yinning ahamiyati beqiyosdir. Bola o'yin yordamida ba'zi maqsadlarni belgilashni o'rganadi va ularga erishishga intiladi. O'yin bolada ixtiyoriy aqliy jarayonlarni rivojlantiradi (xotira, diqqat va boshqalar). O'yinda emosional dalda berish bola uchun qo'shimcha rag'batga aylanadi. O'yin davomida mantiqiy nutq, muloqot, nozik qo'l harakatlarini, shuningdek, obrazli va mavhum fikrlashni rivojlantirish osonlashadi. O'yin – bu bolaning o'zini namoyish qilishi, takomillashtirish usulidir.

Tahlil va natijalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish xususida Masaru Ibuka "Uch yoshdan keyin kech bo'ladi" asarida bola shaxsini erta rivojlantirish masalasiga o'ziga xoc yondashadi. Biz har doim bolalar haqida hamma narcani bilamiz deymiz, lekin aclida biz ularning real imkoniyatlari haqida deyarli hech narsa bilmaymiz, ko'pincha biz o'z diqqatimizni 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga nimani o'qitishga ajratamiz. Lekin tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, bu yoshga kelib miya to'qimalarining rivojlanishi 70-80% yakunlanadi, eng asosiysi – yangi tajribaning "o'z vaqtida" kiritilishidir, lekin bu "o'z vaqtida"ni faqatgina bolaga har kuni g'amxo'rlik qiladigan kishi, eng ko'p ona, bo'lishi mumkin-deydi. Ijukaning mazkur qo'llanmasida oilada

va ta'lim muassasalarida ota-ona, tarbiyachi, psixologlar bola bilan o'rnatadigan muloqotlar jarayonida bolaning potensial imkoniyatlariga katta e'tibor berishlari lozimligini quyidagicha ta'kidlaydi:

- bolaning miyasi chegarasiz axborotlarni joylay oladi;
- bola faqat o'ziga qiziqarli bo'lgan axborotlarinigina eslab qoladi;
- bolalikda tushunmagan narsalarni katta bo'lganida hayotga tatbiq eta olmaydi;
- bugungi bola kechagiga nisbatan umuman boshqacha;
- “bir qoshiq qora moy, bir xum asalni ham buzishi mumkin”, bu bolalarga ham tegishli;
- rag'batlardan ajralgan xona - bola uchun zarar;
- ilk bolalikning taassurotlari bolaning keyingi fikrlash va harakatining obrazini belgilaydi;
- bolaga be'e'tibor bo'lish uni taltaytirishdan ham yomonroq;
- bolaning qo'rquvi kattalar tacavvur ham qila olmaydigan narsalarda yashirinadi;
- yangi tug'ilgan bola ota-onaning janjalini sezadi, ota-onaning asabiyligi yuqumli;
- ota bolasi bilan tez-tez muloqot qilishi kerak;
- oilada bolalar qancha ko'p bo'lsa, ular shuncha yaxshi o'zaro muloqotda bo'lishadi;
- buvi va buvaning bo'lishi bola rivojlanishi uchun yaxshi muhit yaratadi;
- bolalarning o'zaro muloqotini rag'batlantirish kerak;
- tortishuvlar bolaning muloqot qilish xususiyatini oshiradi;
- boladagi yovuzlik va hasad - bu uning kuchsizligini ifodalaydi;
- boshqa odamlarning oldida bolangizning ustidan kulmang;
- bolani urushgandan ko'ra maqtagan afzal.

Shu o'rinda yapon muhandisining ba'zi fikrlari bilan bizni o'zbek xalq maqollarimizni solishtirib o'tamiz:

-“Bir qoshiq qora moy, bir xum asalni ham buzishi mumkin”, bizda “Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi” yoki “Birniki mingga, mingniki olamga”;

-bolaning qo'rquvi kattalar tasavvur ham qila olmaydigan narsalarda yashirinadi, bizda “Ona qilsa zo'rlikni, bola tortar xo'rlikni”; -oilada bolalar qancha ko'p bo'lsa, ular shuncha yaxshi o'zaro muloqotda bo'lishadi, bizda “Yolg'iz bola yig'loq bo'lar, yolg'iz tuya - baqiroq”.

Bolaning kattalar bilan kommunikativ o'zaro aloqasi ulardagi hissiyotlarning shakllanishiga olib keladi, ular ma'lum bir jamiyatda odatda qabul qilingan stereotiplarga mos keladi. Bola shaxsini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, og'zaki ta'sir o'tkazish natijasida rivojlangan uning hissiy sohasidagi yangi shakllanishlari nafaqat kommunikativ faoliyat chegaralarida qolmaydi, balki shaxs xususiyatlarini umuman boyitadi.

M.I.Lisina psixologiya fanida birinchilardan bo'lib muloqotni o'rganishga maxsus kommunikativ faoliyat sifatida yondoshdi va birinchilardan bo'lib izchil rivojlantirib bordi hamda ushbu faoliyatning konseptual diagrammasini ishlab chiqdi, ilk bor bolalardagi muloqot genezisining tizimli va chuqur tahlilini o'tkazdi, muloqotning sifat bosqichlari (shakllari), harakatlantiruvchi kuchlari, bolaning umumiy hayoti bilan aloqasi, bolalarning umumiy rivojlanishiga ta'siri va bu ta'sir usullarini yoritdi. Muloqotga kommunikativ faoliyat sifatida yondashib, hayotning dastlabki yetti yilida bolalar muloqotining o'ziga xos xususiyatlarini ikki yo'nalishda aniqlashga imkon berdi: -atrofdagi odamlar-kattalar va tengdoshlari bilan, shuningdek, ularning har birining ruhiy holatida va bolaning shaxsini shakllantirishdagi alohida rolini ko'rib chiqdi. M.I.Lisina bolaning atrofidagi odamlar bilan muloqotining uning aqliy rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, aqliy rivojlanishning umumiy nazariyasini yaratishga katta hissa qo'shdi, uning muhim mexanizmlarini ochib berdi, muloqotni uni belgilovchi omil sifatida taqdim etdi[1]. Maktabgacha yosh davrida muloqotning kommunikativ faoliyat sifatida shakllari, integral xususiyatlari va mezonlari mavjud



bo'lib, quyidagicha tavsiflanadi: -Bola shaxsini shakllantirish bu ta'lim, ijtimoiylashuv va o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni va natijasidir. Shaxsiy shakllanishda asosiy rol, albatta, oilaga tegishli. Darhaqiqat, bola oilada to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish uchun xatti-harakatlarning dastlabki o'zgarishlarini ko'radi, atrof-muhitning birinchi reaksiyasi bilan tanishadi. Ijtimoiy va shaxsiy tajribaning yetishmasligi tufayli chaqaloq o'z xatti-harakatlarini va boshqa shaxslarning shaxsiy xususiyatlarini baholay olmaydi.

Xulosa. Bugungi kunda psixologlar va o'qituvchilarning aksariyati xulq-atvorning barcha fazilatlarini, ular salbiy yoki ijobiy bo'lishidan qat'i nazar, bola tomonidan ega bo'lishini ma'qullaydi. Erta bolalik davrida bolada shaxsiy fazilatlarining uchta asosiy guruhi, ya'ni motivasion, uslubiy va instrumental fazilatlarining o'rnatilishi amalga oshiriladi. Bunda ularning paydo bo'lish ketma-ketligi rivojlanishning asosiy davrlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лисина М.И. Проблемы онтогенеза общения. -М.: Педагогика,1986.-144 с.
2. Масару Ибука. После трёх уже поздно. – М.: Педагогика. 1991-120 с.
3. Nishanova Z.T. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. –Т., 2011. – 248 б.
4. M.Norbosheva.Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida muloqotning o'rni. Pedagogika va psixologiyada innovasiyalar 9 (3), 7

YOSH RAHBARLARDA QAROR QABUL QILISHNING IJTIMOIIY - PSIXOLOGIK QIRRALARI

Nurmatov Nurhayot Nurhayot o'g'li,
Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur maqolada yosh rahbarlar psixologiyasiga tegishli ayrim jihatlar, xususan muhim vaziyatlarda qaror qabul qilishning o'ziga xos psixologik tomonlari, ijtimoiy - psixologik qirralari hamda shaxsiy omillarini etiborga olish muamolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, rahbar etiketi, rahbar "meni", rahbarning o'z-o'zini anglashi, qaror qabul qilish, tajriba.

ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ МОЛОДЫМИ РУКОВОДИТЕЛЯ СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Нурматов, Нурхайёт Нурзият угли,
преподаватель кафедры психологии Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация: В данной статье выделены некоторые аспекты, связанные с психологией молодых руководителей, в частности, специфические психологические аспекты принятия решений в ответственных ситуациях, социально-психологические аспекты, проблемы учета личностных факторов.

Ключевые слова: менеджмент, руководителски этикет, руководителски «Я», руководителски самосознание, принятие решений, опыт.

DECISION-MAKING IN YOUNG LEADERS SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS

Annotation: In this article, some aspects related to the psychology of young leaders, in particular, the specific psychological aspects of decision-making in important situations, social-psychological aspects, and the problems of taking into account personal factors, are highlighted.

Keywords: Management, leader label, leader «me», leader's self-awareness, decision-making, experience.

Yangilanayotgan O'zbekiston dunyo hamjamiyatidan o'ziga xos o'rinni egallashga intilayotgan ayni davrda uning nufuzini oshirish va namoyon etishda yoshlarning o'rni beqiyosligi davlatimiz yetakchisi tomonidan tez-tez qayd etilmoqda. Bugungi kunda yoshlarni rahbarlik lavozimida faoliyat ko'rsatishlari oddiy holga aylanib borayotganligining sababi, yoshlar tomonidan zamonaviy texnikani tez o'zlashtirishlari va ijtimoiy muhitga moslashishlari osonligi desak, xato bo'lmaydi.

Shuni alohida takidlashimiz lozimki, XXI- asrning ikkinchi choragi yakunlanish arafasida dunyo sotsiologlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra jahon hamjamiyatini boshqaruvda faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlarning o'rtacha yoshi o'tgan asrga nisbatan qariyb 50 - foizga yoshargan, mazkur ko'rsatkich mamlakatimizda ham aks etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Yosh davrlari bo'yicha o'zbek psixologiyasida salmoqli tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri E.G'.G'ozievning fikriga ko'ra "Yoshlik davri 23–28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir" [1, 147-b].

Boshqaruv psixologiyasida yosh rahbar deganda yigirma uch va yigirma sakkiz yoshdagi rahbarlik lavozimini bajarayotgan mas'ul shaxslar tushuniladi.

Bu davrning o'ziga xosligi shundaki, mazkur davrda bilimlar ko'p bo'lishi va yetarlicha o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin, ammo yosh rahbarlarda tajribaning yetarli bo'lmasligi ularning ish jarayonida o'ziga xos muammoli vaziyatlarga duch kelishiga sabab bo'lishi mumkin.


Ayni shu yo'nalishdagi adabiyotlar tahliliga tayanib aytish mumkinki, boshqaruv psixologiyasi rahbarlar faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqaruvchining ishi uning ehtiyoj yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u rahbar darajasiga ko'tarilganligi, o'z ishini qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshira olishi, buning uchun u boshqaruvning qaysi usullaridan foydalanayotganligi, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida qanday ta'sir uslublarini qo'llayotganligi kabi qator masalalarga qaratadi.

Rahbar bo'lish istagi ko'plab kishilarda mavjud bo'lib, ularning bu masalaga qiziqishining va munosabatlarining motivi turlichadir: kimdir rahbarda bo'lgan imtiyozlarga qiziqadi, kimdir unga berilajak huquqlarni afzal ko'radi, kim uchundir yuksak ma'suliyatlarni bo'yniga olish ma'qul keladi. Shaxsning rahbarlik funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, rahbardan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi ko'plab sifatlar talab qilinadi.

Ayniqsa, rahbar uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir rahbar uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi rahbardan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, rahbarlik davrida shaxsning "Men"i takomillashib, u o'z "Men"ini angalshga yo'nalgan davr hisoblanadi, yani rahbar o'z "Men"ini boshqalarga ko'z-ko'z qilish bilan bir qatorda "Men"ligining ustun tomonlarini ham namoyish qilishga intiladi. Shunga ko'ra, aynan muhim vaziyatlarda jamoa nomidan qarorlar qabul qilishda yosh rahbarning rahbarlik qobiliyati va mahorati kutilmaganda namoyon bo'lish ehtimoli ortadi.

Yoshlik davrda rahbarlik masuliyati yuklatilgan yoshlar aksariyat hollarda ma'lum bir qarorni qabul qilishida turli qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy hol. Yosh rahbarlarning qaror qabul qilishiga ta'sir etadigan o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlar mavjud bo'lib, ularni quyidagi tarzda aks etirish mumkin:



1- rasm. Yosh rahbarlarda qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi psixologik omillar.

Boshqaruv psixologiyasida ta'kidlanishicha, rahbarning "Men"i boshqaruv jarayonida shaxslilik sifati orqali jamoaga namoyon bo'ladi va uning o'zini namoyon qilishini jamoa tan olsagina, bunday rahbar o'z jamoasida lider sifatida ko'zga ko'rinadi.

Rahbarga xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon etishda asosiy psixologik komponent bilim va tajriba rahbarning "Men"ligini aks ettiradi shu sababli ham yosh

rahbar o'z sohasi va boshqaruv bo'yicha bilimni namoyon etishi lozim, buning uchun esa o'zidan avvalgi rahbarlar tajribasini o'rganishi tavsiya etiladi. Buning uchun esa rahbar ma'lum bir jamoaga saylanganidan yoki tayinlanganidan so'ng tajribali xodimlar bilan tez-tez uchrashishi, suhbatlashishi, maslahat olishdan tortinmasligi kerak bo'ladi.

Achinarli tomoni shundaki, ba'zi rahbarlar muhim masalalarni hal etishda, ayniqsa, lavozimga biror shaxsni tayinlashda "men rahbarman, demak, mening aytganim-aytgan, deganim-degan bo'lishi shart", deb o'ylaydilar. Natijada, u yoki bu lavozimga ba'zan ma'naviy noloyiq, siyosiy shakllanmagan kishi tayinlanib qolish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin. Oqibatda mahalliychilik, oshna-og'aynichilik, tanish-bilishchilik kabi jamiyat ishiga xalaqit beradigan illatlar ildiz otadi va bunday sharoitda rahbar uchun ham, jamoa uchun ham noqulay psixologik vaziyat vujudga keladi va buni tuzatish ancha murakkab jarayonga aylanadi [3; 10- b]

Boshqaruv psixologiyasida rahbar yuritayotgan faoliyatni va tajribani 2 yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Faoliyatni boshqarishga nisbatan tajriba.
2. Shaxslarni boshqarishga nisbatan tajriba.

Yuqoridagi har ikkala tajriba ma'lum bir bilimlarga asoslanadi va rahbar shaxsining boshqalardan ajralib turishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologiyada rahbar shaxslarni emas, faoliyatni tashkil etib uni boshqarsa, ish samarasi ham, jamoadagi psixologik iqlim ham barchaga maqbul kelishi ta'kidlangan.

Ayrim hollarda yosh rahbarlar o'z bilimiga ishonib faoliyat yuritadi. Ammo uning mavjud bilimlari boshqaruv jarayonini tashkil etish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin va uning o'z ham bu bilimlar jamoani boshqarishda qay darajada muvaffaqiyatli bo'lishini amaliyotda tan olishni istamaslikligini ko'rish mumkin. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, bilim va amaliyotning mos kelishi nihoyatda qiyin bo'lishi bilan bir qatorda rahbarning mavqei ham katta ahamiyatga ega ekanligini albatta hisobga olish lozim. Bundan ko'rinadiki, rahbarning psixologik niqobi va psixologik portreti shakllanishi uchun yuqoridagi chizmada psixologik tavsifini bilish kerak bo'ladi.

Bilim va tajriba yosh rahbarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, ular orqali rahbar mazkur sohani yetuk mutaxassislaridan ekanligini namoyon eta olishi kerak bo'ladi. Qaror qabul qilishda esa nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashib, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoa xodimlari bilan maslahatlashishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari turli huquqiy qonun qoidalar bilan bir qatorda yozilmagan qonuniyatlar ham mavjudki, bu masalada jamoadagi huquqshunos bilan birgalikda qaror qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksariyat rahbarlar tajribasi uchraydigan xatolardan biri shuki, yosh rahbarlar qaror qabul qilishda uning huquqiy asosiga unchalik e'tibor qaratmaslik holatlari uchrab turadi.

Boshqaruv psixologiyasi yo'nalishida uzoq vaqt izlanishlar olib borgan I.Mahmudovning qayd etishicha: "Rahbarning boshqaruv qarori bilan bog'liq jarayonni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Qaror qabul qilish.
2. Qarorni bajarish uchun uni topshiriq sifatida yo'llash
3. Xodimlarni ijroga undovchi sharoitni yaratish.
4. Nazoratni amalga oshirish.

Odatda tashkilot yosh rahbari tomonidan qabul qilinuvchi qarorlar turlicha bo'lib, ularning yakkahokimlik, kollegial va jamoaviy turlarini farqlash mumkin" [2, 9- b].

Demak, har qanday rahbar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardan biri ma'lum vaziyatlarda qarorni qabul qilish jarayonida nihoyatda katta mas'uliyatni his etish va shunga ko'ra harakatlanish lozim.

Yosh rahbar faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo o'ziga, qolaversa uni qurshab turgan jamoaga bevosita bog'liq ekanligi barcha uchun tushunarlidir. Boshqaruv



psixologiyasi yo‘nalishida o‘tkazilgan tadqiqotlariga ko‘ra yosh rahbarning muvaffaqiyati rahbarlik etiketi yoki psixologik portretiga emas, balki uni qurshab turgan jamoaning psixologik holatiga bog‘liq bo‘ladi [2, 24-b].

Rahbar o‘z qobiliyati, iste‘dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o‘rganadi. Natijada to‘plagan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiy qonuniyatlari asosida shakllantirib, o‘z rahbarlik uslubini yaratadi. U o‘z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir, ammo uning rahbarlik uslubi ijobiy natija berishi kerak [3; 6-b]. Shunday ekan rahbar o‘z rahbarlik uslubini tanlayotganda jamiyatdagi norma va talablardan kelib chiqqan holda qaror qabul qilishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi sharoitda yoshlarni rahbarlik lavozimlariga saylash yoki tayinlash ijobiy jarayon bo‘lib, faqat rahbardan o‘z ustida ishlash, o‘z “Men”ini rivojlantirish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘nalish, o‘z ustidagi mas‘uliyatni jiddiy his qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziev E. G‘ Ontogenez psixologiyasi. T.: “Noshir”, – 2010
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. T.: “Yunaks – Print”, – 2006
3. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi – T.: Yangi asr avlodi, – 2016.

IQTISODIY PSIXOLOGIYA TARIXI VA UNI O'RGANISHNING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI

Omonov Sherali Ibroxim o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy psixologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi, iqtisodiy psixologiya predmetidagi asosiy kategoriyalar – iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulq haqidagi fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy psixologiya, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulq, iqtisodiy xulq psixologiyenasi.

ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЕЕ ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация: В данной статье описывается возникновение и развитие экономической психологии, основные категории предмета экономической психологии - экономическое сознание, экономическое мышление и экономическое поведение..

Ключевые слова: экономическая психология, экономическое сознание, экономическое мышление и экономическое поведение, психогигиена экономического поведения.

HISTORY OF ECONOMIC PSYCHOLOGY AND CONTEMPORARY PROBLEMS OF ITS STUDY

Abstract: This article describes the emergence and development of economic psychology, the main categories in the subject of economic psychology - economic consciousness, economic thinking and economic behavior..

Key words: economic psychology, economic consciousness, economic thinking and economic behavior, psychohygiene of economic behavior.

Psixologiyaning mustaqil tarmog' i sifatida iqtisodiy psixologiya XX asr boshlarida rivojlandi. Olimlar uning rivojlanish bosqichini nemis psixologi G.Myuneterberg nomi bilan bog'lashsa, rivojlanishning salmoqli bo'lagi hisoblangan marketing xizmatlarini esa fransuz sotsiologi Gorn Tard (G.Tarde; 1902) va amerikalik psixolog J.Katona (G.Katona, 1997) tomonidan amalga oshirilganligini ta'kidlaydilar. U o'z ichiga almashinuv, foydalanish va taqsimlash kabi psixologik muammolarni qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilgarigi iqtisodiy nazariyalarda ma'lum ma'noda psixologik yondashuv mavjud bo'lgan. Ayniqsa, bu an'ana fransuz iqtisodchilaridan J.Sismondi (1773-1842), P.Prudon (Proudhon; 1809-1865), T.Maltus (Malthus, Thomas Robert; 1766-1834), J.Sey (1767-1832), F.Bastia (1801-1850) asarlarida ishlab chiqarishda inson omili masalalarini hal qilish muammosi doirasida ma'lum darajada tahlil qilingan va hozirgi davrgacha saqlanib kelmoqda. Xususan, J.Keyns, U.Rostou (Rostow, Walt Whitman; 1916-2003), J.Gelbreytlarning ilmiy tadqiqot ishlarida iqtisodiyotni psixologiyalashtirish, uning tilida tahlillar berish an'anasi mavjud. Bu yondashuvlarning barchasida psixologiya bilan iqtisodiyotni bir-biriga yaqinlashtirish, ular o'rtasidagi muammolarni birgalikda hal etish g'oyasi ko'rib chiqildi. Asosan, mualliflarni psixologik omillar sifatida ishlab chiqarish va sanoatdagi iqtisodiy muammolar qiziqtirgan. Shaxsning mehnatga munosabati, undan qoniqishi, fikr va qarashlari, hissiyotlari, irodaviy xislatlari, intilishlari kabilarning iqtisodiy ko'rsatkichlarda aks etish darajasi muammosini har ikki fan uslublari yordamida

tahlil qilishga urinish bu mualliflarning deyarli barcha izlanishlariga xosdir.

A.Marshall nazariyasidagi asosiy g'oya shundan iboratki, iqtisodiyot rivojlangan sari ko'pchilik ishchilarning ahvoli yaxshilanib boraveradi. Zero, iqtisodiy qonuniyatlar barchaga taalluqli, ya'ni "hammamiz – bizmiz!".

Har qanday o'zini hurmat qilgan inson eng yaxshi fazilatlarini xo'jalik faoliyatiga bag'ishlashi, butun aql-zakatini ish faoliyatiga sarflashi kerak. Mazkur jarayondagi asosiy motiv – bu o'z xizmatlari uchun ma'lum tarzda tashqaridan rag'batlantirilishi, manfaatdor bo'lish imkoniyatidir. Mehnatdan olingan daromad har xil sarf qilinishi mumkin, ya'ni undagi hayotiy maqsad olijanob bo'ladimi yoki faqat shaxs manfaatlariga xizmat qiladimi (egoistik "Men") eng kuchli motiv – puldir. Shuning uchun ham inson bu yo'lda, eng og'ir, zerikarli, monoton ishning qiyinchiliklarini ham yengishga psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

G'arb nazariyotchilari orasida J.Gelbreyt nazariyasi, o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi, chunki unda ehtiyojlar muammosi alohida o'rin kasb etgan. U iqtisodiy munosabatlar masalasini ehtiyojlarning tabiatini tushuntirish orqali yoritishga harakat qilgan. Muallif o'z qarashlarida fiziologik hamda ijtimoiy ehtiyojlarga oid fikrlarni ilgari suradi. Uningcha, fiziologik ehtiyojlarga ochlik, sovuqdan saqlanish, boshpanaga ega bo'lish, og'riq bilan bog'liq ehtiyojlar kirs, ijtimoiy ehtiyojlarga esa, yon-atrofdagilardan kam bo'lmaslik, muvaffaqiyatga va tan olinishga erishish hamda mavqega ega bo'lish kabilar kiradi. Oxirgi ehtiyojlar esa uning fikricha, ko'proq ijtimoiy-psixologik bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlari rivojlangan sari, ularning roli va ahamiyati ortib boraveradi.

Iqtisodiy psixologiya rivojiga 80-yillarda rus olimlaridan A.Kitov, V.Popov, A.Filippovlar o'z ishlari bilan ulkan hissa qo'shdilar. Lekin bu olimlarning qiziqishlari ishlab chiqarish psixologiyasiga, xususan, undagi inson omillari va boshqaruv muammolariga yo'naltirilgan edi. Iqtisodiy psixologiyaning mehnat psixologiyasi, sanoat psixologiyasi va boshqaruv psixologiyasi kabi tarmoqlardan farqi shundaki, u ishlab chiqarishni o'rganishda bir yo'la ishlab chiqaruvchini va iste'molchini o'rganadi. Bu ikki xo'jalik muhitini birlashtiruvchi obyekt – ishlab topilgan pul, narx, soliq, foyda va boshqa iqtisodiy omillar sanalib, ular psixologik ma'no yoki mazmun tomonidan ham bir muncha o'ziga xoslikka egadir.

Iqtisodiy psixologiyada tarixiy izlanish va tahlillar odatda iqtisodiy hodisalarni ijtimoiylashtirish va psixologiyalashtirish doirasida amalga oshirilishi o'ziga xos an'anaga aylangan. Chunki iqtisodiyot ham, psixologiya ham o'ziga xos bo'lgan fanlar bo'lib, XX asrda bu ikkala fan sohasini birlashtirish, ular jipslashuviga erishish ehtiyoji har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Davlatlararo hamkorlikning kuchayishi XXI asr voqeliklari bilan bog'lanayotganligi, olimlar oldida turli tuzum sharoitida ro'y berayotgan iqtisodiy qonuniyatlarni to'laroq bilish, anglash, tahlil qilish vazifasini qo'yimoqda. Shu munosabatlardan kelib chiqib, avvalgi hamda hozirgi zamon chet el nazariyalariga yana bir xolis nazar tashlash, ulardan kerakli xulosalar chiqarish orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonini tezlashtirish mumkin. Bu o'rinda ushbu jarayonlar ishtirokchisi sanalgan shaxs psixologiyasiga bag'ishlangan nazariyalarning ahamiyati beqiyosdir.

Iqtisodiy psixologiya – turli vaziyatlarda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishish orqali xo'jalik yuritishni maqsad qilgan shaxslar, yaxlit guruh, jamoalarning iqtisodiy tafakkuri hamda iqtisodiy xulq-atvoriga aloqador umumiy qonuniyatlar va xatti-harakat mexanizmlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir xo'jalik subyekti ongida aks etishini o'rganadi. Ya'ni uning predmeti shaxs ongi, xulqida xo'jalik va ishlab chiqarish munosabatlarining aks etishi jarayonidir.

Demak, iqtisodiy psixologiya fan sohasi sifatida shaxsni ishlab chiqarish munosabatlarining subyekti va obyekt sifatida o'rganar ekan, avvalo, mehnatining mazmun-mohiyati, hamkorlik qilayotgan shaxslarga nisbatan munosabatlari, baholari,

fikr-o'ylari, his-kechinmalari, ijtimoiy ustanovkalari, kasbiy sifatleri, nuqsonlari hamda mehnat faoliyati jarayonida o'z xulq-atvorini tashkil etish mexanizmlarini yoritib beradi.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, iqtisodiy psixologiya predmetidagi asosiy kategoriyalar – iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulqdir. Shu uchala kategoriyalarning mutanosibligi, bir-biriga munosabatlarini aniq faoliyat hamda ishlab chiqarish jarayonlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish katta amaliy ahamiyatga egadir.

Shu o'rinda bu uch kategoriyaning ikkitasiga, ya'ni iqtisodiy ong va iqtisodiy xulqqa A.Kitov tomonidan berilgan ilmiy ta'rifni keltiramiz.

Uningcha, iqtisodiy ong – o'z qarashlari, maqsadlari, dunyoqarashiga ega bo'lgan inson ongida bevosita ishlab chiqarish, o'zlashtirish va foyda olishga aloqador obyektlarning aks etishidir. Ya'ni iqtisodiy ong mavjud bo'lgani uchun ham biz moddiy, ma'naviy ehtiyojlarimizga aloqador bo'lgan ne'matlarni topish, ko'paytirish yo'llarini hamda jamiyatda o'z mehnatimiz bilan moddiy ishlab chiqarishga ulush qo'shishga oid bilim, tasavvur va hissiyotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy ong deganda, avvalo, iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan emotsiyalar, his-kechinmalar, ularning turli jihatlarini tushunishga taalluqli perseptiv idrok elementlari, iqtisodiy tasavvur va tafakkurning natijasi bo'lmish bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, ko'nikma hamda malakalarning aql-farosatga tegishli xususiyatlarini tushunish mumkin. Demak, iqtisodiy ong murakkab psixologik tuzilma bo'lib, u bevosita iqtisodiy vaziyatlar va shart-sharoitlarning shaxs ongi, dunyoqarashi va motivlariga ta'siridan hosil bo'ladi.

Iqtisodiy psixologiyaning kategoriyalaridan biri bo'lgan iqtisodiy xulqni A.Krilov quyidagicha ilmiy asoslagan. Uning ta'kidlashicha, iqtisodiy xulq – iqtisodiy ta'sirotda javob beruvchi xulqdir.

Shunday qilib, A.Krilovning ta'rificha, iqtisodiy psixologiya – keng ma'noda xo'jalikni boshqaruvchi subyekt psixologiyasidir.

V.Karimovanning fikricha, iqtisodiy ong mahsuli bo'lgan iqtisodiy tafakkur – xo'jalik munosabatlariga kirishgan subyektlarning iqtisodiy munosabatlarga oid tasavvurlari, bilimlari, g'oyalari hamda qarashlarini ongdagi aksi bo'lib, u amalga oshirilayotgan faoliyatning mohiyatini tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosalar chiqarish imkonini beradi.

V.Karimova va F.Akramovalarning yozishicha, iqtisodiy xulq – ishlab chiqarish shart-sharoitlari, vositalari va turtkilari ta'sirida namoyon bo'ladigan xatti-harakat va xulq-atvordir.

Demak, u iqtisodiy ong hamda ishlab chiqarish vaziyatlarining shaxs harakatlarida namoyon bo'lishi sifatida qaraladi. Bunda eng avvalo, iqtisodiy motivlar, ya'ni ishlab chiqarish shart-sharoitlaridan va shaxsning ularga munosabatlaridan kelib chiqadigan sababiy munosabatlar tizimi katta rol o'ynaydi.

Iqtisodiy psixologiya o'z ilmiy tadqiqot izlanishlari doirasida aynan iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulqning u yoki bu sharoitlarda namoyon bo'lishi, rivojlanishi hamda inqirozga yuz tutishi qonuniyatlarini o'rganadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu uchala hodisa jamiyatda ijtimoiy mehnat va faoliyat sharoitlarida namoyon bo'lgani uchun ham, ular sof ma'noda ijtimoiy hamda iqtisodiy-psixologik kategoriyalardir. Shuning uchun ham iqtisodiy psixologiya o'rganadigan barcha masalalar va muammolar tabiatan hamda mohiyatan ijtimoiy-psixologik hodisadir.

Iqtisodiy xulqning subyektlari hisoblangan insonlar – ijtimoiy guruhlar hamda jamiyat bilan psixologik tuzilmalar shaklida bo'lib, ular o'zaro tabiiy ravishda bir-biri bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, shaxs iqtisodiy xulq-atvorining namoyon bo'lishi yuzasidan tovarning iste'molchi didiga mos kelishini aniqlash, uni har tomonlama bashorat qila olish, hamkor va raqobatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini bilish zarur bo'ladi.

Shunday qilib, iqtisodiy psixologiyaning o‘rganishi mumkin bo‘lgan masalalari ko‘lami keng va barchasi bugungi kunda o‘ta dolzarbdir. Bu holat ushbu sohaning metodologiyasini mukammal ishlab chiqish va uni kun sayin ortib borayotgan amaliy ehtiyojlarga buysundirishni taqozo etadi. Tabiiyki, mustabid tuzum davrida shakllangan metodologiya bugungi fan taraqqiyotiga xizmat qila olmaydi. Zero, ilgarigi mafkura ta’sirida shakllangan ishchi yoki xodimning bilim, malaka hamda ko‘nikmalari bugungi uzluksiz taraqqiyot talablariga to‘la javob bermaydi. Ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun yetarli hisoblangan shaxs bilimi, malaka hamda ko‘nikmalari bugungi kunda tadbirkordan yangidan-yangi sifat va fazilatlarni uyg‘unlashtirishni, uning psixologiyasidagi zaxiraviy, yashirin iqtidor imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishni talab qilmoqda. Bu esa, fanning tadbirkorlik psixologiyasi sohasiga, undagi shaxsga bo‘lgan munosabatlarni keskin o‘zgartirib, aloqador barcha jarayon va hodisalarga nisbatan yangicha ijtimoiy-psixologik qarashlar shakllanishini nazarda tutadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».
2. Karimova V.M., Akramova F.A. Iqtisodiy psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T.: 2002. – B. 4.
3. Сисмонди Ж. Новые начал политической экономии, или о богатстве в его отношении к народонаселению. – М.: 1935.
4. История экономических учений: Учебник для экономических специальностей вузов / Рындина М.Н., Василевский Е.Г., Голосов В.В. и др. – М.: Высшая школа, 1993. – 559 с.
5. Гэлбрейт Дж. Новое индустриальное общества. – М.: 1988. – С. 249-263.
6. Психология. Учебник. / Под. ред. А.А. Крылов. – М.: “ПРОСПЕКТ”, 1998. – С. 547-548.

ПЕРФЕКЦИОНИЗМ КАК ЧЕРТА ЛИЧНОСТИ ВЛИЯЮЩАЯ НА ДОСТИЖЕНИЕ ЦЕЛИ

Пак Виктория Виссарионовна

Преподаватель кафедры «Психология» Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

Аннотация: В современном мире всё большее значение приобретает работа в группах, данный аспект связан как с усложнением задач, которые предъявляет современный мир, так и с тем, что только под влиянием группового эффекта возможно преодоления узости сознания отдельного человека. Поэтому важно посмотреть, как человек работает индивидуально и становится ли эффективнее в группе при достижении цели. В настоящем исследовании, мы проверяем гипотезу о связи перфекционизма как личностной черты и способов достижения как индивидуальной, так и групповой целей.

Ключевые слова: перфекционизм, позитивная форма, негативная форма, характеристика, шкала перфекционизма, качественный метод, количественный метод, контент-анализ, неперфекционист.

PERFECTIONISM AS AN INFLUENCING PERSONALITY TRAIT TO ACHIEVE THE GOAL

Pak Victoria Vissarionovna

Lecturer, Department of Psychology, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: In the modern world, work in groups is becoming more and more important, this aspect is associated both with the complication of the tasks presented by the modern world, and with the fact that only under the influence of the group effect it is possible to overcome the narrowness of consciousness of an individual. Therefore, it is important to see how a person works individually and whether it becomes more effective in the group when achieving the goal. In the present study, we test the hypothesis of the association of perfectionism as a personality trait and ways to achieve both individual and group goals.

Key words: perfectionism, positive form, negative form, characteristic, perfectionism scale, qualitative method, quantitative method, content analysis, non-perfectionist.

PERFEKTSIONIZM MAQSADGA ERISHISHGA TA'SIR ETUVCHI SHAXS SIFATI

Pak Viktoriya Vissarionovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining «Psixologiya» kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda guruhlarda ishlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu jihat ham zamonaviy dunyo taqdim etayotgan vazifalarning murakkabligi, balki faqat guruh effekti ta'siri ostida torlikni yengib o'tish mumkinligi bilan bog'liq. Shu sababli, insonning individual tarzda qanday ishlashi va maqsadga erishishda u guruhda samaraliroq bo'ladimi yoki yo'qligini ko'rib chiqish muhimdir. Ushbu tadqiqotda biz perfektsionizmning shaxsiy xususiyat sifatida o'zaro bog'liqligi va individual va guruh maqsadlariga erishish yo'llari haqidagi gipotezani sinab ko'ramiz.

Kalit so'zlar: perfektsionizm, pozitiv shakl, salbiy shakl, xarakteristika, perfektsionizm ko'lami, sifat usuli, miqdoriy usul, kontent tahlili, noperfektsionist.

Термин «перфекционизм» образован от латинского *perfectio*, что в переводе означает совершенство, и обозначает, что человек стремится следовать самым высоким стандартам и требованиям, которые сам себе предъявляет.

В исследованиях перфекционизма десятилетиями доминировала идея о том, что перфекционизм является негативной характеристикой, связанная с психопатологией. Так существовала идея, что перфекционизм невротическая и дисфункциональная характеристика. При которой предполагалось, что люди с перфекционизмом не чувствовали гордость за свои достижения, также исследователи полагали, что они часто чувствуют разочарование, так как не могут достичь высоких стандартов. (Stoeber & Otto, 2006). В данном случае, понимается перфекционизм, как некоторая установка на негативное отношение к проделанной деятельности, зачастую не зависящей от результата, а если и положительный результат превосходит силу негативного окраса, то это явление кратковременно и быстро обесценивается.

Было также проведено множество исследований, в которых предполагалась связь перфекционизма с суицидом у одаренных подростков (Blatt, 1995). Что свидетельствует, о присутствии негативной стороны перфекционизма, но в современной психологии присутствует и иной взгляд, где выделяют и позитивные стороны, для анализа данных позиций, представим некоторые взгляды.

Только в 1978 году Д.Хамачек первый выдвинул концепцию о том, что кроме негативной формы перфекционизма, также может быть и позитивная форма перфекционизма (Hamachek, 1978). Концепция об формировании перфекционизма, гласила о влиянии семьи, а особенно о влиянии родителей в формировании перфекционизма. Так, в своей работе Д.Хамачек выделяет два вида перфекционизма “здоровый” и “невротический” перфекционизм.

По его мнению, “невротический” перфекционизм формируется в семье, где у ребенка нет одобрения и похвалы со стороны родителей, воспитание детей носило суровый и осуждающий характер. Так ребенок в данной семье пытается стать совершенным, дабы доказать родителям, что он достоин одобрения и похвалы, но постоянно получает упрёки в том что можно сделать лучше. Содержание этой концепции носило характер, что “невротический” перфекционизм связан с негативной окраской такой как депрессия, тревога, стыд, вина и разочарованность. У подобных детей с “невротическим” перфекционизмом проявлялись затруднения в общении и выполнении деятельности.

“Здоровый” же перфекционизм рассматривается со связью с положительными характеристиками, который был определен как стремление к реалистичным стандартам, и который приводит к чувству самодовольства. Такие дети с хорошим самосознанием и самоориентированы, их стремления также положительные, и они не слишком обеспокоены ошибками и негативными оценками других. Так сравнивая здоровый и невротический перфекционизм, последний отличается тем, что у ребенка возникает желание выполнять задание как можно лучше по целому ряду параметров, которые представлены в таблице 1.

**Таблица 1.
Характеристики “нормального” и “невротического” перфекционизма по
D.Натасшек (1977)**

“Здоровые” перфекционисты	“Невротичные” перфекционисты
способны испытывать глубокое удовлетворение, повышать самооценку на основе достижений	перманентно недовольны сделанным, результат никогда не кажется достаточным
при выполнении способны учитывать, как собственные ресурсы, так и ограничения	руководствуются только крайне высокими ожиданиями от себя
руководствуются надеждой на успех, могут испытывать легкую степень взволнованности и азарт	действуют под влиянием страха неудачи, испытывают сильную тревогу, стыд, вину
легко вовлекаются в активность	демонстрируют поведение избегания
концентрируют внимание на собственных ресурсах и на мысли о том, как сделать правильно	концентрируют внимание на собственных недостатках и мысли о том, как бы избежать ошибки

“Здоровые” перфекционисты испытывают глубокое удовлетворение, повышают самооценку на основе достижений перманентно недовольны сделанным, результат никогда не кажется достаточным при выполнении способны учитывать, как собственные ресурсы, так и ограничения руководствуются только крайне высокими ожиданиями от себя руководствуются надеждой на успех, могут испытывать легкую степень взволнованности и азарт действуют под влиянием страха неудачи, испытывают сильную тревогу, стыд, вину легко вовлекаются в активность демонстрируют поведение избегания концентрируют внимание на собственных ресурсах и на мысли о том, как сделать правильно концентрируют внимание на собственных недостатках и мысли о том, как бы избежать ошибки.

Так, по таблице мы можем увидеть, что нормальные перфекционисты побуждены стремлением к успеху и способны учитывать свои собственные ресурсы и ограничения, также ставят перед собой реалистичные цели и изменяют личные стандарты в соответствии с жизненной ситуацией. А невротические перфекционисты побуждены страхом неудачи и склоняются к жесткой самокритике, к концентрации на нереалистичных стандартах и переживанию перманентной вины за собственный неуспех. Возможно, постановка высоких целей, связанна со способом защиты от неудач, так как нет нечего страшного в том, что не можешь достичь сложных целей.

В начале 1990-х годов представление о структуре перфекционизма было расширено, и было продемонстрировано, что природа перфекционизма на самом деле многомерна, что означает, что он имеет как личностные, так и межличностные аспекты. В эти годы были разработаны две многомерные шкалы перфекционизма, которые охватывались во всех аспектах. Первая шкала, шкала многомерного перфекционизма Фроста (FMPS), которая включала в себя следующие параметры как:

1. «личные стандарты». Это параметр, при котором у человека возникает склонность к выдвиганию чрезмерно высоких стандартов вкупе с чувством чрезмерной важности соответствовать этим стандартам, из которого порождается постоянная неудовлетворенность деятельностью и колебание самооценки;

2. «озабоченность ошибками» Это параметр, при котором возникает негативно-окрашенная реакция на совершенные ошибки, а также характерна склонность приравнивания ошибки к неудаче;

3. «сомнения в собственных действиях». Это параметр, при котором возникают постоянные сомнения, касающиеся качества выполняемой деятельности;

4. «родительские ожидания». Это параметр, при котором родители воспринимаются как возлагающие очень высокие ожидания;

5. «родительская критика». Это параметр, при котором родители воспринимаются как чрезмерно критикующие;

6. «организованность». Это параметр, при котором возникает склонность к организованности и порядку;

Результаты исследования с использованием этого инструмента показали, что перфекционисты ставят перед собой высокие стандарты, ценят порядок и организацию во всем, также они стараются избегать ошибок, и на них очень сильно влияет критика родителей (Frost, Marten, Lahart & Rosenblate, 1990).

Практически в эти годы также была разработана и вторая многомерная шкала перфекционизма (MPS), разработанная канадскими исследователями Хьюиттом и Флиттом, тем самым выдвинув альтернативное представление о структуре перфекционизма, включающие три различных типа перфекционизма, которые также включали в себя различные межличностные аспекты, такие как:

1. «Я-адресованный перфекционизм», при таком виде перфекционизма, человек ставит перед собой завышенные цели, несёт нереальные ожидания от самого себя, а также не способен принимать и прощать себе промахи и ошибки в своей деятельности, поэтому человек постоянно себя самооценивает. Этот вид перфекционизма, как широкий личностный стиль, включающий в себя поведенческие, аффективные и мотивационные компоненты.

2. «Социально предписываемый перфекционизм», при таком виде перфекционизма у человека возникает потребность соответствовать ожиданиям и стандартам других людей, которые значимы для него. А также человек считает, что другие ждут от него нереалистичные ожидания, и поэтому человек склонен очень строго себя оценивать, так как на него оказывается социальное давление, тем самым заставляя его быть совершенным во всем. Вопреки этому, он убежден, что не способен угодить другим. Этот вид перфекционизма взаимосвязан с такими межличностными аспектами как, внешний локус контроля, страх негативной оценки, сильная потребность в одобрении и низкая самооценка.

3. «Перфекционизм, адресованный другим людям», при таком виде перфекционизма человек ждёт нереалистичные убеждения и ожидания от других людей, чаще всего от значимых ему людей, которые находятся с ним в близком окружении. Предположительно, этот вид перфекционизма заставляет человека обвинять других людей в их несовершенстве, а также вызывает чувство враждебности к людям и отсутствия доверия (Hewitt & Flett, 1991).

Данные инструменты многомерных шкал были подвергнуты критике, такими учеными как Шафран и Мансел. Эта критика подробно была описана в работе Н. Г. Гаранян под названием «Перфекционизм и психические расстройства (обзор зарубежных эмпирических исследований)». Авторами аналитического обзора по проблеме перфекционизма, были выдвинуты следующие контраргументы. (Shafran, Mansell, 2001)

1. Оба инструмента основаны на саморефлексии, и как следствие и не включают методов, основанных на эксперименте и интервьюировании, но были образованы на самоотчете, в следствии данное теоретическое построение структуры перфекционизма, есть представления о нём, но личностные особенности сложно осознаются.

2. Некоторые подшкалы не измеряли текущее и актуальное состояние индивида, например такие, как «родительский критицизм» и «родительские ожидания». Эти самоотчеты носили характер ретроспективы, и не показывали

является ли индивид перфекционистом в настоящее время. Этот факт, как и онтогенетический характер исследуемого перфекционизма, по мнению Шафран и Мансел, затрудняют понимание самого перфекционизма и интерпретацию результатов.

3. Также, спорным является вопрос о том, насколько многомерные модели отражают классическое понимание феномена. Шафран и Мансел предполагают, что параметры «личные стандарты», «озабоченность ошибками» и «Я-адресованный перфекционизм» лучше всего объясняют классическую концепцию перфекционизма, остальные же параметры не должны находиться в данном конструкте. Из этого следует, что интерперсональные подшкалы инструментов не являются измерительным инструментом перфекционизма.

Но несмотря на критику, большинство исследователей всё равно основывают свои работы на моделях Фроста, Хьюитта и Флитта, и всё также используют эти инструменты в своих исследованиях.

Для того, чтобы дополнительно подчеркнуть позитивные компоненты перфекционизма, такие ученые как Сленей и Джонсон разработали конкурирующую многомерную шкалу перфекционизма, и она была названа как почти идеальная шкала (APS - Almost Perfect Scale). В этой шкале имеются четыре фактора, такие как: стандарты и порядок, беспокойство, межличностные и консультативные отношения и прокрастинация (Slaney, Rice & Ashby, 2002). В дальнейшем это шкала была опробована в исследовании, результаты которого показали, что перфекционисты имели значительно более высокий уровень по шкале порядка и стандартов, а также оценивали тревогу выше, чем неперфекционисты. В свою очередь, неперфекционисты оценивали прокрастинацию значительно выше, чем перфекционисты, и обе группы не отличались показателями по шкале межличностные и консультативные отношения (Slaney et al., 2002). И этот результат не соответствовал ранней литературе о перфекционизме, в которой предполагалось, что у перфекционистов часто возникают проблемы с отношениями и прокрастинацией. Также результаты исследования показали, что гораздо более проблематично иметь высокие оценки по шкалам тревоги и промедления, чем иметь высокие стандарты и быть упорядоченным.

Также были проведены исследования, где показывалось, что при нормальном уровне перфекционизма, высокие стандарты, которые человек ставил сам для себя, служили ему здоровой мотивацией для работы, и самооценка оставалась неизменной, даже если эти стандарты не были достигнуты. Наоборот же, при невротическом перфекционизме наблюдалось то что, даже при соблюдении и достижении высоких стандартов самооценка оставалась хрупкой и низкой (Rice, Bair, Castro, Cohen & Hood, 2003). Это доказывает то, что кроме высоких стандартов, возможно есть и иной компонент, который описывался выше, тревога.

Иной раз, эти результаты также доказывали, что перфекционизм имеет не только негативные аспекты, но и позитивные, в пользу теории Д. Хамачека.

Вышеупомянутые исследования проводились количественными методами, и для полного представления структуры перфекционизма, рассмотрим исследования, в которых изучался данный конструкт с помощью качественных методов (Slaney & Ashby, 1996; Slaney, Chadha, Mobley & Kennedy, 2000; Rice et al., 2003). Эти исследования позволяют расширить область исследований перфекционизма, а также в этих исследованиях были включены взгляды, о том, какие основные черты отличают перфекционизм от других личностных характеристик, для определения его терминологии.

Исследуя перфекционизм не только с точки зрения неперфекционистов, а ещё и с точки зрения самих перфекционистов, даёт нам возможность получить недостающую информацию, которой не было в предыдущих исследованиях.

Так, результаты качественного анализа этих трёх исследований, показали, что высокие стандарты достижений и производительности формируют сущность перфекционизма. Неудача, горе и стресс также рассматривались как центральные особенности перфекционизма, но чаще всего люди описывали свой его, как позитивную характеристику и не хотели от него отказываться. Это указывает на то, что результаты, полученные в ходе количественных исследований, соответствуют качественным и позволяет утверждать, что данные показатели характеризуют данный личностный конструкт. Кроме того, аккуратность, на которое тратилось много времени в ходе выполнения заданий в школе или на работе, также является важной чертой перфекционизма.

Однако есть мнение и о том, что перфекционисты работают больше, чем им необходимо, и, следовательно, тратят много времени на то, чтобы быть совершенными во всем, что ведёт человека к парадоксальной контрпродуктивности. Это соответственно может привести к ограниченным возможностям мышления, то есть к ее ригидности. Что касается определения перфекционизма, то в этих исследованиях рассматривали его взаимосвязь с такими понятиями, как трудолюбие, постановка цели и целеустремленность. От перфекционистов чаще всего ожидали хороших оценок и в следствии признание других людей, становится критерием успешности. Что в свою очередь, по мнению авторов, приводит к тому что высокие достижения являются побочным продуктом, так не является целью и не может считаться компонентом внутренней мотивации (Rice et al., 2003). Но современные исследователи, придерживаются иного мнения, что именно стремление достичь высоких результатов, является основным мотивационным компонентом, что несомненно является внутренней мотивацией. В этой связи, мы можем утверждать, что есть две различные точки зрения на мотивационную сторону перфекционизма, они имеют право на существование, но в ключе культурно-исторического подхода, можно их объединить, внешние высокие стандарты, навязываемые близкими окружающими, в следствии желая быть похваленными интериоризуются и становятся внутренними, и в некоторых случаях, сохраняется их привязанность со стремлением к социальному одобрению.

На сегодняшний день, исследователи пришли к взаимопониманию по поводу того, что действительно можно различить две формы перфекционизма. Хотя исследователи и называют эти две формы по-разному, но основная идея нам ясна - перфекционизм не должен быть только негативной личностной характеристикой, но и положительной. Но споры о том, может ли перфекционизм иметь положительное влияние на поведение человека остаётся открытым, что может означать отсутствие единого мнения, по поводу того, что перфекционизм может быть назван адаптивным, позитивным или здоровым. Тем не менее, можно назвать два основных измерения перфекционизма: это перфекционистские стремления и перфекционистские проблемы. Первый был предположительно связан с положительными характеристиками, а второй - с отрицательными характеристиками. В настоящее время имеется большое количество доказательств в пользу позиции о том, что прежнее измерение перфекционизма связано с положительными характеристиками (Frost et al., 1990; Hewitt & Flett, 1991; Slaney & Johnson, 1992), что нами было описано ранее. Также очевидно, что для некоторых людей перфекционизм является ключевым аспектом их идентичности и поэтому может рассматриваться как личностная ориентация или характеристика (Flett & Hewitt, 2002).

Так исходя из разных исследований были получены разные результаты о том, что формы перфекционизма связаны как с отрицательными, так и с положительными характеристиками. Тем не менее, существует обширное соглашение среди исследователей об основных аспектах, которые определяют две

формы перфекционизма, которые были представлены из ранее представленных исследований. Так высокие личные стандарты и ориентированный на себя перфекционизм формируют позитивное перфекционистское стремление, а такие параметры как проблемы с ошибками, сомнения в действиях, социально предписанный перфекционизм и воспринимаемое несоответствие между фактическими достижениями и высокими ожиданиями формируют измерение негативных проблем. И когда эти измерения были соотнесены с показателями благосостояния, выяснилось, что позитивное перфекционистское стремление было связано с позитивными характеристиками, и здоровые перфекционисты демонстрировали более высокие уровни позитивных характеристик по сравнению с нездоровыми перфекционистами и неперфекционистами (Stoeber & Otto, 2006).

Так в нашей работе, мы будем придерживаться той теории, которая гласит о том, что бывает две формы перфекционизма с положительными и с негативными характеристиками. И подытоживая считается, что при “здоровом” перфекционизме люди получают удовольствие от усилий, также они стараются преуспеть в деле, но при этом они могут быть свободны и не быть столь тщательными в работе, если ситуация это позволяет (Namachek, 1978). Успех вызывает чувство удовольствия от хорошо проделанной работы и повышает самооценку. Рассмотрим исследование, направленное на изучение того, как различные тенденции влияют на процесс обучения. Так учащиеся, преследующие тенденцию, направленную на задачу, склонны рассматривать способность как податливый атрибут, а это означает, что способность — это то, что можно развивать, увеличивая свои усилия (Dweck, 1986). Следовательно, эти студенты, встречаясь с трудностями, устойчиво реагируют на них и преодолевая неприятности, развиваются. Напротив, учащиеся, преследующие тенденцию, ориентированную на себя, склонны рассматривать способности как неизменный атрибут, и поэтому те, кто считают, что их способности высоки, могут реагировать так же, как и ранее описанные студенты, но, к сожалению, им не хватает такого мышления и уверенности в себе, что приводит к избеганию сложных ситуаций, и когда им бросают вызов они проявляют беспомощность (Dweck, 1986).

В исследованиях было обнаружено, что адаптивный перфекционизм, значительно коррелирует с тенденцией к достижению цели, тогда как неадаптивный перфекционизм связан с тенденцией к избеганию. Другими словами, студенты с адаптивным перфекционизмом одобрили тенденцию, направленную на задачу, вместо тенденции, направленную на избегание. Студенты с неадаптивным перфекционизмом склонялись к таким целям, которые подчеркивали страх неудачи и беспокойство по поводу ошибок, и у них было большое желание либо продемонстрировать свои способности другим, если есть задача, которую они способны решить, либо избежать демонстрации некомпетентности, в случае отсутствия таковой (Stoeber, Stoll, Peschek & Otto, 2008; Hanchon, 2010; Damian, Stoeber, Negru & Băban, 2014).

Более того, было также обнаружено, что разные тенденции достижения цели могут выступать в качестве посредников между перфекционизмом и удовлетворенностью академическими достижениями: было выявлено, что тенденция к достижению, опосредует взаимосвязь между адаптивным перфекционизмом и успеваемостью, тогда как тенденция к избеганию опосредовала отношения между адаптивным перфекционизмом и академической удовлетворенностью (Verner-Filion & Gaudreau, 2010).



MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVIDA AXLOQIY TARBIYANING O'RNINI

Turaqulov Laziz Tirkashevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Jamiyatimizda yuz berayotgan bozor iqtisodiyotib islohotlar natijasida ijtimoiy hayotimizda ba'zi axloqiy me'yorlarni buzilishi namoyon bo'lishi. Butun dunyoda qarovsiz bolalar orasidagi jinoyatchilik va qonunbuzarlik holatlarini o'rganish borasidagi qarashlar va bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining intizomi masalasiga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga tartib-intizom masalasida tarbiyachilarning shaxsi va uning xarakterining ahamiyati borasida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, islohotlar, ijtimoiy hayoti, axloqiy me'yorlar, tarbiyachilarning axloqiy sifatleri, yevropa olimlari, ijtimoiy psixologiya, yetimlik va ijtimoiy yetimlik.

РОЛЬ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ПРИЕМНЫХ ДЕТЕЙ

Turaqulov Laziz Tirkashevich
*Старший преподаватель Джизакского
Государственного Педагогического Университета*

Аннотация: В данном очерке в результате происходящих в нашем обществе реформ рыночной экономики в нашей общественной жизни нарушаются некоторые нормы морали. Он обратил внимание на взгляды на изучение преступлений и правонарушений среди безнадзорных детей во всем мире и вопрос о дисциплине детей в детских домах, при этом были даны сведения о значении личности и характера воспитателей в вопросе дисциплины.

Ключевые слова: рыночная экономика, реформы, общественная жизнь, нравственные нормы, нравственные качества воспитателей, европейские ученые, социальная психология, сиротство и социальное сиротство.

THE ROLE OF MORAL EDUCATION IN THE SOCIALIZATION OF FOSTER CHILDREN

Turaqulov Laziz Tirkashevich
Senior Lecturer in Jizzakh, State Pedagogical University

Annotation: In this essay, as a result of the market economy reforms taking place in our society, some moral norms are violated in our public life. He drew attention to the views on the study of crime and delinquency among street children around the world and the issue of discipline of children in orphanages, while providing information about the importance of the personality and character of educators in the issue of discipline.

Key words: market economy, reforms, public life, moral norms, moral qualities of educators, European scientists, social psychology, orphanhood and social orphanhood.

KIRISH. Mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar davrida psixologiyaning, ayniqsa ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasi va psixologiyaning ilmiy tadqiqotlarining mazmuni shaxs axloqiy sifatlarini shakllanishiga oid masalalarni o'rganishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Jamiyatimizda yuz berayotgan islohotlar, bozor iqtisodiyoti natijasida ijtimoiy hayotimizda ba'zi axloqiy me'yorlarni buzilishi namoyon bo'lmoqda, bu holat esa

o'z navbatida ta'lim – tarbiya muassasalarida nafaqat o'smirlar, hattoki kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib bormoqda.

Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs xususiyatlarini shakllanishi va psixik holatlari muammosi borasida ham psixologik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.Adler tomonidan qarovsiz bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlik holatlarini o'rganish borasida olib borgan ilmiy izlanishlari asosida o'z fikrini bildirib, bu muammo borasida ba'zi olimlarni fikrlarini inkor etadi, ya'ni qarovsiz qolgan va jinoyatchilik, qonunbuzarlik bilan shug'ullangan bolalarni qayta tarbiyalash mumkin emas degan qarorlarga tanqidiy munosabat bildiradi va bola hech qachon jinoyatchi yoki qonunbuzar bo'lib tug'ilmasligini, ularni tarbiyalash jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olib, shaxs sifatlarini yuzaga chiqarish to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda, ularni qayta tarbiyalash mumkinligini aytib o'tadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

XX asrning 90 yillarida amerikalik olimlar bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining intizomi masalasiga e'tibor qaratganlar. A.A.Xvaston ushbu muammoni o'rganish jarayonida bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarda intizomni keskin buzilishi, bolalar orasida jinoyatchilikning avj olganligi, o'smir qizlarning buzilib ketishi va axloqiy me'yorlarni buzilganligini qayd etadi.

Shuningdek, tartib-intizom masalasida tarbiyachilarning shaxsi va uning xarakterining ahamiyati borasida K.F.Torenburg, V.Vasmundlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqot jarayonida ular tomonidan R.Kettell metodikasi qo'llanilgan va uning natijalari asosida tarbiyachi o'z xatti-harakatini nazorat qilishi lozimligini ta'kidlaydilar. Bu esa o'z navbatida tarbiyachini ob'ektivlikka olib keladi va uning faoliyatini ijobiy shakllantiradi deb hisoblaydilar.

Ta'lim tizimining asosiy vazifasi esa axloqiy tarbiya bilan ta'limning uyg'unligini ta'minlash asosida o'quvchilarning amaliy faoliyati jarayonida axloqiy bilimlarini shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Shu jihatdan ham bu muammo ijtimoiy psixologiyaning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Shaxsning jamiyatdagi o'rni nafaqat psixolog olimlari, boshqa soha olimlarini ham qiziqtirib kelgan. Bu muammo faylasuflar, filologlar va pedagog olimlarni ilmiy izlanishlarida o'z aksini topmoqda. Ta'kidlab o'tish joizki, bu masala, ya'ni shaxsning jamiyatdagi o'rni borasidagi ilmiy va ommabop ma'lumotlar falsafa, psixologiya, pedagogika va boshqa ko'pgina soha namoyondalarining ilmiy adabiyotlarida keng ifodasini topgan. Bu haqda rus olimlari B.G.Anang'ev, L.I.Bojovich, I.S.Kon, V.N.Myasishev, S.A.Rubinshteyn, B.D.Parigin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Insonning axloqiy me'yorlari jamiyat ehtiyojlari asosida belgilanadi. Shaxsning hayotda tutgan o'rni uning faoliyat jarayonidagi o'zini tutishiga axloqiy ta'sir ko'rsatib, sekin-asta yuzaga chiqadi, uning xarakteri shaxsning faolligi va amaliy faoliyatida taqsimlanadi va shaxsdan faollikni talab qiladi. Faollik esa shaxsning bilim, ishonch, axloqiy va irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Aytish joizki, ushbu xislatlarni namoyon bo'lishi va shakllanishida shaxsning turmush tarzi va yashash shart-sharoitlari (oila yoki mehribonlik uyi) katta ahamiyat kasb etadi.

Yigirmanchi asrning 80-90 yillarida axloqiy nazariya masalalarini o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, tadqiqotchi olimlar shaxsning hayotiy pozitsiyasini asosiy g'oya sifatida axloqiy me'yorlarni ko'rsatib o'tdilar. M.P.Chernobrovkiy o'z tadqiqotlarida axloqiy me'yorlarni ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarining birligi haqidagi fikrga tayangan holda axloqiy bilim, integrativ va ichki (regulyativ) boshqaruv hamda tarbiya axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi degan mulohazani bildiradi [11].

Shaxsning faol hayotiy pozitsiyasining asosi sifatida axloqiy me'yorlarga yondashgan holda ilmiy izlanishlar olib borgan A.I.Titarenko bu borada o'z fikrlarini

bildirgan. U axloq ongining funktsional tahliliga ko'ra ong axloqiy qismlarining (bo'laklari) bog'liqligi sifatida ko'rinishi asosida axloqiy pozitsiya to'liq ongning axloqiy tuzilmasi tahlili uchun muhim ekanligini va axloq pozitsiyasining birlashmasi sifatida xarakterlanadi deb ta'kidlaydi [9].

Shaxs tarbiyasida axloqiy pozitsiyaning tutgan o'rnini tadqiq qilib, L.I.Bojovich "Axloqiy pozitsiya shaxsning ichki kuchini aniq namoyon qiladi" deb ta'kidlaydi [4].

Ushbu masalada S.L.Rubinshteyn ham o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Uning fikricha: "Axloqiy pozitsiya – bu shaxs va ongni bog'lab turgan, ularni birligini ko'rsatadigan anglanilmagan aniq bir pozitsiyani egallash uchun layoqatsiz shaxsning o'zi yo'q" [8].

Taniqli olim A.N.Leont'ev axloqiy pozitsiyaga "Shaxsning mustaqil faoliyatidir, uning asosi esa axloq tanlovida belgilanadi, pozitsiya shaxsning faoliyatida namoyon bo'ladi" degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, axloqiy me'yorlar shaxsning haqiqiy bazasi hisoblanaib, uning atrof-muhitga munosabati va faoliyati sifatida taqsimlanishidir. A.N.Leont'evning bu g'oyasi shaxsni shakllanish mexanizimining jamiyatga bo'lgan munosabat sub'ekti ekanligini ifodalaydi [7].

B.G.Anan'ev esa shaxs pozitsiyasini keng qamrovli faoliyat va axloqiy sub'ekt sifatida talqin etib, shaxs pozitsiyasi shaxsning jamiyatga, odamlarga, mehnat faoliyatiga, o'z-o'ziga munosabati orqali shakllanadi degan nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha, shaxs pozitsiyasi qiyin sub'ektiv xususiyatlar tizimi bo'lib, biror bir ijtimoiy vazifani bajarish orqali shaxs tomonidan amalga oshiriladigan rivojlanishning ijtimoiy vaziyati hisoblanadi [2].

B.D.Parigin bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Shaxs pozitsiyasidan psixikani tizimli bosqichi boshlanadi, bu esa shaxsning jamiyat munosabatlarining tizimli sub'ekti sifatida xarakterlaydi"[Parigin]. Ba'zi olimlar jumladan, Z.I.Vasil'eva, P.S.Konnikova, V.S.Merlin, K.D.Rodina va A.I.Sherbakova esa shaxsning axloqiy pozitsiyasini shakllanishida milliy qadriyatlar belgilashini, uning o'rnini muhim ekanligini ta'kidlaydilar. P.S.Konnikovanning qayd etishicha, shaxs pozitsiyasiga nisbatan gumanistik, jamoatchilik munosabati shaxsning axloqiy sifatiga aylanadi hamda axloqiy fikr mulohazalar o'zining aniq xatti – harakatlarini topadi, jamiyat bilan doimiy aloqa esa o'z navbatida axloqiy sifatlarni boyitadi. Shaxsning axloqiy pozitsiyasi shaxs tasavvurida o'zining axloqiy bilimlarini mujassamlashtiradi, uning shaxs fenomenlarini birlashtiradi va shaxs munosabatiga hamda uning faoliyatida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR.

Shaxsning axloqiy pozitsiyasiga boshqa jihatdan nazar tashlasak, jamiyatning ijtimoiy tizimi bilan shaxsning axloqiy qarashlarining natijasidir. Ko'pchilik psixologlarning fikriga ko'ra, shaxsning axloqiy bilimlarini shakllanishi amaliy tarbiyaviy jarayonning ichki jihatiga, ya'ni tashqi va ichki dunyoqarashiga bog'liq bo'lib, axloqiy bilimlarning tashqi jihat faolligi va axloq uslubining umumiy ko'rinishi bilan bog'liq holda shaxs o'zining faolligini taqsimlaydi. Axloqiy bilimlarning ichki jihat esa axloqiy fikrlar birlashmasi bo'lib, shaxs tomonidan qabul qilinadi. Uni baholash mezonini ishonch va munosabat bo'lib, uning ichki boshqaruvchisi hisoblanadi. Ichki va tashqi jihatning o'zaro aloqasini axloqiy bilimlar ta'minlaydi.

Bir qancha psixologik va pedagogik yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqot ishlarida axloqiy bilimlarni shaxs komponentlari tuzilishining xususiyatlari bilan bog'liqligi masalasi ham o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchilar axloqiy bilimlar bilan bog'liq bo'lgan uchta asosiy komponentlarni, ya'ni birinchisi bilim, baholash va axloqiy fikrlash komponenti, ikkinchisi (emotsional) hissiy baholash komponenti va uchinchisi amaliy faoliyat komponentini ajratib ko'rsatadilar [V.Baranyuk]. V.I.Baranyuk o'zining ilmiy tadqiqotlarida o'smirlarning axloqiy bilimlarini tahlil qilish jarayonida e'tiborini quyidagi, ya'ni o'quvchilarning axloqiy me'yorlarga mos keladigan bilimi, tushunchasi va xatti – harakatlarini baholash, ikkinchidan, o'zining xatti – harakati, faoliyati va axloqiga hissiy munosabatda bo'lishi, ulardagi o'zgarishlarni tuzatishga

harakat qilishi, uchunchidan, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirilgan iroda kuchi, mustahkam axloq va axloqiy me'yorlarga tayyorgarlik holatlarga qaratadi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy bilimlarni guruhlariga ajratish o'quvchilar shaxsi shakllanishiga tarbiyaviy ta'sirning uzviyligini buzishi mumkin. Shuning uchun u e'tiborini qaratgan holatlar shaxsning axloqiy bilimlari, axloqiy munosabatlar (ya'ni mehnat, shaxslaro va boshqa munosabatlar) uyg'unligidir deb hisoblaydi, chunki bu holatlar o'smirlarning kundalik faoliyatida aks etadi.

Axloqiy bilimlar o'zida ikkita o'zaro bog'langan ichki va tashqi birlikka ega bo'lib, ichki bilimlarning sub'ektiv tomoni o'zaro munosabatlarni tushunish va jamiyatda o'ziga baho berishni anglatadi, tashqi bilimlar esa axloqiy bilimlarning ob'ektiv jihatini, ya'ni jamoadagi o'rnini anglatadi.

B.F.Bashirova o'zining ilmiy tadqiqotlariga tayangan holda axloqiy bilimlar birligini baho va sezgi, motiv va usullar, faoliyat va shaxs munosabatini jamiyat va mehnatga, boshqa odamlarga munosabati sifatida xarakterlaydi.

Axloqiy me'yorlar asosini axloqiy bilimlar shaxs faolligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan axloqiy qadriyatlar, jamiyat farovonligi uchun jamoatchilik va insonparvarlik tamoyili asosida qurilgan shaxs faolligi tashkil etadi. Shaxsning axloqiy bilimlari malakasini esa shaxs axloqiy bilimlarni qanday va qay tartibda qabul qilishi va o'z hatti-harakatiga ularni singdira olishiga qarab bilish mumkin.

L.I.Bojovichning fikriga ko'ra, bilimlar ijtimoiy hayotning turli ko'rinishlarini axloqiy ong birligi bilan ma'qullash yoki rad etish, hukm chiqarish jarayonida shaxsning xatti-harakatiga mos kelishi yoki mos kelmasligida namoyon bo'ladi.

M.G.Kazakina hamda G.G.Fedorovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi fikrlar bildirilgan: shaxsning o'ziga baho berishi uning ichki dunyosini belgilaydigan komponent sifatida ko'rinadi, uning faoliyati va xulq motivi bo'lib hisoblanadi [6].

XULOSA. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish joizki, axloqiy bilimlarning yo'nalishi har xil darajaga ega bo'lib, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini anglashning bir darajasi hisoblanadi. Chunki, o'z-o'zini anglash o'z-o'zini bilishdan tashqari o'ziga bo'lgan munosabat bo'lib, o'ziga baho berish munosabati o'zining kuchiga va qobiliyatiga tanqidiy qarash hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Адлер А. Безпризорные дети. Пер. Я.А.Обухова. М:1974.
- 2.Ананьев Б.Г. «Человек-как предмет познания». -Л.: 1969.
- 3.Abdurasulov R.A. "Sportchi talabalarining individual va shaxsiy fazilatlarini" // "Maktab va hayot" jurnali. 2003, 2., 17-18-betlar.
- 4.Божович Л.И. Личность и ее формирование детским возрастом. – СПб.: Питер, 2008, - 400 с.
- 5.Конникова Т.Е. Воспитание высоких моральных качеств в пионерской организации. «Педагогика».
- 6.Казакина М.Г. Самооценка личности школьника и педагогические условия ее формирования. -Л.: 1981.
- 7.Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. -М.:Мысль. 1965.
- 8.Рубинштейн С.Л. Теоретические вопросы психологии и проблемы личности В кн. Проблема общей психологии. -М.: Педагогика. 1973.
- 9.Титаренко А.И. Структура нравственного сознания. -М.: Мысль. 1974.
- 9.Turaqulov.L.T. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari. 2021 yil, 175-177 b.
- 10.Turaqulov.L.T. Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi. Qoraqolpog'iston Davlat Universiteti. «Myg'allim ham uzliksiz bilimlendirio'» jurnali. 2022 yil, № 6/2.
- 11.Чернобровкин И.П. Жизненная позиция как структурный элемент образ жизни личности. В кн. Формирования активной жизненной позиции школьника. -Ростов на Дону, 1979.

ZAMONAVIY TADBIRKORLAR XULQINING MOSLASHUVCHANLIGIGA ETNOMADANIY QADRIYATLAR TA'SIRI

*Ulug`ova Shahlola Musliddinovna,
dotsent, psixologiya fanlari nomzodi,
Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrası
<https://orcid.org/0000-0002-2436-2116>*

Annotatsiya: maqolada tadbirkorlar xulqining moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar ta'siri to'g'risida so'z boradi. Tadbirkorlarda qadriyatlar reestri asosida shakllangan xulq moslashuvchanligiga «etnomadaniy qadriyatlar» ta'sirining o'rtacha-umumiy, qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari keltirilgan. Ikkilamchi kasbiy faoliyat turini tanlagan tadbirkor rahbar ayollarning ustuvor psixologik sifatлари va ijtimoiy yo'nalganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, etnomadaniy qadriyatlar, qadriyatlar reestri, ikkilamchi kasbiy faoliyat, moslashuvchanlik, xulq.

ВЛИЯНИЕ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА ГИБКОСТЬ ПОВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ

*Улугова Шахлола Муслиддиновна,
доцент, кандидат психологических наук, Бухарский государственный
университет, кафедра психологии и социологии*

Аннотация: в статье говорится о влиянии этнокультурных ценностей на гибкость поведения предпринимателей. Приведены средне-общие, сравнительно-типовые показатели влияния «этнокультурных ценностей» на гибкость поведения, формируемую на основе регистра ценностей у предпринимателей. Выявлены приоритетные психологические качества и социальная направленность женщин-лидеров бизнеса, выбравших побочную профессиональную деятельность.

Ключевые слова: предпринимательство, этнокультурные ценности, реестр ценностей, дополнительная профессиональная деятельность, гибкость, поведение.

THE INFLUENCE OF ETHNOCULTURAL VALUES ON THE FLEXIBILITY OF THE BEHAVIOR OF MODERN ENTREPRENEURS

*Ulugova Shahlola Musliddinovna,
associate professor, candidate of psychological sciences,
Bukhara State University, Department of psychology and sociology*

Abstract: the article talks about the influence of ethnocultural values on the flexibility of the behavior of entrepreneurs. The average-general, comparative-typical indicators of the effect of «ethnocultural values» on the flexibility of behavior formed on the basis of the register of values in entrepreneurs are presented. Priority psychological qualities and social direction of female business leaders who have chosen a secondary professional activity have been revealed.

Key words: entrepreneurship, ethnocultural values, register of values, secondary professional activity, flexibility, behavior.

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kundan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iqtisod» kabi tushunchalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib

qoldi. Bunga dalil sifatida 1959 yili Moskvada «Xorijiy va milliy lug'atlar davlat nashriyoti» tomonidan chop etilgan, 40 mingdan ortiq so'zdan iborat «O'zbekcha-ruscha lug'at»ga ham, 1988 yili O'zSE Bosh redaksiyasi tomonidan chop etilgan 50 ming so'zlik «O'zbekcha – ruscha lug'at»ga ham «qadriyat», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy bozor», «milliy iqtisod» kabi tushunchalarning kiritilmaganligini ko'rsatish mumkin.

Masalan, «Falsafiy ensiklopediya»ning (1970) beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ, belgilovchi-bag'ishlovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra obyektiv (ashyoviy) va subyektiv (ong) qadriyatlarini bir-biridan farqlanadi».

N.X. Lutfullaeva ilmiy izlanishlari natijasiga tayanadigan bo'lsak, qadriyatlar fenomeni psixologiyada turli talqinga ega. Jumladan, qadriyatlarining mafkuraviy, axloqiy, estetik va boshqa turlari mavjud bo'lib, ular odamlarning atrof-muhit va voqelikni baholashi uchun asos sifatida namoyon bo'ladi. Odatda qadriyatlar ijtimoiy tajribani egallash jarayonida shakllanib boradi hamda maqsadlar, g'oyalar, ideallar, e'tiqodlar shaklida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar tizimi shaxs yo'nalganligini mazmun jihatidan izoh etadi va uning borliqqa, o'zga kishilarga, o'ziga nisbatan munosabatining ichki asosini belgilaydi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, hayotiy faollik motivatsiyasining yadrosini, «hayot falsafasi» konsepsiyasi va dunyoqarashning negizini tashkil qiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida qadriyatlar madaniyat vositasida qo'lga kiritiladi, shu sababli bir mamlakatda yashaydigan, bir dinga e'tiqod qiladigan, fuqarolar bir xil qadriyatlarni turli darajada qo'lga kiritadilar. Shuning uchun har bir qadriyatning nisbiy ahamiyati turli individlar uchun turlicha bo'ladi. Marketing psixologiyasiga oid adabiyotlarda, turli qadriyatlarining ahamiyati ham vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, degan xulosaviy fikrlar mavjud bo'lsada, shu sohaning etakchi mutaxassisi M.R. Rokich inson erishgan qadriyatlar unchalik ko'p emas, deb hisoblaydi. U o'z tajribalarida o'n sakkiz xildagi maqsadli (ayrim manbalarda – terminal) va vositali (ayrim manbalarda –instrumental) qadriyatlarni keltiradi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslanilgan zamonaviy jamiyat tadbirkor ayollari xulqining moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar ta'sirini o'rganuvchi metodikalardan biri M.R. Rokichning «Qadriyatlarga yo'nalganlik» metodikasidir. Unda maqsadli qadriyatlar, ya'ni individual mavjudlikning so'nggi maqsadi unga nisbatan intilish bilan ifodalanuvchi turli maqsadli hamda vositali qadriyatlar ya'ni biron bir harakat shakli yoki shaxsning xususiyatlari har qanday vaziyatda ham mos kelishuvchanligi bilan izohlanadigan turli vositali sifatida ajratib ko'rsatilgan. Marketing psixologiyasiga daxldor tadqiqotlarda M.R. Rokich metodikasining V.M. Karimova va N.X. Lutfullaevalar tomonidan mahalliy muhitga moslashtirilgan muallif modifikatsiyasi qo'llanildi. Uning zaruriyati sifatida ikkilamchi kasbiy faoliyatga yoki yangi turdagi mehnat faoliyatiga ayrim etnomadaniy qadriyatlarining ustunliklarini bilishga qaratilgan vazifa bilan bog'liqdir.

Insoniy qadriyatlarni tadqiq qilishda asosiy e'tibor inson erishishga intiladigan eng muhim maqsadlarga qaratiladi. Qadriyatlar insonning ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, nisbatan realroq darajada mavjud bo'ladilar. Ular nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy institutsional asl ehtiyojlarning intellektual ro'yobga chiqarilishidir. Boshqacha qilib aytganda, bu bizning o'zimiz istagan va orzu qilgan narsalar haqidagi fikrlashimizdir.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qadriyatlarining yo'nalganligi muhim oltita omillarga mos holda yaratilgan bo'lib, bir qator hukmlarni o'z ichiga qamrab olgandir. Maqsadli qadriyatlar hukmlar shaklida 18 ta tartib bilan «A» ro'yxatga kiritilsa, vositali qadriyatlar esa «B» ro'yxatda ifodalanib, «A» ro'yxatdagi qadriyatlariga mos ravishda olti yo'nalishga jamlangan. Masalan, maqsadli qadriyatlar

ro'yxatidagi «shaxslararo munosabatlar va etnik normalar» omilidagi 8-sodiq, vafodor do'stlar mavjudligi; 10-atrofdagilarning, jamoaning hurmati; 14-o'zgalari baxti (o'zga kishilarning yaxshi yashashi) kabi qadriyatlar ko'rsatilgan. Bu qadriyatlarni amalga oshirishda esa «B» ro'yxatda keltirilgan vositali qadriyatlar, ya'ni 11-o'zini-o'zi idora etish (bosiqlik, o'zini-o'zi intizomga buysundirish); 12-o'z qarashlarida qat'iy tura bilish va orqaga chekinmaslik; 15-qarashlar kengligi ajratib ko'rsatilgandir.

Aniqlanishicha, ya'ni vositali qadriyatlarni maqsadli qadriyat bilan taqqoslanishicha, yakka tartibdagi tadbirkorlik, xususan, xizmat ko'rsatish va servis faoliyati bilan shug'ullanishni maqsad qilgan 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan talaba-qizlarda maqsadli qadriyatlar qatoridan «moddiy muvaffaqiyat» omiliga oid – 7-; 11-; 15-tartibda turgan qadriyatlar tanlab olinganida, vositali qadriyatlarni tanlash jarayonida esa bozor munosabatlari sharoitida yangi turdagi faoliyat turini bajarishda muvaffaqiyatni belgilovchi qadriyatlarni emas, balki umuman boshqa bir qadriyatlar to'g'risida fikr yuritilgan. Bunday nomutanosiblik sinaluvchini bozor munosabatlariga asoslanadigan jamiyatda yoki o'zgarishlar jarayonida ikkilamchi kasbiy faoliyatga tayyor emas, deb baholanishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotni amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish uchun biz tomonimizdan kiritilgan ayrim juz'iy o'zgartirish (modifikatsiya) – birinchidan – tadqiqotchiga respondentning maqsadli va vositali qadriyatlarining o'zaro moslik darajasini tahlil etishga, xotin-qizlarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga ijtimoiy-psixologik moslashishini aniqlashga hamda ular xulqining moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar ta'siri darajasini yoritishga imkon beradi. Aniqlanishicha, ushbu moslik qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik subyekt tomonidan hayotdagi maqsadlariga erishish va amalda qo'llashning rejalarini anglanganligi yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi, bu esa shaxsning yetukligidan hamda faoliyatga yo'nalganligi akmeologik motivatsiyaga daxldorligidan dalolat beradi. Moslik darajasining pastligi, subyektning hayotda o'z maqsadlariga qanday erisha olishni anglashning yo'qligidan guvohlik beradi, ya'ni sinaluvchining hissiy-irodaviy doirada to'la shakllanmaganligini ko'rsatadi hamda ikkilamchi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatsizliklarga uchrashidan darak beradi.

Ikkinchidan, kiritilgan modifikatsiya dominantlik va inkor etuvchi maqsadli qadriyatlar hamda vositali qadriyatlar bo'yicha statistik tahlil qilishga imkon yaratadi, o'rganilayotgan xotin-qizlar guruhini bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mexanizmlar, jihatlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etishga hamda pilotaj bosqichda qo'llanilgan tadqiqotning boshqa metodlari orqali qo'lga kiritilgan natijalarga qo'shib, ikkilamchi kasbiy moslashuv samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Xotin-qizlarda olib borilgan tadqiqotning M.R. Rokich metodikasi bo'yicha olingan natijalari 1-jadvalda o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, respondentlar maqsadli qadriyatlar qatoridagi «ijtimoiy mavqei, lavozim (jamoatchilikda tan olinganlik)», «o'z-o'ziga bo'lgan ishonch (ichki xotirjamlik)», «ijodiy mahsuldor faoliyatli hayot (mavjud qobiliyat, kuch va imkoniyatdan foydalanish)» (n=146 nafar) kabilarni eng muhim qadriyatlar sifatida e'tirof etadilar. Ta'kidlash lozimki, o'zini-o'zi baholash deganda, insonning biron muammoli vaziyatga nisbatan o'z kuchi va qobiliyatlarini moslashtirish jarayoniga aytiladi. Shaxs qarshisidagi masala echimining murakkabligini aks ettirgan holda va bu echimni o'z imkoniyatlari bilan qiyoslagan holda o'ziga-o'zi yuqori, adekvat-mos yoki past baho berishi mumkin.

1-jadval

Qadriyatlar reestri asosida shakllangan xulq moslashuvchanligiga «etnomadaniy qadriyatlar» ta'sirining o'rtacha-umumiy, qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari (n=295)

№	Ijtimoiy mavqei	Respondentlar soni	Maqsadli						Vositali					
			1-da- raja		2-da- raja		3-da- raja		1-da- raja		2-da- raja		3-da- raja	
			o'zbek	tojik	o'zbek	tojik	o'zbek	tojik	o'zbek	tojik	o'zbek	tojik	o'zbek	tojik
1	Xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi xotin-qizlar	n=36	10	3	6	7	7	3	9	4	7	6	7	3
2	Kasanachilik bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar	n=124	33	41	18	7	20	5	11	23	43	18	17	12
3	Tadbirkor rahbar ayollar	n=58	7	3	28	4	6	10	21	9	8	6	12	2
4	Talaba qizlar	n=77	23	8	15	8	15	8	17	6	17	10	19	8
	Jami	n=295	73	55	67	26	48	26	58	42	75	40	55	25
	A		$\chi^2 = 49,04316; R < 0,001$											
	B		$\chi^2 = 12,88245; R < 0,01$											
	V		$\chi^2 = 13,92388; R < 0,01$											

Yuqori baholash xususiyatiga ega xotin-qizlar o'zlarini har qanday masalaning uddasidan chiqa oladiganday tutishadi, o'z kuchlari va qobiliyatlariga haddan ziyod ishonishadi. Adekvat ravishda o'zini baholash darajasidagi bugungi kun ayoli esa echimni o'z qobiliyati va imkoniyati bilan haqqoniy tarzda taqqoslay oladi hamda o'z mas'ulligiga keragidan ortiq vazifani qabul qilmaydi. Shuningdek, «rivojlanganlik (o'z ustida ishlash, ma'naviy mukammallashuv)», «anglanganlik (ma'lumoti, intellektual salohiyatini kengaytirish imkoniyati)» (n=110 nafar) ikkinchi darajali muhim qadriyat sifatida tanlangan bo'lsa, «qiziqarli ish» (n=82 nafar) qadriyati uchinchi o'rinda tan olindi. Yuqori darajadagi ko'rsatkichga ega bo'lgan qadriyat sifatida ta'kidlaganimizdek, «o'z-o'ziga bo'lgan ishonch (ichki xotirjamlik)» – o'zbek xotin-qizlarida 2,7%, tojik millatiga mansub ayollarda – 2,4%; «ijtimoiy mavqei, lavozim (jamoatchilikda tan olinganlik)», – o'zbeklarda 2,4%, tojiklarda – 3,1%; «ijodiy mahsuldor faoliyatli hayot» – o'zbeklarda 5,1%, tojiklarda – 4,4% ekanligi bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi mehnat faoliyat turini tanlagan xotin-qizlar uchun katta hayotiy ahamiyat kasb etishi aniqlandi hamda o'ziga etnopsixologik xususiyatni namoyon etdi. Aniqlanishicha, bu toifa guruh vakillari faoliyatining mazmunini «shaxslararo munosabatlar, etnik normalar», «ijtimoiy faollik» va «professional jihatdan o'zini namoyon eta olish»ga yo'nalganlik omillari kompleksi tashkil etadi, ularning shart-sharoitga moslashishida etnomadaniy qadriyatlar ta'siri bevosita ekanligidan, mamlakatimizdagi xotin-qizlar siyosatining insonparvarligidan darak beradi hamda buni biz birinchi psixologik jihat sifatida ajratamiz.

Tadqiqot natijasiga ko'ra «oiladagi munosabatlarning ishonchliligi va mustahkam ekanligi», «yoqimli ko'ngilxushlik (dam olish)», «sog'lik, tetiklik» kabilar kam tanlangan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Eng kam ko'rsatkichga ega qadriyatlar sifatida esa «moddiy qadriyatlarning mavjudligi (avtomobil, uy-joy)» – 1,0%; «yashash sharoitidagi qulaylik komfort» – 0,7% va «muhabbat va sevgi» – 0,3% aniqlandi. Ya'ni, ko'pchilik xotin-qizlar bozor iqtisodiyoti zarurati bilan ikkilamchi kasbiy faoliyatni (masalan, davlat sektoridan, ya'ni avvalgi o'qituvchilik, hamshiralik va boshqa faoliyat turidan xususiy sektorga, ya'ni yakka tartibdagi tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va servis sohasiga o'tishi) tanlashgan bo'lishsa ham o'zini moddiy jihatdan qiyinchilikni boshdan kechirayotganlar safida tasavvur etmaydilar. Hamisha o'zini tetik, bardam his qilish, salomatligi yaxshi bo'lsagina, professional (tadbirkorlik) faoliyatni shaxsiy (oilaviy turmush) hayot bilan muvofiqlashtirish mumkinligi to'g'risidagi fikri esa yuqorida e'tirof etilgan qadriyatlarning muhimligini qayd qilganliklari bilan izohlanadi. Bundan tashqari, sodiq va vafodor do'stlarning mavjudligi, bozor munosabatlariga kirishishda hamkorlik faoliyatini shakllanishiga turtki beradi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida xotin-qizlar uchun (masalan, Buxoro viloyatidagi etnik guruhlar) muloqot muhitining iliqqligi va sherikchilikning mavjudligi o'ziga xos etnomadaniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bozor munosabatlari sharoitida mehnat qilayotgan xotin-qizlar faoliyatini keng qamrovli tadqiqot dasturi doirasida o'rganish va olingan natijalar tahlili, xotin-qizlar ikkilamchi kasbiy moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar ta'sirining bilvositaligi yuqoridagi psixologik mexanizmni asoslash imkoniyatini beradi. Birinchidan, maqsadli qadriyatlar kishi faoliyatini eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan professional faoliyatga tayyorligining mavjudligini ko'rsatuvchi omil sifatida biz uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchidan, vositali qadriyatlar ustunliklar shaklida ijtimoiy xulqda namoyon bo'lishiga kafolat sifatida, zamonaviy shaxs xulqining moslashuvchanligiga etnomadaniy qadriyatlar va etnopsixologik xususiyatlar ta'siri borligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Иқтисодий психология. - Т., 2005.
2. Карпов А.В. Психология менеджмента: Учебное пособие.-М.: Гардарики.
3. Хайитов О.Э., Очилова Г.О. Тadbirkorlik психологияси: ўқув қўлланма. Т.: «Fan va texnologiya», 2008.
4. Улугова Ш.М., Нематова Р.Р. “Воздействие ценностей на приспособление женщин к рыночным отношениям”. Наука. Мысль: электронный периодический журнал. №6– 1 за 2016.
5. Улугова Ш.М., Акрамов А.А. “Тadbirkorlik шахси фаолиятида иқтисодий жараёнлар”. “Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness”. Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.B - 156-160.

INSON PSIXIK TARAQQIYOTI DETERMINATSIYASI

Xasanova Shoirajumayeva

Maqolada insonning psixik taraqqiyoti determinatsiyasi xususida fikr boradi. Deterministik yondashuv psixik rivojlanish haqidagi ko'p o'lchovli bilimlar tizimiga alohida jihat sifatida kiritilgan va uning mohiyatini, harakatlantiruvchi kuchlarini ochishga qaratilgan. Insonning turli xil rivojlanayotgan ekologik va ijtimoiy tizimlardagi ishtiroki individual rivojlanishni aniqlashning o'ta murakkabligi va heterojenligini, uning biologik va ijtimoiy qonunlarining shartlilikini belgilaydi. Shu bilan birga, uning psixik evolyutsiyasida mehnat, muloqot va bilish sub'ekti sifatida shaxsning o'zini tutgan o'rnini hisobga olish muhimdir.

Kalit so'zlar: determinatsiya, psixiy taraqqiyot, deterministik yondashuv, rivojlanish, ijtimoiy tizim

Deterministik yondashuv psixik rivojlanish haqidagi ko'p o'lchovli bilimlar tizimiga alohida jihat sifatida kiritilgan va uning mohiyatini, harakatlantiruvchi kuchlarini ochishga qaratilgan. Insonning turli xil rivojlanayotgan ekologik va ijtimoiy tizimlardagi ishtiroki individual rivojlanishni aniqlashning o'ta murakkabligi va heterojenligini, uning biologik va ijtimoiy qonunlarining shartlilikini belgilaydi. Shu bilan birga, uning psixik evolyutsiyasida mehnat, muloqot va bilish sub'ekti sifatida shaxsning o'zini tutgan o'rnini hisobga olish muhimdir. Psixik rivojlanishning aniqlanishi (sababliigi) masalasi dastlab falsafada ko'tarilgan. Rivojlanishda qaysi omillar (harakatlantiruvchi kuchlar) - biologik (ichki, tabiiy, irsiyat bilan bog'liq) yoki ijtimoiy (tashqi, madaniy, atrof-muhit) eng muhim rol o'ynashi haqida uzoq vaqtdan beri bahs-munozaralar mavjud.

An'anaga ko'ra, rivojlanishning shartlilik bo'yicha ikkita ekstremal nuqtai nazar ajralib turadi - tabiat (irsiyat) yoki atrof-muhit (tarbiya, ta'lim) bo'yicha.

Tabiiy pozitsiya - nativizm - frantsuz faylasufi J.J.ning nomi bilan bog'liq. Russo (1712-1778), u rivojlanishning tabiiy qonunlari borligiga ishongan va bolalar kattalarning faqat minimal ta'siriga muhtoj. Biologiyada rivojlanishni oldindan ko'zda tutilgan (oldindan tuzilgan) biogenetik dasturning qo'llanilishi, uning hayotning haqiqiy jarayonida timsoli sifatida talqin qiluvchi yo'nalish mavjud edi. Preformizm - bu tanani « biologik matryoshka qo'g'irchog'i » deb hisoblaydigan ta'limot.", unda barcha keyingi avlodlarning embrionlari mavjud va shuning uchun unda hech qanday yangi narsa paydo bo'lishi mumkin emas, na takomillashtirish, na evolyutsiya kerak. Psixologiyadagi preformist nativistlar bilim va ko'nikmalar inson tanasining tuzilishiga kiritilgan, shuning uchun ularning repertuari tug'madir va shuning uchun irsiyat hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bunday holda, rivojlanish kamolot va o'sish jarayonlari, inson va jamiyatning tarbiyasi, ta'limi va ongli faoliyatidan qat'i nazar, katta darajada sodir bo'ladigan irsiy xatti-harakatlar dasturini amalga oshirish bilan tenglashtiriladi. Shunday qilib, rivojlanishning bu turi, eng boshida hodisa o'tadigan bosqichlar oldindan belgilab qo'yilgan va hodisa erishadigan yakuniy natija oldindan tuzilgan deb ataladi. Oldindan tuzilgan tur, masalan, quyidagilarni o'z ichiga oladi: organizmning embrion (intrauterin) rivojlanishi. Va psixologiyada, shuningdek, bolaning aqliy rivojlanishini oldindan tuzilgan (S. Xoll kontseptsiyasi) sifatida taqdim etishga urinishlar qilingan.

Aksincha, ingliz faylasufi J. Lokk(1632-1704) yangi tug'ilgan bola tabula rasa (bo'sh varaq)ga o'xshaydi va shuning uchun uning rivojlanishida o'rganish va hayot tajribasi va hech qanday holatda tug'ma omillar katta ahamiyatga ega emasligini ta'kidlaydi. Biologiyada rivojlanish yo'li oldindan belgilanmagan bo'lsa, ketma-ket neoplazmalar orqali rivojlanish ta'limoti epigenez deb ataladi. Falsafa va psixologiyada bu pozitsiya empirizm va sensatsionizm yo'nalishlari bilan ifodalangani.

Biologik evolyutsiyaning borishi, jamiyatning tarixiy rivojlanishi rivojlanishning oldindan shakllanmagan turiga misoldir. Zamonaviy tadqiqotchilar rivojlanishning umumiy yakuniy nuqtasi g'oyasini va unga erishishning o'zgaruvchan usullarini birlashtirib, rivojlanish jarayonining mohiyatini ochib berishga harakat qilmoqdalar. Ko'pincha rivojlanish jarayoni uchun metafora sifatida « epigenetik landshaft» tushunchasi ishlatiladi.», evolyutsion biolog C. Waddington tomonidan taklif qilingan (1957). Rivojlanayotgan organizm tog'dan dumalab tushayotgan to'pga qiyoslanadi. U aylanib o'tishi mumkin bo'lgan tepaliklar va pastliklar (landshaft) fazoviy joylashuvi mumkin bo'lgan tabiiy rivojlanish yo'llarini va shu bilan birga harakat traektoriyasining cheklovlarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, atrof-muhitdagi ba'zi bir hodisa to'pning o'zgarishiga olib kelishi mumkin, bu endi chuqurroq tushkunlikka tushadi, bu sayozdan ko'ra engish qiyinroq. Metafora tasvirlaydigan rivojlanishning eng muhim tamoyili shundaki, bir xil natijaga turli yo'llar bilan, tezroq yoki sekinroq erishish mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishi tabiatining asl ko'rinishi L.S. Vygotskiy. Uning fikriga ko'ra, bolaning rivojlanishini oldindan belgilanmagan ma'noda oldindan belgilanmagan deb atash kerak, ya'ni. yutuqlarning mazmuni, shakllari va darajasini belgilaydigan irsiy dastur. Ammo bu baribir yuqoridan - ideal shakllar bilan belgilanadigan alohida rivojlanish jarayoni: tarixiy sharoitlar, jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati darajasi, hozirgi bosqichda jamiyatda mavjud bo'lgan amaliy va nazariy faoliyat shakllari. A. N. Leontiev shu munosabat bilan, ijtimoiy naqshlarni, ideal shakllarni assimilyatsiya qilish shaklida sodir bo'lgan bola rivojlanishining yakuniy shakllari berilmaydi, balki «atrofdagi dunyoning ob'ektiv hodisalarida o'rnatiladi».

Insonning aqliy rivojlanishini aniqlash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u turli omillar, bosqichlar va ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Aqliy rivojlanish deganda shaxsning butun umri davomida kognitiv, hissiy, ijtimoiy va psixologik qobiliyatlarning o'sishi va kamolotini tushunadi. Insonning aqliy rivojlanishini tushunish va aniqlashda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar:

Genetika va biologiya: Genetika omillari shaxsning kognitiv qobiliyatlari, temperamenti va aqliy rivojlanish uchun umumiy salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Genetik moyillik aql, xotira va hissiy tartibga solish kabi omillarga ta'sir qilishi mumkin.

Bolaning erta rivojlanishi: Hayotning dastlabki yillari aqliy rivojlanish uchun juda muhimdir. Ushbu davrda miyaning rivojlanishi tezdir va kelajakdagi o'rganish va xatti-harakatlar uchun asos yaratadi. To'g'ri ovqatlanish, hissiy tajribalar va rag'batlantiruvchi muhit sog'lom kognitiv o'sishga yordam beradi.

Kognitiv bosqichlar: Insonning aqliy rivojlanishi turli xil kognitiv bosqichlar bilan belgilanadi, masalan, tilni o'zlashtirish, muammolarni hal qilish qobiliyati, mavhum fikrlash va mantiqiy fikrlash. Ushbu bosqichlar odamlar va madaniyatlarda farq qiladi.

Ta'lim va atrof-muhit omillari: Sifatli ta'lim va boyitish muhitiga kirish aqliy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta'lim tajribasi, turli g'oyalarga ta'sir qilish va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar kognitiv o'sishga va ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi.

Ijtimoiy va hissiy rivojlanish: Aqliy rivojlanish nafaqat kognitiv qobiliyatlar, balki hissiy va ijtimoiy o'sishni ham o'z ichiga oladi. Hissiy intellekt, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish inson rivojlanishining muhim jihatlari.

O'smirlilik va shaxsiyatning shakllanishi: o'smirlilik yillari kognitiv va hissiy jarayonlarda sezilarli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. O'smirlarda o'ziga xoslik tuyg'usi shakllanadi, o'z e'tiqodlari va qadriyatlarini o'rganadi, mustaqil qaror qabul qila boshlaydi.

Voyaga etish va qarish: O'zgarish tezligi sekinlashishi mumkin bo'lsa-da, aqliy rivojlanish balog'at yoshida davom etadi. Ushbu bosqichda umrbod ta'lim, yangi

muammolarga moslashish va kognitiv salomatlikni saqlash muhim omillarga aylanadi.

Atrof-muhit omillari: Ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniy kelib chiqishi, oila dinamikasi va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi - barchasi shaxsning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Ijobiy va tarbiyalovchi muhit sog'lom kognitiv va hissiy o'sishga yordam beradi.

Neyroplastiklik: miyaning o'rganish, tajriba va atrof-muhit o'zgarishlariga javoban moslashish va o'zini qayta tashkil etish qobiliyati neyroplastiklik deb nomlanadi. Bu hodisa miyaning doimiy aqliy rivojlanish qobiliyatini asoslaydi.

Shaxsiy farqlar: Har bir insonning aqliy rivojlanishi o'ziga xosdir. Iste'dodlar, qiziqishlar, o'rganish uslublari va qiyinchiliklarning o'zgaruvchanligi aqliy o'sishning turli traektoriyalariga yordam beradi.

Insonning aqliy rivojlanishini aniqlash kuzatish, baholash va tadqiqotning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Psixologlar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar hayotning turli bosqichlarida aqliy rivojlanishni o'rganish va o'lchash uchun standartlashtirilgan testlar, rivojlanish bosqichlari, kognitiv baholash va xatti-harakatlarni kuzatish kabi turli usullardan foydalanadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, aqliy rivojlanish ko'plab omillar ta'sirida dinamik va doimiy jarayondir. Bu nafaqat genetika bilan belgilanadi, balki tajriba, imkoniyatlar va insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati bilan ham shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. «Umumiy psixologiya» . A.V. Petrovskiy taxriri. Toshkent, 1992 yil.
2. E. Goziyev. Psixologiya. Toshkent , 1994 yil.
3. M. V. Voxidov. Psixologiya. Toshkent , 1981 yil.
4. M. G. Davletshin. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Toshkent , 1974 yil.

O'QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Yuldashova Dilafruz Shavkatovna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchi*

Annatsiya: Mazkur maqolada talabalar orasida kuzatilyotgan o'quv motivatsiyasining pasayib ketishi, o'quv motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ayniqsa oila muhitining roli xorijlik olimlarning tadqiqot natijalariga asoslangan holda tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: motiv, motivatsiya, o'quv motivatsiya, shaxslararo munosabatlar, motivatsiyani rivojlantiruvchi omillar, oila muhiti.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ

*Юлдашова Дилафруз Шавкатовна,
преподаватель кафедры психологии Ташкентского государственного педагогического университета.*

Резюме: В данной статье наблюдается снижение учебной мотивации у студентов, факторы, влияющие на формирование учебной мотивации, особенно роль семейного окружения проанализирована на основе результатов исследований зарубежных ученых.

Ключевые слова: мотив, мотивация, учебная мотивация, межличностные отношения, мотивационное развитие, семейная среда.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF LEARNING MOTIVATION

*Yuldashova Dilafruz Shavkatovna,
is a teacher at the Department of Psychology of Tashkent State Pedagogical University*

Abstract. In this article, the decrease in educational motivation observed among students, the factors affecting the formation of educational motivation, especially the role of the family environment was analyzed based on the research results of foreign scientists.

Keys words: motive, motivation, educational motivation, interpersonal relations, factors that develop motivation, family environment.

Kirish. Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylangani hech kimga sir emas. Bu borada ish olib borishda ularning ruhiyatiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozimligi keyingi yillarda ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bugungi yoshlar orasida o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishiga motivatsiyaning yetishmasligidir.

Motiv — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa misollar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Ba'zan «Motiv» tushunchasini «emotsiya», «maqsad», «ustanovka» atamallari bilan almashtirish hollari uchraydi.

Motivatsiya — bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat — bu istak. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya „motiv“ so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari, yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin.

Psixologlar tomonidan katta qiziqish bilan motivatsiya o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Shunga ko'ra, biz ham mazkur maqolada o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik, psixologik xususiyatlarida o'ziga xos ta'sirga ega bo'lgan ijtimoiy muhitdagi ayrim omillar qatorini tahlil qilishga urindik. Adabiyotlar tahliliga tayanib aytish mumkinki, ayrim mutaxassislar motivatsiyaning ikki xil ko'rinishi va ularning o'ziga xos belgilari haqidagi masala chuqur o'rganilgan. Bular ekstrinsiv (tashqi shart-sharoitlar va holatlarga bog'liq bo'lgan holda paydo bo'ladigan) va intrinsiv (shaxs dispozitsiyalari bilan ehtiyojlar, ustanovkalar, qiziqishlar, mayllar, istaklar bilan bog'liq bo'lgan holda paydo bo'ladigan) motivatsiyalardir. (Bu yo'nalishdagi munozaralar X.Xekxauzenning "Motivatsiya va deyatetos" kitobida o'z aksini topgan). Bugun yoshlarda o'quv motivatsiyasini o'rganish va ushbu fenomenning asl mohiyatini ochib berishga urinish mazkur sohada faoliyat yuritayotgan olimlarning diqqat markazida turadi. Keyingi yillarda psixologiya sohasida yoshlarning o'quv faoliyatining turli sohalari, xususan, o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlar tobora ortmoqda. A.N.Leonetev nazariy tafakkurga ega bo'lish, asos sifatidagi bilish motivlarining rivojlanish masalasiga katta e'tiborini qaratgan. U psixik jarayonlarning shunday dinamikasini ochishga harakat qildiki, bunday dinamika motivatsiya rivojlanishi asosida yoshlarni bilimlarni egallashga olib keladi. Kelib chiqadigan motiv - deb yozadi u, - harakat uchun ko'rsatma hosil qiladi. Ammo motivlarning muayyan toifasi (masalan bilish motivi) juda ko'p harakatlarning murakkab tizimi bo'lishini taqozo qiladi. L.N.Bojovich Ta'limni motivatsiyalash muammosi bo'yicha o'z oldiga yoshlarning o'qishga bo'lgan munosabati, psixologik aspektlari qanday maydonga chiqadi degan masalani hal qilishni maqsad qilib qo'yadi. Bu munosabatning psixologik mohiyatini ochadigan muhim jihatlardan biri "yoshlar o'qish faoliyatini" belgilaydigan motivlarning yig'indisi hisoblanadi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o'zaro mustaqil bog'langan, lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uch turi mavjud.

1. Individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirishdir. Faollik holatini paydo bo'lishini subyektiv ehtiyojlarini izohlab beradi.

2. Motivlashtirish faollik kimga qaratilgani boshqa xulq atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlaganligini izohlab beradi.

3. Kishi axloqi va faoliyatini boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bularga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar kiradi. Xulosalar va mushohadalardan ko'rinish turibdiki psixologiya fanini turli sohalarida motiv, motivatsiya muammosi faoliyat, xulq, muomala kategoriyalarini yuzaga kelishi, kechishi, rivojlanishi xususiyatlariga asoslangan holda tadqiq qilingandir unga yondashuv turli tuman bo'lishidan qat'i nazar muayyan darajada umumiylik mavjudligini namoyish qildi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida ular mazmunli tomoniga e'tibor bermay aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Z.Freyd hamma motivatsion qonuniyatlarni faqat dinamik-energetik tushuncha sifatida e'tirof etishadi. Z.Freydning hisoblashicha motivatsiya – bu energetik aspekt tajriba va reaksiyasi Braun va Farber motivatsiya energetik sifatida dinamik funksiyasi ta'limdan farqli assotsiativ boshqaruv funktsiya sifatida ekanligini aniqlaganlar.

Ierarxik, darajaviy tuzilish – bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining ierarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikini tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivatsion sohasining tizimlilik haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha Motivatsion sohaning tizimlilik – motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri ierarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni “ro'yobga chiqarish” munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisi ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi.

Xulosa. Psixologlar o'quv jarayonini, o'quv motivlarini ko'proq anglab yetilgan motivlar bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan ko'rinishdagi, o'quv jarayoniga mayl-istak uyg'otadigan muammoli o'qishni uyushtirish orqali motivlashtirish masalalari bilan shug'ullanishib, motivni, garchi u keng ma'nodagi xulq-atvor determinantasi bo'lishiga qaramay, juda tor ma'noda talqin qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Е. П. Ильин ЭМОЦИИ И ЧУВСТВА Саш-Петербург Москва - Харьков – Минск 2001.

2. Маклаков А.Г. Общая психология М.; “Питер” 2003.

3. Motivatsiya- “Motivation:State, Trait, or Both”, Motivation, Effort, and the Neural Network Model, 202. 93-101 b

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

IQTISODIY XULQ-ATVORNING MOLIYAVIY QARORLAR QABUL QILISH JARAYONIDAGI O'RNI VA O'ZIGA XOS JIHALARI

*Yuldosheva Gavhar O'tkirovna
O'zXIA Din psixologiyasi va pedagogika
kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Xulq-atvor iqtisodiyoti so'nggi yillarda samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish va maksimal foydani ta'minlashda muhim soha sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada iqtisodiy xulq-atvor va xatti-harakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, o'ziga xos jihatlari va insonlarning qaror qabul qilishdagi xilmaxilligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, xulq-atvor omilining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi o'rni va iqtisodiy jarayonlardagi roli, iqtisodiy xulq-atvor va iqtisodiy xatti-harakatlarga sabab bo'luvchi omillar ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy qarorlar, xulq-atvor iqtisodiyoti, moliyaviy xulq-atvor, iqtisodiy psixologiya, tarzitivlik aksiomasi, o'zgarishlar aksiomasi.

РОЛЬ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕШЕНИЙ

*Юлдошева Гавхар Уткировна,
УзХИА кафедра Психология религии и педагогика
стажер-исследователь*

Аннотация: В последние годы поведенческая экономика рассматривается как важное направление в принятии эффективных экономических решений и обеспечении максимальной прибыли. В этой статье упоминаются экономическая и социальная значимость, конкретные аспекты экономического поведения и поведения и разнообразие людей в принятии решений. Также выделена роль поведенческого фактора в принятии финансовых решений и экономических процессов, влияние экономического поведения и факторы, вызывающие экономическое поведение.

Ключевые слова: экономические решения, поведенческая экономика, финансовое поведение, экономическая психология, аксиома транзитивности, аксиома изменения.

THE ROLE AND FEATURES OF ECONOMIC BEHAVIOR IN THE PROCESS OF MAKING FINANCIAL DECISIONS

*Yuldosheva Gavkhar Utkirovna,
UzKhIA Department of Psychology of Religion and Pedagogy
trainee researcher*

Abstract: In recent years, behavioral economics has been seen as an important direction in making effective economic decisions and maximizing profits. This article mentions the economic and social importance, specific aspects of economic behavior and behavior, and the diversity of people in decision making. The role of the behavioral factor in making financial decisions and economic processes, the influence of economic behavior and the factors that cause economic behavior are also highlighted.

Key words: economic decisions, behavioral economics, financial behavior, economic psychology, axiom of transitivity, axiom of change.

Bugungi kunda shaxslarning moliyaviy munosabatlari haqidagi ilmiy bilimlar faol rivojlanmoqda. Moliyaviy munosabatlari muammosining dolzarbligi va amaliy ahamiyati moliyaviy bozorlarning dinamikligi va o'ziga xosligi, shuningdek

shaxslarning moliyaviy mustaqillik ehtiyojining o'sishi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy odam uchun moliyaviy savodxonlik juda muhimdir. Deyarli har kuni odam moliyaviy muammolarga duch keladi va ba'zida qarorlar qabul qilishni, yani pullarni qanday qilib to'g'ri ishlatishni bilmaydi yoki tushunmaydi. Iqtisodiy qarorlar qabul qilish insoniyat hayotining asrlar davomida ajralmas qismi bo'lib kelmoqda va bizning hayotimizdagi moliyaviy mustaqillikka erishish ko'pincha ushbu qarorlarni to'g'ri qabul qilinishi bilan uzviy bog'langan. Bunday qarorlarni qabul qilishda shaxs iqtisodiy xulq-atvori yetakchi rol o'ynaydi. Moliyaviy qarorlar qabul qilish har bir insonning kundalik hayotida mavjud, ya'ni odamlar o'z hayotining ma'lum bir davrida iqtisodiy masalalar bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishadi. Misol uchun, turli xaridlarni amalga oshirish, bank hisob varag'ini ochish, bankdan kredit karta ochish, uy sotib olish va depozitlaridan foydalanish va boshqalar. Ammo insonlar har doim ham o'z moliyaviy qarorlarining oqibatlarini va qabul qilingan xavflarni tushunish uchun yetarli bilimga ega bo'lmaydilar. Insonlarning moliyaviy qarorlari mantiqiy o'ylashdan ko'ra ko'proq hissiyotlar, munosabatlar va xulq-atvor hamda xarakterlaridan kelib chiqadi.

Moliyaviy qaror qabul qilish boshqa har qanday sohadagi singari, ikki yoki undan ortiq harakat yo'nalishidan birini tanlashni o'z ichiga oladi. Agar faqat bitta mumkin bo'lgan yo'nalish bo'lsa, qaror qabul qilish kerak bo'lmaydi. Ko'pincha bor variantlardan birini amalga oshirish qarori qabul qilinganida qaror qabul qilinishidan oldingi mavjud bo'lgan vaziyatni saqlab qolishga yoki oshirishga harakat qilinadi. Кўпинча шахс tanqislik sharoitida turli xil variantlar taqdim etilganda, u o'zining shaxsiy qoniqishlarini maksimal darajada oshiradigan variantni tanlashga harakat qiladi. Aqlli odam o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladi, va tashqi omillar ta'siridan qo'rqmaydi, shuning uchun o'zi uchun nima yaxshi ekanini biladi. Afsuski, shaxsning iqtisodiy xulq-atvori ularning oqilona va to'g'ri qaror qabul qilishga qodir emasligini ko'rsatadi. Iqtisodiy faoliyat va xulq-atvorning oqilonaligi haqidagi iqtisodchilar va psixologlarning qarama-qarshiliklarida eng katta e'tibor iqtisodiy qaror qabul qilish muammosiga qaratildi. Noaniqlik inson mavjudligi shartlarining doimiy, ba'zan hukmron xususiyati bo'lib qoladi.

Qaror qabul qilishning iqtisodiy nuqtai nazari ikkita savolga asoslanadi: «Buning qiymati nima?» va «Buning uchun nima berishim kerak?». Shuning uchun «u» yoki «bu», «hozir» yoki «keyinroq» o'rtasidagi tanlov shaxslarni doimo o'ylantirib keladi. Tanlov amalga oshirilganda esa muayyan muqobillar orasida variantlarni o'zlari uchun «yaxshiroq», «yomonroq» yoki «bir xil» deb ta'riflash bilangina kifoyalanishadi. Ammo inson xatti-harakatlarida hamma narsa unchalik oddiy emas. Misol uchun, talab nazariyasida taqdim etilgan «ochko'zlik» aksiomasini ko'rib chiqaylik: «Agar A savatida B savatchasi bilan bir xil tovarlar bo'lsa, lekin bitta mahsulotning kamida bitta birligi ko'proq bo'lsa, A har doim B dan afzal bo'ladi». Insonlarning iqtisodiy xulq-atvoridan kelib chiqib qarorlar qabul qilish jarayonlari ko'pgina tadqiqotlarda olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Ehtimoliy iqtisodiy xulq-atvorni o'rganish asoschisi iqtisodchi Oskar Mongershteyn va matematik Jon fon Neyman tomonidan «O'yinlar nazariyasi va iqtisodiy xulq-atvor» (1944) kitobida mazkur masalalar atroflicha o'rganilgan. Mualliflar iqtisodchilarga xos bo'lgan kognitiv komponentlarni absolutlashtirish, bo'rttirish tendentsiyasini ko'rsatadilar. Ular qaror qabul qilayotgan shaxsni oqilona, izchil, asosiy maqsadi foyda olish, faoliyatning asosiy tamoyili esa uni maksimalashtirish deb hisoblaydi.

Iqtisodiy xatti-harakatlarda odamlar har doim ham ehtimollik hisob-kitoblarini bajarmaganligi sababli, xavf oldindan hisoblangan tanlov muammolari odamlarning o'zlari hisob-kitob qiladiganlardan farqli xatti-harakatlarni keltirib chiqarishini hisobga olish kerak.

Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida iqtisodiy xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar sirasiga iste'molchi resurslari, motivatsiya, jalb qilish, bilim, munosabat,

shaxsiy qadriyatlar, turmush tarzi, madaniyat, oila va boshqa kiradi. Shaxsning iqtisodiy xulq-atvoriga shaxs mansub bo'lgan ijtimoiy guruhlar ham ta'sir qiladi. Oila, ishdagi hamkasblar, qo'shnilar ta'sir guruhlari sifatida harakat qilishlari mumkin. Yo'naltiruvchi guruhlar normalarni shakllantiradi va inson tafakkuri va xulq-atvorining istiqbolini belgilaydi. Shu sababli oila ta'siriga alohida e'tibor talab etiladi. Oila iqtisodiy jihatdan qiyin vaziyatlarda eng kuchli moslashish qobiliyatini shakllantirish kuchiga ega.

Iqtisodiy qarorlarning insonlar xulq-atvori bilan bog'liqligini o'rganuvchi iqtisodiy psixologiya fani bugungi kunda takomillashib bormoqda. Ta'kidlash joizki, XX asrda Gabriel Tarde, Jorj Katon, Laslo Garai asarlari tufayli iqtisodiy psixologiya ancha rivojlandi. Ular tomonidan kiritilgan foydalilik nazariyasi va vaqtlararo foydalilik modellari e'tirof etildi, ular asosida noaniqlik va vaqtli tanlov sharoitida qarorlar qabul qilish jarayoni haqidagi farazlarni ilgari surish imkoniyati paydo bo'ldi.

Xulq-atvor iqtisodiyoti psixologiyasi - bu ijtimoiy, kognitiv va hissiy omillarning iqtisodiy xulq-atvoriga ta'siri, shaxslar va institutlar tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi va bu ta'sirning bozor o'zgaruvchilari (narxlar, foyda, resurslarni taqsimlash) oqibatlarini o'rganadigan psixologiya sohasidir.

Iqtisodiy xatti-harakatlar esa nisbatan oqilona tanlash maqsadida alternativlarni sinab ko'rish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlardir, ya'ni xarajatlarni minimallashtirish va sof foydani maksimal darajada oshirishni tanlash, bu ko'p jihatdan jamiyatdagi iqtisodiy ongning holati, iqtisodiy fikrlash, iqtisodiy shaxslar va guruhlarining manfaatlari va ijtimoiy stereotiplarga bog'liq bo'ladi.

V.N.Myasshchevning fikricha, insonning iqtisodiy xulq-atvori uning munosabatlari, harakatlari, reaksiyalari va tajribalarida ifodalangan ob'ektiv voqelikning turli jihatlari bilan ongli, tanlangan, tajribaga asoslangan holda bo'ladi.

Iqtisodiy yondashuvga muvofiq, V.I.Verkhovina: «Iqtisodiy xatti-harakatlar - bu shunday ijtimoiy harakatlar tizimiki, unda shaxs birinchi navbatda, turli funksiyalardan foydalangan holda iqtisodiy qadriyatlarni (resurslarni) tanlaydi va ularning muomalasidan foydalanib mukofot olishga intiladi»

Iqtisodiyotda xulq-atvor konsepsiyasining asoschisi nemis sotsiologi

M.Veberdir. U iqtisodiy harakatlar tizimida to'rtta etalon turi borligi haqidagi nazariyani ishlab chiqdi:

- 1) maqsadga yo'naltirilgan;
- 2) qiymat-ratsionallikka yo'naltirilgan;
- 3) Affektivlik-ta'sirchanlikka yo'naltirilgan;
- 4) An'anaviy.

Ko'pchilik hisob-kitoblarni yoqtirmaydi va noaniq taxminlardan foydalanadi. Noaniqlik sharoitida odam o'zini past intellektli saxs kabi tutishi mumkin. Ma'lumki, ehtimolliklarni baholashda tizimli xatolarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- * reprezentativlik ta'siri (kichik namunalarning ishonchliligi ortiqcha baholanadi);
- * vizual effekt (yorqin, esda qolarli voqealar ehtimolini qayta baholash);
- * egosentrizmning ta'siri (apriori ma'lumotni etarli darajada hisobga olmaslik va asosan o'z tajribasidan foydalanish);
- * konservatizm ta'siri;
- * Irvin effekti (kerakli hodisaning ehtimoli yuqori baholangan va istalmagan hodisaning ehtimoli kam baholangan);

Iqtisodiy xatti-harakatlarda shaxs har doim ham ehtimollik hisob-kitoblarini bajarmaganligi sababli, xavf oldindan hisoblangan tanlov muammolari odamlarning o'zlari hisob-kitob qiladiganlardan farqli xatti-harakatlarni keltirib chiqarishini hisobga olish kerak.

Psixologiya va iqtisodiyotda tez-tez ta'kidlanadiki, ko'plab iqtisodiy vaziyatlarda oqilona hisob-kitoblarga qodir bo'lgan shaxslar e'tiborga olinmaydigan, harakatga to'sqinlik qiladigan yoki impuls asosida qaror qabul qilishga moyil bo'lgan saxslardan

ustunlikka egadirlar.

Haqiqiy hayotda tavakkal qilishga tayyorlik qandaydir foyda olish yoki yo'qotishlardan qochish uchun tavakkal qilishimizda namoyon bo'ladi. Subyektning ham, ijtimoiy guruhning ham iqtisodiy xatti-harakati xulq-atvorning iqtisodiy natijasini maksimal darajada oshirishga olib kelmaydi. X.Leybenshteyn, birinchi navbatda, bu iqtisodiy faoliyatning inertsiyasi bilan bog'liqligini aniqladi. Yangi qaror qabul qilish zarurati aniq bo'lmaguncha, sub'ektlar iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarga munosabat bildirmaydi. Shunga ko'ra, ma'lum vaqt davomida foydani maksimal darajada oshirish sodir bo'lmaydi.

X. Leybenshteyn tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy xulq-atvor modellarining tahlili ratsional xulq-atvorni an'anaviy tushunishga boshqa muhim tuzatishlar kiritish imkonini berdi. Firmalarni iqtisodiy faoliyat sub'ektlari sifatida ko'rib, o'zining «X-samaradorlik» nazariyasida u firmalar o'z faoliyati davomida foydani maksimal darajada oshirmaydi va xarajatlarni minimallashtirmaydi, degan xulosaga keldi (buning sabablaridan biri firma xodimlarining motivatsiyasi va firmaning maqsadlari o'rtasidagi farq).

Shunday qilib, iqtisodiy xatti-harakatlar, shuningdek moliyaviy qarorlar qabul qilish xususiyati ko'p omillarga bog'liq hisoblanib, bu borada natijaviy qarorlar qabil qinishi uchun samara beruvchi shaxs xususiyatlarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Малахов С.В. Основы экономической психологии: учеб. пособие / Под ред. Задорожнюка И.В. – М., 1992. Тема 1. Теория принятия решения и выбора в экономической психологии.

2. Основы экономической психологии: учеб. пособие / Под ред. д.э.н., проф. В.М. Соколинского. – М.: ФА, 1999. Глава 2. Личность в экономике.

3. Дейнека О.С. Экономическая психология: учеб. пособие. – СПб.: Изд-во С.-Петербург. ун-та, 2000. Модуль 1.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Ядгарова Г.Т

к.п.н.(P.hD), – доц.кафедры «Педагогика» Бухарского Государственного Педагогического Института

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются психологические особенности учебно-воспитательного процесса. Психологические основы и коммуникативная компетентность учителя в ее деятельности. Творческая деятельность в малых группах и факторы их развития.

Ключевые слова: психологический подход, учебно-воспитательный процесс, совместная работа, творческая деятельность, коммуникативность, общение, развитие, процесс обучения, мотивация.

Abstract: This scientific article discusses the psychological features of the educational process. Communicative competence and the psychological approach of the teacher in his work, it also highlights the creative activities in small groups and their development factors.

Keywords and concepts: psychological approach, educational process, teamwork, creative activity, communication, communication, conversation, educational process, motivation.

И в теории и в практике когда речь идёт о образовательном или же об учебно-воспитательном процессе мы непосредственно обращаемся к психологии. Потому что это наука о закономерностях психической жизни и деятельности человека и различных форм общностей людей. И в тоже время традиционно основным объектом психологии является человек. В таком случае психология — это наука о закономерностях возникновения, формирования, развития, функционирования и проявлений психики людей в различных условиях и на разных этапах их жизни и деятельности. А предметом изучения психологии является психика. Психика — это внутренний духовный мир человека: его потребности и интересы, желания и влечения, установка, оценочные суждения, отношения, переживания, цели, знания, умения, навыки поведения и деятельности и т. п. Изходя с этого точка зрения учителя или же педагога должны подходить к учебно-воспитательному процессу более психологическим подготовленным. Как нам известно учебно-воспитательном процессе психика учащихся проявляется в его высказываниях, эмоциональных состояниях, мимике, пантомимике, поведении и деятельности, их результатах и других внешне выражаемых реакциях: например, покраснении (побледнении) лица, потоведении, изменениях в ритмике сердца, артериальном давлении и др. При этом учителям важно помнить, что ученик может скрывать свои действительные мысли, отношения, переживания и другие психические состояния. На сегодняшний день можно сказать общая цель современного воспитания состоит в том, чтобы сделать детей высоконравственными, духовно богатыми, внутренне свободными и ответственными личностями. Воспитание становится эффективным, когда педагог специально выделяет его цель, к которой стремится. Наибольшая эффективность достигается в том случае, когда цель воспитания известна и понятна воспитаннику и он соглашается с ней, принимает ее. Воспитание является наравне с обучением процессом, в котором происходит усвоение ребенком общественного опыта. В отличие от обучения, связанного с развитием познавательных процессов, способностей, приобретением знаний, формированием умений и навыков, воспитание нацелено на формирование человека как личности, его отношения к миру, обществу, людям, к самому себе. Общими для обучения и воспитания являются основные механизмы приобретения человеком социального опыта, а специфическими, отличающимися

их друг от друга, – результаты этих процессов. Результаты обучения – это знания, умения и навыки, а воспитания – свойства и качества личности, формы ее социального поведения.

Основная задача психологического подхода учителя в этом процессе состоит в познании истоков и индивидуальных особенностей психики ученика, формирования его личности, функционирования и проявлений возможностей его психики и влияния учителя на поведение и учебную деятельность ученика. Не менее важной задачей учителя-педагогов является работа с родителями по повышению их стрессовой устойчивости и психологической надежности при решении профессиональных и других задач в различных обстоятельствах жизни и деятельности.

Психологический подход к учебно-воспитательному процессу от учителя требует особого внимания на индивидуально-психологическим особенностям учащихся. Как нам известно по психологии темперамент это качество биологическое, врожденное, а не приобретенное. Темперамент определяет и обеспечивает скорость, силу и уравновешенность наших реакций. Он проявляется в мышлении, речи, манере общения. Но мы часто забываем что, темперамент не влияет на интересы, успешность, интеллект, деловые качества. И поэтому в учебно-воспитательном процессе возникает разные проблемы. И.П.Павлов своих исследованиях доказал, что темперамент зависит от особенностей высшей нервной деятельности, от соотношения характеристик ее основных процессов — возбуждения и торможения. При этом сила, подвижность и уравновешенность процессов нервной системы человека не всегда соответствуют динамическим особенностям его личности. Однако, что с точки зрения социальной полезности «плохих» людей по темпераменту не существует. Ведь темперамент не несет в себе социального содержания, это всегда конкретное динамическое проявление личности. Темперамент является предпосылкой и основой личностных образований более высокого порядка, например, характера, развития способностей и др.

Характер — система относительно устойчивых психических черт, качеств личности, ее психический склад, который определяет линию поведения человека и выражается в его отношениях к окружающему миру, деятельности, другим людям и самому себе. Эти черты характера формируются с рождения ребенка приблизительно до 16-17 лет, которое больше части относящийся школе. С этой точки зрения можно сказать, что в процессе формирования характера и гормонально развитости ребенка влияние учителя как наставника не менее чем у родителей. В каждой черте характера выражаются отношения каждого человека к конкретным обстоятельствам его жизни и деятельности, а индивидуальное своеобразие его совокупности черт характера личности определяет индивидуально-типические способы ее реагирования на соответствующие ситуации, индивидуальное своеобразие способов и качеств действия и поведения личности в этих обстоятельствах. С одним словом характер — это своеобразный духовный строй жизни личности, одно из центральных психических свойств. Каждому педагогу хотелось бы своего ученика воспитывать устойчивого характера. Устойчивость характера позволяет человеку проявлять целостность своей личности и соответствующим образом вести себя в условиях длительных перенапряжений и отрицательных воздействий социальной и природной среды.

Общество отбирает и сохраняет только те творения, которые наиболее полно отражают определенную стадию развития общества. Чем качественнее и полнее творчество, тем оно важнее для общества и для будущих поколений. По этой причине многие творцы стараются обобщать, и чем выше мера обобщения, тем значимей человек для общества. Именно таких людей творцов, сумевших обобщить в достаточной мере, считают великими. С этой точки зрения можно

сказать творческий подход учителя к учебно-воспитательному процессу это и есть её психологическая основа.

Таким образом, воображение один из познавательных процессов, характеризующий определенный уровень развития сознания личности, ее творческого потенциала. Творчество - это креативная деятельность, порождающая нечто качественно новое и оригинальная неповторимостью и общественно-исторической уникальностью. Творчество специфично для учителя, так как всегда предполагает креативного подхода - субъекта творческой деятельности. Творческий деятельность учителя с его креативности в будущем рождаются новые таланты, творцы и позитивные эмоциональные поколение. Наша сегодняшняя задача заключается в этом.

Педагогическая деятельность всегда носит продуктивный характер, то есть, ее результатом являются преобразования как во внешнем мире, так и в самом человеке: его знания, мотивы, способности. В зависимости от того, какие изменения играют главную роль или имеют наибольший удельный вес, выделяются разные типы деятельности: игровая, учебная, трудовая, познавательная, коммуникативная и другие. Но каждый из нас должен помнить какая бы не было тип деятельности которого мы занимаемся в учебно-воспитательном процессе то там обязательно лежит психологические основы. Иначе нельзя достигнуть нужные результаты.

Литературы:

1. Агеев Д.С. Межгрупповое взаимодействие. Социально-психологические проблемы. М. 2010.
2. Слостенин В.А. Каширин В.П. Психология и педагогика. –М., 2011.
3. Петровский А.В. Общая психология. –М., 2009.
4. Немов Р.С. Психология: В 3 кн. – М., 2007.
5. Реан А. А., Бордовская Н. В., Розум С. И. Психология и педагогика. — СПб.: Питер, 2006.
6. Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы: учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2006.
7. Немов, Р. С. Психология: В 3-х книгах. Кн. 1. Общие основы психологии. – М.: Просвещение; ВЛАДОС, 1995.
8. Психология / под ред. В. Н. Дружинина. – СПб. : Питер, 2001
9. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн. – СПб. : Питер, 1999.
10. Выготский, Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте / Л. С. Выготский. – М.: Просвещение, 1991.

АГРЕССИВ ХУЛҚ-АТВОР БОРАСИДА ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ҚАРАШЛАРИ

Конратбаева Айжамал Базарбаевна

Ажсиниёз номидаги НДПИ 2-босқич таянч докторанти

Аннотация: Инсон ҳаётининг серқирра фаолияти ва турмуш кечириш жараёнида унинг рухияти, психологик жараёнлари муҳим асос ҳисобланади. Инсон узининг ҳаёти давомида нимаики қилмасин, унинг асосида психологик жараёнлар ётади. Буни эса қадимда шарқнинг буюк инсонлари, мўътабар мутафаккирлари олдиндан англаган эдилар. Шунинг учун ҳам ўз асарларида рухий жараёнларга, уларнинг инсон ҳаётидаги ўрнига у ёки бу тарзда баҳо бериб ўтган. Ўтмиш мутафаккирларининг бундай фикрлари, ҳозирда ҳам фан тараккиёти билан боғлиқ ҳолда кўпчилик олимларни

қизиқтириб келмоқда. Мақолада агрессив хулқ-атвор ва бола тарбияси ҳақидаги шарқда яшаб ўтган буюк мутафаккирларнинг психологик, педагогик қарашлари, агрессив хулқ-атвор шаклланишида таъсир қиладиган тарбия омиллари келтирилган. Шарқ мутафаккирларидан Ибн Сино, Беруний, Юсуф Хос Ҳожиб, Абдулла Авлонийнинг таълим-тарбия ва газаб, агрессивлик борасидаги фикрлари ёритилган. Шунингдек, ислом дини ва хадислардан ҳам мисоллар берилган.

Калит сўзлар: агрессив хулқ-атвор, тарбия, бола тарбияси, мутафаккирлар, инсон, энциклопедист олим, психология, объектив ва субъектив омиллари.

ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ

Конратбаева Айжамал Базарбаевна

Докторант НГПИ 2-й степени имени Ажинияза

Аннотация: В процессе деятельности человека и брака важной основой являются его дух и психологические процессы. Что бы человек ни делал в течение своей жизни, в основе этого лежат психологические процессы. И это заранее понимали великие люди Востока, уважаемые мыслители. Вот почему в своих работах он так или иначе оценивал психические процессы и их место в жизни человека. Такие мысли мыслителей прошлого даже сейчас, в связи с развитием науки, большинство ученых

В статье представлены психолого-педагогические взгляды великих мыслителей, живших на Востоке, на агрессивное поведение и воспитание детей, воспитательные факторы, влияющие на формирование агрессивного поведения. Освещаются взгляды восточных мыслителей Ибн Сины, Беруни, Юсуфа Хос Хаджиба, Абдуллы Авлани на воспитание

и гневливость, агрессивность. Также приведены примеры из ислама и хадисов.

Ключевые слова: агрессивное поведение, воспитание, воспитание детей, мыслители, человек, ученый-энциклопедист, психология, объективные и субъективные факторы.

VIEWES OF EASTERN THINKERS ON AGGRESSIVE BEHAVIOR

Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna

Doctoral student of NSPI 2nd stage named after Ajiniyaz

Annotation: In the process of human activity and marriage, his spirit and psychological processes are an important basis. No matter what a person does during his life, there are psychological processes underlying it. And this was understood in advance by the great people of the East, the respected thinkers. That is why in his works he evaluated mental processes and their place in human life in one way or another. Such thoughts of the thinkers of the past, even now, in connection with the development of science, most scientists are interesting. The article presents the psychological and pedagogical views of the great thinkers who lived in the East about aggressive behavior and child upbringing, educational factors influencing the formation of aggressive behavior. The views of Eastern thinkers Ibn Sina, Beruni, Yusuf Khos Hajib, Abdullah Awlani on education and anger, aggressiveness are highlighted. Examples from Islam and hadiths are also given.

Key words: aggressive behavior, upbringing, child upbringing, thinkers, human, encyclopedist scientist, psychology, objective and subjective factors.

Кириш. Шарқ мутафаккирларининг нафақат руҳият ҳақидаги фикрлари, балки барча соҳа буйича билдирилган инсон ҳаётининг фаолияти ва турмуш кечириш жараёнига муносабатини ўрганиш жуда аҳамиятли.

Инсон ва унинг руҳияти ҳақидаги биринчи илмий тушунчалар диний характерда бўлиб, инсоннинг тузилиши масалалари, ёшлар ва уларни тарбиялаш, инсон руҳиятининг ахлоқий масалалари, жамиятдаги ижтимоий-психологик иқлимга таъсир этувчи омиллар ҳамма даврда ўз замонасидан келиб чиққан ҳолда тушунтириб берилади. Қуйида улар билан танишиб чиқамиз.

Абу Али Ибн Сино ҳақиқий энциклопедист олим сифатида ўз даврида мавжуд бўлган деярли ҳамма фанлар билан муваффақиятли равишда шуғулланган ва уларга оид илмий асарлар яратган. Ҳозиргача унинг 242 тага яқин асарлари бизгача этиб келган, уларнинг 26 таси психологияга бағишланган. Ибн Сино ўз тўртликларида инсонларга хос бўлган салбий фикрларни келтирганини кўрсатиб бўлади. У ўзининг характерини кўрсатиб, фақат ўзини тўғри деб, бошқалар билан ҳисоблашмайдиган одамлар характерини кескин

танқид остига олган. Инсон руҳиятидаги бу каби камчиликлар, иккиюзламачиликлар салбий характер сифатида таърифланади [2; 31,46-6]. Киши руҳий ҳолатларининг организмга таъсири ҳар қандай руҳий жараённинг физиологик асослари билан боғлиқ эканлигини, организмга ташқи муҳитнинг таъсири катта бўлишини исботлаш учун Ибн Сино иккита кўзи олиб, улардан бирини оч бўри ёнига боғлаган, иккинчисини эса бўрига кўрсатмай, оддий, тинч шароитда сақлаган. Ҳар иккисига ҳам бир хил миқдорда озуқа берган. Кўп ўтмай бўрига яқин боғланган кўзи бўрининг ҳамлаларидан узоқ вақт кўрққанидан жқда ҳам озиб кетган ва яхши боқилишига қарамай, касаликка учраб ўлган. Оддий шароитда сақланган кўзи эса, кундан кун семириб, тетик яшай берган. Шундан билиш мумкинки, болалар тарбиясида тарбиячи албатта эҳтиёткор бўлиши кераклиги, бола ёмон одатларга ўрганмаслиги учун уни ёмон одатларни кўришдан, ёмон муҳитдан сақлаши керак.

Беруний ғазабдан кутила олмаган кишиларни инсон деган пок номга сазовор эмас, деб таълим берганва ахлоқсиз одамларни қайта тарбиялаш орқали одобли, яхши кишилар сафига қўшилиши, ахлоқсиз ёмон одамлар биринчи навбатда нафсоний ҳирс-ҳавасдан ўзини тозалаши, яхшилар билан яқин муносабатда бўлиши, яхшиларга тақлид қилиб яшаши орқали одам ўзини-ўзи қайта тарбиялаши мумкинлигини исботлашга уринган. Унинг фикрича, ёмонлик иллатини йуқотишнинг асосий йўли унинг илдизларини топиш ва кесиб ташлашдир. Ёмонликнинг шоҳобчалари кўп, аммо уларнинг асоси уч нарса: таъма, ғазаб ва илмсизликдир. Агарда бу асослар қирқиб ташланса, шоҳобчалар қурийдир. Бу асосларнинг негизи эса, иштаҳа ва ғазабдир. Мутафаккирнинг ахлоққа оид фикрлари мазмуни жиҳатидан аҳамиятлидир. Инсонни ахлоқий-психологик қиёфаси ташқи муҳит асосида шаклланади. Инсоннинг хулқ-атвори ўзгариши унинг ўз қўлида эканлиги, тарбия билан боғлиқ руҳий ҳолатлари ўз мақсадлари ва манфаатлари асосида ўзгаришини кўрсатиб ўтади [2; 50-6].

Адабиётлар шарҳи. Тадқиқотчилар томонидан Нақшбандия ижодида шахснинг феноменал умумпсихологик ҳодисалар моҳияти, уларни руёбга чиқаришнинг объектив ва субъектив омиллари, инсонга таъсир этувчи механизмлар ва ҳаракатландирувчи куч юзасидан талқинлар ғояси ва унинг таълимотидан ҳозирги замон ёшларини камол топтиришда қўллаш буйича татбиқий йўл-йўриқлари, комил инсон шахси босқичма-босқич (иерархик) шаклланиб бориши ҳақидаги қонуниятлар ёрқин очиб берилган.[5; 11-6].

Юсуф Хос Хожибнинг «Қутадғу билиг» асарида инсоннинг жамияттаги ўрни, вазифалари, бурчи ҳақидаги масалалар баён этилган. Инсон ўзининг билими ва заковати билан мақсадига эришиши мумкинлиги айтилган. Лекин шундай билими ва заковатнинг қадрига фақат худди ўзларига ўхшаган донолар ва заковатлилар етади, жоҳил

ва нодонлар бундай хислатларга эга эмас дейди [8; 108-б]. Чунки жамиятдаги барча хатолар билимисизлик, жаҳолат туфайли содир бўлишини таъкидлайди. Бу асарда инсонийлик, меҳр-мухаббат, шафқат, инсоф, хушмуомалалик, ҳурмат, ҳалоллик каби хислатлар улуғланса, ёлғончилик, меҳрсизлик, дағаллик, бахиллик, очкўзлик, нодонлик, жоҳиллик, ғазаб каби хислатлар қаттиқ қоралади.

Абдулла Авлоний ўзининг «Туркий гулистон, яхуд ахлоқ» асарида ғазабни ёмон хулқ қаторига киргизади. У ғазаб – деб бир киши иккинчи кишига шиддат ва ҳиддат билан муомала қилишига айтилади дейди. Бу туйғу инсонга бир қуввайи муруфиа бўлиб, табиатда мавжуд бўлган ғазаб туйғуси билан бошқалар тарафидан келадиган зарар ва ҳалокатдан ўз нафсини фақат шу сояда сақлайди. Ғазабланган кишилар қанча ақл ва идрок соҳиби бўлса ҳам ғазаб қони кўзгалган замонида ўзини тўхтата олмас, ақл-идрокидан айрилиб, бир ёмон ишни қиладида кейин пушаймон бўлади [3; 41-42-б].

Муҳокама ва натижа. Болада ҳар қандай хулқ-атвор шаклланишида ҳеч шубҳасиз, оиланинг ўрни ва таъсири бекиёсдир. Чунки инсоннинг энс соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характери, табиати ва дунёкарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар — яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир [1; 52-54-б]. Шунинг учун ҳам айнан оила муҳитида пайдо бўладиган ота-онага ҳурмат, уларнинг олдидаги умрбод қарздорлик бурчини чуқур англаш ҳар қайси инсонга ҳос бўлган одамийлик фазилатлари ва оилавий муносабатларнинг негизини, оиланинг маънавий оламини ташкил этади. Одамзот учун бир умр зарур буладиган табиий кўникма ва хусусиятлар, масалан, ҳар қайси боланинг ўзига ҳос ва ўзига мос қобилияти, атрофидаги одамлар билан муомаласи, тенгдошлари орасида ўзини қандай ҳис қилиши, етакчилик хислатларига эга бўлиши ёки эга бўлмаслиги, керак бўлса, дунёкараши — уларнинг барчаси аввало унинг туғма табиати, шу билан бирга, оилада оладиган тарбиясига узвий боғлиқ эканини ҳаёт тажрибаси кўп мисолларда тасдиқлаб беради.

Айнан мана шу даврда бола ҳамма яхши-ёмон нарсани тушуниб, англай бошлайди, унинг беғубор онги бамисоли босма қоғоз сингари оиладаги, ён-атрофдаги барча воқеа-ҳодисаларни, уларнинг замиридаги таассуротларни ўзига шимиб-сингдириб олади. Унинг ота-онасига, бобо ва момоларига меҳри ва ҳурмати, ўзини ўраб турган муҳитга нисбатан муносабати кундан-кунга такомиллашиб боради. Қисқача айтганда, хонадондаги ҳар бир нарса — боланинг кўзига гўёки оламнинг бекиёс муъжизаси булиб қуринади ва шу тарика у ёруғ дунёни ўзи учун кашф қилади. Таассуфки, баъзи ота-оналар ўз фарзандининг ана шундай қизиқиши ва интилишларига, унинг онгу тафаккурида ҳар куни бир ўзгариш руй бериб, кўзида янги-янги саволлар пайдо булаётганига

аҳамият бермайди. Боз устига, агар ота оилада ўзини тутишни билмаса, ахлоқ-одоб бобида фарзандларига ўрناк бўлиш урнига қўпол муомала қиладиган бўлса, бу ҳолат, табиийки, бола маънавий оламининг шаклланишига салбий таъсир кўрсатади, вақти-соати келиб, унинг характерида инсон деган номга нолайиқ хунук бир одат сифатида намоён булади. Ёки оилада қўни-қўшниларни кўролмаслик, фисқу фасод, иғво муҳити ҳукмрон бўлса, ҳеч шубҳасиз, буларнинг барчаси боланинг хотирасида тузатиб бўлмайдиган оғир асорат қолдиради. Умуман, оиладаги муҳит ва тарбия туфайли бола ё меҳрибон ва раҳмдил, ёки худбин ва бағритош бўлиб вояга етиши мумкин.

Фарзанд тарбияси ҳамма даврда ўз долзарблигини йўқотмайди. Бу борада диний уломаларимиз тарбияни учта қисмга ажратиб тушунтиришган. Биринчиси, болага одоб ўргатиш – ота-она болани умрининг биринчи кунларидан бошлаб ҳалол эмизишга, овқатланиш, кийиниш одоби, вақтида ухлаш, бадантарбияга одатланишга, қўп гапирмаслик, бошқаларни гапини диққат билан тинглаш, уят сўзларни гапирмаслик ва ундай улфатларга қўшилмаслик ҳақида айтилган. Агар буларнинг акси бўлса, ота-она боланинг айбини ошқор қилмасдан хато қилганини тушунтириши, хато такрорланса жазолаши лозим. Лекин жазо кўпайтириб юборилмаслиги керак. Чунки бу нарса боланинг бетини қотириб, кейин уялмай ҳар нарсани қилишга одатланиб қолиши мумкин. Иккинчиси, болага таълим бериш – пайғамбаримиз «Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васаллам: «Илм талаб қилиш ҳар бир мусулмон зиммасига фарздир», дедилар». Ислом динида илм олиш бешиқдан то қабргача фарз қилинган. Тарбиянинг учинчи қисми болага жисмоний тарбия бериш – болани ёшлиқдан сузиш, чавандозлик, мерганлик, югуриш каби жисмоний тарбия билан шуғулланишга одатлантиришни кўзда тутган[6; 358, 361,368-6].

Бу айтилган тарбиянинг қисмлари болаларга ёшлиқдан синдирилиб борилса, уларда ҳеч қандай деструктив хулқ-атвор кўринишлари албатта юзага келмайди.

Ғазаб руҳий ёмонлик ҳисобланиб, одамлар орасида пайдо бўлса уларнинг жамиятида катта ёмонликларга сабаб бўлиши ва дўстлик муносабатларининг бузилишига олиб келади. Инсон ғазабланган вақтда мувозанатни йўқотади, ўзини англамайди. Ғазаб ёвузликнинг бошланиши сифатида қаралади. Қуръонда инсонларни ғазабини ичга ютиш билан чекланмай уни юзага келтирган инсоннинг айбини кечиришга чақиради. Инсон ғазабланган вақтда ҳукм қилса, у инсофли ҳукм қила олмас экан. Пайғамбаримиз с.а.в ўз сабрига эга бўлиш ва ғазаб келганда уни бошқара билиш қаҳрамонлик белгиларидан деб айтиб ўтган. Шунингдек, исро сураси 53-оятда мусулмонларни ўзаро суҳбатида, гап-сўзларида ширин сўзли бўлишга буйиради, агар улар буйруққа буйсинмай, ёмон сўзларни ихтиёр қилсалар, албатта, шайтон ораларини бузади ва натижада ёмонлик ва душманлик

келиб чиқади [7; 319, 352-б]. Инсон ғазабланганда ахмоқларча иш қилаётган бўлса да, ўзига ўз обрусини ҳимоя қиляётгандай кўринади. Юмшоқлик, кучли сабрлилик олий сифат ҳисобланади. Шунингдек, ғазабланиш вақтида инсон танасида юз берадиган ўзгаришлар унинг саломатлиги учун зарар эканини ҳозирги давр тиббиёти ҳам тасдиқлаган. Одатда инсон ўзига душманлик қилинганда ёки обрўси тўкилганида ғазаби келади.

Анас ибн Молик розияллоху анхудан ривоят қилинади: «Расуллулох с.а.в. Ўз-аро алоқаларни узманг. Бир-бирингизга орқа ўгириб муносабатларни бузманглар ҳамда ғазаб қилманглар ва бир-бирингизга хасадлашманглар. Эй Аллохнинг бандалари, биродар бўлинглар. Мусулмон кишининг биродари билан уч кундан кўп аразлашиб юриши ҳалол эмас», - дедилар[4; 123-б].

Хулоса. Оилада ёки жамиятда юз берадиган катта-кичик жанжаллар диққат билан кузатилса ҳаммасининг сабаби кўпинча қаттиқ гап ва муомала бўлади. Бир одам ўйламай гапирса, бошқага у гап ёқмайди ва натижада жанжал келиб чиқади. Ширин сўз кўплаган муваффақиятларнинг омили. У ривожланган жамият тузишнинг асосидир. Шунинг учун ҳам агрессив хулқ-атвор шаклланишида болага таъсир этувчи муҳим омил сифатида ота-онанинг, оиланинг ва айниқса кичик мактаб ёши даврида ўқитувчининг ҳам ўрни жуда катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Каримов.И.А. «Юксак маънавият - енгилмас куч». -Т.: «Маънавият». 2008 й.
2. Абдурахмонов.Ф.Р. «Қадимги шарқда психологик фикрлар тараққиёти». Ўқув-услугий кўлланма «Ношир» Тошкент-2012.
3. Абдулла Авлоний. «Туркий гулистон, яхуд ахлоқ». Тошкент-1992й.
4. «Тарбияга оид ҳадислар» Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент-2019й.
5. Холназарова.М.Х. «Нақшбандия тариқатида психологик қарашлар». Пс.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент-2012 йил.
6. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф «Бахтиёр оила». – Тошкент, 2022й.
7. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф «Ийман». – Тошкент-2019.
8. Юсуф Хос Хожиб. «Қутадғу билиг». – Тошкент, Фан нашриёти, 1971й.

КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАР ХУЛҚИДА АФФИЛИАЦИЯ МОТИВАЦИЯСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Шониязова Ирода Мурадуллаевна

Самарқанд давлат университети

Психология ва ижтимоий муносабатлар факультети “Психология
назарияси ва амалиёти” кафедраси ўқитувчиси

УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ РОЛЬ ПАРТНЕРСКОЙ МОТИВАЦИИ В ПОВЕДЕНИИ

PRIMARY SCHOOL STUDENTS THE ROLE OF PARTNER MOTIVATION IN BEHAVIOR

Аннотация: Мақолада кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда аффилиация мотивининг (“to affiliate” – “бирлаштирмақ”, “бирлашмоқ”, “инсоннинг бошқа одамлар даврасида бўлишга интилиши”) тадқиқ қилиш, улар ижтимоий хулқини мувофиқлаштириш орқали маънавий қиёфани шакллантиришга таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар ўрганилади. Миллий тараққиётнинг гарови ҳисобланган шахс маънавий қиёфасининг таркибий қисмига қирувчи аффилиация мотивини талабаларда шакллантириш, бизга ўз мутахассислигида коммуникатив компетентликка эга бўлган, шу жумладан, фуқаролик жамиятини барпо этишда ўз ҳиссасини қўшувчи малакали мутахассис кадрларни тайёрлаб бериш имконини беради. Аффилиация мотивацияси - мулоқотга интилиш, билишга интилиш, ўзини таъкидлаш, манфаатли ҳамкорликка интилиш каби мақсадлар, эҳтиёжлар, мотивлар мажмуидан иборат бўлгани боис, у талабани ўқув фаолияти давомида ақлий, англанилган мулоқот жараёнига ўтишга ундайди, шахслараро муносабатларни яхшилаб, гуруҳий жиспсликни таъминлайди.

Калит сўзлар: креатив тафаккур, ижодкорлик, танқидий фикрлаш, қизиқувчанлик, психологик ривожланиш, қобилият, стереотип, педагогик импровизация.

Актуальность. В статье исследуется мотив аффилиации (англ.: «toaffiliation» — «объединять», «объединять», «стремление человека находиться в кругу других людей») у учащихся младшего школьного возраста, социально-психологические факторы, влияющие на формирование нравственного образа путем координации своего социального поведения. ормирование у студентов мотивации аффилиации, являющейся компонентом духовного образа личности, считающегося залогом национального развития, позволяет подготовить квалифицированных специалистов, обладающих коммуникативной компетентностью по своей специальности, в том числе способствующих становление гражданского общества. Поскольку аффилиативная мотивация состоит из совокупности целей, потребностей, мотивов,

таких как стремление к общению, стремление к познанию, стремление подчеркнуть себя, стремление к взаимовыгодному сотрудничеству, она побуждает учащегося к переходу к мысленному, осознанному общению. процесс во время учебной деятельности, улучшает межличностные отношения, обеспечивает групповую сплоченность.

Ключевые слова: творческое мышление, продуктивность, критическое мышление, любознательность, психологическое развитие, способность, стереотип, педагогическая импровизация.

Annotation: The article examines the motive of affiliation (English: «to affiliation» - «to unite», «to unite», «the desire of a person to be in the circle of other people») in primary school students, socio-psychological factors influencing the formation of a moral image by coordinating one's own social behavior. the formation of students' motivation for affiliation, which is a component of the spiritual image of the individual, which is considered the key to national development, makes it possible to train qualified specialists with communicative competence in their specialty, including those who contribute to the formation of civil society. Since affiliative motivation consists of a set of goals, needs, motives, such as the desire for communication, the desire for knowledge, the desire to emphasize oneself, the desire for mutually beneficial cooperation, it encourages the student to move to mental, conscious communication. process during learning activities, improves interpersonal relationships, ensures group cohesion.

Key words: creative thinking, productivity, critical thinking, curiosity, psychological development, ability, stereotype, pedagogical improvisation.

Мавзунинг долзарблиги. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини куриш иши аввало, адолат ва самимият, меҳр ва мурувват, инсонпарварлик ва бағрикенглик каби юксак қадриятларни ёшлар психологиясида шакллантириш билан ҳамоҳанг олиб борилмоқда. Бундай олийжаноб инсоний сифатлар эса ёшларнинг эҳтиёжларини ўрганиш, улар ижтимоий ҳуқида намоён бўлаётган устивор жиҳатларни ҳар томонлама мукамал ўрга-ниш орқали амалга оширилади. Фуқаролик жамиятини барпо этишга хизмат қилувчи, ҳар томонлама шаклланган, баркамол шахсни вояга етказиб бериш олий таълим муас-сасаларининг биринчи даражали вазифаси экани ҳаммамизга маълум.

Шундай экан, бу борада амалга оширилаётган ишларимизнинг самарадорлиги турли меҳнат жамоалари, биринчи навбатда, ёшлар таълим оладиган гуруҳлардаги шахслараро муносабатларнинг табиатига, уларнинг ўз олдларига қўйган мақсадларни забт этиш тажрибасига, ҳар бир шахсининг ижтимоий муҳитда ўз ўрнини топиши каби эҳтиёж-мотивларга боғлиқлигини кун сайин кўпроқ англаб бормоқдамиз.

Биргаликдаги фаолиятга урғу беришимиздан мақсад, олимларнинг фикрича, айнан бирлашиш, инсонни бошқа инсонлар даврасида бўлишга интилиш эҳтиёжи, буни биз соф ижтимоий психологик тилда

аффилиация мотивацияси феномени деб атаймиз, инсон хавотирланиш даражасини пасайишига, бу эса тўғридан-тўғри психологик стресс ҳолатини олдини олишга ёки юмшатишга олиб келади. Аффилиация мотивациясини қондирилмаслиги эса инсонни ёлғизлик, бегоналашиш, охир-оқибат эса тушкунлик ва депрессияни келиб чиқишига сабаб бўлади. Бу борада олиб борилган кўпгина илмий тадқиқот натижалари юқорида айтилган фикрларга мисол бўла олади[2]. Шунинг учун ҳам дунё амалиётчи психологлари инсонларни кўпроқ мулоқотда бўлишга, ўз ҳиссий кечинмалари билан ўртоқлашиб туришга чорлашади.

Ўрганилганлик даражаси. Айтиш жоизки, инсон хулқ атворини сабабларини ту-шунтириб бериш учун мотивация муаммосига диққат эътиборимизни қаратиш ғоят муҳимдир. Ижтимоий психология ривожланишига салмоқли ҳисса қўшган олим Ю. Платоновнинг ёзишича: "...инсонга таъсир эта билиш, самарали бошқариш учун энг аввало унинг хулқ атворини ва фаолиятини бошқариб турувчи мотивация меҳа-низмларини тушуниш, англаш орқали амалга ошади. Фақатгина инсонни нима, қандай куч ҳаракатга ундашини билиш орқалигина, унинг хулқ атворини бошқарувчи самара-ли шакл ва усулларини ишлаб чиқиш мумкин" [6].

Фикримизча, самарали фаолият кўрсатишнинг муҳим омили бўлиб жамоадаги ўзаро шахслараро муносабатларни тўғри йўлга қўйилганлиги роль ўйнайдик, бунда аффилиация (бошқа инсонларга бўлган интилиш) эҳтиёжининг қондирилганлик даражасининг самаралилигида, энг аввало эмоционал-ишончли мулоқотга бўлган эҳтиёж муҳим роль ўйнайди. Айниқса, педагогик касб эгалари учун аффилиация мотивининг шаклланганлик даражаси биринчи даражали масалалардан бирига айланиши керак, чунки аффилиатив ўзаро таъсир энгиллик, ишонч уйғота олиш, ўзаро тушуниш ва жалб қила олиш, одамларни бирлаштира олиш каби психологик таснифларни ўз ичига қамраб олади.

Психология фанидан маълумки, одам ўзи истаган, кўнгли тортган ишни қилса, доим кайфияти соз, меҳнат унумдорлиги юқори, ён-атрофдагилар билан хушмуомала бўлади. Ижтимоий психологияда бу мавзу кўплаб изланишларда ўз исботини топган. Лекин, бизнинг фикримизча, замонавий ёшларнинг психологияси, уларнинг шерикчилик муносабатлари ва унга сабаб бўлувчи ҳолатларни ўрганиш, шу орқали ўқувчилар орасида ташкил этиладиган профессионал компетентликни оширишга йўналтирилган ижти-мой-психологик дастурлар ва улар учун сценарийлар, маънавий-маърифий тадбирлар учун аниқ тавсиялар ишлаб чиқиш масаласи ўта долзарб ҳисобланади. Чунки аффилиация мотивини назарий талқин қилиш жараёнида шу нарсага амин бўлдики, на ҳоки-миятга интилиш эҳтиёжининг юқори кўрсаткичлари, на муваффақиятга эришиш эҳтиё-жининг юқори кўрсаткичлари текширилувчиларни ижтимоий алоқалар борасидаги ах-боротни тезроқ ўзлаштириш ва хотирада сақлаб қолиш жараёнига ёрдам бера олмас

экан.

Р.С. Немовнинг ёзишича, “...ижтимоий хулқ-атвор мотивларидан бири аффили-ация мотиви ҳисобланиб, у одамлар билан ўзаро яхши муносабатлар ўрнатиш, сақлаб қолиш ва мустаҳкамлаш каби мотив ёки эҳтиёжлар тушунилади. Ташқаридан ушбу мотив инсоннинг одамлар билан ижобий мулоқот, ҳамкорлик ўрнатиш, одамлар ичида доимо бўлиш, улар билан алоқа ва муносабатни сақлаш каби интилишларда намоён бўлади. Ички (психологик) эса, ушбу мотив одамларга нисбатан боғланиш, вафодорлик, ёл-ғизликни оғир кечириш каби ҳислар сифатида олдинга чиқади. Аффилиация мотиви яхши ривожланган инсонлар одамлар билан алоқа ўрнатишда, мулоқот жараёнида, бу бе-восита (юзма-юз) ёки билвосита (алоқанинг турли хил усуллари: телефон, почта, интер-нет ва бошқ. ёрдамида) бўлишидан қатъий назар юқори ижтимоий фаолликни ва та-шаббускорликни намоён этишади. Айнан улар турли мажлислар, учрашувлар, кеча-лар, дам олиш кечаларининг, клуб ва бошқаларнинг фаол иштирокчиларига айланиша-ди” [7].

Бошқа бир ижтимоий психолог Д. Макклелланднинг фикрича эса: “...аффилиация мотиви кучли ривожланган инсонлар ўзларига мулоқотда ўта киришувчан, ўзгалар би-лан тез алоқа ўрната оладиган, дўстона ҳамкор танлашни афзал кўришади. Кузатувлар-га кўра, аффилиация мотивининг юқори кўрсаткичларига эга инсонлар ёлғиз меҳнат қилгандан кўра, дўстона ўзаро муносабатлар яхши йўлга қўйилган гуруҳда кўпроқ юқори кўрсаткичларни намоён этишади” [5]. Бизнингча, айнан шу сабабдан ҳам бундай инсонлар айниқса дўстлик каби муносабатлар доирасини кадрлашади.

Шундай қилиб, юқорида келтирилган фикрларга қўшилган ҳолда, бизнингча, аф-филиация деганда, ҳар иккала томонга ижобий ҳиссиётларни бағишловчи одамлар ўр-тасидаги ўзаро мулоқот асосида қурилган ижтимоий таъсирлар доираси тушунилади. Шахсда ана шундай ички туйғу □ мотивациянинг бўлиши унинг маънавий жиҳатдан юксак бўлишига, жамоавийлик қадриятларини эъзозлаш гуруҳида тарбияланишига му-ҳим замин, фуқаролик позициясида масъулиятлилик, ижтимоий шерикчилик хислатла-рининг намоён бўлишига асос бўлади.

Халқаро тажриба. Ягона мақсад сари элтувчи биргаликдаги гуруҳий фаолиятни моҳирона ташкил этиш тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, энг ривожланган дав-латлардан ҳисобланмиш Япония ишлаб чиқаришида гуруҳий фаолият нечоғлик унумли ташкил этилганлиги ва бу давлат иқтисодий ривожланишига инсоний муносабатлар-даги уйғунлик ва жамоавийлик психологияси муносиб ҳисса қўшиб келаётганлигини кўришимиз мумкин. Гуруҳий фаолият хусусиятларидан бири “жамоавийлик”ка, яъни, шахсий манфаатлардан кўра гуруҳий манфаатларни устунроқ қўйилиши одатий ҳол си-фатида кўрилади. Япониянинг ижтимоий ишлаб чиқариш иерархияси тузилиши жиҳа-тидан пирамидани эслатиб, унинг таркибий қисмига кўпгина гуруҳлар

киради. Ҳар бир гуруҳда катта ва кичик жамоалар мавжуд бўлиб, одатда катталар катта иш стажи, таж-рибаси ва малакасига эгадирлар. Кичиклари эса тажрибасизроқ бўлиб, шу сабабдан ҳам катталар мақоми юқорироқ, ҳурматга сазовор ва уларга ҳамма бўйсунган ҳолда иш ташкил этилади. Натижада хулқ-атворнинг статус-роллик тузилиши келиб чиқади. Уш-бу биргаликдаги фаолият жараёнида гуруҳ вакилларида автономлик, хулқ-атвор эркин-лиги ҳолати пайдо бўлади. Гуруҳдаги ушбу шароит гуруҳ аъзолари томонидан қандай-дир яқин, тушунарли ҳолат каби идрок этилади ва гуруҳий мақсадлар умумий, ягона мақсадларга айланади. Япон халқининг этнопсихологик хусусиятлари бизнинг халқи-миз этнопсихологик хусусиятларига яқин бўлганлиги учун ҳам, бундай ёндашувни биз-нинг амалиётимизга жорий этиш мумкинлигини кўриб чиқиш фойдадан холи бўлмай-ди. Чунки япон ташкилотларининг ишчилари “Гуруҳий муваффақиятлар бу □ сенинг муваффақиятларингдир” шиори остида меҳнат қилишади. Ушбу шиор органик жиҳат-дан японларнинг онги ва онг остига ўрнашиб қолган. Натижада ҳеч қандай маблағлар сарфламасдан туриб япон тадбиркорлари ўз ишчиларининг меҳнат самарадорлигини оширишга эришишади. Шу каби биргаликдаги фаолиятни самарали ташкил этиш таж-рибаси Ю. Платоновнинг изланишлари якунида ҳам келтириб ўтилган. Шу ўринда гу-руҳда ишлаш ёки гуруҳий муносабатлар тизимида таълим олишга хорижлик олимлар-нинг фикрини келтириш ҳам ўринли[6].

Барча маданиятларни индивидуалистик ҳамда жамоавийлик нуқтаи назаридан фарқлаган кўплаб олимлар меҳнатга муносабатнинг ҳам ўзига хос намоён бўлишини исботлаганлар. Масалан, жамоавийлик психологияси устивор бўлган осиеликлар ғарб-ликлардан фарқли ўлароқ, ўзларини корхона ва унинг манфаатларидан ўз манфаатларини айириб тасаввур қилмас экан, яъни улар нафақат ўзларини балки корхонада ҳар бир инсонни бир-бирига боғлиқ тарзда, уйғун тасаввур этади. Иш, ҳамкасблар, компа-ния “Мен” образининг уйғун бўлаклари тарзда тасаввур этилади.

Индивидуалистик психология эгалари эса, ўз “Мен”ини ҳаммаша автоном тасав-вур қилгани боис, ишдан кетиши, иш жойи ёки корхонани алмаштирганда ҳам унчалик депрессия ёки стрессни бошдан кечирмай, янги ишга, жойга кўникиб кетаверади. Маса-лан, америкаликлар ишга ойлик ишлаб топиш, яшаш воситаси дебгина қарашса, кол-лективистик маданиятларда ишга муносабат бошқа бир гуруҳлар манфаати нуқтаи на-заридан ҳам қаралади (масалан, оилани боқиш, тенгқурлар орасида мавқесини кўтариб олиш, “ҳамма ишлагани учун ишлаш” каби). Шу боис ҳам иш жойини ўзгартириш охиригилар учун шу ишлаб турган еридаги масъулиятлардан бирдан кеча олмаслик тар-зида ҳам идрок этилади.

Таълим муассасаларида (масалан Латане, Ирли) хитойлик ўқувчилар ўртасида ўтказилган изланишларда уларнинг ишга муносабати, масъулияти ва тиришқокликлари гуруҳ шароитида жуда юқори кўрсаткичлар берганлиги исботланди (social vigorous). Хитойлик ва

японияликларни меҳнат фаолиятига тайёрлов босқичидаёқ, уларни шахс-лараро ўзаро боғлиқликка ўргатадилар ва улар ёшлиқдан жамоа шароитида ишлаши на-зарда тутилар экан. Экспериментларда япон ва америкалик ишчиларга бир хил топши-риқлар берилганда, ишнинг бажарилиш сифатида кам фарқ бўлгани билан, гуруҳда ва ёлғиз топшириқлар бажариш шароитида японлар гуруҳ шароитида кўпроқ самарадор-ликка эришганлигини исботлашган. Чунки америкаликлар гуруҳ шароитида фаолиятга киришувчанлиги (cooperative behavior) японлардан анчагина паст экан. Демак, гуруҳий муносабатларнинг фаолият самарадорлигига боғлиқлиги муаммоси ҳанузгача олимлар-ни қизиқтириб келмоқда.

Эмпирик изланиш натижалари. Биз мамлакатимиз кичик мактаб ёшидаги ўқувчилари ўртасида аффилиация мотивациясининг нечоғлик ривожланганлик даражасини ўрганишга қаратил-ган тадқиқотлар туркумини олиб бордик.

Таъкидлаш ўринлики, эҳтиёж ҳар бир инсоннинг шундай руҳий ҳолатики, у одам-даги барча фаолликларнинг манбаи ҳисобланиб, бу ёруғ оламда яшаши ҳамда тирикчи-лик қилиши, ривожланиб тараққий этиши, омма орасида ўзига муносиб ўрин топиши, биргаликда яшаш учун муҳтожлик ҳис қиладиган барча объектлар билан боғлиқлигини ифодалайди. Одамларга интилиш аниқроқ айтиладиган бўлса, ўзига ўхшаш кишилар билан бирлашмоқ, бирга бўлмоқ, ўзгалар даврасида бўлишга интилиш эҳтиёжи шахс-даги аффилиация, яъни “аъзоликка қабул қилиниш” деб номланган мотивга боғлиқ бў-либ, биз психологик экспериментда айнан унинг табиатини ўргандик. Чунки ўқувчилар келажакда одамлар жамоасида яшашга, улар фа-олиятни ташкил этиш, бошқаришга йўналтирилган бўлиб, шахснинг ўз-ўзига, ўз имко-ниятларига баҳоси, даъвогарлик даражаси (амбициялари) кейинги мустақил ҳаётда дуч келадиган омад, муваффақият ёки муваффақиятсизликларга бардош бериш-бермасли-гини кўрсатади. Биз куйида А. Меграбян ва М. Ш. Магомед-Эминовлар томонидан ишлаб чиқилиб, модификация қилинган вариантдан ўқувчилар гуруҳларида синовдан ўтказилган “Аффилиация мотивацияси” методикаси ёрдамида олинган эмпирик натижаларни келтирдик.


443 нафар ўқувчилар билан олиб борилган психологик текширув натижалари шуни кўрсатдики, ўқувчиларнинг 45 фоизида аффилиация мотиви таркибига кирувчи ёнидаги шерикларини қандай бўлса, шундайлигича қабул қилишга интилиш, ўзини ҳам шунга монанд тутишга ҳаракат қилиш даражаси юқори экан. Улар орасида қизлар кўпчиликни ташкил этиб, салкам 42 фоизи ортиқча амбиция ёки таъналарсиз тенгқурлари билан му-носабатга киришиб кетиши мумкин экан. Ушбу далилларни 1-диаграммада визуал кў-ришингиз мумкин.

Ушбу методиканинг ўзига хослиги шундаки, унинг ёрдамида шахслараро муноса-батларда рад этилишдан кўрқиб мотивини ҳам аниқлаш мумкин. Яъни, сўровномада иштирок этганларнинг салкам 42

фоизида айнан шу мотив устувор экани аниқланди. Биз қўлга киритган рақамларни таҳлил қилиб шундай хулосага келдикки, маънавияти-мизнинг бойлиги ва бу борада оила, мактаб, маҳалла каби ижтимоий институтларда олиб борилаётган самарали ишлар жамиятимизда инсоний муносабатлардаги самимий-ликнинг анчагина сақланиб қолганлигидандир. Икки рақам ўртасидаги фарқнинг кам-лиги бир гуруҳ ўқувчиларда жамият нормаларини рад этиш ва чекинишдан кўрқиш, бундай муносабатдан чўчигани учун ҳам гуруҳий муносабатлардан ўзини бироз четга тортиш-га эҳтиёж мавжудлигини исботлайди. Бундан ташқари, текширув айрим ўқувчиларда (13 фоизида) ички дискомфорт, яъни зўриқиш ҳиссининг борлигини, рад этилишдан кўрқиш одамлар даврасида бўлиш эҳтиёжининг қондирилишига халақит беришини кўрсатди.

Айнан шу талабалар қабул қилинишга интилиш ва рад этилишдан кўрқиш мотивациялари бўйича баллар миқдорини тенглигини намоён этишди.

Ўқувчиларда аффилиация мотивининг ўрганиш натижалари



Юқорида таъкидланган методика ёрдамида ўқувчилар ўртасида ўтказилган тадқиқот натижалари қуйидаги жадвалда ўз аксини топган.

1-жадвал
“Аффилиация мотивацияси” методикаси бўйича ҚИ (қабул қилишга интилиш) ва РҚ (рад этилишдан кўрқиш) мотивларининг ўқувчиларда намоён бўлиши (фоиз ҳисобида)

Такой переход требует формирования трех типов способностей: а) к переносу навыков, обслуживающих речевую деятельность на родном языке, на новый иностранный материал; б) переносу и коррекции этих навыков; в) быстрому формированию специфических для изучаемого языка навыков. При определении языковых способностей, данные авторы указывают на то, что необходимо иметь в виду специфику нового языка, заключающуюся в зафиксированной в нем «совокупности общественных представлений» народа - носителя языка, своеобразии «угла зрения на объективную действительность» (Ейгер Г.В. и др., 1992,

с. 45).

Данными исследователями предлагается следующее определение иноязычных способностей. Способности к изучению иностранного языка - это индивидуально-психологические особенности личности, способствующие быстрому и легкому образованию интер- и интравербальных связей, формированию операций по структурированию вербального материала и функционально-лингвистических обобщений, гибкости трансформационных процессов в речевой деятельности и формированию специфического типа лингвистического мышления, переходу на новый психолингвистический «угол зрения» (Ейгер Г.В., 1992, с. 45).

Диалектика отношений между способностями и умениями, с точки зрения данных исследователей, состоит в том, что умения могут выступать в роли факторов, содействующих формированию способностей по отношению к другим умениям, служа основой их образования, особенно когда мы имеем дело со способностью к усвоению иностранного языка.

Наличие тех или иных развитых умений в речевой деятельности на одном языке способствует созданию психологических новообразований в виде способности к усвоению второго языка и т.д. (Ейгер Г.В. и др., 1992, с.47).

В качестве фактора, положительно влияющего на формирование способности к усвоению той или иной стороны второго языка, могут выступать и операционные знания в области родного языка, ибо они содействуют быстрому образованию функционально-лингвистических обобщений, что входит в структуру способности к усвоению иностранного языка (Ейгер Г.В. и др., 1992, с. 47).

Следующие способности были выделены Г.В.Ейгером и И.А. Рапопортом (1992) как обеспечивающие успешное овладение иностранным языком:

- 1) развитая память на изучение слов;
- 2) развитая память на орфографию;
- 3) способность дифференцировать речевые звуки (фонемы и их варианты), что имеет особое значение на начальном этапе обучения;
- 4) артикуляционные способности;
- 5) легкость ассоциации знака как в звуковом, так и в буквенном коде с определенным значением (эта способность имеет особое значение для усвоения иноязычной лексики);
- 6) имитационные способности применительно к интонации, ударению, мелодике, языковым клише и штампам (эти способности сходны с музыкальным слухом, хотя и не совпадают с ним);
- 7) способность к обобщению значения (это обще интеллектуальная индуктивная способность применительно к языковому материалу);
- 8) способность к обобщению в области грамматической формы, словообразовательной модели;

- 9) легкость номинаций (приписывание названия предмету);
- 10) легкость семантического выбора слов в процессе речи, плавность речи на основе лексического прогнозирования;
- 11) легкость выбора слов по формальным показателям (класс слов, число элементов и т.д.) на основе грамматического прогнозирования;
- 12) легкость построения высказывания на основе гибкости трансформационных процессов;
- 13) способность к устному высказыванию (красноречие);
- 14) способность дифференцировать и улавливать специфику стиля речи (способность пародировать) (Ейгер Г.В. и др., 1992, с. 49).

На разных этапах обучения и в различных возрастных группах «работают» различные способности. На первом этапе обучения особое значение имеют способности, обозначенные в списке выше под №№ 1, 3, 4, 6; рано начинают сказываться более общие способности под №№ 2, 7 и, вероятно, под №№ 9-14. Некоторые способности (например, №№ 5,

8) начинают проявляться относительно рано, хотя свое полное значение получают на более поздних этапах обучения, а в работе со взрослыми, как показало специальное исследование, играют доминирующую роль.

Существует внутренняя связь и взаимосвязь между всеми этими способностями. Так, например, способности под №№ 12, 13, опираются на более элементарные способности под №№ 9-11.

Естественно, что в зависимости от уровня развития той или иной способности обучаемый легче усваивает тот или иной аспект языка, то или иное речевое умение, даже тот или иной конкретный учебный материал (Ейгер Г.В. и др., 1992, с. 49-50).

В зарубежной психологии единства мнений в вопросе способностей к изучению ИЯ также нет. Принципиально отличными являются две точки зрения: первая обусловлена теорией врожденных речевых способностей, поэтому утверждается целесообразность установления уровня их развития до начала деятельности в этой области. Согласно второй точке зрения иноязычные способности решающей роли не играют, главное - это метод обучения, а не уровень способностей, мотивации и опыта (Nieman L.L., Smith W.F.).

На основе анализа психологической литературы мы можем сделать ряд выводов:

1. Система методов и методических приемов, стимулирующих развитие общих и лингвистических способностей, разрабатывается зарубежными и отечественными психологами с середины XX века по настоящее время.

2. В определении иноязычных способностей сложились разные подходы, анализирующие их с трех сторон (речевых умений, психических процессов, индивидуально-психологических особенностей человека).

3. Развитие тех или иных способностей к усвоению иностранного языка во многом зависит от методов преподавания.

4. Проведенный анализ литературы позволяет утверждать, что способность успешно осуществлять деятельность на иностранный язык не может быть обусловлена только наличием иноязычных способностей. Она может быть осуществлена только всем комплексом необходимых свойств личности, касающихся как интеллектуальной, так и эмоциональной и волевых сфер.

Методология исследования.

Определить уровень развития иноязычных способностей и их взаимосвязь с типами владения иностранным языком: интуитивно-чувствительным и рационально-логическим и успешностью владения иностранным языком.

Методика экспериментального исследования иноязычных способностей.

В использованном нами тесте общего владения английским языком (Горчев А.Ю., 1999, с. 3) предпринята попытка диагностики иноязычной коммуникативной компетенции или языковой способности как «некоего высшего уровня речевой организации индивида». Данная тестовая методика разработана на основе методики дополнения «клоуз-тесты».

Главным компонентом иноязычных способностей согласно данной методике является механизм вероятностного прогнозирования. Данный механизм изучен в работах И.А. Зимней, Н.Б. Новиковой.

При выполнении данного теста испытуемые восстанавливают в тексте при его чтении пропущенные слова. При подсчете результатов тестирования используется троичная система контроля: 2-правильно, 1-допустимо, 0 -неправильно.

В процессе выполнения клоуз-теста испытуемые должны продемонстрировать владение графическими и орфографическими, лексическими и грамматическими навыками, навыками смыслового членения текста, умениями читать текст с извлечением заключенной в ней информации, соотносить между собой отдельные части текста; они должны проявить способность к языковой догадке о значении неизвестных им лексических единиц и грамматических форм и понимать эти слова и формы при их последующем появлении в тексте. Умения говорения и аудирования, произносительные навыки и другие компоненты иноязычного содержания, не востребуемые непосредственно при выполнении клоуз -теста, проявляются в скрытом виде во внутренней речи (Горчев А.Ю., 1999, с. 6).

Таким образом, преимуществом данной методики является то, что она носит комплексный характер (используется вместо батареи узконаправленных тестов) и ее выполнение требует речевой и мыслительной деятельности испытуемых.

Характер интериоризованной деятельности обучаемых при работе с методикой дополнения - это вероятностное прогнозирование лингвистических элементов на уровне слова. Вероятность правильного ответа тем выше, чем более высок уровень лингвистического мышления

и речевого поведения учащихся, чем богаче их словарь, устойчивее лексические и грамматические навыки, чем выше комбинаторская способность испытуемых сочетать слова, т.е. устанавливать интервербальные связи; чем больше их индивидуальный языковой опыт, в котором произвольно накапливаются статистические характеристики и семантические ассоциации лингвистических элементов.

Таким образом, возможно использование данной методики для оценки успешности овладения иностранным языком и развития иноязычных способностей.

Анализ и результаты исследования.

По результатам данного теста мы можем выделить следующие уровни развития иноязычных способностей:

- 1 - очень слабый уровень;
- 2 - слабый уровень;
- 3 - средний уровень;
- 4 - повышенный уровень;
- 5 - высокий уровень.

Данные тесты отвечают критериям валидности, надежности и практичности.

Большинство студентов, придя в вуз, демонстрируют любовь к иностранному языку и желание овладеть этим предметом, но только небольшая часть из них обладает развитыми иноязычными способностями.

Уровни развития иноязычных способностей у студентов с повышенным уровнем развития способностей с помощью данного теста не выявлено. Необходимо отметить, что данный тест вызвал большие затруднения у студентов. Достаточно низкий уровень общего владения иностранным языком показывает недостаточность качественного обучения иностранному языку в вузе.

Иноязычные способности имеют корреляционную связь на 99% уровне значимости с уровнем развития навыков говорения ($r = 0,644$), письма ($r = 0,357$), чтения ($r = 0,282$).

На 95% уровне значимости иноязычные способности имеют связь с уровнем развития навыков аудирования ($r = 0,250$) и оценкой ($r = 0,210$).

Таким образом, высокий уровень развития иноязычных способностей определяет успешность в овладении всеми видами речевой деятельности.

Первым психологическим фактором повышения качества обучения иностранному языку является формирование иноязычных способностей. Вуз призван развивать способности студентов, а т.к. способности являются индивидуальными особенностями обучаемых, возникает необходимость в индивидуализации обучения. В этом может заключаться один из аспектов гуманизации обучения.

Для развития иноязычных способностей необходимо развивать все виды речевой деятельности, но первостепенное значение должно отдаваться продуктивным видам: говорению и письму, а затем

репродуктивным: чтению и аудированию.

На основе анализа экспериментальных данных, полученных в ходе эксперимента, была разработана специальная программа по повышению качества обучения иностранного языка.

Цель данной программы - создать такие психологопедагогические условия, которые будут способствовать повышению уровня развития иноязычных способностей.

Большинство упражнений, предлагаемые для тренинга, были сначала апробированы на обычных занятиях по иностранному языку. Учителя и преподаватели могут использовать их также не в форме тренинга, а на занятиях.

Задания в тренинге расположены, с одной стороны, с нарастанием сложности языкового материала от первого дня к последнему, с другой стороны, были учтены процессы вхождения участников в игровую деятельность, консолидации группы в процессе тренинговых занятий, самораскрытия участников.

Для установления общего направления сдвига в развитии иноязычных способностей в экспериментальной и контрольной группе использовался G- критерий Вилкоксона. Преобладание типичного, положительного сдвига в развитии иноязычных способностей в экспериментальной группе после проведения тренинга является не случайным ($p < 0,01$).

Заключение.

Таким образом, эффективность данной программы подтвердилась.

Полученные результаты исследования подтвердили правильность выдвинутых гипотетических положений и позволили сформулировать следующие выводы:

1. Высокий уровень развития иноязычных способностей определяет успешность в овладении всеми видами речевой деятельности на иностранный язык;

2. Основным фактором успешности в овладении иностранным языком и развития иноязычных способностей является уровень умственного развития;

3. Программа развития иноязычных способностей студентов, разработанная на основе проведенного исследования, показала свою эффективность.

Литература

1. Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам. - М.: Просвещение, 1965. - 227с

2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1968. -338с

3. Ейгер Г.В. Механизмы контроля языковой правильности высказывания. -Харьков: Основа, 1990. - 184с.

4. Ейгер Г.В., Рапопорт И.Л., Узилевский Г.Я. Языковые способности: учебное пособие. - Харьков: Харьковский государственный университет,

1992. -132с.

5. Рапопорт И., Сельг Р., Соттер И. Тесты в обучении иностранному языку в средней школе. - Таллинн: Валгус, 1987. - 352с.

6. Горчев А.Ю. Тесты общего владения английским языком. - М.: Издат-школа, 1999. - 64с

7. Зимняя И.А. Психология обучения иностранному языку в школе. - М.: Просвещение, 1991. - 222с.

8. Nieman L.L., Smith W.F. Individualized Instruction: its Effects upon Achievement and Interest in Beginning College Spanish // The Modern Language Journal 1. -1992. - XII. -№4. - P. 157-167.

9. Ariyanti, A. (2016). Psychological Factors Affecting EFL Students' Speaking Performance. Asian TEFL. Journal of Language Teaching and Applied Linguistics. Vjl. 1, no 1, pp. 77-88.

BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMONING YECHIMIBULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jo'rayeva Dildora Yunusovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti
<https://orcid.org/0009-0004-2345-6876>, UDK:37.378.048.2

Annotatsiya: Ushbu maqolada OTM tizimida, xususan, Biologiya o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limning holati, uni tashkil etish va olib borishdagi muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish chora tadbirlari to'g'risida fikr yuritilgan. Tadqiqot ishini olib borishdan maqsad Oliy Ta'lim tizimida Biologiya o'qitish metodikasi fanini o'rgatish jarayonlarini raqamlashtirish orqali mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning didaktik va metodik layoqatini rivojlantirishning yangicha metodik tizimini takomillashtirishda internet texnologiyalarini qo'llashning zarurati mavjudligi sababli, Biologiya o'qitish metodikasi fanidan talabalarning mustaqil ta'limini bulutli texnologiyalar asosida tashkil etish va olib borishning ahamiyatini yoritishdan iborat. Bulutli texnologiyalar - bu Internet xizmati ko'rinishidagi kompyuter resurslari va imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan texnologiyalar. Bulutli texnologiyalar kompyuter disklaridan foydalanmasdan ishlashi mumkin bo'lgan axborot, dasturiy ta'minot va turli xizmatlarni saqlash va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, bulutli texnologiyalarga asoslangan mustaqil talim jarayonida o'rganishni individuallashtirish va hamkorlikni rivojlantirish mumkin. Bulutli texnologiya asosida mustaqil ishlarni bajarish, resurslarni almashish va muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan hamkorlikda o'qitish-talabalarga nafaqat kognitiv mustaqillikni namoyon etish, balki izlanish, ijodiy va tadqiqot faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, ongli qiziqish, motivatsion muhit, internet texnologiyalari, bulutli texnologiyalar, innovatsion mustaqil ta'lim resurslari, cheksiz axborotlar makoni, bulutli tadqiqot, Web kvest, Podkast.

РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ - С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Жураева Дилдора Юнусовна

*Навоийский государственный педагогический институт,
докторант*

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние самостоятельного обучения в системе высшего образования, в частности методики преподавания биологии, проблемы и недостатки в его организации и реализации, меры по их устранению. Целью НИР является расширение возможностей самостоятельного обучения

за счет цифровизации методики преподавания биологии в системе высшего образования, совершенствование новой методической системы развития их дидактико-методических способностей, организация самостоятельного обучения студентов в Тема методов обучения биологии на основе облачных технологий заключается в том, чтобы подчеркнуть важность достижения и выполнения. Облачные технологии — это технологии, основанные на использовании ресурсов и возможностей компьютера в виде интернет-сервисов. К облачным технологиям относятся хранение и использование информации, программного обеспечения и различных сервисов, которые могут работать без использования дисков компьютера. Таким образом, можно индивидуализировать обучение и развивать сотрудничество в самостоятельном учебном процессе на основе облачных технологий. Выполнение самостоятельной работы на основе облачных технологий, совместное использование ресурсов и совместное обучение, направленное на решение конкретной задачи, позволяет учащимся не только демонстрировать познавательную самостоятельность, но и развивать исследовательские, творческие и исследовательские навыки.

Ключевые слова: Самостоятельное образование, осознанный интерес, мотивационная среда, интернет-технологии, облачные технологии, инновационные самостоятельные образовательные ресурсы, неограниченное информационное пространство, облачные исследования, веб-квест, подкаст.

THE SOLUTION OF THE PROBLEM IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF BIOLOGY TEACHING METHODOLOGY - USING CLOUD TECHNOLOGIES

Juraeva Dildora Yunusovna

Navoi State Pedagogical Institute, doctoral student

Abstract: This article discusses the state of independent education in the higher education system, in particular, biology teaching methodology, problems and shortcomings in its organization and implementation, and measures to eliminate them. The purpose of the research work is to expand the opportunities for independent learning by digitalizing the teaching methods of Biology in the higher education system, to improve the new methodical system of developing their didactic and methodical abilities, and to organize the independent education of students in the subject of Biology teaching methods on the basis of cloud technologies. is to highlight the importance of reaching and carrying out. Cloud technologies are technologies based on the use of computer resources and capabilities in the form of Internet services. Cloud technologies include the storage and use of information, software and various services that can work without the use of computer disks. Thus, it is possible to individualize learning and develop collaboration in the independent learning process based on cloud technologies. Doing independent work based

on cloud technology, sharing resources and collaborative teaching aimed at solving a specific problem allows students not only to demonstrate cognitive independence, but also to develop research, creative and research skills.

Key words: Independent education, conscious interest, motivational environment, internet technologies, cloud technologies, innovative independent educational resources, unlimited information space, cloud research, Web quest, Podcast.

KIRISH

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb yondashiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'limni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi muammolarni hal etish doimiy dolzarb hisoblangan masala hisoblanadi. Shu bois, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan [2]. Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni [6], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori [3], shuningdek, mustaqil ish talqiniga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qila turib, shuni aytish mumkinki, o'quv jarayonida uning ahamiyatini avvaldan anglab yetganlarini ko'rish mumkin.

Dunyoda talabalarni biologiyani o'qitishning yangi metodikalarini ishlab chiqish, ularning metodik tayyorgarligini oshirishda mustaqil ta'limning evristik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazishning innovatsion-metodik tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mutaxassislik fanlarini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik ta'minotini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maqsadli joriy etish asosida mustaqil ishlarni o'tkazishning interaktiv dasturiy vositalarini ishlab chiqish, talabalarda kasbiy identiklikni rivojlantirishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning pedagogik mexanizmini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, talabalarni Biologiya o'qitish metodikasi fanini o'rgatish jarayonlarini raqamlashtirish orqali mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning didaktik va metodik layoqatini rivojlantirishning yangicha metodik tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. [10]

Respublikamizda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik asoslari, axborot-kommunikatsiya muhitida o'qitishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari A.Abduqodirov, R.Abduraxmanova, U.Begimkulov, R.Djuraev, U.Inoyatov, N.Muslimov, Sh.Sharipov, E.Yuzlikaeva, O..Qo'ysinov, biologiya o'qitish metodikasini rivojlantirish bo'yicha J.Tolipova, A.Raximov, M.Ibodova, Sh.Hasanova, L.Qaraxonova, M.Umaralieva, talabalarning kacbiiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari M.Usmonova, S.Salimova, M.Atakulova, N.Karimova, mustaqil ta'limini tashkil etish macalalari G.Ergasheva, N.Toshmanovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning turli jihatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, axborot kommunikatsion ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning innovatsion-didaktik mexanizmlarini ishlab chiqish, biologiya o'qitish metodikasi fani bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarini loyihalashning va olib borishning samarali yo'llarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan, oliy ta'limda qator ustivor vazifalar, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, natijaviyligini kafolatlash uchun zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarni (tizimli, innovatsion, kompetentsiyali, axborotli, shaxsga yo'taltirilgan, texnologik) amalga oshirish, zamonaviy innovatsion, axborot va internet texnologiyalarini [9], turli dasturiy vositalarni qo'llash, bu sohada ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun chet tillarini mukammal o'rganish, ta'lim natijalarini kvalimetrik baholash hamda shu asosda ta'lim tizimini, uning tarkibiy qismlarini – ta'lim ishtirokchilarining (o'qituvchi-pedagog, tahsil oluvchilar – talabalar) o'zaro faoliyati natijalarini (pedagogik jarayonni) kvalimetrik usulda monitoring qilish, unga o'zgartirishlar kiritish uchun istiqbol rejalarni loyihalash orqali sifatini belgilash kabi masalalar har qanday ta'lim muassasasi zimmasidagi muhim vazifalardir.

Biologiya o'qitish metodikasi (Bakalavriat) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning o'quv faoliyatini kuzatish davomida shu narsa aniqlandiki, talabalarda hosil qilingan motivatsiya, ongli qiziqish – mustaqil faoliyatga undovchi, havas uyg'otuvchi kuchdir. Fanlarga bo'lgan ongli qiziqish esa talabalarda o'quv mashg'ulotlarida mustaqil anglash, tafakkurni shakllantirish va tushuncha va g'oyalarni keng, chuqur idrok eta olish jarayonlariga intilishni uyg'otadi. Oliy ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ta'limga qiziqishlari motivatsion muhitlar, fanga va kasbga bo'lgan qiziqishlari tufayli shakllanadi.

Ongli qiziqish – mustaqil faoliyatning eng muhim ko'rsatgichi, yuqori darajasidir. Talabalarda ongli qiziqishni uyg'otish esa fan o'qituvchilarining mahorat darajasiga bog'liq bo'lib, talabalarni u yoki bu fan yoki kasb

mutaxassisligiga nisbatan qiziqishini shakllantiradi [11].

N.Muslimov ta'kidlashicha auditoriyada talabalar barcha kasb sirlaridan xabardor bo'lishlari uchun vaqt yetishmasada, ularda qiziqishga ilk qadam qo'yishlarida o'qituvchi beradigan ma'lumotlarning ahamiyati kattadir. Talabalarning mustaqil ta'limiga metodik jihatdan rahbarlik qilishda uni rivojlantirish yo'llarini o'rganib chiqish esa davr talabidir. Eng barqaror rag'batlantirish usuli bu kasbiy mehnat hamda ishga ijodiy yondashuv faoliyatidir. Talaba yoshlarni turli-tuman amaliy, ijtimoiy, tashkiliy, ijodiy faoliyatga jalb etish ham mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish omilidir [12].

Oliy ta'limda o'qishning dastlabki bosqichlarida talabalar mustaqil ishini tashkil etishda bir qator vazifalarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Buning uchun avvalo, har bir professor-o'qituvchi dastlab talabaning intilishlari va qobiliyatlarini o'rganishi, so'ngra talabalarda o'z qobiliyatlariga va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi.

OTMda mustaqil ta'limning tashkiliy shakllari quyidagicha:

1) OTMda fanlarni o'zlashtirishda kasbiy faoliyatga tayyorlanish:


A) ilmiy-nazariy tayyorgarlik; B) pedagogik-psixologik tayyorgarlik;

V) texnologik-informatsion tayyorgarlik; [10].

2) Masofaviy kurslar – seminar, konferentsiyalar, olimpiadalar, forumlar va boshqa tanlovlarga qatnashish;

3) Individual mustaqil ta'limni – ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-metodik va o'quv adabiyotlarini o'rganish, darsning turli nostandart shakllari ustida nazariy ishlar olib borish va dars ishlanmalar tayyorlash, mustaqil ta'lim jarayonida o'zini va o'zaro nazoratni yo'lga qo'yish kabilar TMT asosiy tashkiliy shakllari hisoblanadi [13].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasida mustaqil ta'lim mazmuniga ko'ra quyidagi turlarini tashkil etish va amalga oshirish ko'zda tutiladi (1-rasm).



1-rasm. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini mazmuniga ko'ra tashkil etish turlari. [10]

Talabalar mustaqil ta'limni samarali tashkil etish bevosita ularning mustaqil faoliyatini to'g'ri yo'naltirish, yo'lga qo'yish bilan bog'liq.

Talabalar mustaqil faoliyatini quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. Yangi o'quv materialini o'rganish;
2. BKM larni qayta ishlash, kompetentlikni rivojlantirish;
3. Nazorat va o'z-o'zini nazoratni amalga oshirish – monitoring uchun;
4. Laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishga yo'taltirish;
5. Virtual laboratoriyalar sharoitida modellarni tuzish va tahlil qilish;
6. O'quv faoliyatida o'z shaxsiy "mahsulotlari"ni, natijalarini yaratish uchun konspekt, referat, loyiha, texnologik xarita va boshqalarni tayyorlash;
7. Ma'ruza, ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
8. Intelektual turnirlar, olimpiadalar va konkursarga tayyorlash;
9. Ilmiy tadqiqot ishlari uchun ko'rsatma berish va yo'naltirish lozim; [10].

Biologiya ta'lim yo'nalishi "Biologiya o'qitish metodikasi" fani bo'yicha sifatli ta'lim berishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi bir qator tashkiliy va uslubiy muammolar ham aniqlandi:

- auditoriyada o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorligining pastligi. Natijada, talabalar tomonidan kerakli axborotlarni o'zlashtirish darajalariga nazorat qilishni susayishiga va talabalarning o'rganilgan o'quv materiallarini chala o'zlashtirishiga olib kelishi mumkin;

- talabalarga o'qituvchi tomonidan topshiriq sifatida berilgan o'quv materiallarni mustahkamlash maqsadida ularni muntazam takrorlab bormaslik;

- fan bo'yicha tashkil etilgan dars mashg'ulotlarida talabalar o'zlariga berilgan topshiriqlarini bajarish jarayonida o'qituvchining talabalarni bir darajada nazoratda ushlab tura olmaydi, buning natijasida o'zlashtirishi past talabalar paydo bo'lishi mumkin;

- Biologiya o'qitish metodikasi fanidan mavjud mustaqil ta'lim resurslarining zamon talablariga mos emasligi va talabalarning foydalanish darajasi juda pastligi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir [14].

Ta'lim jarayonida xususan Biologiya o'qitish metodikasi fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va olib borishda muammoni yechimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mustaqil ta'limni internet texnologiyalari xususan, bulutli texnologiyalar asosida tashkil etish va olib borish deb hisoblayman.

Bulutli texnologiyalar - bu Internet xizmati ko'rinishidagi kompyuter resurslari va imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan texnologiyalar. Bulutli texnologiyalar kompyuter disklaridan foydalanmasdan ishlashi mumkin bo'lgan axborot, dasturiy ta'minot va turli xizmatlarni saqlash va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi [15].

Bugungi kunda statsionar shaxsiy kompyuter va noutbuklarda, shuningdek, planshet va smartfonlarda, ya'nikim barcha turdagi qurilmalar uchun yagona bo'lgan axborot makonini tashkil etish masalasi dolzarb hisoblanadi, bunday makonni tashkil etishning eng qulay usuli esa bulutli texnologiyalardan foydalanishdir. Bulutli ta'lim axborot makonini yaratishda quyidagi "uchta asosiy funktsiyani" ta'minlaydi:

- resursli – ta'lim mazmunini ifodalaydigan ma'lumotlarni makonga joylashtirish, saqlash va uzatish;
- muloqotli – bir tomondan, istalgan vaqtda o'qituvchi va talabalar makondagi ma'lumotlardan foydalana oladilar; ikkinchi tomondan, ular o'rtasidagi muloqot qilish imkoniyati mavjud bo'ladi;
- tashkiliy – o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" [21].

Bulutli texnologiyalar bir qator afzalliklarga ega. Ular, birinchi navbatda, ta'lim jarayonining sub'ektlari o'rtasidagi geografik, texnologik, ijtimoiy chegaralarni yo'q qiladi. Zamonaviy sharoitda bulutli texnologiyalar mustaqil ta'limni tashkil etishning muqobil shakllaridan biridir. Bulutli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va o'zaro hamkorlik chegaralarini kengaytirish bilan birga, Internetda talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqa doirasini kengaytirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar ishonchli, iqtisodiy tejamkor, sodda va yangiliklarga boy hisoblanadi.

Bulutli texnologiyalar zamonaviy o'qitishda foydalanishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlovchi bir qator didaktik imkoniyatlarga ega. Bularga quyidagilar kiradi:

- ko'p sonli talabalar va o'qituvchilar uchun birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyati;
- o'quv jarayonining barcha sub'ektlari uchun har xil turdagi hujjatlarni nashr etish imkoniyati;
- talabalarni o'quv jarayoniga tezkorlik bilan jalb qilish, hududiy to'siqlarni bartaraf etish orqali birgalikda muammolarni qidirish va hal qilish qobiliyati;
- talabalar tomonidan mustaqil ishlarni bajarish, qamrab olingan talabalar soni va vaqtni hisobga olmasdan jamoaviy loyihalar yaratish qobiliyati;
- turli yoshdagi auditoriya bilan, ularning joylashgan joyidan qat'i nazar, muloqot qilish qobiliyati;
- yangi resurslarni qo'shish orqali muayyan fan yo'nalishlari bo'yicha veb-yo'naltirilgan laboratoriyalar yaratish imkoniyati;
- modellashtirish vositalariga interaktiv kirish imkoniyati;
- axborot resurslarining keng doirasi [16].

Oliy ta'lim muassasasida talabalarining mustaqil ishini bulutli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish jarayonida quyidagi o'qitish metodlari qo'llanilishi mumkin:

Bulutli tadqiqot - bu metodning o'ziga xos tomoni, talabalarga ma'ruza nutqi tarzida tayyorlangan o'quv mavzusi yoki qo'yilgan muammoli vaziyat uchun qo'yilgan masalani birgalikda yoki alohida o'rganish imkoniyati beriladi. Bulutli texnologiyalar yordamida talabalar va o'qituvchilar tomonidan bir vaqtning o'zida tahrir qilish imkonini beradigan umumiy elektron hujjatlar va taqdimotlar yaratish, ulardan foydalanish imkonini beradi. Talabalar o'qituvchi tomonidan tayyorlangan vazifaning o'ziga tegishli bo'lgan qismni bajarishga kirishadi, mavzu bo'yicha kerakli axborotlarni to'playdi, ularni bulutli serverlarda saqlanuvchi hujjatga joylashtiradi, shu tarzda to'plangan qismlar asosida guruhning umumiy hisoboti shakllanib boradi.

Bu tarzda ishlab chiqilgan bulutli serverlarda saqlanuvchi materiallarga talabalar istalgan vaqtda kirishi mumkin va ulanish joyining cheklanmaganligi tufayli bulutli tadqiqot usulini auditoriya ishlarida ham, auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlarda ham qo'llash imkonini beradi.

Web kvest - o'quv mashg'ulotining o'yinli shaklda tashkil etilishi talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlari va darsdagi faolligini oshiradi, Internet orqali bajarish mumkin bo'lgan topshiriqlar to'plami talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Interaktiv video - bunda tayyorlangan ta'limiy videoning ahamiyatini interaktivlik elementining yo'qligi kamaytirib yuboradi, demakki o'qituvchi va talaba orasidagi qaytar aloqa (feedback) ni ta'minlanmaydi. Talabalar tomonidan o'rganilayotgan material qay darajada o'rganilganligini aniqlanmaydi. Talabalar uchun tayyorlangan videolarga turli xildagi anketalar, testlar, ochiq savollar va boshqa resurslarga havolalar biriktirish orqali videoning interaktivligini ta'minlanadi.

Podkast - Videokastlar va skrinkastlar yaratish talabalarga, zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan individual rivojlanish evaziga tanishish, muammoli paydo bo'lgan vaziyatlarda to'xtay olish va orqaga qayta olish imkoniyatini bermoqligi, shuningdek, podkastlar shaklida ma'lum mavzularga bag'ishlangan hisobotlarini yaratib borish orqali ijodiy qobiliyatlarni namoyon etishga yordam beradi. Podkastlardan o'rinli foydalanish ta'lim jarayonidagi birxillikdan xilma-xillikka tomon qadam qo'yish, buning natijasida talabalarga berilayotgan ma'lumotlarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. [22]

Yuqorida qo'rib chiqilgan internet texnologiyalariga asoslangan ta'lim usullarining aksariyati nafaqat "Biologiya o'qitish metodikasi" fani bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llanilishi mumkin, balki auditoriyadan tashqaridagi mashg'ulotlarni tashkil etishda, shu qatori talabalar mustaqil ta'limini ham bir qator didaktik topshiriqlarni bajarishga xizmat qiladi.

Ushbu metodlarini tanlashda quyidagi qoidalar asos qilib tanlab olindi:

- Doimiy nazoratda ushlay olish. “Biologiya o’qitish metodikasi” fanini o’rganish jarayonida talabaning harakatlari har doim nazoratda va imkon qadar baholanib borishlik talab etiladi.

- Motivatsionlilik. Talabalarni mashg’ulotlar davomida zeriktirmaslik, bundan tashqari turli xil usullar yordamida o’quv faoliyatini tashkil etilishi natijasida motivatsion jihat shakllanib boradi.

- E’tiborni jalb eta olishlik. Ta’lim jarayonini tashkil etishda mashg’ulot davomida ma’lumotlar shunday tasvirlanishi kerakki, bunda talabalarning e’tibori to’liq tortib olishi lozim bo’ladi. Bunday yondashuv asosida tashkil etilgan mashg’ulot materialining bulutli texnologiyalar yordamida berilishi talabalarni ular bilan bevosita ishlashga jalb qila olishligi bilan ajralib turadi, mavzuni yuqori dajarada o’zlashtirishga imkon beradi.

- Birgalikdagi faoliyat. Bunda talabalar turli xil axborotlar (raqamli, matnli, animatsion, grafik, audio, video va boshqalar) bilan ishlash jarayonida, turli usullardan foydalanidilar: klaviaturada matn kiritish, ovozni yozish qurilmasidan foydalanish, foto va video kamera orqali yozib olish kabi imkoniyatlardan alohida va birgalikda foydalanishlari mumkin.

- Jamoaviy faoliyat. Talabalar o’qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishga kirishar ekanlar, bulutli serverlarda saqlanadigan umumiy hujjatlarni shakllantirishlari va uni jamoa holatida ma’lumot bilan to’ldirib borishlari kabi yangi imkoniyatlarga ega bo’ladilar.

XULOSA

Shunday qilib, bulutli texnologiyalarga asoslangan mustaqil talim jarayonida o’rganishni individuallashtirish va hamkorlikni rivojlantirish mumkin. Bulutli texnologiya asosida mustaqil ishlarni bajarish, resurslarni almashish va muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan hamkorlikda o’qitish-talabalarga nafaqat kognitiv mustaqillikni namoyon etish, balki izlanish, ijodiy va tadqiqot faoliyati ko’nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

“Biologiya o’qitish metodikasi” fanini o’qitishda, bulutli ta’lim texnologiyalapidan camapali foydalanishni takomillashtirish ychyn metodik ta’minotni kychaytipishga alohida e’tibop qaratish zapyp. Shy boic, “Biologiya o’qitish metodikasi” fanini o’qitishda bulutli ta’lim platfopmaci yapatilib, ynga video ma’pyzalap, laboratoriya mashg’ulotlari, izohli lug’atlar, ko’pgazmali qypollap, ctendlap, onlayn ctandapt va noctandapt tectlap, kprocovopdlap, keyslar joylashtipilib, hamda ylapdan bo’lajak biologiya o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalanish metodikasi ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/>

2. Mirziyoev Sh.M. O’zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisida so’zlagan nutqi. 2016 yil, 15 dekabr. <https://kun.uz/>

3. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun. O’RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr. <https://lex.uz/>
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to’g’risida”gi qarori. “Xalq so’zi” gazetasi. 2017 yil, 21 aprel, № 79 (6773).
5. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi. - T.: Fan va texnologiya, 2007. -271 b. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil 6/2020 (№ 00050) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 228
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
7. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2014.
8. Barakaev M. va boshqalar. Mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. O’quv – uslubiy qo’llanma. T., “Istiqlol nuri”. 2017 yil 9. I.P.Podlasny. Pedagogika. M., «Vlados». 2007
9. Boratova M.G. Psychological and pedagogical bases for using self-education in preparing students for professional activities. IV international Scientific and Practical Conference “MODERN SCIENCE: INNOVATIONS AND PROSPEKT”. 24 Hours of Participation (0,8 ECTS credit) STOCKHOLM. 10-12-January 2022
10. Boratova M. G’. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta’limdan foydalanish metodikasini takomillashtirish (biologiya o’qitish metodikasi fani misolida) 13.00.02 – ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya) p. F. F.d. (phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.
11. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo’llanma. – T.: TDPU, 2006. – 80 b. 8-b.
12. Muslimov N.A. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 128 b.
13. Vaganova O.I., Yermakova O.E. Otsenka obrazovatel’nykh rezultatov bakalavrov professional’nogo obucheniya //Vestnik Mininskogo universiteta. 2015. № 3 (11). S.
14. Musaxonova M.G. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil 6/2020 (№ 00050) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 225). Сейдаметова З.С. Облачные сервисы в образовании. Информационные технологии в образовании. 2021; № 5: 105 – 111.
15. Сейдаметова З.С. Облачные сервисы в образовании. Информационные технологии в образовании. 2021; № 5: 105 – 111.
16. Кречетников К.Г. Социальные сетевые сервисы в образовании. Available at: [http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3\(39\)_45.pdf](http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3(39)_45.pdf)
17. Boratova M.G’. Uzluksiz biologiya ta’limida rolly-sujetli darslar

asosida mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish. //“Uzluksiz ta’lim” jurnali. №4, Toshkent, 2012 yil, -B.63-69. (13.00.00; № 15).

18.Boratova M.G'. Oliy ta’lim tizimida innovatsion jarayon va unda talabalar mustaqil ta’limining o’rni. //«Global oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy uslublari» mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferentsiya.// Navoiy-2015. –B. 359-362.

19.Boratova M.G'. Uzluksiz biologiya ta’limida mustaqil ta’limning o’quvchi-talabalar mustaqil va ijodiy faoliyatini tarkib toptirishdagi roli. //“Uzluksiz ta’lim” jurnali. №3, Toshkent, 2019. -B.48-53.

20.Boratova M.G'. Mustaqil ta’lim – talabalar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish mezonlari. TDPU ilmiy axborotlari 2020/6 (27). 176-181-b

21.Starichenko B. Ye., Starichenko Ye. B., Sardak L. V. Ispol’zovanie distsiplinarnykh oblachnykh obrazovatel’nykh sred v uchebnom protsesse // Nijegorodskoe obrazovanie. – 2017. – № 1. – S. 72-78

22.Sattarov A.R. Oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayonida mobil texnologiyalarni qo’llash. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali. «Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta’minot yaratishda innovatsion g’oyalar». Respublika ilmiy-texnik konferentsiyasi, 2021y., 17-18 may. 142-144 b.

23.Sattarov A.R. Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayoni uzluksizligini ta’minlashda mobillik o’qitish texnologiyalaridan foydalanish. // FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA ilmiy uslubiy jurnali, Toshkent 2020, 6-son. 118-129 betlar

**МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ БОШЛАНҒИЧ
СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ КРЕАТИВ ТАФАККУРИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК
ДЕТЕРМИНАНТЛАРИ**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ
ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ
МАТЕМАТИКИ**

**PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION
OF CREATIVE THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS
IN MATH LESSONS**

Яхёева Умида Шарифовна

*Бухоро психология ва хорижий тиллар институти мустақил
тадқиқотчиси*

Аннотация: Жаҳонда жамият равақи кўп жиҳатдан унинг интеллектуал имкониятлари билан белгиланади. Чунки, илмий салоҳияти юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илгор бўлади. Давлатларнинг тарихий ривожланишида ёшларга бўлган эътибор муҳим ўрин эгаллайди. Ҳозирги кунда замонавий Давлат таълим стандартларида талабаларни креатив, танқидий фикрлайдиган, таълим жараёнидаги юзага келадиган муаммоларга аниқ ечим топа оладиган қилиб тарбиялаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Қолаверса, бугунги кунда илм-фан ва технологияларнинг тез суръатлар билан ривожланиши шароитида узлуксиз таълимнинг барча босқичлари, жумладан, олий таълимнинг самарадорлик, натижадорлик ва сифатини таъминлашда таълим олувчиларнинг креативлик, мантиқийлик, мазмундорлик, ижодий қобилиятларининг ривожланганлик даражаларига алоҳида аҳамият қаратилмоқда.

Калит сўзлар: креатив тафаккур, ижодкорлик, танқидий фикрлаш, қизиқувчанлик, психологик ривожланиш, қобилият, стереотип, педагогик импровизация.

Аннотация: Процветание общества в мире во многом определяется его интеллектуальными возможностями. Потому что страна с высоким уровнем научного потенциала постоянно развивается во всех областях. Важное место в историческом развитии государств занимает акцент на молодежь. В настоящее время, в современных государственных образовательных стандартах, становится важным воспитывать

у учащихся креативность, критическое мышление, умение находить четкое решение проблем, возникающих в образовательном процессе. Кроме того, сегодня, в условиях стремительного развития науки и техники, особое значение придается уровню развития креативности, логики, содержания, творческих способностей тех, кто получает образование на всех этапах непрерывного образования, включая обеспечение эффективности, продуктивности и качества высшего образования.

Ключевые слова: творческое мышление, креативность, критическое мышление, любознательность, психологическое развитие, способности, стереотип, педагогическая импровизация.

Annotation: The prosperity of a society in the world is largely determined by its intellectual capabilities. Because a country with a high level of scientific potential is constantly developing in all areas. An important place in the historical development of states is the emphasis on youth. Currently, in modern state educational standards, it is becoming important to educate students in creativity, critical thinking, the ability to find a clear solution to problems arising in the educational process. In addition, today, in the conditions of rapid development of science and technology, special importance is attached to the level of development of creativity, logic, content, creative abilities of those who receive education at all stages of continuing education, including ensuring the effectiveness, productivity and quality of higher education.

Key words: creative thinking, creativity, critical thinking, curiosity, psychological development, abilities, stereotype, pedagogical improvisation.

Жамиятни инсонпарварлаштириш XXI асрнинг кун тартибидаги масаласидир. Ҳозирги кунда ҳам тараққиёт босқичида бу тенденция инсон омилининг белгиловчи ўрни билан намоён бўладики, бу борада ижодкорлик унинг асосий таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. «Гап субъектнинг ижодий онги ҳақида кетмоқда, чунки оннинг ижодий ва трансформацион функциялари унинг асосий маъноси ва қизиқишларини ташкил этади»[7]. Жамиятдаги ўзгаришларга жавобан таълим тизими ҳам ўзгариб бормоқда. Агар илгари ўқитишнинг асосий вазифаси ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш бўлган бўлса, тез ўзгарувчан дунёда ўзини-ўзи аниқлашга қодир инсонни ҳар томонлама ривожлантириш ҳақидаги масала кун тартибига қўйилади. Л.В.Занкованинг таъкидашича, таълим жараёни таркибидан мустақил, ноанъанавий, креатив камчиликларни ҳал қила оладиган, атроф-муҳитни ўзгартира оладиган одамга жой бериш керак. Таълим тизимидаги ўқувчиларни ўзгариши, шахсга учун муҳим бўлган

таълимга бўлган эҳтиёж, уларнинг умумий психологик ривожланиши таълим ғояларини илгари суришга олиб келди. Бу эса ривожлантирувчи таълим тизимининг яратилишида ўз аксини топган (В.В. Давыдов, Л.В.Занков, Д.Б.Эльконин).

Замонавий таълим тизими қизиқувчанлик қобилияти ва одатини такомиллаштириш ва ижодий фаолиятда тажриба орттиришга қаратилган. Муҳим жиҳати шундаки, бу тизимларда ҳар бир муаммони алоҳида ҳал қилиш ўқитиш амалга оширмайди, балки муайян муаммолар гуруҳларини ҳал қилишнинг умумий йўлини, уларни ҳал қилиш учун умумлаштирилган ишларни бажариш усули топилади, яъни мавжуд билимлар ижодий жараёнга хос бўлган янги шароитга ўтказилади [7]. Агар ўқитувчининг ишлаш тизими ўқувчиларнинг ақлий ривожланишида энг муҳим омил бўлса, ижодкорликнинг фаолиятда намоён бўлиши уларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришнинг шарти ҳисобланади.

В.П.Симонов, В.Н.Харькин, В.И.Загвязинский, Л.В.Занков, В.А.Кан-Калик, Н.Д.Никандров, И.С.Лернер, А.М.Матюшкин, А.А.Мелик-Пашаев, В.И.Андреев, Л.С.Выготский, В.В.Давыдов, Д.Б.Эльконин ва бошқалар психологларнинг фикрича, айнан ижодкорлик касбий-педагогик фаолиятнинг асл моҳиятини ифодалайди[8]. В.Н.Харькин фикрига кўра, инсон фаолиятининг ҳар қандай турида икки даража – стереотипик ва ижодий даражалар муқаррар равишда ёнма-ёнма туришади. Агар биринчиси бирор нарсада ўзгармас шароитнинг инъикоси сифатида фаолият барқарорлигини таъминласа, ҳамда инсон тажрибасининг ифодаси бўлиб хизмат қилса, унинг ижодий хусусияти инсоннинг ўзгарувчан шароитларда ўз хатти-ҳаракатларини қайта тиклаш қобилиятини акс эттиради. Бу даражалар реал ҳаётда турли нисбатларда бўлиши, бир-бири билан маълум зиддиятларга киришиши, унинг ривожланишини ҳамда шу фаолият субъектининг тараққий этишини таъминлаши мумкин.

Педагогик фаолиятда стереотипик ва ижодий нисбат айниқса хилма-хил намоён бўлади. Стереотиплаш қуйидаги меъёрий хужжатлар билан тавсифланади: ўқув жараёнининг тузилиши, дастурлари ва дарс ишланмалари, ўқув қўлланмалар, ўқув режалари, дарсликлар ва бошқа томондан, бунда натижалар тажриба асосида шаклланади. Ижодкор педагогик фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, унинг амалга ошиш шароити билан белгиланади.

Педагогик фаолиятнинг стандарт усулларининг чексиз хилма-хиллигига педагогик вазиятларнинг ноадекватлиги ўқитувчини объектив тарзда ижодкорликка нисбатан рағбатлантиради. Педагогик фаолиятда бу диагностик ва методик ижодкорлик (ўқувчиларни ўрганишнинг янги йўллари кидириш ва топиш, янги диагностик

методларни қўллаш ва яратиш, ўқитиш методларининг янги комбинацияларини қидириш) деб айтилади.

Болаларни математика дарсларида креативлигини шакллантириш учун В.Н.Харькин илгари сурган педагогик ижодкорликни белгиловчи мезонларга диққат қилиш зарур. У ўзининг «Ўқитувчининг ижодий фаолиятида педагогик импровизация» номли асарида педагогик ижодкорликни белгиловчи қуйидаги мезонларни аниқлаган[5]:

1. Умуман ҳодисага тегишли бўлган (объектив).
2. Ижодкорга тегишли бўлган (субъектив).
3. Ижодий фаолият иштирокчиси бўлган ўқувчига тегишли (субъектив) ва у томонидан педагог ижодини қабул қилиш билан боғлиқ бўлган

1. Педагогик ижоднинг объектив мезонлари: янгилик, ошкоралик, педагогик аҳамияти.

Янгилик – ижодий ҳаракатнинг ўзига хослик даражаси, ижод маҳсули, шунингдек, бирикиш, қўшилиш, мажмуавий янгиликка эга бўлган маълумотларни таққослаш.

Ошкоралик ижодий жараёни иштирокчиларининг мавжудлиги билан белгиланади.

Педагогик аҳамияти – янгича миллий ва умуминсоний ғояларга асосланган ижодий изланиш орқали шахсни ривожлантириш, тарбиялаш ва шакллантиришга қўмаклашиш.

2. Субъект (ёки бир қатор субъектларнинг) ижодкорлиги мезонлари уларнинг акс этиши (муқобил қидирув), маънавий ва ҳиссий юксалиш, қониқиш туйғусининг намоён бўлиши мумкин. Шу билан бирга, ижодий жараён кечишининг кўрсаткичлари сифатида ижодий ғояни амалга ошириш учун зарур бўлган оғзаки ва оғзаки бўлмаган кўрсаткичлар, ижодкорнинг ҳиссий юксалиши (таълим жараёнининг ноанъанавий шакллари, усуллари, методлари билан жиҳозланган) намоён бўлади.

3. Педагогик ижодкорликнинг ўқувчилар томонидан идрок этилишидаги мезонлари: таажжуб (кутилмаган ҳолатга реакция), жалб этилганлик, фаоллик, ҳиссий таъсирчанлик, диққатни жамлаш, қизиқишларни ошириш, таассурот чуқурлиги, тонус ва кайфиятни ошириш, ҳамдардлик чуқурлиги.

Мазкур илмий тадқиқот талабидан келиб чиқиб ижодкорлик кўп ҳолларда интуитив, бироқ унинг асослари ҳаётийлиги тўғрисидаги қоидани таъкидлаб ўтиш зарур. Қуйидагилар:

- ижодий ҳукмрон (ривожланган эътибор, тасаввур, сезги, педагогик фаолиятни амалга ошириш учун илҳомнинг мавжудлиги);
- ҳар қандай ҳаракатда креатив тажриба;
- умумаданий ва педагогик-психологик билим ва кўникмалар.

Юқоридаги психологик манбаларга асосланиб, ўқувчиларни креатив тафаккурини шаклланишига таъсир қилувчи мезонларини эмпирик ўрганиб чиқдик ва тегишли хулосалар чиқаришга ҳаракат қилдик

Методика. ВИЛЯМС ИЖОДҚОРЛИГИ ТЕСТИ

Мазкур методика бошланғич синф ўқувчиларни ижодкорлик қобилиятларини комплекс тарзда ўрганиш имконини беради. Мазкур методика 5 та омилдан иборат бўлиб, ҳар бир омил маълум бир креативлик сифатларини аниқлашга ёрдам беради. Вилямс методикаси нафақат талаба ёшидаги шахсларнинг креативлик сифатларини аниқлашга мўлжалланган, балки, унинг болалар ҳамда ота-оналар ва ўқитувчилар учун ҳам сўровномалари мавжуддир. Ушбу методика Франком Вильямс томонидан 1980 йилда ишлаб чиқилган. Дастлаб ушбу методика фақатгина мактаб ўқувчиларидаги ижодкорлик сифатларини ўрганишга қаратилган. Кейинчалик эса ушбу методика оммаланиб, унинг бошқа кўринишлари ҳам яратилган.

Шахсдаги креативлик хусусиятларини ривожланганлик даражаларини аниқлашга мўлжалланган бир нечта усуллар мавжуд бўлиб, уларнинг ичида Вилямс методикаси нисбатан валид (ишончли) ҳисобланади. Сабаби, мазкур методика тестлари аниқ, турли ёш даврларига мос бўлиб, шахслардаги креатив компонентларни намоён эттиради.


Тестдан мактабгача ёшдаги (5-6 ёш) ва мактабнинг битирув синфларигача (17-18 ёш) болаларнинг ижодий қобилиятини ўрганиш учун фойдаланиш мумкин. Ушбу тестларнинг топшириқларига жавоблар субъектлар томонидан расмлар ва сарлавҳалар шаклида берилиши керак. Агар болалар ёзишни ёки жуда секин ёзишни билмасалар, экспериментатор ва унинг ёрдамчилари уларга расм чизишда ёрдам беришлари керак. Бундай ҳолда, болалар тасаввурининг имкониятлари доирасида тасвирларни тўлиқ кузатиш керак.

Ўқувчиларни математика дарслари орқали креатив тафаккурини шаклланишига таъсир этувчи хусусиятлар даражаларини тадқиқ қилиш замонавий таълим тизимидаги муҳим омиллардан бири саналади. Чунки, ўқувчилар нафақат билимларни эгаллаши, балки ўша билимлар асосида янги ғояларни ҳам яратиши ҳозирги кунда долзарб масалала бўлиб қолмоқда.

1-жадвал

«Вилямс ижодкорлиги» тести бўйича назорат гуруҳидан олинган дастлабки натижалар таҳлили (n=180)

	1- синфлар n=90	%	4 синфлар n=90	%
<i>Равонлик</i>	19	21,1	20	22,2
<i>Мослашувчанлик</i>	22	24,4	29	32,2
<i>Ўзига хослик</i>	29	32,2	23	25,6
<i>Яратувчанлик</i>	20	22,2	18	20,0
Жами:	90	100	90	100



1-расм. «Вилямс ижодкорлиги» тести бўйича назорат гуруҳидан олинган дастлабки натижаларнинг диаграмма кўриниши (n=180)

Энди бевосита Вилямс ижодкорлиги тести бўйича назорат гуруҳидан олинган дастлабки натижалар таҳлилига эътиборимизни қаратамиз. Пастки синф ўқувчиларида (n=90) “равонлик” мезони бўйича дастлабки (тажрибагача) бўлган даврда умумий ўртача қиймат 21,1 % ни ташкил этган бўлса, 3-4-синф ўқувчиларида (n=90) 22,2 % ни ташкил этди. 1-2-синф ўқувчиларидаги (n=90) “ўзига хослик” қобилияти бўйича ўртача қиймат 32,2 % ни ташкил этган бўлса, 3-4- синф ўқувчиларида (n=90) 25,6 % ни ташкил этди.

Бундан кўриниб турибдики ўқувчиларида фаолият самарадорлигидан қатъий назар, уларда фикрлашнинг равонлигида бироз қийинчиликларга дуч келишлари мумкин экан. Бу эса уларнинг самарали фаолият юритишларида бироз қийинчилик туғдириши мумкин экан.

Шунингдек, ахборотни таҳлил қилиш ва синтез қилишда, ахборотни бирлаштиришда ўқувчиларда индивидуаллик қобилиятини етарли даражада шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса ўз навбатида бошланғич синф ўқувчиларида креатив тафаккурни шакллантириш учун муҳим асос бўлиб хизмат қилиши мумкин экан.

Ўқувчиларда креатив тафаккур даражаларини тадқиқ қилиш замонавий таълим тизимидаги муҳим омиллардан бири саналади. Чунки, ўқувчилар нафақат билимларни эгаллаши, балки ўша билимлар асосида янги ғояларни ҳам яратиши ҳозирги кунда долзарб маслала бўлиб қолмоқда.

Адабиётлар:

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, – № 1. – С. 111-129.
2. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111–131.
3. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. – М.: 1965. – С 433 -456.
4. Дружинин В.Н. Психологическая диагностика способностей: теоретические основы: в 2 ч. – Саратов : Изд-во Саратов. ун-та, 1990 – Ч.1 –137 с; Ч. 2-С. 139-292.
5. Rogers, C. Towards a theory of creativity // ETS: A Review of General Semantics. 1954. 11 P. 249-260.
6. Sternberg R.J. Creativity for the new Millennium. «-», 2001.
7. Ғозиев Э.Ғ. Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Т.: ТошДУ, Университет, 1996, – 48 б.
8. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 2010, – 360 б.

**BO'LAJAK MUHANDISLARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIK
OMILLARINING SHAKLLANISHING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

Haydarov Shaxriyor Shuxrat o'g'li

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

**ПЕДАГОГИЧЕСКИ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФАКТОРОВ
ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ**

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS
FOR THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH
FACTORS OF FUTURE ENGINEERS**

Annotatsiya: Psixologik salomatlik bu – psixologik va ijtimoiy farovonlik holati bo'lib, unda inson o'z imkoniyatlarini anglab etadi, hayotdagi qiyinchiliklar va stresslarga samarali qarshi turadi, samarali, ongli faoliyat olib boradi va jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Avvalo, bu psixikaning barqaror, yetarli darajada ishlashi, shuningdek, asosiy bilish jarayonlari: idrok, xotira, diqqat, tafakkur tufayli amalga oshiriladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'kidlashicha, ruhiy buzilishlar dunyo aholisining taxminan 12 foiziga ta'sir qiladi – taxminan 450 million kishi yoki dunyo bo'ylab har to'rtinchi odam psixologik salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda.

Kalit so'zlar: ekstremal mehnat turlari, professional ishchilar, ruhiy salomatlik, psixikadagi salbiy o'zgarishlar.

Аннотация. Психологическое здоровье – это состояние психологического и социального благополучия, при котором человек реализует свои возможности, эффективно противостоит жизненным трудностям и стрессам, осуществляет эффективную, осознанную деятельность и вносит свой вклад в развитие общества. В первую очередь это связано со стабильным и адекватным функционированием психики, а также основных познавательных процессов: восприятия, памяти, внимания, мышления. По данным Всемирной организации здравоохранения, психические расстройства затрагивают около 12 процентов населения мира — около 450 миллионов человек, или каждый четвертый человек в мире, имеют проблемы с психическим здоровьем.

Ключевые слова: экстремальные виды труда, профессиональные работники, психическое здоровье, негативные изменения в психике.

Annotation: Psychological health is a state of psychological and social

well-being in which a person realizes his abilities, effectively resists life's difficulties and stresses, carries out effective, conscious activities and contributes to the development of society. First of all, this is due to the stable and adequate functioning of the psyche, as well as the main cognitive processes: perception, memory, attention, thinking. According to the World Health Organization, mental disorders affect about 12 percent of the world's population - about 450 million people, or one in four people in the world, have mental health problems.

Key words: extreme types of labor, professional workers, mental health, negative changes in the psyche.

Jahonda yoshlarning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash, kelajak hayotga tayyorlash hamda ularning psixologik salomatligiga oid amalga oshirilayotgan tadqiqotlar doimiy dolzarb masalalar bo'lib qolmoqda. Butunjahon sog'liqni saqlash Assambleyasi tomonidan «...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo'lmaydi» tamoyiliga asoslangan g'oyani strategik ahamiyatli etib olinib, amalga oshirayotganligi ushbu muammoning dolzarbligidan darak bermoqda. Bu borada xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh bo'lajak muhandislarni tayyorlash uchun ularni jismoniy va psixologik jihatdan yuksaltirish, sport muassasalaridagi psixologik salomatlik tizimini zamonaviy usullar asosida yanada takomillashtirish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida psixologik salomatlik muammolarini o'rganish, psixologik salomatligi shaxs xususiyatlari va uning pedagogik-psixologik komponentlari bilan bog'liqligini aniqlash, ayniqsa, bo'lajak muhandislarning psixologik salomatligini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi turli omillarni ilmiy o'rganishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, YUNESKO tashkiloti qoshidagi xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychosocial Science) tomonidan Psixologik salomatlik konsepsiyasining yaratilganligi ahamiyatlidir. Bu borada bo'lajak muhandislar psixologik salomatligini o'rganish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini tadqiq qilish, bo'lajak muhandislardagi psixologik muhofaza va emotsional-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ularga pedagogik-psixologik ta'sir etish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Imom Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy kabi Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida shaxsning kamol topishida uning, o'zini anglashi, o'zgaralar ruhiy kechinmasini adekvat baholash, ichki psixologik muvozanatni to'g'ri boshqarish, ichki va tashqi garmoniyaning uyg'unligi muhim rol o'ynashini

ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekistonda psixolog olimlarning ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida shaxsning psixologik salomatligi bilan bog'liq jarayonlarni shakllantirish, bo'lajak muhandislar faoliyatida psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati masalalariga keng e'tibor berilgan. Xususan, A.Abdurasulov, D.Orziqulov, Z.Ibodullayev, Sh.Barotov, V.Karimova, Z.Nishonova, F.Akramova, Z.Gapparov, M.Isakova, B.Qodirov rahbarliklarida tayyorlangan dissertatsiya ishlarini alohida ta'kidlash mumkin.

M.Isakova o'z ilmiy ishlarida inson psixologik salomatligini «stressga bardoshlilik», «stressdan xalos bo'lish», «stressni boshqarish» xususiyatlarini barqarorlashtirish orqali shakllantirish mumkinligini tashkiliy-psixologik jihatdan asoslab bergan. Tadqiqotchi X.Barotovning ilmiy izlanishlarida bo'lajak muhandislarga psixologik xizmat ko'rsatishda psixologik salomatlikning o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Bo'lajak muhandislar va ularning hissiy-emotsional holatlarini faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalarini Z.Fayziyev tadqiqotlarining asosini tashkil qiladi. V.Ahrorov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida talabalar psixologik salomatligini ta'minlashda sanogen tafakkurning emotsional barqarorlik va sog'lom turmush tarziga oid tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuvlar asoslab berilgan. D.Nasirov tadqiqotlarida sportchi va murabbiylar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillari batafsil yoritib berilgan.

Tibbiyot psixologiyasida psixologik salomatlikka ta'sir qiluvchi psixologik omillar Z.R.Ibodullayev, M.X.Karamyan, G.Q.Tulaganova, Yu.K.Narmetovalar tadqiqotlarida o'rganilgan. Z.R.Ibodullayev va uning shogirdlarini ilmiy izlanishlarida, jamiyatda inson shaxsi rolining ortib borishi kuzatilayotgan bir paytda, shaxsning psixologik salomatligini mustahkamlash masalasi bugungi kun uchun nihoyada dolzarb masala ekanligini ta'kidlaydi.

Biz ilmiy adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, aynan psixologik salomatlik metodologiyasini ochib beruvchi nazariy, e'tiborga molik asosiy xususiyatlarni ilmiy-nazariy tadqiq qilishga harakat qildik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda psixologik salomatlikni shakllantirishning umumlashtirilgan psixologik-pedagogik modelini ishlab chiqishga bag'ishlangan deyarli hech qanday ishlar mavjud emas. Ayni paytda psixologik salomatlikni shakllantirishga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan psixologik sharoitlarning tavsifi, shuningdek, ushbu shartlarning yoshga xos tavsifi hamda maqsadli ta'sir qilishning o'ziga xos usullarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bir qator mualliflar ruhiy va psixologik salomatlikni sinonim tushunchalar deb bilishadi biz boshqacha nuqtai nazarga ega bo'lishimizga qaramay,

Derogatisning metodikasidan foydalangan holda bo'lajak muhandislarning psixologik salomatligini va ularda namoyon bo'ladigan psixologik salomatlik omillarini o'rganishga harakat qildik

Ushbu muammoni tadqiq qilishda bo'lajak muhandislarning psixologik salomatligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillardan bo'lgan psixologik muhofaza imkoniyatlariga ham baho berildi. Bo'lajak muhandislarda psixologik muhofaza omillari namoyon bo'lishining o'rtacha-umumiy ko'rsatkichlarini baholashda bugungi kunda psixologiya olamida keng qo'llanilayotgan Plutchik metodikasidan foydalanildi.

Endi, bevosita bo'lajak muhandislarni psixologik muhofaza ko'rsatkichlarining namoyon bo'lishi bo'yicha farqlarning umumiy sharhiga to'xtalib o'tamiz. Bunda, «regressiya» omili alohida o'rin tutadi. Chunonchi, 1-kurs bo'lajak muhandislarni ushbu omil bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, 21,2% ni tashkil etdi. Bu esa, bo'lajak muhandislarni atrofdagilarga bo'lgan agressiv, hissiy-emosional, qo'zg'aluvchan, sabrsiz va biroz ma'suliyatsiz ekanliklaridan dalolat beradi. Bunga sabab, ularning doimiy ravishda psixologik bosimda bo'lishlari, ba'zan odamlar bilan kutilmagan, notipik holatlarda xatti-harakatlarni adekvat baholashda yanglishishlari mumkinligi, bilan izohlanadi(1- jadval). 4-kurs bo'lajak muhandislarda esa, bu ko'rsatkich 18,7% ni qayd qildi. Binobarin, bo'lajak muhandislarda 1 -kurs bo'lajak muhandislarga nisbatan bir muncha vazmin va vaziyatga moslashuvchan, shuningdek, har bir ishga alohida ma'suliyat bilan yondashishlari bilan xarakterlanadi.

1-jadval.

Bo'lajak muhandislarda muhofaza omillari namoyon

bo'lishining o'rtacha-umumiy ko'rsatkichlari, Plutchik shkalasi bo'yicha

	Omillar	1-kurs bo'lajak muhandislar N=165	Foizi %	4-kurs bo'lajak muhandislar N=160	Foizi %
1.	Inkor etish	22	15,7	25	15,6
2.	Siqib chiqarish	22	13,3	23	14,3
3.	Regressiya	21	21,2	22	18,7
4.	Kompensatsiya	19	12,7	21	13,7
5.	Proeksiya	20	12,1	19	11,8
6.	O'rnini almashtirish	19	11,5	18	10,9
7.	Kognitivlik	20	12,1	17	10,6
8.	Giperkompensatsiya	18	10,9	15	9,3
	Jami:	165	100	160	100

Bu esa, o'z navbatida mazkur 1-kurs bo'lajak muhandislarning irodali, emosional jihatdan barqaror, chidamli ekanliklari hamda har bir ishga ma'suliyat bilan yondashishlarini ko'rsatadi. Keyingi omil bu «o'rnini almashtirish» bo'lib, bunda 1-kurs bo'lajak muhandislarning 11,5% natijani ko'rsatadi. Ayni paytda, 1-kurs bo'lajak muhandislarning ayrim holatlarda namoyon bo'luvchi ruhiy tushkunlik, beqarorlik, ba'zi hollarda esa, o'z iroda kuchiga ishonmaslik va ruhiy jihatdan tushkunlik holatlari ko'zga tashlanadi. Ushbu holat bo'lajak muhandislarning doimo ijtimoiy jihatdan faol emasliklari hamda o'z fikrlarini doimo to'g'ri va ochiq ifodalay olmasligidan dalolat beradi. 4-kurs bo'lajak muhandislarda esa, bu ko'rsatkich biroz past, ya'ni, 10,9% natijani ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida ularning faoliyatini rivojlantirishlari uchun ham muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Navbatdagi omil «kompensatsiya» omili bo'lib, bu xususiyat bo'yicha, 1-kurs bo'lajak muhandislarda natija 12,7 % ustuvor ahamiyatli natijani ni qayd qildi. Bu toifadagi 1-kurs bo'lajak muhandislar ekstremal vaziyatlarni yaxshi anglashga, shaxslararo munosabatlardagi murakkab vaziyatlarni tahlil eta olishga, ularni adekvat tushunish qobiliyatini rivojlantirish hamda kamchiliklarni bartaraf etishga moyil ekanliklarini ko'rsatmoqda. 4-kurs bo'lajak muhandislarda esa, bu omil bo'yicha biroz yuqori natija qayd etildi (13,7%). Bundan ko'rinib turibdiki, bo'lajak muhandislar o'z kamchiliklarni bartaraf etishga moyil va har qanday holatda ham intiluvchan, vaziyatlarni adekvat baholay olishga intilishlari bilan xarakterlanadi.

Psixologik muhofazani baholovchi navbatdagi omil «proeksiya» bo'lib, 1-kurs bo'lajak muhandislarning 12,1% ushbu omilga mansubligi aniqlandi. Bu esa, ularda quyidagi psixologik xususiyatga ega bo'lgan munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Shuningdek, bo'lajak muhandislarning kutilmagan vaziyatlarni yaxshi anglaydidigan, shaxslararo munosabatlarda sinchkov, ziyrak, murakkab vaziyatlarda muloqot ishtirokchilarining faolligiga qarab vaziyatlarni baholashda ta'sirchan va haqiqatgo'y ekanliklari aniqlandi. 4-kurs bo'lajak muhandislarning esa, bu mezon biroz boshqacha ko'rinishda 11,8% namoyon bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, 4-kurs bo'lajak muhandislarida ba'zan notipik psixologik holatlarda har doim ham to'g'ri qaror qila olmasliklari, shuningdek haqiqatni tan olib uni ochiq-oydin aytishga qiynalishlarini ko'rsatmoqda.

«Bo'lajak muhandislarning psixologik salomatligini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari» mavzusi asosida olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy va empirik jihatdan quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Bo'lajak muhandislarning psixologik salomatlikni shakllantirishning pedagogik psixologik muammo sifatida o'rganilishi O'zbekistonda muayyan

darajadagi psixologik bilimlarning bevosita amaliyotda qo'llanilishi va shaxsning o'ziga xos psixologik istiqbollari ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, insonni bilish va uning tashqi (real) hamda ichki (ideal) olamiga adekvat ta'sir ko'rsatish va shu ta'sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo'lsada, bu darajada turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va individual psixologik manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Shu ma'noda psixologik salomatlikni shakllantirishning metodologiyasi o'zining shakllanishi va tuzilishiga ko'ra faqat insonga va uning betakror shaxs sifatidagi pedagogik-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan bo'lajak muhandislarda psixologik salomatlikni mustahkamlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib muayyan darajadagi dolzarblik kasb etmoqda.

2. Bo'lajak muhandislarning psixologik salomatlikni shakllantirish va uning faoliyat samaradorligiga ta'sirini o'rganish va tadqiq qilish masalasi psixologiya uchun muhim bo'lgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xorij tajribasi, Rossiya olimlari va O'zbekistonlik tadqiqotchilar rahbarligida olib borilgan tadqiqot natijalarini hisobga olib muayyan maqsadlar asosida tashkil etiladigan bo'lajak muhandislarning psixologik salomatlikni rivojlantirish tizimi o'zining alohida maqsadi, vazifalari va tadqiqot dasturiga ega bo'lishi lozim. Ushbu dastur orqali bo'lajak muhandislarning psixologik salomatlikni bugungi holati va kelajakdagi istiqbollari hakida tegishli tasavvurlarni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Соби́ров.А.А. «Виды психологической защиты личности в спорте и в жизни»
2. Sobirov.A.A Bo'lajak muhandislarda psixologik salomatlikni shakllantirish
3. Гринь Е. И. Личностные ресурсы преодоления психического выгорания у работников: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Краснодар, 2009. 24 с.
4. Карпов В. Е. Совершенствование средств саморегуляции психического состояния хоккеистов высшей квалификации в игровой деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Челябинск, 2002. 21 с.
5. Sobirov A. Психическое здоровье //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

IQTISODIYOT

O'ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shirinova Nigina Bobir-qizi
Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-IIQT21 guruh talabasi

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan mutanosib ravishda tubdan isloh qilindi va hozirda milliy an'analar va ilg'or jahon tajribasini o'z ichiga olgan soliqlar amal qilmoqda. Ushbu maqolada soliq izimidagi islohotlar, uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: soliq, real daromad, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, byudjet, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, bonus, investitsiya.

ОСОБЕННОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

Нигина Ширинова
Студент группы 3-ИИКТ21 факультета экономики и туризма

Аннотация: За годы независимости налоговая система Республики Узбекистан была радикально реформирована в пропорции с развитием экономики страны, и в настоящее время действуют налоги, вобравшие в себя национальные традиции и передовой мировой опыт. В этой статье рассматриваются реформы налогового следа, его особенности.

Ключевые слова: налог, реальный доход, малый бизнес, частное предпринимательство, бюджет, юридическое лицо, физическое лицо, бонус, инвестиции.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TAX SYSTEM IN UZBEKISTAN

Nigina Shirinova
Student of group 3-IIKT21, Faculty of Economics and Tourism

Annotation: During the years of independence, the tax system of the Republic of Uzbekistan was radically reformed in proportion to the development of the country's economy, and now taxes are practiced, which include national traditions and advanced world experience. This article highlights the reforms in the tax regime, its distinctive features.

Key words: tax, real income, small business, private enterprise, budget, legal entity, individual, bonus, investment.

Soliqlar tizimi mohiyati jihatdan bir xil, o'zaro bog'liq bo'lgan va markazlashgan pul fondiga hamda boshqa davlat fondlariga tushadigan soliq turlarining yig'indisidir. Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillar yig'indisiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi. Demak, bu yerda tizim iqtisodiy kategoriyani o'z ichiga oladi. U asosan soliq undirishni tashkil etish masalalarini o'rgatadi. Bu tizimning roli va tuzilishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan aniqlanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunish demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Soliqlar tizimi umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimidan iborat.

Soliq Kodeksining 23-moddasida e'tirof etilganidek, O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlarni va majburiy to'lovlarni quyidagi guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

Soliqlar soliq solish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgariidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki yuklab yuborilgan mahsulotlar qiymati bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliq kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

Soliq tizimida aholining real daromadlari o'sishiga ko'maklashadigan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan keng ko'lamli soliq islohotlari amalga oshirildi. Ayniqsa, byudjet va soliq tizimini liberallashtirish jarayoni iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'ldi.

Agar 1991 yilda soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 41,2% ni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yillar davomida oqilona siyosatni amalga oshirish natijasida bu ko'rsatkich deyarli ikki baravar kamaydi. Soliq stavkalarini optimallashtirish va soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish tufayli ushbu ko'rsatkich bugungi kunda 20,8% ni tashkil etadi. Soliq tizimi va uning elementlari O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida batafsil bayon etilgan.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Soliqlarga quyidagilar kiradi: a) yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i; b) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; c) qo'shilgan qiymat solig'i; d) aktsiz solig'i; e) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar: - yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; - ortiqcha foyda solig'i; - bonus (obuna va tijorat aniqlash). f) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; g) mol-mulk solig'i; h) yer solig'i; i) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq; k) transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq.

2. Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi: a) ijtimoiy fondlarga majburiy to'lovlar: - yagona ijtimoiy to'lov; - fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; - byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar; b) Respublika yo'l fondiga majburiy to'lovlar: - Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar; - Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar; v) umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash budjetdan tashqari jamg'armasiga majburiy ajratmalar; D) davlat boji; e) bojxona to'lovlari; e) tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im va xizmatlarning ayrim turlarini taqdim etish.

Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin: - yagona soliq to'lovi; - yagona yer solig'i; - tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari uchun belgilangan soliq [2]. Ta'kidlanganidek, mamlakatda soliqqa tortish tartibining ikki turi mavjud, ya'ni: umumiy va soddalashtirilgan tizimlar. Yirik korxonalar soliqlarni umumiy tartib asosida to'laydilar, kichik biznes va qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari esa bir nechta soliqlar va majburiy to'lovlar evaziga soddalashtirilgan (yagona) soliq to'laydilar. Amaldagi soliqlar nafaqat davlat byudjetini etarli miqdordagi moliyaviy resurslar bilan ta'minlabgina qolmay, balki mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ham rag'batlantiradi.

Davlatning soliq siyosati uning iqtisodiy—moliya siyosatining ajralmas tarkibiy qismidir va unga bog'liq holda olib boriladi, chunki soliq munosabatlari moliya munosabatlarining muhim tarkibiy qismidir.

Soliq siyosati davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'zining mustaqil soliq siyosatiga ega bo'ladi va uni amalga oshiradi.

Soliqlar pul munosabatlarini ifoda etib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi, bozor iqtisodiyotining zaruriy qismidir. Soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun soliq munosabatlari chuqur o'rganilib, undan ilmiy xulosalar chiqarilishi lozim.

Hozirgi davr soliq siyosatining asosini Respublikamiz 1-Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va jahon amaliyotida tan olingan iqtisodiy taraqqiyotning besh tamoyili tashkil etadi. Ana shu tamoyillarga tayangan holda respublikamizda soliq sohasida chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan soliq siyosatining ikki yo'nalishi mavjud bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi.

1. Korxonalar va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati. Eng avvalo, korxonalar va tashkilotlarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkinligini hisobga olish. Ularni moliyaviy mustaqilligi, erkin baho belgilashlariga to'sqinlik qilmaslik va byudjetga soliq to'lovlari belgilanayotganda faqat demokratik asosda soliqlarni undirishni tashkil etish zarurdir. Hozirgi vaqtda soliqlar bir tomondan korxonalarda taqchil, eksportbop, raqobatga bardosh bera oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni ko'paytirishga, ikkinchi tomondan tovar bahosini oshirib sotgan hodda mehnatsiz yoki kam mehnat bilan topilgan daromadlarni cheklashga qaratilmog'i zarur.

2. Soliq siyosatida aholining turli xil guruhlariga nisbatan xilma-xil yondashish zarurdir. Nochor, kam ta'minlanganlarga iloji boricha soliqdan ko'proq imtiyozlar berish va kam kuch sarflab ko'p daromad oluvchi yoki boshqa yengil daromad topuvchilarga nisbatan yuqori progressiyali soliq stavkalarini qo'llashdan iboratdir.

Soliq siyosatini amalga oshirishda uning strategiyasi va taktikasining asoslangan bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Soliq strategiyasi uzoq yillarga mo'ljallangan, soliq munosabatlaridagi muhim yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarning majmuasini ko'rsatuvchi uzoq yillik rejadir.

Soliq taktikasi esa soliq strategiyasining har bir ma'lum davr (yil, chorak) da amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq tadbiriy choralar ko'rsatiladigan qisqa mudtdagi rejadir. Taktika strategiyadan kelib chiqishi lozim.

O'zbekistonda soliq tizimi 2019 yilda qabul qilingan soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. Soliq tizimi o'z-o'zini baholash printsipiga asoslanadi, bu erda soliq to'lovchilar o'z soliqlarini hisoblash va hisobot berish uchun javobgardir. O'zbekistonda soliq tizimi daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, mol-mulk solig'i va ijtimoiy sug'urta badallarini o'z ichiga olgan bir nechta soliq turlarini o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimi ishbilarmonlik muhitini yaratish va

iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan muhim islohotlarni amalga oshirdi. O'zbekistonda soliq tizimining ayrim o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. O'z-o'zini baholash printsiplari: O'zbekistonda soliq tizimi o'z-o'zini baholash printsiplari asoslanadi, bunda soliq to'lovchilar o'z soliqlarini hisoblash va hisobot berish uchun javobgardir. Bu soliq to'lovchiga muvofiqlik yukini yuklaydi, shuningdek, soliq tizimida ko'proq moslashuvchanlik va samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

2. Progressiv daromad solig'i stavkalari: O'zbekistonda daromad solig'i stavkasi progressiv bo'lib, stavkalari 12% dan 22% gacha. Bu shuni anglatadiki, yuqori maosh oluvchilar o'z daromadlarining yuqori foizini soliqlarda to'laydilar, past maosh oluvchilar esa past foizni to'laydilar.

3. QQS imtiyozlari: O'zbekistonda QQS stavkasi 15% bo'lsa-da, ayrim tovarlar va xizmatlar uchun ba'zi imtiyozlar mavjud. Masalan, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va ta'lim xizmatlari QQSdan ozod qilingan.

4. Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq tizimi: yillik daromadi ma'lum chegaradan past bo'lgan kichik korxonalar ma'muriy yukni kamaytiradigan va soliqni hisoblash jarayonini soddalashtiradigan soddalashtirilgan soliq tizimiga ega.

5. Ijtimoiy sug'urta badallari: ish beruvchilar o'z xodimlari nomidan ijtimoiy sug'urta badallarini to'lashlari shart, badal stavkasi xodimning ish haqining 25% miqdorida belgilanadi. Bu O'zbekistonda pensiya va ijtimoiy sug'urta tizimlarini moliyalashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonda QQS stavkasi 15% ni tashkil qiladi va u ko'pchilik tovarlar va xizmatlarga tegishli. Aktsiz solig'i tamaki va alkogol mahsulotlari kabi ayrim tovarlardan olinadi. Mulk solig'i stavkasi mulkning soliq solinadigan qiymatining 1% ni tashkil qiladi.

Ushbu soliqlardan tashqari, ish beruvchilar o'z xodimlari nomidan ijtimoiy sug'urta badallarini to'lashlari shart. Ijtimoiy sug'urta badali stavkasi xodim ish haqining 25 foizini tashkil etadi, 20% pensiya jamg'armasiga va 5% ijtimoiy sug'urta fondiga to'g'ri keladi.

Umuman olganda, O'zbekistondagi soliq tizimi hukumatning daromadlarga bo'lgan ehtiyojlarini adolatli va samarali soliq tizimiga bo'lgan biznes ehtiyojlari bilan muvozanatlashtirishga mo'ljallangan. O'z-o'zini baholash printsiplari va kichik biznes sub'ektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimi kabi islohotlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston investitsiya va iqtisodiy o'sish uchun yanada qulay muhit yaratishga harakat qilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, so'nggi yillarda tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning faoliyatiga ko'maklashish, ularning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada mustahkamlash, shu jumladan soliqqa tortish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning mavqeini mustahkamlash uchun qulay muhit yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Soliq stavkalarini optimallashtirish davlat byudjeti daromadlari tarkibida muhim sifat o'zgarishlariga olib keladi. Eng muhimi, korxonalar daromadlaridan olinadigan soliqlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va resurs soliqlari ulushini oshirishdir. Ushbu holat faol investitsiya faoliyati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.12news.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi. - T.: «Adolat», 2015 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi moliya Vazirligi ma'lumotlari.



Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'tgan.
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materiallarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882
Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

Bosishga ruxsat etildi 20.07.2023. Buyurtma № 7349.
«Buxoro viloyat bosmaxonasi» MChJda chop etildi.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)



